
M. A. SHOLOKOV
TINCH
DON

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

| Ilgarigi berilmalar miqdori _____ | |
|---|---|
| | |

UO'K 821.161.1-31
KBK 84(2Ros-Rus)
Sh 76

Rus tilidan *Odil SHARAPOV* tarjimasi

Rus adabiyoti namoyandasi, yozuvchi Mixail Aleksandrovich Sholoxov ushbu kitobda Don kazaklari hayotini Grigoriy Melexov, Panteley Prokofyevich, Stepan Astaxovlar misolida atroflicha tasvirlaydi. Ayniqsa, Grigoriy va Aksinya o'rtasidagi muhabbat tuyg'usini o'ziga xos ravishda juda jo'shqin misollar orqali ifodalay olgan.

Roman ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan bo'lib, 1965-yilda Sholoxov ushbu romani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Ushbu asar kitob javoningizdan munosib o'rin egallaydi, degan umiddamiz.

TOSHKENT SHAHAR YASHNOBOD TUMANI
№ 2021/19-25
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

ISBN 978-9943-6583-3-2

© M.A. Sholoxov, 2021
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021

*Ardoqli yerimizni haydagan so'qa emas,*
*Yerlarni payhon qilgan – otlarning tuyoqlari,*
*Yerimizga sochilgan – kazaklarning boshlari,*
*Tinch Donimiz ko'rki esa – nuqul beva-juvonlar,*
*Yetim-yesir, go'daklar – bu o'lkaning gulidir.*
*Ajdodlarning ko'z yoshi to'lqinlangan suvidir.*

*– Ey, tinch Don, ey, qadrdon otaxon!*
*Nega muncha loyqalanib oqasan?*
*– Qaynar buloq tublarimda qaynasa,*
*Oppoq baliq suvlarimda o'ynasa –*
*Loyqalanib oqmaymanmi tag'in ham?*

(*Qadimiy kazak qo'shiqlaridan*)

## *BIRINCHI QISM*

### I

Melexovlar qo'rg'oni – qishloqning eng chekkasida. Mol qo'rasining eshigi shimolga – Donga qaragan. Sakkiz sarjin keladigan qiyalikdan, ustini baxmal o't qoplagan xarsang toshlar orasidan to'g'ri daryo bo'yiga tushiladi: qirg'oqda sadafday tovlanib yotgan chig'anoqlar, to'lqinda yuvilaverib ko'kish tusga kirgan shag'allar ilon izi bo'lib yotadi, nariyog'i – shamolda mavj urib, bo'tana bo'lib qaynab oqayotgan Don daryosi. Sharq tarafida, g'aram chetanlarining orqasida Getman ko'chasi, narigi tomoni siyrak burganzor, otlar payhon qilgan joni qattiq ajiriqzor yaslanib yotadi, ayrilishda cherkovcha, u yog'i jimirlab ko'ringan dasht, janubi – cho'qqili bo'r tog'lari. G'arbida – maydonni kesib o'tgan ko'cha to'g'ri soyliqqa tushib ketadi.

Turkiya bilan bo'lgan so'nggi urushlardan birida kazak Prokofiy Melexov, turk elidan, ro'mol o'rab olgan jajjigina bir ayolni olib keldi. Bu juvon odamdan qochar, g'amgin va javdiragan ko'zlarinigina har zamonda bir ko'rsatib qo'yardi. Shoyi ro'moldan allaqanday

begona hidlar kelar va uning gullariga xotin-xalajning havasi kelardi. Asira Prokofiyning qarindosh-urug'laridan o'zini olib qochib yurar, shu sababdan Prokofiyning otasi o'g'lining ro'zg'orini ajratib qo'ydi. O'sha-o'sha bo'ldi-yu, chol arazlab, o'g'linikiga sira qadam bosmadi.

Prokofiy sal orada o'ziga boshqa uy solib oldi: uyni ustalar qurdi, lekin molxonaning tevaragini o'zi chetan bilan o'rab oldi, kuzga yaqin begona yurtli g'amboda xotini bilan yangi uyga ko'chib o'tdi. Ko'ch ortgan arava orqasidan kelayotgan er-u xotinni tomosha qilish uchun ko'chaga katta-yu kichik yopirilib chiqqan edi. Ularning ketidan kazaklar miyig'ida kulib qolishgan, xotinlar shang'illashib bir-birlariga gap otishgan, bir gala yuvuqsiz shumtakalar Prokofiyning ketidan rosa qiyqirishgan edi; lekin Prokofiy chakmonining oldini baralla ochib, shudgorda ketayotgan odam singari, asta-asta qadam tashlar, qoraygan qo'li bilan xotinining nozik bilagidan ushlab olib, malla sochli boshini g'oz ko'tarib borardi. Faqat lunjida do'ppaygan bezday bir nima nari borib, beri kelar, chimirilgan qoshlari orasini andak ter bosgan edi.

O'sha-o'sha, uni qishloqda kamdan kam ko'radigan bo'ldilar, maydondagi yig'inlarda ham ko'rinmay qoldi. Prokofiy Don yoqasidagi uyida odam yovvoyisidek yashadi. Uning ustida qishloqda g'alati-g'alati gaplar tarqala boshladi. Yoyilmada buzoq boqib yurgan bolalar, har kuni kechga tomon Prokofiy xotinini ko'tarib, Tatar qo'rg'onga dovur olib ketganini ko'ramiz, degan gap topib keldilar, go'yo u xotinini qo'rg'onning eng tepasidagi, asrlardan beri ilmateshik bo'lib ketgan xarsang toshga suyab o'tqizib qo'yar, o'zi ham uning yoniga o'tirib olar, ikkovi anchagacha dashtga tikilisharmish. Shu alfozda kun botib ketguncha termilib o'tirishar emish, so'ngra Prokofiy xotinini chakmoniga o'rab, yana ko'tarib uyga qaytar emish. Butun qishloq xalqi bunday qiliqning sababini bilolmay hayron edi, ayniqsa xotinlarga gap topilib qoldi. Prokofiyning xotini to'g'risida har xil gaplar yurar edi: bir xillari husnda tengi yo'q sohibjamolmish desa, boshqalar buning aksini gapirardi. Xotinlardan eng shallaqisi, soldat xotini Mavra, achitqi so'rash bahonasi bilan Prokofiynikiga kirib chiqqandan keyin bu jumboq yechildi. Prokofiy

achitqi uchun yerto‘laga tushib ketganda, Mavra paytini topib xotinni ko‘rib olibdi, qarasa – Prokofiy o‘lgudek badburush turk xotinini yetaklab kelgan ekan...

Sal o‘tmay, ro‘moli qiyshayib qolgan Mavra qizarib-bo‘zarib, bir gala xotinlarni tor ko‘chaga yig‘ib olib, vaysab ketdi:

– Voy ovsinlar-ey, Prokofiy uning nimasiga uchibdi-ya? Koshki, xotin siyoqi bo‘lsa... Na dumba bor, na bel, biram xunukki! Qishlog‘imizdagi qizlarning undan o‘lsa o‘ligi ortiq. Anavining beli – arinikidanam nozik, salga uzilib ketadi, ko‘zlari qop-qora, piyoladek, xudoyo tavba qildim, ajinaday alanglab, yutaman deydi. Og‘iroyoq bo‘lsa kerak, o‘lay agar!

– Og‘iroyoq? – taajjublandilar xotinlar.

– Men ham yosh emasman, uchtasini katta qilganman, bilaman axir.

– Afti qanaqa?

– Aftimi? Afti sap-sariq. Ko‘zlariyam bir holatda. Aftidan, begona yurtda ko‘ngli yorishmayotganga o‘xshaydi. Hammasiniyam qo‘ying-u, Prokofiyning chalvarini kiyib yurganini aytmaysizmi?

Xotinlarning quti uchib, bab-baravariga: «Be!» – deb chuvillashdi.

– O‘z ko‘zim bilan ko‘rdim – erkakcha chalvar-u, lekin hoshiyasi yo‘q. Chamamda, erining uy ichida kiyadigan chalvari bo‘lsa kerak. Egnida uzun ko‘ylak, etagi ostidan savil qolgur chalvar chiqib turibdi, pochalarini paypog‘i ichiga tiqib olibdi. Diydorini bir ko‘rdim-u, ko‘nglim aynib ketdi.

Qishloqda, Prokofiyning xotini jodugar emish, degan mishmishlar tarqaldi. Astaxovning kelini (Astaxovlar Prokofiyga qo‘shni edi): «Troitsa bayramining ertasiga tongotar mahalida Prokofiyning xotinini yalangoyoq, yalangbosh holda molxonamizga kirib, sigirimizni sog‘ayotganini ko‘rdim», deb qasam ichibdi. Shundan keyin sigirining yelini tortilib, xuddi bolaning mushtumiday bo‘lib qolibdi, suti ham quribdi, o‘zi ham tezda harom o‘libdi.

O‘sha yili molga qirg‘in kelgan edi. Don yoqasidagi qumloq joy har kuni sigir-u buzoq o‘liklariga to‘lib ketardi. O‘lat yilqiga ham o‘tdi. Uyurda yurgan yilqilarning ham kundan kunga barakasi

uchaverdi. Ayni shunday mahalda qishloqning ko'cha-ko'ylariga xunuk bir ovoza tarqaldi...

Qishloq yig'inidan Prokofiynikiga kazaklar kelishdi.

Uy egasi peshayvonga chiqib ta'zim qilib:

– Nima xizmat bilan keldilar, muhtaram qariyalar? – deb so'radi.

Olomon churq etmay, zinapoya oldiga bostirib kelaverdi.

Nihoyat, shirakayfroq bir chol dag'dag'a qilib:

– Jodugaringni olib chiq bu yoqqa! Davraga olib so'roq qilamiz, – dedi.

Prokofiy ichkariga otilib kirdi, biroq dahlizda unga yetib olishdi. Ko'cha-ko'ydagilar Battol deb laqab qo'ygan bo'ydor to'pchi yigit, Prokofiyning boshini devorga tirab:

– Shovqinlama! Bekorga shovqinlama! O'zingga tegmaymiz, lekin xotiningni yerga jo qilamiz. Butun qishloq molsiz qolib qirilgandan ko'ra, o'zini o'ldirib qutulganimiz ma'qul. Ovozingni o'chir, bo'lmasa – boshingni urib devorni ag'daraman! – deb avrar edi.

– Sudra manjalaqini, molxonaga olib chiq!.. – deb vag'illashdi zinapoyada turganlar.

Prokofiy bilan bir polkda xizmat qilgan yigit, turk ayolining sochlarini qo'liga o'rab, ikkinchi qo'li bilan dodlagan og'zini mahkam bosib, yugurganicha uni dahlizdan sudrab olib chiqib, olomon oyog'i ostiga tashladi. Do'rillagan ovozlar ichida quloqni teshib yuborguday chinqiriq eshitildi.

Prokofiy olti kazakni uloqtirib-uloqtirib tashladi-da, yugurganicha mehmonxonaga kirib, devorda osig'liq qilichni olib chiqdi. Dahlizdagi kazaklar bir-birlarini itarishib, duv etib qochishdi. Prokofiy yarqiragan qilichini bosh ustida o'ynatib, zinapoyadan chopib tushdi. Olomonning kapalagi uchib, burchak-burchakka to'zib ketdi.

Chopishga shudi yo'q Battol to'pchining ketidan quvlagan Prokofiy, hujra yonida unga yetib olib, chap yelkasiga qilich soldi, u beligacha ikki nimta bo'lib tushdi. Chetan qoziqlarini sug'urayotgan kazaklar, g'aramdan oshib, dashtga qarab tumtaraqay qochdilar.

Yarim soatchadan so'ng olomon es-hushini to'plab, yana qo'rg'onga yaqinlashib keldi. Sir olishga kelgan ikki kazak, pisib dahlizga kirdi. Prokofiyning xotini qoniga belanib, boshi orqaga solingan holda, oshxona bo'sag'asida yotardi; jon azobida qari-

shib qolgan tishlari orasida qonga belangan tili to‘lg‘anar edi. Prokofiyning boshi titrar, ko‘zlari bir joyga tikilgancha qotib qolgan, big‘illagan bir parcha etni – chala tug‘ilgan chaqaloqni barra po‘stiniga o‘rar edi.

* * *

O‘sha kuni kechqurun Prokofiyning xotini qazo qildi. Prokofiyning onasi, rahmi kelib, chala tushgan bolani uyiga olib ketdi.

Chaqaloqni qizdirilgan kepakka yotqizishib, biya suti bilan boqib turishdi, bir oy o‘tgach, bu qoracha, turk bashara o‘g‘ilchaning o‘lmasligiga ko‘zlari yetgandan keyin cherkovga eltib cho‘qintirdilar. Unga Panteley deb bobosining ismini qo‘ydilar. Oradan o‘n ikki yil o‘tgach, Prokofiy Sibirdan – katorgadan bo‘shab keldi. Kalta qilib olingan mallarang, moshkichiri soqoli va egnidagi oddiy ruscha libosi uning kazak nusxasini buzib, begona odam shakliga kirgizgan edi. U o‘g‘lini yoniga olib, o‘z xo‘jaligini tiklashga kirishdi.

Panteley qorachadan kelgan, sho‘x yigit bo‘lib yetishdi. Basharasi ham kelishgan, qomati ham onasinikiga o‘xshar edi.

Prokofiy uni kazak qo‘shnisining qiziga uylantirib qo‘ydi.

Shundan keyin turk qoni bilan kazak qoni aralashib ketdi. Qishloqda «turklar» deb laqab olgan qirraburun, ajoyib, chiroylichiroyli kazaklar shulardan tarqaldi.

Otasi o‘lgandan keyin Panteley ro‘zg‘or ishlariga boshi bilan sho‘ng‘ib ketdi: tomlarni boshqatdan yoptirdi, partov yerlardan yarim desyatinasini o‘z yeriga qo‘shib oldi, tunuka tomli yangi og‘ilxona bilan omborxona qurdirdi. Uy egasining talabiga muvofiq, tunukasoz tunuka qiyqimlaridan ikkita xo‘roz surati yasab, omborxonaning tomi ustiga qoqib qo‘ydi. Qaqqayib turgan bu xo‘rozlar tomga juda yarashgan va Melexovning qo‘rasiga badavlat, to‘q xo‘jalik tusini bergan edi.

Panteley Prokofyevichning yoshi qaytgan sari yildan yilga yo‘g‘on tortib yapaloqlashib ketdi. O‘zi bukchayibroq yursa ham, lekin tetikkina chol edi. Panteleyning suyagi yo‘g‘on, oyog‘i oqsoq (yoshlik davrida imperator ko‘rigida poygada chap oyog‘i singan edi), chap qulog‘iga yarim oy nusxali kumush isirg‘a taqib yurardi, uning qora soqoli bilan sochining tusi to qariguncha ham

o‘zgarmadi; u juda serzarda, jahli chiqqanda o‘zini bosib ololmasdi, shu sababdan, bir zamonlar xushro‘y bo‘lgan xotinini bemahal qaritib qo‘ydi, uning yuzini endi ajin bosib ketgan edi.

Panteleyning uylangan katta o‘g‘li Petro onasiga o‘xshar: u jussasi kichik, puchuq burun, qo‘yko‘z yigit bo‘lib, bug‘doyrang sochlari jingalak-jingalak edi. Kichik o‘g‘li Grigoriy esa, otasiga tortgan: Petrodan olti yashar kichik bo‘lsa ham, bo‘yi unikidan bir qarich baland, dadasi singari qushburun, yonoq suyaklari turtib chiqqan, yuzi qizilmag‘iz, ko‘kimtir quralay qiyiq ko‘zlari o‘tday chaqnab turardi. Grigoriy ham xuddi otasiga o‘xshab bukchayibroq yurardi, hatto ikkisining kulishlarida ham o‘xshashlik bor, ota-bola bir xil, tirjayib kulishardi.

Otasining erka qizi, qo‘llari uzun, ko‘zlari katta-katta, hali bo‘yi yetmagan Dunyasha, Petroning xotini Darya va uning emizikli bolasi – Melexov oilasi shulardan iborat edi.

## II

Tong paytidagi tovlanib turgan osmonda bitta-yarimta yulduz ko‘rinadi. Bulutlar ostidan shamol yela boshladi. Daryodan ko‘tarilgan tuman bo‘r tog‘ini yoqalab, boshi yanchilgan ilon singari buralib, jarlar orasiga sudralib kirib ketmoqda. Don daryosining chap qirg‘og‘idagi qumloqlar, chakalaklar, botqoq-qamishzorlar, shudring bosgan daraxtzorlar sovuq shafaq nurida tovlanar edi. Oftob ufqdan bosh ko‘tarolmay qiynalayotganday edi.

Melexovlar qo‘rasida hammadan ilgari Panteley Prokofyevich uyg‘ondi. Chol sanamagul solib tikilgan ko‘ylagining yoqasini tugmalab, zinapoyaga chiqdi. O‘t bosgan hovliga kumushday shudring tushgan edi. Chol mollarini tor ko‘chaga haydab chiqardi. Darya ko‘ylakchan holda yugurganicha sigir soqqani o‘tib ketdi. Uning oppoq boldirlariga sutday shabnam sachrar, o‘tlar bosilib, molxonagacha bilinar-bilinmas iz tushib qolar edi. Panteley Prokofyevich Darya bosgan o‘tlarning yana ko‘tarilishini birpas tomosha qilib turdi-da, uyga kirib ketdi.

Lang ochiq deraza tagida olcha daraxtidan to‘kilgan nimrang, so‘lg‘in gul barglari ko‘rinadi. Grigoriy qo‘llarini ikki yoqqa tashlab, mukka tushib uxlamoqda.

– Grigoriy, baliq oviga borasanmi?

– Nima? – deb so‘radi u shivirlab va oyoqlarini karavotdan osiltirib o‘tirib oldi.

– Yur, boraylik, saharda baliq ovlaylik.

Grigoriy pishillay-pishillay, jomakor chalvarini qoziqdan olib kiydi-da, pochalarini oppoq jun paypoq ichiga tiqdi, dastagi mayishgan kavushini anchagina ovora bo‘lib, zo‘rg‘a kiydi.

Grigoriy otasiga ergashib dahlizga chiqayotganda:

– Onam qarmoqqa ilish uchun don bo‘ktirganmikin? – deb so‘radi bo‘g‘iq ovoz bilan.

– Bo‘ktirib qo‘yibdi. Sen qayiq yoniga boraver, men hozir ortingdan chiqaman.

Chol dimlab pishirilgan xushbo‘y javdarni etagiga soldi, to‘kilganlarini ham kafti bilan sidirib oldi-da, chap oyog‘ini siltab oqsaganicha pastlikka tushib ketdi. Grigoriy qayiqda tumtayib o‘tirar edi.

– Qayoqqa hayday?

– To‘g‘ri Qora jarga. Daraxt cho‘kkan joyda baliq ovlab ko‘ramiz, anovi kuni o‘tirgan joyimizga.

Qayiq tumshug‘i bilan yer chizib, suvga tushdi-da, suzib ketdi. Daryo uni chayqaltirib, qiyshaytirib oqizib keta boshladi. Grigoriy eshkakni suvdan olmay, haydayverdi.

– Haydasang-chi, axir.

– O‘rtasiga borib olaylik-chi.

Qayiq daryoning tez oqadigan joyidan o‘tdi-da, chap sohilga qarab yo‘l oldi. Qishloqda qichqirishayotgan xo‘rozlarning bo‘g‘iq ovozi bu yerga arang yetib kelar edi. Suv tagidan chiqib turgan g‘adir-budur qora xarsangga qayiq yonboshi bilan suykalib o‘tdida, kamarga borib to‘xtadi. Qirg‘oqdan besh sarjin nariroqda suvga cho‘kkan qayrag‘ochning egri-bugri shoxlari dikkayib chiqib turardi. Loyqa ko‘piklar girdobdan chiqolmay gir aylanishardi.

– Sen ipni chuvataver, men qarmoqqa don ilaveraman, – deb shivirladi chol Grigoriyga va qo‘lini iliqqina ko‘vacha ichiga suqdi.

Sochib tashlangan don suvni sachratib yubordi, xuddi birov «chuv» deb yuborganday bo‘ldi. Grigoriy bo‘kkan donlarni qarmoqqa ilayotib kulimsiradi.

– Kelaver, baliqlar, kelaver, katta-yu kichiging aralash ilinaver.

Suvga tushib doirachalar hosil qilgan qarmoq ipi bora-bora taranglashdi va qo'rg'oshini suv tagiga tegishi bilan yana bo'shashib qoldi. Grigoriy oyog'i bilan qarmoq yog'ochini bosib turib, asta tamaki xaltasini ola boshladi.

– Ov bo'lmaydi, dada... Oy oxirlab qolgan.

– Gugurt opkeganmiding?

– Ha.

Chol tamakisini tutatib oldi-da, suvdan dikkayib chiqib turgan daraxt butog'i orqasida so'nib borayotgan quyoshga qarab qo'ydi.

– Zog'ora baliq har vaqt tortaveradi, oy oxirida ham.

– Qiziq, mayda baliq donni yeb qochyapti, – dedi Grigoriy xo'rsinib.

Qayiq yonida allanima shalop etganday bo'lib, suv chayqalib ketdi: tilladek qip-qizil, xuddi ikki gaz keladigan bir zog'ora baliq ayri dumini gajak qilib shopillatib suv betiga chiqdi. Qayiq ichiga suv sachradi.

– Endi hushyor bo'l! – dedi Panteley Prokofyevich va ho'llangan soqolini yengi bilan artdi.

Cho'kkan qayrag'och yonida, panjaga o'xshab tarvaqaylagan quruq shoxlar orasida birvarakay ikkita zog'ora baliq suvdan sakradi; uchinchisi, sal kichikrog'i kamar tagida biltanglab, buralib sapchir edi.

* * *

Grigoriy toqati toq bo'lib, maxorka o'ragan qog'ozning ivib ketgan bir uchini hadeb chaynar edi. Nursiz oftob nayza bo'yi ko'tarildi. Qarmoqqa iladigan don tamom bo'lganidan ta'bi xira bo'lgan Panteley Prokofyevich labini cho'chchaytirib, qimir etmay turgan qarmoq yog'ochining uchiga tikilganicha qotib qolgan edi.

Grigoriy qog'ozga o'ragan tamakisining qoldig'ini «puf» etib og'zidan uchirib yubordi-da, uning ketidan xo'mrayib qarab qoldi. O'zini barvaqt uyg'otib, uyqudan qoldirgan otasini ichida rosa koyir edi. Och-nahor tamaki chekkani uchun uning og'zidan jizg'in hidi

kelardi. Hovuchida suv olib ichmoq uchun engashganida, suvdan yarim gaz baland turgan qarmoq yog‘ochining uchi qimirlab ketib, sekin-sekin egila boshladi.

– Tort! – dedi chol entikib.

Grigoriy hovliqib qarmoqni tortdi, biroq shu on qarmoq yog‘ochining uchi suvga kirib ketib, kamonday egilib qoldi. Allaqanday zo‘r kuch bo‘y bermasdan sandip yog‘ochni pastga tortardi.

– Mahkam ushla! – deb shang‘illadi chol qayiqni qirg‘oqdan haydab.

Grigoriy harchand urinsa ham qarmoqni tortib ololmadi. Yo‘g‘on kanop ip chirt etib uzildi. Grigoriy muvozanatini yo‘qotib gandiraklab ketdi.

Qarmoqqa don ilishga qo‘li kelmay qolgan Panteley Prokofyevich:

– O‘ziyam xirsday ekan-a! – dedi shivirlab. Grigoriy hayajon aralash iljayib qo‘ydi va boshqa qarmoqni kanopga bog‘lab, yana suvga tashladi.

Qo‘rg‘oshin suv tagiga yetar-yetmas yog‘ochning uchi yana egildi.

– Ha, qochqoq!.. – deb po‘ng‘illadi Grigoriy va daryoning tezoqar tomoniga sudragan baliqni suv tagidan o‘zi tomon arang burib oldi.

Qarmoqning ipi suvni vishillab kesganda, uning orqasida suv ko‘kish parda hosil qilardi. Panteley Prokofyevich kalta barmoqlari bilan eshkak dastasini o‘ynardi.

– Suvga bur! Mahkam ushla, tag‘in kanopni chirt etib uzib yubormasin!

– Uzib bo‘pti!

Katta, to‘q sariq zog‘ora baliq yuzaga bir chiqdi-yu, suvni ko‘pirtirib, yapaloq boshi bilan yana sho‘ng‘ib kirib ketdi.

– Sudrashini qara, qo‘limni tomiri tortishib qoldi... Yo‘q, qocholmaysan!

– Qo‘yvorma, Grishka!

– Qo‘yvormayman!

– Ko‘zingga qara, qayiq tagiga kirib ketmasin!.. Hushyor bo‘l!

Grigoriy nafasini rostlab olib, yonboshlab qolgan baliqni qayiq yoniga sudrab keltirdi. Chol uni eshkak bilan urmoqchi bo‘ldi-yu, lekin baliq bor kuchi bilan yana sho‘ng‘ib ketdi.

– Boshini suvdan chiqar! Og‘ziga havo kirsin, darrov muloyim bo‘ladi-qoladi.

Grigoriy, holdan toygan baliqni suv betiga chiqarib olib, yana qayiq yoniga sudradi. Baliq og‘zini kappa-kappa ochib, g‘adir-budur qayiqqa tumshug‘ini urib olib, harakatdan to‘xtadi, uning qimirlab turgan tilla qanotlari rang-barang tusga kirib tovlanar edi.

Panteley Prokofyevich uni eshkak bilan turtdi.

– Hafsalasi pir bo‘ldi! – dedi tomog‘ini qirib qo‘yib.

Yana yarim soat chamasi o‘tirishdi. – Zog‘ora baliqlar sayili tarqagan edi.

– Yig‘ishtir, Grishka. So‘nggisini ushladik shekilli, endi boshqasi kelmaydi.

Yig‘ishtirinib bo‘lishdi. Grigoriy qayiqni qirg‘oqdan itarib yubordi. Daryoning o‘rtasidan ham o‘tishdi. Grigoriy otasining avzoyidan bir nima demoqchi bo‘lganini payqab qoldi, biroq chol tog‘ tagida tizilishgan qishloq qo‘ralariga qarab-qarab qo‘yar, lekin churq etmasdi.

Nihoyat, chol oyog‘i ostida yotgan qopning bog‘ichini o‘ynab, mijg‘ovlanib gap boshladi:

– Nazarimda sen, Grigoriy, ana shu, Aksinya Astaxova bilan...

Grigoriy qip-qizarib ketib, yuzini teskari o‘girib oldi. Oftob olgan sergo‘sht, yo‘g‘on bo‘yniga ko‘ylagining yoqasi botib, oppoq iz tushib qoldi.

Chol endi zahrini sochib, achitib-achitib gapirar edi:

– Sen bola, oyog‘ingni qarab bos, otam indamaydi deb yurgandirsan hali. Stepan qo‘shnimiz bo‘ladi-ya! Qo‘shnining xotiniga ko‘z olaytirishga yo‘l qo‘ymayman. Axir bir baloga giriftor bo‘lishing turgan gap. Minba’d esingda bo‘lsin, bola: endi payqasam, kaltak yeysan!

Panteley Prokofevich mushtini mahkam siqib, ola-kula ko‘zlarini qisib o‘g‘liga tikildi va Grigoriyning yuzi dokadek oqarib ketganini ko‘rdi.

– Tuhmat, – deb g‘o‘ng‘illadi Grigoriy otasining yuziga tikka qarab.

– Ovozingni o‘chir!

– El og‘ziga elak tutib bo‘larmidi...

– Bas, itvachcha!

Grigoriy eshkaklarga mahkam yopishib oldi, har siltashda qayiq sapchib tushar, suv chayqalar, shovullar edi.

Kemalar to‘xtaydigan joyga yetguncha ikkisi ham churq etmadi. Qirg‘oqqa sal qolganda chol yana uni ogohlantirdi:

– Esingdan chiqmasin, tuzukmi? Bo‘lmasa, bugundan boshlab kechasi yurishlarni bas qilasan. Qo‘radan bir qadam siljimaysan, bilib qo‘y!

Grigoriy g‘iring demadi. Qayiqni joyiga bog‘lar ekan:

– Baliqni uyga kiritib beraymi? – deb so‘radi.

– Savdogarlarga oborib sot, – dedi chol jahlidan tushib, – tamaki puli qilarsan.

Grigoriy lablarini tishlab otasining ketidan kelarkan, ichida: «Meni tergab bo‘libsiz, dada, tushovlab qo‘yganingizda ham, shu kecha uyda turmayman» – der va ko‘zi bilan yeb qo‘yguday bo‘lib, otasining gardaniga tikilardi.

Grigoriy baliqni uyga olib kirib, tangalariga yopishgan qumni erinmay yuvib tozaladi-da, qulog‘idan cho‘p o‘tkazib oldi.

Darvoza oldida o‘z tengquri va qalin do‘sti Mitka Korshunovga to‘qnash kelib qoldi. Mitka kumush qoplagan kamar to‘qasini o‘ynab kelmoqda edi. Moy bosgan sarg‘ish qiyiq ko‘zlari behayo, qorachiqlari mushuknikiga o‘xshab chaqchaygan Mitka odamga tik qarolmay, o‘g‘ri singari alanglayverardi..

– Baliq ko‘tarib qolibsan, yo‘l bo‘lsin?

– Bugungi ovimiz. Savdogarlarga olib boraman.

– Moxovgami?

– Ha, o‘shanga.

Mitka ko‘zi bilan chamalab:

– O‘n besh qadoq kelar? – dedi.

– O‘n besh yarim. Tarozida tortib ko‘rdim.

– Men ham boraymi? Sotishib berarman.

– Mayli, yur.

– Shirinkoma berasanmi?

– Sotsak – bir gap bo‘lar, axir, ezmalikning nima keragi bor?

Tushki ibodatdan chiqqan xalq ko'chalarga tarqaldi.

Laqablari Shomil bo'lgan uch aka-uka barobar qadam tashlab, yonma-yon kelmoqda edilar.

Kattasi, qo'li cho'loq Aleksey – o'rtada kelar edi. Mundirining yoqasi torlik qilib, paydor bo'ynini siqib qaqqaytirib qo'ygan, siyrakkina, jingalak cho'qqi soqoli bir yoqqa qiyshayib qolgan, chap ko'zi tinmay uchib turardi. Bir zamonlar Aleksey otishni mashq qilayotganida qo'lidagi miltig'i portlab, tepkisining sinig'i yuziga tegib dabdalasini chiqargan edi. O'sha-o'sha, o'zidan o'zi ko'zi uchadigan bo'lib qolgan; yuzidagi tirtig'ining bir uchi sochlari tagigacha kirib ketgan. Chap bilagi uzilib tushgan, lekin Aleksey bir qo'li bilan ham bemalol tamaki o'rayveradi: tamaki xaltasini ko'kragiga bosib turib, bir o'ramga loyiq qog'ozni tishi bilan yirtib oladi, uni tarnovga o'xshatib buklab, ichiga tamaki soladi-yu, barmoqlari lip etib o'raydi-qo'yadi. Ko'z ochib yumguncha tayyor o'rog'liq tamakini tishlab, ko'zini uchirib, o't tilab turgan Alekseyni ko'rasiz.

Qo'lsiz bo'lsa ham, mushtlashishni Alekseyga chiqargan. Mushti ham u qadar aytadigan emas, atigi tomosha qovoqday keladi, xolos; u bir kuni qo'sh haydayotib, ho'kizidan achchiqlandi, qamchisini topolmay, bir musht soldi – ho'kiz shudgorda cho'zilib qoldi, quloqlaridan qon ketdi, u yotib-yotib zo'rg'a o'ziga keldi. Ikki ukasi – Martin bilan Proxorni akasidan hech ajratib bo'lmaydi. Bular ham xuddi Aleksey singari past bo'yli, yapaloq yigitlar, faqat qo'llari ikkitadan, xolos.

Grigoriy Shomillar bilan salomlashdi. Mitka yuzini shartta o'girib, o'tib ketaverdi. Maslenitsa bayramida mushtlash bo'lgan mahalda, Alyosha Shomil Mitkaning ikki tishini urib sindirgan, qulochkashlab shunday tushirgan ediki, bechora Mitka ikkita jag' tishini, poshna izlari tushib qolgan ko'm-ko'k muz ustiga tupurib tashlagan edi.

Alyosha yaqin kelib, besh marta ustma-ust ko'zini qisdi.

– Balig'ingni menga sotsang-chi!

– Mayli, ol.

– Qancha beray?

– Bir juft ho'kiz, ustiga xotiningni ham berasan.

Aleksey ko‘z qisib, cho‘ltoq qo‘lini o‘qtalib:

– Voy tentak-ey!.. Xo-xo-xo! Xotinni-ya... Bolalarini ham qo‘shib olasanmi? – dedi.

– Bolalari o‘zingga siylov, bo‘lmasa, Shomillardan nasl qolmaydi? – deb piching qildi Grigoriy.

Cherkov yonidagi maydonda xaloyiq to‘plangan. Cherkov mutasaddisi bir g‘ozni baland ko‘tarib baqirar edi, «Yarim so‘m! Sotamiz-u ketamiz. Kim oshdi?»

G‘oz hadeb bo‘ynini cho‘zar, nafratlanganday firuza ko‘zlarini qisib-qisib qo‘yardi.

Nariroqdagi ikkinchi davrada sochlari oqargan, ko‘kragiga krest va medallar taqib olgan bir chol qo‘llarini paxsa qilib gap sotar edi.

– Bobo Grishak Turkiyada bo‘lgan urushdan lof uryapti. Borib quloq solamizmi? – dedi Mitka, o‘sha tomonni ko‘zi bilan ko‘rsatib.

– Quloq solaman desak, balig‘imiz sasib, shishib ketadi-yu.

– Shishsa – tarozi bosadi, qaytaga yaxshi. Maydonda, o‘t o‘chirish anjomlari turadigan bostirma orqasidan Moxovlar uyining yam-yashil tomlari ko‘rinardi; bostirma tagida qurib qovjirab ketgan bochkalar o‘rnatilgan, shotilari singan o‘t o‘chirish aravalari turadi. Grigoriy bostirma yonidan o‘tayotib o‘xchib tupurdi-da, burnini berkitib oldi. Bochka orqasidan kamarini tishlab, chalvarini tugmalab bir chol chiqib keldi.

– Qistab ketgan ekan-da? – dedi Mitka uni mazax qilib.

Chol tugmasini solib bo‘lib, og‘zidan qayishni oldi.

– Senga nima?

– Burningni tiqish kerak edi! Soqolingni ham! Soqolingni! Kampiring bir haftagacha yuvib tozalolmasdi.

– Adabingni berib qo‘yaman, bachchag‘ar! – dedi chol achchiqlanib.

Mitka mushuk singari ko‘zlarini qisib qarab turaverdi.

– Voy sendaqa aslzodani qara-yu! Yo‘qol, itvachcha! Buncha o‘qrayasan? Qayish bilan tushirib qolaman!

Grigoriy kula-kula Moxovlar uyining zinapoyasi oldiga keldi. Zinapoya panjarasini aymoqi tok novdalari chirmab ketgan, olachalpak soya peshayvonga tushib turar edi.

– Ko‘rdingmi, Mitka? Kiroyi shunaqa yashasang...

– Tutqichiga ham tilla suvi yugurtirilgan. – Mitka eshikni qiya ochib ayvonga qaradi: – Haligi cholni shu yerga yuboradigan ekan... – deb piqirlab qo‘ydi.

– Kim u? – degan ovoz eshitildi ayvondan. Grigoriy iymanib ichkariga birinchi bo‘lib kirdi.

Baliqning dumi bo‘yalgan pol ustida sudralib borardi.

– Sizga kim kerak edi?

Savat kursi ustida bir qiz tebranib o‘tirardi. Qo‘lida qulupnay to‘la bir likopcha bor edi. Grigoriy uning bir dona qulupnayni qisib olgan qip-qizil lablarini indamay tomosha qilib turdi. Qiz boshini egib, kelgan yigitlarni ko‘zdan kechirdi.

Mitka Grigoriyning joniga oro kirdi. Yo‘talib:

– Baliq olmaysizmi? – deb so‘radi.

– Baliq? Hozir so‘rab kelaman.

Qiz turayotib kursini tebratib yubordi, sarpoychan kiygan guldor tuflisini shaloplatib ketdi. Uning oppoq yupqa ko‘ylagidan kun ko‘rinardi; ko‘ylak ostidan ko‘ringan oyoqlariga va ichki ko‘ylagining jim-jimador, serbar to‘rlariga Mitkaning ko‘zi tushdi. Boldirlarining oppoqligi va silliqligiga hayron qoldi, faqat do‘ppaygan tovonlarining terisi sarg‘ish edi.

Mitka Grigoriyni turtib:

– Grishka, yubkasiga qara... Shishadek, hamma yog‘i ko‘rinib turibdi-ya, – dedi.

Qiz yo‘lakdagi eshikdan yana qaytib kirib, ohistagina kursiga o‘tirdi.

– Oshxonaga opkiring.

Grigoriy oyoq uchida yurib, uyga kirib ketdi. Mitka bo‘lsa – oyoqlarini kerib, ko‘zlarini qisib qizning boshini, tilladay tovlangan sochlarini ikkiga ajratib turgan oppoq farqini tomosha qilardi. Qiz ham unga o‘ynoqi sho‘x ko‘zlarini tikib qarab turardi.

– Siz qayerliksiz?

– Shatlik.

– Kimning o‘g‘li bo‘lasiz?

– Korshunovning.

– Ismingiz nima?

– Mitriy.

Qiz pistoqirang tirnoqlariga tikilib turib, darhol oyoqlarini yig'ishtirib oldi.

– Qay biringiz baliq ovlaysiz?

– Grigoriy ovlaydi, u mening do'stim.

– Siz ovlamaysizmi?

– Hafsalam kelsa, men ham ovlayman.

– Qarmoq bilanmi?

– Qarmoq bilan ham ovlayveramiz, bizda uni ilgak deyishadi.

Qiz birpas jim bo'lib:

– Mening ham baliq oviga borgim keladi, – dedi.

– Mayli, ishqiboz bo'lsangiz – boraveramiz.

– Rostdanmi? Qanday qilib borsam ekan?

– Ilk sahar turish kerak.

– Turishga turaman-u, faqat birov uyg'otib qo'yishi kerak-da.

– Uyg'otib qo'yishim mumkin-u... Biroq otangiz nima derkin?

– Otam nima derdi?

Mitka iljaydi.

– O'g'ri deb o'ylamasmikin... itlariga talatsa-ya.

– Bo'lmagan gap! Eng chetdagi xonada bir o'zim yotaman. Derazasi mana bu. – Qiz barmog'i bilan ko'rsatdi. – Agar kelsangiz, derazamni tiqillating, darrov turaman.

Oshxonadan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovoz kelar, iymanib gapirayotgani Grigoriy, shang'illagani oshpaz xotin edi.

Mitka kazakcha kamarning qoraygan kumush to'qasini o'ynab jim turardi.

– Siz uylanganmisiz? – deb so'radi qiz sirli tabassum bilan.

– Nimaydi?

– Shunday, o'zim so'radim.

– Yo'q, bo'ydoqman.

Mitka qip-qizarib ketdi, qiz esa mevasi polga tushib ketgan qulupnay novdasini o'ynab, karashma bilan kulib turib so'radi:

– Rostini ayting, Mitya, qizlar sizni yaxshi ko'radimi?

– Bir xili yaxshi ko'radi, bir xili – yo'q.

№ 2021/N9-25

– Qani, ayting-chi... Ko'zlaringiz nima uchun mushuknikiga o'xshaydi?

– Mushuknikiga? – deb gangiq qoldi Mitka.

– Mushuknikidan sira farqi yo'q.

– Onamga tortgan bo'lsa kerak... Bunisiga men aybdor emasman.

– Shu vaqtgacha sizni nega uylantirishmaydi, Mitya?

Mitka darhol o'ziga keldi, qiz uni gapga solib, masxara qilayotganini sezdi-da, sarg'ish ko'zlarini pirpiratib:

– Kuyov bola hali yosh, – deb qo'ydi.

Qizning qoshlari chimirilib ketdi, qizarib-bo'zarib o'rnidan turdi.

Zinapoya tomondan oyoq tovushi eshitildi. Qizning noz-ishvali kulgisi Mitkani o'rtab yubordi. Ichkariga xo'jayinning o'zi – Sergey Platonovich Moxov kirib keldi: barvastadan kelgan Moxov katta shigrin botinkasini asta bosib, o'zini chetga olgan Mitkaning yonidan mag'rurona o'tib ketdi.

– Menda ishi bor ekanmi? – deb so'radi u yuzini o'girmay.

– Baliq olib kelishgan ekan, dada.

Grigoriy ham chiqib keldi; uning qo'lida hech narsa yo'q edi.

## III

Grigoriy tungi sayildan xo'roz bir qichqirgandan keyin qaytib keldi. Dahlizga kirishi bilan achitqi hidi va quritilgan dorivor o'tlarning xushbo'y isi dimog'iga urildi.

Grigoriy oyoq uchida yurib, astagina yotoq bo'lmasiga o'tib oldi-da, yechindi, bayramda kiyadigan hoshiyador chalvarini avaylab ilib qo'ydi, cho'qinib bo'lib, yotdi. Oyning xira nuri yoritgan polga deraza panjarasidan krest shaklida soya tushib turardi. Burchakda, gul solib tikilgan sochiqlar ostidan g'ira-shira yiltiragan kumush ikonalar ko'rinar, karavot ustidagi pardaga qo'ngan pashshalar bezovta bo'lib g'o'ng'illashardi.

Grigoriyni endigina uyqu eltganda oshxonadan akasining chaqalog'i chinqirib yig'lagani eshitildi.

Moylanmagan arava singari, beshigi g'iychillay boshladi. Darya uyqu aralash:

– Bas, ovozing o'chkur, haromi! Na uxlagani qo'yadi, na dam olgani, – deb po'ng'illadi, keyin sekin allalay boshladi:

*– Oymoma oting,*
*Qaylarga bording?*
*– Men yilqi boqdim.*
*– Xo'sh, nima topding?*
*– Oltin jabduqli*
*Ot tutib oldim.*

Grigoriy beshikning g'irchillashiga monand aytilgan ashula tovushi ostida uyquga ketayotib: «Ertaga Petro lagerga jo'naydi. Dashka bolasi bilan qoladi. Pichan o'rog'i o'zimizga qopti-da», – deb o'yladi.

Grigoriy boshini yostiqqa bosib yotib oldi, baribir alla tovushi eshitilardi:

*– Tulporing qayda?*
*– Eshik ortida.*
*– Eshik qayoqda?*
*– Suv olib ketgan...*

Shu payt bir ot qattiq kishnab yubordi, Grigoriy seskanib tushdi. Bu Petroning safda minadigan arg'umog'i edi, ovozidan tanidi.

Uvushib qolgan barmoqlari bilan ko'ylagini zo'rg'a tugmaladi, lekin ming'illagan alla ovozi uni yana elitdi:

*– G'ozlaring qayda?*
*– Qamishzorlarda.*
*– Qamishzor qayda?*
*– Qizlar o'rib ketibdi.*
*– Qizlar qayga ketibdi?*
*– Erga tegib ketibdi.*
*– Kazaklar qani?*
*– Urushda bari...*

Uyqu elitib bo'shashgan Grigoriy otxonaga zo'rg'a yetib bordi, otni yechib, tor ko'chaga olib chiqdi. Uchib yurgan mezon yuziga yopishib g'ashini keltirdi, o'sha zahotiyoq uyqusi o'chib ketdi.

Qiya tushgan oy nuri Don ustida hech kim qadam bosmagan oydin yo'l hosil qilgan edi. Daryoni tuman bosgan, osmon to'la yulduz. Arg'umoq orqa oyoqlarini avaylab bosadi. Suvga tushadi-

gan joy juda noqulay. Narigi tomondan o‘rdaklarning g‘ag‘illagani eshitiladi, qirg‘oq yonidagi ko‘lmak suvda mayda baliq ovlab yurgan laqqa biltanglab suvni shopillatib yubordi.

Grigoriy anchagacha suv bo‘yida turib qoldi. Qirg‘oqdan rutubat va mog‘or hidi anqirdi. Ot og‘zidan qatra-qatra suv tomar edi. Grigoriyning ko‘ngli ochilgan, dimog‘i chog‘, hech narsani o‘ylagisi kelmasdi. Qaytib kelayotib kun chiqar tomonga qaradi: osmon yorishgan, qorong‘ilik tarqalayotgan edi.

Oshxona oldida onasiga to‘qnash kelib qoldi.

– Grishkamisan?

– Boshqa kim bo‘lardi.

– Otni sug‘ordingmi?

– Sug‘ordim, – deb javob qildi Grigoriy istar-istamas.

Kampir etagidagi tappilarni zo‘rg‘a ko‘tarib, nimjon yalangoyoqlarini shapillatib qadam bosardi.

– Astaxovnikiga kirib, uni uyg‘otib chiqsang bo‘lardi. Stepan Petro bilan birga jo‘namoqchi edi.

Tong salqini Grigoriyga tetiklik bag‘ishlagan edi. Uning a’zoyi badani chumoli talaganday jimirlashardi. Uch hatlashda Astaxovlarning zinapoyasi oldiga borib yetdi. Eshik ochiq edi. Oshxonada, yerga solingan to‘shakda Stepan yotar, qo‘ltig‘ida xotinining boshi ko‘rinardi.

G‘ira-shira qorong‘ilik ichida Grigoriy Aksinyaning ko‘ylagi qayrilib, sonigacha ochilib qolganini ko‘rdi, sutdek oppoq oyoqlari yozilib yotar edi. Grigoriy birpas qarab turdi, tanglayi qurib, quloqlari shang‘illab, boshi cho‘yanday og‘irlashib ketdi.

U yoq-bu yoqqa o‘g‘rincha ko‘z tashlab, keyin ovozi o‘zgargan holda xirillab:

– Hoy, kim bor bu yerda? Turinglar! – dedi. Aksinya cho‘chib uyg‘onib ketib:

– Voy o‘lay, bu kim? Kim o‘zi? – deb yubordi. Yalang‘och qo‘li bilan paypaslana-paypaslana etagini topib, oyoqlarini berkitdi. Uyqusida tomgan so‘lakayi yostiqda dog‘ qoldirgan edi; ayol kishi tong otish oldida dong qotib uxlaydi.

– Menman. Sizlarni uyg‘otgani keluvdim, onam yubordi.

– Hozir turamiz... Hamma yoq ivirsib yotibdi, o‘tib ham bo‘lmaydi...

Burganing dastidan yerda yotamiz. Stepan, tursang-chi, qulog'ing karmi?

Grigoriy Aksinyaning ovozidan uning o'ng'aysizlanganini payqab, darhol iziga qaytdi.

* * *

Qishloqdan o'ttiztacha kazak yozgi lagerga jo'naydigan bo'ldi. Ular maydonga to'planishlari lozim edi. Soat yettiga yaqinlashganda usti brezent bilan yopilgan soyabonli aravalar, yozlik bo'z ko'ylak kiygan, yarog' taqingan otliq, piyoda kazaklar maydon sari kelaverdilar.

Petro peshayvonda shoshib-pishib so'kilgan qorinbog'ni tikar edi. Panteley Prokofyevich Petroning arg'umog'i atrofida aylanar – oxurga suli solib yegizar va ora-sira qiziga baqirib qo'yardi:

– Dunyashka, xaltaga qoq non solib, og'zini tikdingmi? Moyga tuz sepdingmi?

Loladay ochilgan Dunyashka qaldirg'och singari omborxona bilan uy orasida uchib yurar va otasining javrashiga qo'l siltab:

– Dada, siz o'z ishingizni qilavering, akamning buyumlarini shunday joylab beramanki, Cherkasskkacha qimir etmay boradi, – dedi.

Petro tasmani tupugi bilan ho'llayotib, otini imlab ko'rsatdi-da, otasidan so'radi:

– Yeb bo'ldimi?

Chol sipolik bilan:

– Kavshayapti, – deb javob qildi va g'adir-budur kafti bilan terlikni paypaslab ko'rdi. – Terlikka cho'p-chor yopishsa, bir bekat bosmasdanoq otning orqasini yag'ir qiladi.

– Yeb bo'lgandan keyin, To'riqni sug'orib qo'ying, dada.

– Grishka Donga olib tushadi. Hoy, Grigoriy, otni sug'orib kel!

Yulduz qashqa, baland bo'yli aslzod qora To'riq o'ynoqlar edi. Grigoriy otni darvozadan tashqariga olib chiqdi, chap qo'li bilan uning yolidan ushlab, lip etib minib oldi va yo'rttirib ketdi. Qiyalikka yaqinlashganda harchand jilovini tortsa ham, arg'umoq uni surib, jarga qarab chopganicha tushib ketdi. Grigoriy orqasiga tashlanib, ot ustida yotib olib jilovni tortar ekan, tepalikdan chelak ko'tarib

tushib ketayotgan ayolni ko'rib qoldi. Otni darhol chetga burdi-da, chang-to'zon ko'tarib, tikkasiga suvga tushdi.

Sollanib pastga tushib kelayotgan ayol Aksinya edi, u olisdan baqirib koyiy boshladi:

– Ha, quturgan shayton! Sal bo'lmasa, ot tagida qoluvdim-a! Hali shoshmay tur, bu qilig'ingni dadangga aytib qo'ymasam...

– Bas qil, hamsoya, hadeb koyiyverma. Eringni lagerga jo'natsang, men ham bir kuningga yarab qolarman.

– Sendaqa shaytonni boshimga uramanmi!

– Pichan o'rog'i boshlanganda o'zing ham yalinib qolarsan, – dedi kulib Grigoriy.

Aksinya taxta ustida turib, obkash bilan chelakka suv to'ldirib oldi va shamol hilpiratayotgan etaklarini tizzalari orasiga qisib, Grigoriyga qarab qo'ydi.

– Qalay, Stepaning tayyor bo'ldimi? – deb so'radi Grigoriy.

– Sening nima ishing bor?

– Qiziqsan-a... So'rasa gunohkor bo'ladimi?

– Ha, tayyor bo'ldi. Xo'sh?

– Bundan chiqdi, yolg'iz qolarkansan-da?

– Ha.

Arg'umoq boshini suvdan ko'tardi, og'zidan oqib tushayotgan suvni chaynab, Donning narigi betiga tikilib, oldingi oyog'i bilan tepindi. Aksinya ikkinchi chelagini ham to'lg'azdi-da, obkashni yelkaga olib, tebrana-tebrana yuqoriga chiqa boshladi. Grigoriy ham otni «chu» deb, ketma-ket chiqaverdi. Shamol Aksinyaning yubkasini hilpiratar, qoraygan gardaniga tushib turgan gajak sochlarini o'ynar edi. Rang-barang ipak bilan gul solib tikilgan taqiyasi chambarak sochlari ustida olovday tovlanardi, pistoqirang ko'ylagi yubkasiga qistirilgan edi, uning tirsillagan yag'rinida, to'lishgan yelkalarida ko'ylagi tarang bo'lib, tortilib turardi. Aksinya engashib, tepaga chiqib borar, yag'rinining chuqurchasi ko'ylak ostidan yaqqol bilinib turardi. Qo'ylagining qo'ltiq taglari terdan sarg'ayib, dog' bo'lib ketganiga Grigoriyning ko'zi tushdi, u Aksinyaning har bir harakatini ko'zdan qochirmay borardi. Aksinya bilan yana gaplashgisi kelar edi.

– Hali, eringni sog‘inib qolmasang deyman? A?

Aksinya keta turib, qayrilib kulimsiradi.

– Bo‘lmasa-chi... Sen uylanib ko‘r, – Aksinya chuqur nafas oldida, entikib gapira boshladi, – oldin uylan, yoringni sog‘inasanmi, yo‘qmi, keyin bilasan.

Grigoriy otini niqtab, uning yoniga keldi-da, ko‘zlariga tikildi.

– Lekin ba’zi xotinlar erlarini kuzatganiga biram suyunishadiki... Masalan, Petro ketsa, Daryamizning semirishini ko‘rasan.

Aksinya burnini chimirib, tez-tez nafas olardi; sochlarini tuzatarkan:

– Er – qora yer, qonimizni so‘radi, – dedi. – Xo‘sh, seni qachon uylantiramiz?

– Bilmadim, otam nima der ekan. Askarlikka borib kelganimdan keyin uylansam kerak.

– Hali yoshsan, uylanma.

– Nega?

– Boshingga balo bo‘ladi, – Aksinya yer ostidan qarab, lablarini qimtib kulimsiradi. Shunda Grigoriy uning do‘rdoq lablari behayo, qalin ekanligini payqab qoldi.

U ot yolini o‘ynayotib:

– Uylangim yo‘q. Shundoq ham birontasiga yoqib qolarman, – dedi.

– Ko‘z tagiga opqo‘yganing bormi?.

– Shungayam tashvishmi?.. Sen Stepanni jo‘natganingdan keyin...

– Men bilan o‘ynashma, bola!

– O‘ynashsam o‘ldirasanmi?

– Stepanga aytaman.

– Stepaningni men...

– Chiranma botir, yig‘lab yurmagin tag‘in.

– Meni qo‘rqitib bo‘psan, Aksinya!

– Qo‘rqitayotganim yo‘q. Sen qizlardan qolma. Ular senga dastro‘mol tikib berishsin, lekin menga qarayverma.

– Nima qilsang ham qarayveraman.

– Qarasang, qarayver.

Aksinya u bilan yarashganday jilmaydi-da, so‘qmoqdan chiqib, chetlab o‘tib ketmoqchi bo‘ldi. Lekin Grigoriy otini ko‘ndalang qilib, yo‘lini to‘sdi.

– Qo‘yvor, Grisha!

– Qo‘yvormayman.

– Jinnilik qilma, axir, men erimning buyumlarini tugib berishim kerak.

Grigoriy iljayib, otini o‘ynatar edi, ot depsinib Aksinyani jar yoqasiga taqab qo‘ydi.

– Qo‘yvorsang-chi, shayton! Odamlar yuribdi, ko‘rib qolsa nima deyishadi?

Aksinya ko‘zlarini javdiratib u yoq-bu yoqqa qaradi-da, xo‘mrayib, orqasiga qaramay jo‘nab ketdi.

Zinapoya ustida Petro ota-onasi bilan xayrlashmoqda edi. Grigoriy arg‘umoqni egarlab bo‘ldi. Petro qilichini avaylab ushlab, zinapoyadan yugurgancha tushdi va Grigoriyning qo‘lidan jilovni oldi.

Arg‘umoq safarga chiqayotganini sezib, joyida tek turolmasdan yer tepinar va suvlig‘ini chaynardi. Petro bir oyog‘ini uzangiga, qo‘lini egar qoshiga qo‘yib, otasiga gap uqtirardi:

– Samanni ishlatib charchatib qo‘ymang, dada! Kuzgacha semirsin – sotamiz. Grigoriygayam ot olish kerak. Dashtdagi pichanni sota ko‘rmang: bilasiz-ku, bu yil hazilakam pichan chiqmaydi.

– Hay, xudoga topshirdim, oq yo‘l,– dedi chol.

Petro og‘ir gavdasini lip etib egar ustiga oldi, kamar bilan tang‘igan ko‘ylagining barlarini tekisladi. Arg‘umoq darvoza tomon qadam tashladi. Qilich dastasi oftobda yilt-yilt qilar, u otning qadam tashlashiga monand tebranardi.

Bolasini qo‘lida ko‘targan Darya eriga ergashdi. Hovlining o‘rtasida qaqqayib qolgan ona esa yeng uchi bilan ko‘zini, etagi bilan qizargan burnini artardi.

– Akajon, somsa esdan chiqibdi! Somsa!.. Kartoshka somsa!..

Dunyashka echkiday irg‘ishlab darvoza tomon yugurdi.

– Buncha baqirasan, esi past! – deb jerkib berdi uni Grigoriy.

– Somsa esdan chiqibdi-ya! – deb Dunyashka eshikka suyanib yig‘lab yubordi; ko‘z yoshlari qorakuya tekkan yuziga va yuzidan koftasiga oqib tusha boshladi.

Darya kaftini peshonasiga qo‘yib, chang orasida zo‘rg‘a ko‘ringan oq ko‘ylakli erining ketidan qarab qoldi. Panteley Prokofyevich darvozaning chirigan ustunini tebratib ko‘rdi-da, Grigoriyga qaradi.

– Darvozani tuzatib qo‘y, burchagiga ustun o‘rnat. – Chol o‘ylanib qoldi, xuddi yangi bir xabar keltirgan kishiday, – Petroni ham jo‘natdik, – deb qo‘ydi.

Grigoriy chetan devorning narigi yog‘ida Stepanning ham hozirlanayotganini ko‘rdi. Yashil yubka kiyib yasangan Aksinya ot yetaklab eri yoniga keldi. Stepan kulimsirab, unga bir nimalar dedi. So‘ngra xotinini bamaylixotir o‘pdi va anchagacha qo‘lini uning yelkasidan olmay turdi. Oftobda kuygan, ishda qoraygan kosovday qo‘li Aksinyaning oppoq koftasi ustida dog‘ kabi ko‘rinardi. Stepan Grigoriyga orqasini o‘girib turardi: sochlari tekis qilib olingan yo‘g‘on bo‘yni chetan orasidan bemalol ko‘rinardi, xotiniga engashganda eshilgan sap-sariq mo‘ylovining uchini ham ko‘rish mumkin edi.

Aksinya negadir kular, boshini sarak-sarak qilar edi, Stepan uzangiga oyoq qo‘yganda bo‘ydor qora arg‘umoqning beli bukchayib ketdi. Otni yo‘rttirib darvozadan chiqqan Stepan egarga mahkam joylashib o‘tirib olgan edi. Aksinya uzangisini ushlab yonida borar, boshini yuqori ko‘tarib, erining ko‘zlariga muhabbat bilan suqlanib tikilardi.

Shu yo‘sinda ular qo‘shnilarining qo‘rasidan o‘tib muyulishga yetgach, burilib ketishdi.

Grigoriy ko‘zlarini katta ochib, ancha vaqtgacha ularning ketidan tikilib qoldi.

## IV

Kechga tomon havo aynab momaqaldiroq boshlandi. Qishloqning ustini qo‘ng‘ir bulutlar qoplab oldi. Shamoldan quturgan Don daryosining to‘lqinlari ko‘pirib, dam-badam qirg‘oqqa kelib urilardi. Chorbog‘larning orqasida chaqmoq chaqib osmon yorishib ketar,

momaqaldiroq ovozidan yer yuzi larzaga kelardi. Bulutlar ostida qanotlarini yoyib gir aylanib kalxat uchar, qarg'alar qag'illashib, uni tala-tala qilishardi. G'arb tomondan sovuq qora bulut Don bo'ylab bosib kelaverdi. Soyliqning nariyog'ida osmon qorayib dahshatli tus oldi, dasht ham bir nimani sezganday sukunatga cho'mdi. Qishloqda taraqlatib deraza darpardalarini yopa boshladilar, kechki ibodatdan chiqqan kampirlar cho'qinib uylariga shoshilar edi, maydon ustida chang-to'zon quyuni ko'tarildi, bahor issig'ida qaqragan yer ustiga yomg'ir birinchi tomchilarini sepa boshladi.

Dunyashka kokillarini selkillatib yugurib borib tovuqxonaning darchasini berkitdi-da, hurkkan ot singari burnining kataklarini kerib qo'raning qoq o'rtasida turib qoldi. Ko'chada bolalar irg'ishlashib o'ynar edilar. Sakkiz yashar qo'shni bola Mishka bir oyoqlab gir aylanardi, otasining kattakon shapkasi ko'zlarigacha tushgan – u chinqirib ashula aytar edi:

*Yomg'ir, yomg'ir, ayama!*
*Biz boramiz dalaga.*
*Isoga cho'qinamiz.*
*Xudoga sig'inamiz.*

Dunyasha yer tepinib o'ynayotgan Mishkaning loy sachragan yalangoyoqlariga qarab havasi kelardi. Uning ham yomg'irda sakrab o'ynagisi kelar, sochlarining yomg'ir suvida ivib, qalin va jingalak bo'lib o'sishini istardi: xuddi ana shu Mishkaning o'rtog'i singari, tikan ustiga yiqilib tushishini o'ylamasdan, qo'li bilan ko'cha turpog'ini changallab, oyoqlarini osmonga ko'targisi kelardi, biroq deraza orqasidan onasi xo'mrayib qarar, lablarini qimtib qo'yar edi. Dunyashka xo'rsinib, uyga kirib ketdi. Yomg'ir jadallab, jalaga aylandi. Tomning qoq tepasida momaqaldiroq qarsillab, sadosi Donning nariyoqlarigacha yoyilib ketdi.

Chol bilan terlab-pishib ketgan Grigoriy o'rog'liq baliq to'rini hujradan dahlizga tortib chiqarishdi.

– Kanop bilan juvoldizni opkel, darrov! – deb buyurdi Dunyashkaga Grigoriy.

Oshxonada chiroq yoqishdi. Darya o'tirib to'rni tika boshladi. Kampir, chaqaloqni tebratayotib, javrab ketdi:

– Seniyam biron kun tinch o‘tirganingni ko‘rarmikanman-a, chol? Chiroqni o‘chirib yotinglar, kundan kunga lampamoyning narxi oshyapti, hadeb yoqaverasanmi, axir? Shunday mahalda ov nima qilsin? Sizlarni jin chaqiryaptimi o‘zi? Suv ostida qolib ketmanglar tag‘in, ana, ana quyishini qaragin! Xudoyo tavba, yo bibi Maryam, o‘zing asragil...

Ko‘kish yog‘du oshxonani bir lahza yoritib yubordi, oraga sukunat cho‘kdi, hatto, deraza darpardasini yomg‘ir qitirlatgani ham aniq eshitilardi, birdan momaqaldiroq qars etib ketdi. Dunyashka chiyillab to‘rga mukka tushib yotib oldi, Darya bo‘lsa, eshik va derazalarga qarab naridan-beri cho‘qinib qo‘ydi.

Kampir oyog‘iga surkanayotgan mushukka qo‘rqa-pisa nazar tashlar edi.

– Dunyashka! Haydasang-chi, axir... xudoyo tavba, gunohimdan kech. Dunka, mushukni qo‘raga chiqarib tashla, bolam. Pisht-ey, yer yutkur! Ha, harom o‘l...

Grigoriy to‘rni qo‘lidan tushirib yuborib, qotib-qotib kular edi.

– Hiringlayverma! Bas! – deb do‘q qildi Panteley Prokofyevich. – Qani, tezroq tikib bo‘linglar. Anov kuni tayinlovdim-u, birontang ham to‘rga qaramabsan.

– Shu tobda ov qoldimi? – deb kampir yana gap boshlagan edi, biroq chol jerkib tashladi:

– Bilmasang – tek o‘tiraver! Baliq bo‘rondan qo‘rqadi, o‘zini qirg‘oqqa uradi. Hozir ayni sterlyad balig‘ini tutadigan payt. Daryo ham loyqalangan bo‘lsa kerak. Qani, Dunyashka, chiqib quloq sol-chi, jarariq ayqirib oqayaptimikin?

Dunyashka istar-istamas yoni bilan yurib eshikka chiqdi.

– To‘rni kim sudraydi? Darya suvga tushmasin, ko‘kragi sovuqqa chalinib qolishi mumkin, – deb vaysar edi kampir.

– Men Grishka bilan bir to‘rni sudraymiz, ikkinchi to‘rga Aksinyani chaqirish kerak, yana bironta ayol bo‘lsa yetadi.

Dunyashka entikib kirib keldi. Kipriklarida yomg‘ir tomchilari titrab turardi. Ust-boshidan zaxtob qora tuproq hidi kelardi.

– Ayqirib oqayapti, vahimasiga turib bo‘lmaydi!

– Biz bilan borasanmi?

– Yana kim boradi?

– Qo‘shni ayollarni chaqiramiz.

– Boraman!

– Unday bo‘lsa chakmonni yopinib chopqillaganingcha Aksinyanikiga bor. Agar xo‘p desa, Frolova Malashkaniyam chaqira kelsin!

– Malashkaga sovuq cho‘t emas, – deb kuldi Grigoriy. – O‘ziyam bo‘rdoqi cho‘chqaday semiribdi.

– Grishunka, quruq pichan ola ketgin, – deb maslahat berdi onasi, – ko‘kragingga qo‘yib olasan, bolam, bo‘lmasa badaningdan sovuq o‘tib ketadi.

– Grigoriy, sen borib pichan opkel. Kampirning gapi jo‘yali.

Dunyashka birpasda xotinlarni boshlab keldi. Aksinya yirtiq kofta bilan ko‘k yubka kiyib, belini arqon bilan tang‘ib olgan, kiyimi uni pakanaroq va ozg‘inroq qilib ko‘rsatardi. U Daryaga qo‘shilib kula-kula ro‘molini yechdi, sochlarini chambarchas tugib oldi-da, ro‘molini qaytadan o‘rayotib, Grigoriyga sovuqqina nazar tashladi. Bo‘sag‘ada paypoqlarini bog‘layotgan Malashkaning ovozi xirillab eshitilardi.

– Qop oldilaringmi? Xudo haqi, qop-qop baliq olib kelamiz.

Hammalari qo‘raga chiqishdi. Ivigan yerga shatirlatib yomg‘ir quyar, ko‘lmak suvlarni ko‘pirtirar, jilg‘a-jilg‘a bo‘lib Donga oqib tushardi.

Grigoriy oldinda borar, bekordan bekorga suyunar edi.

– Ehtiyot bo‘ling, dada, ariq bor.

– Qorong‘ini qara-ya!

– Aksinya, mendan ajralma, kemaga tushganning joni bir, – deb xirillab kulardi Malashka.

– Iye, Grigoriy, axir, bu Maydannikovlar pristani emasmi?

– Xuddi o‘zi.

– Shu yerdan... boshlaymiz... – deb baqirdi shamoldan dami qaytgan Panteley Prokofyevich.

– Amaki, gapingizni eshitmadim! – deb xirilladi Malashka.

– Ovga baraka deb, sudrayver... Chuqur yog‘iga o‘zim tushaman. Chuqurga sen tushma, deyapman... Malashka, hoy qulog‘i kar, alvasti, to‘rni qayoqqa sudrayapsan? Chuqurga men tushaman dedim-ku!.. Grigoriy, Grishka! Aksinya qirg‘oqdan haydab kelaversin!

Don shovullaydi. Qiyalab quyayotgan jalani shamol tilka-tilka qilib uchiradi.

Grigoriy oyog'i bilan paypaslab-paypaslab, beligacha suvga kirdi. Muzdek suv ko'kragigacha kelib, badanidan sovuq o'tib ketdi. To'lqin uning yuzini, chirt yumib olgan ko'zini ayamay savalaydi. To'r, do'mbiradek shishib, pastga qarab sudraydi. Grigoriyning jun paypoq kiygan oyoqlari qumoqda sirg'anib ketadi. Qo'lidan to'r chiqib ketay-chiqib ketay deydi. Borgan sari suv chuqurlashadi. U yog'i o'pqon. Oyog'i tiyg'anib ketadi, oqim uni o'rtaga sudraydi, suv tagiga tortib ketmoqchi bo'ladi. Grigoriy o'ng qo'li bilan kuchining boricha qirg'oqqa tomon suzadi. Tagi yo'q o'pqonning vahimasidan uning kapalagi uchadi. Nihoyat, oyog'i yumshoq yerga o'rnashadi-yu, ko'ngli joyiga tushadi. Qandaydir bir baliq tizzasiga kelib uriladi.

Qayerdandir, zulmat ichidan otasining ovozi keladi:

– Chuqurga yaqinlashma, olisroq yur!

To'r qiyshayib, yana chuqurga sudray boshladi, kuchli oqim oyog'i ostidagi qumni oqizib ketdi; Grigoriy boshini g'oz ko'tarib, suzar va tupurinar edi.

– Aksinya, tirikmisan?

– Hozircha tirikman.

– Yomg'ir ham tinay deyaptimi?

– Yomg'ir tinsa orqasidan jala quyib beradi.

– Sekinroq gapir, otam eshitsa – baloga qolasan.

– Otangdan qo'rqib yuribsanmi hali...

Ikkisi bir lahza jim qolishdi. Ust-boshlari shalabbo, yelimday yopishib, qimirlashga imkon bermaydi.

– Grisha, qirg'oq yonidagi to'nkalar ostida qamar bo'lsa kerak. To'r solib ko'raylik.

Dahshatli bir zarba Grigoriyni ancha nariga uloqtirib tashladi. Xuddi jar tepasidan bir palaxsa tosh qulab tushganday suv shopillab chayqalib ketdi. Qayerdandir, qirg'oq bo'yidan Aksinyaning:

– A-a-a-a! – deb chinqirgani eshitiladi.

Kapalagi uchgan Grigoriy sho'ng'ib chiqdi-da, ovoz kelgan tomonga suzdi.

– Aksinya!

Shamolning guvillagani, suvning shaloplagani eshitiladi, xolos.

Grigoriy vahimaga tushib:

– Aksinya! – deb baqiradi.

Otasining: – Ho-oy! Gri-go-riy! – degan ovozi olisdan arang eshitiladi.

Grigoriy qulochkashlab suzadi. Oyog'iga yopishqoq bir narsa o'ralashadi, ushlab qarasa to'r ekan.

– Grisha, qayoqda qolding?.. – deydi Aksinya yig'lamsirab.

Grisha emaklab qirg'oqqa chiqar ekan:

– Nega ovoz bermading? – deb o'shqiradi.

Ikkisi cho'qqayib o'tirib chigil bo'lib qolgan to'rni qaltiray qaltiray chuvata boshlashadi. Shu on parchalangan bulut orasidan yalt etib oy ham ko'rinadi. Soyliqning nariyog'idan momaqaldiroqning gurullashi eshitiladi. Yerga singolmay qolgan suv yilt-yilt etadi. Yomg'irda yuvilib tozalangan osmon tip-tiniq, musaffo.

Grigoriy to'rni chuvatayotib Aksinyaga tikiladi. Uning yuzlari dokadek oqarib ketgan, lekin qip-qizil do'rdoq lablari kulib turadi.

Aksinya nafasini zo'rg'a rostlab olib:

– Meni bir urib qirg'oqqa uchirib yubordi-ya, – dedi, – esimni yo'qotayozibman. Jon-ponim chiqib ketdi! Sen cho'kib ketding deb o'ylovdim.

Ularning qo'llari bir-biriga tegib ketadi. Aksinya qo'lini Grigoriyning yengiga suqmoqchi bo'ladi.

– Qo'ling biram issiqki, – deydi u zorlanib, – men bo'lsa, muzlab qoldim. Biqinimga sanchiq turdi.

– O'ziyam nahang ekan, mana, to'rni teshib ketganini qara!

Grigoriy to'rni yoyib ko'rdi, to'rning qoq o'rtasida ko'ndalangiga bir yarim gazcha joyi teshilib ketgan edi.

Qirg'oqdan allakim chopib kelmoqda. Grigoriy uning Dunyashka ekanini payqab olisdan:

– Iping bormi? – deb so'radi.

– Ha, bor.

Dunyashka xalloslab, ularning yoniga yetib keldi.

– Bu yerda nima qilib o'tiribsiz? Dadam, darrov chaqirib kel, deb yubordilar. Bizlar bir qop sterlyad tutdik! – Dunyashka sevinchini ichiga sig'dira olmas edi.

Aksinyaning tishi-tishiga tegmay, dag‘-dag‘ titrab, to‘rni yamadi. So‘ngra qizishib olish uchun chopisha-chopisha dahana (daryoning etak qismi) tomonga ketishdi.

Panteley Prokofyevich suvda murdaniki singari shishib ketgan barmoqlari bilan tamaki o‘ramoqda; chol turgan joyida o‘ynab turib maqtanardi:

– Bir to‘r solganda sakkiztasini tutdik, ikkinchi safar... – nafasini rostlab tamakisini tutatib, oyog‘i bilan qopni ko‘rsatadi, – shuncha ovladik.

Aksinya qiziqib tomosha qiladi. Joni qattiq sterlyadlar qopda qimirlashib yotadi.

– Sizlar nega u yoqda qolib ketdingiz?

– Laqqa baliq to‘rni teshib yubordi.

– Tikib oldilaringmi?

– Bir amallab teshilgan joylarini butunladik.

– Qani, bo‘lmasa – muyulishgacha bir to‘r solib ko‘ramiz-da, keyin uyga qaytamiz. Grishka, sudra to‘rni, nega tumtayib turibsan?

Grigoriy tarashadek qotgan oyoqlarini zo‘rg‘a sudraydi. Aksinya shu qadar qaltiraydiki, uning titragani to‘r orqali Grigoriyga bilinib turadi.

– Buncha titraysan?

– Shuncha qilsam ham o‘zimni bosolmayapman.

– Menga qara, Aksinya... Ke qo‘y, chiqamiz, padariga la’nat bunaqanggi baliq ovining!

Katta bir zog‘ora baliq to‘rga kelib uriladi. Grigoriy qadamini tezlatib, to‘rni o‘rab, suvdan tortadi; Aksinya engashib olib, qirg‘oqqa chopib chiqadi. To‘rdan «shuv» etib suv oqib tushadi, to‘r ichida tipirchilagan baliq ko‘rinadi.

– Soyliqdan ketamizmi?

– Daraxtzordan kesib chiqamiz. Hoy, tezroq bo‘linglar!

– Boravering, yetib olamiz. To‘rni chayqab olib, jo‘naymiz.

Aksinya ijirg‘anib yubkasini siqdi va baliq solingan qopni yelkalab oldi, tez-tez yurib ketdi. To‘rni Grigoriy ko‘tarib olgan edi. Yuz sarjin keladigan joyga yetib borganlaridan keyin Aksinya g‘ingshib:

– Toqatim qolmadi! Oyoqlarim og‘rib ketdi, – dedi.

– Manavi bulturgi g‘aram ichiga kirib isinib olasanmi?

– Koshki edi. Uyga yetguncha sovqotib o‘ladiganga o‘xshayman.

Grigoriy g‘aramning ustki qavatini olib tashladi-da, orasini yorib chuqurcha yasadi. Bosilib yotgan pichandan issiqqina mog‘or hidi anqirdi.

– Orasiga kir. Xuddi pechka ustida yotgandek bo‘lasan.

Aksinya qopni uloqtirib tashlab, to bo‘ynigacha g‘aram ichiga kirib ketdi.

– Ana, rohat!

Sovuqdan dag‘-dag‘ titrayotgan Grigoriy uning yoniga kelib yotdi. Aksinyaning ho‘l sochlaridan ajoyib xushbo‘y hid kelar edi. Boshini orqasiga tashlagan Aksinya yarim ochiq og‘zi bilan bir tekisda nafas olardi.

– Sochlaringdan g‘alati hid keladi. Bilasanmi, allanechuk oq gulning hidi... – dedi Grigoriy shivirlab.

Aksinya indamadi. Uning xumor ko‘zlari yiroqlarga, tugay deb qolgan oyning gardishiga tikilgan edi.

Grigoriy qo‘lini cho‘ntagidan chiqardi-da, to‘satdan uning boshini o‘z pinjiga tortdi. Aksinya o‘zini shartta orqaga tortib o‘tirib oldi.

– Qo‘yvor!

– Ovozingni chiqarma.

– Qo‘yvor deyman, bo‘lmasa – dodlayman!

– Aksinya, sabr qil, axir...

– Panteley amaki!..

Do‘lanazor orqasidan Panteley Prokofyevichning:

– Ha, adashib qoldingmi? – degan ovozi eshitildi.

Grigoriy tishlarini tishlariga qo‘yib, g‘aram ustidan irg‘ib yerga tushdi.

– Nega dodlayapsan? Yo adashib qoldingmi? – deb so‘radi chol yaqinroq kelib.

Aksinya g‘aram yonida turib, ro‘molini qaytadan tuzatib bog‘lar, ust-boshlaridan bug‘ ko‘tarilardi.

– Adashganim-ku yo‘g‘-a, lekin sovqotib o‘lishimga sal qoldi.

– Voy, esi past xotin-ey, mana g‘aram, ichiga kir-da, isinib ol.

Aksinya kuldi va engashib qopni oldi.

## V

Lager joylashgan Setrakov qishlog‘igacha oltmish chaqirim keladi. Petro Melexov bilan Stepan Astaxov bir aravaga tushgan edilar. Bularga yana uchta hamqishloq kazaklar hamroh bo‘lishgan: biri – qalmoq bashara cho‘tir yigit – Fedot Bodovskov, ikkinchisi – leyb gvardiya ataman polkining muhlatsiz kazaki – laqabi Xristonya bo‘lgan Xrisanf Tokin, uchinchisi Persianovka qishlog‘iga borayotgan Ivan Tomilin degan to‘pchi edi. Birinchi bekatda otlarni xashaklatib olgandan keyin Xristonyaning ikki vershoklik[1] oti bilan Stepanning to‘riq arg‘umog‘ini aravaga qo‘shdilar. Qolgan uch ot egarlangan holda arava ketidan borardi. Aravani Xristonya haydardi; u, ko‘pchilik atamanlilar singari norg‘il, dali-g‘uli bir kazak edi. Xristonya arava oldida ikki bukilib o‘tirib olib, soyabon arava ichkarisiga yorug‘ tushirmasdi; u hadeb do‘rillagan ovozi bilan otlarni hurkitardi. Usti yap-yangi brezent bilan yopilgan soyabon aravada Petro Melexov, Stepan va to‘pchi Tomilin tamaki chekishib yonboshlashib yotardilar. Fedot Bodovskov orqada piyoda kelmoqda edi; aftidan, uning qiyshiq qalmoqi oyoqlari uncha-muncha chang yo‘lni pisand qilmasligi ko‘rinib turardi.

Xristonyaning aravasi eng oldinda borardi. Uning ketidan yana yettitami, sakkizta arava hamda egarlangan, salt otlar kelar edi.

Yo‘l-yo‘lakay qahqaha, qiyqiriq ovozlari, mungli qo‘shiq sadolari, otlarning do‘pir-do‘piri, uzangilar jangir-junguri dashtni boshiga ko‘tarardi.

Petro qoq non solingan xaltani boshiga qo‘yib yotar, shopday malla mo‘ylovini burab xayol surardi.

– Stepan!

– Nima?

– ...Kel, sallotchasiga bir ashula qilaylik.

– Kun issiq. Tomog‘im qaqrab ketdi.

– Yaqin oradagi qishloqlarda qovoqxona yo‘q. Xomtama bo‘lma!

– Qani, boshla. Sen-ku, uncha do‘ndirolmaysan-a. Lekin Grishkang xushovoz, avjiga chiqqanda ovozi kumushday jaranglaydi. Ikkimiz kechalari sayilni rosa obod qilar edik.

---

[1] Bo‘yi ikki gaz-u ikki vershok keladigan ot. Podshoh armiyasiga har bir kazak, ikki gaz-u yarim vershokdan past bo‘lmagan ot minib kelishi shart edi.

Stepan boshini orqaga tashlab, bir yo'talib oldi-da, shirador yo'g'on ovoz bilan xirgoyi qila boshladi.

*Qosh qoraymay osmonda*
*Cho'lpon yulduz ko'rindi...*

Tomilin xotin kishi singari kaftini jag'iga tirab turib, ingichka ovozini barala qo'yib yuboradi. Petro murtining uchini yamlab kulimsiraydi va kuchanib ashula aytgan chorpahil to'pchining chakka tomirlari ko'karib, bo'rtib chiqqanini tomosha qiladi.

*Suvga kech chiqqan juvon*
*Daryo tomon burildi ...*

Boshini Xristonya tomonga qo'yib yotgan Stepan, qo'lini yerga tirab, bu yonboshiga o'girilib oladi: uning baqaloqqina bo'yni qizarib ketadi.

– Xristonya, qo'shilsang-chi, axir!

*Yigit ko'rgach xotinni*
*Egarlaydi otini.*

Stepan chaqchaygan ko'zlarini Petroga tikib iljayib qo'yadi, Petro tishlab turgan mo'ylovini qo'yvorib, ashulaga qo'shiladi.

Xristonya soqol-mo'ylov bosib ketgan og'zini katta ochib shu qadar bo'kiradiki, hatto brezent soyabon larzaga keladi:

*Arg'umoqqa minadi,*
*Darhol yetib keladi...*

Xristonya bir gaz keladigan sarpoychan oyog'ining panjasini ko'ndalang qo'yib, Stepanning yana ashula boshlashini kutadi. Stepan bo'lsa, ko'zlarini chirt yumadi-da, zavq bilan yana qo'shiqni boshlaydi: u goh tovushini pasaytirib, goh barala qo'yib avjiga chiqadi.

*Ruxsat etgin o'rgilay,*
*Men otimga suv beray...*

Yana Xristonya ashulaga qo'shilib, do'rillagan ovozi bilan hammaning ovozini bosib ketadi. Yonma-yon kelayotgan aravadagi kazaklar ham ashulaga jo'r bo'lishadi. Temir qoplagan arava g'il-

diraklari shaldiraydi, chang-to‘zondan otlar pishqirishadi, cho‘zib aytilgan qo‘shiqning kuchli sadolari toshqin daryo singari yo‘l-u cho‘llarni bosib ketadi. Qurigan yantoqzor ichidan kuygan qo‘ng‘ir qiyoqlar orasidan oq qanot churak uchib chiqadi. Cho‘chigan qush qaqalagancha jar tomonga uchadi, boshini burib, firuza ko‘zlari bilan qator tizilishib ketayotgan oq soyabonli aravalarga, tuyoqlari bilan chang-to‘zon ko‘targan otlarga, yo‘l yoqasida kelayotgan, oq ko‘ylaklariga chang o‘tirgan odamlarga qarab-qarab qo‘yadi. Bechora churak jarga yetganda, hayvonlar toptagan qoq yerga qop-qora bag‘ri bilan tapillab tushadi va yo‘lda nima bo‘layotganini ko‘rmay, tek yotaveradi. Yo‘lda esa aravalar hamon shaldirab ketmoqda, ter bosgan egarlog‘liq otlar hamon istar-istamas yo‘rtib bormoqda; lekin ko‘ylaklari sarg‘ayib ketgan kazaklar esa oldingi aravaning yoniga borib, uning atrofiga to‘planadilar, hoholashib kuladilar.

Stepan bir qo‘li bilan brezent soyabonni ushlab arava ustida tikka turib boradi, ikkinchi qo‘lini qo‘shiqqa hamohang o‘ynatadi; qo‘shiqlar uning og‘zidan yomg‘irday yog‘iladi:

*Yonginamda o‘tira ko‘rma,*
*Yonginamda o‘tira ko‘rma,*
*Ko‘rgan odam gap qiladi,*
*Oshiq ekan deb kuladi.*
*Meni sevasan,*
*Izlab kelasan;*
*Kelasan yonimga,*
*Tegasan jonimga.*
*Zotim so‘rsang – aslzodaman...*

O‘nlab kishilarning do‘rillagan ovozlari unga jo‘r bo‘lib, dashtni boshiga ko‘taradi.

*Zotim so‘rsang – aslzodaman;*
*Zotim o‘g‘ri,*
*Zotim o‘g‘ri*
*Emasdir.*
*Sevganim bor –*
*Knyaz o‘g‘li.*

Fedot Bodovskov hushtak chaladi: otlar hurkib arava shotisidan chiqib ketguday bo'lishadi, Petro soyabon ostidan boshini chiqarib kuladi va shapkasini qo'lga olib silkitadi. Stepan bo'lsa, kiftini qoqib iljayadi, yuzi yorishib ketadi; havoga ko'tarilgan chang-to'zon aravalar ketidan ergashib boradi; Xristonya esa, kamarsiz, uzun ko'ylagini hilpiratib, jiqqa terga botib o'yin tushmoqda, goh qosh chimirib, pildiroqday gir aylanadi, goh inqillab sakrab-sakrab depsinadi, o'shanda – ipakday mayin chang bosgan yo'l ustida tarvaqaylagan oyoq panjalarining izi tushib qoladi.

## VI

Kazaklar, ustini sap-sariq qum bosgan yaydoq bir qo'rg'on yonida tunagani to'xtashdi.

G'arb tomondan bulut bosib kelmoqda, uning qora qanotlari ostidan yomg'ir tomchilamoqda. Kazaklar otlarni hovuzda sug'orishdi. To'g'on atrofidagi tollar shamolda egilib salom qilishardi. Ustini yo'sun bosib ketgan ko'lmak suv betida mayda-mayda to'lqinlar tangadek jimirlashar, chaqmoq shu'lasi hovuzda qing'ir-qiyshiq aks etardi. Shamol xuddi sadaqa berayotganday qaqragan yer bag'riga sepalab yomg'ir sochardi.

Tushovlangan otlar o'tloqqa qo'yib yuborildi, uch kishi ularga qorovul qilib qo'yildi. Qolganlar gulxan qalab, arava shotilariga qozon osishga kirishdilar.

Xristonya osh pishirar edi. U cho'mich bilan qozon kovlar ekan, davra qurib o'tirgan kazaklarga hikoya aytardi:

– ...O'ziyam xuddi mana shunga o'xshagan baland tepa edi. Men rahmatli dadamga: «Ataman[2]dan ruxsatsiz bu tepani qazlaydigan bo'lsak, bizni bir baloga giriftor qilmasmikan?» dedim.

– Tag'in aravani quruq opqochyapsanmi? – deb so'radi ot yonidan kelgan Stepan.

– Joying jannatda bo'lgur rahmatli otam bilan xazina axtarganimizni hikoya qilyapman.

– Qayerda axtargan edingiz?

– E, birodar, Fetisov soyining narigi yog'ida. O'zing ham bilasan – Merkulov qo'rg'oni...

---

[2] Podshoh zamonida kazaklar o'z boshliqlarini ataman deb atar edilar.

– Be... – Stepan cho‘qqayib o‘tirdi-da, kaftiga cho‘g‘ oldi. So‘ngra lablarini chapillatib, kaftidagi cho‘g‘ni dumalata-dumalata, tamakisini zo‘rg‘a tutatib oldi.

– Shundog‘. Bir kuni dadam rahmatlik: «Yur, Xristonya, Merkulov qo‘rg‘onini qaziymiz», – dedi. Bobomdan «O‘sha yerga xazina ko‘milgan» deb eshitgan ekan. Lekin xazina har kimga nasib bo‘lavermaydi. Dadam boyaqish xudoga yolvorib, agar shu xazinani menga bersang, serhasham bir cherkov solaman, deb ahd qildi. Shu qarorga kelib, ota-bola o‘sha tepaga yo‘l oldik. Bu joylar stanitsaga qarashli bo‘lgani uchun yolg‘iz atamandan xavotirimiz bor edi, xolos. Kechga tomon yetib bordik. Qorong‘i tushguncha birpas kutishga to‘g‘ri keldi; otni tushovlab qo‘yib yubordik-da, belkuraklarni olib tepa ustiga chiqdik. Qoq tepasidan buza boshladik. Ikki gaz keladigan o‘ra kavladik, o‘ziyam yer emas, nuqul tosh, almisoqdan beri yotaverib, metinga aylanib ketibdi. Men terlab, suv bo‘lib ketdim. Dadam hadeb pichirlab duo o‘qiydi, lekin sizga yolg‘on, xudoga chin – aksiga shu yerda ichim quldurab qolsa bo‘ladimi!.. Yoz kuni ovqatimiz o‘zingizga ma’lum: qatig‘-u kvas... Qornim shu qadar burab og‘riydiki, ko‘zim tinib, yiqilayozdim – asti qo‘yaverasiz! Joying jannatda bo‘lgur dadam rahmatli: «Pufe – deydi, – haromi, men axir, duoyi tilsim o‘qiyapman, birpas ichingni tiysang – o‘lasanmi, iflos? Nafasim qaytib ketdi-yu... Yo‘qol, tepadan tush, bo‘lmasa, kurak bilan boshingga solib qolaman. Sening kasringga xazina yer tagidan g‘oyib bo‘lishi turgan gap», – deydi. Men tepaning tagiga tushib yotdim, ichim burab og‘riydi, keyin sanchiq boshlandi; dadam rahmatli baquvvat odam edi deng – bir o‘zi qaziyverdi. Ancha qazigandan keyin toshtaxta ko‘rinibdi. Dadam meni chaqirib qoldi. Men ostidan lom solib, toshtaxtani ko‘tardim... Sizga yolg‘on, xudoga chin, birodarlar, sutday oydinda toshtaxta ostida bir narsa yalt etib ketdi...

– Yolg‘onniyam rosa qiyasan-da, Xristonya! – dedi Petro chidab turolmay va mo‘ylovini burab iljaydi.

– Yolg‘onni? Tur, yo‘qol-e! – Xristonya beso‘naqay keng chalvarini ko‘tarib qo‘ydi-da, tinglovchilarga nazar tashladi. – Yo‘q, yolg‘on emas! Xudo ursin – rost gap!

– Gapni cho‘zmay, xullasini gapir!

– Yalt-yalt qiladi, og‘aynilar. Men tikilib qarasam, pistako‘mir ekan. Kamida qirq chelak keladi. Dadam: «Qani, tush, Xristan, bu yoqqa olib tashla», – deydi. O‘raga tushdim, zo‘r berib, savil qolgurni chiqarib tashlayverdim, xuddi tongotarda zo‘rg‘a bo‘libman, ertalab qarasak, tepamizga o‘zi yetib kelibdi.

– Kim? – deb so‘radi to‘qim ustida yotgan Tomilin.

– Kim bo‘lardi – ataman. Izvoshida turib: «Kim ruxsat berdi, hoy falonchi-yu pistonchilar?» – deb o‘shqirdi. Biz indamay turaverdik. Ikkimizni ham izvoshga bosib, stanitsaga olib bordi. Burnog‘i yili bizni Kamenskka sudga chaqirib qoldilar, lekin dadam buni bilganday vaqtida o‘lib qoldi, dunyodan o‘tganligi uchun borolmaydi, degan qog‘oz bilan zo‘rg‘a qutuldik.

Xristonya shavlasi qaynab turgan qozonni tushirdi-da, qoshiqlarni olib kelgani arava tomonga ketdi.

– Otang tushmagur cherkov solaman deb va’da qilgan ekan – qani cherkov? – deb so‘radi Stepan, Xristonya qoshiqlarni olib kelgandan keyin.

– Tentak ekansan, Styopa, pistako‘mir uchun ham cherkov solsa bo‘ladimi?

– Va’da qilgandan keyin bajarsin-da.

– Baylashganda xazina deyilgan, ko‘mir to‘g‘risida hech qanday gap bo‘lmagan...

Qahqaha tovushidan olov lopillab ketdi. Qozon ustiga engashgan Xristonya boshini ko‘tardi va gapning nimaligiga tushunmay, kazaklarga qo‘shilib hoholab yubordi, uning kulgisi hammaning ovozini bosib ketgan edi.

## VII

Aksinyani, o‘n yettiga kirar-kirmas, Stepanga uzatishgan edi. U Donning narigi tomonidagi qumloq Dubrovka qishlog‘idan kelin bo‘lib tushgandi.

Erga tegishdan bir yil burun kuzak paytida Aksinya, qishloqdan sakkiz chaqirim narida, dashtda yer haydayotgan edi.

O‘z otasi – ellikka kirgan chol kechasi uning qo‘llarini chilvir bilan tang‘ib, nomusiga tegdi.

– Birovga aytsang o‘ldiraman, indamay ketsang – g‘ijim duxoba ko‘ylak, qo‘njli botinka, kalish olib beraman. Qulog‘ingda bo‘lsin: g‘iring desang – o‘ldirmay qo‘ymayman... – deb tayinladi chol.

Kechasi Aksinya dabdala bo‘lib ketgan ich ko‘ylakda qishloqqa qochib keldi. Onasining oyog‘iga yiqilib, o‘pkasi to‘lib, zor-zor yig‘lab, bo‘lgan voqeani gapirib berdi... Yaqinda harbiy xizmatdan qaytgan ataman polklik akasi bilan onasi darhol aravani qo‘shishdi, Aksinyani ham aravaga o‘tqazib, o‘sha yerga, otasining yoniga jo‘nashdi. Akasi sakkiz chaqirim joyga yetguncha otlarni savalab o‘ldira yozdi. Cholni kapaning yonidan topdilar. U chakmon ustida mast-alast holda uxlar, oldida bo‘shagan aroq shishasi yotardi. Akasi arava yog‘ochini sug‘urib olganini, uxlab yotgan otasini tepib turg‘izganini, undan bir og‘iz gap so‘raganini va haligi yog‘och bilan tumshug‘iga solib qolganini Aksinya ko‘rib turdi. Akasi bilan onasi uni bir yarim soatgacha rosa do‘pposlashdi. Hammaga yuvoshligi bilan tanilgan keksa onasi jon-jahdi bilan erining sochlarini yular, akasi ayamay tepkilar edi. Aksinya esa boshini burkab, arava tagida dag‘-dag‘ titrab, churq etmay yotardi...

Tongotar mahalda cholni uyga keltirishdi. U jon talvasasida ingrar, ko‘zi javdirab, yashiringan Aksinyani izlardi. Yulingan qulog‘idan yostiq ustiga qon-u yiring oqar edi. Kechga tomon chol qazo qildi. «Qattiq mast ekan, aravadan yiqilib o‘libdi» deb ovoza qilishdi.

Oradan bir yil o‘tdi; bir kuni bezatilgan aravada Aksinyani ko‘rgani sovchilar kirib kelishdi. Baland bo‘yli, xushbichim Stepan qizga yoqdi, to‘ylari kech kuzga tayin bo‘ldi. Hademay kuz ham keldi; qish kirish oldida, ayoz tushgan ajoyib xushhavo kunlarning birida Aksinya bilan Stepanning boshlarini qo‘shib qo‘yishdi; o‘sha-o‘sha, Aksinya Astaxovlar uyining bekasi bo‘lib qoldi. Qaynanasi, qandaydir ayollar dardiga giriftor bo‘lib, bukchayib qolgan novcha bir kampir edi; u to‘yning ertasi kuniyoq tong yorishmay turib, Aksinyani uyg‘otdi va uni oshxonaga chaqirib oldi-da, o‘zidan o‘zi otashkuraklarni nari-beri surib qo‘yib, gap boshladi:

– Aylanay kelinposhsha, biz seni tushgacha erkalanib yotsin deb kelin qilganimiz yo‘q. Darrov borib sigirlarni sog‘ib kel, innaykeyin pech yonida jilmay ovqat pishirasan. Men qarib, kuch-quvvatdan

qoldim, ro‘zg‘or ishlarini o‘z qo‘lingga ol, hamma ish endi sening bo‘yningda, shuni bilib qo‘y.

O‘sha kuni Stepan alamiga chidolmay, yosh xotinini hujraga qamab rosa kaltakladi. Aksinyaning qorniga, ko‘kragiga, yelkalariga ayamay tushirdi, atayin odam ko‘rmaydigan joylarini topib urdi. Ana shundan keyin u begona xotinlar bilan, sayoq bevalar bilan yuradigan bo‘lib qoldi; deyarli har kecha Aksinyani omborxonagami, hujragami qamab chiqib ketar edi.

Oradan bir yarim yil o‘tgach, Aksinya bola tuqqandan keyingina u alamini unutib, biroz insofga keldi, biroq xotiniga yaxshi gapirish, uni erkalatish nima ekanini bilmas, uyda kamdan kam tunar edi.

Ro‘zg‘or katta, mol-hol ko‘p edi, Aksinya ish bilan butunlay band bo‘ldi-qoldi. Stepan hushi kelsa ishlar, kelmasa – ishlamas edi; sochini tarardi-yu, o‘rtoqlari bilan tamaki chekishish, qarta o‘ynash, qishloqdagi oldi-qochdi gaplarni eshitish uchun uydan chiqib ketardi, molga qarash, taglarini tozalash, ro‘zg‘orni tebratish ishi Aksinyaning bo‘yniga tushgan edi. Qaynananing qarashganidan foyda yo‘q edi. Qaynanasi birpas uringan bo‘lardi-yu, o‘zini tappa karavotga tashlardi, lablari bo‘zarib, dardiga chidolmasdan ko‘zlarini olaytirib shipga tikilar, g‘ujg‘unak bo‘lib olib ingrardi. Shunday paytlarda qop-qora xunuk so‘gal toshgan yuzini jiqqa ter bosar, ko‘zlari yoshga to‘lar, qatra-qatra bo‘lib oqa boshlar edi. Aksinyaning qo‘li ishga bormay, bir burchakka suqulib olar, qo‘rqib, achinib qaynanasining yuziga tikilganicha qotib qolardi.

Bir yarim yildan keyin kampir qazo qildi. Ertalab Aksinyaning to‘lg‘og‘i boshlandi, lekin bola tushmasdan bir soat oldin, tushga yaqin, qaynanasi yurgan yo‘lida – eski otxonaning eshigi oldida o‘lib qoldi. Doya kampir, ko‘z yoriyotgan xotin yoniga kirmagin deb, mast Stepanni ogohlantirmoqchi bo‘lib uydan yugurib chiqqanda, oyoqlari bukilib yotgan qaynanaga ko‘zi tushdi.

Bola tug‘ilgandan keyin Aksinya Stepanga o‘rganib qoldi, ammo ko‘nglida unga nisbatan muhabbat degan narsa yo‘q, faqat unga o‘rganib qolgani, xotini bo‘lgani uchun eriga achinar edi. Bola yoshiga yetmay nobud bo‘ldi. Shundan keyin turmush yana eski iziga tushdi. Shu orada Grigoriy Aksinyaga gap otib, uning yo‘lini to‘sa boshladi; Aksinya bu shirinso‘z, qoracha yigitga ko‘ngil

qo‘yayotganini sezib, qo‘rqib ketdi. Grigoriy ipini uzgan buqa singari Aksinyaning payiga tushib, uning ko‘nglini topish uchun urinar edi. Aksinya uchun eng qo‘rqinchli narsa – uning mana shu o‘jarligi edi. Grigoriyning Stepandan hayiqmasligiga, bu yigitdan osonlikcha qutula olmasligiga endi Aksinyaning ko‘zi yetgan edi. Lekin bu narsani aqlan rad etib, unga tish-tirnog‘i bilan qarshilik qilmoqchi bo‘lsa-da, o‘zini o‘zi aldab, bayram kunlari va bayram bo‘lmagan kunlari, o‘zining yasanib taranganini, jo‘rttaga Grigoriyning ko‘zi tushadigan yo‘llardan yurganligini sezib qoldi. Grigoriyning qora ko‘zlari Aksinyaga qattiq tikilganda uning tanasi yayrab, ko‘ngli yorishib ketardi. Ertalab sigir soqqani uyg‘onardi-da, ko‘zini ocharochmas o‘zidan o‘zi kulardi, lekin nega kulganini tushuna olmay, o‘ylanib qolardi: «Bugun bir nimadan suyunsam kerak. Nima ekan? Grigoriy... Grisha...» Lekin Aksinyaning ko‘nglini qamrab olgan bu yangi hissiyot uni vahimaga solardi, shuning uchun u har xil xayollarga borar, xuddi mart kezlarida muzi eriy boshlagan Don ustidan o‘tayotganday, zo‘r ehtiyotkorlik bilan fikr yuritardi.

Aksinya, Stepanni lagerga jo‘natgandan keyin Grishka bilan mumkin qadar kamroq uchrashishga ahd qildi. Baliq ovidan keyin uning bu ahdi yanada mustahkamlangan edi.

## VIII

Troitsa bayramidan ikki kun ilgari qishloq ahli yig‘ilib pichanzorni bo‘lib olishdi. Taqsim kuni Panteley Prokofyevich ham bor edi. Chol tush paytida uyga qaytib keldi, inqillay-inqillay choriqlarini yechdi, yo‘l yurib charchagan oyoqlarini qashlay-qashlay, sekin gap boshladi:

– Bizga Qizil jar yonidagi yer tegdi. Pichani unchalik bo‘liq emas. Uning bir boshi o‘rmongacha boradi, ba’zi joylari tap-taqir. Onda-sonda yovvoyi bug‘doy ko‘rinadi.

– Qachon o‘roqqa tushamiz? – deb so‘radi Grigoriy.

– Bayram o‘tsin.

– Darya ham boradimi? – dedi qovog‘ini solib kampir.

Panteley Prokofyevich «bas qil» deganday qo‘l siltadi.

– Kerak bo‘lsa, uni ham oboramiz. Yeydigan nimang bor – opkelmaysanmi axir, nega qaqqayib turibsan?

Kampir pech qopqog‘ini taraqlatib ochdi-da, isitilgan karam sho‘rvani stolga olib qo‘ydi. Dasturxon ustida Panteley Prokofyevich taqsimot qanday o‘tganini, atamanning firibgarligini, sal bo‘lmasa butun jamoani aldab, qo‘lga tushirayozganini birma-bir so‘zlab berdi.

– Bultur ham u muttahamlik qilgan, – deb gapga aralashdi Darya, – ulushimizga tekkan pichanni o‘rayotganimizda tepamizga kelib, Malashka Frolovani biram chalg‘itib gapga solganki...

– Azaldan muttaham o‘zi, – dedi Panteley Prokofyevich, kavshanar ekan.

– Pichanni kim yig‘ib g‘aram qiladi, dadajon? – deb so‘radi qo‘rqa-qo‘rqa Dunyashka.

– Sen-chi, boshqa nima ish qilarding?

– Bir o‘zim eplay olmasman, dadajon.

– Aksyutka Astaxovani ola boramiz. U kuni Stepan, biznikini ham o‘rishvoringlar, degan edi. Qarashvorish kerak.

Ertasi kuni ertalab Mitka Korshunov egarlangan oq tuyoq arg‘umoq minib Melexovlar qo‘rg‘oniga keldi. Yomg‘ir tomchilar, havo dim edi. Mitka egar ustida engashib ko‘cha eshikni ochdi-da, to‘g‘ri hovliga kirib keldi. Zinapoya tomondan kampir uni chaqirdi:

– Xoy, shumtaka, tag‘in nega kelding? – deb po‘ng‘illadi u. Kampir bu urishqoq va bebosh Mitkani yoqtirmas edi.

Mitka otini panjaraga bog‘layotib:

– Nega unday deysiz, Ilinishna? Men Grishkani qidirib keldim. Qani o‘zi? – deb so‘radi.

– Bostirmada uxlayapti. Senga nima balo bo‘ldi, shol bo‘lganmisan? Piyoda yursang, oyog‘ing sinadimi?

– O‘zingiz ham, xolajon, ezma bo‘p qopsiz! – deb o‘pkaladi Mitka va guldor qamchisini o‘ynatib, amirkon etigining qo‘njiga urib bostirma ostiga kirib ketdi.

Oldingi tegarchigi olib tashlangan arava ustida Grigoriy uxlab yotardi. Mitka xuddi mo‘ljalga olayotganday chap ko‘zini qisib turib Grigoriyni qamchi bilan solib qoldi va:

– Tur-ey, mujik! – deb baqirdi.

«Mujik» degani Mitkaning eng xunuk so‘kishi edi. Grigoriy bir sapchib tushdi.

– Bu nima qiliq?

– Yotaverasanmi g‘aflat bosib?

– Jinnilik qilma, Mitriy, jahlim chiqsa bormi...

– Tezroq tur, gap bor.

– Xo‘sh?

Mitka aravaning chetiga o‘tirib, etigiga yopishgan loyni qamchisi bilan tozalar ekan:

– Grishka, menga alam qilyapti.., – dedi.

– Xo‘sh?

– Alam qilmaydimi, axir, anavi... – Mitka bolxonador qilib so‘kinib oldi, yuzboshi og‘zini ko‘pirtirib maqtanadiki...

Mitka tutaqib labi labiga tegmay bidirlar, oyoqlari titrardi. Grigoriy o‘rnidan turdi.

– Qaysi yuzboshi?

Mitka uning yengidan ushlab, bir oz hovuridan tushib gapira boshladi:

– Darrov otingni egarla, ot soldirib to‘g‘ri soyliqqa boramiz. Men unga ko‘rsatib qo‘yaman! Men unga: «Mayli, janobi oliy, poygada ko‘ramiz!» – dedim. Xuddi shunday dedim. – «Bo‘lmasa, hamma og‘aynilaringni chaqirib kelgin, men hammangniyam yo‘lda qoldiraman, deydi, bilasanmi, bu biyamning onasi Peterburgda ofitserlar poygasida doim birinchilikni olib kelgan» deydi. Menga qolsa, biyasi ham, onasi ham boshida qolsin! Men bor – arg‘umog‘imdan o‘zolmaydi!

Grigoriy naridan beri kiyindi. Mitka uning orqasidan ergashib yurar, jahli chiqqanidan duduqlanib gapirardi:

– Moxov ko‘pasnikiga mehmon bo‘lib kelgan ekan haligi yuzboshi. Shoshmay tur, oti qurg‘ur nima edi? Listnitskiy bo‘lsa kerak. O‘ziyam rosa olifta, sipo ekan. Ko‘zoynak taqib olibdi. Taqsa – taqaversin! Menga desa – to‘rttasini taqib olsin, lekin arg‘umog‘imdan o‘zib bo‘pti!

Grigoriy uning gaplariga kula-kula uyurga qoldirilgan qari biyani egarladi va otasining ko‘zini shamg‘alat qilib, g‘aram tomondagi darvozadan o‘tib, dashtga chiqdi.

Ikkisi tog‘ etagidagi yo‘l bilan soyliq tomonga qarab ketishdi. Ot tuyoqlari loyga botib chalpillar edi. Soyliqda, qurigan terak ostida bir to‘da otliq bularni kutardi: ularning biri suqsurday chayir biya mingan yuzboshi Listnitskiy, qolgan yettitacha otliq – qishloqi yigitlar edi.

Yuzboshi ko‘zoynagini o‘nglab olib, Mitka mingan arg‘umoqning go‘shtdor to‘shini zavq bilan tomosha qildi-da:

– Qayerdan chopamiz? – deb so‘radi.

– Terakdan Sulton hovuzgacha.

– Sulton hovuzing qayerda? – deb so‘radi shapko‘r yuzboshi ko‘zlarini qisib.

– Hu ana, janob oliy, o‘rmon yoqasida.

Otlar safga tizilishdi. Yuzboshi qamchisini boshi uzra ko‘tarib edi, yelkasidagi pogoni do‘ppayib ketdi.

– «Uch» deganimda haydang! Qani? Bir, ikki... uch!

Egar ustida engashib, shapkasini mahkam ushlab olgan yuzboshi hammadan oldin otilib chiqdi. U boshqalardan bir lahza ilgari o‘zib ketgan edi. Grigoriy rangi o‘chib sarosimaga tushgan Mitkaning uzangiga oyog‘ini tirab tikka turib olganini ko‘rdi, lekin nazarida, uning boshi uzra ko‘targan qamchisi arg‘umoqning sag‘rig‘a kelib tushguncha xiyla fursat o‘tganday tuyulardi.

Terak bilan Sulton hovuzning orasi uch chaqirim edi. Yarim yo‘lga kelganda Mitkaning arg‘umog‘i ilonday cho‘zilib yuzboshining biyasiga yetib oldi. Grigoriy istar-istamas ot choptirib kelardi. U boshdanoq orqada qolib ketgan biyasini yeldirib, oldinma-ketin uzoqlashib borayotgan poygachilarni ortdan tomosha qilardi.

Sulton hovuzning berigi yog‘ida yomg‘ir suvlari qumni oqizib kelib bir qum tepa hosil qilgan edi. Tuya o‘rkachiga o‘xshagan sap-sariq bu do‘ngni qiyoq bargli ilon o‘t bosib ketgandi. Grigoriy yuzboshi bilan Mitkaning tepa ustiga baravar chiqib, baravar oshib tushganlarini ko‘rdi; qolgan poygachilar bulardan keyin tepa oshib tusha boshladilar. Grigoriy hovuz bo‘yiga yetib kelganda, yigitlar allaqachon otdan tushib yuzboshini o‘rab olishgan, terga pishgan otlar bir joyga to‘plangan edi. Mitkaning yuzi yorishgan, lekin xursandligini sezdirmay, o‘zini bosib turardi. Uning har bir harakatidan muddaosiga yetganini sezish mumkin edi. Grigoriy yuzboshini, qat-

tiq xijolatda bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan edi, aksincha, uning parvoyi falak, daraxtga suyanib papiros chekayotganini va ter bosib, shalabbo bo‘lgan biyasini jimjilog‘i bilan ko‘rsatib gap ma’qullayotganini ko‘rib hayron qoldi.

– Men bu biyada yuz ellik chaqirim yo‘l bosganman. Kuni kecha stansiyadan keldim. Agar u charchamaganda mendan sira o‘zib keta olmasding, Korshunov.

Mitka olijanoblik qilib:

– Ehtimol, shundaydir, – deb qo‘ya qoldi.

Lekin poyganing eng ketida kelgan sepkil yuz yigitcha Mitkaning otiga havasi kelib:

– Bunaqangi uchqur ot bu atrofda yo‘q, – deb maqtadi.

Mitka poyganing ta’siridan hali ham qaltirayotgan qo‘li bilan arg‘umoqni erkalab bo‘yniga qoqib qo‘ydi.

– Chakki ot emas, – dedi va sovuqqina iljayib Grigoriyga qaradi.

Ikkisi boshqalardan ajralib, ko‘chadan yurmay, to‘g‘ri tog‘ osti bilan ketishdi. Yuzboshi bular bilan sovuqqina xayrlashdi, ikki barmog‘ini shapkasiga tegizib, shartta orqasiga burildi.

Tor ko‘cha tomondan kelayotgan ikki do‘st uyga yaqinlashganlarida, Grigoriy ro‘paradan Aksinyaning kelayotganini ko‘rib qoldi. U qo‘lida bir novdani o‘ynab kelardi; Grishaga ko‘zi tushishi bilan Aksinya boshini darrov quyi solib oldi.

– Nega uyalasan? Nima, biz yalang‘och kelyapmizmi? – deb shang‘illadi Mitka va ko‘zini qisib qo‘ydi: – Sarvqomat, gulsafsar, lekin tikandan battar!

Grigoriy Aksinyaning yonidan o‘tib ketayotib, sekin kelayotgan otini birdaniga qamchi bilan solib qoldi. Biya ketingi oyoqlarini bukib shataloq otdi-da, Aksinyaning yuziga loy sachratib yubordi.

– I-i-i, quturgan shayton!

Grigoriy otini shartta burib, Aksinyaning ustiga bostirib kelaverdi-da:

– Nega salom bermaysan? – deb so‘radi.

– Koshki salomga arzisang ekan!

– Salom bermaganing uchun loyga bulg‘anding, ko‘p gerdayaverma!

Aksinya ikki qo‘li bilan otning tumshug‘ini to‘sib:

– Qo‘ysang-chi, axir, – deb baqirdi. – Bu nimasi, meni otga bostirmoqchimisan?

– Bu ot emas, biya-ku.

– Baribir, qo‘yvor.

– Nimaga achchiq qilib yuribsan, Aksinya? Nahotki, anovi kungi arzimagan gapga bo‘lsa?

Grigoriy uning ko‘zlariga tikilib qaradi. Aksinya bir nima demoqchi bo‘ldi-yu, biroq qop-qora ko‘zlariga to‘satdan yosh keldi, lablari titrab ketdi, o‘pkasi to‘lib yutindi-da, shivirlab dedi:

– Meni o‘z holimga qo‘y, Grigoriy... Sendan xafa bo‘lganim yo‘q... Men... – gapini tugatmay o‘z yo‘lida ketaverdi.

Hayron qolgan Grigoriy darvoza oldida Mitkaga yetib oldi.

– Bugun sayilgohga kelasanmi? – deb so‘radi u.

– Yo‘q.

– Nega? Yoki jonon bu kecha uyiga taklif qilganmi?

Grigoriy javob qilmay, kafti bilan manglayini surtib qo‘ydi.

## IX

Qishloq uylarining pollari ustida sochilib yotgan isiriq va barglar bosilaverib chang-to‘zonga aylanib ketdi, darvoza yonlariga, zinapoya ustiga qistirib qo‘yilgan dub va sandip novdalar ham bujmayib so‘lib qoldi – qishloqda Troitsa bayramidan qolgan nishona shulargina edi, xolos.

Bayram o‘tar-o‘tmas pichan o‘rog‘i boshlandi. Tongotardan tortib butun soyliqni rang-barang yubka kiygan, yaltiroq uqali etak bog‘lagan, guldor ro‘mol o‘ragan xotin-xalaj bosib ketdi. Butun qishloq ahli yoppasiga pichan o‘rog‘iga chiqdi. Chalg‘i ko‘targan erkaklar, panshaxa va xaskash ushlagan xotinlar – hammasi yilda bir bo‘ladigan sayilga chiqqanday yasanishgan. Bu – qadimdan qolgan bir rasm. Bu yog‘i Donga, u yog‘i olisdagi chakalakka tutashgan keng yaydoq pichanzor chalg‘ilar zarbidan larzaga kelganday edi.

Melexovlar o‘roqqa kechikib chiqishdi. Ular yo‘lga chiqqanda o‘roqchilarning qariyb yarmisi ishga tushgan edi.

– Ko‘p uxlaysan, Panteley Prokofyevich! – deyishardi terlab-pishib ishlayotgan o‘roqchilar.

– Ayb menda emas, kampirda! – deb kuldi chol va o‘rma qamchi bilan ho‘kizlarini savalab choptirib ketdi.

Yo‘l yoqasida chalg‘isini qayrayotgan poxol shlapali novcha kazak ham boshini chayqab gap qotdi:

– E, horma, adash! Kech qolibsan-ku, birodar, kech qolibsan.

– Kech qolsak – pichan qurib qolarmikin?

– Yo‘rtib borsang yetasan, bo‘lmasa quruq qolasan. Cheking qayerdan tushgan?

– Qizil jarning ostida.

– Unday bo‘lsa tezroq hayda, bu yurishda bugun yetolmaysan.

Aksinya arava ketiga o‘tirib olgan, yuzini oftobdan ehtiyot qilib ro‘mol bilan o‘ragan edi. Bir chakkasini qiya ochib, ro‘molining tirqishidan ro‘parasida o‘tirgan Grigoriyga beparvo va sovuq nazar tashlar edi. Yasangan-tusangan va yuz-ko‘zlarini o‘ragan Darya ham oyoqlarini aravadan osiltirib olgan; uzun va sertomir ko‘kragini chiqarib, qo‘lida uxlay deb qolgan chaqalog‘ini emizib kelar edi. Dunyashka bo‘lsa, sevinchini ichiga sig‘dirolmay aravada sapchib-sapchib tushar va chaqnagan ko‘zlari bilan bepoyon pichanzorni, yo‘lda uchragan yo‘lovchilarni tomosha qilardi. Uning sepkil toshgan, oftobda qoraygan chehrasi: «Ana shu ko‘m-ko‘k bulutsiz osmon ostidagi olamning sevinchga to‘lganini ko‘rib, men ham shodman, baxtiyorman; shuning uchun ko‘nglim beg‘ubor, tashvishim yo‘q. Menga shodlikdan boshqa hech narsa kerak emas», deyayotganday ochilib gullagan edi. Panteley Prokofyevich bo‘z yaktagining yengi uchi bilan hadeb peshonasidan oqqan terni artardi. Bukchaygan gavdasiga yaktagi chippa yopishgan, ba’zi joylari jiqqa ho‘l bo‘lib ketgan. Quyosh ola-bula bulutlar orasidan mo‘ralar, o‘zining zilol nurini Don atrofidagi kumushday tog‘larga, dasht va adirlarga, soyliq va qishloq uzra sochardi.

Kun qizib, hamma yoq o‘tday yonardi. Shamol to‘zitgan bulut parchalari shu qadar sust jilar ediki, hatto yo‘lda sudralib kelayotgan Panteley Prokofyevichning ho‘kizlaridan ham orqada qolib ketardi. Chol qamchisi og‘irlik qilganday zo‘rg‘a ko‘tarardi-da, ho‘kizning

ozg'in yag'riniga uraymi-urmaymi deganday, havoda o'ynatib qo'ya qolardi. Ho'kizlar ham uning sustkashligini bilganday, pinagini buzmay, kana bosgan oyoqlarini sudrab bosar, dumlarini silkitar, lekin yurishini tezlatmas edi. Oltinday yaltiroq to'q-sariq so'na ho'kizlar atrofida gir aylanardi.

Xirmonlarning tevarak-atrofidagi pichani o'rilgan o'tloqlar och-yashil bo'lib ko'rinardi; lekin hali o'ti o'rilmagan joylari xuddi ko'm-ko'k ipak singari, shamolda chayqalib tovlanardi.

– Bizning chekimiz ana shu, – deb ko'rsatdi qamchisi bilan Panteley Prokofyevich.

– O'rmon yoqdan tushamizmi? – deb so'radi Grigoriy.

– Shu yoqdan boshlasak ham bo'laveradi. Chegarasini bel bilan o'yib, belgi qoldirganman.

Grigoriy charchagan ho'kizlarni aravadan chiqardi. Chol yiltiragan isirg'asini likillatib, bel bilan o'yilgan joyni topgani ketdi.

Sal o'tmay Panteley Prokofyevich qo'li bilan imlab:

– Chalg'ilarni olib kel! – deb baqirdi.

Grigoriy o'tlarni bosib-yanchib otasi tomonga yurdi; arava yonidan to borgan joyigacha pichan bosilib, ilon iziday yo'l tushib qoldi. Panteley Prokofyevich yiroqlardagi jomxona tepasida oqarib ko'ringan butga qarab cho'qindi-da, chalg'ini qo'lga oldi. Uning qoramag'iz yonoq chuqurchalarida ter jimirlar, qirra burni lok surganday yiltirardi. Chol iljayib qo'ydi, uning qop-qora soqol-mo'ylovlari orasidan oppoq va top-toza tishlari ko'rinib ketdi, ajin bosgan bo'ynini o'ngga burib, pichanga chalg'i soldi. Bir sarjin keladigan yarim doira yerdagi ko'kat uning oyoqlari ostiga to'plandi.

Grigoriy otasining izidan borar, ko'zlarini qisib chalg'i solib pichan o'rardi. Ro'parasida kamalakday rang-barang etak tutgan xotin-qizlar ko'rinardi, biroq u ko'zlari bilan bir ayolni – gul solib tikilgan hoshiyador oq etak tutgan Aksinyani izlardi; unga qarab-qarab qo'yib, yana otasiga ergashib chalg'i solardi.

Aksinya uning butun xayolini chulg'ab olgan edi; ko'zlarini qisib, xayolan uni o'par, qayerdandir tiliga kelgan otashin va shirin so'zlarni aytib erkalatgan bo'lardi, so'ngra o'ziga kelib – bir, ikki, uch deb qadam tashlar, o'tgan voqealar xotiriga tushar edi:

«Ikkimiz ivigan g'aram orasiga kirib olgan edik... Ko'lda loyxo'rak chiyillar... soylik ustida oy suzib yurar... yomg'ir suvlari daraxtdan ko'lmak suv ustiga xuddi mana shu xilda – bir, ikki, uch deyotganday tomchilardi... Rohat, judayam rohat edi!..»

Arava turgan tomondan kulgi ovozlari keldi. Grigoriy burilib qaradi va Aksinyaning engashib, arava tagida yotgan Daryaga nimanidir gapirayotganini ko'rdi; Darya e'tiroz bildirganday qo'llarini silkitib qo'ydi va ikkisi yana qotishib kulishdi. Dunyashka shoti ustida ingichka ovoz bilan ashula aytib o'tirardi.

Grigoriy: «Anavi ko'ringan bo'tagacha boraman-da, chalg'ini qayrayman», degan qarorga kelgan paytida, bexosdan chalg'isi yumshoqqina bir narsani kesib yuborganday bo'ldi. Engashib qaradi; kichkinagina yovvoyi o'rdak jo'jasi chiyillagancha oyog'i tagidan chiqib, lapanglab qochdi. Chuqurchadagi o'rdak uyasi oldida ikki nimta bo'lib yana bitta o'rdakcha yotardi, qolganlari chuvullashib ko'kat orasiga to'zib ketishdi. Chalg'i kesgan o'rdakchani Grigoriy kaftiga oldi. Kechagina tuxumdan chiqqan bu sap-sariq jo'jachaning tuklari ostidagi issiq jon hali so'nmagan edi. Ochilib qolgan yapaloqqina tumshuqchasida bir tomchi nimrang qon ko'rinar, hali sovumagan oyoqchalari dir-dir titrar, munchoqday ko'zlari qisilib qolgan edi.

Grigoriy, kaftidagi murg'ak jonivorga tikilib turib, birdaniga yuragi ezilib ketdi.

– Nima topib olding, Grishunka?..

Pichani o'rilgan tomondan Dunyashka irg'ishlab kelmoqda edi. Mayda qilib o'rilgan sochlari ko'ksida silkinib o'ynardi. Grigoriy qovog'ini solib, o'rdakchani qo'lidan tushirib yubordi, g'azab bilan chalg'iga yopishdi.

Ular naridan beri ovqatlanib olishdi. Cho'chqa yog'i-yu, kazaklarning tansiq yeguligi – uydan keltirilgan xaltadagi suzma bilan qanoat qilishdi.

– Uyga qaytishning keragi yo'q, – dedi ovqat tepasida Panteley Prokofyevich. – Ho'kizlar o'rmonda o'tlayveradi, ertaga oftob chiqib shudring ko'tarilguncha barisini o'rib bo'lamiz.

Tushlikdan keyin ayollar pichanni yig'ishga tushishdi. O'rilgan o't so'lib, quriy boshlagan va undan allanechuk yoqimsiz hid anqir, odamning boshini aylantirar edi.

Qosh qorayganda ota-bola o'rishni to'xtatishdi. Aksinya yig'ishtirilmay qolgan qatorlardagi pichanni to'plab bo'ldi-da, ovqat pishirgani arava yoniga ketdi. Kun bo'yi u, Grigoriyda qattiq o'chi bordek, unga nafrat bilan qarar, uni masxara qilib kular edi. Ta'bi xira, qovog'i soliq, rangi bo'zargan Grigoriy ho'kizlarni sug'organi Donga haydab ketdi. Otasi Aksinya bilan o'g'lini kun bo'yi ko'z ostiga olib yurgan edi. Xo'mrayib Grigoriyga tikildi-da:

– Kechki ovqatingni yeb bo'lganingdan keyin ho'kizlarni o'tlatasan. Tag'in pichanzorga kirib ketmasin, hushyor bo'l. Chakmonimni ola ket, – dedi.

Darya chaqalog'ini arava tagiga yotqizdi-da, Dunyashka bilan cho'pchak terib kelgani o'rmonga ketdi.

Soylikning tepasida, zulmat qoplab olgan tubsiz osmon qo'ynida yangi oy qiyalab suzib kelmoqda. Gulxan atrofida gala-gala kapalaklar parvona bo'lib gir aylanishardi. Shu yerga dasturxon yozib, kechki ovqatga o'tirishdi. Qurum bosgan qozonda bo'tqa biqirlab qaynardi. Darya yubkasining etagi bilan qoshiqlarni artdi-da:

– Ovqatga kel, – deb Grigoriyni chaqirdi. Yelkasiga chakmon tashlab olgan Grigoriy qorong'ilik ichidan chiqib gulxan yoniga keldi.

– Nega buncha qovog'ingdan qor yog'adi? – deb kuldi Darya.

– Yomg'ir yog'adiganga o'xshaydi, belim zirqirayapti, – deb hazillashdi Grigoriy.

– Ho'kiz boqishga tobi yo'q, o'lay agar, shunga zarda qilyapti! – deb kuldi Dunyashka va akasining yoniga borib o'tirib uni gapga solmoqchi bo'ldi-yu, lekin gap gapga qovushmadi.

Panteley Prokofyevich zo'r berib, bo'tqani og'ziga tiqar va chala pishgan so'kni g'irchillatib chaynardi. Aksinya boshini quyi solib ovqatini yer va Daryaning hazilomuz gaplariga zo'rma-zo'raki kulib qo'yardi. Uning yuzlari lovullab, bo'rtib ketgan edi.

Eng avval Grigoriy o'rnidan turib, ho'kizlar yoniga ketdi.

– Ehtiyot bo'l, tag'in ho'kizlar birovning pichanini qiyratmasin! – deb tayinladi ketidan otasi va qalqib ketib, anchagacha qattiq-qattiq yo'taldi.

Dunyashka o‘zini kulgidan to‘xtata olmas, lunjlari do‘ppayib ketgan edi.

Gulxan so‘na boshladi. Burqsab tutayotgan cho‘pchak o‘tindan kuygan barglarning yoqimli hidi kelar, o‘tirganlarning dimog‘iga urilardi.

* * *

Yarim kechada Grigoriy biqina-biqina arava oldiga yetib keldi-da, o‘n qadam narida to‘xtab qoldi. Arava ustida uxlayotgan Panteley Prokofyevichning baralla xurrak otgani eshitilardi. Kechqurun o‘chirilmay qolgan gulxan kullari ostidan tovus ko‘ziga o‘xshash oltinday cho‘g‘ mo‘ralardi.

O‘ranib-chirmanib olgan bir sharpa arava oldidan Grigoriy tomon ilang-bilang kelaverdi. Ikki-uch qadam qolganda to‘xtadi. Bu – Aksinyaning o‘zginasi edi. Grigoriyning yuragi qinidan chiqib ketguday bo‘lib duk-duk urardi; engashib olg‘a bir qadam tashladi-da, chakmonining barini ochib, olovday issiq, itoatkor Aksinyani darhol o‘z pinjiga oldi. Aksinyaning oyoqlari bo‘shashib tizzalari bukilar, a’zoyi badani qaltirab tishi-tishiga tegmas edi. Bo‘g‘izlangan qo‘yni bo‘ri yerdan yulib orqalaganday, Grigoriy ham uni dast ko‘tarib oldi-da, ochiq chakmonning etagiga o‘rala-o‘rala, xalloslab jo‘nab qoldi.

– Voy, Gri-i-sha... Gri-shen-ka!.. Otang...

– Ovozingni chiqarma!..

Chakmonning nordon jun hididan nafasi bo‘g‘ilayozgan Aksinya kelganiga ming pushaymon yeb, tipirchilab Grigoriyning qo‘lidan chiqmoqchi bo‘ldi, nihoyat zorlanib:

– Qo‘yvor, bo‘lar ish bo‘ldi... o‘zim boraveraman!.. – dedi.

## X

Xotin kishining kech uyg‘ongan muhabbati – lola singari barq urib gullamaydi, balki yo‘l yoqasida o‘sadigan mingdevonaga o‘xshab ochiladi, kishini mast qiladi.

O‘sha pichan o‘rgan kundan beri Aksinya onadan yangi tug‘ilganday o‘zgarib ketdi. Xuddi yuziga birov belgi solib, tamg‘a bosganday edi. Juvonlar unga duch kelganda zaharxanda qilishar,

bosh chayqashar, qizlarning unga havasi kelar edi, lekin Aksinya baxt qushi qo'ngan sharmisor boshini baland ko'tarib, mag'rurlanib yuraverardi.

Oradan ko'p o'tmay, Grisha bilan Aksinyaning aloqalari hammaga oshkor bo'ldi. Avval shivir-shivir gap tarqaldi, lekin birov ishonar, birov ishonmas edi – qishloq podachisi Kuzka Puchuq tong paytida bularni yeltegirmon yonidagi bug'doyzor ichida ko'rib qolganini, ikkisi oybotar mahalda g'ira-shira oydinda yotganligini so'zlab bergandan keyin, bu gap bo'tana suvday toshib, hammaga ovoza bo'ldi.

Bu gap Panteley Prokofyevichning qulog'iga ham yetdi. Ozib-yozib yakshanba kuni u Moxovning do'koniga borgan edi. Odam tirband – qadam qo'yguday joy yo'q. Ichkariga kirdi, nazarida, odamlar unga yo'l bo'shatayotganday, kulimsirayotganday edi. Chol bir amallab gazlama sotiladigan joyga bordi. Unga kerakli gazmolni xo'jayin Sergey Platonovich o'z qo'li bilan o'lchab bermoqchi bo'ldi.

– Juda kamnamosan, Prokofyevich?

– Ishdan bo'shamayman. Ro'zg'orni eplolmay qoldim.

– Nega? Azamat-azamat o'g'illaring bor-u, eplolmayman deysan-a.

– O'g'illarim bo'lsa nima qipti: Petroni lagerga jo'natdim, hamma ish Grishka ikkimizga qolgan.

Sergey Platonovich jingalak, qoramtir soqolini silab ikki yoqqa ajratdi va do'kon oldida to'plangan kazaklarga ko'zini qisib ma'noli nazar tashladi.

– Xo'sh, azizim, nega indamay yuraverasan?

– Nimaydi?

– Nimaydi deydi-ya! O'g'lingni uylantirmoqchimishsan, bir og'iz aytmaysan ham.

– Qaysi o'g'ilni?

– Grigoriyni, u uylanmagan-ku, axir.

– Hozircha uni uylantirish niyatida emasman.

– Stepan Astaxovning xotini... Aksinyani kelin qilarmishsan deb eshitdim.

– Men-a? Eri tirik turib... Nima deyapsan o‘zing, Sergey Platonovich, meni mayna qilyapsanmi?

– Nega mayna qilay? Odamlardan eshitdim.

Panteley Prokofyevich peshtaxta ustiga yoyib qo‘yilgan bir to‘p gazlamani tekislab, shartta orqasiga burildi va oqsoqlana-oqsoqlana eshikka chiqdi. U to‘g‘ri uyiga jo‘nadi. Chol boshini egib, serpay mushtlarini mahkam qisib olgan, oqsoq oyog‘ini qattiq siltab bosar edi. Astaxovning qo‘rasi yonidan o‘tayotib chetan devor orasidan ichkariga qaradi, yasangan-tusangan, yoshargan Aksinya bo‘sh chelak ko‘tarib, biltanglab hovlidan uyga tomon kelayotgan edi.

– Hoy, shoshmay tur-chi!..

Panteley Prokofyevich tutaqib, ko‘cha eshikdan kirdi. Aksinya to‘xtab, uni kutib turdi. Ikkovi uyga kirishdi. Uy top-toza qilib supurilgan, yerga qizg‘ish qum sepilgan, dahlizdagi kursi ustiga hozirgina pechdan chiqqan balish non qo‘yilgan. Mehmonxonadan sandiqda yotgan kiyim-kechak isi kelar va negadir tog‘ olmasining hidi anqir edi.

Boshi katta targ‘il mushuk Panteley Prokofyevichning oyog‘i ostiga kelib erkalanmoqchi bo‘ldi. Belini kamonday bukib uning etigiga suykaldi. Lekin chol uni kursiga uloqtirib urdi va Aksinyaning qoshlariga tikilib turib o‘shqirdi:

– Bu nima degan gap, a? Ering yotgan o‘rin sovimasdan turib, ko‘zingni suzadigan bo‘ldingmi? Grishkani bunaqangi qiliqlari uchun sog‘ qo‘ymayman, bo‘lgan gapni Stepaningga yozib yuboraman!.. U ham bilib qo‘ysin!.. Ha, mochag‘ar, shuncha kaltak senga ozlik qilibdi... Shu bugundan boshlab qo‘ramga qadam bosma! O‘g‘-lim bilan oshiq-ma’shuq bo‘libsizlar, Stepan kelsa, axir, menga...

Aksinya ko‘zini qisib indamay tinglar edi. Birdaniga u sharmhayoni unutib etagini selpib yubordi, yubkasining hidini taratib, tishlarini g‘ijirlatib, qiyshanglanib, ko‘ksi bilan Panteley Prokofyevichning ustiga bostirib kelaverdi.

– Siz menga kim bo‘lasiz, qaynatammisiz? A? Qaynatammisiz?.. Menga o‘rgatmoqchi bo‘lasizmi? Borib uyingizdagi bo‘rdoqi xotiningizga o‘rgating! O‘z qo‘rangizga borib xo‘jayinlik qiling!.. Basharangiz qursin, cho‘loq, maymoq chol!.. Chiqib keting hozir, meni qo‘rqitib bo‘psiz!

– Hovliqmasang-chi, esipast!

– Esipast bo‘lsam kelin qilmassiz. Qani, tuyog‘ingizni shiqirlatib qoling-chi! Qayoqdan kelgan bo‘lsangiz, o‘sha yoqqa jo‘nang! Istasam – Grishkangizni pishirib yeyman, meni hech nima qilolmaysiz! Men Grishkani yaxshi ko‘raman. Nima qilardingiz? Urasizmi meni? Erimga xat yozib yuborasizmi?.. Menga desangiz – atamanga yozing, lekin Grishka meniki! O‘zimniki! O‘zginamniki! Men egallab olganman, hech kimga bermayman uni!..

Esankirab qolgan Panteley Prokofyevichni Aksinya ko‘ksi bilan surib borardi (ko‘ksi ham tuzoqqa tushgan kaptar singari ko‘ylagi ostida talpinardi), cholga qarab qora ko‘zlaridan o‘t chaqnatar, biri biridan battar behayo so‘zlar og‘zidan otilib chiqardi. Panteley Prokofyevich qoshlarini pirpiratib eshik tomonga chekina boshladi, burchakka qo‘ygan hassasini zo‘rg‘a paypaslab topib oldi va qo‘lini silkitib, orqasi bilan eshikni ochdi. Aksinya uni dahlizdan ham surib chiqardi va xalloslab, tutaqib ketidan baqirib qoldi:

– Xazon bo‘lgan umrim alamiga xumordan chiqquncha suyganim-suygan!.. Nima bo‘lsa peshonamdan ko‘rdim, zo‘r kelsa – o‘ldiring! Lekin Grishka meniki! O‘zginamniki!

Panteley Prokofyevich allanimalar deb po‘ng‘illab, dikanglaganicha uyiga jo‘nadi.

Chol mehmonxonada Grishkani uchratib indamay-netmay hassasi bilan orqasiga tushirib qoldi. Grigoriy buralib, otasining qo‘lidagi hassaga yopishdi.

– Nega urasiz, dada?

– Qilmishing uchun, itvachcha!..

– Nima qilibman?

– Qo‘shniga isnod keltirma! Otangni sharmanda qilma! Oyog‘ingni bilib bos, kasofat! – Panteley Prokofyevich xirillar va Grigoriyni u yoqdan bu yoqqa sudrab, hassasini tortib olmoqchi bo‘lardi.

– Urib bo‘psiz! – deb pishqirdi Grigoriy va tishlarini mahkam bosib, hassani otasining qo‘lidan yulib oldi, tizzasiga urib sindirib tashladi. Panteley Prokofyevich endi uning gardaniga jiqqa-jiqqa musht sola boshladi.

– Hali qarab tur, yig'inda abjag'ingni chiqaraman! Ha, shayton, ablah, bola emas, balo bo'lding-ku! – Chol oyog'ini likillatib, yana tepmoqchi bo'lardi. – Seni Marfushka jinniga uylantirib qo'yaman!.. Shunday adabingni berayki... Qarab tur!

To'polonni eshitib, onasi yugurib keldi.

– Prokofich! Hay, Prokofich!.. O'zingizni bosib oling!.. To'xtasangiz-chi, axir!

Biroq chol rosa tutaqishgan edi: xotiniga ham musht soldi, tikuv mashina turgan stolni ham ag'darib tashladi, nihoyat, hovuridan tushib hovliga chiqdi. Grigoriy, to'polonda yengi yirtilgan ko'ylagini yechib ulgurguncha yo'q edi, eshik taraqlab ochildi-da, g'azabnok Panteley Prokofyevich yana bo'sag'ada paydo bo'ldi.

– Bu itvachchani uylantirish kerak!.. – deb depsinib baqirdi u va Grigoriyning go'shtdor yag'riniga tikilib qoldi. – Uylantiraman!.. Ertagayoq sovchilikka boraman! Sening dastingdan odamlar basharamga qarab kulishadigan bo'p qoldi!

– Ko'ylagimni kiyib olay, innaykeyin uylantirarsiz.

– Uylantirganim bo'lsin!.. Atayin jinnisini oberaman!.. – deb baqirdi chol va eshikni taraqlatib yopdi, so'ngra peshayvonda do'qillab yurib ketgani eshitildi, nihoyat, qadam tovushi jimib qoldi.

## XI

Setrakov qishlog'ining nariyog'idagi dasht qator-qator tizilgan soyabonli aravaga liq to'lgan. Tez orada bu yerda ikki tomoniga oppoq chodirlar tikilgan, ko'chalari tikkasiga tushgan bir shaharcha paydo bo'ldi. Qoq o'rtadagi kichkina maydonchada qorovul aylanib yurardi.

Lagerda may oyi bo'ladigan mashmasha, yil sayin bir xilda o'tadigan hayot boshlanib ketgan edi. Yaylovda o'tlab yurgan otlarg'a kechasi poyloqchilik qiladigan bir to'da kazak har kuni ertalab ularni lagerga haydab kelardi. Undan keyin otlarni qashlash, egarlashga tushilardi, keyin yo'qlama boshlanar, saf tortilardi. Lager mudiri shtab-ofitser darajasidagi qo'shin starshinasi Popov baqirib-chaqirib hammaning quloq-miyasini yer, yangi kelgan yosh kazaklarni mashq qildirayotgan uryadniklar ham undan

qolishmay shang'illashardi. Tepalik ortida kazaklar yig'ilib hujumga tayyorlanishar, «dushmanni» hiyla ishlatib qurshovga olishar, chap berib orqa tomoniga o'tar edilar. Sochma o'q bilan nishonga otishardi. Yosh kazaklar qilichbozlik qilishni yaxshi ko'rar, kattalari – mashg'ulotdan qochishardi.

Kunning issig'i va aroqning kasridan odamlar xirillab qolgan, ammo uzuniga qator-qator bo'lib tizilishgan soyabonli aravalar ustida mayingina xushbo'y shabada esardi, yiroqlarda yumronqoziqlar chiyillashar, keng dashtning etagidagi uylar va oqargan imoratlardan chiqayotgan tutun olisdan arang ko'rinardi.

Lagerdan ketishga bir hafta qolganda, to'pchi Ivan Tomilinning tug'ishgan ukasi Andreyning xotini erini ko'rgani keldi. Xotin bo'g'irsoq, xilma-xil yemish hamda bir talay qishloq yangiliklarini ham ola kelgan edi.

Ertasi tong otmasdan u jo'nab ketdi. Kazaklar uy-ichlariga, yaqinlariga salom aytib qo'yishni va boshqa ishlarini shu xotinga topshirdilar. Yolg'iz Stepan Astaxov unga hech narsa topshirmadi. U bir kun avval kasal bo'lib, aroq bilan davolanib yotgan edi; o'sha kuni Tomilinning xotini tugul, butun olam ham ko'ziga ko'rinmasdi. Mashg'ulotga ham chiqmadi; iltimosiga muvofiq feldsher besh-o'nta zuluk solib qon oldi. Stepan yolg'iz ich ko'ylakda o'z aravasining g'ildiragiga suyanib o'tirar, oppoq shapkasi gupchak moyiga suykalib bulg'anardi, lekin u labini cho'chchaytirib, ko'ksining ikki tomoniga yopishib olgan zuluklarning so'rishini, harom qonga to'yib shishishini tomosha qilardi.

Uning oldida turgan polk feldsheri tamakisining tutunini siyrak tishlari orasidan chiqarib:

– Yengil tortdingmi? – deb so'radi.

– Ko'ksimning tag-taglaridan tortib so'ryapti. Yuragim endi orom olayotganday...

– Zulukdan o'tkir davo bo'lmaydi.

Bularning yoniga Andrey Tomilin keldi va imlab:

– Stepan, bir og'iz gap aytmoqchi edim, – dedi.

– Gapir.

– Birpasga chetga chiqsang ...

Stepan yo‘talib o‘rnidan turdi-da, Tomilin bilan bir chetga o‘tdi.

– Qani, gapir.

– Xotinim keluvdi... Bugun jo‘natdim.

– E...

– Xotining to‘g‘risida qishloqda har xil gap yurgan emish...

– Nima?

– Lekin yaxshi gap emas.

– Be!..

– Grishka Melexov bilan yurarmish... Ochiqdan ochiq...

Stepanning rangi oqarib ketdi, zuluklarni yulib olib tashlab, oyog‘i bilan bosib-bosib o‘ldirdi. So‘nggi zulukni majaqlab, ko‘ylak yoqasini tugmaladi, lekin nimadandir cho‘chiganday yana tugmalarini yechib tashladi... Oqarib ketgan lablari qaltirab, bema’ni iljayar, ko‘karib cho‘chchayib ketardi... Tomilinga, Stepan judayam qattiq, tish o‘tmaydigan bir narsani chaynatayotganday ko‘rindi. Asta-sekin yuziga qon yugurdi, qimtingan lablari qimir etmay, toshday qotib qoldi. Stepan shapkasini yechib, unga yopishgan qora moyni yengi bilan surkayverib, oppoq shapkani birato‘la iflos qildi, nihoyat:

– Keltirgan xabaring uchun rahmat, – deb qo‘ydi.

– Aytib qo‘ymoqchi edim... Kechirasan... Uyingda shunaqa gaplar bormish...

Tomilin achingan kishiday, qo‘li bilan chalvariga urib qo‘ydi-da, egari olinmagan oti yoniga ketdi. Lager g‘ovur-g‘uvur ichida: kazaklar qilichbozlik mashqidan qaytishgan edi. Stepan furajkasidagi qora dog‘ga jahl bilan qattiq tikilgancha birpas turib qoldi. Chala o‘lik bir zuluk etigiga tarmashib chiqmoqda edi.

## XII

Kazaklarning lagerdan qaytishiga bir yarim hafta qolgan edi.

Aksinya bemavrid muhabbat alangasida o‘rtanmoqda. Grigoriy, otasining do‘qlariga parvo qilmay, har kecha sekingina unikiga borar va tong otmasdan burun qaytib kelardi.

Ikki hafta orasida Grigoriy, olis yo‘l bosgan otday, darmoni qurib qoldi. Har kecha uyqudan qolaverganidan, yonoqlari turtib

chiqqan qizilmag'iz yuzining terisi ko'karib ketdi, qop-qora ko'zlari ichiga tushib, suzilib qoldi.

Aksinya endi ro'molga burkanmay yuraveradigan bo'ldi, uning ko'z ostlari ko'karib ketgan edi. Do'rdoq va ishtiyoqmand lablari hayosizlarcha, beandisha iljayardi.

Grigoriy bilan Aksinya o'rtasidagi majnunona muhabbat bora-bora juda oshkora tus olgan edi, ular behayo ishq alangasida birga o'rtanishar, or-nomusni yig'ishtirib, hammaning ko'z oldida ochiq-oydin va bemalol yuraverishardi; ular kundan kunga ozib, yuzlari qorayib ketdi; odamlar bularni uchratganda yuzlariga tikka qarash-dan iymanar edilar.

Aksinya bilan ikkisining orasidagi aloqaga shama qilib, ilgari Grigoriyga tegishib yuradigan o'rtoqlari ham endi indamay qo-lishdi; oralariga Grigoriy aralashsa o'ng'aysizlanadigan, gaplarini yo'qotib qo'yadigan bo'lishdi. Xotinlar og'izda Aksinyani so'ksalar ham, ichdan unga havaslari kelar, Stepanning kelishini to'rt ko'zlab kutishar va nima bo'lishini bilmay ich-etlarini yer edilar. Ayrilishda to'planib olishib tusmollar edilar.

Agar Grigoriy askar xotini Aksinya bilan yurganini xo'ja ko'rsinga odamlardan yashirganda, agar askar xotini Aksinya ham Grigoriy bilan oralaridagi bordi-keldini bir oz xufiya tutganda va uning bilan bir qatorda boshqalarni ham quruq qo'ymaganda bunchalik gap-so'z ham bo'lmasdi; bularning aloqalari unchalik ko'zga ham tashlanmas, aybga ham qo'shilmasdi. Qishloq ahli gapi-rib-gapirib, unutib yuborgan bo'lardi. Lekin bular oshkora aloqa qilishardi; ikkisini qisqa muddatli aloqa emas, balki kuchli bir ehtiros bir-biriga bog'lagan edi, shuning uchun hamqishloqlari buni zo'r jinoyat, beadablik deb hisoblashar va Stepan kelsa o'zi bir yoq-lik qiladi, degan qarorga kelib, jimgina kutib turishardi.

Karavot ustiga kanop tortib qo'yilgan. Kanopga ipdan bo'shagan oq va qora g'altaklar tizilgan. Ular uyni bezatish uchun osib qo'yilgan. Pashshalar shu yerda tunaydi, o'rgimchak ham bir uchini shunga, bir uchini shipga tortib in qo'ygan. Grigoriy boshini Ak-sinyaning muzdek yalang'och qo'liga qo'ygan holda shipga tikilib, g'altaklarni tomosha qilib yotadi. Aksinya ikkinchi qo'li bilan – ish-

dan dag'allashgan barmoqlari bilan chalqanchasiga yotgan Grigoriyning ot yolidek qattiq jingalak sochlarini silaydi. Aksinyaning panjalaridan yangi sog'ilgan sut hidi keladi; Grigoriy boshini burganda burni uning qo'ltig'iga taqalib qoladi, ko'pchimagan achitqiday o'tkir ter hidi dimog'iga kelib uriladi.

Uyda, ana shu to'rt chekkasi qubbalik, bo'yalgan yog'och karavotdan boshqa, eshik oldida yana usti tunuka bilan qoplangan katta bir sandiq turadi; Aksinyaning seplari va kiyim-kechaklari shu sandiqda saqlanadi. To'r tomondagi burchakka stol qo'yilgan, ustiga kleyonka yoyilgan, kleyonkada general Skobelevning egilgan bayroqlar tomonga ot choptirib ketayotgan surati bor; ikkita stul qo'yilgan burchak tepasida gardishi anchayin yaltiroq qog'oz bilan yasatilgan ikonalar osig'liq turadi. Yon tomonda, devorda – pashsha o'tirib ketgan fotosuratlar ko'rinadi. Sochlari o'siq, kerilgan ko'kraklariga soat zanjirlarini taqqan, qilichlarini yalang'ochlab ushlab turgan bir to'da kazaklar qarab turadi, bu – Stepanning haqiqiy xizmat davrida o'rtoqlari bilan oldirgan surati. Qoziqda Stepanning mundiri osig'ligicha qolibdi. Deraza chaspaklari orasidan oy mo'ralaydi, mundir pogonidagi uryadniklik alomati bo'lgan ikkita oq lentani ishonmay timirskilab ko'rayotganga o'xshaydi.

Aksinya uh tortib nafas oladi va Grigoriyni ikki qoshi orasidan o'padi.

– Grisha, qo'zichog'im...

– Nima deysan?

– To'qqiz kun qoldi, xolos...

– Hali uzoq ekan.

– Men nima qilaman endi, Grisha?

– Qaydam.

Aksinya xo'rsinishdan o'zini zo'rg'a tiyib oladi, Grishaning kokillarini silab, chigillarini yoya boshlaydi.

– Stepan meni tirik qo'ymas... – deydi u, lekin buni savol tariqasida gapirdimi, yo qat'iy qilib aytdimi, bilib bo'lmasdi.

Grigoriy churq etmaydi. Uni uyqu bosmoqda. Yumilib ketayotgan ko'zlarini zo'rg'a ochadi, ro'parasida mo'ltirab turgan Aksinyaning qop-qora ko'zlariga ko'zi tushadi.

– Erim kelsa meni tashlab ketarsan-a? Qo‘rqasanmi?

– Men nimasidan qo‘rqaman, sen xotinisan, sen qo‘rqsang bo‘ladi.

– Yonimda sen bo‘lsang hech qo‘rqmayman, kunduzlari o‘ylasam yuragim orqamga tortib ketadi.

Grigoriy boshini orqasiga tashlab esnab oladi-da:

– Stepanning kelishi-ku mayliga-ya, – deydi. – Dadam meni uylantirmoqchi, bunisi chatoq!

Grigoriy jilmayib kuladi, yana bir nima demoqchi bo‘ladi-yu, lekin boshi ostidagi Aksinyaning qo‘li birdaniga bo‘shashib yostiqqa botib ketganini, birozdan keyin yana darmonga kirib boyagi holiga qaytganini sezadi-da, indamay qo‘ya qoladi.

– Kimga unashishdi? – deb so‘raydi Aksinya pichirlab.

– Endi unashgani borishmoqchi. Onam: «Korshunovning qizi – Natalyaga sovchi bo‘lib borsakmikan», deydi.

– Natalya... Natalya – chiroyli qiz... judayam chiroyli. Mayli, uylanaver. Anovi kuni cherkovda ko‘ruvdim... Biram yasangan edi...

Aksinya tez-tez gapiradi, biroq uning poyma-poy so‘zlari arang eshitiladi.

– Men uning husniga non botirib yeymanmi?.. Menga qolsa, senga uylanardim.

Aksinya qo‘lini Grigoriyning boshi ostidan shartta tortib oladi va quruq ko‘zlarini derazaga tikadi. Tun sarg‘ish chodirini hovliga yoyib tashlagan. Omborxonaning vahimali soyasi yerga tushib turadi. Chigirtkalar chirillaydi. Don tomonda suv buqasi bo‘kiradi va uning «vuh, vuh» degan yo‘g‘on tovushi yalang qat derazadan bemalol eshitiladi.

– Grisha!

– Yana nimani o‘ylab topding?

Aksinya Grishkaning erkalashga o‘rganmagan dag‘al qo‘llaridan ushlab, ko‘ksiga bosadi, qoni qochgan muzday yuzlariga surtadi va:

– Qaysi go‘rdanam sen la’natiga yo‘liqdim-a? Endi nima qilaman?.. Gri-i-ishka!.. Yuragimni tilka-pora qilding-ku!.. Men rasvo bo‘ldim... Stepan kelsa – nima deb javob qilaman?.. Kim yonimga tushadi-a!.. – deb fig‘on qiladi.

Grigoriy indamaydi, Aksinya uning chiroyli qirra burniga, soya to‘sgan ko‘zlariga, qimir etmay qolgan lablariga g‘amgin nazar tashlaydi... Nihoyat, tuyg‘ulari qaynab, sabr kosasidan toshib ketadi. Aksinya o‘zini bosolmay, Grigoriyning yuz-u ko‘zlaridan, bo‘yniyu qo‘llaridan, qop-qora jingalak jun o‘sgan ko‘kragidan o‘pa boshlaydi. Ora-sira nafasi tiqilib shivirlaydi, uning titragani Grigoriyga bilinib turadi.

– Grisha, jonim... Jonginam… Kel, bu yerdan qochaylik. Ko‘zimning nuri, Grisha! Hamma narsadan kechaylik. Erimdanam kechaman, hamma narsamdanam. Menga sen bo‘lsang – kifoya... Konga boramiz, bu yerdan juda uzoqda. Seni ko‘z qorachig‘imday asray, hamdarding bo‘lay... Paramonov konida tog‘am bor, o‘zi qorovul, bizga, albatta, yordam qiladi... Grisha! Gapirsang-chi, axir, bir nima desang-chi!

Grigoriy chap qoshini chimirib o‘ylanib qoladi va birdaniga o‘tday chaqnagan qora ko‘zlarini ochadi. Uning ko‘zlari istehzoli kuladi.

– Senda es yo‘q, Aksinya, tentaksan! Boyadan beri chuldiraysan, lekin, biron ma’nilik gap gapirmading. Xo‘sh, o‘zing ayt-chi, uyro‘zg‘orni tashlab qayga boraman? Bu yil harbiy xizmatga borishim kerak. Bu maslahating yaramaydi... yerimizni tashlab hech yoqqa ketolmayman. Bu yerlar – keng, yayrab nafas ololasan, u yoqda nima bor? Bultur qishda dadam bilan stansiyaga boruydim nafasim bo‘g‘ilib o‘layozdim. Parovozlar o‘kiradi, badbo‘y ko‘mir isi hamma yoqni bosib ketgan. Odamlar qanday tirikchilik qilishadi – bilmadim, o‘sha yoqimsiz isga o‘rganib ketishganmi deyman... – Grigoriy jirkanganday tuflaydi va yana: – Men qishloqdan hech yoqqa qo‘zg‘almayman, – deydi.

Hovlini qorong‘ilik bosadi: oy bulutlar orasiga yashirinadi. Hovlini yoritib turgan sarg‘ish shu’la birpasda so‘nadi, soyalar yo‘qolib bilinmay ketadi va chetan devor orqasidan qorayib ko‘ringan narsaning nimaligini, bultur uyib qo‘yilgan cho‘pchakmi yo chetan devorga suyanib o‘sgan bulturgi burganmi ekanligin bilib bo‘lmaydi.

Uy ichi ham qorong‘ilashadi. Deraza yonidagi qoziqda turgan Stepan mundirining oppoq uryadniklik nishonlari ham bo‘zarib ket-

ganday ko'rinadi, lekin sokin zulmat ichida Aksinyaning kiftlari dag'-dag' qaltiraganini, qo'llari bilan siqib olgan boshi yostiqda sapchib-sapchib tushganini Grigoriy ko'rmaydi.

## XIII

Tomilinning xotini kelib ketgan kundan beri Stepanning rangida rang qolmadi. Qosh-qovog'i osilib, peshonasini chuqur va xunuk ajin bosdi. Stepan o'rtoqlari bilan kam gaplashar, sal narsaga tutaqib, janjal chiqarardi; u bekordan bekorga vaxmistr Pleshakov bilan so'kishib qoldi, Petro Melexovning betiga ham qaramay qo'ydi. Ikkisini shu damgacha bog'lab kelgan do'stlik ipi uzildi. Alami zo'r, g'azabi qaynagan Stepan, xuddi egasini olib qochgan otday jarlikka qarab surib ketmoqda edi. Ikki do'st uyga qaytarda bir-birlariga ashaddiy dushman bo'lib qoldi.

So'nggi kunlarda ikkovi bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q, aloqalari ham chigillashgan; buning ustiga shunday bir hodisa yuz berdiki, bu narsa chigilning tez yechilishiga sabab bo'ldi. Birga kelgan besh kishi – lagerdan yana birga qaytishdi. Aravaga Petro bilan Stepanning otlari qo'shildi. Xristonya o'z otini mindi. Andrey Tomilinni bezgak tutar, u shinelga o'ralib olib soyabonli arava ichida yotar edi. Fedot Bodovskovning aravakashlikka xushi yo'qligi uchun aravani Petro haydadi. Stepan yo'l bo'yidagi sassiq alaflarni qamchisi bilan qiyratib, arava yonida yayov borardi. Yomg'ir yog'ib turar, qop-qora balchiq yelimday yopishar va g'ildirakka ilashib, birga aylanardi. Osmon kuz faslidagidek, bulut bilan qoplanib, kulrang tus olgandi.

Tun kirdi. Nechog'lik tikilib qaralsa ham, qishloq chiroqlari ko'rinmasdi. Petro otlarni ayamay qamchilardi. Shu vaqt qorong'ilik ichidan Stepan:

– Nima, sen o'z otingni ayaysan-u, menikini qamchilayverasanmi?! – deb baqirdi:

– Ko'zingni ochib qara. Kimniki tortmasa – o'shanikini savaladim.

– O'zingni aravaga qo'shib qo'yaymi? Turklar juda tortag'on bo'ladi...

Petro tizginni tashladi.

– Nima demoqchisan?

– Joyingdan qo‘zg‘alma, o‘tir!

– Sen ham ovozingni o‘chir.

Ot minib kelayotgan Xristonya Stepanga yaqin kelib:

– Nega tirg‘ilasan? – deb do‘ng‘illadi.

Stepan indamadi. Qorong‘ida uning yuzi ko‘rinmasdi. Yarim soat chamasi churq etmay yo‘l bosishdi. G‘ildiraklarning bilchillatib loy bosgani eshitilardi. Soyabon ustiga sepalayotgan mayda yomg‘irning shitir-shitiri uyquni keltirardi. Petro tizginni qo‘yib yuborib tamaki chekar va Stepan bilan yana to‘qnashib qolganda, basharasiga shartta-shartta aytmoqchi bo‘lgan haqoratomuz so‘zlarni o‘ylab topardi. Borgan sari uning zardasi qaynardi. Ana shu nomard Stepanni boloxonador qilib so‘kkisi, mayna qilgisi kelardi.

– Nariroq tur. Aravaga chiqib olay, – deb Stepan Petroni astagina turtdi-da, pillapoyaga irg‘ib chiqdi.

Shunda arava birdaniga silkinib to‘xtab qoldi. Otlar tiyg‘anishib tipirchilay boshladi, taqalaridan o‘t chaqnab, barkalari taraqlab ketdi.

– Drrr! – deb baqirdi Petro va aravadan irg‘ib tushdi.

– Nima bo‘ldi? – deb hovliqib qoldi Stepan. Xristonya ot choptirib yetib keldi.

– Axir sindirdinglarmi, arvoh urgurlar?

– Gugurt chaq.

– Kimda gugurt bor?

– Stepan gugurtingni uzat!

Arava oldida ot pishqirib, tipirchilab yotardi. Allakim gugurt chaqdi. Tangaday yer yorishdi-yu, gugurt yana o‘chdi. Petro qaltiroq qo‘llari bilan yiqilgan otning sag‘risini silab ko‘rdi. Yuganidan tortib:

– Chu!.. – dedi.

Ot qattiq hansirab yonboshiga quladi, arava shotisi qarsillab ketdi. Stepan yugurib kelib ustma-ust gugurt chaqdi. Yiqilgan – uning oti edi, ot boshini ko‘tarib-ko‘tarib qo‘yardi, oldingi oyog‘i tizzasigacha yumronqoziq iniga kirib ketgandi.

Xristonya shoshib-pishib, zo‘rg‘a abzalini chiqardi.

– Oyog‘ini tortib ol!

– Petroning otini aravadan chiqar, qani, tez bo‘l!

– Tak-e, la’nati! Drrr!..

– Tepkilayapti: badbaxt. Chetroq tur!

Nihoyat, qiynala-qiynala, Stepanning otini turg‘izishdi. Hamma yog‘i bulg‘angan Stepan, otni jilovidan ushlab turdi. Xristonya tizzasi bilan loyga cho‘kkalab, otning mayib bo‘lgan oyog‘ini silab ko‘rdi.

– Singanga o‘xshaydi, – deb g‘ulduradi u.

Fedot Bedovskov dir-dir titrayotgan ot yag‘riniga shapalog‘i bilan urib qo‘ydi.

– Qani, yurgizib ko‘r-chi. Balki bosib ketar? Petro otning jilovidan tortdi. Ot oldingi chap oyog‘ini bosolmay irg‘ishladi va kishnab yubordi. Tomilin shinelini kiymoqchi bo‘lib yengiga qo‘lini suqar va achinib ot yonidan ketmas edi.

– Otni rasvo qildinglar!.. Axiri boshiga yetdinglar, attang!

Shu damgacha indamay qarab turgan Stepan, xuddi shu gapni kutganday, Xristonyani itarib tashladi-da, Petroga yopisha ketdi. Boshini mo‘ljallab turib solgan edi, musht yelkasiga kelib tushdi. Ikkovi olisha ketdi, loyga ag‘anashdi. Birisining ko‘ylagi «tar» etib yirtildi. Stepan Petroni bosib oldi va tizzasi bilan boshini ezib turib rosa mushtladi.

Xristonya so‘ka-so‘ka, ularni ajratib qo‘ydi. Petro qon tuflab:

– Nega urding?! – deb baqirdi.

– To‘g‘ri hayda, ablah! Yo‘lsiz joydan ot solma!.. Petro yulqinib Xristonyaning qo‘lidan chiqmoqchi bo‘ldi.

Lekin Xristonya bir qo‘li bilan uni aravaga tirab:

– Bas, bas, bas! Men bilan o‘ynashma! – deb vag‘illar edi.

Petroning arg‘umog‘i yoniga Fedot Bedovskovning pakanagina va lekin juda tortadigan otini qo‘shishdi.

– Mening otimni sen minib ol! – dedi Stepanga Xristonya va o‘zi Petro yoniga – aravaga chiqib oldi.

Yarim kechada bular Gnilovskiy qishlog‘iga yetib kelib eng chetdagi qo‘ra yonida to‘xtashdi. Xristonya tunashga ijozat so‘ragani o‘sha uy tomonga ketdi. Shineliga it tirmashib etagidan tishlaganiga

parvo qilmay, u deraza yoniga borib darpardani ochdi-da, tirnog'i bilan oynani tiqillata boshladi.

– Xo'jayin!

Yomg'ir shitirlab yog'ib turar, it tinmay akillar edi.

– Xo'jayin! Hoy, baraka topkurlar! Xudo xayr bersin, bir kecha tunab ketishga ruxsat beringlar. Nima? Askariy xizmatdan, lagerdan kela yotirmiz. Necha kishi deysizmi? Beshtamiz. E, xayriyat, xudo xalloq. Kiraveringlar! – dedi nihoyat darvoza tomondagi sheriklariga.

Fedot otlarni hovliga olib kirdi. Hovli o'rtasida yotgan yog'och tog'oraga qoqilib so'kindi. Otlarni bostirma tagiga bog'lashdi... Tomilin uyga kirdi, bezgakning zo'ridan uning tishi tishiga tegmay takillardi. Soyabon ichida Petro bilan Xristonya qolishdi.

Erta tong mahalida yo'l hozirligini ko'rishdi. Stepan uydan chiqdi, uning orqasidan bukri kampir pildirab kelardi. Otlarni aravaga qo'shayotgan Xristonya rahmi kelganday bo'lib kampirga gap qotdi:

– Voy, buvijon-ye, ikki bukchayib qolibsiz-u! Cherkovda sajda qilish ham oson bo'p qopti; sal egilsangiz – boshingiz yerga yetadi.

– Aylanayin, ataman yigit, sajdani menga chiqargan, ta'nani – senga... Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga... – Kampir xunukkina iljayib qo'ydi, Xristonya, uning but-butun mayda tishlarini ko'rib hayron qoldi.

– Iye, cho'rtan baliqdanam sertish ekansiz-ku. Men bechoraga o'ntaginasini qarz bersangiz-chi! Yosh bo'lsam ham kemshikman, chaynashga tishim yo'q.

– Senga bervorsam – o'zim nima qilaman, yaxshi yigit!

– Sizga ot tishini qo'yib beramiz. Baribir, yaqinda o'lasiz, u dunyoda tish ko'rishmas emish, so'roqchi farishta ot jallobi emasdir, axir.

– Sayrayver, bulbulim, – deb kuldi aravaga chiqayotgan Tomilin.

Kampir Stepan bilan bostirma tomonga ketdi.

– Qaysi biri?

– Qorasi, – deb og'ir nafas oldi Stepan. Kampir hassasini yerga qo'ydi va otning mayib oyog'idan ushlab, erkakchasiga dast

ko‘tardi. Bujmaygan ingichka barmoqlari bilan otning tizzasini anchagacha paypaslab ko‘rdi. Arg‘umoq qulog‘ini chimirib tishlarini irjaytirar, og‘riqqa chidamay keyingi oyoqlarini bukardi.

– Sinmabdi, kazak, oyog‘i butun. Mayli qoldir, dori-darmon qilaman.

– Nafi bo‘larmikan, moma?

– Nafimi? Kim biladi deysan, bolam... Nafi bo‘lsa kerak deyman.

Stepan qo‘l siltadi-da, arava tomon yurdi. Kampir uning ketidan ko‘zini qisinqirab:

– Qoldirasanmi yo yo‘qmi?.. – deb so‘radi.

– Mayli, qolsin.

Xristonya esa:

– Shu kampir bo‘ladigan bo‘lsa, albatta tuzatadi, sog‘ qolgan uch oyog‘iniyam sindirib bermasa go‘rgaydi. Kelib-kelib bukri doktorning qo‘liga tushding, og‘ayni, – deb hoholar edi.

## XIV

– ...Men uni sog‘inib somon bo‘ldim, aylanay, buvijon. Kundan kunga sarg‘ayib so‘lyapman. Yubkamni bugun toraytirib tepchib olsam ertasi yana keng kelaveradi... Qo‘ra yonidan o‘tganini ko‘rsam yuragim talpinadi, ichim yonadi... o‘zimni yerga tashlab, bosgan izlarini o‘psam deyman... Yoki meni issiq-sovuq qilganmikin-a?.. Bir ilojini qiling, buvijon! Uni uylantirishmoqchi... O‘zingiz chorasini toping, sadag‘angiz ketay! Nima desangiz berayin. Xohlasangiz, oxirgi ko‘ylagimni yechib berishga ham tayyorman, tezroq davosini qiling!

Drozdixa Moma atrofini ajin bosgan o‘tkir ko‘zlarini Aksinyaga tikib, uning alamli hasratini tinglar va bosh chayqar edi.

– O‘zi kimning bolasi?

– Panteley Melexovning o‘g‘li.

– Anavi turkningmi?

– Ha.

Moma o‘pirilgan og‘zi bilan tamshanib qo‘ydi, biroq hadeganda javob qila qolmadi.

– Ertaga barvaqt oldimga kelasan, juvon. Tong yorishay deganda kelgin. Don yoqasiga boramiz, g‘am-u hasratlarni suvga oqizamiz. Uyingdan bir chimdim tuz ola kelgin. Shunday bo‘lsin.

Aksinya kambar sariq shol ro‘mol bilan yuzini burkadi-da, bukchayib olib darvozadan chiqib ketdi.

Uning qorayib ko‘ringan gavdasi zulmat ichida g‘oyib bo‘ldi. Faqat kavushlarining shipillagani eshitildi. Bora-bora u ham jimib qoldi. Qishloqning bir chekkasidan baqirib aytilgan ashula ovozi kelar edi.

Tuni bilan uxlamagan Aksinya tongotarda Drozdixaning derazasi ostiga keldi.

– Buvijon!

– Kim u?

– Menman, buvijon. Turing.

– Hozir, kiyinib olay.

Ikkisi tor ko‘cha bilan yurib, Don bo‘yiga tushishdi. Pristan oldidagi taxta so‘ri yonida, suvga tashlangan aravaning oldingi tegarachigi ivib yotar edi. Suv bo‘yidagi muzdek qum oyoqqa tikandek qadalar, Dondan sovuq tuman ko‘tarilardi.

Drozdixa qoqshol qo‘li bilan Aksinyani qo‘lidan ushlab, uni suvga tomon tortadi.

– Tuz opkeldingmi? Menga ber. Kun chiqarga qarab cho‘qinib ol.

Aksinya cho‘qinadi, ko‘tarilib kelayotgan quyoshga g‘azabnok nazar tashladi.

– Bir hovuch suv olib ich, – deb buyurdi Drozdixa.

Aksinya yenglarini ho‘l qilib suv ichib oldi. Duoxon Moma mavjlanib turgan suv yoqasida qora o‘rgimchak singari cho‘qqayib o‘tirib olib, shivir-shivir duo o‘qiy boshladi:

– Azim daryo ostidan chiqqan muzday buloqlar... kuygan jismini... yongan yuragini... Baloyi nogahondan... Muqaddas but bilan... yo Bibi Maryam, yo arvohlar... Ul bandayi xudo Grigoriyni... – degan so‘zlar Aksinyaning qulog‘iga kirar edi.

Drozdixa tuzdan pichasini oyog‘i ostidagi namiqqan qum ustiga sochdi, bir chimdimini suvga va qolganini – Aksinyaning qo‘yniga soldi.

– Kiftingdan suv o‘girib soch. Tezroq!

Aksinya uning aytganini qildi, ko‘ngli g‘ash bo‘lib, Drozdixaning qoramag‘iz yuzlariga xo‘mrayib qaradi.

– Bo‘lgani shumi?

– Bor endi, jonginam, nonushtangni qil. Tamom. Aksinya chopa-chopa xalloslab uyiga qaytib keldi. Sigirlari qo‘rada ma’rashardi. Endigina uyqudan ko‘zini ochgan qizil yuzli Darya Melexova kamonday qoshlarini o‘ynatib, o‘z sigirlarini podaga haydab borardi. U yonidan yugurib o‘tgan Aksinyaga kulib qaradi:

– Yaxshi yotib turdingmi, qo‘shni?

– Xudoga shukur.

– Sahar turib qayoqdan kelyapsan?

– Ishim chiqib, bir joyga boruvdim.

Ertalabki ibodatga chorlab cherkovda jom chalindi. Mis qo‘ng‘iroqlarning jaranglagan sadosi to‘qinlanib, atrofga yoyilardi. Tor ko‘cha tomondan podachi bola qamchisini qarsillatib kelardi.

Aksinya shoshib-pishib, sigirlarini podaga haydadi-da, soqqan sutini suzish uchun dahlizga kirdi. Tirsagigacha shimarilgan qo‘llarini fartugiga artdi; xayoli qochib, ko‘pirib toshgan suzgichga qanday sut quyayotganini ham bilmasdi.

Ko‘chadan gumburlagan g‘ildirak tovushi eshitildi. Otlar kishnadi. Aksinya chelakni yerga qo‘yib, derazaga qaradi.

Stepan qilichini avaylab ushlab, eshik tomon kelmoqda edi. Kazaklar maydon tomonga ot choptirib oldinma-ketin o‘tib turishardi. Aksinya fartugini changallab, skameykaga o‘tirib qoldi... Zinapoyadan qadam tovushi eshitildi... Oyoq tovushi dahlizga yaqinlashdi... Eshik oldiga yetib keldi...

Ozib ketgan va rangi o‘chgan Stepan ostonada paydo bo‘ldi.

– Xo‘sh...

To‘lishib yetilgan Aksinya gandiraklab uning oldiga bordi va:

– Mana, ur! – dedi-da, yoni bilan turib berdi.

– Xo‘sh, Aksinya...

– Nimasini yashiray, men gunohkorman, ur, Stepan.

Aksinya bo‘ynini qisib, g‘ujanak bo‘lib, unga yuzma-yuz tek turar, faqat qorninigina qo‘li bilan to‘sib olgan edi. Qo‘rqqanidan aft-angori butunlay o‘zgarib, rangi quv o‘chgan, osti qorayib ketgan

ko'zlarini yummay qarab turar edi. Stepan gandiraklab ketib, o'zini o'nglab oldi-da, xotinining yonidan o'tib ketdi. Stepanning badanidan, yo'lda chang bosgan kir ko'ylagidan achchiq ter hidi kelar edi. U shapkasini ham yechmay, karavotga borib yotdi. Birozdan keyin kiftini ko'tarib, yotgan joyida shop-shaloplarini yecha boshladi. Har doim buralib turadigan kelishgan mo'ylovi hozir osilib qolgan edi. Aksinya yuzini o'girmay, ko'z qiri bilan unga qarab-qarab qo'yar, ora-sira seskanib tushardi. Stepan oyoqlarini karavot panjarasiga qo'ydi. Etigiga ilashgan loy osilib turardi. U shipga qarar, qilich tasmasidagi shokilani barmoqlari bilan titkilardi.

– Ovqat qilganing yo'qmi?

– Yo'q...

– Yegani biror narsa keltir.

Stepan mo'ylovlarini tegizib kosadan sut ichdi. Nonni ham uzoq chaynadi, qip-qizil lunjlari do'ppayib, nari borib, beri kelardi. Aksinya pech yonida turardi; erining ovqat yeyayotganda qimirlab turgan kemirchakli kichkina quloqlariga qarab vahm bosardi.

Stepan o'rnidan turdi-da, cho'qindi.

– Gapiring, oyimtilla, – dedi u.

Aksinya boshini quyi solib, stol ustini yig'ishtirar, dami ichiga tushib ketgan edi.

– Qani, ayt-chi, eringni qanday kutding, ering sha'nini bulg'atadigan ish qilmadingmi? Xo'sh?

To'satdan boshiga tushgan kuchli musht zarbi Aksinyani bo'sag'a tomonga uchirib yubordi. Xotin orqasi bilan eshikning kesakisiga urildi-da, «uh» deb yubordi.

Stepan faqat nimjon va xomsemiz ayollarnigina emas, man-man degan azamatlarni ham boshiga bir urib qulata olardi. Aksinya qo'rqqanidanmi yoki joni qattiqligidanmi, birozdan keyin o'ziga kelib boshini ko'tardi va emaklab tura boshladi.

Stepan uyning o'rtasida tamakisini tutatib, Aksinya o'rnidan tikka turib olguncha qarab turdi-da, tamaki xaltasini stol ustiga tashladi, xotini esa payt poylab turib eshikni tars etib yopdi-da, ura solib qochdi.

Eri ketidan quvladi.

Qonga belangan Aksinya shamolday uchib, Melexov bilan bularning qo'rasini ajratib turgan chetan devor tomon yugurdi. Biroq Stepan chetan oldida unga yetib oldi. Uning qora panjasi lochin singari Aksinyaning sochlaridan changallab, bir silkib sho'rlikni yerga, kul ustiga ag'anatdi (pechkadan chiqqan kullarni Aksinyaning o'zi har kuni chetan devor tagiga to'kar edi).

Eri, qo'lini orqasiga qilib olib, o'z xotinini etigi bilan tepkilar ekan, bu bilan kimning ishi bor deysiz?.. Qo'li cho'loq Alyosha Shamil ko'chadan o'tib ketayotib, bularga qarab ko'zlarini pirpiratib qo'ydi, tirjayganida dukki soqoli tarvaqaylab ketdi; Stepanning nega bunday qilayotganini tushunib, ichida: «Ursa uribdi-da, o'zining nikohlik xotini-yu», – deb qo'ydi.

Lekin Shamil to'xtab, Stepan xotinini urib o'ldiradimi, yo'qmi deb tomosha qilmoqchi edi-yu (bunaqangi tomoshani kimning ko'rgisi kelmaydi deysiz), biroq vijdoni bunga yo'l qo'ymadi. Bu – erkak kishiga yarashmaydi-ku, axir.

Uzoqdan qaragan kishi Stepan o'yin tushyapti, deb gumon qilishi mumkin edi. Boshda Grisha ham, Stepanning irg'ishlashini derazadan ko'rib, shunday deb o'ylagan edi. Lekin diqqat qilib qarab voqeaning nimaligini tushundi va yugurib uydan chiqdi. Mahkam qisib olgan mushtlarini ko'ksiga bosib, oyoq uchida chetan devor tomon yugurdi; uning ketidan etigini do'qillatib Petro ham chopib yetib keldi.

Baland chetan devor ustidan Grigoriy qushday uchib o'tdi. Yugura kelib Stepanning orqasidan solib qoldi. U gandiraklab ketdi, lekin orqasiga burilib, Grigoriyga ayiqday chang soldi.

Aka-uka Melexovlar jon-jahdlari bilan mushtlashar, Stepanni quzg'unday cho'qishardi. Stepanning qo'rg'oshinday og'ir zarbidan Grigoriy bir necha marta yerga dumaladi. Tullak Stepan qarshisida u jo'jalik qildi. Ammo chayir, pakana Petro musht yesa, qamishday egilardi-yu, lekin yiqilmasdi.

Stepanning bir ko'zi olxo'riday ko'karib shishib ketgan edi, u sog' ko'zini chaqnatib zinapoya tomon tisarila boshladi.

Petrodan yugan so'ramoqchi bo'lib kelgan Xristonya ularni ajratib qo'ydi.

– Tarqaling! – deb baqirdi u qo'l siltab. – Bas qiling, bo'lmasa, atamanga xabar qilaman!

Petro qon aralash yarimta tishini avaylab kaftiga tuflab tushirdi.

– Ketdik, Grisha. Ovloq joyda qo'limizga tushar...

Hamma yog'i ko'kargan Stepan zinapoyadan:

– Sen qo'limga tushmaysan-a! – deb do'q qildi.

– Mayli, ko'rarman!

– Ko'rasan! Ichak-chovoqlaringni ag'darib tashlarman!

– Rostingmi, yo hazillashyapsanmi?

Stepan zinapoyadan sakrab tushdi. Grisha o'qday otilib uning oldiga bordi, biroq Xristonya uni ushlab qoldi va itarib, eshikdan chiqarar ekan:

– Endi bas qilmasang, itning bolasiday do'pposlayman, – deb qo'ydi.

O'sha kundan boshlab, Melexovlar bilan Stepan Astaxovning oralaridagi kek yechilmas tugunga aylandi.

Oradan ikki yil o'tgandan keyingina Grigoriy Melexov Sharqiy Prussiyada, Stolipin shahri yonida bu tugunni yechishga muyassar bo'ldi.

## XV

– Petroga aytgin, biya bilan arg'umog'ini aravaga qo'shsin.

Grigoriy hovliga chiqdi. Petro bostirma ostidagi aravani sudrab kelayotgan edi.

– Dadam biya bilan arg'umoqni aravaga qo'shinglar, deyapti.

Petro aravaning toqa shotisini to'g'rilar ekan:

– Usiz ham bilamiz. Ovozini o'chirib, tek o'tiraversin! – deb javob qildi.

Panteley Prokofyevich, ibodatga tayyorlangan cherkov mutasaddisiday sipolik bilan terlab pishganiga qaramay, karam sho'rvani tushirmoqda edi.

Dunyashka Grigoriyga zimdan qarab qo'ydi, lekin tabassumini qayirma kipriklarining ostiga yashirdi. Ilinichna kalta ko'ylak kiyib, yap-yangi sarg'ish shol ro'molini o'rab olgan edi; o'g'li uchun tashvishlanayotganini yashirib, lablarini qimtib Grigoriyga qaradi-da, cholga:

– Bas qila qol endi, Prokofich, ovqat yeyish ham evi bilan-da. Yutoqib qoldingmi? – dedi.

– Ovqat yegani ham qo'ymaydi bu dardisar! – Eshik qiya ochilib, Petroning shopday mallarang mo'ylovi ko'rindi.

– Marhamat qilsinlar, fayton tayyor! Dunyashka piq etib kulib yubordi va o'sha ondayoq og'zini yengi bilan to'sib oldi.

Darya ingichka qoshlarini chimirib, kuyov bolaga boshdan oyoq tikila-tikila o'tib ketdi.

Sovchi qilib Ilinichnaning xolavachchasi Vasilisani yuborayotgan edilar. U qaqildoq va uddaburon tul xotin edi. Eldan burun Vasilisa aravaga chiqib oldi; u o'tirar ekan, dum-dumaloq soy toshiga o'xshash boshini har tomonga burib, iljayib kular, lablari orasidan qoraygan so'yloq tishlari ko'rinib ketardi.

– Sen, Vasilisa, u yerda ham tirjayib kulma tag'in, – deb tayinladi Panteley Prokofyevich, – og'zingni ochaversang, ishni rasvo qilasan... Tishlaring tarvaqaylagan: biri u yoqqa qiyshaygan, biri bu yoqqa...

– Hoy, pochcha, qizini menga berayotgani yo'q-ku, kuyov men emasman, axir.

– Shunday-ku, har qalay, kula ko'rma. Tishlaring haligidaqa... Qop-qora, kishi ko'rsa ko'ngli ayniydi.

Vasilisa ranjidi; shu orada Petro darvozani lang ochib yubordi. Grigoriy o'tkir hidli qayish tizginni qo'liga olib, aravaning peshtaxtasiga irg'ib chiqdi. Panteley Prokofyevich bilan Ilinichna aravaning orqasida xuddi yangi turmush qurgan er-xotinday yonma-yon o'tirib olishgan edi.

– Bos qamchini! – deb baqirdi Petro jilovni qo'yib yuborib.

Grigoriy labini tishlab turib, qulog'ini qimirlatayotgan otga:

– Chu, haromi! – deb qamchi soldi. Postromkalar taranglashdi, otlar sapchib joyidan qo'zg'aldi.

– Ehtiyot bo'l! Darvozaga urib olma! – deb chiyillardi Darya, biroq arava shartta burilib yo'l yoqasidagi qatqaloqlar ustida irg'ishlab, katta ko'chaga tushib oldi-da, shaldiragancha chopqillab ketdi.

Grigoriy, qiyshayib o'tirib olib, Petroning arg'umog'iga qamchi o'xtalib, o'ynoqlatardi. Panteley Prokofyevich, soqolini shamol uchirib ketadiganday, mahkam tutamlab olgan edi.

Chol atrofiga alanglab qaradi-da, Grigoriyning yelkasiga engashib turib:

– Biyani ursang-chi! – deb xirilladi. Ilinichna shamoldan yoshlangan ko'zlarini to'r uqa tutgan yengi bilan artar, ko'zlarini tez-tez ochib yumib, Grigoriyning egnidagi ko'k satin ko'ylagi shamolda nog'ora bo'lib shishganini tomosha qilardi. Yo'lda uchragan kazaklar o'zini chetga olar va anchagacha ularning orqalaridan qarab qolishardi. Qo'ralardan itlar chiqib, ot oyoqlari tagida o'ralashib yugurishardi. Yangi temir qoqilgan g'ildiraklarning shaldirashidan itlarning akillagani eshitilmasdi.

Grigoriy qamchini ham, otlarni ham ayamasdi, oradan o'n daqiqa o'tmay qishloq orqada qoldi, eng chetdagi qo'ralarning yo'l yoqasidagi yam-yashil bog'lari lip etib o'tib ketdi.

Korshunovning qo'rg'oni katta. Ko'cha devori taxtadan. Grigoriy tizginni qattiq tortdi, aravaning shaldiragan ovozi birdan o'chib, sirlangan, o'ymakor darvoza oldida taqqa to'xtadi.

Grigoriy arava yonida qoldi, Panteley Prokofyevich oqsoqlanib zinapoya tomon yurdi. Uning orqasidan, yubkasini shildiratib, loladay qizargan Ilinichna bilan lablarini qimtib olgan Vasilisa ergashdi. Yo'lda o'ziga dalda berib kelgan chol jasoratini yo'qotib qo'yishdan qo'rqib shoshilardi. U baland ostonaga qoqilib, cho'loq oyog'ini lat yedirib oldi va og'riqdan tishini-tishiga qo'yib, top-toza zinapoyadan bosib chiqa boshladi.

Ilinichna bilan chol oldinma-ketin mehmonxonaga kirishdi. Xotini undan bir qarich bo'ydor bo'lgani uchun u bilan yonma-yon tursa, xunuk ko'rinishini o'zi baloday bilardi, shuning uchun u bir qadam oldinroq borib, xo'roz singari oyoqlarini juftlashtirdi-da, shapkasini qo'liga olib, qorayib ketgan xira ikonaga qarab cho'qindi.

– Salomatmisizlar?

– Xudoga shukur, – deb javob berdi uy egasi o'rnidan qo'zg'alib; u o'rta bo'yli, yuzlariga sepkil toshgan, qari kazak edi.

– Mehmonga keldik, Miron Grigoryevich!

– Mehmon kelsa xursand bo'lamiz. Marya, kursi qo'y.

Yoshi qaytgan, ko'kragi botiq bir ayol xo'jako'rsinga taburetkalarni artgan bo'ldi-da, mehmonlar oldiga keltirib qo'ydi. Panteley

Prokofyevich ro'molchasi bilan terlagan qizilmag'iz peshonasini artib kursining bir chetiga o'tirdi.

– Bir ish bilan keluvdik, – dedi chol dangal. Shu orada Ilinichna bilan Vasilisa ham yubkalarini sal ko'tarib kursiga o'tirishdi.

– Xo'sh, nima ish bilan? – deb kulimsiradi xo'jayin.

Grigoriy kirib keldi. Atrofiga alanglab qaradi.

– Yaxshi yotib turdilaringmi?

– Xudoga shukur, – deb cho'zib javob qildi uy bekasi.

– Xudoga shukur, – deb takrorladi uy egasi.

Uning sepkil toshgan yuzi bo'riqib ketdi; mehmonlarning nega kelganini chol endi fahmladi. – Marya, chiqib ayt, mehmonlarning otlarini qo'raga olib kirishsin, pichan solib qo'yishsin, – deb buyurdi xotiniga.

Xotini chiqib ketdi.

– Sizga nozik bir ish xususida keluvdik... – deb davom etdi Panteley Prokofyevich. U, jingalak qora soqolini o'ynar, hayajonidan qulog'idagi isirg'alar silkinardi. – Sizda bo'yi yetgan qiz bor, bizda – kuyov bola... Bir-birimiz bilan kelishib quda bo'lib qo'ya qolsak devdim. Qizingizni tavakkal qilib uzataverasizmi, yo yo'qmi, shuni bilmoqchi edik. Quda-anda bo'lib olsak, qandoq bo'larkin-a?

– Kim bilsin... – chol sochi to'kila boshlagan boshini qashladi. – Rostini aytsam, hali bu yil kuzakda uni erga berish xayolimizda ham yo'q edi. Bitmagan ishimiz, kam-ko'stimiz boshimizdan oshib yotibdi, bir hisobda, qizimiz hali yosh. Endigina o'n sakkiz bahor yuzini ko'rdi. Shundaymi, Marya?

– Shunday.

Vasilisa gapga aralashib:

– Ayni loladay ochilgan mahali ekan, saqlab nima qilasiz, yoshi o'tgan qari qizlar ozmunchami? – dedi taburetka ustida bezovtalanib o'tirarkan (dahlizda turgan supurgini irim uchun etagi ichiga yashirib ola kirgan, Supurgi badanini qichitardi, shunday qilinsa, sovchilar quruq qaytmaydi degan e'tiqod bor edi).

– Qizimizga erta ko'klamdan beri sovchilar keladi. Talabgor ko'p, qizimiz o'tirib qolmaydi. Noshukurchilik qilsak, xudoga yoziqli bo'lamiz – qizimiz har ishga chevar: uy ishi ham, dala ishi ham qo'lidan keladi...

– «Tengi chiqsa, tekin ber», deydilar, – deb xotinlarning gapiga aralashdi Panteley Prokofyevich.

– Erga berish qochmaydi, – deb yana boshini qashidi uy egasi, – istagan mahalda uzatsa bo'ladi.

Panteley Prokofyevich, bizga rad javobi beryapti shekilli, degan xayolga borib, qizisha boshladi.

– Albatta, shunday – ixtiyor sizlarda... Zorimiz bor – zo'rimiz yo'q. Gapingizga qaraganda, sizlar, biror savdogarvachchani yoki undan ham yo'g'onrog'inimi qidirayotganga o'xshaysiz, gapimni ma'zur tuting...

Ish pachava bo'lishga sal qolgan edi: Panteley Prokofyevich pishillar, sholg'omday qizargan yuzlaridan ter oqib turar, qayliqning onasi bo'lsa, kalxatning soyasini ko'rgan tovuqday qaqillardi, lekin xayriyatki, o'z vaqtida Vasilisa gapga aralashdi. Ovozini pasaytirib bidirlab sayrab ketdi, uning gapi jarohatga malham qo'yganday bo'ldi, buzilay degan ishni qaytadan yamashtirdi.

– Sadag'ang ketaylar! Buni umr savdosi deydilar, xolis niyat bilan ishni baqamti qilish kerak, toki qizingiz baxtini topsin, uvali-juvali bo'lsin... Natalyaday qiz olamda topilmaydi! Uning qo'li gul: ish tikishini ayting! Ro'zg'or tutishini ayting! Husnini maqtamay qo'ya qolay, mana, sadag'ang ketaylar, o'zingiz ko'rib turibsiz, oyday, – do'mboqqina qo'llarini kerib qo'yib, Panteley Prokofyevich bilan qovog'i soliq Ilinichnaga qarab gapirdi, – yigit ham bekam-ko'st. Xuddi rahmatli Donyushkamning o'zginasi-ya, ko'rsam yuragim jiz etib ketadi... Bular hammasi uy ichisi bilan mehnatse-var odamlar. Prokofyevichning o'zini aytmaysizmi, tevarak-atrofga nomi ketgan, oliyhimmat odam... Yaxshi niyat bilan bitishganimiz ma'qul yoki o'z bolalarimizga yomonlikni ravo ko'radigan odam-larmizmi?

Sovchi xotinning ovozi Panteley Prokofyevichning qulog'iga yog'dek yoqar edi. Keksa Melexov uning so'zlaridan zavqlanib: «Gapniyam rosa qiyadi bu qaqildoq o'lgur, – deb o'yladi. – Paypoq to'qiyotganday ipi-ipiga ulanib ketaveradi, ma'nosini chaqib ulgurol-maysan. Ba'zi xotinlar manman degan kazakni ham gap bilan mot qiladi-qo'yadi... Baloyi azim bu dog'uli!» – deb, qalliqni ham,

surishtirardi. Aksinya po‘stak hidi kelib turgan toshday karavot ustida to‘lg‘anar, og‘ir-og‘ir nafas olardi. Nihoyat, Stepan xotinining xamirday yumshagan badanini azoblashdan charchar va qo‘li bilan uning yuzini siypalab, ko‘zlaridan yosh izlar edi. Biroq Aksinyaning o‘tday yongan betlari qup-quruq, faqat barmoqlari bilan uning og‘zi kappa-kappa ochilib yumilayotganini sezardi.

– Aytasanmi?

– Yo‘q!

– O‘ldiraman!

– O‘ldir! Xudo haqi, o‘ldir... Azobdan qutulaman... Bundan ko‘ra, o‘lganim yaxshi.

Stepan tishlarini mahkam qisib, xotinining terlab muzlagan ko‘ksini chimchilar, yupqa terisini o‘yar edi.

Aksinya sapchib-sapchib tushar, ingrardi.

– Og‘riydimi, a? – deb so‘rardi Stepan.

– Og‘riydi.

– Mening ko‘nglim ham shunday og‘riydi, bildingmi?

Stepan anchagacha uxlay olmasdi. Uyqusi betinch, yotgan joyida to‘lg‘anib, bo‘g‘inlari shishgan qop-qora barmoqlarini qimirlataverardi. O‘shanda Aksinya tirsagiga tayanib boshini ko‘tarar, uyquda chehrasi o‘zgargan erining chiroyli basharasiga ancha vaqtgacha tikilib qolar edi. So‘ngra boshi yostiqqa shiliq etib tushar, bir nimalar deb pichirlardi.

Grishkani u kamdan kam ko‘rardi. Bir kuni Don yonida unga duch keldi. Grigoriy ho‘kizlarini sug‘orib bo‘lib, qo‘lida xipchin ushlagan holda yerga qarab, qiyalikdan chiqib kelardi. Aksinya esa uning ro‘parasidan kelib qoldi. Ko‘rdi-yu, nazarida, yelkasidagi obkash qo‘liga muzday tekkanday bo‘ldi, betlari lovullashib ketdi.

Aksinya keyinchalik bu uchrashuvni eslaganda, Grigoriyni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganiga ishongisi kelmasdi. Bir-birlariga juda yaqin kelganlaridagina Grigoriy uni ko‘rdi. Chelaklarning g‘iychillashini eshitib boshini ko‘tardi, qoshlarini chimirib bema’ni iljayib qo‘ydi. Aksinya ko‘zlarini uning boshidan oshirib, to‘lqinlanib yotgan ko‘m-ko‘k Don suvlariga va uning nariyog‘idagi qumloq do‘nglarga qaraganicha o‘tib ketdi.

Uning yuzlari qizarib, ko'zlariga yosh to'lgan edi.

– Aksyusha!

Aksinya yana bir necha qadam tashladi, kaltak yeyayotgan odamday bosh egib to'xtab qoldi. Grigoriy orqada qolgan ho'kizni xipchin bilan ayamay soldi-da, burilib qaramasdan:

– Stepan bug'doy o'rog'iga qachon jo'naydi? – deb so'radi.

– Hozir... aravasini qo'shyapti.

– Jo'natgin-u, o'zing soylikdagi kungaboqar ekilgan joyga kelgin, men ham boraman.

Aksinya chelaklarini g'iychillata-g'iychillata Don bo'yiga tushdi. Qirg'oqqa yig'ilgan sarg'ish ko'piklar moviy ko'ylak etagiga tutilgan uqadek jimjima qilar, ilonday bilanglar edi. Oppoq baliqchi qushlar Don ustida chiyillab uchishardi.

Mayda-mayda baliqchalar suv betini yomg'irday jimirlatib o'ynashar, daryoning narigi betidagi qum tepalar orqasida osmonga qad ko'targan bo'ydor oq teraklar shamolda og'ir-og'ir tebranar edi. Aksinya suv olayotib chelagini tushirib yubordi. Chap qo'li bilan yubkasini ko'tarib, tizzasigacha suvga kirdi. Boldirining rezinka qisgan joylarini muzday suv qitiqlay boshladi. Aksinya Stepan qaytgandan beri birinchi marta jilmayib qo'ydi.

Aksinya o'girilib Grisha ketgan tomonga qaradi: u esa, pashsha qo'riyotgan odamday, hali ham chivig'ini qimirlatib, sekin-asta tepaga chiqmoqda edi.

Aksinya yoshdan xiralashgan ko'zlarini uzolmay, uning mardona qadam tashlab ketayotgan oyoqlariga mo'ltirab qarar edi. Grisha keng chalvarining pochasini oq jun paypoq ichiga tiqib olgan, qip-qizil hoshiyalari tovlanib turardi. Kir ko'ylagining orqa tomoni, xuddi kuraklari tagidan yirtilib, bir parcha lattasi osilib tushgan edi, uch burchakli yirtiq tagidagi qizilmag'iz badani ko'rinib turardi; Aksinya bir vaqtlar o'ziniki bo'lgan sevimli badanning ana shu bir parchasini hozir olisdan turib, ko'zlari bilan o'pardi; iljayib turgan oppoq lablariga ko'z yoshlari tinmay tomchilardi.

Aksinya chelaklarini yerga qo'yib, obkashiga ilmoqchi bo'lib engashganda, qumga tushib qolgan choriq izlariga ko'zi tushdi. Atrofiga qaradi – hech kim yo'q, faqat uzoqdagi pristanda bolalar

cho‘milayotgan edilar. Aksinya cho‘nqayib o‘tirdi-da, kaftini iz ustiga qo‘ydi, so‘ngra obkashini yelkasiga oldi, u o‘z qilig‘idan kulib, tez-tez yurib uyiga ketdi.

Yupqa doka parda singari xira nurga burkangan qishloqning qoq tepasida quyosh kezardi. To‘da-to‘da oppoq barra bulutlar ostida ko‘m-ko‘k va salqin o‘tloqlar ko‘zga chalinardi, biroq jazillagan tunuka tomlar, chang bosgan jimjit ko‘chalar, ko‘katlarini garmsel sarg‘aytirib ketgan qo‘ralar – butun qishloq issiqda lovillar edi.

Aksinya qaqrab yorilgan yerga suv sachratib, sollanib, zinapoya oldiga yetdi. Serbar poxol shlapa kiyib o‘roq mashinaga otlarni qo‘shayotgan Stepan unga qarab:

– Suvdonga suv solib qo‘y, – dedi.

Aksinya chelakdan suv solib bo‘lguncha, suvdonning temir gardishi qo‘lini kuydirayozdi.

– Yax solib qo‘yish kerak ekan, – dedi erining terlagan yelkasiga qarab turib. – Bo‘lmasa, suvi isib qoladi.

– Bor, Melexovlarnikidan opkela qol... To‘xta, borma!.. – deb baqirdi Stepan es-hushini yig‘ib.

Aksinya lang ochiq qolgan ko‘cha eshikni berkitmoqchi bo‘lib qo‘zg‘algan edi, Stepan ko‘zlarini olaytirib qamchisini oldi:

– Qayoqqa?..

– Ko‘cha eshikni yopib kelay...

– Qayt, manjalaqi. Aytdim-ku, borma deb! Aksinya shoshib-pishib, zinapoya oldiga bordi va obkashni ilib qo‘ymoqchi bo‘lgan edi, qo‘llari bo‘shashib, obkashni tashlab yubordi – obkash zinapoyadan yerga tushdi.

Stepan o‘roq mashinaning o‘tirg‘ichiga brezent chakmonini tashladi, o‘tirayotib tizginlarini to‘g‘riladi.

– Darvozani och!

Darvozani ochar ekan, Aksinya jur’at qilib:

– Qachon kelasan? – deb so‘radi.

– Kechga qaytaman. Anikushka bilan birgalashib o‘radigan bo‘ldik. Ovqatni o‘shandan berib yubor. Temirchidan qaytgach, dalaga boradi.

O‘roq mashinaning mayda g‘ildiraklari g‘iychillab, baxmalday yumshoq chang ustida iz qoldirib, darvozadan chiqdi. Aksinya uyga

kirdi, qo'llarini ko'ksiga bosib, birpas jim turib qoldi-da, so'ngra ro'molini boshiga ilib, Donga qarab yugurdi.

«Qaytib kelib qolsa-ya? Unda nima bo'ladi?» – degan fikr miyasida o'tday chaqnab ketdi. Xuddi jar yoqasiga bexosdan kelib qolgan odamday to'xtab qoldi, o'girilib orqasiga qaradi, keyin chopa-chopa Don usti bilan tikkasiga soylikka tushdi.

Chetan devorlar... Bog'chalar... Sap-sariq bo'lib gullab, oftobga salom qilib turgan kungaboqarlar. Nim rang gulli ko'm-ko'k kartoshkalar... Ana, aka-uka Shomillarning xotinlari, vaqtini o'tkazib, endi kartoshka chopiqqa tushishibdi; engashib olganlari uchun pistoqirang ko'ylaklarining orqasigina ko'rinadi, ketmonchalari goh ko'tariladi, goh yumshoq yerga tushadi. Aksinya dam olmay, Melexovlarning poliziga yetib bordi. Atrofiga qaradi; so'ngra, turmiga suqib qo'yilgan tayoqni sug'urib, eshikni ochdi. Iz tushgan so'qmoq yo'ldan yurib borib, ko'kmak va qalin kungaboqar poyalari orasiga kirdi. Engashib, eng qalin joyiga yetib oldi, yuzi oltinday gul kukunlariga bo'yaldi; yubkasini yig'ishtirib, zarpechak bosib ketgan yerga o'tirdi.

Aksinya quloq solib ko'rdi: hamma yoq jimjit, faqat qulog'i shing'illar edi. Qayerdandir, yuqorida bir qovog'ari g'o'ng'illaydi. Tuk bosgan yo'g'on-yo'g'on poyalar tomiri bilan yopishib yerni so'rmoqda.

Keladimi, yo'qmi degan shubha ichida yarim soatcha qiynalib o'tirdi va endi turib ketmoqchi bo'lib, ro'molining chetidan chiqib turgan sochlarini tuzata boshlaganda – eshik «g'iyq» etib ochilganday bo'ldi va oyoq tovushi eshitildi.

– Aksyutka!

– Bu yoqdaman...

– Ha, kelibsan-da.

Grigoriy barglarni shitirlatib kelib yoniga o'tirdi. Birpas indamay qolishdi.

– Yuzingga nima yopishdi?

Aksinya yuzidagi xushbo'y sariq kukunni yengi bilan surtib tashladi.

– Kungaboqardan yopishgandir.

– Mana bu yerda, ko‘zing tagida qoldi.

Aksinya artinib bo‘ldi. Ularning ko‘zlari-ko‘zlariga tushdi. Grigoriyning so‘zsiz savoliga javoban bechora Aksinya yig‘lab yubordi.

– Toqatim toq bo‘ldi... Men... Men tamom bo‘ldim, Grisha.

– Nima qil deydi u?

Aksinya g‘azab bilan koftasining yoqasini shartta ochdi. Qiz bolanikiday tirsillagan pushtirang ko‘kraklari momataloq bo‘lgan edi.

– Nima qilishini bilmaysanmi hali?.. Har kun uradi! Qonimni so‘radi!... Sengayam balli... Itday iliqib, qilg‘ilikni qilding-da, endi dumingni tutqizmaysan... Hammalaring ham... – U qaltiragan barmoqlari bilan yoqasini tugmalar va qo‘rqa-pisa, teskari qarab olgan Grigoriyga tikilar, gapim ko‘ngliga qattiq tegdimikin, deb xavotirlanardi, Grigoriy bir cho‘pni tishi bilan o‘ynab.

– Gunohkorni qidiryapsanmi? – dedi. Uning beg‘amligi Aksinyani o‘rtab yubordi.

– Bo‘lmasa kim gunohkor! – deb baqirdi Aksinya.

– G‘unajin ko‘zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi.

Aksinya kaftlari bilan betini berkitib oldi. Bu og‘ir gap unga juda qattiq tekkan edi.

Grigoriy peshonasini tirishtirib, ko‘z qiri bilan unga qaradi. Aksinyaning barmoqlari orasidan ko‘z yoshlari tirqirab oqa boshladi.

Qalin o‘sgan changli kungaboqarlar orasidan qiya tushgan oftob nuri, uning qatra-qatra yoshlarini yiltiratar, yuzidagi ariqchalarni quritardi.

Grigoriyning ko‘z yoshiga aslo tobi yo‘q edi. Bezovtalanib, o‘tirgan joyida qimirlab qo‘ydi, chalvarida o‘rmalab yurgan sariq chumolini jahl bilan chertib tashladi-da, yana Aksinyaga qarab qo‘ydi. Aksinya boyagicha o‘tirar, qo‘lining orqa yog‘ida bir emas, endi uch yerdan yosh tirqirab oqardi.

– Nega dod-voy qilasan? Xafa qildimmi? Aksyusha! Bo‘ldi endi... Menga qara, senga gapim bor.

Aksinya jiqqa ho‘l bo‘lgan yuzidan qo‘lini oldi.

– Men, sendan maslahat so‘rab keluvdim... sen bo‘lsang... O‘zimku bo‘lganimcha-bo‘lganman... Bir qiynamagan sen qoluvdingmi?..

«O‘lganning ustiga ko‘mgan qilibman...» – deb o‘yladi Grigoriy va qizarib ketdi.

– Aksyusha... bilmasdan og‘zimdan chiqib ketibdi, xafa bo‘lma...

– Senga dahmaza bo‘lmoqchi emasman... Qo‘rqmay qo‘ya qol!

Shu onda Aksinya, Grigoriyga dahmaza bo‘lish uchun kelmaganligiga o‘zi ham ishongan edi; ammo boya Don bo‘ylab soylik tomonga chopib kelayotganida beixtiyor: «Uni yo‘ldan uraman, ishqilib uylanmasin! Uylansa, men nima bo‘laman?» – deb o‘ylagan edi. O‘shanda birdaniga Stepan esiga tushgan va bemahal kelgan fikrdan qutulmoq uchun boshini chayqab qo‘ygan edi.

– Bundan chiqdi, oramizdagi ishq-muhabbat tamom bo‘libdida? – deb so‘radi Grigoriy va bag‘rini yerga berib, tirsaklariga suyanib yotib oldi, boyadan beri chaynab o‘tirgan nimrang pechakgul barglarini tupura boshladi.

– Nechuk tamom bo‘lsin? – Aksinya qo‘rqib ketdi. Grigoriyning ko‘zlariga qaragisi, ko‘nglida nima borligini bilgisi kelib turar edi. – Bu nima deganing? – deb u so‘radi yana.

Ko‘kimtir ko‘z soqqalari g‘ilt-g‘ilt qilib aylanib turgan Grigoriy chetga qarardi.

Kunning issig‘idan, shamoldan qaqragan, chanqagan yerdan chang hidi kelar, shamol guvillab, ko‘kmak kungaboqar yaproqlarini alg‘oq-dalg‘oq qilardi. Hurpaygan bulut bir lahzada quyoshni to‘sib qoldi, o‘sha zahotiyoq dala-yu dasht, qishloq, Aksin’yaning xam bo‘lgan boshi, qizg‘ish karnaygul ustida bulut soyalari suzib o‘ta boshladi.

Grigoriy xo‘rsinib qo‘ydi, uning nafasi xirillab chiqdi.

Orqasiga o‘girilib, qaynoq yerga chalqanchasiga yotib oldi.

– Gap shunday, Aksinya, – Grigoriy har bir so‘zini dona-dona qilib shoshmasdan gapirardi, – ko‘nglim alag‘da, ko‘ksimni bir nima tirmalayotgandek. Men shunday qarorga keldim...

Shu payt:

– Xo‘sh, harom o‘lgur! Xo‘sh! Xo‘sh-e! – degan ovoz eshitildi. Polizlar ustida aravaning g‘ichillagan ovozi yangradi.

Aksinyaga «xo‘sh» degan ovoz shunday qattiq eshitildiki, u o‘sha zahoti mukkasiga yotib oldi. Grigoriy boshini ko‘tarib qaradi-da:

– Ro‘molingni ol, oqarib ko‘rinyapti, ko‘rib qolmasin, – deb qulog‘iga shivirladi.

Aksinya ro‘molini boshidan oldi. Kungaboqar tagida esgan issiq shamol, uning bo‘ynida oltinday tovlangan mayin sochlarini to‘zg‘itar edi. Olislab ketayotgan aravaning g‘richillagan ovozi borgan sari sekin eshitilardi.

– Men shunday qarorga keldim, – deb Grigoriy yana gap boshladi qizishib, – o‘tgan ishga salavot, baribir qaytib kelmaydi, gunohkorni qidirishdan nima foyda chiqadi. Bundan buyog‘ini o‘ylash kerak.

Aksinya astoydil unga quloq solar, gapning ketini kutar va chumolidan tortib olgan cho‘pni sindirardi.

Grigoriyning yuziga qarab, ko‘zlari alang-jalang, yalt-yult qilib turganini ko‘rdi.

– ...Fikrim shu, kel, bir yoqlik qilaylik...

Aksinya bir irg‘ib tushdi. Barmoqlari bilan sertomir chirmoviqni changallagancha qotib qoldi. Burnining kataklarini kerib gapning oxirini kutardi. Qo‘rquv va sabrsizlik yuzlarini lovullashtirar, og‘zini qaqratar edi. U «... Stepanni bir yoqlik qilib qo‘ya qolaylik», dermikin deb o‘ylagan edi, biroq Grigoriy qaqragan lablarini jahl bilan yaladi (lablari qovushmay qolgan edi).

– ...Oramizdagi bordi-keldini bir yoqlik qilib qo‘ya qolaylik, – dedi.

Aksinya o‘rnidan turdi va kungaboqarning egilib qolgan sapsariq boshiga ko‘kragini urib oldi-da, to‘g‘ri eshik tomonga qarab ketdi.

– Aksinya! – deb chaqirdi past ovoz bilan Grigoriy.

Javob o‘rniga eshikning g‘irchillaganigina eshitildi.

## XVII

Qora bug‘doyni xirmonga tashib bo‘lar-bo‘lmas ketidan bug‘doy o‘rog‘i ham yetib keldi. Qaqir joylardagi va tepalikdagi bug‘doylar sarg‘ayib, bargi naycha bo‘lib qolgan, jonsiz poyasi qurib ketgan edi.

Odamlarning aytishiga qaraganda, hosil mo‘l-ko‘l bo‘lishi kerak edi. Boshoqlar yetilgan, doni to‘la va og‘ir.

Panteley Prokofyevich Ilinichna bilan maslahatlashib, agar Korshunovning qiziga unashsak, to'yni so'nggi Spasgacha[3] to'xtatib turamiz degan qarorga keldilar.

Bir yoqdan bug'doy o'rog'i, ikkinchi yoqdan bayram kelib qolgani uchun Korshunovlarnikiga borib, ularning nima qarorga kelganini bilib kelisha olmadi.

Juma kuni bug'doy o'rishga tushildi. O'roq mashinaga uch ot qo'shilgan edi. Panteley Prokofyevich aravaning yon qoziqlarini yo'nib, g'alla tashish tayyorgarligini ko'rmoqda edi. Bug'doy o'rog'iga Petro bilan Grigoriy ketdi.

Grigoriy akasi mingan mashinaning o'tirg'ichidan tutib uning yonida yayov borar; qovog'i osilgan edi. Pastki jag'i bilan yonoq suyagining orasida bezday bir nima borib-kelib turardi. Bu – Grigoriyning tutaqib zo'rg'a turganini va hozir hech narsadan toymaydigan darajaga yetganini bildiruvchi alomat edi; Petro buni bilsa-da, miyig'ida kulib, ukasining jig'iga tegaverdi:

– Xudo ursin, hammasini gapirib berdi!

– Gapirsa gapiraversin, – deb g'udrandi Grigoriy mo'ylovining bir tolasini tishlab.

«Polizdan kelayotsam Melexovlarning kungaboqarlari orasidan odam ovozi keladi», deydi.

– Petro, bas qil!

– Ha... «kim ekan deb chetan orasidan astagina qarasam...»

Grigoriy ko'zlarini pirpiratib:

– Bas qilasanmi, yo'qmi? – dedi.

– Voy tentak, gapirib bo'lay, axir!

– Urishib qolamiz, Petro, – deb do'q qildi Grigoriy orqada qolib.

Petro qoshlarini o'ynatib, otga orqa qilib, Grigoriyga yuzini o'girib o'tirib oldi.

– «Chetan orasidan mundoq qarasam, deydi, ikki oshiq-ma'shuq quchoqlashi-ib yotibdi», deydi. – Kim? – deb so'radim, u bo'lsa: «Axir, kim bo'lardi! Aksyutka Astaxova bilan ukang-da», – deydi. Men unga...

---

[3] Xristian dinida uchta Spas hayiti bor, hammasi ham avgust oyida o'tadi; so'nggisi eskicha hisob bilan 16-avgustda bo'ladi. ( Tarj.)

Grigoriy o‘roq mashinaning ketiga qistirib qo‘yilgan kalta panshaxa dastasidan ushlab Petroga hamla qildi. U esa tizginni qo‘yib yuborib, irg‘ib yerga tushdi-da, otlarning oldiga o‘tib oldi.

– Voy ko‘ppak!.. Quturibsan-ku!.. Olqish! Olqish! Basharasini qara...

Grigoriy tishlarini bo‘ridek irjaytirib, panshaxani otdi. Petro qo‘lini yerga qo‘yib engashib qoldi, panshaxa uning ustidan oshib, qaqragan bo‘z yerga to‘rt enlik sanchildi, likillab zing‘illagan ovoz chiqarib turdi-da, so‘ngra to‘xtadi.

Rangi quv o‘chib ketgan Petro, shovqindan hurkkan otlarni jilovidan ushlab so‘kinardi.

– O‘ldirishingga sal qoldi-ya, ablah!

– O‘ldirardim ham!

– Ahmoq! Quturgan to‘ng‘iz! Dadamning urug‘iga tortibsan-da, cherkesvachcha!

Grigoriy panshaxani yerdan sug‘urib oldi-da, o‘roq mashina ketidan kelaverdi.

Petro qo‘li bilan imlab chaqirdi.

– Beriroq kel, panshaxani menga ber-chi. Tizginni chap qo‘liga olib, panshaxaning yaltiragan nayzali tomonidan ushladi. Beparvo kelayotgan Grigoriyning qoq yag‘riniga panshaxa dastasi bilan tushirib qoldi.

– So‘yil bilan solish kerak edi, – dedi Petro o‘zini chetga olgan Grigoriyga xo‘mrayib qarab.

Oradan besh daqiqa o‘tar-o‘tmas, aka-uka tamaki tutatayotib, bir-birlari bilan ko‘z urishtirib hoholab kulib yuborishdi.

Narigi yo‘lda aravada ketayotgan Xristonyaning xotini, Grishaning akasiga panshaxa otganini ko‘rgan edi. U arava ustida turib, harchand qarasa ham, o‘roq mashina bilan otlar to‘sib turgani uchun, aka-uka Melexovlarning janjali nima bilan tugaganini bilolmagan edi. Qishloqqa kirar-kirmas, u darhol hamsoyasini chaqirdi:

– Klimovna! Yugur, Panteley turknikiga bor! Bolalaring Tatar qo‘rg‘on yonida bir-biriga panshaxa sanchyapti degin! Grigoriy juvonmargda es bormi? – Petroning biqiniga ayri bilan chunonam sanchdiki!.. U ham qarab turmay, uni... hamma yoqni qon bosib ketdi, asti qo‘ya qol!

Petro holdan toygan otlarga hayqiraverib ovozdan qolgan va hozir hushtak chalib bormoqda edi. Grigoriy chang-u tuproqdan qoraygan oyoqlarini mashinaning bel temiriga tirab olib, qanotiga ilashgan cho'p-chorlarni itqitib o'tirardi. Pashsha chaqib hamma yog'ini qonatib yuborgan, otlar hadeb dumini likillatishar va har qaysisi postromkasini poyma-poy tortib borardi.

Moviy ufqlargacha cho'zilgan dasht g'imirlagan odamlar bilan to'lgan. O'roq mashinalarning shaldiragani, tishlari chiqirlagani eshitilar, o'rilgan bug'doylar cho'lda uyilib yotardi. Yumronqoziqlar ot haydagan odamlarni mayna qilganday inlari og'zida chiyillashardi.

Petro orqasiga burilib qaradi-da, mashina chalg'isining takatuki, qanotlarining vizillagan ovozini bosib:

– Yana ikki aylanib o'rib kelamiz-da, tamaki chekamiz, – deb baqirdi.

Grigoriy boshini qimirlatib qo'ya qoldi. Shamoldan quruqshagan, bir-biriga yopishib qolgan lablarini ochishga holi qolmagan edi. Quchoq-quchoq o'rilgan bug'doyni uloqtirish oson bo'lsin uchun, panshaxa dastasini kalta ushlab olgan, harsillab zo'rg'a nafas olardi. Terlab-pishib ketgan ko'kragi qichishardi. Qalpog'i ostidan ter quyar, ko'zlariga tushib sovunday achishtirardi. Nihoyat, otlarni to'xtatib, suv ichishdi, tamaki chekishdi.

Petro kaftini peshonasiga qo'yib:

– Katta yo'ldan allakim ot choptirib kelyapti, – dedi.

Grigoriy tikilib turib, qoshlarini chimirdi-da:

– Dadam bo'lmasin tag'in, – dedi.

– Esingni yedingmi? Otlar hammasi shu yerda-ku, nimani minadi?

– Xuddi o'zi.

– Tanimayapsan, Grishka!

– Xudo ursin, o'zi!

Oradan hech qancha vaqt o'tmay, yo'rtib kelayotgan ot ham, ustidagi otliq ham aniq ko'rindi.

– Dadam... – deb qo'rqib ketdi Petro va turgan joyida tipirchilab qoldi.

Grigoriy akasining ko'ngliga kelgan gapni topib:

– Uyda bir gap bo'lganga o'xshaydi... – dedi.

Yuz sarjincha masofa qolganda Panteley Prokofyevich otning jilovini tortib yeldirib kelaverdi.

– Tilka-tilkaangni chiqarama-a-an... itvachchalar!.. – dedi u olisdan shovqin solib, tasma qamchisini boshi ustida aylantirib.

– Unga nima bo'ldiykin? – Petro anqayib qoldi, mallarang mo'ylovi yarmigacha og'ziga kirib ketdi.

Grigoriy miyig'ida kulib, har ehtimolga qarshi o'zini o'roq mashinaning orqasiga olayotib:

– Mashina orqasiga berkin! O'lay agar, qamchisi bilan solib qoladi. Nimaligini bilgunimizcha dabdala qiladi... – dedi akasiga.

Ko'pirib ketgan ot bug'doyzor ichi bilan lo'killab kelardi, chol oyog'ini likillatar (u otni yaydoqligicha minib olgan edi), qamchisini boshi ustida aylantirardi.

– Bu yerda nima ahmoqchilik qilyapsiz, shaytonlar?!

– O'ryapmiz... – dedi Petro qo'llarini kerib va hadiksirab ko'z qiri bilan qamchiga qarab qo'ydi.

– Kim-kimga panshaxa sanchdi? Nimadan urish chiqdi?..

Grigoriy orqasini otasiga o'girib, osmondagi parcha-parcha bulutlarni shivirlab sanardi.

– Nima deyapsiz? Qanaqa panshaxa? Kim urishibdi?.. – dedi Petro ko'zlarini pirpiratib, u otasining boshidan oyog'igacha qarar va depsinib turardi.

– Bo'lmasa, haligi shum xotin, oyog'i kuygan tovuqday: «Bolalaring bir-biriga panshaxa sanchishdi», deb nega baqiradi? A? Bu qandoq gap?.. – Panteley Prokofyevichning boshi qalt-qalt titrardi, u tizginni qo'yvorib, xalloslab turgan otdan irg'ib tushdi. – Men bo'lsam, Fedka Syomishkinning otiga minib, chop-a!.. Bu nima degan gap, a?

– Axir, kim aytdi sizga?

– Bir xotin!..

– Yolg'on aytibdi, dada! Naxs bosib arava ustida uxlab qolgan bo'lsa, tushida ko'rganini gapirgandir.

– Voy xotin qurgur-ey! – deb chiyilladi Panteley Prokofyevich soqolini selkillatib. – Klimovna bo'lmay o'l! Xudoyo tavba!.. Bu

nima degan gap-a? Uning adabini shunday berayki!.. – dedi u chap oyog‘ini siltab depsinar ekan.

Grigoriy yerga qarab olib, ovoz chiqarmasdan kular, yelkalari qimirlab turar edi. Petro otasidan ko‘zini olmay, terlagan boshini hadeb silar edi.

Panteley Prokofyevich axiyri hovuridan tushdi. O‘roq mashinaga minib, uni ikki marta aylantirib kelib, so‘ngra so‘kina-so‘kina otiga mindi. Katta yo‘lga chiqib, g‘alla ortilgan ikkita aravadan o‘zib ketdi-da, ko‘chani changitib qishloqqa jo‘nab qoldi. Mayda o‘rilgan shokildalik qamchisi uvatda qolib ketdi. Petro uni qo‘lida salmoqlab ko‘rdi-da, boshini chayqadi, Grishaga qarab:

– Ikkimizni ham rosa boplar ekan-a, uka, – dedi. – Buni qara, qamchi ham shunaqa bo‘ladimi? Bu qamchi emas – so‘yil. Odamning boshini uchirib yuborishi ham mumkin!

## XVIII

Korshunovlar Tatarsk qishlog‘ida eng birinchi boy deb tanilgan odamlar edi. Ularning o‘n to‘rt juft ho‘kizi, bir uyur yilqisi, Provalsk ot zavodidan sotib olingan biyalari, o‘n beshdan ortiq sigiri, dalada qanchadan qancha qoramol, qo‘tonda bir necha yuz qo‘yi bor edi. Imoratidan boyligini bilish mumkin, uyi Moxovnikidan qolishmasdi: olti xonali, tunuka tomli, hamma yog‘i mustahkam, chaspak qoqilgan. Hovlidagi omborxonalarning tomiga cherepitsa yopilgan, hammasi yap-yangi, yarqirab turibdi; bog‘i-chorbog‘i bilan qo‘shilib bir yarim desatina keladi. Insonga bundan ortiq tag‘in nima kerak?

Shuning uchun ham, Panteley Prokofyevich dastlab sovchilikka ketayotganida ko‘ngli unchalik chopmagan edi. Albatta, Korshunov o‘z qizi uchun Grigoriydan ko‘ra tuzukroq kuyovni ham topa oladigan odam. Panteley Prokofyevichning bunga aqli yetar va iltimosi yerda qolishini o‘ylab qo‘rqardi, shu sababdan ham, qaysar Korshunovning oldiga bo‘yin egib borgisi kelmasdi; biroq Ilinichna bormaganiga qo‘ymay hadeb egovlayverdi va axiri cholning o‘jarligini yengdi. Panteley Prokofyevich uning gapiga kirib, noiloj yo‘lga chiqqan, biroq ichida Grishani ham, Ilinichnani ham, bu dunyoni ham toza so‘kkan edi.

Endi javobini olish uchun yana ikkinchi marta borish kerak edi; ular yakshanbani kutishardi, lekin hozir u yoqda, Korshunovning qizil misday, bo'yalgan tunuka tomli uyida, er-xotin o'rtasida kishi bilmas janjal chiqib qolgan edi.

Sovchilar ketgandan keyin onaning savoliga qizi:

– Ko'nglim faqat Grishkada, undan boshqaga sira tegmayman, – deb javob berdi.

– Tanlangan kuyovingga balli, tentak, – deb ko'nglini sovutmoqchi bo'ldi otasi, – maqtaydigan joyi yo'q, lo'lidan ham qora ekan – shunisi bor, xolos. Bundan tuzukroq, kelishgan bir kuyovni topib berolmaymanmi, erkatoyim?

– Dadajon, menga boshqasi kerak emas... – Natalya qizarib, ko'zlariga yosh oldi. – Boshqasiga tegmayman, unashaman deb ovora bo'lmasinlar. Aytganim bo'lmasa, meni Ust-Medveditskiydagi monastirga eltib qo'ya qolinglar...

– Axir u sayoq, xotinboz-ku, eri harbiyga ketgan xotinlarning ketidan yurgani-yurgan, – dedi otasi so'nggi dalilni pesh qilib, – butun qishloqqa badnom bo'ldi.

– Mayliga!

– Senga mayliga bo'lsa, menga sadqayisar! Qo'limni yuvaman – qo'ltiqqa uraman.

Natalya – to'ng'ich qiz, otasining erkasi edi, shuning uchun chol kuyov tanlashda unga erk berib qo'ydi. O'tgan kuzakdayoq qizga olisdan, naq Sutskan daryosi bo'yidan juda boy va o'taketgan taqvodor kazaklar sovchi bo'lib kelgan edilar; Xoper va Chir[4] tomondagi kazaklar ham ko'p ovora bo'lishgan edi, biroq birontasi ham Natalyaga yoqmagan, sovchilarga berilgan ziyofat bekorga ketgan edi.

Miron Grigoryevich Grishkaning jasurligini, ro'zg'orparast va mehnatsevar ekanini bilar, shuning uchun uni yoqtirar edi. O'tgan poygada Grishkaning bir gala stanitsa yigitlaridan o'zib, chavondozlikda birinchi mukofot olganini chol ko'rgan, o'shandayoq uni ko'z ostiga olib qo'ygan edi; biroq davlati yo'q, nomi bulg'angan odamni kuyov qilishga ori kelar edi.

---

[4] Xoper va Chir Donga quyiladigan irmoqlar.

– G‘ayratli yigit, aft-basharasi ham binoyiday... – derdi xotini yotganlaridan keyin, kampir erining sepkil toshgan va sap-sariq tuk bosgan qo‘lini silab, avrashga tushardi, – axir, Grigorich, Natalyang o‘sha yigitning ishqida cho‘pday ozib ketdi... Juda yaxshi ko‘rib qopti.

Miron Grigoryevich jahl bilan xotinining muzday va qoq suyak ko‘ksiga orqasini o‘girib olardi-da, to‘ng‘illab berardi:

– Bas qil endi, shung‘iya! Istasang, Pasha devonaga bermaysanmi, menga nima? Aqllaring kaltaligi haqqast rost! – Afti-boshi binoyiday... – deb mayna qildi xotinini. Husniga non botirib yeysanmi?

– Non botirib emish...

– Tushunyapman, lekin aftini boshingga urasanmi? O‘zi odam bo‘lsin. Rostini aytsam, men o‘z qizimni turklarga bergani or qilaman. Koshki, ular odam siyoq bo‘lsa... – deb Miron Grigoryevich kibrlanar, yotgan joyida irg‘ib-irg‘ib tushardi.

– Hammasi mehnatkash odamlar, oilasi o‘ziga to‘q... – deb shivirlardi xotini, yana eriga yaqinroq kelib. Hovuridan tushsin deb qo‘lini silardi.

– Uh, dardisar-ey, nariroq yotsang-chi, axir! Pinjimdan boshqa joy qurib ketganmi?.. Men bo‘g‘oz sigir emasman-ku, muncha silayverasan? Natashkani istasang pishirib yegin. Menga desa chuvrindiga bermaysanmi!..

– O‘z qizingga jabr qilma. Boyligini nima qilasan, xudo ko‘tarsin boylikni... – deb shipshirdi Lukinichna Miron Grigoryevichning jun bosgan qulog‘iga.

Eri uni oyog‘i bilan tepar, devorga yopishib olar va o‘zini uxlaganga solib, xurrak otardi.

Sovchilarning kelishi bularni shoshirib qo‘ydi. Tushki ibodatdan keyin sovchilarning tarantasi darvoza oldiga kelib to‘xtadi. Ilinichna oyog‘ini bosqichga qo‘yib tushayotganda tarantas qiyshayib, ag‘darilib ketishiga sal qoldi, lekin Panteley Prokofyevich jo‘ja xo‘rozday sakrab yerga tushdi; oyog‘i og‘riganini bildirmay, shaxdam qadam tashlab, oqsaganicha to‘g‘ri qo‘raga kirib boraverdi.

Miron Grigoryevich derazadan qarab:

– Ana, ko‘zing uchib turgan bo‘lsa!.. Balo-qazodek yetib kelishdi, – deb yubordi.

– Voy sho‘rim qursin! Boya ovqat pishirgandagi kir yubkam bilan yuribman-a! – deb qaqillab qoldi uy bekasi.

– Shu kiyimda ham binoyidaysan! Seni kelin qilisharmidi? Chalpakka o‘rab tashlasa, it yemaydi.

– Og‘zing shaloq edi, qariganingda battar bo‘psan.

– Bas qil, ovozingni o‘chir!

– Toza ko‘ylagingni kiyib olsang bo‘lardi, Grigoryevich, yirtig‘idan umurtqang ko‘rinib turibdi, uyalmaysanmi, axir? – deb javrar, qudalar qo‘ra sahnidan yurib kelar ekan, erining ust-boshini ko‘zdan kechirardi.

– Qo‘yaver, shundoq ham tanig‘liqman. Chipta qop kiysam ham bulardan qutulmaydiganga o‘xshayman.

– Assalom! – deb qichqirdi Panteley Prokofyevich ostonaga qoqilib ketib va shang‘illab gapirganidan uyalib, obrazga qarab to‘rt marta cho‘qinib qo‘ydi.

– Salom, – deb so‘rashdi uy egasi va xo‘mrayib qudalarni ko‘zdan kechirib chiqdi.

– Havoning kelishini qarang, xudoning marhamati-da.

– Xudoga shukur, hozircha tuzuk.

– Odamlar ishini bitkazib oladi.

– Albatta.

– Shundoq.

– Hm.

– Shunday qilib, mana biz ham keldik, Miron Grigoryevich, o‘sha gap xususida o‘zaro nima qarorga keldinglar: quda bo‘la olamizmi, yoki yo‘qmi, shuni bilsakmikan devdik...

– Qani, to‘rga o‘tinglar. O‘tiringlar, marhamat qilinglar, – deb uy bekasi ta’zim bilan manzirat qilar, burma yubkasining etagi esa g‘isht terilgan polda sudralib yurardi.

– Ko‘p ovora bo‘lmang, aylanay.

Ilinichna ipak ko‘ylagining etaklarini shitirlatib joylashib o‘tirib oldi. Miron Grigoryevich yap-yangi kleyonka solingan stolga tirsagini tirab churq etmay o‘tiraverdi. Kleyonkadan ho‘l rezinka va yana nimaningdir hidi kelardi; hoshiyador kleyonkaning to‘rt burchagiga o‘lib ketgan podsho va malika oyimlarning suratlari

chizilgan: o‘rtasida esa oq shlapali shahsuvor malikalar bilan imperator Nikolay Aleksandrovichning pashsha o‘tirib ketgan rasmi ko‘rinardi.

Miron Grigoryevich nihoyat gapga kirib:

– Shunday... Qizimizni berishga qaror qildik. Agar kelisha olsak, quda bo‘lamiz, albatta... – dedi.

Gap shu yerga yetganda, Ilinichna burma yengli yaltiroq jun koftasining ichidan, kattakon bir karavay nonni, xuddi g‘oyibdan olganday chiqarib, do‘q etkizib stolga qo‘ydi.

Panteley Prokofyevich, negadir, cho‘qinmoqchi bo‘lib qo‘lini ko‘targanda, qadoq bosgan changak panjalari beixtiyor bukila boshladi va peshonasiga yetmasdan yarim yo‘lda qolib, tirnog‘i kir bosh barmoq o‘zidan-o‘zi o‘rtancha va ko‘rsatkich barmoqlarining orasiga kirib qoldi-da, shu sharmanda holicha, ko‘k chakmonning qappayib turgan barini ochib, qizil tamg‘ali bir shishani oldi.

– Qani endi, aziz quda-andalarim, xudoga sig‘inib, bolalarimizning sog‘lig‘i uchun ichaylik, oliq-soliq to‘g‘risida gaplashib olaylik...

Panteley Prokofyevich erib ketib, ko‘zlarini pirpiratib, qudasining sepkil toshgan yuziga tikilar va tuya tovon kafti bilan shishaning tagiga urib ochmoqchi bo‘lardi.

Oradan bir soat o‘tar-o‘tmay, ikki chol bir-biriga shu qadar yaqin kelib o‘tirib olgan ediki, Melexovning qop-qora jingalak soqoli bilan Korshunovning dikkaygan malla soqoli bir-biriga tutashib ketgandi. Panteley Prokofyevich tuzlagan bodringni zavq bilan iskar va qudasini avrardi.

– Sadag‘ang ketay, quda, – chol gapni shivirlab boshladi, – aziz qudajonim! – darrov ovozi ochilib, shang‘illay boshladi. – Quda! – deb qop-qora siyqa tishlarini ko‘rsatib baqirdi. – Bu shartlaring menga juda-juda og‘irlik qiladi, axir! Qimmatli qudajon, shuncha narsalarni talab qiladigan bo‘lsang, meni qiynab qo‘yasan, bundoq bir o‘ylab ko‘rgin: qo‘njli botinka kalishi bilan – bir degin, pochapo‘stin – ikki, ikkita jun ko‘ylak – uch, shoyi ro‘mol – to‘rt. Meni xonavayron qilasan-ku!

Panteley Prokofyevich qo‘llarini kerib qo‘yar, leyb-kazakcha mundirining choklari tirsillab, orasidan chang ko‘tarilardi. Miron

Grigoryevich bo‘lsa, boshini quyi solib, bodring namakobi bilan aroq to‘kilgan kleyonkaga tikilib qolgan edi. U kleyonkaning yuqori tomonidagi g‘alati qilib yozilgan shikast yozuvni o‘qidi: «Umumrossiya podshohlari». So‘ngra pastrog‘iga qaradi: «Imperator hazrat oliylari Nikolay podshoh...» U yog‘ini kartoshka po‘chog‘i to‘sib qolgan edi. Suratga zehn solib qaradi: podshohning yuzi ko‘rinmadi, bo‘shagan aroq shisha naq beti ustida turardi. Miron Grigoryevichda ehtirom hissi qo‘zib, ko‘zlari pirpirab ketdi va oppoq kamarband shohona mundirini tomosha qilmoqchi bo‘ldi, biroq mundiriga boshdan oyoq shilimshiq bodring uruqlari tuflab tashlangan edi. Bir-biridan battar rangsiz qizlarning o‘rtasidagi kengbar shlapa kiygan mag‘rur malika oyim baqrayib turar edi. Miron Grigoryevichning xo‘rligi kelib yig‘lab yuborguday bo‘ldi. Ichida: «Buncha dimog‘ingdan eshak qurt yog‘ilib, burningni ko‘tarmasang? Sen ham mana bu qizlaringni erga berib ko‘r, men bir tomosha qilay, o‘shandayam gerdayarmikansan?», derdi.

Qulog‘i tagida Panteley Prokofyevich hali ham qovog‘ariday g‘o‘ng‘illar edi.

Korshunov yoshlangan xira ko‘zlarini unga tikib quloq soldi.

– Biz agar sening qizingga, mana endi u bizning ham qizimiz bo‘ldi... ikkimizning qizimizga biz, agar shuncha narsani... haligi qo‘njli botinka, kalish-u pochapo‘stinlarni beradigan bo‘lsak, unda qo‘radagi mollarimizni oborib sotishga to‘g‘ri keladi.

– Molingni ayaysanmi? – deb Miron Grigoryevich mushtini stolga urdi.

– Gap ayaganlikda emas, axir...

– Ayayabsanmi?

– Shoshma, quda...

– Ayaydigan bo‘lsang, mana!..

Miron Grigorevich tarvaqaylagan, terlagan panjasi bilan stol ustidagi ryumkalarni surib yerga tushirib yubordi.

– Axir, hammasi sening qizingga qoladi, o‘sha qiynalmasin deyapman!

– Mayli! Mahriga tushadigan sepni belgilab qo‘y, yo‘qsa quda bo‘lmaymiz!..

– Og‘ilxonadan mollarni opchiqib sotaman, shekilli... – derdi Panteley Prokofyevich boshini qaltiratib. Qulog‘idagi isirg‘asi qimirlab, bilinar-bilinmas yiltirar edi.

– Mahriga tushadigan molini berishing shart!.. Qizimning o‘z kiyim-kechagi sandiq-sandiq, lekin agar senga qizim yoqqan bo‘lsa, izzatini joyiga keltir!.. Biz kazaklarning rasmi – shu. Qadimdan qolgan odat, biz ham qadimning rasm-rusumini qilmog‘imiz kerak...

– Siylayman!..

– Siyla!

– Siylayman!..

– Mol-holni yoshlar o‘zi orttirsin. Biz xo‘p mol topdik, turmushimiz hech kimnikidan kam emas, ular ham endi o‘zi topib ko‘rsin!..

Ikki quda qora va malla soqollarini bir-biriga chirmashtirib, og‘iz o‘pishdi. Panteley Prokofyevich bo‘sa ustidan suvi qochgan, so‘ligan bodringni chaynab yedi, allanimalar esiga tushib, hislari xuruj qilib yig‘lab yubordi.

Quda kampirlar esa sandiq ustida o‘tirib, biri-biridan qolishmay, baravariga chug‘urlashardi. Ilinichna olcha vino ichaverib rosa qizargan, qizning onasi bo‘lsa aroqdan, xuddi ayozda uzilib tushgan yovvoyi nok singari ko‘karib ketgan edi.

– ...Hali yosh, bunday qiz olamda topilmaydi! Kelin degan gapga kiradigan, izzat qiladigan bo‘lsin, qizim izmingdan chiqmaydi. Gapingga gap qaytarmaydi, istihola qiladi, aylanay quda.

– Haaa, aylanay qudajon, – deb Ilinichna uning gapini bo‘ldi va chap qo‘lini jag‘iga tirab, o‘ng qo‘li bilan chap qo‘lining tirsagidan ushlab oldi. – Bir necha marta u itvachchani koyidik! O‘tgan yakshanba kuni kechqurun ko‘chaga chiqmoqchi bo‘lib yasanayotgan, xaltachasiga tamaki solayotgan ekan, fig‘onim chiqib: «Sen kasofat qachon bas qilasan? – dedim. – Qarigan chog‘imda bunday malomatga qachongacha chidayman? Bilasanmi, yolg‘iz joyda Stepanning qo‘liga tushsang, bo‘yningni uzib tashlaydi-ya!..» dedim.

Mitka oshxonadan turib, eshikning ustki tirqishidan mehmonxonaga mo‘ralab qaradi, past tomonini Natalyaning ikki singlisi band qilishib, shivirlashar edi.

Natalya narigi burchakdagi xonada o'tirar va ko'z yoshlarini koftasining torgina yengiga surtardi. Yangi turmush sari qadam qo'yishga, hattoki uning bo'sag'asidan hatlab o'tishga yuragi dov bermas, ko'ngli ezilardi.

Uchinchi shisha aroq bo'shay deb qolgan edi; qudalar qiz bilan kuyovni birinchi Spas[5] kuni bir-biri bilan qovushtirib qo'yishga jazm qildilar.

## XIX

Korshunovning qo'rasida to'yga tayyorgarchilik qizib ketdi. Qizning ba'zi bir bitmay qolgan kiyimlari shoshilinch tikilmoqda. Natalya qadimgi rasmga muvofiq kuyovga tortiq qilinadigan tivit sharf bilan tivit qo'lqopni to'qimoqda.

Onasi Lukinichna sahardan kechgacha tikuv mashinasi ustida ikki bukilib o'tirar, stanitsadan kelgan mashinachi xotinga qarashardi.

Mitka otasi va xizmatkorlar bilan daladan qaytib, yuvinmasdan, qadoq bo'lgan oyog'idagi qo'pol dala chorig'ini yechmasdan, to'g'ri mehmonxonaga, Natalya yoniga borib o'tirardi. U doim singlisining jig'iga tegaverar va shundan zavqlanardi.

– To'qiyapman, senga nima?

– To'qi, to'qiyver, ahmoq, u rahmat deyish o'rniga tumshug'ingga tushiradi.

– Nega endi?

– Bekordan bekorga; Grishkani men yaxshi bilaman, ikkimiz qalin do'stmiz. Bu shunday bir ko'ppak-ki, qopib olib, nega qopganini aytmay, qarab turaveradi.

– Yolg'onni to'qiyverma! Koshki men uni bilmasam...

– Sendan ko'ra men yaxshiroq bilaman. Maktabga birga borib, birga kelardik.

Mitka panshaxa tirnagan kaftlariga tikilib, riyokorona xo'rsinib qo'yar, yerga engashib olar edi.

– Eh, Natashka, adoyi tamom bo'lasan! Yaxshisi, kuyovga chiqmay o'tiraver. Uning nimasiga uchasan? Xo'sh? Devga o'xshaydi – odam yoniga borgani qo'rqadi, o'zi biroz ovsarroq... Yaxshiroq nazar sol: haromi bola!..

---

[5] Birinchi avgust kuni (tarj.)

Natalyaning jahli chiqar, xo'rligi kelib yutinar, sharf ustiga engashib olardi.

– Hammasidan ham sovuqligini aytgin... – deb ayamay kalaka qilardi uni Mitka. – Nega baqirasan? Es yo'q senda, Natashka. Undan kech! Men hozir otni egarlayman-u, borib aytaman: biznikiga qadam bosmanglar deyman...

Natalyaning joniga bobo Grishak oro kirardi; u serbutoq hassasi bilan polni paypaslab, taxtasi bo'sh yo mahkamligini bilmoqchi bo'lganday do'q-do'q urib, mehmonxonaga kirardi, so'ngra bir bog' pichanday osilgan malla soqolini silab, Mitkani hassasi bilan turtib:

– Bu yerga nega kirding, haromi, a? – deb so'rardi.

– Bir ko'rib, holini so'ray deb kiruvdim, buvajon, – deb bahona qilardi Mitka.

– Holini so'ray deb? Nima? Ket bu yerdan, haromi! Shagommarsh!

Bobo cho'pday ozib ketgan oyoqlarini zo'rg'a bosib, hassasini o'qtalib, Mitkaning ustiga bostirib kelardi.

Grishak bobo oltmish to'qqiz yil umr ko'rgan, 1877-yilgi turk muhoribasida ishtirok etgan, general Gurkoning mulozimi bo'lgan va uning nazaridan qolib, polkka qaytarilgan edi. Plevna va Roshich yaqinidagi janglarda qahramonlik ko'rsatgani uchun ikki Georgiy ordeni va bitta Georgiy medali bilan mukofotlangandi; hozir o'g'lining uyida turar, qarisa ham aqli raso, rostgo'y, halol, mehmondo'st odam bo'lgani uchun butun qishloq ahli uni hurmat qilardi; bobo qolgan umrini o'tgan kunlarini xotirlashga bag'ishlagan edi.

Yozda kun chiqqandan to kunbotar mahalgacha supachada hassasi bilan yer chizib, boshini quyi solib o'tirar, xayolidan ko'tarilayozgan o'tmish xotiralari miyasida g'ira-shira jonlanar, ayrim manzaralar, yarim-yorti fikrlar esiga kelar edi...

Ko'zlari yumuq Grishak boboning qoramtir qovoqlariga o'ngib ketgan kazakcha furajkasining chetnagan soyabonidan soya tushib turardi; bu soya betlaridagi ajinlarni yana ham chuqurroq qilib ko'rsatar, oqargan soqoliga ko'kimtir tus berardi. Hassa ustida bir-biri bilan chalmashgan barmoqlari va qo'llarida, bo'rtib chiqqan qora tomirlarida tim qora qon zo'r-bazo'r aylanib turardi.

Yildan yilga qoni qochib, sovuqqa chiday olmay qolgan edi. Grishak bobo suygan nabirasi – Natalyaga;

– Jun paypoq ham oyoqlarimni isita olmaydi. Sen menga, jigarginam, qo'shqavatini to'qib ber, – deb yalinardi.

– Voy, buvajon, hozir yoz-ku! – deb kulardi Natalya yoniga o'tirib va uning sap-sariq, bujmaygan kattakon quloqlarini tomosha qilardi.

– He, jigar poram, yozlikka yoz-ku, biroq qonim yer tagidagi loydan ham sovuq.

Natalya, bobosining taram-taram qo'l tomirlariga tikilib turib, bolalik mahalida bir kuni hovlida quduq qazishganini, o'shanda u chelakda chiqqan loydan qo'g'irchoq va o'yinchoq sigirlar yasaganini, biroq sigirlarning shoxi ushalib tushib ketaverganini esladi. Hozir u, yana o'sha besh sarjin chuqurlikdan tortib olingan loyning qo'liga naqadar muzday tekkanini eslab, badani seskanib ketdi, bobosining qarilikdan sepkil toshgan qo'ng'ir qo'llariga qo'rqa-pisa qaradi. Nazarida, bobosining qo'l tomirlarida qizil qon emas, balki qoramtir suyuq loy oqayotgandek edi.

– O'limdan qo'rqasanmi, buva? – deb so'radi u. Grishak bobo eskirgan mundirining qotirma yoqasidan ajin bosgan, serpay va ingichka bo'ynini zo'rg'a bo'shatib olib, boshini chayqar, ko'kimtir bo'lib oqargan mo'ylovlarini qimirlatardi.

– Ajalni aziz mehmonday kutaman. Vaqt keldi... dunyoni ko'rdim, podsholar xizmatini o'tadim, aroqni ham bearmon ichdim, – deb kulib qo'ydi oppoq tishlarini ko'rsatib. Ko'zlari atrofidagi ajinlar jimirlab ketdi.

Natalya bobosining qo'llarini silar, so'ngra o'rnidan turib ketardi, lekin chol o'sha alfozda bukchayganicha supachada o'tirar, dastasi yeyilib ketgan hassasi bilan yer chizardi, rangi o'ngigan qirq yamoq mundirining qotirma yoqasidagi qizil bog'ichlar tovlanib, kulib turgandek edi. Chol, Natalyani unashib qo'ydilar, degan xabarni eshitgach, qayg'urgan va g'azablangan bo'lsa-da, biroq sir boy bermay, parvoyi falak yuraverdi. Dasturxon ustida Natalya uni eng yaxshi ovqatlar bilan siylar, kiyim-kechaklarini yuvar, paypoq to'qib berar, yirtiq-yamoqlariga qarardi. Shu xabarni eshitgan-

dan keyin Grishak bobo ikki kundan beri nabirasiga xo'mrayib qaraydigan bo'lib qoldi.

– Melexovlar – nomdor kazaklar. Rahmatli Prokofiy azamat kazak edi. Nevaralari qanaqa ekan? A?

– Nevaralari ham chakki emas, – deb mujmalroq javob qildi Miron Grigoryevich.

– Grishkasi juda beadab chiqibdi, haromi. U kuni cherkovdan kelayotsam, oldimdan chiqib, salom bermadi. Endi qariyalarni hech kim nazariga ilmay qo'ydi...

– O'zi juda xushmuomala yigit, – dedi Lukinichna kuyoviga yon bosib.

– Nima? Xushmuomala deysanmi? Iloyo aytganing rost bo'lsin. Ishqilib, Natashkaga yoqsin...

Mahr ustidagi maslahat vaqtida Grishak bobo mum tishlab o'tirdi: hujrasidan chiqib birpasgina kirib, og'zi tor ryumkadan aroqni bir amallab ichdi-da, sal-pal qizishib olib, mast bo'la boshlaganini sezgach, darhol chiqib ketdi.

Ikki kungacha u sarosimaga tushib, baxtiyor Natalyaga indamay nazar tashlab yurdi, u oqarib ko'kish tusga kirgan mo'ylovini qimirlatar, tishlar, tamshanar edi, biroq keyinchalik hovuridan tushib ancha bo'shashdi.

– Natashka! – deb chaqirib qoldi bir kuni u. Natalya yoniga keldi.

– Sen o'zing xursandmisan axir, bolam? A?

– O'zim ham bilmayman, buvajon, – deb rostini aytdi Natalya.

– Hah-ha... shunday degin... Mayli, Iso madadkor bo'lsin. Xudoga topshirdim, – dedi-yu, lekin alamiga chiday olmay, ginaxonlik qildi: – Buvam o'lguncha kutib turay ham demading, haromi, ko'zim yumilgandan keyin tegaverarding-da... Sen ketsang, holim xarob bo'ladi.

Bularning gapiga oshxonadan quloq solib turgan Mitka:

– Buva, siz hali yana yuz yil umr ko'rishingiz mumkin, axir u qarab o'tiraverardimi? – dedi. – Mehribonligingizni qarang-u...

Grishak bobo bo'zarib ketdi, nafasi tiqilib qoldi. Hassasini yerga do'q-do'q urib baqirdi:

– Ba-a-as, haromi, itvachcha! Yo‘qol!.. Ket, yo‘qol ko‘zimdan!.. Voy, kasofat shayton-ey!.. Quloq solib turgan ekan bu g‘alamis!..

Mitka chopganicha qo‘raga chiqib ketdi. Biroq Grishak bobo anchagina tutaqib Mitkani qarg‘adi; kaltagina jun paypoq kiygan oyoqlarining tizzasi dag‘-dag‘ qaltirar edi.

Natalyaning ikki singlisi: o‘n ikki yashar – Marishka bilan sakkiz yashar sho‘x erkatoy Gripka – to‘y kunini sabrsizlik bilan kutishardi.

Korshunovnikida turadigan xizmatkorlar ham suyunishgan edi. Ular xo‘jayinning ziyofatini yeyishdan, ikki kun ishdan bo‘shab, bearmon o‘ynab olishdan umidvor edilar. Bular orasida bo‘yi terakdek novcha, Get-Baba degan g‘alati familiyali, Bogucharden kelgan ukrainalik bir xizmatkor bor edi. U olti oyda bir marta tomoq ho‘llardi-yu, lekin rasvosi chiqquncha ichardi. Butun ustboshini, topgan pulini ichib tamomlardi. Ichadigan vaqt-soati yaqinlashib, anchadan beri tomog‘i taqillayotgan bo‘lsa ham, Get-Baba to‘ygacha bir amallab sabr qilishga ahd qildi.

Ikkinchi xizmatkori, Migulinskiy stanitsasidan kelgan, qotma va qoracha yuzli kazak Mixey edi. U Korshunovnikiga yaqindagina kelgan edi; uyiga o‘t tushib, xonavayron bo‘lgandan keyin u yollanib ishlay boshladi va bu yerda Getko bilan (Get-Babani qisqacha shunday atashardi) topishib olib, ora-sira ichishga o‘rgandi. O‘zi otga o‘lguday ishqiboz edi; bir oz ichib olgandan keyin darrov yig‘lashga tushar va ko‘z yoshlarini qotma, qoshsiz yuziga ishqalab, Miron Grigoryevichga yopishib olardi:

– Xo‘jayin! Jon xo‘jayin! Qizingizni erga berganda izvosh haydashni Mixeykaga topshirasiz. Men shunday haydayinki, hamma qoyil qolsin! Alanga orasidan ot choptirib o‘tib ketaman, lekin bironta mo‘yiga o‘t tekkizmayman. O‘zimning ham otlarim bo‘lardi... Eh!..

Hamisha odamni yoqtirmay, qovog‘ini solib yuradigan Getko, negadir, Mixeyga o‘rganib qolgan edi, doim uni bir gap bilan ermak qilardi:

– Mixey, eshityapsanmi? Sen o‘zing qaysi stanitsaliksan? – deb so‘rardi, tizzasigacha tushadigan uzun qo‘llarini bir-biriga ishqalab,

ovozini o‘zgartirib: «Migulevskiylikman» deb o‘zi javob berardi. – «Nega munchalik noshudsan? – Zotimiz o‘zi shunaqa».

Har doim takrorlanadigan bu hazil Getkoning o‘ziga nasha qilar, xirillab kular, uzun qoqshol boldiriga qo‘lini urib hoholardi, lekin Mixeyning achchig‘i kelib, uning soqoli qirilgan yuziga, qimirlab turgan kekirdagiga tikilar: «kalxat», «qo‘tir» deb so‘kardi.

To‘yni kuzda qiladigan bo‘lishdi. To‘ygacha hali uch hafta qolgan. Uspenye kuni Grigoriy qallig‘ini ko‘rgani kelgan edi. Mehmonxonada qizning dugonalari bilan to‘garak stol yonida pista, yong‘oq chaqishib o‘tirdi, so‘ngra jo‘nab ketdi. Natalya uni kuzatgani chiqdi. Grishkaning yangi egar urilgan arg‘umog‘i turgan bostirma tagidagi oxur yonida Natalya qo‘lini qo‘yniga suqib bir nimani oldi-da, Grigoriyning ko‘zlariga oshiqona tikilib, ko‘ksining haroratidan iligan kichkina bir tugunchani uning qo‘liga tutqazdi. Grigoriy bu hadyani qabul qilayotganda oppoq tishlarini ko‘rsatib iljayib qo‘ydi.

– Bu nima? – deb so‘radi Grigoriy.

– Keyin ko‘rarsan... tamaki xalta, o‘zim tikkanman.

Grigoriy ikkilanib turib, Natalyani o‘z bag‘riga tortib, o‘pmoqchi bo‘ldi, biroq qiz ikki qo‘lini uning ko‘ksiga tirab, novdaday bukilib o‘zini orqaga tashladi va qo‘rquv aralash deraza tomonga qaradi.

– Ko‘rib qolishadi!

– Ko‘rsa – ko‘rar!

– Yuzim chidamaydi...

– Dastlab shunaqa ko‘rinadi, – deb tushuntirdi Grigoriy.

Natalya ot jilovini tutib turdi, Grigoriy ko‘zlarini qisib, oyog‘i bilan uzangini izlardi. U egar ko‘rpachasiga o‘rnashib o‘tirib oldida, qo‘radan chiqdi. Natalya darvozani ochib berdi va kaftini peshonasiga qo‘yib, uning ketidan qarab qoldi: Grigoriy egarda qalmoqchasiga, chap yoniga qiyshayibroq o‘tirar, qamchisini ham chavandozchasiga o‘ynatib borardi.

«O‘n bir kun qoldi» – deb hisobladi xayolan Natasha, so‘ngra chuqur nafas olib, kulib yubordi.

## XX

Bug‘doy ingichka qiyoq barg chiqarib yerdan unib chiqadi va o‘sa boshlaydi; bir yarim oydan keyin orasiga zaxcha kirsa ko‘rilmaydi; bug‘doy yerning sharbatini so‘ra-so‘ra, boshoq chiqaradi, so‘ngra gullaydi, boshoqlarni oltinday kukun bosadi; keyin xushbo‘y va shirin sutga to‘lishib, shisha boshlaydi. Ekkan odam dalaga chiqib bug‘doyzorga qaraydi, qaragan sari qaragisi, tomosha qilgisi kelaveradi. Allaqaysi go‘rdan bug‘doyzorga bir gala mol tushadi: hamma yoqni payhonlab, bo‘liq boshoqlarni qiyratib, yer bilan yakson qilib ketadi. Mol ag‘anagan joylarda bug‘doy doira shaklida toptalib yotib qoladi... odam achinadi, yig‘lagisi keladi.

Aksinyaning boshiga ham xuddi shunday kun keldi: qip-qizil bo‘lib, barq urib gullagan muhabbatini Grigoriy qo‘pol chorig‘i bilan bosib poymol qildi.

Melexovlar kungaboqar ekkan o‘sha yerdan qaytgach, Aksinyaning ko‘ngli, xuddi burgan o‘t va sho‘ra bosib ketgan tashlandiq xirmon singari huvullab, o‘ksib qoldi.

Uyga qaytib kelayotganda, u hadeb ro‘molining uchini tishlar, tomog‘iga bir nima tiqilib, dodlagisi kelardi. Dahlizga kirdi-yu, o‘zini polga tashladi, xunibiyron yig‘lab, o‘pkasi shishib ketdi, chiroq yoqsa ham ko‘ngli yorishmas edi... Keyin o‘ziga keldi. Biroq qalbining eng chuqur joyida bir nima hali ham jaz-jaz qilib turardi.

Mol payhonlagan ekin qayta tiklanadi-ku. Yer bilan yakson bo‘lib yotgan poyalar shudring va quyoshdan bahra olib, yana qaddini ko‘taradi; avval u yuki og‘irlik qilgan odam singari bukilib, keyin gavdasini rostlab, boshini ko‘tarib oladi, yana qadimgisiday oftob nurini emib, yana shamolda tebranib yayray boshlaydi...

Kechalari Aksinya eriga haddan tashqari erkalansa-da, xayoli boshqa yoqda, qalbida nafrat tuyg‘usi bilan ulug‘ muhabbat hissi bir-biriga chirmashib ketgan edi.

Xayolan bu xotin yana avvalgisiday sharmandagarchilik ko‘chasiga kirish orzusida edi. U, o‘n gulidan bir guli ochilmagan baxtiyor Natalya Korshunovadan Grishani tortib olishga jazm qilardi. Tuni bilan ming turli fikrlarni o‘ylab, quruq ko‘zlarini qorong‘ilikka tikib chiqardi. O‘ng qo‘li ustida dong qotib uxlagan

Stepanning chiroyli boshi yotar, uning jingalak uzun kokili bir yoqqa osilib tushgan edi. U sal ochilib qolgan og'zi bilan nafas olar, qop-qora qo'lini xotinining ko'ksiga qanday qo'ygan bo'lsa, o'shandoqligicha qolgan, tars yorilgan temirday barmoqlari qimirlardi, Aksinya o'ylanar, chamalab ko'rardi. Qayta-qayta o'ylab, shu qat'iy qarorga kelib qo'ydi: Grishani hammadan ajratib oladi, o'ziga shaydo qilib, ilgarigiday unga yolg'iz o'zi ega bo'ladi.

Lekin qalbining eng chuqur bir joyida ari nishiga o'xshagan bir narsa qattiq azob berardi.

Kechalari ahvol shunday edi, kunduzlari bo'lsa, ro'zg'or tashvishi, uy ishlari bilan ovunardi. Ba'zan unda-munda Grishani uchratib qolardi, shunda Grishaga mushtoq bo'lgan Aksinya rangi o'chib, kelishgan qaddi-qomatini ko'z-ko'z qilib, uyalmay, uning qop-qora ko'zlariga tikila-tikila, yonidan o'tib ketardi.

Har uchrashuvdan keyin Grisha uni qattiq sog'inganligini sezardi. Grisha bekordan bekor g'azablanar, zahrini Dunyashkaga, onasiga sochardi, lekin ko'pincha qilichni olib, qo'ra orqasiga chiqib ketar, o'sha yerda terga botib, tishlarini mahkam bosib, yerga qadab qo'yilgan yo'g'on-yo'g'on novdalarni chopaverardi. Bir haftada bir talay novdani kesib tashladi. Panteley Prokofyevich isirg'asini likillatib, ko'zlarini olaytirib so'kinardi:

– Bekorga chopib, nobud qildi, la'nati shayton, ikki chetanga yetardi-ya! Bildik, rosa qilichboz yigit ekansan. Onang o'lsin seni tug'may. Qo'ling qichisa, to'qayga borib chopavermaysanmi... Shoshma sen hali, askarlikka borgin – qilichbozlikni o'shanda ko'rasan!.. Birpasda sendaqalarning tanobini tortib qo'yishadi...

## XXI

Kuyov navkarga to'rtta qo'sh otlik arava yasatildi. Bayramdagidek yasangan-tusangan odamlar Melexovning qo'rasida, aravalar atrofida uymalashib turishardi.

Kuyov jo'rasi – Petro, qora kamzul, hoshiyador havorang chalvar kiygan, chap yengiga ikkita oq ro'molcha bog'lagan, mallarang miyig'i ostida kulib, kuyov yonida turardi.

– Sen, Grishka, dadil bo'l! Kuyov degan xo'rozday qaqqayib turishi kerak, muncha shalvayasan?

Aravalar oldida g'ovur-g'uvur gap, kim nima deyayotganini bilib bo'lmaydi.

– To'y boshi qaysi go'rga ketdi? Jo'naydigan vaqt bo'ldi, axir.

– Bo'la!

– Xo'sh?

– Bo'la, sen ikkinchi aravaga o'tir. Eshityapsanmi, bo'la?

– O'tirg'ichlarni mahkamladinglarmi?

– O'tirg'ich bo'lmasa, jin urmaydi. O'ziyam yumshoq! Qizg'ish jun yubka kiygan Darya sandip novdasiday egilib, ilonday buralardi; u bo'yalgan kamon qoshlarini chimirib, Petroni turtardi.

– Jo'naydigan vaqt bo'ldi, dadangni chaqir. U yoqdagilar kutib qolishadi, axir.

Allaqayoqdan dikanglab kelayotgan otasi bilan Petro shivirlashib oldi-da:

– Aravaga chiqinglar! – deb buyurdi. – Mening aravamga kuyov bilan besh kishi minsin. Anikey, sen arava haydaysan, – dedi.

Hamma aravaga chiqib o'rnashib oldi. Qizargan, sersavlat Ilinichna darvozani ochdi. To'rt arava ko'chada bir-biridan o'zib, oldinga o'tib olish uchun urinardi.

Petro Grigoriyning yonida o'tirardi. Ularning ro'parasida o'tirgan Darya chetiga to'r tikilgan ro'molchasini yelpitib borardi. O'nqir-cho'nqir joylarda ashula sadosi birdan bo'linib qolardi. Kazakcha furajkalarning qizil gardishlari, ko'k va qora mundirlar, kurtkalar, oq lenta bog'langan yenglar, xotinlarning rang-barang tovlangan shol ro'mollari, guldor yubkalar... Har aravaning ketidan ko'tarilgan doka singari oppoq chang buluti... Kuyov navkar...

Grigoriyning bo'lasi Anikey arava haydardi, u Melexovlarning qo'shnisi. Anikey shu qadar engashib olganki, o'rindiqdan tushib ketishiga sal qolgan, qamchini qarsillatadi, vizillatib o'ynaydi, terga pishgan otlar shatak qayishlarini uzib yuborgudek bo'lib, uchib borishardi.

– Savala! Savalasang-chi! – deb baqiradi Petro. Hezalaknamo, ko'sa Anikey Grigoriyga ko'z qisar, aftini bujmaytirib tirjayar va qamchisini vizillatib otlarni savalardi.

– Po'sht, po'sht!.. – deb baqirdi ulardan o'zib kelayotgan aravakash, bu – kuyovning tog'asi Ilya Ojogin edi. Grigoriy tog'asining

orqasida o‘tirgan quvnoq Dunyashkani ko‘rib qoldi; uning qorachadan kelgan ikki beti dir-dir o‘ynardi.

– Yo‘q, o‘zib bo‘psan! – deb qichqirdi Anikey va tikka turib olib, qattiq hushtak chaldi.

Otlar pishqirishib o‘qdek uchib ketdilar.

– Yi-qi-la-san!.. deb chiyilladi o‘tirgan joyida irg‘ib-irg‘ib tushayotgan Darya Anikeyning amirkon etigini mahkam quchoqlab.

– Hushyor bo‘l!.. – deb bo‘kiradi bir chekkadan Ilya tog‘a. Uning ovozi shaldir-shuldur g‘ildirak sadolari orasida ko‘milib ketdi.

Qolgan ikki arava yo‘lda yonma-yon kelar, ular rang-barang kiyingan, bo‘kirgan odamlarga liq to‘la edi. Ustiga qizil, ko‘k va pushtirang yopqichlar yopilgan, yol va kokillariga qog‘ozgul, tasma taqilgan otlar qo‘ng‘iroqlarini jingirlatib, sovundek ko‘pirib, qatqaloq yo‘lda uchib borishardi, shamol otlarning ko‘pirgan sag‘rilari ustidagi ola-bula yopqichlarni hilpiratardi.

Korshunovning darvozasi oldida bir gala bola kuyov navkarni poylardi. Bolalar yo‘lda chang paydo bo‘lganini ko‘rib, hovliga chopib kirishdi.

– Kelishyapti!

– Rosa haydab kelishyapti!

– Ko‘rinib qolishdi!

Ular Getkoni o‘rab olishdi.

– Nega chug‘illashasiz? Ket, shumtakalar! Vag‘illab quloqmiyani yedilaring-ku!

– Xoxol, isqirt xoxol! Qoramoychi xoxol!.. – deb chinqirishardi bolalar. Ular Getkoning qopga o‘xshash keng chalvari atrofida chuvillashib irg‘ishlashardi.

Lekin u, quduqqa engashib qaragan odamday, boshini egib, sho‘xlik qilayotgan bolalarni tomosha qilar, qappaygan qornini silab, muloyimgina kulardi.

Aravalar tasir-tusur hovliga kirib keldi. Petro Grigoriyni zinapoya tomon boshladi, kuyov navkarga kelganlar ular orqasidan ergashdi.

Dahliz bilan yemakxona orasidagi eshik berk edi. Petro taqillatdi.

– Yo hazrati Iso, ummatim degin.

– Omin, – degan ovoz eshitildi eshik orqasidan. Petro uch marta eshikni taqillatdi, uch marta haligi so'zlarni takrorladi, ichkaridagilarning javobi zo'rg'a eshitilardi.

– Kirsak mumkinmi?

– Bosh ustiga.

Eshik lang ochildi. Natalyaning enagasi va hozir yangasi bo'lgan chiroyligina bir tul xotin Petroga jilmayib ta'zim qildi.

Yanga bir stakan tinmagan loyqa kvas tutib:

– Jo'ra yigit, sog'lik uchun ko'tar, – dedi. Petro mo'ylovini silab oldi-da, simirdi, ko'pchilikning kulgisini qistatib, tomog'ini qirib qo'ydi.

– Yangajon, siylayman deb meni boplading-ku!.. Shoshmay tur, oyimtilla, hali senga men ham shundayini tutayki, ko'zlaringdan o't chaqnab ketsin.

– Kechirasiz, aylanay, – deb ta'zim qildi yanga va Petroga qarab ayyorlarcha kulib qo'ydi.

Petro bilan yanga askiya aytishib bo'lguncha, kuyovning qavm-qarindoshlariga, to'y shartiga muvofiq, uch ryumkadan aroq tutildi.

To'yga kelgan ko'ylagini kiyib, doka ro'mol o'ragan Natalyani stol yonida qo'riqlashardi. Marishka qo'lini cho'zganicha o'qlog'i ushlab turar, Gripka oshpichoqni oyboltaday qimirlatib qo'yardi.

Aroqdan boshi aylangan, terlab-pishgan Petro qizchalarga ryumkada yarim so'mdan pul uzatdi. Yanga Marinaga imlab qo'ydi, qiz o'qlog'ini stolga urib:

– Oz! Bu pulga kelinni sotmaymiz!.. – deb baqirdi.

Petro bir siqim jaranglagan tangani ryumkaga solib yana uzatdi.

– Sotmaymiz! – deb Natalyaning singillari chug'ullashdi va yerga qarab turgan opalarini tirsaklari bilan turtishdi.

– Bo'ldi-da endi! Judayam narxi oshib ketdi.

– Rozi bo'la qolinglar, qizlar, – deb buyurdi Miron Grigoryevich, jilmayib stol yoniga borib. Uning sarimoy surtib taralgan malla sochlaridan chirigan go'ng, ter hidi kelardi.

Stol atrofida o'tirgan qizning qarindosh-urug' va yaqinlari o'rinlaridan turib, joy bo'shatishdi.

Petro ro‘molning bir uchini Grigoriyga tutqizib, o‘zi skameyka ustiga chiqdi-da, ikona tagida o‘tirgan kelin yoniga uni boshlab bordi. Uyalganidan qo‘llarigacha terlab ketgan Natalya ro‘molining bir uchidan ushladi.

Dasturxon atrofidagilar yaxna tovuq go‘shtini chapillatib chaynashar, qo‘llarini sochlariga surtishardi. Anikey tovuq to‘shini kemirar, sap-sariq yog‘i iyagi va baqbaqasidan oqib yoqasiga tushardi.

Grigoriy ro‘molcha bilan bog‘lab qo‘yilgan kelin bilan kuyovning qoshiqlariga, norin tovoqdagi bug‘i chiqib turgan ugraga suqlanib qarardi. Uning qorni och, ichi quldurar edi.

Darya Ilya tog‘aning yonida o‘tirar, og‘zi tinmasdi. Ilya tog‘a so‘yloq tishlari bilan qo‘y qovurg‘asini tozalar, aftidan Daryaga behayo gap gapirayotganga o‘xshardi – Darya ko‘zlarini qisib, qoshlarini chimirib, o‘zidan-o‘zi qizarib kulardi.

Mehmonlar boshlarini ko‘tarmay to‘yguncha yedilar. Erkaklarning qo‘lansa ter hidiga xotinlarning o‘tkir va xushbo‘y hidlari aralashib ketdi. Sandiqdan chiqqan syurtuklar, yubka va shol ro‘mollardan naftalin va qandaydir og‘ir bo‘ylar anqir, xuddi momalar ko‘hna mursagining hidi kelardi.

Grigoriy ko‘z qiri bilan Natalyaga qarab qo‘ydi. Natalyaning ustki labi biroz qalinroq ekanini, quyi labi ustidan osilib tushganini endigina payqadi. Yana o‘ng betining yonoq suyagi ostida jigarrang xoli borligini, xolidan ikki dona tillarang mo‘y o‘sib chiqqanini ham ko‘rdi va bundan, negadir, ko‘ngli g‘ash bo‘ldi. Birdaniga Aksinyaning kelishgan bo‘yni va gardaniga tushib turgan jingalak sochlari esiga tushib ketdi, nazarida, ko‘ylak yoqasidan terlagan yag‘riniga birov arpa somon solib yuborganday bo‘ldi. Badani junjikib, xayoli parishon bo‘lib, chapillatib chaynayotgan, qultullatib ichayotgan, yutoqqan odamlarga noxushlanib nazar tashladi.

Stoldan turganlarida, og‘zidan achigan bug‘doy non bilan bo‘za hidi kelib turgan bir odam engashib, kuyovning qo‘njiga bir siqim so‘k soldi: bu kuyovga ko‘z tegmasin uchun qilingan irim edi. Qaytib kela-kelguncha haligi so‘k Grigoriyning oyog‘iga botib ketdi, ko‘ylagining tor yoqasi bo‘ynini qisdi. To‘y rasm-rusumlaridan bezor bo‘lgan Grigoriy jig‘ibiyroni chiqib o‘zidan o‘zi so‘kinardi.

Katta ko'chaga burilaverishdagi chorrahada qo'nqaygan cherkov mezanasining uchi nayzaday tovlanib turardi.

Panteley Prokofyevichning qulog'iga arava g'ildiraklarining eshitilar-eshitilmas shaldiragani, itlar vovullagani eshitildi. Maydon tomondan ikki arava o'qday uchib ko'chaga chiqdi. Birinchi aravada bolish o'rindiqda Miron Grigoryevich bilan Lukinichna chayqalib kelishardi, ro'paralarida yangi mundir kiygan, Georgiy ordenlarini va medallarini taqib olgan Grishak bobo o'tirgan edi. Aravani Mitka haydar, u oliftachasiga o'tirib olgan, yo'lda chopaverib qutirgan semiz, qora otlarni yanada qizitmaslik uchun qamchisini ostiga qistirib qo'ygan edi. Ikkinchi aravani haydagan Mixey o'zini orqaga tashlab, kuchi boricha tizginini tortar, chopib ketayotgan otlarni to'xtatib, yo'rttirib ketmoqchi bo'lardi. Mixeyning cho'ziq va qoshsiz basharasi sholg'omday qizarib ketgan, furajkasining bukchayib qolgan soyaboni tagidan to'xtovsiz ter quyib turardi.

Panteley Prokofyevich darvozani lang ochdi, aravalar birin-ketin qo'raga kirdi.

Ilinichna g'oz singari taltayib zinapoyadan tushdi va yerda yig'ilib qolgan axlatlarni etagi bilan supurib, qudalar qoshiga yetib bordi.

– Marhamat qilinglar, aziz qudajonlar! Bizning kulbamizga qadam ranjida qilingiz! – dedi-da, barvasta qomatini bukib ta'zim qildi.

Panteley Prokofyevich boshini yoniga qiyshaytirib, qo'llarini kerib qo'yib:

– Qadamlaringizga xasanot, qudajonlar! Qani, kirsinlar! – dedi. U otlarni aravadan chiqarishga buyurdi-da, qudasining yoniga bordi.

Miron Grigoryevich chalvariga o'tirgan changni kafti bilan qoqib tashladi. Qudalar ko'rishib, zinadan chiqa boshladilar. Aravaning bunchalik qattiq haydalganidan behol bo'lgan Grishak bobo orqaroqda qoldi.

– Marhamat qilinglar, qudajonlar, kiringlar! – deb qistardi uni Ilinichna.

– Hechqisi yo'q, tashvishlanmasinlar... kiramiz.

– Sizni rosa kutdik, kira qoling. Hozir, qudaning mundirini tozalash uchun supurgi beraman. Chang-to'zondan nafas olib bo'lmaydi.

– Rost gap, qurg‘oqchilik... shu tufayli chang ko‘p! Ko‘p ovora bo‘lmang, qudabuvi, men birpasga... – Grishak bobo fahmi kalta Ilinichnaga ta’zim qilib, orqasi bilan tisarila-tisarila bostirma tagiga yetib bordi-da, bo‘yalgan shamol mashinaning panasiga o‘tdi.

Panteley Prokofyevich zinapoyada Ilinichnaga yo‘liqib:

– Cholga muncha tirg‘alasan, ahmoq? – deb so‘ka ketdi. – Chol bechoraniki qistab zo‘rg‘a tursa, bu taviya... tuf-ey, tavba, farosat bo‘lmasa qiyin-da!..

– Men qayoqdan bilay? – deb xijolat bo‘ldi Ilinichna.

– Bilishing kerak. Ha, mayli. Bor, qudabuvini uyga olib kir!

Yasalgan dasturxon ustida shirakayf mehmonlar chuldurab o‘tirishar edi. Qudalarni mehmonxonaga olib kirib, stol yoniga o‘tirg‘izishdi. Sal o‘tmay yoshlar cherkovdan qaytib keldi. Panteley Prokofyevich chirpit shishadan aroq quyar ekan, ko‘zi yoshlanib ketdi.

– Qani, qudalar, bolalarimiz uchun ko‘taraylik. Ular ham bizlar singari totuv bo‘lib, qo‘sha qarishsin... Ikkisi ham dard ko‘rmasin, baxtini topsin, uvali-juvali bo‘lishsin...

Grishak bobo baqaloq ryumkani to‘lg‘azib, yarmini ko‘kish soqol-mo‘ylov qoplab olgan og‘ziga, yarmini mundirining qotirma yoqasiga quyib yubordi. Qadahlarni urishtirishib ichishdi. Urishtirmay ham ichishdi. G‘ovur-g‘uvur yarmarkadagidan qolishmasdi. Stolning eng chekkasida o‘tirgan Korshunovlarning uzoq qarindoshi bo‘lgan, ilgari ataman polkida xizmat qilgan Nikifor Koloveydin qoqshol qo‘lini ko‘tarib:

– Gorko![6] – deb baqirdi.

– Goo-r-koo!... – deb stol yonida o‘tirganlar unga qo‘shildi.

– Oh, gorko!.. – deb baqirishdi oshxonaga liq to‘lgan odamlar.

Grigoriy peshonasini burishtirib, xotinining chuchmal lablaridan o‘par, ko‘z olaytirib yoni-beriga qarab qo‘yardi.

Qip-qizarib ketgan basharalar, mastlikdan suzilib qolgan uyatsiz ko‘zlar, hayosiz iljayishlar... Chalp-chulp etib kavshagan, gulli dasturxonlarga so‘laklarini oqizgan og‘izlar... Xullas, to‘y-tomosha...

---

[6] Gorko – achchiq demak. To‘yda vinoni qo‘lga olib: «Gorko!..» deb qichqiradilar, kuyov bilan qalliq o‘pishib, vinoni shirin qilib bersin deb so‘raydilar. (Tarj.)

Nikifor Koloveydin kemshik og'zini ochib, qo'lini ko'tarar va:

– Gorko! – deb baqirardi. Havorang atamancha mundirning yengiga uch qator jiyak tikilgan, bu – askarlikda muddatidan uzoq xizmat qilganligining nishoni edi.

– Goo-r-ko!..

Grigoriy Koloveydinning o'pirilgan dahaniga nafratlanib qarar edi. Chol har gal «gorko» deb baqirganda, kemshik tishlari orasidan qip-qizil tili tarnov singari chiqib turardi.

Petro aroqda ivigan mo'ylovining uchlarini qimirlatib, shivirlab:

– O'pishinglar, axir, voy noshudlar-e... – der edi. Loladay qizargan shirakayf Darya oshxonada ashula boshladi. Yonidagilar jo'r bo'lishdi. Ashulaga mehmonxonadagilar ham qo'shildi.

*Ana, ko'prik, ana, suv,*
*O'tadigan joyi shu...*

Ovozlar bir-biriga aralashib ketdi. Xristonyaning ovozi oynalarni zirillatib, hammaning tovushini bosib ketdi.

*Bizga aroq tutib ko'r,*
*Ichishimizni shunda ko'r...*

Yotoqxonadagi xotin-xalaj baravariga:

*Men sozimdan, ovozimdan,*
*Ovozimdan ayrildim.*

deb chiyillar edi.

Allaqanday bir cholning, bochka temiriga o'xshash dirillagan ovozi xotinlar joniga oro kirdi.

*Sozingdan, hey, ovozingdan, hey,*
*Ovozginangdan ayrilding.*
*Yurishlaring bog'ma-bog',*
*Yeganing achchiq yong'oq.*

– O'ynab qoling, yaxshilar!..

– Qo'y go'shtidan yeb ko'r.

– Qo'lingni olsang-chi, erim qarab turibdi.

– Gor-kooo!

– Kuyov jo‘raning shilqimligini qara, yanga bilan o‘ynashyapti-ya.

– Yo‘q, yo‘o‘o‘q, sen bizni qo‘y go‘shti bilan siylama... Balki men sterlyad yerman... yeyaveraman. O‘ziyam yo-yog‘lik ekan.

– Proshka, og‘ayni, qani... jilovbardorlar uchun bir urishtiraylik.

– Tilimning ostini lovillatib yubordi-ku...

– Semyon Gordeyevich!

– Ha?

– Semyon Gordeyevich!

– Tur, yo‘qol-e!

Oshxona poli dukurlab, lopillay boshladi, poshnalar tapir-tupur yer tepindi, stoldan stakan tushib ketdi, uning jaranglagan ovozi g‘ovur-g‘uvur ichida eshitilmay qoldi. Grigoriy stol atrofida o‘tirganlarning tepasidan oshxona tomonga qaradi: xotinlar qiy-chuv ko‘tarib, aylanib o‘yinga tushgan edilar. Ularning do‘ppaygan semiz bellari biltanglar edi (orig‘i yo‘q, chunki hammasi besh-oltitadan yubka kiyib kelgan edi), chetiga to‘r tikilgan dastro‘mollarini o‘ynatishar, bilaklarini likillatishardi.

Uch qator tugma pardali garmon sadosi quloqlarda jarangladi, garmonchi bas pardalariga rez berib, «Kazachok» raqsini chaldi.

– O‘rtani och! Davra quringlar!

– Sal suriling, mehmon opalar! – deb Petro xotinlarning raqs tushaverib terlagan qorniga turtib, joy bo‘shatardi.

Grigoriyga endi jon kirdi, u Natalyaga ko‘z qisib:

– Petro hozir «Kazachok»ni qiyib yuboradi, qarab tur, – dedi.

– Kim bilan tushmoqchi?

– Ko‘rmayapsanmi? Sening onang bilan.

Lukinichna qo‘llarini biqiniga tiradi, ro‘molchasi chap qo‘lida edi.

– Qani, tush, yo‘qsa o‘zim boshlab yuboraman!.. Petro mayda rez bilan uning oldiga bordi va ustalik bilan tizzalarini bukib cho‘qqaydi-da, yana o‘z joyiga qaytdi. Lukinichna, xuddi ko‘lmak suv ustidan hatlab o‘tmoqchiday, etagini yig‘ib oldi-da, oyoqlarining uchlari bilan tez-tez bosib, ofarin sadolari ostida erkakchasiga oyoq tashlab o‘yinga tushib ketdi.

Garmonchi pastki pardalarni, eng mayda rez bilan chalganda Petro joyida turolmay, «uh» deb, tiz bukib, cho‘kkalab o‘ynab ketdi,

u mo‘ylovining uchini tishlab olgan, etigining qo‘njiga kafti bilan shapatilar, oyoqlari ko‘z ilg‘amaydigan darajada pirillab o‘ynar edi; terga pishgan kokili oyog‘iga monand silkinmay, peshonasida u yoqdan bu yoqqa tashlanardi.

Eshik oldiga uyulishgan odamlar Petroni to‘sib olganidan Grigoriy akasini ko‘ra olmas edi. U faqat, nag‘al poshnalarning tapir-tupurini, haybarakallachi mehmonlarning mast-alast qiyqirig‘ini eshitardi, xolos.

Pirovardida Miron Grigoryevich Ilinichna bilan birga raqsga tushdi, sipogarchilikni qo‘ldan bermay, jiddiylik bilan o‘yin qildi, u har bir ishni shunday puxta bajarar edi.

Panteley Prokofyevich taburetka ustida turib, cho‘loq oyog‘ini likillatar, tomog‘ini taqillatardi. Oyog‘i o‘rniga lablari va isirg‘asi o‘yin tushardi.

Eng epchil raqqoslar ham, oyog‘ini eplab buka olmagan noshudlar ham «Kazachok» o‘yiniga tushib, xumordan chiqishdi.

Hammalari baravariga qichqirishardi:

– Bo‘sh kelma!

– Maydaroq ol! Qoyil!

– Oyog‘i yengil-u, quyrug‘i og‘irlik qilyapti.

– Tashlab qol!

– Bizning qishloq yengadigan bo‘ldi.

– Sharbatdan quy, ko‘nglim g‘alati bo‘lib ketyapti.

– Ichim o‘rtar demading, ablah. Tur, o‘yna, yo‘qsa, shisha bilan solib qolaman.

Mast-alast Grishak bobo yonidagi suyagi buzuq kishini quchoqlab olib, qulog‘iga chivin singari g‘ing‘illardi:

– Qaysi yili qasam ichgansiz?[7]

Uning yonidagi kishi, keksa eman daraxtiga o‘xshash to‘nkaday bir chol edi; u qo‘lini siltab, do‘ng‘illardi:

– O‘ttiz to‘qqizinchi yili, bolam.

– Qaysi yili? A? – Grishak bobo ajin bosgan qulog‘ini tutib, eshitmoqchi bo‘lardi.

---

[7] Qaysi yili askarlikka olingan eding demoqchi (Tarj.)

– O‘ttiz to‘qqizinchi, deyapman senga.

– O‘zingiz kim bo‘lasiz? Aslingiz kimlardan?

– Baklanov polkining vaxmistri Maksim Bogatiryovman. Qishloqda tug‘ilganman.... Qizil Jar qishlog‘ida.

– Melexovlarga qarindoshmisiz?

– Nima?

– Qarindoshmisiz, deyman?

– Ha, bobosi bo‘laman.

– Baklanov polkidan-a?

Chol xira ko‘zlarini tikib Grishak boboga boqar, chaynay olmagan luqmasini milklari orasida nari-beri dumalatib, bosh irg‘ab, «ha» deganday qilardi.

– Bundan chiqdi, Kavkaz kampaniyasida qatnashgan ekansiz-da?

– Rahmatli Baklanov bilan birga xizmat qilganman, joyi jannatda bo‘lsin. Kavkazni olganmiz... Bizning polkimizga uncha-muncha kazakni olvermas edilar.... Gvardiyachilarday bo‘ydor, lekin sal-pal enkaygan, qo‘llari uzun-uzun, yag‘rini keng bo‘lganlarnigina olishardi, ularning har kiftiga endigi kazakdan ikkitasi joylanadi. Ilgarigi odamlar shunaqa bo‘lardi, bolam... Rahmatli general janobi oliylari bir kuni Chelenji ovulida meni qamchi bilan savalatganlar...

– Men Turkiya kampaniyasida bo‘lganman... A? – Ha, bo‘lganman... – Grishak bobo qoq suyak ko‘kragini kerib, Georgiy orden va medallarini shildiratib qo‘ydi.

– O‘sha ovulni biz tong mahalida ishg‘ol qildik, tush paytida trubachi to‘satdan trevoga chalib qoldi...

– Biz ham oq podshoning xizmatini o‘taganmiz. Roshich shahrining yonida bir jang bo‘ldi, o‘shanda bizning o‘n ikkinchi Don kazaklar polki turklarning yanicharlari bilan jang qildi...

Baklanovchi chol Grishak boboga quloq solmay, gapida davom etadi:

– Trubachi trevoga chalib qolsa bo‘ladimi...

– Ularning yanichari bizning atamanliklarga o‘xshash, ha, shundoq... – Grishak bobo qizishadi, jahli chiqib qo‘lini silkitadi. –

Ular doim o‘z podsholarining xizmatida turar ekan, lekin hammasining boshida kattakon oq qop. Labbay? Boshlariga oppoq qop o‘rab olishgan.

– Men polkdoshimga: «Hoy Timosha, chekinadiganga o‘xshaymiz, devordagi anavi gilamni o‘marib qol, bo‘ktarmaga bog‘lab olib ketamiz...» dedim.

– Ikkita ordenim bor! Jangda botirlik qilganim uchun mukofotlanganman!.. Turk mayorini tiriklayin tutib keltirganman...

Grishak bobo yig‘lamoqdan beri bo‘lib baklanovchi cholning ayiqnikiday kiftiga mushti bilan uradi; lekin u bir to‘g‘ram tovuq go‘shtini xren o‘rniga adashib olcha kiseliga botiradi, ugra to‘kilgan dasturxonga ojiz ko‘zlarini tikadi, o‘pirilgan tishsiz og‘zidan gapi tushib ketay deydi.

– Ana, bolam, shayton kishini shunaqa vasvasa qiladi... – Cholning nursiz ko‘zlari oppoq dasturxonning g‘ijimlariga shu qadar qattiq tikiladiki, u, aroq va ugra to‘kilgan dasturxonni emas, go‘yo qorli Kavkaz tog‘larining cho‘qqilarini ko‘rayotganday bo‘ladi. – O‘shangacha men birovning moliga qo‘l uzatgan emasdim... Cherkas ovullarini ishg‘ol qilganimizda ham, tog‘ oralarida yakka-yolg‘iz uylarni ko‘rganimizda ham, men birontasiga ko‘z olaytirgan emasman... Birovning mulkiga qo‘l cho‘zish – shaytondan... Nima bo‘ldi-yu... ko‘zimga o‘sha pat gilam yaxshi ko‘rinib ketibdi... Otimga gajim topildi deb suyundim...

Olamda biz ko‘rmagan ajoyibot-g‘aroyibotlar qolmadi. Dengizning nariyog‘idagi yurtlarda ham bo‘ldik. – Grishak bobo cholning ko‘zlariga tikilib qaramoqchi bo‘ladi, lekin ko‘zining atrofini tuk bosib chakalakka aylanib ketgan oppoq qosh va soqol mo‘ylari ajriqday chirmashib ko‘zini to‘sib qolgan; Grishak bobo uning ko‘zini ko‘ra olmaydi, tikanday hurpaygan jun ko‘rinadi, xolos.

Grishak bobo quvlik ishlatmoqchi bo‘ladi; u cholning diqqatini o‘ziga jalb etish uchun hikoyani cho‘zib o‘tirmay, shartta o‘rtasidan – eng qiziq joyidan boshlaydi.

– Birdaniga yasovul Tersinsev: «Vzvodlar saf-saf bo‘lib, ot qo‘ying, arsh-arsh!» deb komanda berdi.

Baklanovchi chol karnay sadosini eshitgan arg‘umoq singari, boshini g‘oz ko‘taradi; paydor mushtini stolga qo‘yib:

– Baklanovchilar, qilichlar qindan sug‘urilsin, nayzalar jangga hozirlansin!.. – deb shivirlaydi. So‘ngra, birdaniga ovozi kuchayadi, xira ko‘zlari chaqnab, qarilikdan so‘ngan o‘ti yana alangalanadi. – Azamat baklanovchilar!.. – deb bo‘kiradi u sap-sariq tishsiz milklarini ko‘rsatib. – Hujumga... marsh-marsh!..

Shuni deb Grishak boboga, ma’nodor va yoshlar singari dadil nazar tashlaydi, iyagiga oqib tushib, g‘ashini keltirgan ko‘z yoshlarini, chakmonining kir yengi bilan artmaydi ham.

Grishak bobo ham qizisha boshlaydi:

– Bizga shunday komanda berdi-yu, qilichini silkitib yubordi. Otlarni haydadik, yanicharlar xuddi mana shunday saf tortib turishgan edi, – barmog‘i bilan dasturxonda egri-bugri to‘rtburchak shaklini chizadi, – bizni o‘qqa tutishdi. Biz ikki marta hamla qildik – ikki marta daf qilishdi. Qo‘qqisdan yon tomondagi daraxtzor orasida ularning otliqlari paydo bo‘ldi deng. Yuzboshimiz ko‘rsatma berdi. Bizlar darhol o‘ng qanotni burib, safni o‘zgartirib oldik-da, ularga chovut soldik. Bir hamlada yanchib tashladik. Kazaklarga bardosh beradigan otliq askar qayda? Bular ham shu-da. O‘rmonga qarab bir qochish qilishdi, dodlashadi... Qarasam, ro‘paramda to‘riq ot mingan bir ofitser qochib ketyapti. O‘ziyam kelishgan ofitser ekan, qop-qora mo‘ylovlari osilgan. Orqasiga burilib, hadeb menga qaraydi, to‘pponchasini qinidan olmoqchi bo‘ladi. To‘pponcha qini egarga qo‘shib tikilgan ekan... O‘q uzdi-yu, lekin tegiza olmadi. Men bo‘lsam ustiga ot qo‘yib yetib bordim. Qilich bilan chopib tashlamoqchi bo‘ldim-u, biroq o‘ylanib qoldim. U ham bir insonku. O‘ng qo‘lim bilan belidan ushlab, egaridan shartta ko‘tarib oldim. Qo‘limni tishlab tashladi, baribir, qutula olmadi – tiriklayin tutib keltirdim.

Grishak bobo mag‘rurlanib cholga qaradi: lekin u, kattakon beso‘naqay boshini ko‘ksiga osiltirib, g‘ovur-g‘uvur ta’siridan uxlab qolgan, bemalol xurrak otar edi.

## *IKKINCHI QISM*

### I

Sergey Platonovich Moxovning nasl-nasabi olisdan boshlanadi.

Pyotr I hukmdorlik qilgan yillari, kunlardan bir kun, qoq non va o'q-dori ortgan podsholik kemasi Don daryosi bo'ylab Azov tomonga ketayotgan ekan. Donning yuqorisida «qaroqchi» deb nomi ketgan Chigonaki shahrining kazaklari, xuddi Xopyor daryosining quyilishiga yaqin joyda, kechasi kemani bosishadi, uxlab yotgan soqchilarini o'ldirib, qoq non bilan o'q-dorilarni talon qilishadi, kemani botirishadi.

Podshoning buyrug'i bilan Voronejdan askar keladi, «qaroqchi» Chigonaki shahriga o't qo'yadi, kemaga bosqinchilik qilishda aralashgan kazaklarni jangda tor-mor qilishadi, solga dor qurib, asir olingan yasovul Yakirka bilan qirq kazakni osishadi-da, daryoning past tomonlaridagi g'alayon ko'targan stanitsalarga ibrat bo'lsin uchun, sollarni oqizib yuborishadi.

Oradan qariyb o'n yil o'tgach, qadimgi Chigonaki stanitsasining o'rniga kelgindi kazaklar va o'sha notinch vaqtda omon qolgan odamlar kelib o'rnashadi. Stanitsa yana qaytadan obod bo'lib, tevaragi qo'rg'on bilan o'raladi. O'sha kezlarda Moxov Nikishka degan mujik ham Voronej yorlig'i bilan bu yerga ko'chib keladi; u podshoning ko'z-qulog'i, darakchisi edi. Moxov kazaklarga qo'l keladigan har xil buyumlarni: pichoq dasta, tamaki, chaqmoq tosh singari baloyi-battarni sotib yurar edi; o'g'irlik mollarni olib pullar, mol olib kelish bahonasi bilan yiliga ikki marta Voronejga qatnar, lekin haqiqatda esa, stanitsada hozircha ahvol tinch, kazaklar yana bosh ko'tarish niyatida emas, degan mazmunda ma'lumot berib kelish uchun borar edi.

Ana o‘sha Moxov Nikishkadan hozirgi savdogar Moxovlar avlodi tarqaldi. Bular kazaklar yurtida mustahkam o‘rnashib olgan edilar. Shu avlod uvali-juvali bo‘lib, stanitsada ajriq singari tomir otib ketdi: yulgan bilan tugamasdi. Voronej hokimi qo‘zg‘olonchi stanitsaga Moxovlarning bobokalonini yuborayotganda bergan yorliq titilib ketgan bo‘lsa ham, uni ko‘z qorachiqlariday asrashardi. Agar Sergey Platonovichning bobosi zamonida uylariga o‘t tushib, ikonalar yonidagi yog‘och qutichada turgan bu yorliq yonib ketmaganda, balki hozirgacha ham saqlangan bo‘larmidi! Bobosi xonavayron bo‘ldi, topgan-tutganini batamom kartaga yutqizib, endigina o‘nglanib kelayotganda, yong‘in uni yana xonavayron qildi. Sergey Platonovich ro‘zg‘orni qaytadan tiklashga kirishdi. Falaj kasaliga mubtalo bo‘lgan otasini ko‘mgandan keyin, bir so‘mgina yirtiq pulni dastmoya qilib ishga kirishdi. Qishloqma-qishloq yurib, qil va par xarid qila boshladi. Besh yilgacha qattiqchilik tortdi, atrofdagi kazaklarni aldab, har bir tiyiniga tirriqlik qilib yurib, Seryojka-devona birdaniga Sergey Platonovich bo‘lib qoldi, stanitsada attorlik do‘koni ochdi, ovsar bir popning qiziga uylanib, qaynatasidan anchagina sep puli o‘mardi, gazmol do‘koni ochdi. Sergey Platonovich ayni vaqtini topib, gazlamafurushlikka kirishgan edi. Donning chap qirg‘og‘ida yerlari toshloq, qumloq bo‘lgan unumsiz stanitsalardagi kazaklar qo‘shin mahkamasining buyrug‘iga muvofiq daryoning o‘ng tomoniga qishloq-qishloq bo‘lib ko‘chib o‘ta boshladi. Sal orada yoshgina Krasnokutskaya stanitsasi barpo topib, tezda obod bo‘ldi; sobiq zamindor yerlari chegarasida Chir, Chyornaya, Frolovka irmoqlarining bo‘ylarida, dara va jarlar atrofida, ukrainlar slobodasi bilan yonma-yon yangi-yangi qishloqlar paydo bo‘ldi. Ilgari kazaklar mol sotib oladigan bo‘lishsa, ellik-oltmish chaqirim yo‘l bosishardi, endi do‘kon oldilarida – yangi qarag‘ay taxtadan qilingan tokchalarga rang-barang gazmollar uyub tashlangan. Sergey Platonovich ishni katta qilib yubordi, gazlamadan tashqari dehqonlar ro‘zg‘orida zarur bo‘lgan narsalarni: charm buyumlar, tuz, kerosin, attorlik mollari keltirib sota boshladi. So‘nggi vaqtlarda qo‘rg‘onchaga hatto qishloq xo‘jalik mashinalarini ham yetkazib berib turdi. Yoz kezlari salqin ko‘k panjarali do‘kon oldida, Oqsoy zavodidan chiqqan o‘roq

mashinalari, seyalkalar, pluglar, shamol mashina, pichan o‘radigan mashinalar qator tizilib turardi. Birovning hamyonidagi pulning qanchaligini bilish qiyin, lekin uddaburon Sergey Platonovichga bu savdo-sotiqdan katta foyda tushayotgani ma’lum edi. Uch yil deganda u g‘alla sotib olish punkti ochdi va birinchi xotini o‘lgandan bir yil o‘tgach, bug‘ tegirmon qurishga kirishdi.

U butun Tatarsk qishlog‘ini va tevarak-atrofdagi qishloqlarni yiltiroq siyrak qora jun o‘sgan qo‘liga kirgizib olgan edi. O‘roq mashina yoki qiziga kiyim-kechak va boshqa narsalar olganligi uchun Moxovga to‘q sariq hoshiyali ko‘k qog‘oz – veksel bermagan bironta uy qolmadi (qizni uzatadigan vaqti kelganda Paramonovsk xarid punkti bug‘doy narxini pasaytirib yuboradi, – shunda «Qarz berib turing, Platonich», deb uning oldiga bormay iloj yo‘q). Moxovning tegirmonida to‘qqizta ishchi, do‘konda yettita gumashta, uyida to‘rtta malay – hammasi bo‘lib yigirma jon ishlaydi, hammasi ham boyga qaram – bersa yeydi, ursa o‘ladi. Birinchi xotinidan ikki farzand: qizi Liza bilan o‘g‘li Vladimir qolgan; o‘g‘li opasidan ikki yashar kichik, shalvillagan, shirincha kasaliga mubtalo bola. Ikkinchi xotini – qirra burun, qotmadan kelgan Anna Ivanovna bola tug‘madi. Sergey Platonovichga yoshi o‘ttiz to‘rtdan oshib tekkan, onalik muhabbati nima ekanini bilmagan bu xotin butun zahrini ikki yetimchaga sochardi. O‘gay onaning badfe’lligi farzandlar tarbiyasiga yomon ta’sir etardi. Otasi esa o‘z bolalariga tuzukroq e’tibor bermas – oshpaz xotin bilan otboqar Nikitaga qanday qarasa, o‘z bolalariga ham shunday qarar edi. Butun vaqti ish bilan, yugur-yugur bilan band: goh Moskvaga, goh Nijniyga, goh Uryupinskayaga, goh stanitsa yarmarkalariga ketib qolar edi. Opa-uka qarovsiz o‘sdi. Befahm Anna Ivanovna bolalarning yurak sirlarini bilgisi ham kelmas, katta ro‘zg‘or ishidan qo‘li ham tegmas edi, shuning uchun opa-uka bir-biriga bemehr o‘sdi, ularning fe’li bir-birinikiga va ota-onasinikiga o‘xshamas edi. Vladimir odam yoqtirmas, lapashang, yer ostidan qaraydigan va kattalardek jiddiy bola. Liza esa, doim oqsoch bilan va ko‘pni ko‘rgan buzuqi oshpaz xotin bilan hamsuhbat bo‘lib, yoshligidanoq turmushning avra-astariga aqli yetadigan bo‘lib qoldi. Xotinlar unda nomatlub hislarning

barvaqt uyog'inishiga sabab bo'lishdi, natijada, hali ko'zi ochilmagan, qarovsiz tashlab qo'yilgan uyatchan va yoshgina bu qizcha – o'rmondagi yovvoyi do'lana singari o'z boshiga o'saverdi.

Yillar imillab o'tib borardi.

Lekin qarilar keksayib to'zadi, yoshlar yashnab o'sadi, degan gap bor.

Bir kuni kechqurun choy mahalida Sergey Platonovich qiziga qarab, anqaygancha qotib qoldi (Liza o'sha kezlarda gimnaziyani bitirgan va ko'zga yaqin bo'lib yetilgan edi); qaradi-yu, uning kahrabodek achchiq choy to'la likobchani ushlagan qo'li qaltirab ketdi: «Rahmatli onasiga o'xshaydi. Xudoyo tavba, xuddi o'zginasi-ya!» – Liza, qani, bunday burilgin-chi! – Ota o'z qizining bolalik chog'idayoq xuddi onasiga o'xshashligini sezmay, g'aflatda qolgan edi.

...Gimnaziyaning beshinchi sinf o'quvchisi, kasalmandlikdan sarg'ayib ketgan ingichka o'spirin bola Vladimir Moxov, tegirmon hovlisida aylanib yurar edi. Opasi bilan ikkovi yaqinda ta'tilga kelgan edilar; Vladimir eski odati bo'yicha, tegirmonni borib ko'rgisi, oppoq un gardiga belangan odamlar orasida turtinib yurgisi, mashina valets va shesternalarining bir me'yorda guldirashini, qayishlarining vizillashini eshitgisi kelib, uydan chiqqan edi. Tegirmon tortgani kelgan kazaklarning:

– Xo'jayinning merosxo'ri... – deb shivirlashganini eshitsa, yayrab ketar edi.

Vladimir hovlida uyulib yotgan ho'kiz tezaklari va aravalar orasidan ehtiyot bilan o'tdi-da, darvoza tomon yurdi, biroq mashinaxonani borib ko'rmagani esiga tushib, yana orqasiga qaytdi.

Mashinaxonaga kiraverishdagi eshik oldida turgan qizil neft sisternasining yonida valsovkachi Timofey, Valet laqabli tarozibon hamda valsovkachining yordamchisi Davidka degan tishlari oppoqqina yigitcha, – pochalarini tizzagacha shimarib, bir talay loyni pishitayotgan edilar.

– Haaa, xo'jayin!.. – istehzoli kulib, u bilan salomlashdi Valet.

– Hormanglar!

– Bor bo'ling, Vladimir Sergeyevich!

kitobni o‘qiganimda ko‘nglim yumshab, o‘lib borayotgan tabaqalarga juda rahmim kelib ketdi. Go‘yo o‘zim ham o‘sha zodagon va zamindorlar safiga kirib qolganday bo‘ldim, ularning xotinlar to‘g‘risidagi ideallari zavqimni keltirdi, men ularning manfaatlari uchun qayg‘urdim – qisqasi, menga nima bo‘lganini o‘zim ham bilmayman. Mana, azizim, daho degan narsa shunaqa bo‘ladi. Kishi dinidan qaytishi hech gap emas.

Balanda ipak bel tasmasining shokilasini mijig‘lar va istehzo bilan iljayib, ko‘ylagining etagidagi qizil iroqi gul naqshlarni tomosha qilardi. Liza yumshoq kursida taltayib o‘tirar, aftidan, suhbat uni hech qiziqtirmaganga o‘xshar edi. U har vaqtdagiday, bir nima qidirgan odam singari alanglayverar, Boyarishkinning tirnalgan ko‘kish boshiga qarab-qarab qo‘yardi.

Vladimir ularga ta’zim qilib, yonlaridan o‘tib ketdi va borib otasining xonasini tiqillatdi. Sergey Platonovich muzdakkina charm kushetka ustida «Russkoye bogatstvo» jurnalining iyun sonini varaqlab yotar edi. Sarg‘ayib ketgan suyak pichoq polda yotardi.

– Nima gap?

Vladimir bo‘ynini qisib, o‘zini yo‘qotib qo‘yib, ko‘ylagini tuzatdi.

– Men tegirmondan kelayotuvdim... – deb boshladi bo‘shashibroq, lekin Davidkaning masxaraomuz kulgisi esiga tushdi-da, otasining jujun nimchasini tarang qilib tortib turgan dumaloq qorniga tikilib turib, dadillanib gapirdi, – ...Davidkaning gapini eshitdim...

Sergey Platonovich uning gaplariga diqqat bilan quloq solib:

– Ishdan haydaymiz. Bor, – dedi va inqillab yerdagi pichoqni olish uchun engashdi.

Kechqurunlari Sergey Platonovichnikiga qishloq ziyolilari yig‘ilishardi: biri – Moskva texnika maktabining talabasi Boyarishkin, ikkinchisi – o‘lguday manmanlikka ketgan nimjon va sil muallim Balanda, uning o‘ynashi, ichki ko‘ylagini doim uyalmay ko‘rsatib yuradigan va qarimaydigan dum-dumaloq qariqiz – muallima Marfa Gerasimovna, nihoyat, uchinchisi – usti boshidan surg‘uch bilan arzon atir hidi anqib turadigan bo‘ydoq, ovsarnamo pochta mudiri edi. Ahyon-ahyonda, zamindor va zodagon Listnitskiyning

o‘g‘li – yuzboshi Yevgeniy ham mehmon bo‘lar edi. Shu kunlarda u otasinikiga kelgan edi. Kechqurunlari bular ayvonda choy ichishar, maza-matrasiz gaplarni gapirishib o‘tirishar, agar gap qovushmay qolsa, xo‘jayinning qimmatbaho sernaqsh grammofonini qo‘yib eshitishardi.

Sergey Platonovich ahyon-ahyonda bir marta, nom chiqarish uchun katta bayram kunlari ziyofat berishni yaxshi ko‘rardi: mehmon chaqirib, shu ziyofat uchun Batayskdan oldirilgan qimmatbaho vinolarni, osyotr ikrasini to‘kib tashlardi. Lekin boshqa vaqtlarda pulni avaylab sarflar, faqat kitob uchun pul ayamas edi. O‘lguday tirishqoq odam bo‘lgan Sergey Platonovich kitob o‘qishni, o‘tkir aqlini ishlatib, har bir narsani o‘zi tushunib olishni yaxshi ko‘rar edi.

Moxovning sherigi – cho‘qqi soqol, o‘g‘ri ko‘z, malla rang Yemelyan Konstantinovich Atepin bo‘lsa, unikiga kamdan kam kelardi. Ust-Medveditskiylik monax qizga uylangan, o‘n besh yil orasida undan sakkiz nafar farzand ko‘rgan bu odam ko‘pincha ostona hatlab uyidan ko‘chaga chiqmas edi. Ilgari u polk mirzasi bo‘lib, zo‘rg‘a odam qatoriga kirgan, lekin polkda laganbardorlik, xushomadgo‘ylik kabi yaramas odatlarini orttirgan edi. Uning huzurida bolalari oyoq uchi bilan yurishar, shivirlashib gaplashar edi. Ular har kuni ertalab yuvinib bo‘lgandan keyin, yemakxonaga, tobutga o‘xshash osma soat tagiga tizilishar, onalari orqaroqda turardi, yotoq bo‘lmasi tomondan otalarining «o‘ho‘» degan quruq yo‘talini eshitar-eshitmas, xilma-xil ovoz bilan: «Xudoyo, o‘z panohingda asra», so‘ngra «e, bor xudoyo» duolarini poyma-poy chuvullashib o‘qiy boshlar edilar.

Ibodat tugashiga yaqinlashganda Yemelyan Konstantinovich ham kiyinib bo‘lar va ko‘k ko‘zlarini qisib, yengsiz qo‘lini arxireychasiga cho‘zib chiqib kelardi. Bolalari birin-ketin kelib, qo‘lini o‘pishardi. Yemelyan Konstantinovich xotinining chakkasidan o‘par va «ch» harfini to‘g‘ri aytolmay:

– Politska, choy damladingmi? – deb so‘rardi.

– Damladim, Yemelyan Konstantinovich.

– Achchiqroq qilib choy quyib ber.

Do‘konning hisob-kitobini Atepin olib borar edi. Daftar sahifalariga yo‘g‘on harflar bilan chiroyli qilib, «Debet», «Kredit» deb

sarlavha qo‘yardi. O‘qigani «Birja vedomostlari» gazetasi edi, xolos; kerak bo‘lmasa ham, oltin gardishlik pensneni so‘galdor burniga qistirib olardi. Xizmatchilar bilan xushmuomala edi.

– Ivan Petrovich, mana bu odamga tavrichan chitdan o‘lchab bering.

Xotini uni Yemelyan Konstantinovich deb atar, bolalari – dadajon do‘kondagi gumashtalar – Satsa deyishardi.

Pop Vissarion bilan taqvodor Pankratiyning Sergey Platonovich bilan bordi-keldisi yo‘q; ko‘pdan beri ularning oralariga adovat tushgan edi. Lekin poplarning o‘zlari ham bir-birlari bilan totuv emasdilar. G‘iybatchi Pankratiy hazrat ustalik bilan yaqin odamlarining payini qirqar edi. O‘zining ukrainalik cho‘risi bilan aloqa qilib, siflisdan pang bo‘lib qolgan pop Vissarion tabiatan muloyim odam edi, u haddan tashqari takabbur va chaqimchi Pankratiyni yoqtirmas, yaqiniga yo‘lamas edi.

Muallim Balandadan boshqa qishloqda hammaning o‘z hovli-joyi bor edi. Maydonda Moxovning koshinkor, ko‘k bo‘yoqqa bo‘yalgan imorati qad ko‘tarib turardi. Ro‘parasida, maydonning qoq o‘rtasida oynavand eshikli do‘kon joylashgan; rangi o‘ngib ketgan peshtoqida quyidagi so‘zlar yozilgan edi:

MOXOV S.P. VA YE.K. ATEPINLAR DO‘KONXONASI

Do‘konga pastak va uzun, osti yerto‘lali omborxona tutashgan, undan yigirma sarjin chamasi nariroqda cherkovning g‘ishtin devori va piyozga o‘xshash ko‘m-ko‘k gumbazi ko‘rinadi. Cherkovning narigi tomonida xazinaga qarashli imoratlar uslubida xunuk qilib ishlangan maktab binosining oppoq devorlari, ikkita chiroyli uy ko‘zga chalinadi: oldida gulzori bo‘lgan havorang uy – pop Pankratiyniki, jigarrangli (unikiga o‘xshamasin deb shunday rangga bo‘yalgan edi), o‘ymakor panjara devorli, kenggina peshayvonli uy – pop Vissarionniki edi. U muyulishdan bu muyulishgacha cho‘zilgan ikki qavatli ensiz imorat – Atepinniki, uning orqasi – pochtaxona, kazaklarning tomiga poxol yopilgan, tunuka qoplangan uylari ko‘rinadi, tomi ustiga zanglagan tunuka xo‘roz qoqilgan tegirmon qad ko‘tarib turadi.

Bu yerning odamlari yorug‘ dunyodan qochib, deraza qopqoqlarini ichkari-tashqari tomondan berkitib olishar edi. Agar biron yerga mehmonga borishmasa, kech kirishi bilan eshik halqalariga qulf solib, itlarini yechib yuborishardi, o‘shanda jimjit qishloqda qorovulning shaqildog‘igina eshitilardi, xolos.

II

Avgustning oxirlarida Mitka Korshunov Don daryosi bo‘yida Sergey Platonovichning qizi Yelizavetaga tasodifan duch kelib qoldi. Donning nariyog‘idan endigina kelib, qayig‘ini to‘ngakka bog‘lar ekan, daryoda yengil suzib ketayotgan, sirti bo‘yalgan ixchamgina qayiqqa ko‘zi tushdi. Qayiq tog‘ tagi bilan pristan tomonga suzib kelar, uni Boyarishkin haydardi. Boyarishkinning yap-yalang boshi terdan yiltirab, peshona va chakka tomirlari bo‘rtib ketgan edi.

Mitka avvaliga Lizani tanimay qoldi. Poxol shlapasidan tushgan soya ko‘zlarini to‘sib turardi. U oftobda qoraygan qo‘llari bilan bir quchoq nilufarni ko‘ksiga bosib olgan edi.

Liza Mitkani ko‘rishi bilan bosh irg‘ab:

– Korshunov! – deb chaqirdi. – Meni aldab ketding-a?

– Aldading deysanmi?

– Esingdami, baliq oviga olib boraman, deb va’da qilganing?

Boyarishkin eshkaklarni qo‘yib, kerishdi. Qayiq zarbi bilan kelib qirg‘oqqa urildi va daryo chetidagi bo‘r toshlarini g‘ijirlatib yubordi.

– Esingdami? – deb kuldi qayiqdan sakrab tushgan Liza.

– Fursatim bo‘lmadi. Ish ko‘p, – deb o‘zini oqlamoqchi bo‘ldi Mitka; u nafasini ichiga yutib, yaqinlashib kelayotgan qizga tikilardi.

– Yo‘q! Tob-toqatim qolmadi! Men bosh tortaman, Yelizaveta Sergeyevna. Meni bu xizmatdan ozod eting, o‘zingizga boshqa malay toping! Bu la’nati suvda sayr qilaman deb rosa adabimni yedim. Eshkakka ishqalanib qo‘llarim qavarib ketdi. Quruqlik bo‘lsa ham go‘rga edi.

Boyarishkin panjasi uzun yalangoyoqlarini uvalangan chaqir toshlar ustiga qo‘yib, mijig‘langan studentcha furajkasi bilan pesho-

nasini artdi-da, uning yo'lini to'sdi. Biroq Liza unga quloq solmay, Mitkaning oldiga bordi. Mitka beso'naqaylik bilan qizning qo'lini siqib ko'rishdi.

– Baliq oviga qachon boramiz? – deb so'radi qiz boshini orqaga tashlab, ko'zlarini qisib.

– Ertaga desang ham tayyorman. Bug'doyni yanchib bo'ldik, endi qo'lim bo'sh.

– Aldamaysanmi?

– Yo'g'-e!

– Barvaqt kelasanmi?

– Tong yorishmasdan.

– Kutaman.

– Kelaman, xudo ursin, kelaman!

– Qaysi derazani tiqillatish kerak, esingda bormi?

– Topib olaman, – deb iljaydi Mitka.

– Men yaqin orada jo'nab ketsam kerak... Ketmasdan burun baliq ovlasam devdim.

Mitka indamay qayiqning zanglagan kalitini qo'lida o'ynatar, qizning lablariga tikilardi.

– Bo'ldingizmi? – deb so'radi, jimjimador chig'anoqni qo'liga olib tomosha qilayotgan Boyarishkin.

– Hozir jo'naymiz.

Qiz sukut qilib turdi, keyin negadir kulimsirab:

– Sizlarnikida to'y bo'ldi, shekilli? – deb so'radi.

– Ha, opamni erga berdik.

– Kimga berdinglar? – Liza javobini kutmay g'alati qilib kulib qo'ydi. – Albatta, kelgin! – Moxovning uyida Lizani birinchi marta ko'rganda uning tabassumi Mitkaning yuragini qanday o'rtagan bo'lsa, bu gal ham shunday o'rtab yubordi.

Qiz to qayiqqa yetib borguncha Mitka ko'z uzmay qarab turdi. Boyarishkin qulochkashlab qayiqni itarardi; Liza uning boshi ustidan qarab, kalit o'ynab turgan Mitkadan ko'zini olmas, imlab unga bosh irg'atar edi.

Besh sarjincha uzoqlashganlaridan keyin Boyarishkin sekin so'radi:

– Bu qanday yigit?

– Tanishim.

– Jazmaningizmi?

Ularning gapini eshitib turgan Mitka, eshkak halqasining g'ijirg'ijiridan qizning nima javob berganini payqay olmadi. U zo'r berib eshkak eshayotgan Boyarishkinning kulib yuborganini eshitdi, biroq Lizaning yuzini ko'rmadi, chunki u Mitkaga orqa qilib o'tirgan edi. Shlapasining pistoqirang tasmasi yalang'och kiftiga tushib, shamolda asta hilpillar, Mitkaning xiralashgan ko'zlarini o'ynatar edi.

Umrida kamdan kam qarmoq ko'tarib baliq oviga chiqqan Mitka, bu safar kech kirishi bilanoq astoydil tayyorgarlik ko'ra boshladi. Chorbog'da tappi ushatib o't yoqib, javdar pishirdi, chirib qolgan qarmoq iplarini olib tashlab, boshqatdan ip taqdi.

Mixey uning tayyorlanayotganini ko'rib:

– Men ham birga boray, – deb yalindi. – Yolg'izlik qilib, qiynalib qolasan.

– Bir o'zim ham eplayman.

Mixey xo'rsinib qo'ydi.

– Ko'pdan beri sen bilan ovga chiqqanim yo'q. Yarim pudcha keladigan sazanni ushlab ko'rgim keluvdi-da.

Mitka bo'tqa pishayotgan dekchadan vishillab chiqqan bug'dan yuzini bujmaytirib, indamay qo'ya qoldi. Hamma kerakli narsani taxt qilib, uyga kirib ketdi.

Grishak bobo deraza yonida, ko'ziga mis gardishlik ko'zoynak taqib olib, injil tilovat qilardi.

Mitka deraza kesakisiga suyanib:

– Buvajon! – deb chaqirdi.

Grishak bobo ko'zoynak ustidan qarab:

– Xo'sh? – dedi.

– Xo'roz bir chaqirgandan keyin meni uyg'otib qo'ying.

– Sahar turib qayoqqa bormoqchisan?

– Baliq oviga.

Grishak bobo baliqni yaxshi ko'rsa ham, jo'rttaga qarshilik qila boshladi:

– Dadang ertaga zig'ir yanchamiz, devdi. Sayoqligingni qo'ysang-chi! Baliq ovlayman deydi-ya!

Mitka o‘zini orqaga olib, ayyorlik bilan:

– Menga baribir. Buvamga baliq tutib kelay devdim-da, zig‘ir yanchadigan bo‘lsam, ovga bormas ekanman-da, – dedi.

– Shoshmasang-chi, muncha oshiqasan? – deb qo‘rqib ketdi Grishak bobo ko‘zidan oynagini olib. – Men Miron bilan gaplashib qo‘yaman, borsang ham bo‘ladi. Baliq go‘shti – luqmayi halol, ertaga tabarruk chorshanba kuni ekan. Uyg‘otib qo‘yaman, bor uxla, tentak! Nega ishshayasan?

Yarim kechasi Grishak bobo bir qo‘li bilan bo‘z shimini ushlab, bir qo‘liga hassa olib, paypaslab zinadan tushdi. Qalt-qalt qilib, hovlidan soyadek suzib o‘tib, ombor oldiga bordi va hassasining uchi bilan sholcha ustida pishillab uxlab yotgan Mitkani turtdi. Omborxonadan yangi yanchilgan don hidi, sichqon tezagi va odam turmagan joylardan keladigan o‘rgimchak ini va mog‘or isi anqirdi.

Mitka ombor yonidagi sholcha ustida yotgan edi. Hadeganda uyg‘onavermadi. Avvaliga Grishak bobo uni hassasi bilan sekin turtib ko‘rdi.

– Mityushka! Mitka!.. Hoy haromi, Mitka!.. – deb shivirladi.

Pishillab uxlab yotgan Mitka oyoqlarini yig‘ishtirib oldi. Boboning jahli chiqib hassa dastasini uning qorniga tirab, parmaday aylantira boshladi. Mitka uyg‘onib ketib, «voy» deb hassani changallab oldi.

– Uyqung juda qattiq ekan! Odam ham shunaqa dong qotib uxlaydimi? – deb so‘kindi bobo.

– Jim, jim, shovqin solmang! – deb shivirladi Mitka, uyqu aralash chorig‘ini qidirib.

Mitka maydonga jo‘nadi. Qishloqda xo‘rozlar ikkinchi marta qichqira boshladilar. Ko‘chadan, Vissarion popning uyi yonidan o‘tar ekan, katalakdagi xo‘roz qanot qoqib, protodyakonchasiga (dyakon – pvavoslav cherkovida ruhoniylarning quyi unvoni; protodyakon – oliy martabali dyakon) yo‘g‘on ovoz bilan qichqirdi, tovuqlar cho‘chib, ququlashib qo‘ydi.

Do‘kon oldidagi zinapoyaning eng pastki pog‘onasida tumshug‘ini po‘stin yoqasiga burkab olgan qorovul mudrab o‘tirardi. Mitka Moxovning devori tagiga kelib yetdi, qarmoq bilan lash-lush solingan xaltani yerga qo‘ydi, itlarga sezdirmaslik uchun oyoq uchida

asta-asta yurib, zinapoyadan chiqdi. Muzdek eshik tutqichidan tortib ko'rdi, eshik berk edi. Panjaradan oshib, deraza yoniga keldi. Deraza qiya ochiq. Qorayib ko'ringan tirqishdan qiz bolaning xushbo'y hidi, uyqudagi iliq badanning va allanechuk nozik atirlarning isi kelar edi.

– Lizaveta Sergeyevna!

Mitka nazarida qattiq chaqirgandek bo'ldi. Birpas kutib turdi. Jimjit. «Tag'in, boshqa derazani chaqirayotgan bo'lmay! Dadasi shu uyda bo'lsa-ya! Sharmandam chiqadi!.. Shartta otadi-tashlaydi», – deb o'ylanib qoldi deraza tutqichini mahkam ushlab olgan Mitka.

– Lizaveta Sergeyevna! Tur, baliq oviga boramiz.

«Agar adashgan bo'lsam – ana unda ko'r baliq ovini!»

– Tursang-chi, axir! – dedi u zardasi qaynab, boshini derazadan suqib.

– A? Kim? – cho'chinqiragan ovoz eshitildi qorong'ilik ichidan.

– Baliq oviga borasanmi? Menman, Korshunov.

– Ha-a-a, hozir.

Uy ichidan shitirlagan ovoz eshitildi. Qizning issiq nafasidan yalpiz hidi kelganday bo'ldi. Mitka qorong'ida faqat oppoq bir gavdaning uy ichida shitir-shitir qilayotgani, qimirlaganini payqadi.

«Oh, tong otguncha yonida maza qilib yotsang... Baliq ovi nimasi... Shumshayib sovqotishdan boshqa gap yo'q...» – deb o'zicha xayol surardi, yotoq bo'lmaning hidiga mast bo'lgan Mitka.

Oq ro'molcha o'ragan, kulib turgan qiz deraza oldida paydo bo'ldi.

– Derazadan tusha qolay. Qo'lingni ber.

– Tush, – dedi Mitka qizga yordamlashib. Qiz uning qo'lini ushlab, ko'ziga tikildi.

– Kechikmadikmi?

– Zarari yo'q, ulguramiz.

Ikkovi Donga yo'l oldi. Qiz pushti rang kafti bilan shishinqiragan qovoqlarini asta ishqaladi-da:

– Shirin uyquda ekanman. Yana birpas uxlasam bo'lardi. Juda erta chiqdik, – dedi.

– Ayni ov mahali.

Maydon yonidagi birinchi tor ko‘chaga burilib, Don bo‘yiga tushishdi. Kechasi suv ko‘paygan, kecha quruq to‘ngakka bog‘lab qo‘yilgan qayiq hozir suv ustida chayqalardi.

– Tuflini yechish kerak, – dedi Liza xo‘rsinib, qirg‘oq bilan qayiq orasidagi masofani ko‘zi bilan chamalab.

– Ko‘tarib o‘ta qolay? – deb taklif etdi Mitka.

– Yaxshi bo‘lmas... Oyog‘imni yecha qolay.

– Yaxshi bo‘ladi.

– Qo‘y-e, – dedi Liza xijolat chekib.

Mitka chap qo‘li bilan uning tizzasidan yuqoriroq joyidan quchoqladi va dast ko‘tarib, qayiq tomon yurdi. Qiz beixtiyor uning qoraygan baquvvat bo‘yniga chirmashib oldi, hiringlab asta kuldi.

Agar Mitka, qishloq ayollari kir chayqaydigan toshga qoqilmaganda – tasodifiy o‘pishish ro‘y bermagan bo‘lar edi. Liza «ah!» deb yuzini Mitkaning qovjiragan lablariga yopishtirdi. Mitka ham qayiqqa ikki qadam qolganda to‘xtab qoldi. Choriqlariga suv kirib, oyog‘i muzlaganini ham sezmadi.

Mitka qayiqni yechib, kuchi boricha uni to‘ngakdan itarib yubordi-da, irg‘ib chiqib oldi, tikka turib, qisqa-qisqa eshkak soldi. Qayiq atrofida suv shildirab, nola qilganday bo‘lardi. Qayiq tumshug‘ini ko‘tarib, daryoning tezoqar yeridan o‘tdi-da, narigi tomondagi qirg‘oqqa qarab suza boshladi. Qarmoq yog‘ochlari vizillar, likillar edi.

– Qayoqqa haydayapsan? – deb so‘radi Liza o‘girilib qarab.

– Nariyoqqa.

Qayiq tik tushgan qumloq sohilga kelib taqaldi.

Mitka, so‘ramay-netmay, Lizani dast ko‘tardi-da, qirg‘oqdagi do‘lanazor ichiga olib kirib ketdi. Qiz uning yuzini tishlar, timdalar edi, ikki marta bo‘g‘iq ovoz chiqarib baqirdi, lekin madori qurigan-ligini sezib, alamidan hiqillab yig‘ladi...

Soat to‘qqizlarda qaytishdi. Osmonni sarg‘ish xira parda qoplagan. Donda shamol quturib, suvni alg‘oq-dalg‘oq qilardi. Qayiq qatlam-qatlam to‘lqinlar ustida raqs etar, daryo qa’ridan ko‘pirib chiqqan muzday suv rangi o‘chgan Yelizavetaning yuzlariga

sachrar, qosh-kipriklaridan, ro'moli ostidan chiqib qolgan sochlaridan munchoqdek tomchilar edi.

Yelizaveta horg'in ko'zlarini qisib, allaqayoqdan qayiqqa kelib qolgan gul shoxini barmoqlari orasida mijig'lardi. Mitka unga qaray olmay, qayiq haydar, oyog'i ostida kichkina zog'ora baliq bilan tillo baliq o'lar holatda og'izlarini kappa-kappa ochib, qizg'ish jiyakli ko'zlarini chaqchaytirib yotardi. Mitkaning xijolat bo'layotganligi, chehrasi ochiq bo'lsa ham ko'ngli bezovtaligi ko'rinib turardi.

– Seni Semyonovo pristaniga eltib qo'yaman. U yer uyingga yaqin, – dedi Mitka qayiqni suvning oqish tomoniga haydab.

– Yaxshi, – dedi shivirlab Liza uning gapiga ko'nib.

Daryo bo'yi kimsasiz, Don ustidagi bo'r changidan oqargan chorbog'larning chetanlari issiq shamoldan quvrab shitirlar, havodan kuyayotgan xas-cho'p hidi anqir edi. Kungaboqarlarning chumchuq cho'qib ketgan katta-katta boshlari pishib o'tib ketganidan yerga enkayib qolgan, donlari to'kilib turardi. Soyliqni yangidan ko'm-ko'k maysa qoplagan. Olisda o'ynoqilagan toychalar ko'rinar va bo'yinlariga taqilgan qo'ng'iroqlarning jangir-jungiri eshitilar, janub tomondan Donga qarab garmsel esar edi.

Mitka baliqni olib, qayiqdan tushayotgan Yelizavetaga uzatdi.

– Ovni ola ket. Ma!

Qiz cho'chib tushganday kipriklarini pirpiratib, baliqni oldi.

– Xayr, men ketdim.

– Mayli...

Tol novdasiga tizilgan baliqni ko'tarib, qiz yo'lga tushdi; uning ko'rinishi ayanchli, ilgarigi sho'xlik va shaxdamligini do'lanazor ichida yo'qotgan edi.

– Lizaveta!

U burilib qaradi: chimrilgan qoshlarida afsus-nadomat va hayrat alomatlari aks etib turardi.

– Beri kel-chi.

Qiz qaytib keldi, Mitka tortinib zo'rg'a gapirdi:

– Ikkovimiz ham ko'rmay qolibmiz... Yubkang orqasi... dog'... uncha katta emas...

Qiz shoshib qoldi va quloqlarigacha qizarib ketdi.

Mitka bir ozdan so‘ng:

– Orqa ko‘chadan ket, – deb maslahat berdi.

– Baribir maydondan o‘taman. Qora yubkamni kiyib chiqay devdim-a, – deb shivirladi qiz pushaymon bo‘lib; u Mitkaning basharasiga nafrat bilan qaradi.

– Kel, barg bilan ishqalab ko‘kartirib qo‘yay! – dedi Mitka, lekin Lizaning ko‘zlari yoshlanganini ko‘rib hang-mang bo‘ldi...

...Qishloqqa duv-duv gap yoyildi, hamma: «Mitka Korshunov Sergey Platonovichning qizini o‘ynab qo‘yibdi», der edi. Xotin-xalaj ertalab podaga sigirlarini haydab chiqqanlarida, soyasi yerga tushib lopillab turgan quduq havozasi tagida chelakka suv olayotgan paytlarida, yuvilgan kirlarini Don bo‘yidagi xarsangtosh ustida chayqatayotganlarida shu to‘g‘rida gaplashardi, xolos.

– O‘z onasi bo‘lmagandan keyin ahvol shu-da.

– Otasining bosh qashishga qo‘li tegmaydi, o‘gay ona parvoyi falak...

– Tunov kuni qorovul Davidka Bespaliy gapirib berdi: «Yarim kechasi, qarasam, eng chetdagi derazaga birov tarmashadi. Bu, albatta, Sergey Platonovichga kelgan o‘g‘ri bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. – Bu kim bo‘ldiykin? Politsiya, qaydasan? – deb yugurib borsam, Mitka ekan», – deydi.

– Baloga yo‘liqqur endigi qizlar hammasi rasvo...

– Mening Mikishkamga Mitka o‘z og‘zi bilan: «Endi sovchi yuboraman», degan emish.

– Oldin mishig‘ini artib olsin!

– Qizni majbur qipti, deb eshitdim, zo‘rlagan emish...

– Voy o‘lay!..

Ko‘cha-ko‘y mish-mishlarga to‘ldi. Yangi eshikka qoramoy chaplaganday, qizning nomini rosa bulg‘ashdi...

Sergey Platonovichning qartaygan boshi bu tog‘day isnodni ko‘tarolmay, xam bo‘lib qoldi. U ikki kungacha do‘konga ham, tegirmonga ham bormadi. Pastda turuvchi xizmatkori faqat ovqat mahalidagina yoniga kirar edi.

Uchinchi kuni Sergey Platonovich uchun ko‘k chipor arg‘umoqni ikki g‘ildirakli yengil aravaga qo‘shib berishdi. U duch kelgan ka-

zaklarga takabburlik bilan bosh qimirlatib salomlashib, stanitsaga jo'nab ketdi. Uning ketidan loklangan yaltiroq Vena kolyaskasi vizillagancha hovlidan chiqdi. Kucher Yemelyan, oq oralagan soqoliga tegib turgan egri trubkasiga so'lagini oqizib, ko'k ipak tizginni qo'liga oldi. Zulukday par ot ko'chada o'ynoqilab, tasirlatganicha yo'rtib ketdi. Yemelyanning orqasida rangi qumqut o'chgan Yelizaveta o'tirardi. Uning qo'lida yengilgina chamadoncha, ma'yus kulimsirab, darvoza oldida turgan Vladimir bilan o'gay onaga qo'lqopini qimirlatib xayrlashdi. Do'kondan biltanglab chiqqan Panteley Prokofyevich qiziqsinib, xizmatkor Nikitadan so'radi:

– Merosxo'r qiz qayoqqa ketyapti?

U ham har narsani bilgisi kelgan cholning shashtini qaytarmadi:

– Moskvaga, o'qigani, kursini tamomlagani ketyapti, – deb javob berdi.

Ertasi kuni shunday bir hodisa yuz berdiki, bu Don bo'yida ham, quduq yonida ham, podaga sigir haydab chiqiladigan joyda ham odamlar og'zida doston bo'ldi. Poda dashtdan qaytib, govgun bo'lgan mahalda Mitka odamlarga ko'rinmaslik uchun ataylab kechqurun Sergey Platonovichning oldiga, anchayin ish bilan emas, qizi Yelizavetaga uylanish niyatida uning roziligini so'rash uchun borgan edi.

O'shangacha Mitka qizni to'rt marta ko'rgan edi, xolos. So'nggi uchrashuvda oralarida shunday gap o'tgan edi.

– Menga tega qolgin endi, Lizaveta-a?

– Bo'lmag'ur gap!

– Aslo xafa qilmayman, erkalataman... Bizda ishlaydigan odam ko'p, sen deraza yonida kitob o'qib o'tiraverasan.

– Ahmoqsan.

Mitka ranjidi, lekin indamay qo'ya qoldi. O'sha kuni kechqurun uyiga barvaqt qaytdi, ertasiga ertalab Miron Grigoryevichni hayratda qoldirib:

– Dada, meni uylantiring! – dedi.

– Aljirama.

– Rost aytyapman, hazili yo'q...

– Uylanging kep qoldimi?

– Ixtiyor o‘zingizda, Sergey Platonovich, men ko‘nglimdagini aytdim-qo‘ydim... – dedi surbetlarcha. – Bu ahvolda qizingizni kim oladi? Bu gapni o‘zim bosdi-bosdi qilib yuborsam devdim... Birovning sarqiti kimga kerak? Charviga o‘rab itga tashlasangiz ham yemaydi.

Sergey Platonovich mijig‘langan ro‘molchani labiga bosib, Mitkaning ketidan bostirib kelaverdi va ko‘chaga chiqadigan eshik tomonni to‘sib oldi, Mitka hovliga qochib chiqdi. Shunda Sergey Platonovich, qaqqayib turgan Yemelyan kucherga ko‘z qisib qo‘ydi. Mitka darvozaning mahkam tambasini ochguncha, yechib yuborilgan to‘rtta it omborxona orqasidan chiqib qoldi va begona odamni ko‘rishi bilanoq supurilgan hovlida irg‘ishlashib yugura boshladi.

1910-yilda Sergey Platonovich Nijniydagi yarmarkadan bitta erkak, bitta urg‘ochi kuchuk bola olib kelgan edi. Ikkisi ham qora, juni jingalak, og‘zi katta kuchuklar edi. Bir yildan keyin har biri yoshi to‘lgan buzoqday keladigan bo‘ldi; kuchuklar Moxovning qo‘rasi yonidan o‘tgan ayollarning etagini tishlab yirta boshlashdi, bora-bora xotinlarni yiqitib, sonidan tishlashni o‘rganishdi, pop Pankratiyning buzog‘ini va Atepinning ikkita cho‘chqasini talab o‘ldirgandan keyin, Sergey Platonovich ularni zanjirga soldirdi. Itlarni faqat kechasi yechishar va yilda bir marta, bahor kezi uyurga qo‘yishardi.

Mitka qayrilib qaraguncha, Bayan degan it oyoqlarini uning yelkasiga qo‘yib, paxtalik kurtkasidan tishlab oldi. Qop-qora itlar irg‘ishlashib, Mitkani talab, tortqilashar edi. U qo‘llari bilan o‘zini himoya etar, yiqilib tushmaslik uchun harakat qilardi. Mitka ko‘z qiri bilan Yemelyanning trubka chekib, oshxonaga kirib ketganini, bo‘yalgan eshigini taraqlatib yopib olganini ko‘rdi.

Zinapoyaning chetidagi tarnovga suyangan Sergey Platonovich, yaltiroq jun o‘sgan oppoq mushtlarini do‘laytirar edi. Mitka gandiraklay-gandiraklay bir amallab tambani sug‘urib oldi va qonagan oyoqlariga tarmashib xirillashgan sassiq itlarni ko‘chaga sudrab chiqdi. Bayanni u bo‘g‘ib o‘ldirdi, qolgan itlardan o‘tkinchi kazaklar zo‘rg‘a ajratib olishdi.

## III

Natalya Melexovlar oilasiga, uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashgan edi. Miron Grigoryevich bolalarini gah deganda qo‘lga qo‘nadigan qilgan. Boyligiga va xizmatkorlari ko‘p bo‘lishiga qaramay, bolalarini ishlatar, mehnatga o‘rgatar edi. Shuning uchun mehnatsevar Natalya qaynata bilan qaynananing ko‘ngliga juda yoqdi. Katta kelini – olifta Daryani yoqtirmaydigan Ilinichna, birinchi kunlardanoq Natalyaga mehr qo‘ygan edi.

– Uxla, birpas uxlab ol, bolaginam! Nega barvaqt turding? – deb shirin gapirardi oshxonada depsinib turgan Ilinichna, – kirib birpasgina tong uyqusini olgin, ish bo‘lsa, o‘zimizdan ortmas.

Choy qo‘ygani sahardan turib olgan Natalya yana uxlagani kirib ketardi.

Hatto, uyda qattiqqo‘l bo‘lgan Panteley Prokofyevich ham xotiniga:

– Hoy, xotin, Natashkani uyg‘otma, – deb tayinlardi. – Bechora, kun bo‘yi tinmaydi. Grishka bilan yer haydagani bormoqchi. Daryani yumushga sol, Darya... o‘lguday dangasa, bemaza kelin chiqdi... Yuzini bo‘yaydi, qoshini qora qilishnigina biladi, ahmoq.

Ilinichna ish bilan ado bo‘lgan o‘z yoshligini eslab:

– Biror yil yayrab olsin bola faqir, – derdi.

Bo‘ydoqlik davri tugab, xotinli bo‘lganiga Grigoriy biroz ko‘nikib, hovuridan tushdi, lekin oradan uch haftacha o‘tgandan keyin, Aksinya bilan aloqasi batamom uzilmaganmi, qalbida zirapchaday bir narsa qolganini sezdi-da, qo‘rqib ketdi. Bu – yuragidan hali-beri ketmaydigan dard edi. U tomir otib qolgan, Grigoriy esa kuyovlik davrining g‘ururiga berilib, eskirsa unutilib ketar, deb o‘ylagan edi... Biroq uni unutib bo‘lmas, esga tushgan sari dardi zo‘rayib, yarasi yangilanardi. To‘y bo‘lishidan avvalroq, bir kuni Petro undan:

– Grishka, Aksinyani nima qilasan? – deb so‘ragan edi.

– Nima qilardim?

– Uni tashlab ketishga ko‘zing qiyadimi?

– Men bo‘lmasam, boshqasi-da! – deb kulgan edi o‘shanda Grisha.

Petro o‘z odaticha mo‘ylovini yamlab:

– Ishqilib hushyor bo‘l, uka, uylanganingdan keyin, tag‘in bir balo bo‘lmasin... – dedi.

– Qor yog‘adi, izlar bosiladi, – deb gapni hazilga aylantirdi Grishka.

Biroq ish boshqacharoq bo‘lib chiqdi. Kechalari Grisha o‘z burchini ado etish uchun xotinini erkalatgan, sho‘xlik qilgan mahalda xotini sovuqqonlik va uyatchanlik bilan taslim bo‘lardi. Natalya erning erkalatishiga o‘ch emas; onasiga tortib, sovuqqon bo‘lib tug‘ilgan edi, Grigoriy Aksinyaning qiliqlarini esiga tushirib, xo‘rsinib qo‘yardi.

– Seni, Natalya, onang muz ustida tuqqanmi deyman... Judayam sovuqsan-a!

Ammo Aksinya u bilan uchrashib qolgan paytda xumor ko‘zlarini o‘ynatib, Grigoriyga jilmayib qo‘yar, ikki og‘iz nordongina gap tashlardi:

– Salom, Grishenka! Xotincha bilan yaxshi turibsizmi? Apoq-chapoq bo‘lib ketdingmi?

– Ha-da... – deb mujmal javob berar va Aksinyaning kulib turgan ko‘zlaridan o‘zini tezroq olib qochishga harakat qilardi Grigoriy.

Stepan xotini bilan totuv bo‘lib qoldi. Qovoqxonaga kamdan kam boradigan bo‘ldi; bir kuni kechqurun xirmonda don sovurayotib, oralari buzilgandan beri birinchi marta unga ro‘yxush berib:

– Ksyusha, kel, ashula aytaylik! – dedi.

Ikkisi cho‘p-chor aralash yanchilgan bug‘doy g‘aramiga suyanib o‘tirishdi. Stepan xarbiycha qo‘shiqni boshladi. Aksinya ko‘krakdan chiqarib, ingichka ovoz bilan unga jo‘r bo‘ldi. Turmushlarining dastlabki yillaridagiday, bahamjihat qo‘shiq aytishdi. O‘sha yillari, rang-barang tovlanib botayotgan quyosh nuriga cho‘mgan dashtdan ikkisi qaytar ekan, Stepan aravada chayqalib, yovvoyi o‘t bosib ketgan kimsasiz dasht yo‘liga o‘xshash uzundan-uzun va mungli, qadimgi hazin bir ashulani boshlardi. Aksinya boshini erining go‘shtdor ko‘ksiga qo‘yib olib, unga qo‘shilardi. Otlar aravani g‘ichillatib sudrab kelaverardi. Qishloqdagi qari-qartanglar olisdan ashulaga quloq solib:

– Stepanga zab ovozdor xotin uchrabdi-da, – deyishardi.

– Qoyil qilib aytishyapti...

– Stepanning ovozi qo‘ng‘iroqday!

Chang aralash qizarib botayotgan quyoshni kuzatish uchun supachaga chiqib o‘tirgan chollar ko‘chaning u betidan turib bu betiga gap otishar edi.

– Nizov qo‘shig‘ini aytishyapti.

– Bu qo‘shiqni Gruziyada bizning polkimiz to‘qigan.

– Ha-a, marhum Kiryushka shu ashulani yaxshi ko‘rardi!

Kechqurunlari Grigoriy Astaxovlarning ashula aytganini eshitib qolardi. Bug‘doy yanchishga borganda (ularning xirmoni Astaxovlarniki bilan yonma-yon edi) Aksinyaning qadimgisiday dadil va bemalol yurganini ko‘rar va o‘zicha: «Baxtli ekan» deb gumon qilardi. Har holda Grigoriyga shunday tuyular edi.

Stepan Melexovlar bilan salomlashmasdi. U panshaxa ushlab xirmonda aylanib yurar, har bittasiga bir odam sig‘adigan kiftlarini o‘ynatib qo‘yardi; ora-sira hazillashib, xotiniga gap otar va o‘shanda Aksinya ro‘mol ostidagi qora ko‘zlarini chaqnatib kulib yuborar edi. Grigoriy ko‘zlarini yumib olsa ham, Aksinyaning yashil yubkasi ko‘z o‘ngida hilpirab turgandek bo‘lar edi. Allaqanday noma’lum bir kuch uning bo‘ynini burib, Stepanning xirmoni tomonga qarashga majbur etardi. Lekin bug‘doy bog‘larini yoyishib Panteley Prokofyevichga qarashib turgan Natalyaning har safar, eri beixtiyor o‘sha tomonga boqqanini ko‘rib ma’yuslanganini, rashki kelganini Grigoriy sezmasdi; otlarni aylantirib, xirmon yanchayotgan Petroning dam-badam qarab, yuzini burishtirib, miyig‘ida kulayotganini ham ko‘rmas edi.

Ot sudrab aylantirgan uvaltoshning dukur-dukuri ta’sirida Grisha noaniq o‘ylarga cho‘mar, fikrlari tutqich bermas, kalavaning uchini yana yo‘qotib qo‘yardi.

Olis va yaqindagi xirmonlardan do‘pir-do‘pir bug‘doy yanchayotgan, ot yetaklagan kishilarning hayqirig‘i, qamchilar vizillagani, shamol-mashina parragining taraqlagani eshitilar, bu sadolar bora-bora soylikda yo‘q bo‘lib ketardi. Bu yilgi hosildan to‘lib-toshgan qishloq – Don ustidan yelgan sentabr shabadasida, oq ilonday mahliyo bo‘lib cho‘zilib yotardi. Chetan bilan to‘silgan har bir

qo‘rada, har bir uyda bir-biriga o‘xshamagan achchiq-chuchuk, to‘la-to‘kis hayot qaynar, har kim o‘z boshiga yashardi; Grishak bobo shamollab, tish og‘riqqa yo‘liqqan edi; Sergey Platonovich tarvaqaylagan soqolini hadeb silayverar, yakka qolgan mahallarida, isnodga chiday olmay tishini g‘ijirlatar va yig‘lardi; Stepan yuragida Grishaga kek saqlar, tushida temir panjalari bilan quroq ko‘rpani tirnab chiqardi; Natalya bostirmaga kirib, o‘zini tappi ustiga tashlar, g‘ujanak bo‘lib, titrab-qaqshab yig‘lar, o‘z qora baxti uchun ko‘z yoshi qilardi. Yarmarkada g‘unajin pulini ichib qo‘ygan Xristonya vijdon azobida qiynalardi, hamisha allanimadan ko‘ngli g‘ash bo‘lgan, eski dardi qo‘zigan Grisha tinmay uh tortar edi; Aksinya noilojlikdan erini erkalatar ekan, unga nisbatan yuragida saqlanib qolgan bitmas-tuganmas nafratini ko‘z yoshlari bilan ko‘mib tashlardi.

Tegirmondan haydalgan Davidka tun bo‘yi Valetning hujrasida o‘tirardi; Valet ko‘zlarini chaqnatib:

– Yo‘o‘q, hali shoshmay tur! Yaqinda hammasining payi qirqiladi! Ularga bitta inqilob kamlik qiladi, – derdi. – Bir ming to‘qqiz yuz beshinchi yil yana qaytib kelar, o‘shanda alamdan chiqamiz! A-lam-dan chi-qa-miz!.. – deb mertik barmoqlari bilan tahdid qilar va kiftiga tashlangan pidjagini to‘g‘rilab qo‘yardi.

Ammo qishloqda kunlar ketidan tunlar, haftalar ketidan oylar birin-ketin o‘tib turar, shamol esganda g‘uvullagan tog‘ – havoning yaxshi kelishidan darak berar, Don esa shishadek musaffo va tiniq sunbula suvlarini shoshilmay dengiz tomon oqizib borardi.

## IV

Oktabr oyining oxirlarida, yakshanba kuni Fedot Bodovskov stanitsaga jo‘nadi.

Boqib semirtirgan to‘rt juft o‘rdakni qopga solib olib, bozorga eltib sotdi; do‘konga kirib xotiniga guldor chit oldi-da, endigina jo‘namoqchi bo‘lib turganda (bo‘yinchaga oyog‘ini tirab, bo‘yincha bog‘ni tortayotgan mahalda), yoniga notanish, begona bir odam keldi.

– Salomatmisiz? – deb so‘rashdi u qoraygan barmoqlarini qora shlapasiga tegizib.

– Shukur, – dedi Fedot qisqagina qilib, qiyiq ko'zlarini qisib.

– Siz qayerdan bo'lasiz?

– Qishloqdan, bu yerlik emasman.

– Qaysi qishloqdan?

– Tatarskdan.

Begona odam, ustiga qayiq surati solingan kumush portsigarini cho'ntagidan oldi-da, Fedotga papiros tutib, surishtira boshladi:

– Qishlog'ingiz kattami?

– Rahmat, hozir chekuvdim. Bizning qishloqmi? Ha, juda katta. Kamida, uch yuz uy bor chiqar.

– Cherkov bormi?

– Bo'lmasam-chi.

– Temirchilar bormi?

– Taqachilarni aytasizmi? Taqachilar ham bor.

– Tegirmonda slesarlik ustaxonasi bormi? Fedot tipirchilab turgan otining suvlig'ini soldi, begona odamning qora shlapasiga va ajin bosgan oppoq yuzini qoplagan qop-qora soqoliga noxushlik bilan qaradi.

– Sizga o'zi nima kerak?

– Men sizning qishlog'ingizga ko'chib borayotibman, o'sha yerda turmoqchiman. Hozir stanitsa atamani oldidan chiqdim. Aravangiz bo'sh qaytadimi?

– Bo'sh qaytadi.

– Meni ola ketmaysizmi? Lekin yolg'iz emasman, xotinim bor, sakkiz pud keladigan ikki sandiq yukimiz ham bor.

– Ola ketsam bo'ladi.

Fedot ikki so'lkavoyga baylashib, aravani haydab, Froska bo'lkapaznikiga bordi, gaplashgan odam uning uyiga tushgan ekan. Nozikdan kelgan mallasoch xotinini aravaga o'tirg'izdi, sandiqlarini orqa tomonga joylashtirdi.

Arava stanitsadan chiqdi. Fedot lablarini qimtib, pakana chayir otiga o'rma qamchisini o'xtalar, yassi ensalik boshini burib qarar; so'z so'ragisi kelar edi. Er-u xotin uning ortida kamtarlik bilan indamay o'tirishardi. Oldin Fedot papiros so'radi, so'ngra:

– Bizning qishloqqa qayerdan ko'chib kelyapsiz? – dedi.

– Rostovdan.

– O‘sha yerlik bo‘lasizmi?

– Nima dedingiz?

– Asli qayerliksiz deb so‘rayapman.

– Ha-ha, o‘sha yerlik, rostovlik.

Fedot boshini ko‘tarib, olisdagi burganzorga qaradi: Getman yo‘lining etagi adirga tutashib ketgan, yo‘ldan yarim chaqirim chetroqda, adirning eng do‘ng joyidagi qovjiragan burganzor ichida qimirlab yurgan tuvaloqlarning boshlarini uning o‘tkir qiyiq ko‘zlari ko‘rib qoldi.

– Miltig‘imiz yo‘q-da, bo‘lmasa, aravani o‘sha tomonga burardim. Huv ana, yurishibdi... – deb barmog‘i bilan ko‘rsatib, xo‘rsinib qo‘ydi.

– Ko‘rmayapman, – deb iqror bo‘ldi ko‘zlari jimirlashib ketgan yo‘lovchi.

Tuvaloqlar jarga tushib ketguncha Fedot tikilib turdi, so‘ngra orqasida o‘tirgan odamlarga burilib qaradi. Eri o‘rta bo‘yli, qotmadan kelgan odam bo‘lib, burnining go‘shtdor qanshariga yaqin ko‘zlari chaqnab turardi. Gapirganda tez-tez kulib qo‘yardi. Xotini jun ro‘molga o‘ralib olib mudrardi. Fedot uning yuzini ko‘ra olmadi.

– Bizning qishloqqa ko‘chib kelishga sizni nima majbur qildi?

– Men slesarman, ustaxona ochsam deyman. Duradgorlik ham qo‘limdan keladi.

Fedot ishonqiramay, uning hapqat qo‘llariga ko‘z tashladi. Yo‘lovchi ham buni payqab:

– Bundan tashqari, «Zinger» shirkatining agentiman, tikuv mashinalarini tarqataman, – deb qo‘shib qo‘ydi.

– Ismi nasabingiz kim bo‘ladi? – savol berdi Fedot qiziqsinib.

– Mening familiyam Shtokman.

– Bundan chiqdi, rus emas ekansiz-da.

– Yo‘q, rusman. Bobom latishlardan ekan.

Oradan sal o‘tmay, Fedot, slesar Shtokman Iosif Davidovichning avval «Oqsoy» zavodida ishlaganini, so‘ngra qayerdadir Kubanda, undan so‘ng sharqi-janubiy temir yo‘l ustaxonasida ishla-

ganini bilib oldi. Bundan tashqari, so‘raganning aybi yo‘q degandek, uning hayotidagi anchagina ikir-chikirlardan xabardor bo‘ldi. Xazinaga qarashli o‘rmonga yetganlarida gaplari tugadi. Yo‘l yoqasidagi chashma-quduqdan Fedot otini sug‘ordi, aravaning taqir-tuquridan, yo‘l azobidan charchab, mudray boshladi. Qishloqqa besh chaqirimcha qolgan edi.

Fedot tizginni aravaga bog‘lab qo‘ydi-da, oyoqlarini osiltirib, joylashib yotib oldi, biroq uxlay olmadi. O‘tirgan o‘rnida sakrab-sakrab tushayotgan Shtokman:

– Qishloqda tirikchilik qalay? – deb so‘rab qoldi.

– Yomon emas, kunimiz o‘tyapti.

– Umuman, kazaklar turmushidan rozimi?

– Ba’zisi rozi, ba’zisi yo‘q. Besh qo‘l baravar emas.

– Shundoq, shundoq... – deb ma’qulladi slesar. Birozdan keyin u yana og‘iz ochib, tagdor qilib, g‘alati-g‘alati savollar bera boshladi:

– Demak, kazaklar o‘ziga to‘q degin?

– Ha, to‘q.

– Askarlik xizmati og‘irlik qilmaydimi?

– Xizmatmi?.. O‘rganib qolganmiz, biroq endi yayrayman deganingda xizmatga borish kerak bo‘ladi.

– Hamma narsani kazaklar o‘z yonidan qilishadi, shunisi yomon.

– Nimasini aytasiz... – Fedot qizisha boshladi va hadiksiraganday, yuzini o‘girib olgan ayolga qarab qo‘ydi. – Bu boshliqlar boshga bitgan balo... Xizmatga boraman deb, ho‘kizlarimni sotib, bitta yaxshi ot oluvdim, uni yaramaydi deyishdi.

– Yaramaydi deyishdi? – deb yolg‘ondakam taajjublandi slesar.

– Butunlay yaramasmish! Oyog‘i mayib emish. U deb ko‘rdim, bu deb ko‘rdim: «Axir o‘ylasangiz-chi, oyog‘i poygachi arg‘umoqning oyog‘idek, faqat bu ot xo‘rozchasiga yo‘rg‘alashga o‘rgangan... Xo‘rozchasiga qadam tashlaydi», deb xudoning zorini qildim. Yo‘q, tan olishmadi. Bu ahvolda xonavayron bo‘lamiz-ku...

Suhbat qizib ketdi. Fedot aravadan irg‘ib tushdi-da, qishloq aholisining ahvolidan hasrat qila boshladi, pichanzorni noto‘g‘ri taqsimlagani uchun qishloq atamanini so‘kdi, harbiylik vaqtida ularning polki Polshada turganini aytib, u yerning tartiblarini

maqtab ketdi. Slesar bir-biriga yaqin ko'zlarini qisib, arava yonida yurib borayotgan Fedotga razm solib qarar, halqa o'rnatilgan suyak mundshtukdan tamaki chekar va dam-badam kulimsirardi; ammo oppoq peshonasining burushiqlari o'ynab turar, go'yo allaqanday yashirin fikrlar uni harakatga keltirayotganday bo'lardi.

Kechga yaqin qishloqqa kirib kelishdi.

Fedotning maslahatiga ko'ra Shtokman, tul xotin Lukeshka Popovaga yo'liqdi-da, uning xonasini ijaraga oldi.

Fedotning chiqishini darvoza oldida kutib turgan qo'shni xotinlar:

– Stanitsadan kimni olib kelding? – deb so'rashdi.

– Agentni.

– Agenting nimasi?

– Voy esi pastlar-ey! Agent deyapman, mashina sotar ekan. Chiroylilarga tekinga berar ekan, lekin Marya xola, senga o'xshash xunuklarga naqd pulga sotar ekan.

– O'zing-chi, kana bosgan ro'dapo, o'zing chiroylimisan? Qalmoqbashara taviya!.. Aftingni olisdan ko'rib qolsa, ot hurkib ketadi.

Fedot ularning yonidan ketar ekan, hazillashib:

– Qalmoq bilan tatar dashtning husni bo'ladi, xola, ko'p til tegizaverma!.. – dedi.

Slesar Shtokman tili uzun va g'ilay Lukeshkaning uyiga joylashdi. U boshini yostiqqa qo'ymay turib qishloqdagi xotinlarga gap topilib qoldi.

– Eshitdingmi ovsin?

– Nimani?

– Fedot-qalmoq bir nemisni obkepti.

– Yo'g'-e!

– Bibi Maryam ursin, rost! Shlapa kiyib opti, familiyasi Shtopol yo Shtokal...

– Mirshab bo'lsamikan?

– Shirkatdan emish, o'rgilay.

– Yo'geee, bekor gap, ovsinlar. O'zi buxgalterlik qilarmish, Pankratiy hazratning o'g'liday.

– Pashka, yugurib borib, «xola, kelgan odam kim?» deb Lukeshkadan so'ragin-chi.

– Darrov borib kel, qo'zichog'im?

Ertasi kuni yangi kelgan odam qishloq atamaniga borib uchrashdi.

Uch yildan beri atamanlik cho'qmorini qo'ldan bermay kelgan Fedor Manitskov, uning qora kleyonka qoplagan pasportining orqa-o'ngini aylantirib, sinchkovlab qarab chiqdi, undan keyin mirzasi Yegor Jarkov ham olib ko'rdi. Ikkisi bir-biriga qarab olgandan keyin, ataman eski vaxmistrlik odati bo'yicha qo'lini paxsa qilib:

– Mayli, yuraver, – dedi.

Kelgan odam ta'zim qilib chiqib ketdi. Bir haftagacha qorasini ko'rsatmadi, xuddi iniga berkingan yumronqoziqday, uyidan bosh suqib ko'chaga chiqmadi. Taraq-turuq bolta chopib, yozgi bostirma ostiga ustaxonasini qura boshladi. Xotinlar ilgarigi hovuridan tushib, unga qiziqmay qo'yishdi, faqat bolalar har kuni sahardan kechgacha chetanga osilib olib, begona odamni tomosha qilganlari qilgan edi.

## V

Pokrov hayitidan uch kun burun Grigoriy xotini bilan qo'sh haydagani ketdi. Panteley Prokofyevich betob edi; bel og'riq dardidan oh-voh qilib, hassaga suyanib, qo'shchilarni kuzatgani chiqdi.

– Grishka, Qizil jarning orqasidan o'sha ikki taxta shudgorni haydagin, bolam.

– Xo'p bo'ladi. Tolzorning ostidagi anavi bir bo'lak yerni nima qilay? – deb shivirlab so'radi bo'yni bog'langan Grigoriy; baliq ovida tomog'i shamollab xirillab qolgan edi.

– U yer Pokrovdan keyin haydaladi. Hozirchalik shu yog'i yetadi. Qizil jarning osti besh-olti botmon keladi, hazilmi, bolam?

– Petro kelib qarashadimi?

– Petro Dashka bilan tegirmonga boradi. Bugun-erta un tortib olmasak, keyin navbat tegmay qoladi.

Ilinichna Natalyaning qo'yniga yangi pishirilgan bo'g'irsoqlarni solib shivirlardi:

– Dunyashkani ham ola ketasizlarmi? Ho‘kiz yetaklashardi.

– Ikkovimizdan ish ortmaydi.

– O‘zingga ehtiyot bo‘l, bolam. Xudoga topshirdim. Dunyashka ikki bukilib, bir talay ho‘l kirni ko‘tarib, Donda chayqash uchun ketayotgan edi.

– Natashka, baraka topkur, menga Qizil jardan chumchuq tili terib ola kel! – dedi u.

– Xo‘p, xo‘p, olib kelaman.

– Bas, ovozing o‘chkur! – deb Panteley Prokofyevich hassasini Dunyashkaga o‘qtaldi.

Uch juft ho‘kiz teskari osilgan omochlarni sudrab, kuzgi garmseldan va qurg‘oqchilikdan qaqrab qotib ketgan yerni chizib borar edi. Grigoriy bo‘ynini qisgan ro‘molchani damba-dam tuzatar, yo‘tala-yo‘tala yo‘l yoqasidan borardi. Natalya to‘rvaga solingan ovqatlarini orqalab, uning yonida kelardi.

Qishloqning u yog‘idagi dashtda ajoyib sukunat hukm surar, sayxonlikning nariyog‘ida, do‘ng orqasida odamlar «chuv-chuv» deb, plug bilan yer haydar edi. Yo‘l bo‘ylarida esa pastakkina o‘sgan kulrang shuvoqvor, qo‘ylar kallaklab ketgan yovvoyi beda, ta’zim qilganday engashib qolgan kakra o‘sib yotar, shishaday musaffo salqin osmon qo‘ynida rang-barang mezon iplari uchib yurardi.

Qo‘shchilarni jo‘natgandan keyin, Petro bilan Darya tegirmonga borish taraddudiga tushib qoldilar. Omborxona shipiga choshg‘alvirni ilib qo‘yib, Petro bug‘doy elashga tushdi. Darya tozalangan donni qopga solib, aravaga chiqarib turdi.

Panteley Prokofyevich aravani qo‘shdi, ot abzallarini tuzatib qo‘ydi.

– Bo‘lay dedilaringmi?

– Hozir, – deb javob berdi Petro omborxonadan turib.

Tegirmon tirband, hovli aravaga liq to‘lgan. Tarozi oldida uryiqit. Petro tizginni Daryaga berib, aravadan sakrab tushdi.

– Mening navbatim yaqinlashdimi? – deb so‘radi tarozi yonidagi Valetdan.

– Hovliqma hali.

– Nechanchi nomer tortyapti?

– O‘ttiz sakkizinchi.

Petro qoplarini olib kelgani eshikka chiqib ketdi. Shu paytda tarozixonada janjal chiqib qoldi. Allaqanday xirillagan bir odam zahrini sochib:

– Navbatingni o‘tkazib yuborib, endi keldingmi? Qoch, xoxol, yo‘qsa solib qolaman! – deb akillar edi.

Petro so‘kinayotgan odamning Yakov Taqachi ekanini ovozidan tanib, qulog‘i dikkaydi. Tarozixonada borgan sari shovqin zo‘rayib, eshikdan bemalol eshitilardi. Tars etgan ovoz keldi, so‘ngra, qora shapkasi qiyshayib ketgan o‘rta yashar, sersoqol tavrichan[8] eshikdan otilib chiqdi.

– Nega urasan? – deb chinqirdi u chakkasini ushlab.

– Kekirdagingni sug‘urib olaman!..

– Hap senimi, shoshmay tur!

– Mikixvor, bu yoqqa kel!..

Yakov Taqachi (askariy xizmatda yurganda ot taqalardi; bir kuni ot o‘ynoqilab, basharasiga tepgan, o‘shanda burun kemirchagi sinib, labi yorilgan, betiga taqa izi tushib qolgan edi; yarasi bitib ketsa-da, lekin o‘rni ko‘karib, mix izlari qora-qora xol bo‘lib qoldi, shu voqeadan keyin unga «Taqachi» degan laqab qo‘yilgan edi), chorpaxildan kelgan mard to‘pchi yenglarini shimarib, yugurganicha hovliga chiqdi. Pushti rang ko‘ylak kiygan novcha tavrichanlik orqadan kelib tushirdi. Taqachi gandiraklab ketdi, lekin yiqilmay turib qoldi.

– Birodarlar, kazaklarni do‘pposlashyapti!

Tegirmon eshigidan kazaklar hamda butun boshliq qishlog‘i bilan kelgan tavrichanlar bir-birini itarib, aravalar tirband bo‘lgan hovliga yugurib chiqaverdi.

Katta eshik oldida mushtlash boshlandi, yopirilib chiqayotgan odamlarning zarbidan eshik qarsillab ketdi. Petro qopni tashladi-da, bir yo‘talib olib, tegirmon tomon bedana yurish qilib ketdi. Arava ustidagi Darya bo‘ynini cho‘zib qaradi: Petro o‘ziga duch kelganlarni yiqitib, to‘polonning qoq o‘rtasiga kirib ketganini ko‘rib qoldi;

---

[8] Don atrofidagi kazaklar ukrainlarni tavrichanlik deb atashardi, ularning otabobolari Yekaterina II ning buyrug‘iga muvofiq Qrimga, ya›ni Tavriyaga yaqin janubiy yerlardan ko‘chirib keltirilgan.

uni odamlar mushtlay-mushtlay, devorga tiraganlarini, so‘ngra yerga yotqizib tepkilay boshlaganlarini payqagach, Darya «oh!» deb yubordi. Mitka Korshunov mashina‘xonaning muyulishidan bilakday temirni salanglatib yugurib chiqib qoldi.

Taqachini orqadan kelib urgan haligi tavrichan olomon orasidan otilib chiqdi, yirtilgan pushtirang yengi singan qanotga o‘xshab, yelkasida pirillab uchib turardi. Tavrichan ikki bukchayib birinchi aravaning yoniga yetib bordi-da, ot yog‘ochni shartta sug‘urib oldi. Tegirmon qo‘rasi ustida xirillagan ovozlar suzib yurardi.

– Ha-haaaa...

– Xuuuu...

– Vaaaay-ya!..

Qars-qurs. Taraq-turuq. Dod-voy. Shov-shuv...

Uch og‘a-ini Shumilinlar uylaridan chopib kelishdi. Qo‘li cho‘ltoq Aleksey, eshik oldida allakim tashlab ketgan tizginga o‘ralishib yiqilib tushdi; keyin irg‘ib turdi-yu, chap qo‘lini qorniga mahkam bosib, zich turgan aravalarning ot yog‘ochlari ustidan sakray-sakray o‘tib oldi. Ukasi Martinning oq paypoq ichiga suqilgan chalvar pochasi chiqib ketgan edi; engashib chalvarini tuzatmoqchi bo‘ldi-yu, lekin shu payt tegirmon tomondan chinqiriq ovozi eshitildi. Allakimning‘ faryodi tomdan oshib tutunday ko‘kka ko‘tarildi. Martin qaddini rostlab, Alekseyning ketidan chopdi.

Darya arava ustida nafasi tiqilib, toqatsizlanib qarab turardi; hamma yoqni xotinlarning qiy-chuvi bosib ketgan, otlar quloqlarini chimirar, ho‘kizlar aravaga suykanib bo‘kirishardi... Rangi o‘chgan, qoni qochgan Sergey Platonovich lablarini qimtib o‘tib ketdi, uning dum-dumaloq qorni nimchasi ostida selkillardi. Darya Mitka Korshunovni dabdalasi chiqqan pushtirang ko‘ylakli tavrichan ot yog‘och bilan urib qulatganini ko‘rib turdi. Tavrichanning o‘zi ham qo‘li cho‘ltoq Alekseyning zarbiga bardosh berolmay chalqanchasiga qulab, ajralib ketgan yog‘ochni qo‘lidan tushirib yubordi. Aleksey qo‘rg‘oshindek mushti bilan gardaniga bir urib uni sulaytirdi; jangda yirtilgan rang-barang kiyimlar Daryaning ko‘z o‘ngidan lip-lip o‘tib turardi. Mitka Korshunov cho‘kkalab turib, yonidan o‘tib borayotgan Sergey Platonovichni temir bolt bilan tushirib qolganda

ham Darya hech taajjublanmadi; xo'jayin qo'llarini kerib quladi-da, emaklab, orqasiga, tarozixonaga tislana boshladi; lekin uni chalqanchasiga yotqizib, rosa tepkilashdi... Darya jinni singari hoholab kular, qop-qora bo'yalgan kamon qoshlarini o'ynatardi. Petroga ko'zi tushib, kulishdan to'xtadi; eri gandiraklab, hayqirgan, chayqalib turgan olomon orasidan zo'rg'a chiqib oldi-da, qon tuflab, arava ostiga o'zini tashladi. Darya dod-voy solib, uning yoniga yugurdi. Qishloq tomondan tayoq ko'targan kazaklar chopib kelishaverdi, bittasi uzun lomni dastasidan ushlab olgan edi. Ur-yiqit avjiga chiqib, borgan sari zo'rayar edi. Bu to'polon mast odamlarning qovoqxona oldidagi yoki Maslenitsa bayramidagi mushtlashiga sira o'xshamasdi. Tarozixona eshigi oldida boshi majaqlangan yoshgina bir tavrichan yotardi; uning oyoqlari cho'zilib qolgan, boshi qop-qora qonga belangan, qon qotib qolgan, sochlari yuziga yopishgan, yorug' dunyo bilan vidolashayotgani ko'rinib turardi...

Qo'y singari g'ujja bo'lib olgan tavrichanlarni kazaklar donxonagacha surib borishdi. Agar bir tavrichan chol oraga kirmaganda ish pachava edi: u chopib borib, donxonaga kirdi-da, chala yongan o'tinni pechdan olib, hovliga chiqdi. Yugurganicha omborxona tomonga qarab yurdi; omborxonada ming puddan ortiq tortilgan un turardi. Uning qo'lidagi o'tindan tutun burqsab, kun yorug'ida ham dud orasidan uchqun sachragani ko'rinardi.

– O't qo'yvorama-a-a-an! – deb hayqirdi chol ovozi boricha, shatirlab yonayotgan o'tinni qamish yopilgan tomga cho'zib.

Kazaklarning kapalagi uchib, turgan joylarida qotib qolishdi. Sharqdan esgan quruq shamol tutunni omborxona tomidan orqaga, to'planib turgan tavrichanlar tomonga uchirardi.

Qoq qurib yotgan tomdagi qamishga bittagina uchqun tushsa, butun qishloq o't ichida qolishi turgan gap edi...

Kazaklar orasidan g'o'ng'irlagan bo'g'iq ovozlar eshitildi. Ba'zilari orqasi bilan yurib, tegirmonga tislana boshladi, lekin chol yonib turgan o'tinni salanglatar, ko'm-ko'k tutun ichidan o't sachrar edi.

– O't qo'yaman! Yondiramaaaan! Hozir hovlini bo'shat! – deb baqirdi chol.

Dastlab, to‘polonning bosh sababchisi, yuzi mo‘mataloq bo‘lgan Yakov Taqachi tegirmon hovlisidan chiqib ketdi. Uning ketidan boshqa kazaklar ham shoshib-shoshib chiqa boshladilar.

Tavrichanlar qoplarini tashlab, otlarini qo‘shish-di va aravada tikka turib, tizginlarini silkitib, otlarini qamchilashdi, tegirmon hovlisidan chiqib, aravalarini shaldiratganicha jo‘nab qolishdi.

Qo‘li cho‘ltoq Aleksey hovlining o‘rtasida turar, uchi tugilgan yeng ichidagi cho‘ltoq qo‘li qorni ustida qalt-qalt qilar, chap ko‘zi bilan chap beti uchib turardi:

– Kazaklar otlaninglar!..

– Orqalaridan quvish kerak!..

– Do‘ngdan oshib o‘tib ketolmaydi!

Mitka Korshunov yakka kift bo‘lib hovlidan chiqdi. Tegirmon oldiga to‘plangan kazaklar orasida yana g‘ala-g‘ovur ko‘tarildi, lekin shu paytda, ilgari hech kim ko‘rmagan, qora shlapa kiygan notanish bir odam mashinaxona tomondan tez-tez yurib yetib keldi; o‘tkir, sinchkov ko‘zlarini olomonga yugurtirib, qo‘lini ko‘tardi:

– Shoshmanglar!

– Kimsan o‘zing? – deb so‘radi Taqachi qoshlarini pirpiratib.

– Qaysi go‘rdan kelding?

– Uni qara-ya!

– Iye!

– Xo-o-o?..

– Sabr qiling, og‘aynilar!..

– Sening og‘ayning it – itning og‘aynisi bit.

– Mujik!

– Chipta kavush!

– Yasha, tumshug‘iga tushir!

– Ko‘ziga ur!.. Chaqchaygan ko‘zlariga!..

Notanish odam do‘qlardan qo‘rqmay, uyalgan kishiday jilmaydi, shlapkasini olib peshonasini artdi, hammani kulgu bilan yengdi...

Ikki buklangan shlapasi bilan u, tarozixona eshigi oldidagi qopqora qonga bo‘yalgan yerni ko‘rsatib:

– O‘zi nima gap? – deb so‘radi.

– Xoxollarni do‘pposladik, – deb muloyim javob qildi qo‘lsiz Aleksey; uning yuz-ko‘zi yana pirpirab ketdi.

– Nima uchun urdingiz?

– Navbat talashib. Oldinga o‘tmasin-da, – dedi Taqachi oldinroqqa chiqib va burnidan oqqan qon aralash mishig‘ini yengi bilan surtdi.

– Umrbod eslaridan chiqmaydigan qildik!

– Eh, ketlaridan quvib borish kerak edi-da... Dashtda o‘t qo‘yadigan narsa yo‘q.

– Bekorga choldan qo‘rqib yuribmiz, balki o‘t qo‘ymas edi, a?

– Cholning avzoyi buzuq edi, shartta o‘t qo‘yib yuborishi ham turgan gap.

– Xoxollar o‘lguday badjahl bo‘ladi, – deb miyig‘ida kuldi Afonka Ozerov.

Notanish odam shlapasi bilan unga imladi:

– O‘zing kimsan?

Afonka jirkanganday, kemshik tishlari orasidan «chirt» etkizib tufurdi va tupugi borib tushgan yerga qarab turdi-da, keyin oyog‘ini kerib:

– Men-ku kazakman, sen o‘zing lo‘lilardan emasmisan? – deb so‘radi.

– Yo‘q. Sen bilan men – ikkimiz ham rus bo‘lamiz.

– Bekor aytibsan! – dedi Afonka chertib.

– Kazaklar ruslardan tarqagan. Bilasanmi buni?

– Sen menga o‘rgatma, kazaklar – kazaklardan tarqagan.

– Qadimgi zamonda krepostnoylar pomeshchiklardan qochib, Don bo‘yiga kelib joylashgan, ana shularni kazak deb ataganlar.

Cho‘ltoq Aleksey o‘zini zo‘rg‘a bosib, shishgan panjalarini qisib, jahl aralash:

– Qani, yo‘lingdan qolma, birodari aziz, darrov tuyog‘ingni shiqirlatib qol, – dedi ko‘zlarini pirpiratib.

– Ko‘chib kelgan deydi-ya, ablah!.. Voy, haromi-ye, kazaklarni mujikka qo‘shib qo‘yyapti-ya!

– Bu o‘zi kim? Afanasiy, sen bilasanmi uni?

– Kim biladi deysan, qaysi kuni ko‘chib keluvdi. Lukeshka g‘ilaynikida ijaraga o‘tiribdi.

Tavrichanlarni ketidan quvib borish payti qo‘ldan ketgan edi. Kazaklar hozirgina ro‘y bergan to‘polon to‘g‘risida bahslashib, uyuylariga tarqala boshladilar.

* * *

Kechasi qishloqdan sakkiz chaqirim naridagi dashtda qalin jun chakmonga o‘ralib olgan Grigoriy diqqat bo‘lib, Natalyaga der edi:

– Sen xuddi yetti yot begonaga o‘xshaysan, Natalya! Xuddi anavi oy singari odamni na sovutasan, na isitasan. Seni sevmayman. Natasha, xafa bo‘lma! Men bu to‘g‘rida og‘iz ochmoqchi emasdim, rostini aytsam, birga turishimiz qiyinga o‘xshaydi. Senga achinaman, xolos, chunki shu kunlarda bir-birimizga ancha o‘rganib qoldik, lekin ko‘ngilsizman... ko‘nglim mana shu dashtday bo‘m-bo‘sh...

Natalya yulduzlar charaqlagan poyonsiz osmonga, xayolot singari suzib o‘tayotgan bulutga tikilar, churq etmasdi. Zulmat ichidagi havoda balandlab uchgan turnalar qo‘ng‘iroqday ovozlari bilan keyinda qolgan sheriklarini chaqirishardi.

Qovjiragan o‘tlardan ko‘ngilni g‘ash qiladigan qo‘lansa hid kelardi. Allaqaysi adir tepasida qo‘shchilar qalagan gulxan olovi yiltirab ko‘rinardi...

Grigoriy tong qorong‘isida uyg‘onib ketdi. Chakmoni ustiga to‘rt enlik qor tushgan edi. Butun dasht yangi yoqqan oppoq qor ko‘rpasiga burkangan, arava atrofidagi qor ustiga quyon izlari tushib qolgan edi.

## VI

Agar biror kazak Millerovo yo‘lida yolg‘iz-yakka, yo‘ldoshsiz ketayotgan bo‘lsa-yu, duch kelgan ukrainlarga yo‘l bo‘shatmasa, ukrainlar uni do‘pposlashardi (ukrainlarning qishloqlari Nijne-Yablonovskiydan to Millerovogacha cho‘zilgan yetmish besh chaqirim keladigan joyni egallagan edi). Shuning uchun ham, kazaklar stansiyaga bormoqchi bo‘lishsa, bir necha kishi to‘planib, bamaslahat jo‘nashardi va dashtda uchragan ukrainlarni tap tortmay so‘kaverishardi. Qadimdan ahvol shu edi.

– Hoy, xoxol, yo‘lni bo‘shat! Kazaklar yurtida yashaysan-u, tag‘in yo‘l berging kelmaydi-ya, padar la’nat!

Don yonidagi Paramonov g‘alla punktiga bug‘doy ortib kelgan ukrainlarning sho‘ri qurir edi. Bu yerda bekordan bekorga musht-

lashuv boshlanardi, chunki u «xo-xol», «xoxol» bo'lgandan keyin uni do'pposlamasa, kazakning xumori bosilmaydi.

Bir emas, bir necha «asr muqaddam ustomon bir qo'l kazaklar yurtiga qabilaviy nizo urug'ini sochgan, uni undirib, xo'b parvarish qilgan edi, natijada bu urug' mo'l-ko'l hosil berdi: ur-yiqitlarda kazaklar qoni va ko'chib kelgan ruslar, ukrainlarning qoni to'kilardi.

Tegirmondagi mushtlashishdan ikki hafta o'tgach, pristav bilan tergovchi qishloqqa kirib kelishdi.

Dastlab Shtokmanni so'roqqa chaqirishdi. Asl nasabi kazak dvoryanlaridan bo'lgan yoshgina tergovchi portfelini titkilab so'ray boshladi:

– Bu yerga kelmasdan burun qayerda turardingiz?

– Rostovda.

– Bir ming to'qqiz yuz yettinchi yilda nima uchun turmada o'tirib chiqqan edingiz?

Shtokman avval tergovchining portfeliga, so'ngra qasmoq bosgan sochining qiya ochilgan farqiga ko'z tashladi.

– Tartibsizliklar uchun.

– Hm... O'sha vaqtda qayerda ishlardingiz?

– Temiryo'l ustaxonasida.

– Kasbingiz?

– Slesar.

– Juhud emasmisiz? Yoki cho'qinganlardanmisiz?

– Yo'q. Mening fikrimcha...

– Sizning fikringiz bilan ishim yo'q. Surgunda bo'lganmisiz?

– Ha, bo'lganman.

Tergovchi portfeldan boshini ko'tardi, mo'ylovi olingan, issiqlik toshgan lablarini qimirlatib tamshanib:

– Sizga bu yerdan jo'nab ketishni maslahat beraman... – dedi, ketidan: – Bu ishni o'zim bir yoqlik qilaman, – deb o'zicha ming'illab qo'ydi.

– Sababi nima, janobi tergovchi?

Lekin tergovchining o'zi savol berib qoldi.

– Tegirmonda to'polon bo'lgan kuni kazaklar bilan nima to'g'risida gaplashdingiz?

– Haqiqatda men...

– Bas endi, sizga javob.

Shtokman Moxovlar uyining ayvoniga chiqdi (kelgan amaldorlar qo'shxonaga bormay, hamisha Sergey Platonovichnikiga tushardi), kiftini qisib, sirlangan, o'ymakor eshikka qaradi.

## VII

Qish kech kirdi. Yoqqan qor Pokrov bayramidan keyin erib ketdi, yana podalar dalaga qo'yib yuborildi. Bir haftagacha janubdan yel turib, kun ilidi, yer bo'shashdi, yax qaytdi; dalani yana maysa qoplay boshlaydi.

Havo shu iligancha, Mixail bayramigacha turib berdi, keyin birdaniga qor tashlab, qattiq sovuq tushdi; ayoz kundan kunga kuchaydi, keyin yana bir qarich qor yog'di; Don yoqasidagi huvullab qolgan polizlarning chetan devorlari qorga ko'milib, qor ustida qizlar tikkan sanama gulga o'xshash quyon izlari tushib qoldi. Ko'chalar kimsasiz, tanho edi.

Qishloq ustida tezak tutuni suzib yurar, yo'l bo'yidagi kul tepalar atrofida zaxchalar uymalashardi. Ko'cha bo'ylab qor ustida, rangi o'nggan ko'kish lentaga o'xshash, chana izi tushgan edi.

Bir kuni maydonda yig'in bo'ldi: o'tin kesish, to'qayni taqsimlash payti kelgan edi. Po'stinga o'ralgan odamlar qor bosib, piymalarini g'archillatib, mahkama zinapoyasi oldida to'planishib turar edi. Ayoz hammani mahkama ichkarisiga haydab kirgizdi. Ataman bilan mirzaning ikki yoniga, stol atrofiga oppoq, kumushsoqol mo'tabar qariyalar joylashdi, moshkichiri soqol va yoshroq kazaklar poygakda tiqilishib turar, qo'sqi po'stinlarining issiq yoqalari orasidan g'o'ng'illagan ovozlari eshitilardi. Mirza katta-katta qilib yozar, ataman uning yelkasidan qog'ozga qarab turar edi. Sovib qolgan mahkama ichi guvur-guvur:

– Bu yilgi pichan...

– Ha, rost... o'tloq – baharnav, lekin dashtdagi qashqabedadan naf yo'q.

– Qadimlari mollar Rojdestvogacha o'tlab yuraverardi.

– Qalmoqlarga xudo berdi!

– Ha-ya.

– Atamanning baqbaqasiga qaragin, semizligidan bo‘ynini burolmaydi!

– To‘ng‘iz tosh yutsa – osh bo‘laveradi.

– Hoy quda, qishni hurkitmoqchimisan? Po‘stiningni qara-yu!

– Lo‘li po‘stinini sotgan.

– Lo‘li deganing qantaroqda ham dashtda tunayveradi, ustiga yopadigan narsasi yo‘q – to‘rga o‘ralib uxlayveradi, kechasi sovqotib uyg‘onadi, to‘r katagidan sekin barmog‘ini chiqarib qaraydi-da, onasiga: «Hu, enajon-ey, hovli biram sovuq ekan-ki!..» – deydi sho‘rlik.

– Xudo asrasin, tayg‘oqchilik bo‘ladigan ko‘rinadi.

– Ho‘kizlarni taqalashga to‘g‘ri keladi.

– Anavi kuni Alvasti chakalakda sandip tol kesuvdim, zab yetilibdi-da.

– Zaxar, ishtonbog‘ingni bog‘lab ol, sovuq urib ketsa, xotiningdan baloga qolasan.

– Menga qara, Avdeyevich, jamoa buqasini haliyam sen boqyapsanmi?

– Boqishdan bosh tortdim. Buqa Paranka Mrixinaga o‘tib ketdi... «Men bevaman, ovunib yuray» deydi. Olaqol, dedim, agar bola bo‘lib qolsa...

– Ha-ha-ha-ha!

– Ho-ho-ho!

– Janob qariyalar! O‘tin kesish xususida nima deysiz?.. Jim!

– Mabodo, bola bo‘lib qolsa, doyalikka meni chaqirarsan, dedim...

– Jim! Iltimos qilamiz, jim bo‘linglar! Yig‘ilish boshlandi. Ataman ter bosgan cho‘qmorini silab, ro‘yxatdagilarning familiyasini baqirib o‘qir, soqolida qotib qolgan yaxlarni jimjilog‘i bilan ko‘chirar, a’zoyi badanidan bug‘ ko‘tarilardi. Orqa tomondagi ochilib-yopilib turgan eshikni bug‘ o‘rab olgan, odamlar g‘uj bo‘lib olib chug‘illashar, qattiq burun qoqishardi.

– Payshanba kuni o‘tin kesishga tusholmaymiz! – deb baqirdi Ivan Tomilin, atamanning tovushini bosib tushishga urinib. Ivan

artilleristcha ko'k furajkali boshini bir yoqqa qiyshaytirib olib, qizargan qulog'ini ishqalay boshladi.

– Sabab?

– Hoy, to'pchi, qulog'ingdan ajralasan!

– Ho'kizning qulog'ini ulab beramiz.

– Payshanba kuni qishloqning yarmi qirdagi pichanga jo'namoqchi. Topgan vaqtlaringni qara-ya!..

– Pichanga yakshanba kuni borasan.

– Janobi qariyalar!..

– Bu nimasi!

– Ayni payti-da!

– Ho-ho-hoooo!..

– Heee!..

Matvey Kashulin degan chol, liqillagan stol ustidan engashib, silliq sandip hassasini Tomilinga nuqib, tutaqib chinqirardi:

– Pichan qochmas!.. Seni qara-yu!.. Jamoat bir ish qilmoqchi bo'lsa, sen doim qarshi chiqasan. Hali yoshlik qilasan, uka, tentaksan!.. Ha!.. Bilib qo'y!.. Seni qara-yu!..

Qo'li yo'q Aleksey orqadagi safdan boshini chiqardi va ko'zini uchirib, tirtiq betini pirpiratib:

– O'zing-chi? Qarisang ham shu vaqtgacha qo'shnilarning aqli bilan ish qilasan... – dedi.

Bir parcha yer uchun Aleksey bilan Kashulin chol olti yildan beri it-mushuk edilar. Har yili ko'klamda Aleksey uni tutvolib urardi, vaholanki cholning qo'shib olgan yeri bir quloch kelmas edi.

– Ovozingni o'chir, tirtiq!

– Attang-ki, uzoqdasan – bu yerdan qo'lim yetmaydi-da, bo'lmasa, bir urib og'iz-burningni qop-qora qon qilardim-qo'yardim.

– Voy, seni qara-yu! Voy cho'ltog'-e!..

– Bas qilinglar hoy, muncha g'ijillashasiz?..

– Ko'chaga chiqib urishinglar. Nafsilamr...

– Qo'y endi, Aleksey, cholga qara, sochlari hurpayib ketdi, telpagini ham ko'tarib yubordi.

– To'polon qilganlarni turmaga jo'nataman!.. Ataman musht bilan stolni urdi.

– Hozir mirshab chaqiraman! Ovozingni o‘chir!.. G‘ovur-g‘uvur tovushlar oxirgi qatorgacha yetib borib, keyin tindi.

– Payshanba kuni tong otdi deganda, hamma o‘tin kesishga chiqadi.

– Siz nima deysiz, qariyalar?

– Juda soz!

– Xudo yor bo‘lsin!

– Endigi yoshlar keksalarga uncha quloq solishmaydi.

– Quloq solmay ko‘rsinlar-chi. E, adabini berishga kuchimiz yetmaydimi?.. Mening Aleksashkam, ro‘zg‘orini bo‘lak qilib qo‘yaman desam, mushtlashmoqchi bo‘ldi, yoqamdan bo‘g‘ib oldi. Men to‘satdan tushirib qoldim. «Hozir atamanga aytaman, qariyalarga arz qilib, o‘lguday savalataman...» dedim. Birpasda oyim-supurgiday muloyim bo‘ldi-qoldi.

– Bundan tashqari yana bir masala bor, janobi qariyalar: stanitsa atamanidan buyruq keldi, – ataman nafasini rostlab oldi, so‘ngra bo‘ynini cho‘zib, ilon singari boshini to‘lg‘adi, chunki mundirining qotirma yoqasi tomog‘iga botib, bo‘g‘ib qo‘ygan edi. – Mana shu shanba kuni yoshlar qasamyod etmoq uchun stanitsaga borishlari kerak. Kechqurun hammasi stanitsa mahkamasiga yetib borsin.

Eshik tomondagi eng chetki deraza oldida Panteley Prokofyevich, laylak singari oqsoq oyog‘ini bukib, qudasi yonida turar edi. Miron Grigoryevich po‘stinining oldini ochib tashlab, deraza tokchasiga joylashib o‘tirib olib, hadeb miyig‘ida kulardi. Qisqagina malla kipriklarini qirov qoplagan, sovuqdan yuzidagi so‘gallarining qoni qochib bo‘zargan edi. Ularning yonida bir gala yoshroq kazaklar bir-birlariga imlashib kulishardi. Tepasiga zar uqali ko‘k movut qoplangan papaxini boshiga dol qo‘yib kiyib olgan Avdyeich oyoq uchida bosib o‘rtaroqda turardi; lofchi deb laqab olgan bu odam Panteley Prokofyevich bilan tengqur bo‘lsa ham, sira qarimas, olmaday qip-qizil yuzidan qon tomib turardi.

Avdeyich bir vaqtlar leyb-gvardiya ataman polkida xizmat qilgan edi. Xizmatga borishda familiyasi Sinilin edi, qaytishda «lofchi» laqabini orttirib keldi...

Qishloqdan dastlab Agaman polkiga olingan kazak shu edi. Yoshligida el qatori tuppa-tuzuk yigit edi, faqat bolaligidan qolgan

qittay tentakligi bor edi, xolos; ammo keyin unga bir balo bo‘ldimi, xizmatdan qaytgandan so‘ng, birato‘la aqlini yeb qo‘ydi. Kelgan kunlariyoq, o‘zining podsho saroyida ko‘rsatgan ajoyib-g‘aroyib xizmatlarini, Peterburgda kechirgan g‘alati-g‘alati sarguzashtlarini gapirib bera boshladi. Odamlar boshda hang-mang bo‘lib, uning gaplariga inonib og‘izlarini ochib quloq solishdi, biroq keyin qishloq bino bo‘lgandan beri Avdeyichday lofchini hech kim ko‘rmagani ma’lum bo‘ldi; hamma ro‘y-rost uni masxara qilib kulardi, to‘qigan uydirmalarining misi chiqib sharmanda bo‘ladigan xonasi kelganda ham qizarmas edi (qizarsa ham, yuzi qip-qizil bo‘lgani uchun bilinmasdi), lekin shunga qaramay yolg‘on gapirishini qo‘ymasdi. Yoshi qaytgandan keyin es-hushidan batamom ajradi. Aybini bo‘yniga qo‘ysang, jahli chiqadi, musht ko‘taradi, indamay kulib turaversang olib qochaveradi, kalaka qilganingni sezmaydi.

U o‘z ishiga pishiq, mehnatchan kazak edi, har bir narsaga ko‘zi baloday yetadi, kezi kelganda quvlik ham ishlatadi, biroq ataman polkidagi xizmatlari to‘g‘risida gap ochilsa bormi, xudo berdi unga... eshitgan odam qotib-qotib kuladi, ichagi uziladi.

Avdeyich yalpayib ketgan piyma kiygan, qoq o‘rtada depsinib turar edi; atrofiga to‘plangan kazaklarga razm solib qarar va do‘rillagan ovoz bilan:

– Endigi kazaklarning hammasi pachoq, – der edi. – Juda ushoq, hech baloga yaramaydi. Har qanaqasini puf deb uchirib yuborish mumkin. Nomigagina kazak... – shuni deb, jirkanganday tupurib iljayar, tupugi tushgan yerni piymasi bilan bosib qo‘yardi, – men Vyoshenskaya stanitsasida o‘liklar suyagini ko‘rganman, qadim o‘tgan kazaklarga qoyil qoladi kishi!..

Anikushka ko‘sa jo‘rttaga yonidagi kazakni tirsagi bilan turtib qo‘yib:

– Bu suyaklarni sen qayerdan kovlab topding, Avdeyich? – deb so‘radi.

– Hoy jo‘ra, ulug‘ ayyom kuni yaqin, yolg‘on gapirma – gunohkor bo‘lasan. – Panteley Prokofyevich qirra burnini jiyirdi, qulog‘idagi isirg‘asini ishqalab qo‘ydi. Chol bu lofchini yoqtirmasdi.

– Birodar, men, axir, binoyi umr yolg‘on gapirgan emasman, – dedi Avdeyich baland kelib, keyin piqirlab-qotib kulayotgan Ani-

kushkaga taajjublanib qarab qo'ydi. – Qaynimga uy solayotganimizda o'liklarning suyagini ko'rgan edim. Poydevorini qaziyotganimizda go'r chiqib qoldi. Demak, qadimgi zamonda ana shu cherkov atrofidagi, Don yaqinidagi yerlar qabriston bo'lgan...

– Xo'sh, qanaqa suyaklar ekan? – deb ro'yxush bermay so'radi, Panteley Prokofyevich ketishga xezlanarkan.

– Qo'l deganing – mana bunday, – deb uzun qo'llarini kerib ko'rsatdi Avdeyich, – boshi, sizga yolg'on, xudoga chin, doshqozonday keladi.

– Sen, Avdeyich, undan ko'ra, Sankt-Peterburgda qanday qilib qaroqchi tutganingni yoshlarga so'zlab ber, – dedi Miron Grigoryevich po'stiniga o'ralib derazadan tushar ekan.

– Nimasini gapiray? – deb noz qila boshladi Avdeyich.

– Gapirib bera qol!

– So'raymiz.

– Shunday bo'lsin, Avdeyich.

– Bo'lmasa, bu voqeani bir boshdan gapirib bera qolay, – Avdeyich yo'talib qo'ydi-da, chalvaridan tamaki xaltasini oldi. Bujmaygan kaftiga bir chekim tamaki soldi, kaftiga tushgan ikkita chaqani qaytarib hamyonga tashladi va kulimsirab tinglovchilarga nazar soldi. – Qal'aga qamalgan bir qaroqchi qochibdi. U yoqni qidirishibdi, bu yoqni qidirishibdi – topisholmabdi. Izlayverib hukumat odamlarining oyog'ida oyoq qolmabdi. Yerga kirdimi, osmonga uchdimi – hech kim bilmaydi! Kechasi meni qorovul boshi ofitser chaqirtirdi, bordim... Ha... «Darrov imperator hazrati oliylarining huzurlariga borgin, – deydi, – seni... podshoyi a'zam – imperator o'zlari chaqiryaptilar», – deydi. Yuragim shig' etib ketdi, oldilariga kirdim. Chest berib, qotib turdim, oliy hazrat o'z qo'llari bilan kiftimga qoqib: «Gap shunday Ivan Avdeyich, – dedilar, – inperiyamizning eng birinchi dushmani qal'adan qochibdi. Yer ostidan bo'lsa ham topib kelasan, topmasang – ko'zimga ko'rinma!» – dedilar. – «Bajonidil imperator oliy hazratlari», – dedim. Heeey, birodarlar, mushkul ish boshimga tushdi deng... Podsho otxonasiga kirib, aslzod arg'umoqlardan uchtasini tanlab oldim-da, xayt deb jo'nab qoldim. – Avdeyich tamakisini tutatib, tinglovchilarning engashgan boshlariga ko'z qirini tashlab qo'ydi, so'ngra qizishib, aft-basharasini

chulg‘agan tutun orasidan varanglab gapirdi. – Bir kun quvdim, ikki kun quvdim, uchinchi kuni Moskvaga sal qolganda yetib oldim. Azamatni faetonga bosdim-u, darrov izimga qaytdim. Yarim kecha deganda qaytib keldim, hamma yog‘im loy, to‘g‘ri o‘zlarining oldilariga jo‘nadim. Knyazlar, graflar kirgani qo‘ymay, yo‘limni to‘sishdi, ularga quloq solib bo‘pman... Eshikni taqillatdim. «Kirishga ruxsat eting, imperator oliy hazratlari», – dedim. – «O‘zing kimsan deb so‘radilar. – Menman dedim, – Ivan Avdeyich Sinilinman». Ichkarida u yoqdan-bu yoqqa yugurishib qolishdi, quloq solsam o‘zlari: «Mariya Fyodorovna, Mariya Fyodorovna! Tezroq turib, samovar qo‘y, Ivan Avdeyich keldi!» deb xotinlarini chaqiryaptilar.

Orqadagilarning qahqahasi uyni boshiga ko‘targudek bo‘ldi. Yo‘qolgan va adashgan mollarning ro‘yxatini o‘qiyotgan mirza: «Chap tuyog‘ida oqi bor» jumlasida to‘xtab qoldi. Ataman g‘oz singari bo‘ynini cho‘zib, hoholashayotgan olomonga ko‘z yugurtirdi.

Avdeyich papaxini shartta qo‘lga olib, qovog‘ini solib, goh unga, goh bunga alanglab qarardi.

– Shoshmanglar, axir!

– Ho-ho-ho-ho-ha!

– Voy, o‘lmagur-ey!..

– Hi-hi-hi-hi!..

– Avdeyich, tulagan ko‘ppak! H-ho-ho!

– «Samovarni qo‘y-vo-or. Avdeyich keldi emish!» O‘lma shovvoz!

Yig‘in tarqala boshladi. Eshik oldidagi muzlagan taxta zina odamlar oyog‘i ostida g‘archillar, nola qilayotganday bo‘lardi, mahkama atrofidagi taptalgan qor ustida Stepan Astaxov bilan novchadan kelgan laylakdek bir kazak kurashardi, bu – shamol tegirmonining egasi edi.

– Boshingdan oshirib ot tegirmonchini! – deb maslahat berishardi, ularni qurshagan kazaklar. – Stepka, ko‘tarib ur, kepaklari burnidan chiqsin!

– Pinjiga kirib olma, hoy mug‘ambir! Tirrig‘ligingni qara-ya! – deb kuyunardi Koshulin; chol polvonlar atrofida chumchuq singari irg‘ishlab yugurar, kurashga astoydil berilib ketganidan, ko‘karib ketgan burnining uchida osilib, qotib qolgan narsani sezmasdi.

## VIII

Panteley Prokofyevich yig'indan qaytgan zahotiyoq, to'g'ri chol-kampir turadigan yonboshdagi xonaga kirib ketdi. Shu kunlari Ilinichna betob edi. Salqigan yuzlaridan charchagani va dardi zo'rligi ko'rinib turardi. Kampir qalin parqu to'shakda, tikkasiga qo'yilgan yostiqqa suyalib yotardi. O'ziga tanish oyoq tovushini eshitgan zahoti boshini burib, eski odati bo'yicha qovog'ini solib eriga qaradi: Prokofyevichning og'zini o'rab olgan, nafasining bug'idan ho'llangan jingalak soqoliga, soqoliga qo'shilib ketgan ho'l mo'ylovlariga nazar tashladi, burnini chimirib iskab ko'rdi, biroq eridan qo'sqa po'stin hidi bilan qor hididan boshqa narsaning isi kelmasdi. «Bugun ichmabdi» deb qo'ydi ichida ko'ngli tinchib, so'ngra ishini qo'lga olib, paypoqning chala qolgan tovonini to'qiy boshladi.

– O'tin kesish nima bo'ldi?

– Payshanbaga qaror qilishdi. – Prokofyevich mo'ylovini silab qo'ydi. – Payshanba kuni azonda jo'naymiz, – deb takrorladi karavot yonidagi sandiqqa o'tirar ekan. – Ahvoling qalay? Yengil tortdingmi?

Ilinichna qovog'ini solib, qimtinib:

– Boyagisiday... Suyaklarim zirqirab turibdi, qaqshatib og'riyapti... – dedi.

– Kuzda suvga tushma, dedim, sen ahmoqqa. Darding borligini bilganingdan keyin – qimirlamay o'tir! – dedi tutaqib Prokofyevich, so'ngra hassasi bilan polga katta doiralar shaklini chizdi. – Yoki sendan boshqa odam qurib ketganmidi? Padariga ming la'nat o'sha zig'irpoyalaringni: ivitaman deding, ana endi nima bo'ldi?.. Xudoyo tavba-ey, ko'rgilikda... Uh!

– Zig'irpoya qolib ketsa ham uvol-da, o'sha kezda kelinlar yo'q edi: Grishka xotini bilan qo'shda, Petro bilan Darya ham allaqayoqqa ketishgan edi.

Chol qo'llarini isitmoq uchun kaftlarini juftlab huhladi-da, karavot ustiga engashdi.

– Natashka qalay?

Ilinichna tashvish ichida:

– Nima qilishimni bilmay qoldim, – dedi. – Boya yana yig'ladi. Qo'raga chiquvdim, qarasam – omborxonaning eshigi ochiq. Yopib

kela qolay deb bordim. Ichkarisiga kirdim, xampaning yonida qaqqayib turibdi. «Senga nima bo'ldi, nima gap, bolam?» deb so'rasam: «Boshim og'riyapti, oyijon», – deydi, xolos. Rostini aytarmidi?

– Balki tobi yo'qdir?

– Yo'q, surishtirib ko'rdim... Yo bitta-yarimtasi amal qilgan, yo Grisha bilan oralarida gap o'tgan...

– O'g'ling anavi kasofatga... yana aylanishgan bo'lmasin?

– Yo'g'-e, dadasi! Yo'q! – Ilinichna cho'chiganday qo'l siltadi. – Stepanni ahmoq deb o'ylaysanmi? Hech payqaganim yo'q.

Chol birpas o'tirib, keyin chiqib ketdi.

Grigoriy o'z bo'lmasida egov bilan qarmoq uchlarini egovlayotgan edi. Natalya qarmoqlarni eritgan cho'chqa yog'i bilan moylab, har qaysisini alohida lattaga o'rardi. Panteley Prokofyevich oqsoqlanib ularning yonidan o'tayotganida Natalyaning yuziga sinchkovlab nazar tashladi. Natalyaning yuzlari so'ligan, rangi somonday sarg'ayib ketgan edi. U keyingi oy ichida ancha ozgan, ko'zlarida allaqanday ayanchli, ma'yuslik alomati paydo bo'lgan edi. Chol eshik oldida to'xtadi. «Hey, xotinning uvoliga qolibsan», deb qo'ydi ichida; kursi ustiga engashgan Natalyaning boshiga, silliq taralgan sochiga yana bir karra qarab chiqdi.

Grigoriy deraza oldida egovni qirtillatib o'tirar, qop-qora jingalak sochlari peshonasiga tushib selkillardi.

– Yig'ishtir ashqol-dashqolingni, ablah!.. – deb baqirdi chol joni halqumiga tiqilganday qizarib, qo'li qichib tursa ham, lekin hassasini mahkam siqimlab, o'zini bosdi.

Grigoriy sapchib tushdi, hang-mang bo'lib otasiga qaradi.

– Manavi ikki uchli qarmoqni qayrab olmoqchi edim, dadajon.

– Yig'ishtir deyman senga! O'tin kesishga tayyorgarlik ko'r.

– Hozir.

– Chananing so'log'i o'ynab yotibdi, bu bo'lsa, qarmoq bilan ovora, – deb po'ng'illadi chol ancha shashtidan tushib; u eshik oldida birpas depsinib turdi, yana biron gap aytmoqchi bo'ldi-yu, lekin indamay chiqib ketdi. Qolgan alamini Petrodan oldi.

Grigoriy kalta po'stinini kiyar ekan, otasining hovlida baqirganini eshitdi:

– Shu vaqtgacha mollar sug‘orilmabdi, o‘zing nima qilib yuribsan, falon-u pismadon?.. Chetan devorning tirgovichini kim sug‘urib olib ketdi? Eng chetdagi tirgovichga tegmanglar, deb senga aytmovdimmi?.. Ayab qo‘ygan shu pichanni ham mol toptab ketsa, bahorda ho‘kizlarga nimani yedirib qo‘sh haydaysiz?

Payshanba kuni tong otardan ikki soat burunroq Ilinichna Daryani uyg‘otdi.

– Tur, pechni yoq.

Darya tura solib, ko‘ylakchan pech yoniga yugurdi. Paypaslab, tokchadan gugurtni topdi, o‘t yoqdi.

Tamaki chekib yo‘tali tutgan, sochlari hurpaygan Petro:

– Tezroq pishir, – deb xotinini shoshirardi.

– Natashkani uyg‘otishga ko‘zlari qiymaydi, insofi yo‘q dong qotib yotibdi, men nima, qo‘lim to‘rtta bo‘lmasa nima qilay, axir? – deb po‘ng‘illardi uyqusi chala qolib, zardasi qaynagan Darya.

– Bor, uyg‘otib chiqa qol, – dedi Petro. Natalya o‘zi uyg‘ondi. Koftasini yelkasiga tashlab, tezak olib kelgani og‘ilxonaga chiqib ketdi.

– Tutantiriq ham ola kel! – deb buyurdi katta kelin.

– Dunyashkani suvga yubor, eshityapsanmi Dashka? – dedi Ilinichna; kampir oyoqlarini zo‘rg‘a sudrab bosar va xirillab gapirardi.

Oshxonadan yangi achitqining hidi, qayish abzallar va iliqqina badan hidi kelardi. Darya piymasini do‘pillatib u yoqdan bu yoqqa yugurar, qozon-tovoqlarni taqirlatardi; yengigacha shimarilgan pushti rang ko‘ylagi ostidan do‘ppaygan ko‘krakchalari selkillardi. Erga tekkandan keyin ham uning rang-ro‘yi o‘zgarmagan, ozmagan ham, to‘zmagan ham: baland bo‘yli, xipchabel Darya, tol novdasiday egilib-buralib turar, xuddi qiz bolaga o‘xshardi. Kiftlarini qimirlatib, biltanglab yurar, erining do‘qlariga kulibgina qo‘yardi; yupqa va zahar lablari orasidan mayda va zich tishlari ko‘rinib turardi.

– Kechqurun tezaklarni pechkaga qalab qo‘yilsa-ku, ertalabgacha qurib qolardi, – deb po‘ng‘illadi Ilinichna achchiqlanib.

– Esimga kelmabdi, oyijon. Ayb bizda, – deb hammadan avval javob qildi Darya.

Ovqat pishguncha tong otdi. Panteley Prokofyevich og‘zi kuyganiga qaramay suyuq bo‘tqani tushirar, tezroq nonushta qilib

olishga oshiqar edi. Qovog'i osilgan Grigoriy lunjini do'ppayti
shoshmasdan ovqatini chaynardi. Petro, tishi og'rib jag'ini tang
olgan Dunyashkani, otasiga sezdirmay, masxara qilar edi.

Qishloq ko'chalaridan qorni g'archillatib chanalar o'ta bosl
di. G'ira-shira tongotar mahalda ho'kiz aravalar Don tomonga y
solishdi. Grigoriy bilan Petro chana qo'shgani chiqishdi. Grig
qaylig'i sovg'a qilgan yumshoq sharfni yo'l-yo'lakay bo'yn
o'rab, muzday quruq havoda entikib nafas olardi. Hovli usti
uchib o'tgan qarg'a, ovozi boricha «qag'» dedi. Asta-sekin qimir
gan qanotlarining shuvullagani qahraton ayozda ravshan eshitila
Petro qarg'aning uchishiga qarab:

– Kun yurish tomonga uchdi, havo isiydi, – dedi. Qizlar tal
sumiday sho'x bulut parchasi orasidan oyning ingichka bir uchi
tirab ko'rinardi. Mo'rilardan burqsib chiqqan tutun tikka ko'tar
poyonsiz osmonga, charxlangan oltin o'roqqa o'xshash oyga qa
yuksalardi.

Melexovlar qo'rasining ro'parasida Don muzlamagan. Da
bo'ylarini qor aralash muz qoplagan, chetdan oqqan suv ko'pikla
o'zini muzga uradi, chap qirg'og'ida suv ostidan qaynab chiq
chashmalar vahimali girdoblar hosil qiladi, suv muzlamagan j
larda qishlab qolgan o'rdaklar qop-qora xol singari suzib yurish

Kechuvga maydondan tikka tushilar edi. Panteley Prokofyev
bolalarini kutmasdan qari ho'kizlarni qo'shib, oldin jo'nab qo
Petro bilan Grigoriy biroz keyinroq yo'lga chiqishdi. Jar tepa
Anikushkaga yetib oldilar. Ko'k belbog' bog'lab olgan Anikus
yangi soplangan boltasini chanaga qistirib qo'ygan, ho'kizlarin
qavatida piyoda borardi. Pakanagina, kasalmand xotini arava h
dab kelar edi. Petro olisdan Anikushkaga gap tashladi:

– Qo'shni, xotiningni ham sudrab olib ketayapsanmi deyman

Qiziqchi Anikushka lapanglab chanalar yoniga keldi.

– Ola borganim yaxshi-da, sovqotsam – isitadi-ku!

– Go'rda isitadimi, qup-quruq suyak-ku!

– Suli berib boqsam ham semirmaydi. Grigoriy chanadan sak
tushdi-da:

– Chekimiz bir joydan tushganmi? – deb so'radi.

– Agar tamakingdan chektirsang aytaman: ha, bir joydan tushgan.

– Sen, Anikey, doim birovnikiga sheriksan.

– O‘g‘irlangan, tilab olingan narsa juda shirin bo‘larmish, – deb hoholadi Anikushka, hezalakchalish ko‘sa basharasini burishtirib.

Uchovi birga ketishdi. Daraxtlarni qirov qoplagan, hamma yoq oppoq qor. Anikushka oldingi chanada, yo‘l ustiga egilib tushgan daraxt shoxlarini qamchi bilan savab borardi. Ignasimon yumshoq qor duv etib to‘kilar va Anikushkaning burkanib olgan xotini ustiga yog‘ilar edi.

– Jinnilik qilma, shayton! – deb baqirardi xotini ust-boshidan qorni qoqib.

Petro ho‘kizlarini choptirish uchun, qorniga qamchisini niqtar va:

– Xotiningni qorga bos! – deb hazillashardi shang‘illab.

Alvasti chakallakka burilaverishda ro‘paradan kelayotgan Stepan Astaxovga duch kelib qolishdi. U bo‘yniga bo‘yinturuq osilgan bir juft ho‘kizni qishloq tomonga haydar, yamalgan piymasini katta-katta bosib kelardi. Peshonasiga dol qo‘yib kiyib olgan papaxi ostidan qirov bosgan sochi bir bosh oq uzum singari osilib turardi.

Anikushka unga yaqinlashib:

– Hoy, Styopa, adashib qoldingmi? – deb so‘radi.

– Adashish ham gapmi, padariga la’nat!.. Qiyalikdan tushishda chana to‘nkaga borib urilsa bo‘ladimi – qo‘shqarog‘i cho‘rt sinib ketdi. Noiloj qaytdim. – Stepan so‘kinib, uzun kipriklari ostidagi o‘g‘ri ko‘zlarini chaqchaytirib, Petroning oldidan o‘tib ketdi.

– Chanang qoldimi? – deb so‘radi burilib Anikushka.

Stepan qo‘l siltadi, shudgorga burilgan ho‘kizlarini qamchi bilan qaytardi va chana ketida kelayotgan Grigoriydan ko‘z uzmay, anchagacha tikilib qaradi. Chakalakka yetmasdan, yo‘lning o‘rtasida yotgan chanaga Grigoriyning ko‘zi tushib qoldi. Aksinya chana yonida turar edi. Aksinya pocha po‘stinning etagini chap qo‘l bilan ushlagan holda ro‘paradan kelayotgan chanalarga tikilardi.

– Chetga chiq, bostirib yuboraman. Eh, mening xotinim emassan-da! – deb xirilladi Anikushka.

Aksinya kulimsirab chetlandi va bir tomonga qiyshayib qolgan chanaga o‘tirib qoldi.

– O‘zingniki yoningda o‘tiribdi-ku.

– To‘ng‘iz taroqday dumimga yopishib olgan bo‘lsa nima qilay, bo‘lmasa seni chanaga solib ola ketardim.

– Rahmat-e!

Petro Aksinyaning yoniga yetganda ukasiga ko‘z qirini tashladi. Grigoriy alanglanib kulimsirab kelardi; uning har bir harakatidan bir narsani kutib, bezovtalanayotgani bilinib turardi.

– Yaxshimisan, qo‘shni? – deb so‘rashdi Petro qo‘lqop kiygan qo‘lini chakkasiga qilib.

– Xudoga shukur.

– Chanani sindiribsiz, shekilli? Aksinya Petrovga qaramasdan, cho‘zib:

– Sindirdik, – dedi va yaqin kelib qolgan Grigoriyga o‘girilib qaradi. – Grigor Panteleyevich, sizga ikki og‘iz gapim bor edi...

Grigoriy Aksinya tomonga burildi va o‘z yo‘lida ketayotgan Petroga:

– Mening ho‘kizlarimga ham qarab bor, – deb tayinladi.

– Ha-ha! – deb miyig‘ida kuldi Petro va tamaki tutunidan sarg‘ayib ketgan mo‘ylovining uchini tishladi.

Ular indamay bir-birlariga qarab turib qolishdi. Aksinya xavotirlanib atrofga qarar, qop-qora namli ko‘zlarini Grigoriyga tikardi. Uyalganidan, sevinganidan yuzlari lovillar, lablari qaqrardi. Entikib, kalta-kalta nafas olardi.

Anikushka bilan Petroning chanalari sarg‘aygan eman butalari yonidan o‘tib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Grigoriy ro‘y-rost tikilib Aksinyaning ko‘zlariga qaradi, Aksinyaning ko‘zlari o‘ynar, o‘tdek chaqnar edi.

– Grisha, nima qilsang qil, lekin men sensiz yashay olmayman, – dedi u qat’iy qilib va lablarini qimtib, javob kutdi.

Grigoriy indamay turar edi. O‘rmonni sukunat bosgan, jimjitlikdan quloqlar shang‘illar edi. Chana izlari tushib qolgan silliq yo‘l, eski bo‘z to‘niga burkangan osmon, sukut ichidagi o‘rmon – hamma yoq uyqu og‘ushida. Og‘ir xayolga cho‘mgan Grigoriy yaqinorada birdan qag‘illab yuborgan quzg‘un tovushidan darhol o‘ziga

keldi. Boshini ko'tarib qaradi: qorayib ko'ringan quzg'un oyoqlarini juftlab olgan, xayrlashayotganday qanotlarini qoqib uchib ketayotgan edi.

Grigoriy beixtiyor, o'zidan o'zi:

– Kun ilir ekan. Issiq tomonga uchib ketdi... – deb qo'ydi, so'ngra seskanib ketib, piqirlab kuldi... – Xo'sh... – Qonga to'lgan o'g'ri ko'zlarini alanglatib, Aksinyaga ko'z yugurtirdi-da, uni shartta pinjiga olib, bag'riga bosdi.

## IX

G'ilay Lukeshkaning uyida ijarada o'tirgan Shtokmanning xonasiga kechqurunlari har toifa odam to'planardi: moyga belangan pidjagini yelkasiga tashlab, tegirmondan Valet, uch oydan beri bekor yurgan tili zahar Davidka, mashinist Ivan Alekseyevich Kotlyarov, Xristonya kelishardi; onda-sonda Filka yamoqchi ham kelib turardi; hali askarlik xizmatini ko'rmagan yosh kazak Mishka Koshevoy har kuni shu yerda edi.

Dastlab bular besh ko'tarar o'ynashar edi, bir kuni Shtokman Nekrasovning kitobchasini sekingina chiqarib qo'ydi. Bittasi ovozini chiqarib o'qiy boshladi – kitob yoqib qoldi. Nekrasovdan Nikitinga o'tishdi; Rojdestvo bayrami yaqinlashganda Shtokman muqovalanmagan, titilib ketgan bir daftarni o'qib chiqishni taklif etdi. Bir zamonlar cherkov maktabini tomomlagan savodxon Koshevoy yog'i chiqib ketgan daftarni nazarga ilmay:

– Buni kesib ugra qilsa bo'ladi. Judayam yog'liq ekan, – dedi.

Xristonya qiqirlab kuldi, Davidka oppoq tishlarini ko'rsatib iljaydi, lekin Shtokman kulgi to'xtaguncha kutib turdi.

– O'qib ko'r-chi, Misha. Bu – kazaklar to'g'risida yozilgan. Qiziq narsa.

Koshevoy, malla sochlarini stol ustiga osiltirib, dona-dona qilib sarlavhasini o'qidi:

– «Don kazaklarining qisqacha tarixi». – U ko'zlarini qisib, hammaga savol nazari bilan qaradi.

– O'qi, – dedi Ivan Alekseyevich.

Uch kecha qunt qilib o‘qishdi. Pugachyov to‘g‘risida, erkin hayot to‘g‘risida, Stepan Razin hamda Kondratiy Bulavin to‘g‘risida yozilgan edi.

So‘nggi davrlarga yetishdi. Noma’lum yozuvchi kazaklarning muhtojlik ichida o‘tayotgan hayotini sodda til bilan kinoyaomuz tasvirlagan, usuli idora va tartiblarni, podsho hokimiyatini hamda podshoga posbon bo‘lib yollangan kazaklarni qattiq masxara qilgan edi. Hammalari hayajonlandi. Munozara boshlandi. Xristonya boshini shipga osilgan bordonga tirab vag‘illar edi. Shtokman eshik oldida, halqali suyak mundshtugini tutatib o‘tirar, yolg‘iz ko‘zlarigina kulardi, xolos.

– To‘g‘ri! Haq gap! – deb do‘rillardi Xristonya.

– Kazaklar gunohkor emas, ularni shunday sharmandagarchilikka solganlar. – Koshevoy hayratga tushib, qo‘llarini kerib qo‘yar, chiroyli yuzini bujmaytirardi.

Koshevoy to‘lagina, yelkalari keng, sonlari yo‘g‘on chorpaxil yigit edi; cho‘yanday kiftlariga qip-qizil yo‘g‘on bo‘yni yarashgan edi, lekin kichkina boshi, xotinlarnikiga o‘xshagan jiloli betlari, qimtinib turgan kichkina og‘zi, hurpaygan jingalak oltin sochlari ostidagi qora ko‘zlari, qanday qilib, shu gavdasiga yarashganiga kishi hayron bo‘lardi. Suyagi buzuq kazak – novcha mashinist Ivan Alekseyevich qattiq tortishardi. Kazaklik an’analari uning suyaksuyaklarigacha singib ketgan. U bodragan ko‘zlarini chaqnatib, Xristonya bilan g‘ijillashar, kazaklar tomonini olar edi.

– Sen mujiklashib ketibsan, Xristan, tortishib o‘tirma... Senda kazaklik qonidan bir chelakka bir tomchi yo topiladi, yo yo‘q. Onang seni voronejlik tuxumfurushdan orttirgan.

– Senda es degan narsa yo‘q!.. Qip-qizil ahmoqsan, birodar, – deb g‘o‘ng‘illardi Xristonya. – Men haqiqat uchun jon kuydiraman.

– Men ataman polkida xizmat qilgan emasman, ahmoqning koni o‘sha polk ekan... – deb achitardi Ivan Alekseyevich, Xristonyaning ataman polkida xizmat qilganiga shama qilib.

– Armiyada ham goho shunday bemaza odamlar bo‘ladiki, ko‘rsang ko‘ngling aynaydi, – dedi Xristonya.

– Ovozingni o‘chir, mujik!

– Ha, nima, mujik odam emasmi?

– Mujik nima bo‘lardi: po‘stlog‘idan yasalgan, novda bilan to‘nalgan bir maxluq-da.

– Men, birodar, Peterburgda xizmat qilganimda har toifa odamni ko‘rganman. Bir kuni shunday bir hodisa bo‘ldi: podsho saroyida soqchilik qilib, haramni sirt tomondan qo‘riqlamoqda edik. Sirtqi devor ustida ikki otliq u yoqqa, ikkitasi bu yoqqa qarab yurib turardi. Orqaga qaytib bir-birlariga ro‘para kelganlarida «Hamma yoq tinchmi? Hech qanday isyon yo‘qmi?» – deb so‘rashardi. «Yo‘q, tinchlik», – deyishardi-yu, yana ikki yoqqa qarab ketaverishardi, to‘xtab gapirishishga yo‘l qo‘yilmas edi. Soqchilarning tusi, aft-angori bir-biriga mos bo‘lishi shart edi: eshikka ikki posbon qo‘yiladigan bo‘lsa, bir-biriga o‘xshash ikki odamni qidirishardi. Qora bo‘lsa – ikkisi ham qora – oq bo‘lsa ikkisi ham oq bo‘lishi shart edi. Sochlarigina emas, hatto turqi ham bir-biriga mos kelsin, deyishardi. Mana shu bemazagarchilik tufayli bir kuni sartarosh mening soqol-u mo‘ylovimni bo‘yagan edi. Tepikinskaya stanitsalik Nikifor Meshcheryakov degan bir kazakka juft bo‘lib, posbon tursam bo‘ladimi? Qurgur qo‘ng‘irsoch ekan. Ikki chakkasini xuddi olov yalab ketganga o‘xshaydi. Qidirishibdi, qidirishibdi, bunaqa rangli odamni sira topisha olmabdi; noiloj, yuzboshimiz Barkin menga: «Sartaroshga bor, darhol soqol-u mo‘ylovingni chiroyli qilib bo‘yasin», – deb qoldi. Bordim, bo‘yab qo‘yishdi... Bunday oynaga qarasam – yuragim yorilayozdi: yonyapman! Qip-qizil olov ichida! Soqolimni tutamlasam – kaftim kuyadi. Ana ahvol!..

– Aravani quruq olib qochaver, azamat! Gapni nimadan boshlab eding, axir! – Ivan Alekseyevich uning so‘zini bo‘ldi.

– Xalq to‘g‘risida gap ochgan edim.

– Shu to‘g‘rida gapirgin-da, axir. Bayadan beri soqolingni gapirasan, xolos, soqolingni biz boshimizga uramizmi?

– Menam shuni aytyapman-da: bir kuni otliq qorovul turishga navbat keldi. Sherigim bilan ot minib ketayotgan edik, muyulishdan studentlar chiqib qolsa bo‘ladimi! Son-sanog‘i yo‘q! Bizni ko‘rishi bilan «Ha-ha-aaaa!» deb ustma-ust qichqirishdi. Es-hushimizni yig‘ishtirib olgunimizcha, bizni o‘rab olishdi. «Xo‘sh, ka-

zaklar, nima uchun aylanib yuribsiz?» deyishdi. Men: «Soqchilik qilib yuribmiz, otning jilovini ushlama, yaxshilikcha qo'yvor?» deb qilichga yopishdim. U bo'lsa: «Hoy kazak, men o'zim Kamenskaya stanitsasida tug'ilganman, mendan xavotir bo'lma, bu yerda men niversi... nivorsetutdami allaqaysi go'rda, o'qiyappan», – deydi. Biz o'z yo'limizda ketaverdik, burni kattasi hamyonidan o'n so'mlik qog'ozni chiqarib: «Mana buni olib, rahmatli dadamning sog'ligiga ichinglar», deydi. Pulni bizga berib, sumkasidan bitta surat oldi-da: «Mana, bu dadamning rasmlari, eslab yurarsiz», deb bizga uzatdi. Uni ham oldik, olmasak uyat bo'ladi. Talabalar nariroq borib yana: «Haaaa!» deb baqirishdi va o'shanaqasiga Nevskiy prospektiga qarab ketishdi chog'i. Saroyning orqa darvozasidan yuzboshi bir vzvod odam bilan ot choptirib chiqdi. To'g'ri bizning oldimizga keldi: «Nima gap bo'ldi?» deydi. Men: «Studentlar bizni o'rab olib, gapga solishgan edi, biz ustavga muvofiq endi qilich solamiz deganimizda, ular bizni qo'yvorishgan edi, biz ham o'z yo'limizda ketaverdik», dedim. Navbatchilikni almashtirdik; shundan keyin biz vaxmistrga: «Mana, Lukin, o'n so'lkavoy o'lja pul topdik, shu pulni manavi boboning arvohini xushnud qilish uchun ichmog'imiz kerak», dedik va suratni unga ko'rsatdik. Kechqurun vaxmistr spirtli ichimlik olib keldi, ikki sutkagacha rosa kayf-u safo qildik, lekin pirovardida ishning pachavasi chiqdi: haligi palakat student, dadamniki deb, nemislar yurtidagi eng katta qo'zg'olonchining suratini bizga berib ketgan ekan. Men uni va'daga muvofiq xotira uchun karavotimning tepasiga osib qo'ygan edim, soqoli oppoq, savdogarlarga o'xshash nuroniy bir odam, lekin yuzboshi darrov tanib: «Bu suratni qayoqdan olding, falon-u pismadon?» deb surishtirib qoldi. – «Voqea shunday, shunday», – dedim. So'kinib yuzimga shapaloq bilan tortvordi, yana bir marta tushirib qoldi... «Bilasanmi, – deb baqirdi u, – bu axir anavilarning atamani Karla...» hah, familiyasini unutibman... haligi... nimayam edi, esim qursin-ey...

– Karl Marksmi? – deb luqma soldi kulgisini to'xtata olmay Shtokman.

– Ha, ha!.. Xuddi o'sha, Karla Marks... – deb suyunib ketdi Xristonya, – Sal qolsa, badarg'a bo'luvdim-a... Ba'zan bizning

qorovulxonamizga shahzoda Aleksey o‘z murabbiylari bilan kirib turar edi. Ko‘rib qolsa nima qilardik?

– Sen bo‘lsang, tag‘in mujiklarni maqtaganing maqtagan. Ko‘rdingmi, ular seni boplab ketishibdi-ku, – deb kulardi Ivan Alekseyevich.

– Lekin o‘n so‘mni ichganimiz qoldi. Sersoqol Karlaning sog‘ligi uchun ichdikmi – ishqilib, ichib oldik-ku.

– Karl Marks uchun ichsang arziydi, – deb kulimsiradi Shtokman suyak mundshtugining halqasini chertib.

– Biron yaxshi ish qilganmi o‘zi? – deb so‘radi Koshevoy.

– Buni kelasi gal so‘zlab beraman, hozir vaqt ketdi. – Shtokman kafti bilan mundshtukni qoqib, so‘ngan tamaki qoldig‘ini chiqara boshladi.

Lukeshka-g‘ilayning uyiga to‘planadigan kazaklardan saralanib-saralanib o‘ntachasi qoldi; jo‘ra boshi bo‘lgan Shtokman, ularni yolg‘iz o‘ziga ayon bo‘lgan bir maqsad tomon yetaklar edi. Qurt yog‘ochni kemirganday, u ham teskari tushuncha va odatlarni qoralab, usuli-idoraga qarshi nafrat uyg‘otardi. Boshda qattiq ishonchsizlikka duch kelsa ham, lekin u aslo chekinmadi, tap tortmay, maqsad sari boraverdi...

## X

Vyoshenskaya stanitsasi Donning ustida, chap qirg‘oq yonbag‘ridagi qumloq joyga o‘rnashgan. U Don yuqorisidagi stanitsalarning eng ko‘hnasi: Pyotr I zamonida vayron qilingan Chigonaki stanitsasining aholisi shu yerga ko‘chirib keltirilgan va unga Vyoshenskaya deb nom berilgan edi. Bu yer – bir vaqtlar Voronej bilan Azov orasida suv yo‘li ustidagi bekat bo‘lgan.

Don shu stanitsa oldidan kamon singari bukilib o‘tadi va o‘ng tomonga burilayotganday bo‘lib ko‘rinadi-yu, Bazki qishlog‘ining ro‘parasida azim daryo yana qaddini rostlab oladi-da, o‘ng qirg‘oqdagi bo‘r tog‘larining etagidan, o‘ng yoqdagi sidirg‘asiga ketgan qishloqlar yonidan, chap tomonda onda-sonda uchraydigan stanitsalar yonidan o‘tib, zilolday tiniq suvlarini oqib borib ko‘m-ko‘k Azov dengiziga quyadi.

Ust-Xoperskayaning ro‘parasiga borganda Don Xoper irmog‘i bilan qo‘shiladi, Ust-Medveditskayada – Medveditsa soyini bag‘riga oladi-da, to‘lib-toshib, gullab-yashnagan qator-qator qishloqlar, stanitsalar yonidan oqib o‘tadi.

Vyoshenskaya sariq qum tepalar ustiga joylashgan. Na bog‘i bor, na rog‘i, qup-quruq xunuk stanitsa. Maydonning o‘rtasida rangi oqarib ketgan ko‘hna bir cherkov qaqqayib turadi. Stanitsaning Don bo‘ylab uzunasiga cho‘zilgan oltita ko‘chasi bor. Don daryosi stanitsani aylanib o‘tib, Bazki tomonga burilgan joyida terakzor ichiga kirib ketgan qo‘ltuq bor, uning eni – kamsuv mahaldagi Donning eniga teng keladi.

Ko‘lning etagiga yetar-yetmas, stanitsa ham tamom bo‘ladi. Chaqirtikanak bosib ketgan kichkina maydonchada ikkinchi cherkov bor, uning yashil gumbazi, ko‘m-ko‘k tomlari ko‘lning narigi betidagi ko‘k teraklarning rangiga juda mos tushgan.

Stanitsaning shimol tomonida sap-sariq qum tepalar uyilib yotadi, nimjon qarag‘aylarni, chakalakzorlarni qizil tuproqdan chiqqan qizg‘ish rang suv bosib ketgan. Etagi olislargacha cho‘zilgan qum tepalar orasida onda-sonda qishloqlar, chorbog‘lar, yo sarg‘aygan tolzorlar uchraydi, xolos.

Dekabr oyi, yakshanba kuni eski cherkov ro‘parasidagi maydonda stanitsaga qarashli barcha qishloqlardan kelgan kazak yigitlaridan yarim mingtachasi to‘plangan. Cherkovda tushki ibodat tugagandan so‘ng zang chalindi. Sersavlat keksa ofitser: «Safga!» deb komanda berdi; uning yengiga muddatidan ortiq xizmatda ekanligini ko‘rsatuvchi belgilar taqilgan edi. Chuvullashgan olomon harakatga keldi, ikki qator bo‘lib, egri-bugri saf tortdi. Uryadnik (chor armiyasida: kazak unter-ofitseri)lar qator oralaridan yugurishib, ilon izi singari qiyshaygan safni to‘g‘rilay boshladilar.

– Ryadi-i-i! – deb baqirdi uryadnik, qo‘lini qimirlatib. – Vzvod-voy!

Egniga harbiy forma, yap-yangi ofitsercha shinel kiygan ataman shporlarini jingirlatib, panjara devor ichkarisiga kirdi; harbiy pristav uning ketidan ergashdi.

Grigoriy Melexov bilan Mitka Korshunov safda yonma-yon turib shivirlashardi.

– Oyog‘imni etik qisyaptiki, hech sabr-toqatim qolmadi, – deb nolirdi Mitka.

– Sabr qilsang, g‘o‘radin halvo bitar.

– Hozir yuramiz, chog‘i.

Ofitser, xuddi Mitkaning gapini quvvatlagandek, tislanib turib, poshnasida burildi.

– Napra-a-vo!

Besh yuz juft etik bab-baravar «gup-gup» etib o‘ngga burildi.

– Levoye plecho vperyod, sha-gom-arsh!

Kolonna cherkov panjara devorining darvozasidan kira boshladi. Boshdan olingan papaxlar lipillab ko‘rinar, tapir-tupir oyoq tovushlari cherkov gumbazigacha ko‘tarilardi.

Grigoriy pop o‘qib eshittirayotgan qasamyod so‘zlariga quloq solmay bemalol turar, Mitkaning yuziga tikilardi; u bo‘lsa, oyog‘ining og‘rig‘iga chidamay ijirg‘anar, tipirchilardi, xolos. Grigoriyning qasamyod uchun ko‘tarilgan qo‘li tolgan, miyasi poyma-poy xayollar bilan band edi. Hamma labini tegizaverib, so‘lak bosgan kumush butni o‘payotganda Aksinya to‘g‘risida, xotini to‘g‘risida o‘ylar edi. Xotiralar chaqmoq singari yalt-yult qilib miyasidan o‘tar: o‘rmon, jimjimador kumush libos kiygan oppoq daraxtlar xayolidan ketmas; tivit ro‘mol o‘ragan Aksinyaning mo‘ltiragan qop-qora jonso‘z ko‘zlari ko‘z oldida turardi.

Yigitlar maydonga chiqib, qaytadan saf tortdilar. Uryadnik burnini qoqdi va qo‘lini astagina mundir astariga surtib, nutq so‘zladi:

– Endi siz o‘spirin emas, kazak bo‘ldingiz. Qasam ichgandan keyin o‘ylab qadam bosadigan bo‘lishingiz lozim. Endi siz kazaklik nomiga muyassar bo‘ldingiz, shuning uchun sha’ningizga dog‘ tushirmang, ota-onalaringizning gapidan chiqmang va hokazo. Shu damgacha bola edingiz – jinnilikdan qo‘lingiz bo‘shamasdi, ko‘cha changitib, tayoq o‘ynab yurar edingiz, endilikda kelasi xizmat to‘g‘risida bunday o‘ylab qo‘yish lozim. Bir yildan keyin hammangiz askarlik xizmatiga chaqirilasiz, – gap shu yerga yetganda uryadnik burnini qoqdi va qo‘lini silkitib, quyon momig‘idan to‘qilgan mayin qo‘lqopini kiya boshladi. – Endilikda ota-onalaringiz sizga kerakli narsalarning tadorigini qilsin. Ot va boshqa anjomlarni taxt

qilib qo‘yishsin... Endilikda sizlarni xudoga topshirdim, azamatlar, uy-uyga! – deb u gapini tamomladi.

Grigoriy bilan Mitka ko‘prik oldida hamqishloq yigitlarni kutib turishdi, ular to‘plangach, birgalashib yo‘lga chiqishdi, daryo bo‘yi bilan ketishdi. Bazki qishlog‘i ustida mo‘rilardan chiqqan tutun suzib yurar, cherkov qo‘ng‘iroqlarining jangir-jungur sadosi eshitilardi. Mitka yo‘lda sindirib olgan g‘adir-budur tayoqqa suyanib, hammaning keyinida, oqsoqlanib kelardi.

– Etigingni yechib tashla, – dedi yigitlardan biri.

– Oyog‘imni sovuq oladi, – dedi Mitka to‘xtalib. U ikkilanib qolgan edi.

– Paypog‘ing bilan yuraverasan.

Mitka qorga o‘tirdi-da, zo‘r-bazo‘r etigini yechdi. Etik qisgan oyog‘ini avaylab bosib yura boshladi. Qalin to‘qilgan jun paypoq izlari qor ustiga tushib qolar edi.

– Qaysi yo‘ldan yuramiz? – deb so‘radi pakana bo‘yli, girdig‘umdan kelgan Aleksey Beshnyak.

– Don yoqalab, – dedi Grigoriy hammaning ko‘nglidagini topib.

Hamqishloqlar gurunglashib, bir-birlarini turtkilashib borar edilar.

O‘zaro kelishib, navbati bilan bir yigitni qorga bosishar, uning ustiga bir-birlarini «tog‘ora» qilishardi. Bazki bilan Gromovskiy qishloqlari orasida Mitka Dondan o‘tib ketayotgan bo‘rini ko‘rib qoldi.

– Bolalar, qashqir, huv ana!.. Hay-yu!..

– Hay-yu, Hay-yu-yu-uv!..

– Attang!..

Bo‘ri hafsalasi kelmagandek bir necha sarjin joygacha lo‘killab bordi-da, narigi qirg‘oqqa yaqinlashganda, yonini berib to‘xtadi.

– Ushla!..

– Hay-yu!..

– Voy, haromi!..

– Mitriy, paypoq kiyib kelayotganingga hayron bo‘lib, seni tomosha qilyapti.

– Uni qara, yonboshi bilan turibdi, sirtmoq soldira qolmas.

– Tutqich berib bo‘pti.

– Turishini qara, ket!

Marmar toshdan yo‘nib yasalgandek ko‘k qashqir dumini xoda qilib turib olgan edi. Keyin bir sakrab chetga chiqdi-da, daryo bo‘yidagi tolzor ichiga kirib ketdi.

Yigitlar qishloqqa yetganda qosh qoraygan edi. Grigoriy muz ustidan yurib borib, o‘z ko‘chasiga kirdi, qiyalikdan chiqib, darvozasi oldiga keldi. Hovlida yotgan chanaga ko‘zi tushdi, chetan oldiga uyib qo‘yilgan shoxlar orasida chumchuqlar chirqillashardi. Issiq uy bag‘riga tortar, achchiq qorakuya va molxonaning hidi dimoqqa urilardi.

Grigoriy zinapoyadan chiqib kelayotib, derazadan ichkariga qaradi. Osma chiroq sarg‘ish nur sochib, oshxonani yoritar, Petro derazaga orqasini o‘girib tik turar edi. Grigoriy etigini supurgi bilan tozaladi-da, bug‘ bosgan oshxonaga kirdi.

– Ana, biz ham keldik. Qalay, tinch-omon o‘tiribsizmi?

– Tez qaytding. Sovqotgandirsan? – deb so‘radi shoshib-pishib Petro.

Panteley Prokofyevich ikki tirsagini tizzasiga qo‘yib, boshini quyi solib o‘tirgan edi. Darya oyog‘i bilan g‘ijillatib charxni aylantirardi. Stol yonida orqasini o‘girib turgan Natalya burilib ham qaramadi. Grigoriy oshxonani boshdan oyoq ko‘zdan kechirib chiqdi-da, Petroga tikilib qoldi. Akasining yuzidagi sarosimalikni ko‘rib, uyda bir gap bo‘lganligini tushundi.

– Qasam ichdingmi?

– Ha!

Grigoriy atayin imillab, shoshmasdan yechinar, bular meni nega indamay, sovuqqina qarshi olishdi ekan, deb bosh qotirar edi.

Narigi xonadan Ilinichna chiqib keldi, uning yuzida ham sarosimalik alomati ko‘rinardi.

Grigoriy otasi yoniga o‘tirayotib: «Natalya tufayli bo‘lsa kerak» deb o‘yladi.

Ilinichna Daryaga:

– Ovqatini keltirib ber, – dedi ko‘zi bilan Grigoriyni ko‘rsatib.

Darya charx aylantirishni to‘xtatdi-da, kiftlarini qoqib, qizlarnikidek nozik belini biltanglatib, pech yoniga bordi. Oshxona suv

quygandek jim-jit edi. Pech yonida, yaqinda tuqqan echki ulog'i bilan isinib, pishillab yotardi.

Grigoriy karam sho'rvani ichayotib, ora-sira Natalyaga qarab qo'yar, biroq uning yuzini ko'rolmasdi: xotini unga teskari o'tirib engashib paypoq to'qimoqda edi. Churq etmay o'tiraverishdan zerikkan Panteley Prokofyevich sukunatni buzdi, u xirillab yo'taldi, so'ngra yasama ovoz bilan:

– Natalya ketmoqchi bo'lyapti, – dedi.

Grigoriy non ushoqlarni yig'ishtirar, churq etmasdi.

– Nima sababdan? – deb so'radi otasi; uning quyi labi qaltiray boshladi (bu – g'azablanayotganining alomati edi).

– Sababini bilmadim, – dedi Grigoriy ko'zlarini qisib, so'ngra kosani nariroq surib qo'ydi-da, cho'qinib o'rnidan turdi.

Chol shang'illab:

– Sababini men bilaman!.. – dedi.

– Shovqinlamang, sekinroq, – deb gapga aralashdi Ilinichna.

– Men sababini yaxshi bilaman!

– Sekinroq, shovqin ko'tarishning hojati yo'q, – dedi Petro deraza oldidan uyning o'rtasiga kelib. – Ixtiyor o'zida: istasa tursin, istamasa – katta ko'cha!

– Natalyada ayb yo'q. Xudodan qo'rqish, bandadan uyalish kerak, axir, Natalya gunohkor emas, unda ayb yo'q, hamma kasofat manavi itvachchada!.. – Panteley Prokofyevich pechga suyanib turgan Grigoriyni nuqib ko'rsatdi.

– Nima gunoh qilibman?

– Qilg'ilikni qilib qo'yib, endi bilmaysanmi?.. Bilmaysanmi, ablah?..

– Bilmayman.

Panteley Prokofyevich irg'ib o'rnidan turdi, kursini ag'darib yubordi, Grigoriyning ustiga bostirib kelaverdi. Natalya to'qiyotgan paypog'ini qo'lidan tushirib yubordi, temir ilmoq yerga tushib, jaranglab ketdi; pech ustida yotgan mushuk bola «do'p» etgan ovozni eshitib, sakrab yerga tushdi-da, boshini qayirib, oyog'i bilan koptok ipni turtib, sandiq tomon dumalatib olib ketdi.

– Senga shuni aytib qo'yayki, – chol o'zini bosib, dona-dona qilib gapira boshladi: – Natalya bilan turging kelmasa, uyimizni

bo‘shatib qo‘y, boshing oqqan tomonga ketaver! Gap shu! To‘rt tomoning ochiq! Gap shu! – deb takrorladi odatdagicha ohista gapirib; so‘ngra yiqilgan kursini turg‘izib qo‘ydi.

Dunyashka cho‘chigan ko‘zlarini javdiratib karavotda o‘tirardi.

– Men ham gapiray, dada, lekin jahlingiz chiqmasin, – Grigoriyning ovozi qaltirab ketdi, – o‘zim uylanmadim, meni siz uylantirdingiz. Natalyaga zormanda emasman. Istamasa – mayli, otasinikiga ketsin!

– Sen ham bu yerdan ket!

– Ketaman.

– Ket deyman, qorang o‘chkur!..

– Ketaman, ko‘p shoshirmang, ketaman! – Grigoriy karavot ustiga yechgan kalta po‘stinining yengidan tortar, burun kataklarini kerar, xuddi otasi singari g‘azabiga chidolmay titrab turardi.

Ikkisining ham tomirlaridagi qoni junbushga kelgan, ikkisi ham shu topda bir-biriga juda o‘xshar edi.

Ilinichna Grigoriyning qo‘liga yopishib:

– Qayoqqa bora-sa-an? – deb faryod ko‘tardi, biroq Grigoriy onasini itarib yubordi-da, karavotdan tushib ketgan papaxini lochinday ilib oldi.

– Qo‘yaver, ketsin, daydi ko‘ppak! Oq qildim! Ket, yo‘qol ko‘zimdan!.. – deb baqirdi chol eshikni lang ochib qo‘yib.

Grigoriy yulqinib dahlizga chiqdi va so‘nggi damda Natalyaning chirqirab yig‘laganini eshitdi.

Qishloqni qahraton qish kechasi o‘z quchog‘iga olgan edi. Qovog‘i soliq osmondan ignasimon qirov yog‘ardi, Donda, to‘p singari gumburlab muz yorilardi. Grigoriy halloslaganicha darvozadan chiqdi. Qishloqning u burchida itlar akillashar, zim-ziyo, tumanli qorong‘ilik orasidan sarg‘ish chiroq nurlari miltillab ko‘rinardi.

Grigoriy, qayga borishini bilmasa ham, ko‘cha bo‘ylab ketaverdi. Stepanning deraza oynalari qorong‘ida olmosday yaltirab turardi.

– Grisha! – degan faryod eshitildi darvoza tomonda. Bu – Natalya edi.

«Ovozing o‘chsin, soxting qursin!..» – deb tishlarini g‘ijirlatdi Grigoriy qadamini tezlatib.

– Grisha, qayt!

Grigoriy gandiraklab, birinchi duch kelgan tor ko'chaga burildi. Natalyaning faryodi olisdan so'nggi marta qulog'iga chalindi:

– Grishajon, jigarporam!..

Grigoriy maydonni kesib o'tdi, chorrahada to'xtaldi va kechasi qayerda tunasam ekan, deb o'ylab, hamma o'rtoqlarini birma-bir xayolidan o'tkazdi.

Nihoyat, Mixail Koshevoynikiga borishga qaror qildi. U eng chetda, tog' etagida turardi; onasi, Mixailning o'zi, bo'yi yetgan singlisi va ikki ukasi – ularning oilasi shulardan iborat edi. Mixailning hovlisiga kirdi, loysuvoq uyning bir parcha oynasini tiqirlatdi.

– Kim u?

– Mixail uydami?

– Uyda. O'zing kimsan?

– Menman, Grigoriy Melexovman.

Birpasdan keyin, shirin uyqusi buzilgan Mixail eshikni ochdi.

– Grishamisan?

– Ha.

– Kechasi nima qilib yuribsan?

– Uyga kiraylik, keyin gaplashamiz.

Grigoriy dahlizda Mixailning tirsagidan ushlab to'xtatdi; og'ziga tuzukroq bir gap kelmagani uchun o'zidan o'zi xunob bo'lib:

– Men senikida tunamoqchiman... Uydagilar bilan urushib chiqdim, – deb shivirladi. – Joy topiladimi, uying torlik qilmasmikan? Ha, bir burchakka joylasharman.

– Joy bemalol, kiraver. Nega g'ijillashib qolding?

– Ey, birodar... keyin aytib beraman. Eshiging qayerda? Topolmayapman.

Grigoriyning o'rnini taxta ustiga solib berishdi. Grigoriy uxlagani yotdi, qizi bilan bir karavotda yotgan onaning shivir-shivirini eshitmaslik uchun, boshini po'stinga burkab oldi.

«Hozir uyda nima gap bo'layotgan ekan? Natashka ketarmikan, ketmasmikan? Xullas, turmushim yangi izga tushadigan bo'ldi. Boshimni olib, qayerga borsam ekan?» Javobi ham labbay deb kela

qoldi: «Ertaga Aksinyani chaqiraman, ikkimiz Kubanga jo'naymiz, uzoq... juda uzoq yerga jo'naymiz...»

Grigoriyning yumilgan ko'zlari oldidan, umrida ko'rmagan, qalbiga yot, g'alati-g'alati tepaliklar, qishloqlar, stanitsalar o'ta boshladi. Qirlar ortida, bo'z yo'lning narigi chekkasida ertaklardagi ajoyib o'lkani ko'radi, Aksinya bilan qovushadi, uning kechikib gullagan jo'shqin muhabbatiga erishadi.

Grigoriy oqibat nima bo'lishini bilmay, notinch xayollar ichida uyquga ketdi. Ko'zi yumular chog'da yuragini g'ash qilgan, miyasiga mixday qadalgan noaniq fikrning nimaligini bilmoqchi bo'lib ko'p qiynaldi. Uyqu eltar ekan, uni oqimga qarab suzgan qayiqday silliq va bir tekis xayol surib ketar, goh allanimaga turtinib, birdaniga to'xtab qolganday bo'lardi; dili g'ash, ko'ngli bezovtalanardi, bir yonboshiga, bir bu yonboshiga ag'darilar va: «Bu nima ekan? Yo'limni to'sgan narsa nima ekan?» deb xunob bo'lar edi.

Ertalab uyg'ongan zahotiyoq buning nimaligini topdi: «Askarlik xizmati! Aksyusha bilan qayerga ham bora olamiz? Bahorda – lager, kuzda – askarlik xizmati... Hamma illat shunda!»

Nonushtadan keyin Mixailni dahlizga chaqirdi.

– Misha, Astaxovning uyiga borib, Aksinyaga ayt: qosh qoraygan zahoti shamol tegirmon yoniga kelsin.

– Stepan uyda bo'lsa-chi? – dedi Mixail dudmollanib.

– Biron ishni bahona qilib borasan-da.

– Mayli, boraman.

– Bor. Albatta, kelarmishsan degin.

– Xo'p.

Kechqurun Grigoriy shamol tegirmon yonida yeng ichida tamaki chekib o'tirar edi. Tegirmon orqasidagi quruq jo'xoripoyalar orasida shamol guvullardi. Qaqqaygan tegirmon qanotiga ilingan bir parcha latta hadeb lopillar edi. Grigoriyning nazarida, xuddi katta bir qush uchib ketolmay tepasida aylanib yurganday tuyulardi. Aksinyadan darak yo'q. G'arbda ufq qizarib nuri ketgan zar singari yiltillar, sharqdan esgan shamol borgan sari kuchayib borar, tolzor ichida qotib qolgan oyni qora bulut bosib kelmoqda. Ko'karib, o'zgarib ketgan osmon tegirmon ustini burkab olgan, qishloq tomonda sertashvish kunning so'nggi g'ovur-g'uvuri eshitiladi.

Grigoriy ketma-ket uch marta chekdi, papiros qoldig'ini qorga sanchib qo'ydi-da, xunob bo'lib atrofga qaradi. Qishloq bilan tegirmon o'rtasidagi yolg'izoyoq yo'l qorayib ko'rinardi. Qishloq tomonda hech kim ko'rinmadi. Grigoriy o'rnidan turdi, kiftlarini qisirlatib kerishib oldi-da, Mixailning derazasida miltillab ko'ringan chiroq tomon yurdi. Asta-sekin hushtak chalib kelayotgan Grigoriy Mixailning hovlisiga yetay deganda Aksinya ro'parasidan chiqdi. Chopib kelganidanmi, yo esa, hovliqqanidanmi, xarsillar, muzdek labidan shamol yoki dashtdagi yangi o'rilgan pichan hidi kelardi.

– Rosa kutdim, kelishingdan umid uzgan edim.

– Stepanni uydan jo'natguncha o'lib bo'ldim.

– Meni sovuqda qotirmoqchi ekansan-da, dog'uli!

– Bag'rim qaynoqqina, o'zim isitib qo'yaman. – Aksinya pocha po'stinining barlarini ochib, Grigoriyni chirmovuqday o'rab oldi. – Nega chaqirding?

– Shoshma, qo'lingni ol... odamlar yuribdi.

– Uydagilar bilan urishdingmi deyman?

– Uyimni tashlab ketdim. Bir sutkadan beri Mishanikidaman... Adashgan itday yuribman.

– Bu yog'i nima bo'ladi? – Aksinya Grigoriyni quchoqlagan qo'llarini qo'yib yubordi, sovqotib, po'stiniga o'ralib oldi. – Grisha, yur, chetan tagiga boraylik. Yo'lning qoq o'rtasida nima qilib turibmiz?

Ular chetga o'tishdi. Grigoriy uyilib qolgan qordan kechib, muzlab qotib qolgan chetanga suyandi.

– Bilmadingmi, Natalya otasinikiga ketdimikan?

– Bilmadim... Ketsa kerak. Hammani qo'yib, endi bu yerda tura olarmidi?

Grigoriy Aksinyaning sovqotgan qo'lini o'z yengi ichiga oldi; barmoqlari bilan nozik bilagini qisib:

– Endi nima qilamiz? – deb so'radi.

– Men bilmayman, jonginam. Sen nima desang, men roziman.

– Stepandan kechasanmi?

– Kechish ham gapmi? Hozir tashla desang, hozir tayyorman.

– Ikkimiz bir amallab tirikchilik qilarmiz.

– Molxonada ishlashdan ham qochmayman, Grisha... Menga sen bo‘lsang bas.

Ular bir-birining pinjida isinib olishdi. Grigoriyning ketgisi kelmas, yuzini shamolga o‘girib, burnini chimirib turar, yumuq ko‘zlarini ko‘tarib qaramas edi. Aksinya uning pinjiga boshini tiqib o‘ziga tanish mast qiluvchi ter hidini iskab xumordan chiqardi, uning suqatoy lablari orzusiga yetgani uchun titrab jilmayib turganini Grigoriy payqamas edi.

– Ertaga Moxovga uchrashib ko‘raman, balki ishga olar, – dedi Grigoriy kafti orasida terlagan Aksinyaning bilagini yuqoriroqdan tutib.

Aksinya indamadi. Boshini ko‘tarmadi. Lablaridan haligi sevinch va tabassumni shamol yalab ketgan, g‘amnok bo‘ta ko‘zlarini vahima bosgan edi. «Aytsammikan yoki aytmaganim tuzukmi?» – deb o‘ylar edi Aksinya, og‘iroyoq ekanini eslab. «Aytish kerak», – degan qarorga keldi-yu, lekin o‘sha zahotiyoq seskanib tushib, bu dahshatli fikrni o‘zidan haydadi. Yolg‘iz xotinlarga xos sezgirlik bilan, hozir bu gapni aytadigan vaqt emasligini, aytsa, Grigoriydan umrbod ajrab qolishi mumkinligini payqadi, yuragi ostida tipirchilagan bolaning qaysi biridan bo‘lganiga shubhasi borligi uchun ham aytmay qo‘ya qoldi.

– Nega seskanding? Sovqotdingmi? – deb so‘radi Grigoriy uni po‘stinga o‘rab.

– Ha, bir oz sovqotdim... Endi ketay, Grisha. Stepan kelib qolsa, uyda men yo‘q bo‘lsam...

– U qayoqqa ketdi?

– Anikeynikiga borib qarta o‘ynab kel deb, zo‘rg‘a jo‘natuvdim.

Ikkisi ikki yoqqa ketdi. Grigoriyning og‘zida Aksinya lablarining lazzati qoldi; bu lablardan qishki shamolningmi, yo esa, may oyida yomg‘ir sevalagan dashtdagi barra pichanningmi – nimaningdir hidi kelardi.

Aksinya tor ko‘chaga burildi; engashib olib, tez-tez qadam tashlab ketdi. Allakimning qudug‘i ro‘parasiga yetganda, kuzda mollar bosib, bilchillatgan joydagi qatqaloqqa bexosdan qoqilib, oyog‘i toyib ketdi, birdaniga qorniga og‘riq kelib, chetanni ushlaganicha

suyanib qoldi. Og'rig'i bosildi, lekin jonli bir narsa biqini ostida qimirlab ag'darildi, bir necha marta g'azab bilan ustma-ust, qattiq-qattiq tepindi.

## XI

Ertalab Grigoriy Moxovning uyiga bordi. Sergey Platonovich choy ichgani do'kondan kelgan edi. Atepin bilan ikkisi, devorlariga qimmatbaho, ko'k gulqog'oz yopishtirilgan yemakxonada achchiq-achchiq choy ichib o'tirishardi. Grigoriy shapkasini dahlizga qo'yib, yemakxonaga kirdi.

– Men sizga keluvdim, Sergey Platonovich.

– Panteley Melexovning o'g'limisan deyman.

– Ha.

– Nima ish bilan?

– Meni biron ishga olarmikansiz, deb keluvdim.

Grigoriy g'ichillagan eshik tomonga yuzini o'girdi. Ko'k kitel kiygan, yuzboshilik pogoni taqqan yoshgina ofitser gazeta ushlab, zaldan chiqdi. Grigoriy uni tanidi: bultur poygada Mitka Korshunovga yetolmagan ofitser shu edi.

Sergey Platonovich ofitserga kursi to'g'rilab qo'ydi.

– Otang qashshoq bo'p qoldimi deyman, nega seni xizmatkorlikka bermoqchi?

– Men boshqa turibman.

– Ostonangni bo'lak qildingmi?

– Ha.

– Jon deb olardim, oilangizni bilaman – bari mehnatkash odamlar, aksiga bo'sh o'rin yo'q-da.

Yuzboshi kursiga o'tirayotib:

– Nima gap? – deb so'radi-da, Grigoriyga nazar tashladi.

– Manavi yigit ish so'rab kepti.

– Ot boqishga qalaysan? Arava haydashni bilasanmi? – deb so'radi yuzboshi qoshiqcha bilan stakandagi choyni chayqaltirib.

– Bilaman. O'zimiz ham oltita ot boqqanmiz.

– Menga izvosh haydovchi kerak. Qancha so'raysan?

– Ko'p so'ramayman...

– Unday bo‘lsa, ertaga otamning qo‘rg‘oniga borgin, Nikolay Alekseyevich Listnitskiyning qo‘rg‘onini bilasanmi?

– Ha, bilaman.

– Bu yerdan o‘n ikki chaqirim keladi. Ertaga ertalab bor, otam bilan kelishib olasan.

Grigoriy joyida depsinib turdi-da, eshik tutqichini ushlab:

– Janob oliy, sizga bir og‘iz gapim bor edi... – dedi.

Yuzboshi Grigoriyning ketidan qorong‘i yo‘lakka chiqdi. Ayvonning jilosiz oynasidan bu yerga g‘ira-shira lolarang nur tushib turardi.

– Nima gap?

– Men yolg‘iz emasman... – Grigoriy loladay qizarib ketdi. – Yonimda bir ayol kishi ham bor. Ungayam biron ish topilmasmikan?

Yuzboshi kun nuridan qizargan qoshlarini chimirib kulimsiradi:

– Xotiningmi?

– Birovning xotini...

– Ha, bunday degin. Hay, mayli, unga ham o‘choqboshidan ish topib beramiz. Eri qayerda?

– Shu yerda, shu qishloqlik.

– Sen nima, birovning xotinini o‘g‘irlab qochmoqchimisan?

– O‘zi ilakishdi.

– Ajoyib hodisa. Hay, mayli, ertaga kel. Endi senga javob, uka.

Grigoriy Yagodnoe qishlog‘iga – Listnitskiylarning qo‘rg‘oniga ertalab soat sakkizda yetib keldi. Nuragan g‘isht devor bilan qurshalgan katta hovlida betartib solingan binolar ko‘rinardi: yonboshdagi uyning tomiga cherepitsa yopilgan va o‘rtasiga cherepitsa bilan 1910-yil – deb yozilgan, qo‘rada yana xizmatkorlar turadigan uy, hammom, oshxona, og‘ilxona, parrandalar uchun katalak, uzun ketgan omborxona, izvosh turadigan bostirma bor edi. Bog‘ ichida katta bir ko‘hna uy qad ko‘tarib turar, uyning sahni gulzor, orqa tomonida barglari to‘kilgan qator-qator teraklar, tollar qaqqayib turar, daraxtlarning shox-shabbalarida egasiz qolgan zag‘cha uyalari qorayib, telpakka o‘xshab ko‘rinardi.

Qo‘rada Grigoriy bir gala zotli qora tozilarga duch kelib qoldi. Dastlab, ko‘zlari shilpiq, qari, cho‘loq it kelib Grigoriyni iskab

ko‘rdi-da, boshini quyi solib, unga ergashdi. Xizmatkorlar turadigan uyda oshpaz ayol yuziga sepkil toshgan yoshgina cho‘ri qizni koyiyotgan edi. Lablari qalin, vahimali bir chol tutun buruqsatib bo‘sag‘ada o‘tirardi. Cho‘ri qiz Grigoriyni uyga boshlab kirdi. Dahlizdan it hidi, oshlanmagan teri hidi anqirdi. Stol ustida qo‘shtig‘ miltiqning jildi va ipak shokilali yashil to‘rva yotardi.

Yonboshdagi eshikdan cho‘ri qiz boshini chiqarib:

– Yosh xo‘jayin chaqiryaptilar, – dedi.

Grigoriy xijolat chekib loy etiklariga qaradi-da, ichkari kirdi.

Deraza oldiga qo‘yilgan karavotda yuzboshi yotardi; ko‘rpa ustida tamaki bilan gilzalar solingan quticha turardi. Yuzboshi qo‘lidagi papirosni o‘rab bo‘lgach, oppoq ust ko‘ylagining yoqasini tugmaladi-da:

– Erta kelibsan, kutib tur, hozir otam keladi, – dedi.

Grigoriy eshik oldida qaqqayib turdi. Biroz fursat o‘tgach, dahlizning pol taxtasi g‘ijirlab, qadam tovushi eshitildi. Do‘rillagan bir ovoz eshik tirqishidan:

– Uyg‘oqmisan, Yevgeniy? – deb so‘radi.

– Kiravering.

Kavkazcha qora chakmon kiygan chol kirib keldi. Grigoriy unga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi va dastlab ko‘ziga chalingan narsa – cholning bir oz qiyshiq ingichka burni bilan tamaki tutunidan sarg‘aygan shopday mo‘ylovi bo‘ldi. Cholning bo‘yi bir sarjin, kiftlari keng, o‘zi qotmadan kelgan edi. Egnidagi tuya jun movutdan tikilgan uzun kamzuli shalvillab qolgan, serajin sarg‘ish bo‘ynini yoqasi sirtmoqday siqib turardi. Nursiz ko‘zlari qanshariga juda yaqin edi.

– Mana bu yigitni sizga kucherlikka mo‘ljallovdim, dada. Yaxshi odamlarning bolasi.

– Kimning o‘g‘lisan? – deb shang‘illadi chol.

– Melexovning.

– Qaysi Melexov?

– Panteley Melexovning o‘g‘liman.

– Prokofiyni bilardim, Panteleyni ham taniyman. Cherkaslardan tarqagan anavi cho‘loqmi?

– Shunday, janobi oliylari, cho‘loq. – Grigoriy qomatini tik tutib turardi.

Iste'foga chiqqan, Rus-turk urushi qahramonlaridan biri bo'lgan general Listnitskiy to'g'risida dadasi aytgan gaplar Grigoriyning esida edi.

– Nima uchun xizmatga kiryapsan? – eshitildi varanglagan ovoz yuqoridan.

– Otamdan boshqa turibman, janobi oliylari.

– Birovlarga yollanib yuradigan bo'lsang, kazakliging qayoqda qoldi? Otang seni ajratganda hech narsa bermadimi?

– Shundoq, taqsir, bermadi.

– Unday bo'lsa, gap boshqa. Xotining bilan birga yollanmoqchimisan?

– Shundoq, janobi oliylari.

– Janobi oliy deyaverma. Yoqtirmayman! Oyiga – sakkiz so'm. Ikkovingizga beradiganim shu. Xotining xizmatkorlar bilan mardikorlarga ovqat pishiradi. Rozimisan?

– Xo'p bo'ladi.

– Ertadan qolmay kelinglar. Qo'shxonada ilgarigi kucher o'tirgan hujrada turasiz.

– Kecha ov qalay bo'ldi? – deb so'radi o'g'li otasidan va ingichka sertuk oyoqlarini karavotdan osiltirib gilamga qo'ydi.

– Gremyachiy chakalakzoridan tulki quvdik, o'rmongacha haydab ketidan bordik. Tulagi ekan – itlarni adashtirib ketdi.

– Kazbek haliyam oqsayaptimi?

– Oyog'i chiqqan ekan. Tezroq bo'l, Yevgeniy, ovqat sovib qoldi.

Chol Grigoriyga burilib qaradi-da, ingichka barmoqlarini qarsillatdi.

– Shagom-marsh! Ertaga soat sakkizda shu yerda bo'l!

Grigoriy darvozadan chiqdi. Omborxonaning orqa tomonida, qori erib qurigan joyda tozilar isinishardi. Ko'zi shilpiq it Grigoriyning yoniga lo'killab keldi, etagini iskadi, boshini quyi solib, ketidan qolmay jargacha ergashib bordi. So'ngra iziga qaytdi.

## XII

Aksinya kechki ovqatdan barvaqt qutuldi, pechning cho'g'ini tortib, quvurini berkitib qo'ydi, so'ngra idish-tovoqlarni yuvib bo'ldi-da, hovliga qaragan derazadan mo'raladi. Stepan Melexovlar

qo‘rasi tomondagi chetan yoniga taxlab qo‘yilgan yog‘ochlar oldida turardi. Labining bir burchida o‘ti o‘chgan papiros osilib qolgan; xodalar orasidan u uchi ayri yog‘och tanlamoqda edi. Bostirmaning chap qanoti qiyshayib qolgan, unga ikkita ayri tirgovich qo‘yib ustini eski qamish bilan yopish kerak edi.

– Yuzing xuddi zig‘ir yog‘i surkaganday yaltiraydi.

– Pechning tafti... boshimni og‘ritib yubordi. – Shuni deb u, yuzini o‘girib derazaga o‘g‘rincha bir qarab qo‘ydi: Mishka Koshevoyning singlisi kelishi kerak edi.

Lekin u kech kirganda keldi. Kutaverib xunob bo‘lgan Aksinya tipirchilab qoldi.

– Menga keldingmi, Mashutka?

– Bu yoqqa chiqing.

Stepan oppoq pechga qo‘shib shuvalgan siniq oynaga o‘zini solib, sochlarini silar, cho‘ltoq mugiz taroq bilan malla mo‘ylovini tarardi.

Aksinya qo‘rqa-pisa eri tomonga nazar tashladi.

– Sen tag‘in qayoqqa bormoqchisan?

Stepan darrov javob bera qolmadi, taroqni shoshilmay chalvarining cho‘ntagiga soldi, so‘ngra pech tokchasidan bir dasta qarta bilan tamaki xaltasini oldi.

– Anikushkanikiga boraman, birpas o‘tirib kelaman.

– Tentirashdan qachon to‘yasan-a? Qarta bir balo bo‘ldi: har kecha bularga qarta o‘yini bo‘lsa. Bir xo‘roz o‘tguncha o‘tirishadi.

– Ha, bo‘ldi, bas qil.

– Tag‘in yigirma bir o‘ynaysanmi?

– Obbo, bo‘ldi-da! Birov kelib qarab turibdi, chiqsang-chi, axir.

Aksinya yakka kift bo‘lib dahlizga chiqdi. Eshik oldida yuziga sepkil toshgan loladay Mashutka kulib turar edi.

– Grishka keldi.

– Xo‘sh?

– Qorong‘i tushishi bilan biznikiga borarmishsan. Aksinya Mashutkaning qo‘llaridan ushlab, eshik tomon tortdi.

– Sekinroq, sekinroq gapir, aylanay. Tag‘in nima dedi u? Balki boshqa gap ham aytgandir?

– O‘z narsalarini, deydi, ko‘targanicha ola chiqsin, deydi.

Aksinyaning a’zoyi badani o‘tday yonib qaltirar, dam-badam boshini burib, uy tomonga qarar, oyog‘ini qo‘ygani joy topolmas edi.

– Xudoyo, endi nima qilaman?.. A?.. Bunchalik tez bo‘lishini... Menga nima bo‘ldi? Shoshma, borib ayt, hozir boraman... Meni qayerda kutmoqchi bo‘ldi?

– To‘g‘ri uyimizga kiraver!

– E, yo‘q!

– Bo‘lmasa, men aytaman, eshikka chiqib turadi.

Stepan kamzulini kiydi, osma lampaga cho‘zilib, tamakisini tutatib oldi.

– Nimaga kelgan ekan? – deb so‘radi tamakisini bir tortib.

– Kim?

– Haligi. Masha Koshevoy-chi.

– Ha, u o‘z ishi bilan kelibdi... yubkamni bichib ber, deydi.

Stepan tamakining kulini puflab tushirdi-da, eshikka qarab yurdi...

– Sen uxlayver, meni kutma!

– Ho-o!

Aksinya kursi yonida cho‘kkalab, muzlagan deraza oynasidan mo‘ralab qaradi. Ko‘cha eshik tomonga tushgan yolg‘izoyoq yo‘lda ketayotgan Stepanning g‘arch-g‘urch qadam tovushi eshitilardi. Shamol tamakisining uchqunini derazagacha uchirib keldi. Aksinya oynaning erigan joyidan yilt etib yongan tamaki yorug‘ida erining papaxi ostida buklanib qolgan qulog‘ini, qizilmag‘iz yuzini ko‘rib qoldi.

Aksinya sandiqdan yubka, kofta, ro‘mollarini – o‘zining sepini – shoshib-pishib oldi va katta shol ro‘mol ustiga tashladi, uning ko‘zlari javdirar, nafasi tiqilardi; so‘nggi marta oshxonani aylanib chiqib chiroqni o‘chirdi-da, yugurganicha zinapoyaga chiqdi, Melexovlar uyidan allakim mollarini qaragani qo‘raga chiqdi. Aksinya oyoq tovushi bosilguncha kutib turdi-da, eshikni zanjirladi va tugunini qo‘ltiqlab, Don bo‘yiga qarab chopdi. Tivit ro‘moli ostidan chiqib qolgan soch tolalari yuzini qitiqlardi. Orqa ko‘cha bilan yurib

Koshevoyning hovlisiga yetguncha darmoni qurigan, oyog'i zilday bo'lib, holdan toygan edi. Grigoriy darvoza yonida kutib turardi. U Aksinyaning qo'lidan tugunini oldi-da, oldiga tushib, indamay dasht tomon yurib ketdi.

Xirmondan o'tgach, Aksinya yurishini sekinlatib, Grigoriyning yengidan tortdi.

– Birpas to'xta.

– Nega endi? Hali-beri oy chiqmaydi, qorong'ida yetib olish kerak.

– Shoshmagin, Grisha, – Aksinya bukchayib qoldi.

– Nima bo'ldi? – deb so'radi Grigoriy engashib.

– O'zim... yuragimga bir balo bo'ldi. Boya og'ir narsani ko'taruvdim. – Aksinya qaqragan lablarini yalar, og'rig'ining zo'ridan ko'zlaridan o't chaqnar edi. Bir nafas ikki bukchayib, tumtayib turdi-da, so'ngra to'zg'igan sochlarini ro'moli ostiga qistirib, o'rnidan qo'zg'aldi.

– Bo'ldi, qani ketdik!

– Qayoqqa boshlab ketayotganimni so'ramaysan ham, Aksinya, duch kelgan birinchi jarga itarib yuborsam nima qilasan? – dedi iljayib qorong'ida Grigoriy.

– Menga baribir. O'yin sob bo'ldi... – deb ma'yusgina kulib qo'ydi Aksinya.

Stepan o'sha kechasi, har safargisiday, uyiga juda kech qaytdi. Avval otxonaga kirdi, ot chochib oyoq osti qilgan pichanni oxuriga solib qo'ydi, no'xtasini yechib oldi, so'ngra zinapoyadan chiqib, eshik oldiga keldi. «Qo'shnilarnikiga hangamalashgani ketgan bo'lsa kerak», – deb o'yladi, eshikning zanjirini ochayotib. Oshxonaga kirib, eshikni mahkamlab yopdi-da, gugurt chaqdi. Bugun gugurt otish o'yinida Stepan yutgan, shuning uchun ko'ngli ravshan, shirin uyqu elitayotgan edi. Chiroqni yoqdi va oshxonada sochilib yotgan narsalarga ko'z tashladi, lekin ko'ngliga hech gap kelmadi. Hang-mang bo'lib, ichkari uyga kirdi. Sandiq og'zini ochgancha qorong'ida huvullab turar, xotinining shoshib unutib qoldirgan eski koftasi yerda yotardi. Stepan kalta po'stinini yelkasidan uloqtirib tashladi, yugurganicha oshxonaga borib, chiroq olib keldi. Uyni

boshdan-oyoq ko'zdan kechirib, nima hodisa bo'lganini tushundi. Lampani otib yubordi-da, nima qilayotganini o'zi ham bilmay, devorda osig'liq turgan qilichini shartta oldi, dastasidan shu qadar mahkam ushlagan ediki, panjalari ko'karib ketdi. Aksinya esdan chiqarib qoldirgan havorang, mallagul koftani qilich uchiga ilib havoga irg'itdi, kofta yerga tushguncha uni bir zarb bilan ikki nimta qildi. O'zini yo'qotgan, rangi quv o'chib ketgan Stepan, havorang koftaning burdalarini hadeb shipga uloqtirar, o'tkir, olmos qilichi bilan ularni to'g'rab yerga tushirardi.

Nihoyat, tasmasini uzib, qilichni burchakka uloqtirib yubordida, oshxonaga chiqib stol yoniga borib o'tirdi. Boshini egib, artilmay qolgan stolni qaltirab turgan temirday barmoqlari bilan ancha vaqtgacha silab o'tirdi.

## XIII

Balo bir tikilsa, ustma-ust kelaveradi: Getkoning beparvoligidan, tongotar paytda Miron Grigoryevichning nasldor buqasi eng yaxshi biyani suzib, bo'ynini yorib tashladi. Rangida qoni qolmagan. Getko hovliqib yugurganicha uyga kirdi, a'zoyi badani bezgak tutganday qaltirardi.

– Ish pachava, xo'jayin! Harom o'lgur buqa, la'nati buqa...

– Buqaga nima bo'ldi? Xo'sh? – deb tashvishlandi Miron Grigoryevich.

– Biyani mayib qildi... Suzib oldi... Men desangiz...

Miron Grigoryevich ko'ylakchan qo'raga chopib chiqdi. Quduq yonida Mitka besh yashar qizil buqani tayoq bilan urmoqda edi. Lekin buqa tisarilib, qatlam-qatlam to'shini qorga tegizib, boshini chayqatar, dumini gajak qilib, oyog'i bilan qor sochar, atrofga kumushday qirov yog'ilardi. Buqa kaltakdan qochmas, faqat kaltakalta bo'kirar va ketingi oyoqlarini yerga tirab, hamlaga tayyorlanar edi.

Uning ovozi tobora kuchayib, g'arg'arali bo'kirishga aylandi. Mitka xirillab og'ziga kelganini aytib so'kar, buqaning tumshug'iga, biqiniga tushirar, kamaridan ushlab, orqaga tortayotgan Mixeyiga e'tibor bermasdi.

– Bas endi, Mitriy!.. Xudo haqi, o‘tinaman, qoch!.. Suzib o‘ldiradi seni, axir!.. Hoy Grigorich, nima qilib qarab turibsan?

Miron Grigoryevich quduq boshiga chopib keldi. Chetan oldida biya boshini engashtirgan holda turardi. Ichiga tortib ketgan, qop-qora ter bosgan biqini kirib-chiqib turar, bo‘ynidan oqayotgan qon sermushak to‘shiga va yerga tomar edi. Sirti va biqinlaridagi qo‘ng‘ir junlari bilinar-bilinmas titrar, butlari qaltirar edi...

Miron Grigoryevich biyaning oldiga o‘tdi. Bo‘ynining qoq o‘rtasidagi qip-qizil jarohatdan bug‘ ko‘tarilardi. Suqsa – qo‘l sig‘adigan darajada chuqur va katta jarohat paydo bo‘lgan, kekirdagi ham ochilib qolgan, entikib zo‘rg‘a nafas olayotgani ko‘rinib turar edi. Miron Grigoryevich otning kokilidan ushlab, biyaning enkaygan boshini baland ko‘tardi. Jonivor, mo‘ltiragan, qorachig‘i gunafsharang ko‘zlarini xo‘jayiniga tikib: «Endi nima bo‘ladi?» deb savol berayotgandek edi, Miron Grigoryevich ham bu unsiz savolga javob qilayotganday:

– Mitka! Eman po‘stlog‘ini qaynatishsin! Qani, tezroq qimirla! – deb baqirdi.

Getko, kir bosgan kekirdagini o‘ynatib, yugurganicha eman po‘stlog‘ini shilgani ketdi. Mitka hovlida gir aylanib yurgan buqaga qaray-qaray, otasi yoniga keldi. Qizil buqa esa, quturib, oppoq qorni to‘zitib ovozi boricha tinmay bo‘kirar, gir aylanib qo‘rada yugurar edi.

– Otning kokilidan tutib tur, – deb buyurdi Miron Grigoryevich Mitkaga. – Mixey, chop, chilvir keltir! Tez kel, bo‘lmasa, tumshug‘ingga solaman!..

Biya og‘riqni sezmasin uchun uning siyrak tukli duxobaday yumshoq ustki labini chilvir bilan sirib tang‘idilar. Bobo Grishak ham yetib keldi. Guldor kosada qahvarang po‘stloq qaynatmasini olib kelishdi.

– Sovutgin, qaynoq bo‘lsa kerak. Eshityapsanmi, yo‘qmi, Miron?

– Xudo xayr bersin, dada, uyga kiring! Bu yerda shamollab qolasiz!

– Men senga sovut deyapman. Biyani o‘ldirmoqchimisan?

Jarohatni yuvdilar. Miron Grigoryevich sovqotgan barmoqlari bilan juvoldizga kanop o‘tkazdi. Yarani o‘zi ustalik bilan tika bosh-

ladi. Miron Grigoryevich hali quduq boshidan ketmay turib, uydan Lukinichna yugurib chiqdi. Uning rangi o'chgan, salqigan yuzlarida tashvish alomati ko'rinardi. Kampir erini bir chetga chaqirib:

– Natalya keldi, Grigorich!.. Sho'rim qurib qoldi! Ey xudoyim! – dedi.

– Tag'in nima gap?.. – Miron Grigoryevichning sepkil toshgan sarg'ish afti oqarib, avzoyi buzildi.

– Grigoriy... kuyovingiz uydan ketib qopti?! – Lukinichna uchishga hozirlangan zag'chaday, qo'llarini kerib soniga urar, chiyillab: – Butun qishloqqa sharmanda bo'ldik!.. Yo parvardigor, bu nima degan ko'rgilik-a!.. – deb, oh-voh qilar edi.

Boshiga ro'mol, egniga kaltagina qishki kofta kiygan Natalya oshxona o'rtasida turardi. Ikki ko'zi jiqqa yosh, ikki beti bo'riqib ketgan edi.

– Nega kelding? – deb o'dag'ayladi, eshikdan kirib kelayotgan otasi. – Ering urdimi? Murosangiz to'g'ri kelmadimi?

– Uydan ketib qoldi, – dedi yig'lamoqdan beri bo'lib Natalya, so'ngra gandiraklab borib otasining oyog'iga yiqildi. – Dadajon, umrim barbod bo'ldi?.. Meni u yerdan ko'chirib keling! Grishka o'ynashi bilan ketdi!.. Yolg'iz qoldim! Dadajon, umrim xazon bo'ldi!.. – deb valdirar edi u. Natalya, o'pkasi to'lganidan har so'zning oxirini aytolmas, ko'zlarini ko'tarib, yalinib-yolvorib, otasining mallarang soqoliga termilardi.

– Shoshma, shoshma deyman!

– U uyda qanday qilib turaman, axir! Meni u yerdan ko'chirib keling!.. – Natalya emaklab sandiq yoniga bordi, yum-yum yig'lab, qalt-qalt qilgan boshini ikki qo'li bilan changallab oldi. Ro'moli yelkasiga sirg'alib ketdi, silliq taralgan qora sochlari to'zib quloqlari ustiga tushdi. Og'ir daqiqada kelgan ko'z yoshi may oyidagi qurg'oqchilikda yoqqan yomg'ir bilan baravar; ona sho'rlik Natalyaning boshini bag'riga bosib, bir-biriga qovushmagan gaplarni aytib yig'lay boshladi: Miron Grigoryevich bo'lsa, o'tday tutaqib zinapoyaga chiqdi.

– Ikki otli chanani qo'sh... Haydamani qo'sh!.. Zinapoya oldida tovuq bosayotgan xo'roz, xo'jayinning do'rillagan tovushidan

cho‘chib, tovuqni tashladi-yu, zinapoyadan nari qochdi va qaqillagancha to‘g‘ri omborxona tomon ketdi.

– Tezroq qo‘sh! – Miron Grigoryevich zinapoyaning o‘ymakor panjarasini etigi bilan tepar edi. Nihoyat, Getkoning otxonadan bir juft qora to‘riq otni yetaklab, yo‘l-yo‘lakay xomut solib yeldirib kelayotganini ko‘rgach, ko‘ngli tinchib, singan panjara oldidan uyiga kirib ketdi.

Natalyaning sepini olib kelmoq uchun Mitka bilan Getko jo‘nadi. Ukrain xizmatkor: «Endi xo‘jayin, shu janjal tufayli biyani ham esidan chiqarib yuborsa ajab emas!» degan xayolga borib, yo‘lda yurgan cho‘chqa bolani chanaga bostirib yuboray dedi, o‘zidan o‘zi suyunar, tizginini bo‘shatardi.

– Bunday berahm xo‘jayin esidan chiqarib bo‘pti!.. – degan xayol Getkoning ko‘ngliga kelib, qovog‘i osilib, lablari burilib ketdi.

– Chu, haromi!.. Chu, solib qolaman! – deb qora otning qoq biqinini mo‘ljallab qamchi bilan urmoqchi bo‘lardi.

## XIV

Yuzboshi Yevgeniy Listnitskiy leyb-gvardiya Ataman polkida xizmat qilardi. U ofitserlar poygasida otdan yiqilib chap qo‘lining bilak suyagi singan edi. Lazaretdan chiqqach, bir yarim oylik otpuska olib otasi yoniga – Yagodnoyega keldi.

Xotini o‘lib so‘qqabosh bo‘lib qolgan chol general Yagodnoyeda yolg‘iz o‘zi turardi. Xotini o‘tgan asrning saksoninchi yillarida Varshava yonida halok bo‘lgan edi. Kazak generaliga otilgan o‘qlar uning xotiniga va kucheriga tekkan, izvoshini ko‘p joyidan ilmateshik qilib yuborgan, biroq general sog‘ qolgan edi. O‘shanda Yevgeniy ikki yoshga kirgan edi. Shu voqeadan sal keyin general iste’fo berib, Yagodnoyega ko‘chib keldi va qattiqchilik bilan umr kechira boshladi. (Uning Saratov guberniyasida to‘rt ming desatina yeri bor edi, bu yerni 1812-yilgi urushda ishtirok etgan bobokaloni hadya tariqasida olgan edi).

Yevgeniyni o‘spirinligidayoq kadetlar korpusiga berdi, o‘zi ro‘zg‘or ishiga kirishib ketdi: nasldor mollar to‘pladi, imperatorga

qarashli ot zavodidan nasl olish uchun poygachi yuguruk ayg'irlar sotib oldi, bularni eng yaxshi ingliz biyalariga hamda Dondagi Provalsk zavodining biyalariga qo'yib yangi zot otlar paydo qildi. Xizmati uchun tekkan va o'zi sotib olgan yerlarda uyur-uyur yilqilari o'tlar, birovlarning kuchi bilan don ekardi, qish va kuz mahallarda tozi solib ov qilar, ahyon-ahyonda oq zalga kirib olib haftalab surunkasiga ichardi. Yomon ichog'riq dardiga giriftor bo'lgan edi: doktorlar ovqatini chaynab yutishga sira ruxsat etishmasdi; ovqatni chaynab, suvini shimib yutar, turpini esa kumush likopga tuflab tashlardi; Veniamin degan mujik malayi bu likopni ushlab doim tayyor turardi.

Veniamin bir oz ovsarroq, qorachadan kelgan yigit edi, dumdumaloq boshidagi sochi – qora kigiz singari paxmoq bo'lib ketgandi. U olti yildan beri pan Listnitskiyda xizmatkorlik qilardi. Dastlabki kunlari, generalning yonida kumush likop ushlab turish vazifasi gardaniga tushganda, panning chaynab so'rib tashlangan turplarni tuflaganini ko'rib, o'qchigisi kelib qiynalgan bo'lsa ham, bora-bora ko'nikib ketdi.

Qo'rg'onda Veniamindan boshqa yana oshpaz xotin Lukerya, keksa otboqar Sashka, cho'pon Tixon va yaqinda kucherlik vazifasiga olingan Grigoriy hamda Aksinya turar edilar. Oshmagan xamirga o'xshagan xom semiz cho'tir Lukerya, dastlabki kundanoq Aksinyani o'choq boshiga yo'latmay qo'ydi.

– Pan yozda mardikor ishlatganda qozon-tovoqqa urinarsan, ovqat pishirish hozirchalik o'zimdan ortmaydi.

Haftada uch marta pollarni yuvib chiqish, gala-gala parrandalarni boqish, parrandaxonani supurib-sidirib turish Aksinyaga yuklangan edi. O'z vazifasiga u astoydil kirishdi, hammaga va shu jumladan Lukeryaga yoqish uchun harakat qila boshladi. Grigoriy aksari vaqtini katta otxonada, otboqar Sashka oldida o'tkazardi. Bechora cholning soch-u soqollari oqarib ketgan bo'lsa ham, ismi Sashkaligicha qolgan edi. Biron kishi, loaqal ko'ngil uchun, otasining otini tilga olib chaqirmasdi, familiyasini bo'lsa, Sashka yigirma yildan ortiq eshigida yurganiga qaramay, ehtimol, general Listnitskiyning o'zi ham bilmasdi. Yoshligida Sashka kucherlik qilardi,

biroq yoshi qaytib, kuchdan va ko'zdan qolgach, otboqarlikka o'tdi. Bo'yi pak-pakana, bolaligida cho'qmor tegib burni puchuq bo'lib qolgan, soch-soqoli oqargan (hatto qo'llarining juni ham oq edi), doim bolalar singari iljayib kulib turar, jiyaklari qizargan ko'zlarini tez-tez yumib, tevarak-atrofiga qarayverardi. Lekin nuroniy yuzining husnini faqat kuraknusxa burni bilan pastki labidagi tirtig'i buzardi, xolos. Askarlikka ketar oldida mastlik bilan (aslida Sashka bog'ucharlik moskallardan edi) aroq o'rniga, adashib kosadagi tuz kislotasini ichib yuborgan; kislota og'zidan oqib tushgan-u labini iyagiga yopishtirib qo'ya qolgan. Kislota oqib tushgan joy, qaytib soqol chiqmaydigan tirtiq bo'lib bitgan, go'yo Sashkaning soqolini allaqanday bir maxluq o'tkir zahar tili bilan yalab ketganday, qizarib qolgan. Sashka ko'pincha aroq ichib qo'rg'on hovlisida o'zi bek, o'zi xon, alpon-talpon qadam tashlab sanqib yurar, pan yotgan bo'lmaning derazasi ro'parasida turib olib, puchuq burni atrofida barmog'ini g'alati qilib aylantiraverardi.

– Mikolay Lekseich! Hoy Mikolay Lekseich! – deb o'dag'aylab qattiq-qattiq chaqirardi.

Shu daqiqada agar pan o'z bo'lmasida bo'lsa, deraza oldiga kelardi-da:

– Zahringga tag'in ichib oldingmi, ablah? – deb derazadan vag'illardi.

Sashka tushib ketayotgan shimini hadeb ko'tarar, ko'z qisar, makkorona kulimsirardi. Iljayganda og'zi qulog'igacha yetib, qisinqiragan chap ko'zidan to labining o'ng burchidagi qizargan tirtiqqacha yorishib ketardi. Kulishi beo'xshov bo'lsa ham yoqimli edi.

– Mikolay Lekseich, xo'jayin, men seni yaxshi bila-ma-an!.. – Sashka yer tepinib o'yin tushar, ingichka va kir barmog'i bilan tahdid qilardi.

– Bor, kirib uxla, – derdi pan uni rioya qilib va tamakidan sarg'aygan besh panjasi bilan salqi mo'ylovini burardi.

– Sashkani shayton ham aldol-may-di-ye! – deb kulardi Sashka gulzorga yaqinlashib. – Mikolay Lekseich, sen... sen ham mendaqasan. Ikkimiz ham suvdagi baliqday narsamiz. Lekin baliq suv ostida, sen bilan biz... xirmon ustida. Sen bilan men badavlat odamlarmiz!..

Mana bunday, – deb Sashka qizishib, qo'llarini kerib qo'yardi. – Bizni hamma biladi, Don viloyatida bizni tanimagan odam yo'q. Biz... – Sashkaning ovozi qayg'urgan, o'z dardini aytmoqchi bo'lgan kishining ovozidek eshitilardi, – bizning, janob oliy, hamma narsamiz joyida, faqat burnimiz nobop!

– Nega? – deb surishtirgan bo'lardi pan, lekin o'zi, soqolmo'ylovlarini selkillatib, kulgisini to'xtatolmay bo'zarib ketardi.

– Aroqning kasri urgan! – deb javob berardi Sashka dona-dona qilib; u hadeb ko'zini pirillatar, labidagi tirtig'ining ariqchasidan oqib tushayotgan so'lagini yalar edi. – Sen-chi, Mikolay Lekseich, ichmagin. Bo'lmasa, ikkovimiz ham adoyi tamom bo'lamiz! Boryo'g'imizdan ajrab qolamiz!..

– Bor, mana buni ol, bosh og'rig'iga ich!

Pan derazadan bir tanga tashlardi, Sashka uni yerga tushirmay ilib olar va shapkasining astariga yashirib qo'yardi.

– Xayr endi, general, – deb xo'rsinardi ketayotib Sashka.

General kular:

– Otlarni sug'ordingmi? – deb so'rardi uning jig'iga tegib.

– Vay kal-ey! Vay itvachcha-ey! – ovozini o'zgartirib, qizaribbo'zarib baqirardi Sashka. Jahli chiqib, bezgagi tutayotganday qaltirardi. – Sashkaning ot sug'ormay qolgan vaqti bo'lganmi? Men-a? O'layotgan bo'lsam ham, emaklab borib, otlarga chelakda suv tutarman! Buning topgan gapini qara-ya!.. O'l-ma-ey!..

Xo'jayinning noo'rin gapidan ko'ngli og'rigan Sashka musht o'xtalib, so'kina-so'kina ketardi. Uning aroqxo'rligiga, panga chapanicha muomala qilishiga ko'p ahamiyat berishmasdi, chunki, otni parvarish qilishda unga teng keladigan odam yo'q edi. Sashka qishin-yozin otxonadagi bo'sh hujrada yotardi; hech kim uningdek ot boqa olmasdi, u, ham otboqarlik, ham ot tabiblik qilardi: ko'klam keldi deguncha, may oyida gulga kirgan ba'zi giyohlarni yulib kelar, dashtdan, qurg'oq va zaxob jarlardan dorivor ildizlarni kovlab topardi. Otxona devorining baland joylarida quritilgan xilma-xil o'tlar: issiqlashga qarshi – qo'ziqorin, ilon chaqqanga – ilono't, oyog'iga yem tushsa – otquloq, zo'riqqanga – chorbog'larda tol tomiri yonida o'sadigan pastgina oq giyoh va shuning singari yilqi

kasaliga davo bo‘ladigan yana birmuncha noma’lum dorivor o‘tlar osig‘liq turardi.

Otxonadagi Sashka yotgan hujrada qishin-yozin nozik va xushbo‘y dorivor o‘tlarning hidi dimoqqa urilib turardi. Taxta karavotga to‘shalgan pichan toshday qotib ketgan, ustiga to‘qim tashlab qo‘yilgan; ot teri urib qolgan chakmon ham shu karavot ustida yotardi. Sashkaning bisotida shu chakmon bilan kalta po‘stindan boshqa hech narsasi yo‘q edi.

Norg‘ildan kelgan, esi pastroq, lablari qalin kazak Tixon esa Lukerya bilan birga turar va o‘zidan o‘zi, uni Sashkadan qizg‘anardi. Oyda bir marta Sashkaning yag‘iri chiqqan ko‘ylagining tugmasidan ushlab, tom orqasiga sudrardi.

– Chol, men bilan yurgan xotinga sen ko‘z olaytirma!

Sashka ko‘zini qisib:

– Ko‘ramiz-da... – derdi tagdor qilib.

– Bu yo‘lingdan qayt, chol!

– Men cho‘tir xotinlarni yaxshi ko‘raman, birodar. Menga aroq berma, lekin cho‘tiri bo‘lsa obkelaver. Qanchalik cho‘tir bo‘lsa, shunchalik jonim kiradi.

– Sening yoshingdagi odamga bu yarashmaydi, gunoh bo‘ladi, chol... Tag‘in seni tabib, otni davolaydi deyishadi-ya, duo o‘qishni biladi deyishadi...

– Men hamma narsaga ham tabiblik qilaveraman, – deb o‘jarligini qo‘ymasdi Sashka.

– Qayt bu yo‘lingdan, chol! Yaxshi emas, axir.

– Men shu Lukeryani avrab olaman. Sen u dog‘ulidan umidingni uzaver! O‘ziyam jizzalik kulchaga o‘xshaydi. Faqat jizzasini chumchuq cho‘qib ketibdi, shuning uchun cho‘tirroq ko‘rinadi. Shunisiga ishqibozman-da!

– Ma, ol... lekin qorangni ko‘rsatma, xuddi o‘ldiraman, – derdi Tixon xo‘rsina-xo‘rsina hamyonidan bir necha chaqa olib.

Har oy ahvol shu edi.

Yagodnoyedagilar karaxt bo‘lgan pashsha singari ivirsib umr kechirishardi. Serqatnov katta yo‘llardan olis, suv chiqmaydigan yerga joylashgan bu qo‘rg‘on kuz kirishi bilanoq atrofidagi

stanitsa va qishloqlar bilan aloqasini uzib qo'yar edi. Qish kelsa, Qora o'rmonda bola ochgan bo'rilar chorboqqa taqalgan qum-tepa ustida tuni bilan uvullab, otlarni hurkitishardi. Tixon panning qo'shtig' miltig'ini olib, bo'ri otgani chorboqqa chiqardi, to'nkaga o'xshagan baqaloq Lukerya esa, orqasiga eski-tuski tashlab, cho'tir yuzlaridagi shira bosgan ikki ko'zini qorong'ilikka tikkanicha, o'q tovushini kutardi. Shu choqda kal va ovsar Tixon uning nazarida chiroyli, nihoyatda mard yigit bo'lib ko'rinardi, hujraning eshigi ochilib, bug' aralash Tixon kirib kelgach, u darhol surilib, karavot-dan joy berardi-da, shirin gapirib, sovqotgan o'ynashini bag'riga olardi.

Yozda Yagodnoyeda ishchilarning g'ovur-g'uvuri to yarim ke-chagacha eshitilib turardi. Pan qirq botmon yerga har xil don ekar, ekini pishganda mardikor solib, o'rdirar-yanchdirardi. Yoz kunlari ahyon-ahyonda Yevgeniy qo'rg'onga kelar, bog' va chorbog'larni aylanar, darrov zerika boshlardi. Har kuni ertalab hovuzga qarmoq solib, baliq ovlash bilan vaqt o'tkazardi. Yevgeniy o'rta bo'yli, ko'krakdor yigit edi. Sochlarini kazakchasiga o'stirib, o'ng tomonga tarab qo'yar, ofitsercha syurtyugi qaddini ixcham qilib ko'rsatardi.

Grigoriy, Aksinya bilan shu qo'rg'onga ko'chib kelgan kunlari, yosh xo'jayinning oldiga tez-tez kirib turardi. Xizmatkorlar turadi-gan uyga Veniamin kirib, paxmoq sochli boshini enkaytirib iljayar:

– Grigoriy, yosh panning oldiga borarkansan, seni chaqiryapti, – derdi.

Grigoriy kirib eshik og'zida to'xtardi. Yevgeniy Nikolayevich siyrak tishlarini ochib iljayar, qo'li bilan stulni ko'rsatib:

– O'tir, – derdi.

Grigoriy omonatgina o'tirardi.

– Xo'sh, bizning otlar qalay, senga yoqadimi?

– Yaxshi otlar. Ko'ki judayam o'tkir ekan.

– Sen uni tez-tez minib sovut. Tag'in, choptirib yurmagin.

– Sashka bobo menga pishiqtirgan edi.

– Chayir qalay?

– To'riqni aytasizmi? Bebaho ot. Faqat tuyog'i yeyilibdi, bosh-qatdan taqalatish kerak.

Yosh pan o'tkir ko'kish ko'zlarini qisib so'rar edi:

– May oyida sen lagerga borishing kerak-a?

– Shunday.

– Ataman bilan o'zim gaplashaman, bormaysan.

– Mingdan-ming rahmat.

Ikkisi jim bo'lib qolishardi. Yuzboshi mundirning yoqasini yechib, xotinlarnikidek oppoq ko'kragini qashlar edi.

– Bu deyman, eri kelib, Aksinyani olib ketar, deb qo'rqmaysanmi?

– Obketmaydi, allaqachon kechvorgan.

– Kim aytdi senga?

– Mix olib kelgani stanitsaga borganimda, hamqishloqlarimizdan birini ko'rdim. Stepan aroqdan boshini ko'tarmay qoldi, deydi. «Menga Aksyutka endi tekingayam kerak emas, yuraversin, men o'zimga g'alatisini topib olaman» deganmish.

Yuzboshi Grigoriyga bosh osha qarab, o'ylanqirab:

– Aksinya – chiroyli xotin, – dedi. U fosiqona iljayardi.

– Yomon ayol emas, – deb uning gapini ma'qulladi Grigoriy, lekin qovog'i solinib ketdi.

Yevgeniyning ta'tili tugashiga oz qolgan edi. U endi qo'lini bog'lamasdan bemalol yurar, tirsagini bukmasdan qo'lini ko'tara olardi.

So'nggi vaqtlarda u ko'pincha Grigoriyning hujrasiga kelib o'tiradigan bo'lib qoldi. Aksinya mog'orlab ketgan bu hujrani oppoq qilib oqlagan, deraza qopqoqlarini tozalab yuvgan, pollarini g'isht bilan ishqalab chiqqan edi. Bu quppa-quruq hujracha ayol qo'lida yashnab, kulib turganga o'xshar edi. Yerto'ladan issiq hovur chiqib turardi. Yuzboshi ko'k movut sirilgan kalta po'stinini kiftiga tashlab, xizmatkorlar xonasiga yugurardi. Ataylab, Grigoriy otxonada band bo'lgan vaqtini poylar edi. Oldin oshxonaga kirib Lukerya bilan hazillashar, u yerdan hujracha tomonga burilardi. U yerto'la og'zidagi taburetkaga o'tirar, engashib olib, uyalmaynetmay, Aksinyaning yuziga iljayib qarardi. Uning oldida Aksinya o'zini yo'qotib qo'yar, paypoq to'qiyotgan ilmalari qo'lida qaltiray boshlardi.

– Hol-ahvol qalay, Aksinyushka? – deb so'rardi yuzboshi, hujrani ko'm-ko'k papiros tutuniga to'ldirib.

– Chakki emas.

Aksinya ko'zlarini ko'tarib qarar, yuzboshining yomon niyat bilan tikilgan o'tkir ko'zlarini ko'rib, loladay qizarib ketardi. Yevgeniy Nikolayevichning behayo, ko'kish ko'zlariga ko'zi tushganda yuragi siqilib, bo'g'ilib ketardi. Uning ustma-ust bergan bema'ni savollariga poyma-poy javob berar va bir amallab chiqib ketishning payiga tushardi.

– Men boray. O'rdaklarga don sochishim kerak.

– O'tira tur. Ulgurasan, – deb iljayardi yuzboshi; uning tor shim kiygan oyoqlari titray boshlardi.

Yevgeniy Aksinyaning ilgarigi turmushi to'g'risida uzoq surishtirar, dadasinikiga o'xshash yo'g'on ovozini har maqomga solar, buloq suviday tiniq ko'zlari o'ynar edi.

Grigoriy ishini bitirib qaytardi. Yuzboshi ko'zlarini opqochib, unga papiros tutar, so'ngra chiqib ketardi.

– Nima qilib o'tiribdi? – deb asta so'rardi Grigoriy Aksinyaning yuziga qaramasdan.

– Men qayoqdan bilay? – Aksinya yuzboshining qarashlarini esiga tushirib kulardi. – O'zi keldi, mana bu yerga Grishenka, buni qara, bunday qilib o'tirib oldi (u yuzboshining bukchayib o'tirishini ko'rsatardi) – hali o'tiribdi, hali o'tiribdi, ko'nglim xira bo'lib ketdi, tizzasi qoziqqa o'xshaydi-ya.

– Yoki, o'zing imlab chaqirganmiding? – derdi Grigoriy jahl bilan ko'zlarini qisib.

– Menga zaril keptdi-da!

– Ko'zingga qarab yur, bo'lmasa, bir kun emas – bir kun men uni zinapoyadan itarib yuboraman.

Aksinya kulimsirab Grigoriyga boqar, bu gapni chindan aytyaptimi yoki hazillashyaptimi, tushuna olmasdi.

## XV

Ro'zaning to'rtinchi haftasiga borib, qish ham shaxtidan qaytdi. Donning qirg'oqlaridagi yaxlar osilib qoldi, usti erigan muz bo'zarib ilma-teshik bo'lib ko'tarila boshladi. Oqshomlari tog'dan g'uvullagan ovoz eshitilar, chollarning gapiga qaraganda qora sovuq bo'lishi kerak, biroq kundan kunga havo ilimoqda edi. Ertalab ayoz,

yaxmalak bo‘lar, lekin tushga kelib yer erir, bahor isi kelar, sovuq urgan olcha daraxt po‘stlog‘i hamda mog‘orlagan somon hidi anqirdi.

Miron Grigoryevich asta-sekin qo‘shga tayyorgarlik ko‘rardi; uzun kun bostirma tagida ivirsib, molalarga six tayyorlar, Getko bilan birga ikkita yangi tegarchik yasardi. Bobo Grishak to‘rt haftadan beri ro‘za og‘iz edi. U cherkovdan uyga ko‘karib sovqotib kelardida, keliniga shikoyat qilardi:

– Pop tinkamni quritdi, biram cho‘zadiki... xuddi tuxumfurushning aravasiday imillaydi. Pop emas – bir balo.

– Siz, axir, dada, ro‘zani muqaddas haftada tutsangiz ham bo‘lardi, u vaqtgacha kun ham ancha ilib qolardi.

– Menga Natashkani chaqirib kel. Qalinroq qilib paypoq to‘qib bersin, bunaqangi tovoni yupqa paypoqda odam tugul, bo‘ri ham sovuqqa chidolmaydi.

Natalya ota uyida o‘zini musofirdek sezar, sig‘indiday siqilib yashardi; nazarida, Grigoriy qaytib keladiganga o‘xshar, aqli bunga bovar qilmasa ham, umidini uzolmay, uni kutardi; kechalari o‘t ichra kuyib yonar, begunohdan begunoh poymol qilingan baxti uchun yig‘lardi. O‘z dardi kamlik qilganday, yana bir falokat unga ko‘z tika boshladi; Natalya endi kechalari tong otguncha o‘z hujrasida tinch uxlay olmas, uni vahima bosib, xuddi o‘q yegan churak singari bezovtalanib chiqardi. Opasi kelgan birinchi kundan boshlab Mitka unga boshqacha ko‘z bilan qaray boshladi; bir kuni dahlizda unga duch kelganda to‘g‘ridan to‘g‘ri:

– Grishkani sog‘inyapsanmi? – deb so‘radi.

– Sog‘insam senga nima?

– Dardingga malham bo‘lsam deyman.

Natalya ukasining ko‘ziga bir qaradi-yu, niyatini bilib, kapalagi uchib ketdi. Mitka mushuknikiga o‘xshash ko‘m-ko‘k ko‘zlarini o‘ynatar, qorong‘ilikda qorachiqlari yiltirardi. Natalya shartta eshikni ochib, bobo Grishak turadigan yonboshdagi hujraga kirib ketdi va anchagacha qinidan chiqayozgan yuragining dukullashiga quloq solib turib qoldi. Shu voqeaning ertasi kuni hovlida Mitka uning yoniga keldi; Mitka molga cho‘p solayotgan edi; uning dikkaygan

sochlariga, barra papaxiga ko'm-ko'k cho'p-chor ilinib qolgandi. Natalya cho'chqaning yem tog'orasiga yopirilgan itlarni quvlamoqda edi.

– Qovog'ingni solma, Natashka...

– Hozir dadamni chaqiraman! – deb baqirdi Natalya qo'li bilan yuzini to'sib.

– Voy, jinni-ey!

– Yo'qol, ablah!

– Hey, nega baqirasan?

– Ket, deyman! Hozir dadamga borib aytaman!.. Menga qaysi bet bilan qaray olasan? Huuuv, insofsiz!.. Tag'inam seni yer yutmaydi-da!

– Meni yer yutmaydi, mana, bemalol ko'tarib turibdi, – Mitka gapini tasdiqlash uchun etigi bilan yer tepindi va qo'lini biqiniga tirab oldi.

– Menga yaqinlashma, Mitriy!

– Hozir yaqinlashmayman, lekin kechasi yoningga kelaman. Xudo ursin, kelaman.

Natalya qaltirab, uyga kirib ketdi. Kechqurun to'shagini sandiq ustiga soldi, singlisini ham yoniga olib yotdi. Kechasi uxlay olmay, u yonidan bu yoniga ag'darilar, o'tday yongan ko'zlarini qorong'ilikka tikardi. U tiq etgan ovozni kutib, uyni boshiga ko'tarib dodlashga tayyor turar, biroq devor orqasida yotgan bobo Grishkaning xurragi-yu, yonidagi singlisining pishillashidan boshqa hech narsa eshitilmas, hamma yoq jimjit edi.

Ilgari bir karra sharmandasi chiqqan Mitka anchadan beri alamzada bo'lib, qovog'ini solib yurardi. Kech kirishi bilan u sayilgohga ketar, ko'pincha uyga juda kech qaytar, aksari tongotar qilib kelardi. Yengiloyoq tul xotinlarga aylanishar, Stepannikiga borib yigirma bir o'ynardi. Miron Grigoryevich ancha vaqtgacha indamay, uni nazaridan qochirmay, ko'z ostiga olib yurardi.

Kunlardan bir kuni pasxadan sal oldin Panteley Prokofyevich Moxovning do'koni oldida Natalyaga duch kelib qolib, uni chaqirdi.

– Shoshmay tur, Natalya.

Natalya to'xtadi. Qayinotasining Grigoriynikiga o'xshash yuzini, qirra burnini ko'rib, ko'ngli buzilib ketdi.

Chol Natalya oldida aybdor bo'lgan odamday ko'zlarini javdiratib gap boshladi:

– Biz qariyalardan nega xabar olmay qo'yding? Kampir seni juda sog'inibdi: holi nima kechdi deb tashvish qiladi... Xo'sh, turmushing, hol-ahvoling qalay?

Bekorga xijolat tortayotgan Natalya, o'zini o'nglab olib:

– Tuzukman, rahmat... – deb tutilib qoldi (dada demoqchi edi), qizarib zo'rg'atdan: – Panteley Prokofyevich deb qo'ya qoldi.

– Xo'sh, nega biznikiga bormaysan?

– Ro'zg'ordan qo'lim bo'shamaydi... ish ko'p.

– Grishka tushmagur... – chol qayg'urib boshini chayqadi, – yuragimizga dog' solib ketdi, juvonmarg...

Natalya qaltiragan jarangli ovoz bilan:

– Ilojimiz yo'q, dada... taqdir shu ekan, – dedi.

Panteley Prokofyevich Natalyaning jiqqa yosh ko'zlariga boqdi-yu, ko'ngli buzilib, gangib qoldi.

Natalyaning lablari qaltirar, ko'z yoshlarini zo'rg'atdan tiyib turardi.

– Xayr, qo'zichog'im!.. Sen uni deb, hadeb kuyunaverma, u itvachcha, haromi sening tirnog'ingga ham arzimaydi. Balki qaytib kelar. Bir ko'rsam-ku, uning dodini berardim-a!

Natalya bo'ynini qisib, kaltak yegan odamday uning oldidan ketdi. Panteley Prokofyevich chopishga shaylangan otday anchagacha depsinib bir joyda turib qoldi. Natalya muyulishga yetganda orqasiga burilib qaradi: qaynotasi hassaga tayanib, maydon o'rtasida oqsoqlanib ketib borardi...

## XVI

Shtokmannikiga odamlar har zamonda bir keladigan bo'lib qolishdi. Bahor yaqinlashgan edi. Qishloq ahli ko'klam ishlariga tayyorlanardi; faqat tegirmondan Valet bilan Davidka hamda mashinist Ivan Alekseyevich kelib turishardi. Ro'zaning boshida bir payshanba kuni bular kechqurun ustaxonaga to'planishdi. Shtokman dastgoh ustida yarim so'mlik tangadan yasalgan uzukni egovlab o'tirardi. Botayotgan kunning shu'lasi derazada yallig'lanar, to'rtburchak oynadan yerga sarg'ish nur tushib turardi. Ivan Alekseyevich qo'lidagi omburni o'ynab o'tirar edi.

– Yaqinda xo‘jayinga uchrashib, porshen xususida gaplashdim. Porshenni Millerovoga olib borish kerak, o‘sha yerda epini qilishmasa, bizning qo‘limizdan kelmaydi! Mana shuncha joyi darz ketibdi, – Ivan Alekseyevich jimjilog‘i bilan yorilgan joyning qanchaligini kimgadir ko‘rsatgan bo‘ldi.

Shtokman, kumush uzukning qipig‘ini to‘zitib egovlar ekan:

– U yerda zavod bo‘lsa kerak, a? – deb so‘radi.

– Marten zavodi bor. Bultur ishim tushib borgan edim.

– Ishchilari ko‘pmi?

– Achib yotibdi. To‘rt yuztacha kelar.

– Xo‘sh, ishchilar qalay? – Shtokman ishlayotib boshini silkitar, shuning uchun duduqnikiga o‘xshab, so‘zlari bo‘linib-bo‘linib chiqardi.

– Maza-maza o‘shalarniki... ularni hech proletar deb bo‘lmaydi, shunday bir... moltabiat odamlar.

– Nega unday? – deb qiziqsindi Shtokmanning yonida o‘tirgan Valet cho‘ltoq barmoqlarini tizzasi ustida chalishtirib.

Sochlariga qo‘ngan un gardidan oqarib ketgan valsovkachi Davidka ustaxona ichida u yoqdan-bu yoqqa yurar, chopig‘i bilan yog‘och qirindilarini to‘zg‘itib, qoq-quruq, xushbo‘y payraxaning shitirlashiga iljayib quloq solardi. Nazarida, u, xazonrezgi mahalida) oltin yaproqlarga to‘lgan jarda ketayotganday bo‘lar, xuddi yumshoqqina barglarni bosib, ostidagi zaxob tuproqning bilqillaganini sezayotganga o‘xshardi.

– Chunki ular hammasi o‘ziga to‘q. Har qaysisining o‘z uyi, o‘z xotini, o‘ziga yarasha huzur-halovati bor. Buning ustiga yarmidan ko‘pi baptistlar mazhabida. Xo‘jayin o‘zi shu mazhabning peshvosi, shunday bo‘lgandan keyin, albatta, bir-birini qo‘llaydi-da, lekin nihoyatda iflos odamlar: qirg‘ich bilan qirsang, kiri ketmaydi.

Davidka qulog‘iga notanish so‘z chalinganidan:

– Ivan Alekseyevich, baptistlar qanaqa odam? – deb so‘radi.

– Baptistlarmi? Ularning e’tiqodi boshqacharoq. Poliponlarga[9] o‘xshagan odamlar.

– Tentak o‘z bilganidan qolmaydi, degan gap haqrost ekan, – deb qo‘shib qo‘ydi Valet.

---

[9] *Poliponlar* – eski mazhabdagilarning laqabi.

Ivan Alekseyevich boshlagan gapini davom ettirib:

– Shunday qilib, Sergey Platonovichning oldiga kirsam – Atepin – satsa ham shu yerda ekan, – dedi. – «Shoshma, dahlizda kutib tura tur», – dedi. Kutib o'tiraverdim. Eshik orqasidan gaplarini eshitib qoldim. Xo'jayin Atepinga o'z gapini ma'qullatib: yaqinda nemislar bilan urush boshlanarmish, men kitobdan anig'ini o'qidim deydi; Satsaning qanaqa gapirishini eshitganmisan? «Bekorchi gap, yaqinda urush chiqadi degan gapingizga men hech qo'shila olmayman», – deydi. Ivan Alekseyevich Atepinning gapirishini shu qadar o'xshatib taqlid qildiki, hatto Davidkaning og'iz tanobi qochdi, piq etib kulmoqchi bo'lganda, Valetning xo'mrayib qo'yganidan dami ichiga tushib ketdi.

– «Rossiyaga qarshi hech qachon Germaniya urush ochmaydi, chunki u bizning donimiz bilan tirik», – deb, Ivan Alekseyevich eshitgan gapini so'zlab berdi. – Gapga yana bir odam aralashdi, lekin kimligini ovozidan taniy olmadim, keyin bilsam, pan Listnitskiyning ofitser o'g'li ekan: «Germaniya bilan Fransiya o'rtasida uzumzor yerlar uchun urush bo'ladi, lekin buning bizga hech aloqasi yo'q» dedi u.

– Xo'sh, Osip Davidovich, sen nima deysan? – deb so'radi Ivan Alekseyevich Shtokmandan.

Qo'lidagi tayyor uzukni ko'zdan kechirar ekan, Shtokman mujmal qilib:

– Men bashorat qilishni bilmayman, – deb qo'ya qoldi.

– Agar ular urushadigan bo'lsa, biz ham o'sha yerda bo'lamiz. Istasang – istamasang borishga majbursan, sudrab oborishadi, – dedi Valet.

Shtokman Ivan Alekseyevichning qo'lidan ombirini muloyimlik bilan olib qo'ydi-da:

– Men sizga aytsam, yigitlar, masala... – deb gap boshladi.

Aftidan u, o'tirganlarga o'z fikrini atroflicha tushuntirish niyatida edi, shuning uchun jiddiy gapirardi. Valet dastgoh ustidan hadeb sirg'alib tushayotgan oyoqlarini yig'ishtirib oldi, Davidkaning lablari cho'chchayib, zich qator tishlarining oqi ko'rinib ketdi. Shtokman o'ziga xos iboralar bilan ravshan, qisqa, hamda lo'nda qilib, kapitalistik davlatlar orasida bozor va mustamlakalar uchun

borayotgan kurashni tasvirlab berdi. Gap pirovardiga kelganda Ivan Alekseyevich tutaqib, uni to‘xtatdi:

– Shoshma, bizga buning nima aloqasi bor?

– Aroqni birov ichadi, sen bilan sendaqalarning boshi og‘riydi, – deb kuldi Shtokman.

– Bola bo‘lma, – deb piching qildi Ivan Alekseyevichga Valet, – qadimdan «Holvani hokim yer, kaltakni yetim» – degan maqol bor.

– Ha, ha, – deb qo‘ydi Ivan Alekseyevich. U qoshlarini chimirib, miyaga sig‘mayotgan allaqanday fikrning mag‘zini chaqar edi.

– Listnitskiyning o‘g‘li Moxovnikiga nega buncha pashshaxo‘rda bo‘lib qoldi? Yo, qizi bilan donlashmoqchimikan? – deb so‘radi Davidka.

– Korshunovning o‘g‘li allaqachon u bilan donlashgan... – deb askiya qildi Valet.

– Eshityapsanmi, Ivan Alekseyevich? Ofitser unikida nima qilib yuribdi?

Ivan Alekseyevich, xuddi qamchi bilan birov solib qolganday, seskanib tushdi.

– A? Nima deysan?

– Mudroq bosdimi deyman, amaki!.. Listnitskiy haqida so‘rayapmiz.

– Stansiyaga ketayotgan ekan. Yana bir yangilik: uydan chiqsam, zinapoya oldida – bilasizmi kimni ko‘rdim? Grishka Melexovni. Qo‘lida qamchin. – Bu yerda nima qilib turibsan, Grigoriy? – deb so‘rasam, «Pan Listnitskiyni Millerovoga olib ketyapman», deydi.

– O‘shanikida u kucherlik qilyapti, – deb tushuntirdi Valet.

– Panning salqitini yeb yuribdi.

– O‘zing ham deyman, Valet, zanjirdagi ko‘ppakka o‘xshab, surishtirmay akillayverasan.

Suhbat bir lahza to‘xtab qoldi. Ivan Alekseyevich o‘rnidan turib ketmoqchi bo‘ldi.

– Buncha shoshilyapsan, birov kutib qoldimi? – deb askiya qildi Valet.

– Ha, meni har kuni birov kutadi.

Shtokman kunda keladigan mehmonlarni kuzatib qo‘ydi; ustaxonani berkitib uyiga kirdi.

Pasxa arafa kechasi osmonni qop-qora bulut qoplab, yomg‘ir tomchilay boshladi. Qishloqni rutubat va zulmat chulg‘ab oldi. Qosh qorayganda momaqaldiroqday qarsillab Donda muz yorildi, uning ostida siqilib yotgan kattakon muz palaxsasi shuvullab suv betiga chiqdi. Muz uzunasiga to‘rt chaqirim joygacha, daryo burilish yasagan joygacha yorilib ketdi. Muz qo‘zg‘aldi. Cherkov qo‘ng‘irog‘ining bir me’yordagi sadosi ostida muz daryo bo‘ylarini larzaga solib, parcha-parcha uvalanib, bir-biriga urilib oqa boshladi. Don daryosi chap tomonga burilgan joyda muzlar tiqilishib qoldi. Ustma-ust kelib, bir-biriga mingashayotgan muz palaxsalarining qasir-qusuri qishloqdan eshitilardi. Qor erib, yiltillagan ko‘lmak suvlar paydo bo‘lgan cherkov qo‘rasiga yigitlar to‘planishgan edi. Cherkov ichkarisida bo‘layotgan xonish sadolari lang ochiq eshik bo‘sag‘asidan, hovli sahnidan baralla eshitilib turardi, panjarali derazalarda bayram chiroqlarining shu’lasi aks etardi; devor orqasida esa, yigitlar qizlarni o‘par, chimchilab chiyillatishar, ularga behayo gaplar otishardi.

Cherkov jilovxonasi yaqin va olis qishloqlardan bomdod ibodati uchun kelgan kazaklarga liq to‘lgan edi. Yo‘l azobidan hamda hujraning dimiqqan havosidan bo‘shashgan odamlar skameykalarda, deraza oldilarida, polda yotib uxlashardi.

Ba’zilar siniq pillapoya ustida turib olib tamaki chekishar, havoning kelishi kuzgi bug‘doy to‘g‘risida gurunglashardi.

– Sizning qishlog‘ingizdagilar qo‘shga qachon chiqishmoqchi?

– Bayramdan keyin chiqishsa kerak.

– Ha, soz bo‘ladi, sizlarning yeringiz qumloq.

– To‘g‘ri qumloq, lekin jardan bu yog‘i – sho‘r yerlar.

– Yer ham xo‘p namga qonadigan bo‘ldi.

– Bultur haydaganimizda, zarang edi, qayerga omoch solsang – berch.

Jilovxonaning zinapoyasi yonida allakim ingichka ovoz bilan chaqiradi:

– Dunka, qayoqdasan?

Cherkov darvozasi tomondan xirillagan yo‘g‘on bir ovoz eshitildi:

– Topgan joylaringni qara: shu yerda o‘pishasizmi? Balli-ey... yo‘qolinglar bu yerdan, haromilar! Ko‘ngillaring sus ketmay o‘lsin!

– Sening tenging yo‘qmi? Yo‘q bo‘lsa – bizning qanjiqni borib o‘p! – degan allaqanday yigitning ovozi qorong‘idan eshitildi.

– Nima-nima? Qanjig‘ingni ko‘rsatib qo‘yarman...

Ura solib qochganlarning dupuri, qizlarning qiqirlagani, yubkalari shitirlagani eshitildi.

Bo‘g‘otdan suv tomchilari chak-chak qilib yerga tushadi; yana haligi yo‘g‘on, varanglagan ovoz eshitiladi:

– Boya Proxorning plugiga xaridor bo‘ldim, o‘n ikki so‘lkavoy berib ko‘rdim – sira unamaydi. O‘lsayam arzonga bermaydigan ko‘rinadi.

Dondan shuvullagan, shitirlagan, qisirlagan ovozlar eshitiladi. Go‘yoki, bo‘yi terakday, yasangan barvasta bir xotin misli yo‘q keng etaklarini shitirlatib, qishloq yonidan o‘tib ketayotganga o‘xshaydi.

Zim-ziyo qorong‘ilik bosib, vaqt yarim kecha bo‘lganda yaydoq ot mingan Mitka Korshunov cherkov panjarasi yoniga kelib to‘xtadi. Otdan tushdi, jilovini yoliga tortib tang‘idi va qizishgan otni kafti bilan qoqib qo‘ydi. Birpasgacha tuyoqlarning chapillaganiga quloq solib turdi, so‘ngra kamarini tuzatib, ichkari kirdi. Bo‘sag‘aga yetganda papaxini qo‘lga oldi, egri-bugri qilib gir aylantirib olingan sochli boshini egdi va xotin-xalajni turta-turta, mehrob tagiga yetib oldi. Chap tomonni, bir uyur qora yilqi singari kazaklar egallagan, o‘ng tomonda rang-barang kiyim kiygan ayollar turar edi. Mitka ko‘z yugurtirib birinchi qatorda turgan odamlar orasidan otasini topdi-da, uning oldiga bordi. Miron Grigoryevichning cho‘qinishga ko‘tarilgan qo‘lini tirsagidan tutib, sertuk qulog‘iga:

– Dada, bu yoqqa chiqing, – deb shivirladi.

Mitka qo‘lansa hidlarga chiday olmay, burnini jiyirib, olomon orasidan zo‘rg‘a o‘tib kelardi: yongan mum sham isi dimog‘ini yorar, xotinlar badanidan tarqagan o‘tkir ter hidi, bisotdan chiqqan kiyimliklarning hidi ko‘nglini aynitardi (bu kiyimlar yilda ikki martagina: Rojdestvo hamda Pasxada sandiqdan chiqardi), naftalinning sassig‘iga, ivigan charm poyabzalning qo‘lansa isiga, ro‘za tutib ochiqqan odamlarning ichi qulduraganiga toqat qilib bo‘lmasdi.

Ostonaga kelgach, Mitka ko‘ksini otasining kiftiga tirab turib:

– Natalya o‘lar holatda! – dedi.

## XVII

Grigoriy Yevgeniyni Millerovoga eltib tashlab, Pasxa bayramidan bir hafta ilgari yakshanba kuni qaytib keldi. Havo ilib, qor erigan, ikki kun orasida yo'l bilchillab ketgan edi.

Stansiyadan yigirma besh chaqirim beriroqdagi, Olxovi Rog degan ukrainlar qishlog'ining ro'parasida daryodan o'tayotganda, Grigoriyning otlari cho'kib keta yozdi. Olxovi Rog qishlog'iga Grigoriy kechga yaqin yetib keldi. O'tgan kechasi muz qo'zg'aldi, qor suvi qo'shilaverganidan daryo loyqalanib, ko'pirib-toshib, ko'chalarni suv bosib ketishiga sal qoldi.

Stansiya yo'lida to'xtaydigan, otlarga yem berib oladigan karvonsaroy ham, aksiga, daryoning narigi betida edi. Kechasi bilan suv yana ko'payish ehtimoli bor edi, shuning uchun Grigoriy daryodan darhol o'tishga jazm qildi.

Kechagina o'zi muz ustidan o'tgan joyga keldi; o'zanidan chiqqan daryoning loyqa suvlari beshik-beshik bo'lib oqmoqda, bir bo'lak chetanni, yarimta arava to'g'inini chirpirak qilib olib ketmoqda edi. Qori erib ketgan qum ustida yangi o'tgan chanalarning izi ko'rinardi. Grigoriy ter bosgan, chov oralarigacha ko'pirib ketgan otlarni to'xtatib, chanadan irg'ib tushdi-da, chana izlarini ko'zdan kechira boshladi. Chanadan qum ustiga ingichka iz tushgan, daryo bo'yidagi izlar sal-pal chapga burilib, suv ichida g'oyib bo'lgan edi, Grigoriy daryoning enini ko'zi bilan chamalab ko'rdi: ko'p bo'lsa – yigirma sarjin kelardi, xolos. Otlarning yoniga borib, abzallarini ko'zdan kechira boshladi. Shu payt eng chetki hovlidan tulki telpak kiygan ukrain chol chiqib, Grigoriy tomon kelaverdi.

– Bu yerdan o'tyaptilarmi? – deb so'radi Grigoriy, tizgini bilan ko'pirib oqayotgan loyqa suvni ko'rsatib.

– Ha, o'tayotirlar. Shu bugun ertalab o'tishdi.

– Chuqurmi?

– Yo'g'-e. Lekin chanani ko'msa ko'madi.

Grigoriy tizginini tortdi, qo'liga qamchi olib, «chuv» deb otlarni niqtadi. Otlar pishqirib, suv iskab, istar-istamas qadam tashladi.

Grigoriy tik turib olib:

– Chuv! – deb qamchiladi.

Chap yoqdagi sag'risi keng to'riq ot, bo'lganicha bo'ldi, deganday qilib boshini bir silkitdi-yu, shatak qayishini yulqinib tortdi. Grigoriy ko'z qiri bilan oyoq ostiga qarab qo'ydi: suv chananing chetidan kelgan, qaynab-toshar edi. Oldin suv otlarning tizzasiga, keyin ko'kragiga chiqdi. Grigoriy endigina orqasiga qaytmoqchi bo'lganda otlar pishqirganicha suzib ketishdi. Chananing ketini suv burib yubordi, otlarning boshlari oqim tomonga o'girilib qoldi.

– «Voy-bo'o'o'y!.. Voy-bo'o'o'y, to'g'ri hayda!..» – deb qirg'oqda u yoqdan bu yoqqa yugurib baqirardi haligi ukrain va negadir, tulki telpagini boshidan olib silkitardi.

Grigoriy, darg'azab bo'lib, hadeb «chu-chu»lab otlarni haydar edi. Suvga cho'kkan chananing ketidan girdoblar hosil bo'ldi. Chana suv oqizib ketgan ko'prikning dikkayib turgan qozig'iga borib qattiq urildi-da, to'ntarilib qoldi. Grigoriy «voh» deb boshi bilan sho'ng'ib ketdi, biroq shunda ham tizginni qo'yib yubormadi. Suv po'stinining etaklaridan, oyoqlaridan tortar, qalqib turgan chana yonida aylantirar edi. Grigoriy bir amallab chap qo'li bilan chananing qo'shqorag'idan ushladi. Tizginni qo'yib yuborib, harsillab surila-surila, ot yog'ochga borib yetdi. Endigina ot yog'ochning uchidagi temirga qo'li yetganda, oqim bilan olishayotgan To'riq, keyingi oyog'i bilan uning tizzasiga tepdi. Grigoriyning nafasi qaytib, postromkani ushlab qoldi. Suv uni otlar yonidan uloqtirib tashlar, qo'li shatak qayishdan chiqib ketay-ketay der edi. Butun badanini suv kesib ketgan Grigoriy To'riqning boshiga tarmashdi; ot jonivor jonsarak bo'lib qonga to'lgan ko'z qorachiqlarini alanglatib, Grigoriyning qinidan chiqayozgan ko'zlariga tikildi.

Grigoriy bir necha marta silliq qayish jilovni qo'lidan chiqarib yubordi; suzib borib uni qayta ushladi, biroq jilov qo'lidan sirg'anib chiqib ketaverdi; pirovardida bir amallab jilovdan ushlab oldi, o'sha zahoti oyoqlari ham yerga tegdi.

– Nooo!!! – Grigoriy kuchining boricha bo'ynini cho'zib, o'zini olg'a tashladi, biroq ot uni ko'ksi bilan bir urib ko'pikli sayoz joyga yiqitib yubordi.

Otlar uni bosib-yanchib, o'qday otilib chanani suvdan olib chiqdi-da, bir necha qadam yerga borib to'xtadi, titrab turgan ho'l sirtlaridan hovur chiqib turardi.

Grigoriy og‘riqni sezmay, o‘rnidan irg‘ib turdi; sovuq badanini xuddi chayondek chaqib oldi. U endi otlardan ham battarroq qaltirar, oyoq ustida turishga chaqaloqchalik majoli yo‘qligini sezardi. Esini yig‘ib olib, chanani ag‘darib to‘g‘riladi-da, otlarni qizitish uchun choptirib ketdi. Qishloq ko‘chasiga xuddi quyunday uchib kirib otlarni birinchi duch kelgan ochiq darvozaga burdi.

Uy egasi xushfe’l odam ekan. O‘g‘lini otlarni qarashga yubordi, o‘zi Grigoriyni yechintirdi va qat’iy qilib xotiniga:

– Pechga o‘t qala! – deb buyurdi.

Grigoriy pech ustida yotib o‘ziga keldi, kiyimlari qurigunca, u uy egasining shimini kiyib turdi, keyin yovg‘on karam sho‘rvani tamaddi qilib, uxlagani yotdi.

Grigoriy tong qorong‘isida yo‘lga tushdi. Yagodnoyegacha bir yuz o‘ttiz besh chaqirim yo‘l bosish kerak, shu sababdan har bir daqiqa g‘animat edi. Bahorgi eruvgarchilikda dasht yo‘llariga ishonib bo‘lmaydi; har bir jarda, har bir soyda qor suvi quturib oqadi.

Qori erib ketgan qora yerda chana sudrash otlarga nihoyatda zo‘r kelardi. Ertalabki yaxmalakda, yo‘ldan to‘rt chaqirim chetroqda bo‘lgan tavrichanlar uchastkasiga bir amallab yetib oldi-da, ayrilishda to‘xtadi. Otlar terga pishgan, orqada chana izlari yiltirab ko‘rinardi. Grigoriy chanani uchastkada qoldirdi, otlarning dumini tugib oldi-da, biriga minib, birini yetaklab yo‘lga chiqdi. Pasxa bayramidan oldingi yakshanba kuni ertalab Yagodnoyega yetib keldi.

Pan Listnitskiy yo‘lda voqe bo‘lgan gaplarni batafsil eshitib, otlarni ko‘rgani chiqdi. Sashka ularni hovlida sovutib yurar, qovog‘ini solib, otlarning qapishib ketgan biqinlariga qarab-qarab qo‘yardi.

– Otlar qalay? – deb so‘radi pan uning oldiga kelib.

Sashka otlarni to‘xtatmasdan:

– Ko‘rinib turibdi-ku, – dedi po‘ng‘illab, oqargan soqolini selkillatib.

– Qattiq haydab koyitmabdimi?

– Yo‘g‘-e. To‘riqning to‘shini bo‘yincha uribdi, xolos. Hech xavfi yo‘q.

– Borib damingni ol, – dedi pan kutib turgan Grigoriyga qo‘li bilan ishora qilib.

Grigoriy xizmatkorlar qo‘shxonasiga kirib ketdi, lekin bir kechagina dam oldi, xolos. Ertasiga ertalab Veniamin kirib keldi; u yangi ko‘k satin ko‘ylak kiygan, har doimgisiday tirjayib kulib turardi.

– Grigoriy, pan chaqiryapti. Darrov!

General kigiz kovushini shaloplatib, zal ichida yurib turgan edi. Grigoriy zalning eshigi oldiga kelib bir yo‘taldi, depsinib turib ikkinchi marta yo‘talganda pan boshini ko‘tarib qaradi.

– Xo‘sh, nima gap?

– Veniamin chaqirdi.

– Ha-ya. Bor, arg‘umoq bilan Chayirni egarla. Lukeryaga ayt: itlarga ovqat bermasin. Ovga boramiz!

Grigoriy ketmoqchi bo‘lib burilganda, pan uni yana chaqirib oldi.

– Eshitdingmi? Men bilan birga borasan.

Aksinya Grigoriyning po‘stini cho‘ntagiga to‘qoch solayotib:

– Ovqatini yeb olganiyam qo‘ymaydi, imonsiz!.. Shayton vasvasasiga yo‘liqqan bu chol, – deb shivirlardi. – Grisha bo‘yningga sharfni bog‘lab olsang-chi, axir!

Grigoriy egarlog‘liq otlarni gulzor oldiga yetaklab keldi, hushtak chalib, itlarni chaqirdi. Egniga ko‘k movut sirilgan belburma kalta po‘stin kiygan, beliga nuqrador kamar bog‘lagan pan uyidan chiqdi. Og‘ziga probka tiqilgan nikel suvdon yelkasida osig‘liq edi; qo‘lidagi qamchini ilon singari ketida sudralib kelardi.

Jilovdorlik qilgan Grigoriy pandan ko‘z uzmay qarab turardi, qoq suyagi qolgan bu cholning lip etib egar ustiga chiqib olganiga hayron qoldi.

General qo‘lqop kiygan qo‘li bilan jilovni o‘nglar ekan:

– Ketimdan yuraver, – deb buyurdi. Grigoriyning ostidagi do‘nan ayg‘ir, xo‘roz singari boshini qiyshaytirib olib, yonlamasiga o‘ynoqlab yurardi. Uning ketingi oyoqlari taqalanmagan, shuning uchun yaxmalakni bossa – tiyg‘onib ketar, oyoqlari bukilib qolardi. Pan sal bukchayib egarga mustahkam o‘rnashib olgan, sag‘risi keng Chayirning ustida tebranib borardi.

– Qayerga boramiz? – deb so‘radi Grigoriy unga yetib olib.

Pan do‘rillab:

– Olshanskiy jariga, – deb qo‘ydi.

Otlar ildam yurib borardi. Arg‘umoq kalta bo‘ynini oqqush singari egib, jilovni qo‘yib yubor deganday yulqinar, Grigoriyga ko‘zini olaytirib boqar, tizzasidan tishlamoqchi bo‘lardi. Pan tepaning ustiga chiqib olgandan keyin, Chayirni yo‘rttirib ketdi. Itlar Grigoriyning orqasidan qator tizilishib kelishardi. Qarigan qora it tumshug‘ining uchini ot dumiga tegizib, izma-iz chopardi. Arg‘umoqning g‘ashi kelib, keyingi oyoqlarini bukib, xira itni tepmoqchi bo‘ldi, u esa to‘xtab qoldi-da, Grigoriyning ko‘ziga ojiz ko‘zlarini tikib qaradi.

Olshanskiy jariga yarim soatda yetib bordilar. Pan bulturgi burgan o‘tlar sarg‘ayib ketgan jar yoqasidan ot soldirib borardi. Grigoriy suv yuvib ketgan o‘nqir-cho‘nqir jarga avaylab ot soldi. Ora-sira u panga qarab qo‘yardi. Onda-sonda o‘sgan yalang‘och sandiplarning kulrang shoxlari orasidan chol xuddi suratdagidek ko‘zga chalinardi. U egar qoshiga engashib, uzangiga bosib sal ko‘tarilganda, beli kazakcha kamar bilan siqilgan ko‘k burma po‘stinining orqasi pufak bo‘lib ketardi. Itlar to‘planishib, baland-past tepaliklar ustidan chopib kelishar edi. Suv yuvib ketgan chuqurlikdan o‘tar ekan, Grigoriy engashib: «Bir chekib olish kerak. Kel, jilovni qo‘yib yuborib, tamaki xaltani olay», – deb o‘yladi qo‘lqopini yechar ekan. Cho‘ntagidan shitirlatib qog‘oz olayotganda jar tepasida:

– Olqish!.. – degan hayqiriq miltiq ovozidek yangradi.

Grigoriy bir irg‘ib tushib, boshini ko‘tarib qaradi; do‘ngning o‘rkachsimon sirtidan pan paydo bo‘ldi; qamchini baland ko‘tarib, Chayirni olatasir choptirib ketdi.

– Olqish!

Tulamagan, qornidagi junlari osilgan qo‘ng‘ir bo‘ri qo‘g‘a va qamish bosgan jar tagidagi botqoqdan, yer bag‘irlab chopganicha o‘tib ketdi. Chuqurdan sakrab o‘tib to‘xtadi va shartta yoniga burilib, itlarni ko‘rdi. Itlar yopirilib, jar etagidagi o‘rmonga qochadigan yo‘lni kesib, uni yoy shaklida qurshab kelmoqda edi.

Bo‘ri koptokday sapchib, do‘ng bag‘ridagi yumronqoziq iniga oyoq qo‘yib, o‘shanaqasi o‘rmon tomonga tumtaraqay bo‘lib qochdi. Qari it o‘qday uchib, uning ro‘parasidan chiqdi, bo‘riga

kushanda bo‘lgan eng o‘tkir novcha oq ko‘ppak – Lochin, sal orqaroqda kelardi.

Bo‘ri nima qilishini bilmay, birpas dovdirab qoldi. Grigoriy jardan chiqayotib jilovni siltadi va shu orada bo‘rini yo‘qotib qo‘ydi, biroq do‘ng ustiga chiqqach, olisda uning lipillab ketayotganini ko‘rdi. Dashtdagi qoraygan siyrak cho‘plar orasidan, burganzor ichidan yer bag‘irlab qora itlar uchib borardi, undan nariroqda yon tomonda pan Listnitskiy, Chayirni qamchi dastasi bilan savalab, tik tushgan jar ustidan sakratib o‘tdi. Bo‘ri ikkinchi jarni mo‘ljallab qoldi. Itlar unga yaqinlashib o‘rab olishdi. Bo‘rining qornidagi junlariga tarmashgan oq ko‘ppak Grigoriyga olisdan oq lattaga o‘xshab ko‘rindi.

– Olqish! Bo-o-s!.. – deb chinqirgan ovoz Grigoriyning qulog‘iga chalindi.

U arg‘umoqning jilovini birato‘la qo‘yib yuborib, oldinda nima bo‘layotganini bilmoq uchun ro‘parasiga tikilib qaradi; lekin ko‘zlari yoshlangan, qulog‘ida shamol guvullab eshitgani qo‘ymasdi. Ovga qiziqib ketgan Grigoriy arg‘umoqning bo‘yniga engashib olib, quyunday uchib borardi. Jar yoqasiga yetib borganda bo‘ridan ham, itlardan ham asar qolmagan edi. Bir lahzadan keyin pan ham chopib keldi. Chayirni taqqa to‘xtatib:

– Qayoqqa ketdi? – deb baqirdi.

– Jarga qochgan chiqar.

– Chapdan to‘sib chiq!.. Hayda!..

Pan, oldingi oyoqlarini ko‘tarib, o‘ynoqlab turgan otining biqiniga poshnasi bilan niqtadi-da, o‘ng tomonga choptirib ketdi. Grigoriy jarga tushayotib, jilovni tortdi; «chu» deb nari tomonga o‘tib oldi. Bir yarim chaqirim joygacha ko‘pirib ketgan arg‘umoqni qamchilab, hayqirganicha choptirib ketdi. Loy ot tuyog‘iga yopishar, shataloq otganda – yuziga sachrardi. Tepalikka ilon izi bo‘lib chiqib ketgan uzun jar o‘ngga burildi va uch bo‘lak jilg‘aga ajradi. Grigoriy ko‘ndalang tushgan jilg‘ani kesib o‘tdi-da, dasht etagida bo‘ri quvib ketayotgan itlarni ko‘rib, qiyalikning yonbag‘ridan ot soldirib ketdi. Itlar bo‘rini jar o‘rtasidagi eman va olxa daraxtlari o‘sgan chakalakdan quvib chiqargani ma’lum bo‘ldi. Jar uchga bo‘linib uch jilg‘a ajralib oqayotgan joydan bo‘ri tekis dalaga chiqdi va itlar-

dan yuz sarjin chamasi o‘zib olib, qadimdan burganzor, changalzor bo‘lib yotgan qaqir dashtga o‘tib oldi.

Grigoriy uzangiga oyoq tirab, uning ketidan qarar, shamoldan yoshlangan ko‘zlarini yengi bilan artardi. Chap tomonga ko‘z qirini tashlab, o‘z yerini, kuzda Natalya bilan shudgor qilgan chor burchak yerini tanidi. Grigoriy jo‘rttaga arg‘umoqni shudgorga soldi; arg‘umoq qoqilib-suqilib shudgor ichidan chiqquncha, Grigoriyning ovga bo‘lgan ishqibozligi so‘nib qoldi. U endi xarsillagan arg‘umoqni istar-istamas no‘qib, pan burilib qaramayotganmikan, degan xayolda uning ketidan tikilib, otini yo‘rttirib ketdi.

Olisda, Qizil jar yonida qo‘shchilarning bo‘sh qolgan kapalari ko‘rinardi. Chetroqda, baxmalday tovlangan shudgorda uch juft ho‘kiz plugini sudrab borardi.

– Bizning hamqishloqlar. Bu kimning yeri ekan?.. Anikushkaniki-ku. – Grigoriy ko‘zlarini qisib tikildi: ho‘kizlarni, qo‘sh haydayotgan odamni tanidi.

– Ushlaaa!..

Grigoriy jarga urib ketmoqchi bo‘lgan bo‘rining yo‘lini kesib chiqish uchun ikki kazakning yugurib ketayotganini ko‘rdi. Kazakcha qizil gardishli furajka kiygan, tasmasi iyagi ostidan tortilgan novcha bir kazak bo‘yinturuqdan sug‘urib olgan temirni qo‘lida o‘ynatib kelardi. Bo‘ri birdaniga chuqur egatga cho‘nqayib o‘tirib qoldi. Oq ko‘ppak Lochin, quyunday uchib kelib, epkini bilan bo‘ri ustidan oshib o‘tdi va oldingi oyoqlari bukilib yiqilib tushdi, qari qanjiq o‘zini to‘xtamoqchi bo‘lib, shudgorga ketingi oyoqlarni tirasa ham, o‘zini tuta olmay, bo‘ri ustiga kelib tushdi. Bo‘ri uni boshi bilan qoqib yubordi, qanjiq bir yonga chalpakday cho‘zilib qoldi. Qoraygan bir gala it g‘ujja bo‘lib bo‘riga tarmashib, shudgor ustida bir necha sarjin joygacha koptokday dumalashdi. Grigoriy pandan biroz oldin ularning tepasiga yetib keldi, otdan irg‘ib tushdi-da, ovchi pichoqni orqasiga qilib, gurs etib cho‘kkalab oldi.

– Mana, bu yoqda!.. Ostida yotibdi!.. Kekirdagidan sol!.. – deb baqirdi temir ko‘tarib chopib kelgan kazak; uning hansiragan ovozi Grigoriyga tanish tuyuldi. Kazak pishillab Grigoriyning yoniga o‘zini tashladi va bo‘rining qornidan tishlab olgan Lochinni bo‘ynidan ushlab, panjasi bilan bo‘rining oyoqlarini mahkam qisib

oldi. Grigoriy, bo‘rining hurpaygan, tikanday junlarini paypaslab, kekirdagini topdi, pichoqni tortib yubordi.

– Itlarni... Itlarni hayda!.. – deb xirillab baqirdi rangi bo‘zarib ketgan pan titrab-qaqshab. U o‘zini otdan tashladi, yumshoq shudgor ustiga kelib tushdi.

Grigoriy itlarni zo‘rg‘a haydab yuborib panga qaradi.

Bir chekkada kazakcha furajka kiygan, amirkon tasmasini iyagi ostidan tortib olgan Stepan Astaxov turardi. U qo‘lidagi temirni o‘ynar, oqarib ketgan quyi jag‘i va qoshlari titrardi.

– Sen qayerliksan, yigit? – deb so‘radi pan. – Qaysi qishloqdan bo‘lasan?

– Tatarskdan, – deb javob qildi Stepan, so‘ngra Grigoriy tomon bir qadam tashladi.

– Kimsan?

– Astaxov.

– Yaxshi yigit, sen qachon uyga qaytmoqchisan?

– Qosh qorayganda.

– Mana buni biznikiga eltib bersang, – Pan oyog‘i bilan bo‘rini ko‘rsatdi; jon talvasasida bo‘ri o‘xtin-o‘xtin tishlarini taqillatar, tirnog‘iga bir parcha jun ilinib qolgan oyog‘ini osmonga ko‘tarardi, – xizmatiga yarasha haq to‘layman, – deb va’da qildi-da, bo‘g‘riqqan yuzidagi terni sharfiga artib, bir chetga chiqdi, so‘ngra yoniga qiyshayib, tasmasi kalta suvdonni yelkasidan zo‘rg‘a oldi.

Grigoriy arg‘umoq oldiga bordi. Oyog‘ini uzangiga qo‘yayotib, burilib qaradi. Butun vujudini titroq bosgan Stepan, bo‘ynini cho‘zib, og‘ir mushtlarini ko‘ksiga mahkam bosib, to‘g‘ri kelar edi.

## XVIII

Korshunovlarning qo‘shnisi Pelageyanikida pasxadan bir hafta ilgari, jumadan shanbaga o‘tar kechasi xotin-xalaj to‘plandi. Pelageyaning eri – Gavrila Maydannikov Lodzdan yuborgan xatida, Pasxada ta’tilga boraman, deb yozgan edi. Pelageya uy ichini dushanba kuniyoq oqlab, supurib-sidirib, payshanbadan beri, ana keladi, mana keladi deb, darvozaga chiqib qarar, sochlari to‘zgan, ozib ketgan, yuzlari bo‘zargan holda chetan devor yonida uzoq turib qolardi; zora kelayotgan bo‘lsa deb kaftini peshonasiga qo‘yib, olis-

larga tikilardi. Uning oy kuni yaqinlashgan, qornidagi bola – haromi emas, o‘z eridan bo‘lgan edi: bultur yozda Gavrila polkdan kelgan, xotiniga Polshadan sovg‘aga chit keltirgan edi; o‘shanda uyda ko‘p turmay, xotini bilan to‘rt kechagina yotgan, beshinchi kuni ichib mast bo‘lib, polyakchasiga, nemischasiga so‘kingan, 1831-yili Polsha haqida to‘qilgan kazakcha qo‘shiqni yig‘lay-yig‘lay aytib bezor qilgan edi. Uni kuzatishga kelgan og‘aynilari, ukalari stol tevaragiga joylashib olib, taomdan avval ichimlik ichib, qo‘shiq aytishgan edi:

*Polsha boy deb aytar edilar burun,*
*Bilsak, hammasi och, usti yupun,*
*Polshada bor ekan bitta mayxona.*
*Polyakcha mayxona, soz qovoqxona.*
*Mayxonada uchta azamat:*
*Aroq ichib o‘tirar har vaqt!*
*Polyak-u nemis va donli bir kazak.*
*Nemis aroq ichib, tanga tashlaydi,*
*Polyak aroq ichib, chervons to‘laydi.*
*Kazak ichadi-yu, pul to‘lamaydi.*
*O‘ziga zeb berib yuraveradi,*
*Mayfurush xotinga ko‘z qisib deydi:*
*«Hoy jonon, kel, sen-la birga ketaylik,*
*Tinch Donga ikkimiz safar etaylik.*
*Ajoyib hayotni ko‘rasan Donda,*
*Sizdagi qashshoqlikdan asar yo‘q unda.*
*Bizning el na yer haydar, na ekin qilar,*
*Na mato to‘qir ular, na ip yigirar,*
*Hamma yaxshi kiyinar, ozoda yurar.*

Taomdan keyin Gavrila xayr-xo‘shlashib ketavergan edi. O‘sha kundan boshlab Pelageya ham dam o‘tmay qornini silab ko‘radigan bo‘lib qoldi.

Natalyaga u og‘iroyoq bo‘lib qolganining sababini shunday tushuntirdi:

– Gavrila kelishidan oldinroq men bir tush ko‘rdim, aylanay. Men soyliqdamishman, Spassdan burunroq sotib yuborgan qari sigirimiz oldimda ketayotganmish; yelinlaridan suti tirqirab yerga

oqarmish... «Xudoyo, tavba-ey, – deyman o‘zimdan o‘zim, – nega buni chala sog‘ibman-a?» Shundan keyin xamirturush so‘rab Drozdixa moma kirib keldi, men unga tushimni gapirib berdim. «Mum shamdan ozgina sindirib olib, dumaloq qilib og‘ilxonaga eltib qo‘y, sigir go‘ngiga ko‘mib tashla, shunday qilmasang, derazangdan balo tikilibdi – biron falokatga uchraysan», dedi. Qarasam, aksiga sham yo‘q, bittagina sham bor edi – uniyam bolalar olishibdi, o‘rgimchak biyni inidan chiqarish uchun ishlatishibdimi, bilmadim. Shu orada Gavryusha kirib keldi – ana tikilgan balo! O‘shangacha uch yil ko‘ylak almashtiraverib, esim ketgan edi, mana endi ko‘r... – Pelageya do‘ppaygan qornini barmog‘i bilan nuqib ko‘rsatardi.

Pelageya erini kuta-kuta xunob bo‘ldi, yakka o‘zi zerikdi, shuning uchun juma oqshom qo‘shni xotinlarni gaplashib o‘tiraylik deb uyga chaqirgan edi. To‘qilib bitmagan paypoqni ko‘tarib, Natalya keldi (bahor yaqinlashgan sari bobo Grishakning oyog‘i sovuqqa chidamay qoldi), bugun uning dimog‘i chog‘ ko‘rinar, joyi kelmasa ham salgina hazil gapga kulaverardi, lekin aslida, erini sog‘inganligini xotinlarga ko‘rsatmaslik uchun jo‘rttaga shunday qilardi. Pelageya, ko‘k tomirlari bo‘rtib chiqqan paypoqsiz oyog‘ini pechdan osiltirib, gap ko‘tarmaydigan yoshgina Froskning jig‘iga tegardi.

– Froska, sen eringni nega urding?

– Bir gap o‘tdi-da, – deb javob berdi Frosya ro‘yxush bermasdan.

Kashulin Matveyning kelini – xoda yutganday qaqqayib yuradigan novcha xotin, har bir so‘zini dona-dona qilib, shoshilmasdan:

– Eringni begona xotin bilan tutib olsang, indamasmiding? – deb so‘rab qoldi.

– Ayta qol, Frosinya.

– Bo‘ldi-da, axir!.. Boshqa gap qurib ketdimi?..

– Noz qilmay gapiraver-da, bu yerda begona odam yo‘q.

Frosya semechka po‘chog‘ini kaftiga tufladi-da, kuldi.

– Ko‘pdan beri men bir balosi borligini sezib yurardim, buning ustiga odamlardan: ering tegirmonda nari tomonlik bir tul xotin bilan donlashib yuribdi, degan gaplarni eshitdim... Tegirmonga bordim, qarasam ikkovi so‘kjuvoz yonida...

Kashulinning kelini gapini bo‘lib:

– Aytganday, Natalya, eringdan xabar bormi? – deb so‘radi.

– Yagodnoyeda yuribdi, – deb sekingina javob berdi Natalya.

– Birga turish xayolingda bormi, yo bas qildingmi?

– Natalyaning xayolida bordir-ku, biroq anavining xayoli boshqada, – deb gapga aralashdi Pelageya.

Natalya, yuziga gup etib qon tepkanini, ko‘zi yoshlanayotganini sezdi. U darhol boshini to‘qiyotgan paypoq ustiga engashtirib ko‘z qirida xotinlarga qarab qo‘ydi, hammaning o‘ziga tikilib turganini ko‘rdi, qizarganini ulardan yashira olmasligiga aqli yetdi-da, tizzasidagi ip koptokni jo‘rttaga yerga tushirib yubordi va engashib, barmoqlari bilan muzday polni titkilay boshladi. Uning jo‘rttaga shunday qilganini hamma payqagan edi.

– Sadqayi sadag‘ang ketsin, kech o‘shandan-ey. Bosh omon bo‘lsa, taqiya topiladi, – astoydil g‘amxo‘rlik bilan maslahat berdi bir ayol.

Natalyaning boyagi yolg‘ondakam vaqti chog‘ligi shamol o‘chirgan uchqunday so‘ndi-qoldi. Xotinlar yangi mish-mish gaplar, g‘iybatlarga o‘tib ketdi. Natalya churq etmay paypog‘ini to‘qir edi. Bir amallab suhbat oxirigacha chidash berdi-da, so‘ngra chiqib ketdi; shu ketishida o‘zicha noaniq bir qarorga kelgan edi. G‘alati ahvolga tushib arosatda qolishi (Grigoriyning butunlay ketganligiga ko‘ngli ishonmas, gunohidan o‘tib uni kutardi), quyidagicha ish ko‘rishga uni majbur etdi: Natalya Yagodnoyedagi Grigoriyga, birato‘la ketganing rostmi, yoki qaytish niyating bormi degan mazmunda xat yozishga qaror qildi. Pelageyanikidan u kech qaytdi. Hujrachada bobo Grishak charm muqovalik, sham tomgan, mijig‘langan injilni o‘qib o‘tirgan edi. Oshxonada Miron Grigoryevich baliq to‘r chetlarini to‘qib bo‘layozgan, qulog‘i Mixeyda edi; u allaqachon o‘ldirilgan odam to‘g‘risida hikoya qilardi. Natalyaning onasi, bolalarni yotqizgan, qorayib ketgan oyog‘ini eshik tomon uzatib pech ustida uyquga ketgan edi. Natalya yechindi, nima qilishni bilmay, uyni aylanib chiqdi. Katta uyning taxta bilan to‘silgan burchagida, – urug‘liqqa qoldirilgan bir uyum zig‘ir orasidan sichqonlarning chiyillashgani eshitiladi.

Natalya buvasining hujrasida bir lahza to‘xtab qoldi. Burchakdagi stol yoniga kelib, ikonalar ostiga terib qo‘yilgan bir dasta diniy kitoblarga anqayib qaradi.

– Buvajon, qog‘ozing bormi?

Chol peshonasini burishtirib, ko‘zoynak tepasidan qaradi:

– Qanaqa qog‘oz?

– Xat yozadigan qog‘oz.

Bobo Grishak bir diniy kitob orasidan mijig‘langan, tutatqi va buho‘r hidi kelgan bir varaq qog‘oz topib berdi.

– Qalam-chi?

– Dadangdan so‘ra, bor, qo‘zim, miyamni achitma. Natalya dadasidan cho‘ltoq qalam oldi. Stol yoniga o‘tirib, ko‘pdan beri o‘ylab qo‘yilgan, yuragini mushuk singari tirnagan o‘ylarini azob ichida yana bir boshdan o‘ylab chiqdi.

Ertalab Getkoga aroq puli va’da qilib, quyidagi xat bilan uni Yagodnoyega jo‘natdi:

«*Grigoriy Panteleyevich!*

*Xat bilan menga xabar ber: men nima qilay, umrim xazon bo‘lib ketaveradimi yo yo‘qmi? Sen uydan chiqib ketayotib, menga bir og‘iz so‘z aytmading. Mendan hech qanday yomonlik ko‘rganing yo‘q, to shu damgacha men, izmimni qo‘limga berarsan yoki kelish-kelmasligingni aytarsan deb kutdim, biroq qishloqdan chetga chiqib olib, na o‘ligingni, na tirigingni bildirmaysan. Avval men, jaholat bilan chiqib ketdi, qaytib kelar deb kutgan edim, lekin endilikda sizlarni bir-biringizdan judo qilmoqchi emasman. Ikki odam baravar xor bo‘lguncha – bir o‘zim xok-turob bo‘lganim yaxshi. Qanday bo‘lmasin, bunchalik berahm bo‘lma – yozib yubor. Javobingni bilsam ko‘nglim alag‘da bo‘lmas edi, hozir esa men arosatda qolganman.*

*Grisha, xatimga xafa bo‘lib yurma, Iso hurmati uchun so‘rayman: mendan xafa bo‘lma.*

*Natalya*».

Ichish mahali kelganini sezgan Getko, otni sekin-asta xirmon tepasiga olib chiqdi; Miron Grigoryevichga bildirmay no‘xta soldi-da, yo‘rttirib ketdi. Ot ustida u kazaklarday ixcham o‘tira olmas edi,

ot yelganda yengi yirtiq tirsagini likillataverardi; tor ko'chada o'ynayotgan bir gala xira kazakvachchaning qiyqirishgan sadolari ostida otini qattiq choptirib ketdi.

– Xoxol!.. Xoxol!..

– Iflos xoxol!

– Hoy, yiqilasan!..

– Devorga chiqib olgan ko'ppakka o'xshaydi!.. – deb bolalar uning ketidan baqirib qolishdi.

Kechga tomon Getko javob keltirdi. Bu qand o'raydigan bir parcha ko'k qog'ozga yozilgan xat edi; qo'ynidan uni chiqarayotib, Natalyaga ko'z qisib qo'ydi;

– Yo'l yurib bo'ladigan emas, oyim beka! O'nqir-cho'nqir, nax Getkoning ichagi uzila yozdi!

Natalya xatni o'qidi-yu, bo'zarib ketdi. Yuragiga to'rt xanjar sanchilganday bo'ldi.

Xatda to'rttagina so'z bor edi: «Yolg'iz turaver. Melexov Grigoriy».

Natalya o'zini tuta olishiga ko'zi yetmadi shekilli, hovlidan uyga kirib, karavotga o'zini tashladi. Lukinichna ertaroq urinib, kulichlarni[10] barvaqt pishirib qutulib olish uchun pechni kechasiyoq qizitib qo'yish taraddudida edi.

– Natashka, kel, qarashib yubor, – deb chaqirdi u.

– Boshim og'riyapti, onajon. Birpas yotay. Lukinichna eshikdan mo'raladi:

– Tuzlagan bodring suvi ichsang bo'lardi, a? Darrov tarqaydi.

Natalya qaqragan tili bilan muzday lablarini yaladi, churq etmadi.

Kechgacha u issiq tivit ro'molga burkanib yotdi. G'ujanak bo'lib qolgan a'zoyi badani uyushib qaltirarli. O'rnidan turib, oshxonaga chiqqanda Miron Grigoryevich bilan bobo Grishak cherkovga otlanishgan edi. Natalyaning ikki chakkasini, tekis taralgan qora sochlar ostini ter bosgan, yiltirab turar, ko'zlari dardmandlikdan nursizlangan, kirtayib qolgan.

Miron Grigoryevich chalvarining enlik kamaridagi qator-qator tugmalarini solayotib, qiziga xo'mrayib qaradi.

---

[10] Pasxa hayitida pishiriladigan balish non. (Tarj.)

– Aksiga shu bugun kasal bo‘lganingni qara, qizim. Yur, muqaddas tong ibodatiga boramiz.

– Boraveringlar, men sal turib boraman.

– Odamlar tarqagandami?

– Yo‘q, kiyinib olaman, xolos... Kiyinaman-u jo‘nayman.

Kazaklar chiqib ketishdi. Uyda Lukinichna bilan Natalya qoldi. Natalya bo‘shashib, sandiq yonidan karavot yoniga borar, sandiqdagi bir uyum bisotiga nursiz ko‘zlarini tikar, lablari shivirlar, qattiq azob ichida nimanidir o‘ylardi. Lukinichna, qaysi kiyimini kiyishni bilmay turibdi, deb gumon qildi-da, onalik mehri tutib:

– Qo‘zim, mening ko‘k yubkamni kiyaqol, – dedi. – Senga juda yarashadi-da.

Bu yil pasxaga Natalya uchun yangi kiyim tiktirmagan edilar, qizi erga tegmasdan oldin, har hayit etagi tor ko‘k yubkasini yaxshi ko‘rib kiygani Lukinichnaning esiga tushdi-da, Natalyaning ko‘ngli o‘ksimasin deb, o‘z bisotini unga so‘na qila qoldi.

– Kiyasanmi, hozir olib beraman.

– Yo‘q. Shu kiyimimda ketaveraman. – Natalya o‘zining yashil yubkasini sandiqdan avaylab oldi-da, birdaniga, to‘ydan oldin Grigoriy yuzko‘rarga kelganda shu yubkani kiyib chiqqani, o‘shanda salqin bostirma tagida birinchi marta bo‘sa olib uyaltirgani esiga tushdi-yu, o‘pkasi to‘lib, hiqillab yig‘lab yubordi, qiya ochilgan sandiq qopqog‘i ustiga ko‘ksi bilan yiqildi.

– Natalya, senga nima bo‘ldi?.. – Ona hovliqib qoldi.

Natalya, sal bo‘lmasa, dodlab yuborar edi, biroq o‘zini bosib oldi-da, yolg‘ondakamiga qiqirlab kuldi.

– Bugun menga bir balo bo‘ldi... mazam yo‘qroq.

– Hoy, Natalya, payqab yuribman...

Natalya panjasi bilan yashil yubkani g‘ijimlab:

– Nimani payqadingiz, oyi? – deb zarda bilan baqirib yubordi.

– Kundan kun mazang qochyapti... seni erga berish kerak.

– Tegib ko‘rdim!.. Bo‘ldi!..

U kiyingani o‘z bo‘lmasiga kirib ketdi-da, birpasda qaytib chiqdi; yasangan-tusangan, xipchabel Natalyaning ranglari o‘chgan, yuzining qizili ketgan edi.

– Bir o‘zing bora tur, men hali tayyor bo‘lganim yo‘q, – dedi onasi.

Natalya dastro‘molini yengiga qistirib, zinapoyaga chiqdi. Shamol Donda oqayotgan muzlarning shuvullagan ovozini hamda erigan qor suvining shifobaxsh hidini keltirardi. Natalya chap qo‘li bilan yubkasining etagini ko‘tarib, ko‘chada sadafdan yiltirab yotgan ko‘lobchalarni chetlab o‘tib, cherkovga jo‘nadi. Yo‘l-yo‘lakay o‘zini bosib olib, og‘ir bo‘lishga shunchalik harakat qilsa ham, hayit to‘g‘risida o‘ylab o‘zini chalg‘itmoqchi bo‘lsa ham, xayoli baribir, qo‘ynida saqlangan o‘sha ko‘k qog‘ozga ketaverardi, ko‘z oldiga Grigoriy va o‘zini masxara qilib kulayotgan, balki rahmi kelib, achinayotgan anavi baxtiyor xotin kelaverardi...

Natalya cherkov panjarasidan kirdi. Yigitlar yo‘lini to‘sishdi. Natalya chetlab o‘tayotib, ularning gapini eshitib qoldi:

– Bu kim? Tanidingmi?

– Korshunovning qizi Natashka-ku.

– Qulg‘una kasali bormish. Shuning uchun eri tashlab ketgan, deyishadi.

– Bekor aytibsan! U o‘z qaynotasi Panteley cho‘loq bilan yuradi.

– E... gap bu yoqda ekaaan! Grishka shuning uchun ham uydan qochgan ekan-da?

– Bo‘lmasa nega qochsin? O‘zi hozir ham...

Natalya notekis yotqizilgan toshlarga qoqila-qoqila cherkov ostonasiga yetib oldi. Ketidan sekin aytilgan behayo yaramas bir so‘z unga qattiq botib ketdi. Ostona yonidagi qizlarning qiqirlab kulishlari ostida, Natalya gandiraklab narigi eshikdan chiqdi-da, uyiga qarab chopdi. Darvozasi oldiga kelganda u nafasini rostlab olib, etaklariga o‘rala-o‘rala, ichkariga kirdi; tishlayverib qonagan, shishgan lablarini qayta-qayta tishlardi. Hovlini bosgan zangori qorong‘ilikda, omborxonaning qiya ochiq eshigi qorayib ko‘rinardi. Alamzada Natalya oxirgi kuchini to‘plab, eshik yoniga chopib borib, shoshganicha ostonadan hatlab o‘tdi. Omborxona – salqin, qayish abzallar, mog‘orlagan poxol hidi anqirdi. Badnomlik, xo‘rlikdan ko‘ngil shishasi chilparchin bo‘lgan Natalya, es-hushini yo‘qotib, paypaslab

burchakka yetdi. Chalg'i o'roqni qo'liga olib, dastasini sug'urib tashladi (u shoshmasdan, adashmasdan, dadil harakat qilardi), so'ngra, boshini orqaga tashlab, o'z qaroridan, dadilligidan mamnun bo'lgandek, o'roq damini tomog'iga solib tortib yubordi. Jazillatgan dahshatli og'riqqa chidolmay, zarb yegan kishidek quladi, biroq qasd qilgan ishi chala qolganligini sal pal payqadi, emaklab borib, tiz cho'kib oldi; endi shosha-pisha (chunki u, tirqirab oqayotgan qondan qo'rqib ketgan edi), kofta yoqasidagi piston tugmalarni qaltiragan barmoqlari bilan yechdi. Dirkillagan ko'kragini bir qo'li bilan tortib turib, ikkinchi qo'li bilan chalg'ining uchini o'ziga ro'para qildi. Tizzalab devor yoniga bordi, o'roqning dasta turadigan to'mtoq tomonini devorga tiradi-da, orqaga qayrilgan boshini qo'llari bilan ushlab, ko'ksi bilan olg'a tashlandi... Ko'ksi karam to'g'raganday g'irch-g'irch etayotganini o'zi aniq eshitardi; og'riq borgan sari o'rtab, ko'ksidan tomog'iga keldi, quloq-miyasini shang'illatib yubordi...

Uy eshigi g'ichirlab ochildi. Lukinichna oyoq uchi bilan zinani paypaslab tushmoqda edi. Cherkov jomxonasidan vazmin zang sadolari eshitilardi. Donda muz palaxsalari mindi-mindi bo'lib, qisirlashib oqardi. Suvga liq to'lgan Don, muzlar jabridan qutulganiga suyuna-suyuna, o'zini asir etgan muzlarni Azov dengizi tomon haydab borardi.

## XIX

Stepan Grigoriyning yoniga keldi-da, uzangisidan ushlab, terlab-pishgan arg'umoqning biqiniga tiralib oldi.

– Xo'sh, ahvol qalay, Grigoriy?

– Xudoga shukur.

– Sen nimani o'ylab yuribsan? A?

– Nimani o'ylardim?

– Birovning xotinini yo'ldan ozdirib... rohat qilmoqchimisan?

– Uzangini qo'yib yubor.

– Qo'rqma... Men seni urmayman.

– Men qo'rqmayman, xotirjam bo'l! – dedi Grigoriy ovozini balandroq chiqarib, uning betlari qizarib ketgan edi.

– Bugun sen bilan mushtlashmayman, mushtlashgim ham yo‘q... Lekin Grishka, shu gapim qulog‘ingda bo‘lsin: bir kunmas, bir kun seni o‘ldiraman!

– «Ko‘ramiz» degan ekan bir ko‘r.

– Buni yaxshi bilib qo‘y. Meni oyoqosti qilding!.. Turmushimni rasvo qilding, so‘qqabosh qilib qo‘yding... buni qara, – Stepan qop-qora kaftlarini ochib, qo‘lini cho‘zib ko‘rsatdi, – yer haydayapman-u, nega haydaganimni o‘zim bilmayman. Yolg‘iz boshim och qoladimi? Bekor yursam ham bemalol qishni chiqaraman. Lekin xalovatim yo‘q, zerikib o‘lib bo‘ldim... Meni qattiq xafa qilding, Grigoriy!..

– Hasratingni menga aytma, baribir tushunmayman. Qorni to‘qning qorni ochdan ne xabari bor, deganlar.

Stepan pastdan Grigoriyga tikilib:

– Shundoq, – deb uning gapini ma’qulladi va birdaniga bolalar singari soddadillik bilan iljayib qo‘ydi, ko‘zlarining chetlarini ajin bosib ketdi. – Bitta pushaymonim bor, yigit... attang deyman, xolos... Esingdami, uzog‘i yil maslenitsada mushtlashganimiz?

– Qachon?

– Huv anavi qorovul o‘ldirilgan yil-chi. Bo‘ydoqlar uylanganlar bilan mushtlashgani esingda-mi? Esingdami, ketingdan quvlaganim? O‘sha kezda sen menga qaraganda kuchsizroq eding, dumbul eding. Rahmim kelib seni ayagandim, bo‘lmasa yugura kelib bir urganimda – ikki nimta qilardim-u qo‘yardim! Sen, kamon singari tarang bo‘lib chopib ketayotgan eding, agar qulochkashlab biqiningga solib qolganimda, til tortmay o‘larding!

– Xafa bo‘lma, yana to‘qnashib qolarmiz.

Stepan yana allanimalarni eslamoqchi bo‘lib, peshonasini ishqaladi.

Chayirni yetaklab kelayotgan pan Grigoriyni chaqirdi:

– Yur, ketdik!

Stepan yana boyagiday uzangidan ushlab, arg‘umoq yonida kelardi. Grigoriy sergak bo‘lib, uning har bir harakatini kuzatib borardi. Stepanning osilib tushgan malla mo‘ylovini, ko‘pdan beri olinmagan tikandek soqolini balanddan ko‘rib turardi. Stepanning iyagi

ostidan tortilgan amirkon tasma ko'p yeridan tortilgan edi. Ariq-ariq bo'lib oqqan ter loy sachrab kirlangan yuzlarida iz qoldirgan, – afti o'zgacha va notanishdek ko'rinardi. Grigoriy uning yuziga tikilarkan, nazarida tog' ustida turib, yomg'ir buluti qoplagan olisdagi dashtni ko'rayotganday bo'ldi. Stepanning rangi-ro'yi bir holatda, horg'in edi. U xayrlashmay orqada qoldi, Grigoriy esa otini sekin haydab ketdi.

– Hoy, shoshma. Aytganday... Aksyutka qalay? – Grigoriy etigiga yopishgan bir parcha loyni qamchi bilan urib tushirarkan:

– Tuzuk, – deb javob berdi.

Grigoriy arg'umoqni to'xtatib, orqasiga qayrilib qaradi. Stepan oyoqlarini kerib shuvoq cho'pchakni tirjaygan tishlari bilan chaynab turardi. Grigoriyning beixtiyor rahmi keldi, biroq rashki rahmdillikni bosib ketdi, g'archillaydigan egar ko'rpacha ustida burilayotib:

– Seni sog'inib oriqlagani yo'q, g'am yemay qo'ya qol! – deb baqirdi.

– Rostdanmi?

Grigoriy arg'umoqning boshiga qamchi urdi-da, javob qilmay, yo'rttirib ketdi.

## XX

Bola olti oylik bo'lib, homiladorligini yashirishning iloji qolmagandan keyin, Aksinya hamma gapni Grigoriyga aytishga majbur bo'ldi. Shu damgacha, u qornimdagi bola o'ziniki ekaniga Grigoriy inonmas, deb qo'rqar va shuning uchun buni yashirardi, o'qtin-o'qtin xafaqonligi tutib, vahima bosib, sarg'ayib ketar, nimanidir kutardi.

Birinchi oylari go'shtli ovqatni ko'rsa, Aksinyaning ko'ngli aynaydigan bo'ldi, lekin Grigoriy buni sezmas, sezsa ham, sababini bilmas, bunga ahamiyat bermasdi.

Gap kechqurun ochildi. Aksinya voqeani hayajon ichida so'zlab berdi va Grigoriyga qanday ta'sir etganini bilmoqchi bo'lib yuziga tikilib qaradi, biroq u derazaga o'girilib olib, jahl aralash yo'talardi, xolos.

– Shu vaqtgacha nega indamading?

– Yuragim bo'lmadi, Grisha... meni tashlab ketasan deb qo'rqdim...

Grigoriy karavot panjarasini chertib turib so‘radi:

– Yaqinmi?

– Spas kunlariga borar deyman...

– Stepannikimi?

– Seniki.

– Ana, xolos.

– Hisoblab ko‘r, axir... O‘sha o‘tin kesish vaqtida bo‘lib qolgan.

– Bo‘lmagan gapni qo‘ysang-chi, Ksyusha! Stepandan bo‘lgandayam iloj topolmaymiz! Men ochig‘ini bilmoqchiman.

Aksinya achchiq ko‘z yoshlarini oqizib, kursida o‘tirar, o‘pkasi to‘lib shivirlardi:

– Uning bilan shuncha yil turib bola ko‘rganim yo‘q! O‘zing o‘ylab ko‘r!.. Men, axir, soppa-sog‘ xotin bo‘lsam... Sendan bo‘lmay kimdan bo‘lsin? Sen bo‘lsang...

Grigoriy bu to‘g‘rida qaytib gap ochmadi. Oralariga sovuqchilik tushgan, u endi Aksinyaga begona kishidek muomala qiladigan va achingan odamday istehzo aralash kulib gapiradigan bo‘lib oldi. Aksinyaning dami ichiga tushib, qadimgiday erkalanishni ham yig‘ishtirib qo‘ydi. Yoz ichi rang-ro‘yi ancha o‘zgargan, lekin homiladorligi – kelishgan qomatiga uncha ta’sir etmagan: gavdasining to‘laligi qorni do‘ppayganligini bildirmas edi, so‘linqiragan yuzlari, qaytaga, ikki ko‘zini yana ham chiroyliroq qilib ko‘rsatardi. Oshxonadagi ishlar qo‘lining uchi bilan osongina bitaverardi. O‘sha yili ishchilar oz bo‘lgani uchun, ovqat ham kam pishirilardi.

Sashka bobo, injiq qariyalarga xos mehr bilan Aksinyaga bog‘lanib qolgan edi. Aksinya uni o‘z otasiday ko‘rib, ust-boshlarini yuvib turgani, ko‘ylaklarini yamab bergani, ovqat mahalida og‘ziga yoqadigan luqmalarni uzatib turgani, ehtimol, bunga sabab bo‘lgan chiqar; Sashka bobo otlar yonidan bo‘shadi deguncha, oshxonaga suv tashir, cho‘chqalarga pishirilgan kartoshkani ezib berar, ishqilib, har doim qarashib turardi, xursandligidan o‘yin tushib, qo‘llarini kerib qo‘yar, milklarini ko‘rsatib:

– Senki menga rahm qilding, men ham qarab turmasman, – derdi. – Senga men, Aksinyushka, anqoning tuxumi desang – topib kelaman. Ayol kishi xabar olib turmasa, holim nima kechardi? Bitlab ketuvdim! Nima kerak bo‘lsa, aytaver.

Grigoriy, Yevgeniy Nikolayevichning vositachiligi tufayli lagerga borishdan qutulib, dalada pichan o'rar, ahyon-ahyonda keksa panni stansiyaga olib borar, qolgan vaqtini xo'jayinga qo'shilishib, bazg'aldoq otish yoki ot solib tuvaloq ovlash bilan o'tkazar edi. Yengil mehnat, to'q turmush uni buzdi. Grigoriy semirib, yalqov bo'lib, ancha yoshga kirgan odamga o'xshab qolgan edi. Faqat bir narsa – askarlik xizmatiga borish g'ami uni bezovta qilardi. Unda na ot va na aslaha bor, otadan ham umid yo'q edi. Grigoriy o'zining va Aksinyaning oyliklarini to'plar, hatto tamaki olib chekishga ham ziqnalik qilar, otasiga yalinmasdan pul jamg'arib, ot sotib olishni mo'ljallar edi. Pan ham yordamlashaman deb va'da qildi. Grigoriyning, otam hech narsa bermas, degan fikri to'g'ri chiqdi. Iyun oyining oxirlarida Petro ukasini ko'rgani keldi; gap orasida, otasining hali ham jahldan tushmaganini, bir kuni, men ot olib bermayman, piyoda askar bo'lib ketaversin, deganini gapirib berdi.

– Bekorga vaqillayvermasin! Men piyoda borib bo'pman: ot topiladi menga. – (Grigoriy «ot» so'zini chertib aytdi).

– Qayoqdan olasan? – Petro mo'ylovini chaynab kuldi. – Qoshingni uchirasanmi?

– Qosh uchiramanmi, tilab olamanmi – otsiz qolmayman, zo'r kelsa, ot o'g'irlashdan ham toymayman.

– Barakalla!

– Oyligimga olaman, – dedi jiddiy qilib Grigoriy.

Petro zinada o'tirib, ishini, oladigan oyligi va ovqatlarini surishtirdi; Grigoriyning hamma gaplariga «hah-ha» deb, mo'ylovini chaynab turib quloq soldi, hamma narsadan xabardor bo'lgandan keyin, xayrlashayotib:

– Uyga qaytsang bo'lardi, judayam oyog'ingni tirab olma, – dedi. – Odam ham shunchalik pul shaydosi bo'ladimi?

– Men pul uchun yurganim yo'q.

– Xotining bilan turmoqchimisan? – deb gapni boshqa yoqqa burdi Petro.

– Qaysisini so'rayapsan?

– Manavisini.

– Hozircha aynaganim yo'q, nimaydi?

– O'zim, bilgim kelib so'radim-da.

Grigoriy akasini kuzatgani chiqdi. Ketar oldi:

– Uydagilar qalay? – deb so'rab qoldi.

Zinapoya yonidagi panjaradan otini yechayotgan Petro kuldi:

– Senga uy kerak emas, qayga borsang – bitbildiq, yuraverasan. Yomon emas, bir amallab tirikchilik o'tyapti. Onang seni ko'p yo'qlaydi. Bu yil pichanni rosa yiqqanmiz, uch joyga g'aram qilib qo'yibmiz.

Grigoriy, Petro minib kelgan qari chinoq biyaga hayajonlanib tikilardi.

– Qulunladimi?

– Yo'q, qisir chiqdi, uka. Xristonyadan ayriboshlab olgan anavi to'riq biyamiz qulunladi.

– Quluni nima?

– Erkak. Shunday qulunki – bahosi yo'q! Oyoqlari uzun-uzun, to'shi kelishgan, hamma yog'i joyida. Alomat bir arg'umoq bo'ladi.

Grigoriy xo'rsinib qo'ydi.

– Qishloqni sog'inyapman, Petro. Donni sog'indim, bu yerda oqar suv degan narsa yo'q. Yomon joy ekan!

Petro qorni bilan egarga yopishib, o'ng oyog'ini otdan oshirarkan:

– Sog'insang, borib tur, – dedi.

– Mavridi kelsa, boraman.

– Xayr bo'lmasa!

– Oy borib, omon yetgin!

Petro hovlidan chiqqandan keyin bir narsa esiga tushib, darvoza oldida turgan Grigoriyga ovoz qildi:

– Aytganday, Natalya... senga aytmabman... Ish chatoq...

Hovli ustida kalxatday aylangan quyun gapning oxirini Grigoriyga eshittirmay qo'ydi: Petro ot-poti bilan chang ichida qolib ketdi, Grigoriy uning nima deganini tushunmay, qo'l siltadi-da, otxonaga kirib ketdi.

Yoz qurg'oq kelgan edi. Yog'ingarchilik juda kam bo'lganidan g'alla tez yetildi. Qora bug'doydan qutular-qutulmas arpa pishdi, somoni sarg'ayib, qiltanoqli boshoqlari yerga salom qilib qoldi. To'rtta kelgindi mardikor bilan Grigoriy arpa o'rog'iga jo'nadi.

Aksinya o'choq boshidan barvaqt qutuldi-da, Grigoriyga, meni ham o'zing bilan birga ola ketgin, deb yalindi.

– Uyda o‘tirsang-chi, senga nima zaril keldi? – dedi Grigoriy uni yo‘ldan urmoqchi bo‘lib, lekin Aksinya o‘z gapida mahkam turib oldi, keyin nari-beri kiyinib, darvozadan chiqdi-da, mardikorlar tushgan arava ketidan yugurdi.

Aksinya ko‘pdan beri goh tashvish bilan, goh suyunib sabrsizlik bilan kutgan, Grigoriyning ko‘ngliga g‘ulg‘ula solgan narsa o‘roq mahalida ro‘y berdi. Aksinya o‘rilgan arpani yig‘ayotib, bir xil bo‘la boshlaganini sezdi, darhol ishni yig‘ishtirib, g‘aram yoniga borib yotdi. Salgina vaqt o‘tar-o‘tmas to‘lg‘oq boshlandi. Ko‘kargan tilini tishlab, Aksinya chalqanchasicha yotardi. O‘roq mashinada arpa o‘rayotgan ishchilar otlariga qiyqirib, uning yonidan tez-tez aylanib o‘tib turishardi. Burni tushib ketgan, sariq yuzlari burishib ketgan bir ishchi, yonidan o‘tayotib Aksinyaga gap qotdi:

– Hoy, yotgan joyingni qara-ya, boshqa joy qurib ketdimi? Tur, oftobda erib ketasan, axir!

Mashinani boshqa birovga topshirib, Grigoriy uning yoniga keldi.

– Nima qilib yotibsan?

Aksinya zo‘rg‘a lablarini burib bo‘g‘iq ovoz bilan:

– To‘lg‘oq keldi, – dedi.

– Uyda o‘tir, devdim-ku, arvoh urgur! Endi nima qilamiz?

– So‘kma, Grisha... Voy!.. Voy!.. Grisha, aravani... qo‘sh! Uyga boraylik... Bu yerda qanday qilib?.. Kazaklar yurishibdi... – deb ingradi Aksinya; uning dardi qattiq tutib qolgan edi.

Grigoriy pichanzorda o‘tlab yurgan otni olib kelish uchun yugurdi. Aravani qo‘shib yetib kelguncha, Aksinya emaklab bir chetga o‘tgan, chang-to‘zon bosgan bir uyum arpa orasiga boshini tiqib, ikki qo‘li va ikki tizzasini yerga tiragancha qolgan edi, dardi zo‘rligidan hadeb qiltanoqli boshoqni chaynab tupurardi. Yugurib kelgan Grigoriydan yotsiraganday anqovsirab, shishinqiragan ko‘zlarini unga tikdi-da, birdaniga qichqirib yubordi, bu xunuk hayvoniy ovozni ishchilar eshitib qolmasin deb, o‘sha zahotiyoq etagini mahkam tishlab oldi.

Grigoriy uni aravaga yotqizib, qo‘rg‘on tarafga otini haydadi.

– Voy, sekinroq hayda!.. Voy, o‘ldim!.. Shal-di-ra-at-maaa!.. – deb baqirardi xirillab Aksinya, sochlari to‘zigan boshini qayerga qo‘yishini bilmay.

Grigoriy churq etmay otni savalar, tizginni bosh ustida aylantirar, xirillab baqirgan ovoz tomonga burilib qaramasdi. Aksinya boshini changallab olgan, qinidan chiqayozgan ko'zlarini telbalar singari alanglatar, sapchib-sapchib tushardi, arava esa, iz tushmagan o'nqir-cho'nqir yo'l ustida chayqalib kelardi. Ot uchib borardi; Grigoriyning ro'parasidagi duga bir me'yorda tebranar, uning tepa tomoni, osmonda muallaq turgan billurday toza, qirrador bulutni to'sib qolgan edi. Aksinya chiyillab chinqirib yubordi-da, birdaniga ovozi o'chdi. G'ildiraklar shaldirar, Aksinya shalvillagan boshini aravaning yon taxtasiga duk-duk urib olar edi. Grigoriy uning nega to'satdan jimib qolganini tushunmay, xavotirlanib orqasiga qaradi: afti nihoyatda xunuklashib, burishib ketgan Aksinya, chakkasini yon taxtaga tirab suvsiz qolgan baliqday og'zini kappa-kappa ochardi. Ichiga tushib ketgan ko'z kosalariga peshonasidan ter quyardi. Grigoriy uning boshini ko'tarib, ostiga g'ijimlangan furajkasini qo'ydi. Aksinya ko'zlarini ola-kula qilib qat'iy gapirdi:

– Grisha, men odam bo'lmayman. Hey... ana tamom!

Grigoriy seskanib tushdi. To'satdan badani uvishib, ter bosgan oyoqlarining panjalarigacha muzlab ketdi. Grigoriy qattiq hayajonga tushib, dalda berish uchun, ko'nglini ko'tarish uchun shuncha o'ylasa ham, tuzukroq so'z topa olmadi; qovjiragan lablari orasidan:

– Bekor aytibsan, esi past! – degan so'z chiqib ketdi. U boshini bir silkitib, ikki bukilib engashdi-da, Aksinyaning oyog'idan ushladi. – Aksyutka, jonginam, nima bo'ldi?..

Bir lahza bosilgan og'riq o'n baravar zo'rayib yana qattig'idan ushladi. Aksinya qorni pasayib, ichida bir nima uzilganday bo'lganini sezar, kamonday egilib buralar, borgan sari jon-jahdi bilan qattiqroq chinqirardi, tovushi Grigoriyning quloqlarini teshib yuborgudek bo'ldi. Grigoriy esini yo'qotib, otni haydagani haydagan edi.

G'ildiraklarning shaldir-shulduri orasidan:

– Gri-i-sha! – degan ingichka nola qulog'iga chalindi.

Grigoriy tizginini tortib, ketiga burilib qaradi: Aksinya qonga bulanib, qo'llarini ikki yoqqa tashlab yotardi. Etagi ostida bir nima qimirladi, «big'» etgan ovoz chiqdi... Esankirab qolgan Grigoriy, sakrab yerga tushdi-da, oyog'i tushovlanganday gandiraklab, ara-

vaning orqasidan keldi. Aksinyaning jizg'in hidi kelib turgan og'ziga tikilib qoldi, nima deyayotgani qulog'iga kirmasa ham, lablarining qimirlashidan:

– Kindigini qirq... tishing bilan... ko'ylagingdan ip olib bog'la... – deganini fahmladi.

Grigoriy qaltiragan barmoqlari bilan bo'z ko'ylagidan ip chuvatdi, ko'zlarini chirt yumib, bolaning kindigini tishlab uzdi, so'ngra qon sirqigan uchidan yaxshilab bog'lab qo'ydi.

## XXI

Listnitskiyning Yagodnoyedagi yer-suv, mulki keng cho'l orasiga suqilib kirgan. Shamol o'zgarib, goh janubdan, goh shimoldan urib turar; ko'kish osmonda quyosh suzib yurar edi; kuz yozning yoqasiga yopishdi, xazonrezgilik boshlandi, uning ketidan qahraton qish keldi, sovuq tushdi, qor, bo'ron boshlandi. Biroq Yagodnoyeda kechagi kunni bugungisidan ajratib bo'lmasdi, olamdan bexabar, chetda qolgan bu qo'rg'onda xunobgarchilik hukm surardi.

Ko'zlarining jiyagi qip-qizil g'iqildoq qora o'rdaklar hovlida lapanglab yurgani-yurgan edi, targ'il chipor sesarka tovuqlar doim kurkillashar, patlari rang-barang tovlangan tovuslar otxona tomida mushuk singari miyovlab bezor qilishardi. Keksa general parrandani yaxshi ko'rardi, hatto, o'q tekkan turnani ham boqib asrardi; noyabr oyida bu turna osmonda uchib ketayotgan erkin sheriklarining chuldirab chaqirgan ovozini eshitishi bilan, nola qilaverib, odamning yurak-bag'rini ezardi. Biroq turna ucha olmas: bo'g'inidan singan qanoti shalvayib qolgan; general esa turnaning bosh egib, yerdan ko'tarilmoqchi bo'lib talpinayotganini derazadan tomosha qilardi, – atrofini oppoq mo'ylov qoplab olgan katta og'zini ochib kular, bo'm-bo'sh oq zalda uning qahqaha sadosi yangrardi.

Veniamin ham paxmoq sochli boshini g'oz ko'tarib yurar, sovuqqa chalingan oyog'ini qaltiratib, kun bo'yi dahlizdagi sandiq ustida o'tirib, o'zi bilan o'zi qarta o'ynagani-o'ynagan edi. Tixon bo'lsa hali ham o'sha cho'tir xotinni Sashkadan, qarollardan, Grigoriydan, Listnitskiydan, qo'yingchi, turnadan ham qizg'anardi. Lukerya esa, beva xotinlarga xos, cheksiz mehribonlik bilan shu

turnaga ko'ngil qo'ygan edi. Sashka bobo ora-sira mast bo'lib, deraza tagiga kelib tilanishini qo'ymas, xo'jayin yigirma tiyin tashlamaguncha ketmasdi.

Grigoriy kelgandan beri mudroq bosgan qo'rg'onni alg'oq-alg'oq qilgan ikki hodisa ro'y berdi, biri – Aksinyaning tug'ishi, ikkinchisi – nasldor erkak g'ozning yo'qolishi edi. Aksinya tuqqan qizaloqqa tez orada hamma o'rganib qoldi, yo'qolgan g'ozning patini chorbog'dagi jardan topishdi (aftidan tulki olib ketgan bo'lsa kerak), shundan keyin yana tinchib qolishdi.

Pan ertalab ko'zini ochar-ochmas Veniaminni chaqirardi:

– Biron tush-push ko'rdingmi?

– Bo'lmasa-chi, g'alati tush ko'ribman.

– Gapir, – deb buyurardi xo'jayin papiros o'rayotib.

Veniamin tushini gapirib berardi: Agarda tushi qiziq bo'lmasa, yoki vahimali bo'lsa, pan Listnitskiyning jahli chiqardi:

– Voy, esi past, hayvon! Ahmoqning tushiga ahmoqona narsalar kiradi-da!

Veniamin ko'ngil ochadigan, ajoyib-g'aroyib tushlarni o'ylab topishga usta bo'lib olgan edi. Faqat doim miyani ishlatish, tush o'ylab topish unga malol keladigan bo'lib qoldi; oldi-qochdi tushlarni to'qimoq uchun bir necha kun oldindan sandiqqa o'tirib, gilamcha ustida qarta ochardi, qartalari ham xuddi Veniaminning afti singari ho'ppayib, yog' bosib ketgan edi. U ko'zlarini baqraytirib bir nuqtaga tikib o'ylanib qolardi; bora-bora Veniamin hech tush ko'rmaydigan bo'lib qoldi. Uyqudan turib, nima ko'rganini eslamoqchi bo'lar, ammo o'zini qanchalik qiynamasin, qop-qora bo'shliqdan boshqa hech narsani ko'z oldiga keltira olmas, tush u yoqda tursin – bironta inson basharasini ko'rganligini bilmasdi.

Veniaminning oddiy to'qima gaplar o'ylab chiqarishga aqli yetmay qoldi, ba'zi «tushlarini» ikkinchi marta takrorlaganini pan sezib:

– Hoy, isqirt, payshanba kuni ham menga ot haqidagi shu tushingni gapirgan eding. Bu nimasi axir, arvoh urgur?.. – deb o'shqirardi.

– Shu tushni yana ko'rdim, Nikolay Alekseyevich! Xudo haqqi, ikkinchi marta ko'rdim, – der edi Veniamin bezrayib.

Dekabr oyida Grigoriyga odam yuborib, uni Veshenskayadagi stanitsa mahkamasiga chaqirtirdilar. Grigoriy ot uchun yuz so'm pul va Rojdestvoning ikkinchi kuni Mankovo slobodasidagi harbiy uchastkaga borish to'g'risida chaqiruv qog'ozi oldi.

Grigoriy stanitsadan kallasi g'ovlab qaytdi: Rojdestvo yaqin, hali hech narsasi tayyorlanmagan. Xazinadan olgan hamda o'zi to'plagan pulga Obrivskiy qishlog'idan ot sotib oldi. Otni ko'rib-bilib olish uchun Sashka bobo bilan borgan edi, yuz qirq so'mga bopta bir otni savdo qilishdi: tusi to'riq, olti yashar, sag'risi keng edi; faqat kishi bilmas bir illati bor edi.

Sashka bobo soqolini silab:

– Bundan arzonini topolmaysan, boshliqlar aybini payqashmaydi, bunga farosatlari yetmaydi, – dedi.

Grigoriy sotib olgan otini minib qaytdi, yo'lda uni yo'rttirib, yeldirib ko'rdi. Rojdestvoga bir hafta qolganda Panteley Prokofyevichning o'zi Yagodnoyega kirib keldi. Chanachaga qo'shilgan biyani qo'raga olib kirmay, chetan devorga bog'ladi-da, xizmatkorlar turadigan uy tomon cho'ltonglab kelaverdi; chol po'stin yoqasi ustiga tushgan qop-qora soqolidagi yaxlarni birma-bir uzib tashlardi. Grigoriy derazadan otasini ko'rib, gangib qoldi.

– Ana, xolos!.. Dadam...

Aksinya negadir, belanchak oldiga yugurib borib, chaqaloqni yo'rgay boshladi.

Panteley Prokofyevich, ichkariga o'zi bilan sovuq havo olib keldi; telpagini olib, ikonaga qarab cho'qindi-da, devorlarga sekin nazar solib chiqdi.

– Salomatmisiz?

Grigoriy salomlashgani o'rnidan turib:

– Salom, dada! – dedi va bir qadam tashlab, uyning o'rtasida to'xtab qoldi.

Panteley Prokofyevich muzlagan qo'lini Grigoriyga uzatdi, o'rindiqning bir chetiga o'tirib, po'stin etaklarini yig'ishtirdi, lekin belanchak yonida qotib qolgan Aksinyaga qaramadi.

– Xizmatga boradigan bo'ldingmi?

– Bormasa bo'ladimi?

Panteley Prokofyevich indamay Grigoriyga sinchiklab uzoq tikildi.

– Yechinib o‘tiring, dada, yo‘lda sovqotgandirsiz?

– Hechqisi yo‘q, o‘rganganmiz.

– Samovar qo‘yaylik.

– Rahmat. – Chol po‘stiniga yopishgan loyni tirnog‘i bilan ko‘chirar ekan, dedi: – Senga kiyim-kechak, jabduq olib keluvdim, – ikkita shinel, egar, chalvar... Hammasi chanada turibdi, borib ol.

Grigoriy boshyalang chiqib, chanadagi ikki qopni olib keldi.

Panteley Prokofyevich o‘rnidan turayotib:

– Qachon jo‘naysan? – deb so‘rab qoldi.

– Rojdestvoning ikkinchi kuni. Bu nimasi, dada, ketmoqchimisiz?

– Tezroq qaytmasam bo‘lmaydi.

U Grigoriy bilan xayrlashdi, yana boyagiday Aksinyaga qayrilib ham qaramasdan, eshik tomon yurdi. Eshikning zanjiridan ushlab, belanchak tomonga bir qarab quydi.

– Onang salom aytgin degan edi, oyoq og‘riq... – Cholning dami ichiga tushib ketdi so‘ngra og‘ir narsani ko‘tarayotgan odamday ijirg‘anib: – Men ham boraman, Mankovogacha seni kuzatib qo‘yaman. Shaylanib tur, – dedi.

Chol qo‘llariga issiq jun qo‘lqop kiyib, uydan chiqib ketdi. Loaqal odammisan, itmisan demaganiga Aksinyaning xo‘rligi kelib, rangi o‘chib, indamay qolaverdi. Grigoriy, unga hadeb ko‘z qirini tashlar, uyning bu boshidan u boshiga borib kelar va atayin g‘ijirlagan bitta taxtani bosar edi.

Rojdestvoning birinchi kuni Grigoriy pan Listnitskiyni Vyoshenskayaga olib bordi.

Pan cherkovda tushki ibodatdan keyin o‘sha yerdagi xolavachchasi – zamindor ayolnikida ovqatlandi, so‘ngra chana qo‘shishni buyurdi.

Grigoriy bir kosa cho‘chqa go‘shtli, yog‘li karam sho‘rvani ichib ulgurolmay, o‘rnidan turib, otxonaga jo‘nadi.

Shaharga boriladigan yengil chanaga ko‘k ola-chipor otni, Shibayni qo‘shar edilar. Grigoriy uning jilovidan mahkam ushlab, otxonadan olib chiqdi va shosha-pisha chanaga qo‘shdi.

Shitirlatib ninaday qor yog‘ar, shamol uni hovlining bu boshidan u boshiga quvalab yurardi. Gulzorning nariyog‘idagi daraxtzor

ustiga tushgan qirov shokila-shokila bo'lib osilib turardi. Shamol daraxtlarni silkitar, yerga sochilib tushayotgan qirov, oftobda kamalak singari ajoyib rang-barang tusga kirib tovlanardi.

Tom tepasida, qiyshayib tutun chiqayotgan qop-qora mo'ri yonida sovqotgan zaxchalar chag'illashardi. G'archillagan oyoq tovushidan hurkib, hammasi havoga ko'tarildi, ko'kimtir qanotlarini lopillatib uy ustida birpas aylanishdi-da, ertalabki gunafsharang osmon bag'rida javlon qilib, kun botishga, cherkov tomonga uchib ketishdi.

Grigoriy zinapoyaga yugurib chiqqan cho'ri qizga:

– Kirib ayt: chana tayyor! – deb tayinladi.

Pan og'iz-burnini po'stinining yoqasiga o'rab, uydan chiqdi. Grigoriy uni chanaga o'tqazib, oyoqlarini o'rab, bo'ri terisidan qilingan duxoba avrali po'stakni tizzasi ustiga tashladi.

Pan ko'zi bilan arg'umoqni ko'rsatib:

– Hayda-chi, bir qizishib olsin, – dedi.

Grigoriy o'tirg'ich ustida o'zini orqaga tashlab, tizginni tarang tortib haydar va qo'rqa-pisa yo'lning baland-pastiga zehn solib borardi, chunki dastlabki qorda chana sal-pal turtingani uchun pan cho'yanday mushti bilan yelkasiga tushirib qolgani hali esida edi. Qiyalikdan tushib, ko'prik orqali Dondan o'tar ekan, Grigoriy tizginini bo'shatdi, sovuqdan lovullagan betini qo'lqopi bilan ishqalay boshladi.

Ikki soat yelday uchib, Yagodnoyega kirib borishdi. Pan yo'lda churq etmas, faqat ahyon-ahyonda junjikkan barmog'i bilan Grigoriyning yelkasiga turtar va: «To'xtat» derdi, so'ngra shamolga orqasini o'girib tamaki o'rardi.

Tepalikdan tushib, qo'rg'onga kiraverishda:

– Ertaga qay vaqt jo'naysan? – deb so'radi.

– Sahallab, – dedi Grigoriy «Saharlab» deyish o'rniga, uning sovuqdan tili qotib, nazarida shishganga o'xshar va zo'rg'a qimirlardi.

– Pullaringni batamom oldingmi?

– Oldim.

– Xotiningdan ko'ngling to'q bo'lsin: shu yerda turaveradi. Yaxshilab xizmat qil. Bobong azamat kazak edi. Sen ham, – panning

tovushi arang eshitildi. (Shamoldan yuzini to'sib, po'stin yoqasiga burkanib olgan edi), – sen ham bobong bilan otang sha'niga dog' tushirma. Imperator ko'rigida chavandozlikda birinchi mukofotni sening otang olgan-a?

– Shunday: otam olgan.

– Ha, shundoq, – dedi pan tanbeh berayotganday, so'ngra yuzini birato'la po'stinga burkab oldi.

Grigoriy arg'umoqni Sashka boboning qo'liga tutqizdi-da, qo'shxonaga ketdi.

Sashka bobo arg'umoq ustiga yopqich tashlar ekan, uning ketidan:

– Dadang keldi! – deb baqirdi.

Panteley Prokofyevich stol yonida o'tirib ovqatlanardi. Grigoriy dadasining salqi yuziga ko'z tashlab: «Shirakayf ekan», – deb qo'ydi.

– Keldingmi, askar yigit?

Grigoriy qo'llarini bir-biriga ishqalab:

– Toza sovqotdim, – dedi, so'ngra Aksinyaga burildi: – Boshlig'imni yechib qo'y, qo'llarim qovushmay qoldi.

Panteley Prokofyevich kavshanarkan, qulog'i bilan soqoli qimirlar edi:

– Manglayingdan shamol urib, rosa ko'radiganingni ko'ribsan, – deb g'o'ng'illardi u.

Bu safar chol muloyimroq edi. O'z uyida o'tirganday, Aksinyaga buyurdi:

– Nondan yana to'g'ra, ziqnalik qilma.

Chol stol yonidan turib, tamaki chekmoq uchun eshik tomonga qadam tashlar ekan, bexosdan qo'li tegib ketganday ikki marta belanchakni tebratib, govrapo'sh ostidan boshini suqib:

– O'g'ilmi? – deb so'radi.

– Qiz, – deb javob qildi Aksinya Grigoriydan oldin, lekin cholning yuzi bujmayib ketganini sezdi-da: – Xuddi Grishaning o'zginasi, – deb qo'shib qo'ydi.

Panteley Prokofyevich qizchaning yo'rgak orasidan chiqib turgan qoracha boshini ko'zdan kechirib, mag'rurlanib:

– Bizning zurriyot... – deb qo'ydi. – Hm... voy shayton-e...

– Dada, nimada keldingiz? – deb so‘radi Grigoriy.

– Chanada. Qo‘sh ot qo‘shganman, biya bilan Petroning arg‘umog‘ini.

– Bittasi ham bo‘lardi-da, yoniga menikini qo‘shardik.

– Uni chanaga qo‘shish durust emas, salt borgani ma’qul. Yaxshi ot ekan.

– Ko‘rdingmi?

– Ha, ko‘rdim.

Oto-bolaning xayoli faqat bir narsa bilan band bo‘lsa ham, lekin u yoqdan-bu yoqdan, arzimagan narsalardan gaplashib o‘tirishdi. Aksinya gapga aralashmas, suvga tushgan mushukday, karavotda shumshayib o‘tirardi. Ikki ko‘ksi tirsillab, koftasining burmalarini turtib chiqqan edi. Tuqqandan beri u ancha to‘lishgan, ko‘ngli to‘qligi, baxtiyor ekanligi avzoyidan sezilib turardi.

Er-u xotin kech yotishdi. Aksinya hadeb Grigoriyning pinjiga suqilar, ko‘z yoshi va ko‘ksidan tirqirab oqayotgan suti bilan uning ko‘ylagini ho‘llar edi.

– Sensiz holim nima kechadi? Sog‘inib o‘larman...

– Albatta, qiyin, – deb shivirladi Grigoriy.

– Kechalari uzun... bola kam uyqu... Seni deb sarg‘ayib somon bo‘laman... Grisha, o‘zing bir o‘ylab ko‘r: to‘rt yil-a!

– Qadimda yigirma besh yil xizmat qilisharkan.

– Qadimgi gapning menga nima hojati bor?.. – Kel, bo‘ldi qil!

– Erni xotindan ayiradigan bunaqa xizmatga ming la’nat!

– Ta’tilga kelaman.

– Ta’til... – deb uning so‘zini takrorladi Aksinya, uh tortib. So‘ngra ko‘ylagining etagiga burnini qoqdi, – sen kelguncha necha yoz-u qish o‘tib ketar...

– Ko‘p hiqillama... Ko‘z yoshingni hadeb oqizaverasanmi?

– Mening o‘rnimda bo‘lsayding!

Tongotarga yaqin Grigoriy uyquga ketdi. Aksinya bolasini emizdi, so‘ngra tirsagiga suyanib olib, mijja qoqmay Grigoriyning qizilmag‘iz yuziga tikilib qoldi.

Aksinya xayolan Grigoriy bilan vidolashardi. O‘z uyida, Kubanga ketaylik, deb unga yalinib-yolvorgani esiga tushdi, o‘shanda ham hozirgiday osmonda oy suzib yurar, hammayoq sutdek oydin edi.

Grigoriy o‘sha Grisha-ku, lekin endi qadimgidek emas. Oradan talay vaqt o‘tib ketgan.

Grigoriy bu yonboshiga o‘girilayotib uyqusida:

– Olshanskiy qishlog‘ida... – deb alahladi va jim bo‘lib qoldi.

Aksinya uxlay olmay qiynalar, xayol uyqusini shamolday to‘zitardi. Tong otguncha u, alahlab aytilgan ikki og‘iz so‘zni o‘ylab chiqdi, o‘zicha uning ma’nosini topmoqchi bo‘lib ko‘p urindi. Qirov bosgan derazalardan g‘ira-shira yorug‘ tushar-tushmas, Panteley Prokofyevich uyg‘ondi.

– Grigoriy tur, tong yorishdi.

Aksinya cho‘kkalab olib, yubkasini kiydi; uh tortib anchagacha gugurt axtardi.

Nonushta qilib, yig‘ishtiringunlaricha tong otdi. Subhidam ko‘kish nur sochib tovlanardi. Chetanlar qor ichida qaqqayib turar, otxona tomi pistoqirang osmon qo‘ynida qorayib ko‘rinardi.

Panteley Prokofyevich chana qo‘shgani ketdi. Grigoriy jon-jahdi bilan quchoqlab o‘payotgan Aksinyadan o‘zini zo‘rg‘a qutqazib, Sashka bobo va boshqalar bilan xayrlashgani chiqib ketdi.

Aksinya ham chaqaloqni o‘rab, erini kuzatgani chiqdi.

Grigoriy qizining ho‘l peshonasidan o‘pdi-da, otxona tomon yurdi.

– Chanaga chiq! – dedi otasi otlarni haydab.

– Yo‘q, men salt boraman.

Grigoriy jo‘rttaga ivirsib otning ayilini tortdi, shoshmasdan otga mindi va tizginni o‘nglab oldi. Aksinya barmoqlari bilan uning oyog‘ini silar va hadeb:

– Grisha, shoshma... bir nima demoqchi edim... – der edi. So‘ngra peshonasini burishtirib, o‘yga tolar, sarosimalikka tushib dag‘-dag‘ qaltirar edi.

– Xayr, xo‘sh! Bolaga yaxshi qara... Men boray endi, dadam uzoqlab ketdi...

– Shoshmay tur, jonginam!.. – Aksinya chap qo‘li bilan muzday uzangiga osilib, o‘ng qo‘li bilan bariga o‘ralgan bolani bag‘riga bosib Grigoriyga suqlanib qarar, katta ochilgan ko‘zlaridan duvullab oqayotgan yoshlarini artishga qo‘li tegmas edi.

Zinapoyada Veniamin paydo bo‘ldi.

– Grigoriy, pan chaqiryapti.

Grigoriy so‘kindi, otiga qamchi bosib haydaganicha hovlidan chiqib ketdi. Aksinya uning ketidan yugurdi, u hovlida uyulib qolgan qorlarga qoqilar, piyma kiygan oyoqlarini zo‘rg‘a sudrab bosardi.

Grigoriy do‘ng ustida otasiga yetib oldi. O‘zini bosib olib orqasiga qayrilib qaradi. Darvoza oldida Aksinya bolasini etagiga o‘rab bag‘riga bosib turar, qizil shol ro‘molining uchlari shamolda hilpirab o‘ynar edi.

Grigoriy chana yoniga yetib keldi. Otlarning yurishini sekinlashtirdilar. Panteley Prokofyevich o‘girilib:

– Bundan chiqdi, xotining bilan turging yo‘q! – dedi.

– Tag‘in o‘sha eski gap... gapni tamom qilganman...

– Birga turish xayolimda yo‘q degin.

– Yo‘q.

– Xotining o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lganini eshitmadingmi?

– Eshitdim.

– Kimdan?

– Panni stanitsaga olib borganimda, hamqishloq yigitlar bilan ko‘rishgan edim.

– Xudodan qo‘rqmaysanmi?

– Nima qil deysiz endi, dada... o‘tgan ishga salavot-da...

– Sen ko‘p jikillama! Men sen bilan yaxshilikcha gapirishyapman. – Panteley Prokofyevichning zardasi qaynab, tez-tez gapira boshladi.

– Bolam bor, endi nima qilay? Oyoq-qo‘lim bog‘liq.

– Hushyor bo‘l... tag‘in birovning bolasini boqayotgan bo‘lma!

Grigoriyning rangi quv o‘chib ketdi: otasi bitmagan yarasini yangilagan edi. Bola tug‘ilgandan beri Grigoriy ko‘nglidagini Aksinyadan yashirar, o‘zini aldar, lekin shubha ichida qattiq iztirob chekib yurardi. Kechalari Aksinya uyquga ketgan mahalda, ko‘pincha u belanchak oldiga borib, bolaning qizilmag‘izdan kelgan yuzlariga uzoq tikilar va o‘ziga o‘xshagan joylarini topmoqchi bo‘lardi, lekin ko‘ngli tasalli topa olmay, yana shubha ichida o‘rniga kelib yotardi.

Stepan ham qizilmag'izdan kelgan, qoracha yigit edi, – bolaning terisi ostidagi ko'kimtir tomirlarda kimning qoni aylanganini qaydan bilish mumkin? Ba'zan, qizi o'ziga o'xshashday ko'rinardi, ba'zan, uni xuddi Stepanga o'xshatib, yuragi o'rtab ketardi. Grigoriyda bolaga nisbatan hech qanday muhabbat yo'q edi, to'lg'oq azobida qiynalgan Aksinyani aravada olib kelayotgan mahali esiga tushsa, boladan kechib yuborgisi kelardi. Bir kuni ittifoqo, Aksinya oshxonada ovqat pishirayotgan mahalda, Grigoriy qizini belanchakdan olib, ho'llangan yo'rgagini almashtirayotganda, yuragi jiz etgan, o'shanda tarvaygan oyoq panjalarini kishi bilmas, o'pib qo'ygan edi.

Otasining gapi yarador ko'ksiga xanjarday sanchildi; Grigoriy ikki qo'lini egar qoshiga qo'yib, sovuqqina javob qaytardi:

– Kimniki bo'lsa ham, boladan kechmayman.

Panteley Prokofyevich burilib qaramadi, otlarga qarab qamchisini o'ynatib qo'ydi.

– O'shandan beri Natalya nogiron bo'lib qoldi... Xuddi falaj bo'lgan odamday boshini to'g'ri tutolmaydi. Payini kesgan bo'lsa kerak, shuning uchun bo'yni qiyshayib qolgan.

Chol jim bo'ldi. Chana g'irchillab, qor yorib borar; o'xtin-o'xtin Grigoriyning oti qoqilib, taqalari shiqillab ketardi.

Grigoriy ot yoliga yopishgan qo'y tikanni hafsala bilan terar ekan:

– Ahvoli yomon emasmi? – deb so'radi.

– Axir o'ziga keldi. Yetti oy yotdi. Troitsa kunlari o'lib-o'lib qaytdi. Pankratiy hazrat kelib qaytariq qildi... Shundan keyin tuzaldi. Duoning sharofati bilan o'rnidan turdi-yu, yurib ketdi. Chalg'ini xuddi yuragiga mo'ljallab solgan ekan, haytovur, qo'li qaltirab, yonidan o'tib ketibdi, yo'qsa, kuni bitgan edi...

– Tepalikning yonbag'ridan hayda, – Grigoriy otiga qamchi bosdi-da, uzangida tik turib olib, yo'rttirib otasidan o'zib ketdi, ot tuyoqlaridan chanaga qor aralash loy sachradi.

Panteley Prokofyevich chanani haydab, unga yetib olib, baqirib gapirdi:

– Natalyani uyga ko'chirib kelamiz! Otasinikida turgisi yo'q. Anavi kuni men ko'rib qolib, uyga bor deb tayinladim.

Grigoriy indamadi. Birinchi qishloqqa yetguncha churq etmay keldilar, Panteley Prokofyevich ham bu to‘g‘risida og‘iz ochmadi.

Bir kunda yetmish chaqirim yo‘l bosishdi. Ertasi kuni kechga yaqin (uylarda chiroq yoqilgan edi) Mankovo slobodasiga yetib keldilar.

– Vyoshenskayalik kazaklar qaysi mahallaga tushishdi? – deb so‘radi Panteley Prokofyevich birinchi yo‘liqqan kishidan.

– Katta ko‘chadan borsang topasan.

Melexovlar tushgan uyda askarlikka chaqirilgan besh yigit bilan o‘g‘illarini kuzatib kelgan otalar turar edi.

Panteley Prokofyevich otlarni bostirmaga olib kirar ekan:

– Qaysi qishloqdan bo‘lasiz? – deb so‘radi.

– Chir bo‘yidan, – degan ovozlar eshitildi qorong‘ilik ichidan.

– Qaysi qishloqdan?

– Kargindan ham bor, Napolovodan, Lixovidovodan ham bor, o‘zingiz qayerdan?

– Qo‘quydan, – deb kuldi Grigoriy egarni olib, terlagan otning sirtini silar ekan.

Vyoshenskaya stanitsasining atamani Dudarev vyoshenskayalik yigitlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tishga boshlab bordi. Grigoriy tengqur hamqishloqlarini ko‘rdi; ertalab Mitka Korshunov yap-yangi egar urilgan, serhasham yugan va o‘mildiriq taqilgan bo‘ydor jiyron arg‘umoq minib quduq tomonga ot choptirib borar ekan, darvoza oldida turgan Grigoriyni ko‘rgan hamon otiga qamchi bosib, chakkasidagi furajkasini chap qo‘li bilan ushlaganicha, so‘rashmasdan o‘tib ketavergan edi.

Volost mahkamasining sovuq hujrasida yigitlar navbat bilan yechinishardi. Ularning yonlaridan pristav noibi, harbiy mirzalar hamda okrug atamanining ad’yutanti dam-badam o‘tib turishardi; kalta qo‘njli amirkon etik kiygan ad’yutantning qora tosh qadalgan uzugi hamda soqqasi qizargan qop-qora chiroyli ko‘zlari uning oppoq yuzi va akselbantlarini[11] ravshan qilib ko‘rsatardi. Ichkaridan doktorlarning o‘zaro gaplashgani, chalakam-chatti so‘zlari eshitilib turardi.

---

[11] *Akselbant* — chor ofitserlarining yelkalariga taqiladigan zar chilvir. (Tarj.)

– Oltmish to‘qqiz.

Eshik orqasidan birov:

– Pavel Ivanovich, ko‘k qalamingizni uzating, – deb xirilladi.

– Ko‘kragining kengligi...

– Ha, ha, nasliy kasallikning yaqqol namunasi.

– Sifilis, yozib qo‘ying.

– Qo‘ling bilan nega to‘sasan? Qiz bola emassan-ku.

– Qaddi-qomatiga qarang...

– ...Qishloqni shu kasal bosib ketibdi. Favqulodda chora ko‘rish lozim. Men janobi oliylariga allaqachon bu haqda raport berganman.

– Pavel Ivanovich, mana bu shaxsni tomosha qiling. Gavda ham shunday bo‘ladimi?

– Tav-ba-a...

Grigoriy chukarinskiylik novcha, malla yigit yonida turib yechindi. Ichkaridan ust ko‘ylagining yelkalari g‘ijimlangan mirza chiqib, dona-dona qilib:

– Panfilov Sevostyan, Melexov Grigoriy! – deb chaqirdi.

– Tez bo‘l! – deb hovliqib qoldi Grigoriyning sherigi, qizarib, bo‘zarib paypog‘ini yechar ekan.

Grigoriy ichkariga kirdi. Chumoli talaganday orqasi jimirlashar, qizilmag‘iz badani eman po‘stlog‘ining rangiga o‘xshab tovlanardi. U qop-qora jun bosgan oyoqlariga qarar va xijolat chekardi. Burchakdagi tarozi ustida yap-yalang‘och chorpaxl bir yigit turar edi. Ko‘rinishidan feldsherga o‘xshagan bir odam tarozi posongisini surib qo‘ydi-da:

– To‘rt-u o‘n. Tush, – dedi.

Bu qadar sharmandalarcha ko‘rikdan o‘tish Grigoriyni qattiq hayajonga solgan edi. Oq soch, oq xalatli doktor uni trubka bilan tinglab ko‘rdi, yana bitta yoshrog‘i ko‘z qovoqlarini qayirib, tillarini chiqartirib ko‘rdi, ko‘zoynak taqqan uchinchisi – qo‘llarini tirsagigacha shimarib olib, sirtini ko‘zdan kechirdi.

– Taroziga.

Grigoriy muzday g‘adir-budir tarozi ustiga chiqdi.

– Besh-u olti yarim, – dedi tarozibon tarozining lo‘kidonini taraqlatib ko‘tarib qo‘yib.

Mo‘ysafid doktor Grigoriyni qo‘lidan ushlab, aylantirib ko‘rdi-da:

– O‘zi unchalik novcha emas-ku, salmog‘ini qarang, – deb ping‘illadi.

– Ta-aj-jub! – dedi duduqlanib ikkinchi yoshrog‘i.

– Qancha? – deb so‘radi hayron bo‘lib o‘tirganlardan biri.

Mo‘ysafid doktor kamon qoshlarini chimirib:

– Besh pud, olti yarim qadoq, – deb javob berdi.

Okrug harbiy pristavi silliq taralgan qora sochli boshini yonida o‘tirgan kishiga yaqinlashtirib:

– Gvardiyaga yuboramizmi? – deb so‘radi.

– Afti-angori qaroqchinikiga o‘xshaydi... Vajohati xunuk.

– Menga qara, orqangni o‘gir-chi! Sirtingga nima toshgan? – deb so‘radi polkovnik pogoni taqqan ofitser; u toqatsizlanib, barmog‘i bilan hadeb stolni chertardi.

Mo‘ysafid doktor allanima deb po‘ng‘illadi, Grigoriy stol tomonga o‘girilib, jimirlashgan badanining qaltirog‘ini zo‘rg‘a bosib javob qildi:

– Ko‘klam kezi shamollab edim. Chipqon chiqqan. Ko‘rik tamom bo‘lgandan keyin stol atrofida o‘tirgan amaldorlar o‘zaro maslahatlashib:

– Armiyaga, – degan qarorga keldilar.

– O‘n ikkinchi polkka, Melexov. Eshitdingmi? Grigoriyga javob berishdi. Eshik oldiga yetganda allakimning jirkanib:

– Aslo mumkin ema-as!.. Imperatorning nazari uning basharasiga tushib qolsa, unda nima bo‘ladi? Ko‘zidan odam qo‘rqadi, – dedi.

– Duragayga o‘xshaydi. Sharq tomonli bo‘lsa kerak.

– Buning ustiga badanining yara-chaqa bosib ketganini aytmaysizmi?

Navbat kutib turgan hamqishloqlari Grigoriyni o‘rab olishdi.

– Xo‘sh, nima bo‘ldi, Grishka?

– Qayerga tayin bo‘lding?

– Ataman polkiga yozishgandir?

– Necha pud kelding?

Grigoriy bir oyog‘ida hakalab oyog‘ini zo‘rg‘a shim pochasiga suqarkan, tishini g‘ijirlatib javob qaytardi:

– Qo‘ysalaring-chi, nima qilasanlar surishtirib? Qayoqqa-qayoqqa? O‘n ikkinchi polkka.

Mirza yana eshikdan boshini chiqardi:

– Korshunov Dmitriy, Kargin Ivan.

Grigoriy yo‘l-yo‘lakay nimcha po‘stinini tugmalab, zinapoyadan chopib tushdi.

Havo iligan, yer ham iliq shabadadan bahramand bo‘lib nafas ola boshlagan, har joy-har joydan qori erib ochilgan yo‘lning hovuri ko‘tarilardi. Ko‘chada tovuqlar qaqillashib yugurishar, g‘ozlar jimirlab turgan ko‘lmak suvlarda cho‘milishardi. Ularning oyoqlari suv ostidan xuddi sovuq chalgan kuzgi yaproq singari qizarib ko‘rinardi.

Ertasiga otlar ko‘rigi boshlandi. Maydonda ofitserlar u yoqdan bu yoqqa yugurishardi: shinellarining etaklarini hilpillatishib, veterinar vrach bilan ot o‘lchovchi feldsher o‘tib ketdi. Turli tusdagi otlar panjara bo‘ylab tizilishdi. Maydonning o‘rtasiga stol qo‘yilgan, stol yonida o‘tirib otlarni ko‘rikdan o‘tkazish va o‘lchash natijalarini yozayotgan mirza oldiga tarozi tomondan Vyoshenskaya stanitsasining atamani Dudarev tayg‘aloqlab chopib keldi. Harbiy pristav kelib yer tepinib jahl bilan yoshgina yuzboshiga allanimani tushuntirardi.

Grigoriy, bir yuz sakkizinchi bo‘lib, otini tarozi yoniga yetaklab bordi. Otning a’zoyi badanini o‘lchab chiqishdi, taroziga chiqarib tortishdi, lekin ot tarozidan tushishi bilan veterinar vrach epchillik ila yana otning yuqori labidan ushlab, og‘ziga qaradi; to‘shini qattiq bosib ko‘rdi, so‘ngra barmoqlari o‘rgimchak singari o‘rmalab oyoqlariga tushdi.

Vrach otning tizza bo‘g‘inlarini bukar paylariga duk-duk urar, ilik suyaklarini siqib ko‘rardi...

Quloqlari chimirilgan otni anchagacha paypaslab, quloq soldi, keyin oq xalatining etaklarini hilpillatib, karbod kislotaning o‘tkir hidini burqsitib chetga chiqdi.

Ot yaroqsiz topildi. Sashka boboning umidi puchga chiqdi: tullak doktor «farosatli» ekan, Sashka bobo olib bergan otning aybini topdi.

Grigoriy tashvishga tushib qoldi, otasidan maslahat so‘radi va yarim soatdan keyin Petroning arg‘umog‘ini tarozi oldiga olib keldi. Doktor bu otni ko‘rmasdanoq ma’qul topdi.

Grigoriy sal nariroq borib, quruqroq bir joy topib, o‘ramani yerga yoydi-da, egar jabduq va anjomlarini uning ustiga qo‘ydi; Panteley Prokofyevich orqada otni ushlab, o‘g‘lini kuzatib kelgan bir chol bilan gaplashib turdi.

Och-ko‘k shinel va sherozi qorako‘l papax kiygan novcha bo‘yli keksa general ularning yonidan o‘tib ketdi. General chap oyog‘ini biroz siltab tashlar, oq qo‘lqop kiygan qo‘li silkinib borardi.

– Okrug atamani shu, – deb shivirladi Panteley Prokofyevich Grigoriyni turtib.

– Generalmi deyman?

– General mayor Makeev. Badjahl odam. Polklar va batareyalardan kelgan bir gala ofitser atamanning ketidan ergashib borishardi. Yapaloqdan kelgan to‘pchi formasidagi pod’esaul (chor armiyasining kazak qo‘shinlarida shtabs-kapitanga teng ofitserlik unvoni) yonidagi leybgvardiya Ataman polklik chiroyli va novcha ofitser o‘rtog‘iga shang‘illab gapirardi:

– Taajjub! Eston qishlog‘ining aksariyat odamlari mallarang bo‘ladi, lekin u qiz tamoman boshqacha: hammadan ajralib turadi, shunaqasini ko‘p uchratdik! Nega bunday deb xo‘p o‘ylab, so‘roqlab ko‘rdik, keyin bilsak, yigirma yil muqaddam o‘sha qishloqda... – Ofitserlar, to‘qim ustiga anjomlarini taxlayotgan Grigoriydan uzoqlashib o‘tib ketishdi, Grigoriy to‘pchi pod’esaulniig so‘nggi so‘zlarini ofitserlarning kulgisi bosib ketganidan shamol aralash zo‘rg‘a eshitdi: – ...keyin bilsak, o‘sha qishloqda sizning Ataman polkingizdan yuz yigit qo‘ngan ekan.

Mirzaboshi ko‘k siyohga bulg‘angan qaltiroq panjalari bilan kurtkasining tugmalarini sola-sola, yugurganicha o‘tib ketdi, okrug pristavining noibi uning ketidan jon-jahdi bilan baqirib qoldi:

– Uch nusxa deyapman senga! Abjag‘ingni chiqaraman!

Grigoriy ofitser va chinovniklarning notanish basharalarini qiziqsinib tomosha qilardi. Yonidan o‘tib ketayotgan ad’yutant nursiz ko‘zlarini unga bir tikdi-yu, o‘tkir ko‘zlarning qarashiga bardosh bera olmay, yuzini o‘girib oldi; negadir hovliqqan keksa yuzboshi sap-sariq tishlari bilan ustki labini tishlab olganicha, unga yetib olmoqchi bo‘lib, yelib borardi. Grigoriy yuzboshining malla qoshlari ustidagi tomiri lip-lip urib, qovog‘i uchayotganini payqadi.

Grigoriyning oyog‘i ostida hali tutilmagan o‘rama yotardi, uning ustiga yashil rangga bo‘yalgan, chega qoplangan egar, bo‘ktarma, to‘rva, ikki shinel, ikki chalvar, mundir, ikki juft etik, ko‘ylak-ishton, bir qadog‘u ellik to‘rt misqol qoq non, bir banka konserva, so‘k va otliq askarga ruxsat etilgan miqdorda oziq-ovqat batartib terib qo‘yilgan edi.

Og‘zi ochiq to‘rvalarda otning to‘rt oyog‘iga – to‘rtta taqa, yog‘ bosgan lattaga o‘ralgan chegalar, juvoldiz, ikkita igna bilan ip, sochiq yotardi.

Grigoriy oxirgi marta o‘z buyumlarini ko‘zdan kechirdi, cho‘kkalab o‘tirib, bo‘ktarma chilvirining kirlangan uchlarini artib chiqdi. Maydonning u boshida komissiya paydo bo‘lib, o‘ramalari oldida saf tortib turgan kazaklar yonidan sekin-asta o‘ta boshladi. Ofitserlar bilan ataman, kazaklarning aslahalarini sinchiklab tekshirar, havorang shinellarining etagini yig‘ishtirib o‘tirib olib, xaltalarni titkilashar, igna-ip, juvoldizlarni ko‘zdan kechirar, qoq non solingan xaltalarning og‘irligini qo‘llari bilan chamalab ko‘rar edilar.

Grigoriyning yonida turgan novcha yigit barmog‘i bilan okrug harbiy pristavini ko‘rsatib:

– Anavi novchani qaranglar, bolalar, xuddi tulkining inini kovlayotgan ko‘ppakday titkilanyapti, – derdi.

– Voy it-ey!.. Xaltani ag‘darib ko‘rayapti-ya!

– Biror kamchilik topgan bo‘lsa kerak, bo‘lmasa bunchalik titkilamasdi.

– Taqa mixlarini sanayaptimi deyman!

– Voy ko‘ppak-e!

G‘ovur-g‘uvur sekin-asta jimidi, komissiya yaqinlashib kelmoqda, Grigoriyning oldiga yetishiga bir necha kishi qolgan edi. Okrug atamani chap qo‘lida qo‘iqop ushlagan holda, o‘ng qo‘lini bukmay salanglatib kelardi. Grigoriy tik turib qotib qoldi, otasi orqadan yo‘talib qo‘ydi. Shamol shiptir va erigan qor hidini olib keldi. Oftob xumor kishiday noxushlanib nazar tashlar edi.

Bir to‘p ofitser Grigoriyning yonidagi kazak oldida biroz to‘xtab qoldi-da, birin-ketin uning yoniga kelishdi.

– Familiyang, isming?

– Melexov Grigoriy.

Pristav Grigoriyning shinelini bel bog‘ichidan ushlab ko‘tarib qaradi, astarini hidlab ko‘rdi, bog‘ichlarini naridan beri sanab chiqdi; xorunjiy pogoni taqqan ikkinchi ofitser, asl movutdan tikilgan chalvarini g‘ijimlab ko‘rar, uchinchisi, engashib olib, xaltasini titkilar, shamol shinelining etaklarini orqasiga qayirardi. Pristav jimjilog‘i va bosh barmog‘i bilan, xuddi olov ushlayotganday taqa mixlari o‘ralgan lattani avaylab ushlab, lablarini qimirlatib sanardi.

– Nima uchun mix yigirma uchta? Bu qanday gap? – dedi va jahl bilan lattaning uchidan tortdi.

– Unday emas, janobi oliy, yigirma to‘rtta.

– Men nima, ko‘rmanmi?

Grigoriy paypaslanib, lattaning qayrilib qolgan chetini yozib, yigirma to‘rtinchi mixni ko‘rsatdi, uning qadoq bosgan qora barmoqlari pristavning sutdek oppoq barmoqlariga tegib ketdi. Pristav igna kirganday qo‘lini tortib oldi va kulrang shinelining bariga artdi; ijirg‘anib, qo‘lqopini kiydi.

Grigoriy buni payqab qolib, qaddini rostlab zaharxanda qildi. Ikkisining ko‘zlari bir-birisi bilan to‘qnashdi, pristavning chakkalari qizarib ketdi.

– Buncha o‘qrayasan! – deb baqirdi pristav. – Nega ko‘zlaringni chaqchaytirasan, kazak? – Uning ustara tilib qoni qotib qolgan beti sholg‘omdek qizarib ketdi. – Bo‘ktarma bog‘lari nega chuvalib yotibdi? Bu nima degan gap? Kazakmisan yoki isqirt mujikmisan? Otang qani?

Panteley Prokofyevich ot jilovini siltab, oqsoq oyog‘ini shiqillatib, bir qadam olg‘a chiqdi.

Kartada yutqizgani uchun ertalabdan beri kimga zahrini sochishini bilmay yurgan pristav, cholga yopisha ketdi.

– Sen, nima, askariy xizmat nimaligini bilmaysanmi?

Shu orada okrug atamani kelib qoldi, pristavning dami ichiga tushdi. Ataman etigining tumshug‘i bilan egar ko‘rpachani turtib ko‘rdi, – hiqichoq tutib, nari ketdi. Grigoriy tayinlangan polkning eshelon ofitseri muloyimlik bilan hamma narsalarini ipidan-ignalarigacha titib ko‘rdi va shamol kelayotgan tomonga orqa o‘girib tisarilib, papirosini yondirdi-da, hammadan keyin qoldi.

Oradan bir kun o‘tgach, Chertkovo stansiyasidan chiqqan poyezd qizil vagonlar tirkab kazaklarni, ot-u yem-hashaklarni Liski – Voronej tomonga sudrab borardi.

Vagonlarning birida, Grigoriy taxta oxurga suyanib turardi. Vagonning ochiq eshigidan – notanish tep-tekis dalalar lip-lip etib ko‘z o‘ngidan o‘tar, yiroqdagi bir parcha ko‘m-ko‘k o‘rmon ot o‘yindek aylanayotganga o‘xshardi.

Otlar qitirlatib pichan kavshar, omonat taxta ustida turganlarini sezib bezovtalanishardi.

Vagon ichida shuvoq o‘t hamda otlarning ter hidi anqir, bahor isi kelardi, ufqda esa, bir parcha ko‘m-ko‘k xazin o‘rmon, kechqurungi xira yulduz singari miltillab ko‘rinar edi.

## *UCHINCHI QISM*

I

1914-yil mart oyida, havo ochiq bo‘lgan kunlarning birida Natalya qaynatasinikiga keldi. Panteley Prokofyevich buqa sindirgan chetan devorni popuk chiqargan ko‘m-ko‘k novdalar bilan to‘qib, tuzatayotgan edi. Tarnovdan suv tomchilar, sumalaklar kumushday yaltirar, bo‘g‘otda allaqachon, erib oqqan suvlarning izi qorayib ko‘rinardi.

Qori erib ketgan do‘nglik ustiga sarg‘ish quyosh zarrin nurini sochib turar, yer ham semirgan, Don bo‘yidagi tepaliklar, bo‘r tog‘larining yonbag‘rini baxmal o‘t qoplagan edi.

Rang-ro‘yi ketib, ozib qolgan Natalya orqa tomondan kelib, qiyshayib qolgan bo‘ynini egib qaynatasiga salom qildi:

– Eson-omon yuribsizmi, dada.

– Natalyushkamisan? Ha, sog‘-salomat yuribmiz, bolam! – Panteley Prokofyevich shoshib qolib, novdasi qo‘lidan tushib ketdi, buralgan novda yana to‘g‘rilanib oldi. – Nega qorangni ko‘rsatmaysan? Qani, yur, uyga kiraylik, kampir seni ko‘rsa biram suyunib ketadiki, asti qo‘yaver.

– Keldim, dada... – Natalya qo‘lini g‘alati qilib qimirlatib qo‘yib, orqasini o‘girib turdi. – Agar quvib yubormasangiz umrbod siznikida qolaman...

– Bu nima deganing, bolam? Sen axir, o‘z bolamizsan-ku! Grigoriy ham xatida seni yo‘qlabdi... Holidan xabar olib turinglar deb yozibdi, bolam.

Ikkisi uyga kirdi. Panteley Prokofyevich shoshib, dikanglab yurar, o‘zida yo‘q suyunardi.

Ilinichna Natalyani quchoqlayotib ko‘z yoshini tiyolmadi; etagiga burnini artar ekan:

– Bola ko‘rsang baxting ochilardi... U ham insofga kelardi, – deb shivirladi. – Qani o‘tir. Yupqa-qatlama bilan siylay.

– Xudo xayringizni bersin... onajon. Mana, keldim...

Loladay qizargan Dunyashka yugurganicha oshxonaga kirib, Natalyani tizzasidan quchoqlab oldi.

– Ha uyatsiz! Bizlarni unutib yubording-a!

– Hoy quturgan qizaloq! – deb baqirib qo‘ydi chol yolg‘ondakasiga qiziga do‘q qilib.

Natalya Dunyashkaning qo‘llarini yozib, uning yuziga tikilib:

– Katta qiz bo‘p qobsan-a... – dedi.

Hammalari baravariga chuldurashib, bir-birlariga so‘z bermas, goh birdaniga jimib qolishardi.

Ilinichna chakkasiga qo‘lini tirab Natalyaga tikilar, uning butunlay o‘zgarib ketganini ko‘rib yuragi ezilar edi.

Dunyashka Natalyaning qo‘llarini siqib:

– Butunlay keldingmi? – deb qayta-qayta so‘rardi.

– Qaydam...

– Qaydami nimasi, nahotki, o‘z kelinim o‘z uyimga sig‘masa! Shu yerda qolasan! – deb gapni bitta qildi Ilinichna va yupqa to‘ldirilgan sopol tovoqni kelinining oldiga surib manzirat qildi.

Natalya uzoq mulohaza va taraddudan keyin qaynatasinikiga kelgan edi. Otasi uni ketgani qo‘ymas, yo‘ldan urar, do‘q qilar, uyaltirib ko‘rardi, biroq Natalya tuzalgandan buyon o‘z tug‘ishganlarining yuziga tikka qaray olmas, unib-o‘sgan o‘z uyida begona odamga o‘xshab qolgan edi. O‘zini o‘ldirishga qasd qilganligi sababli undan ota-onaning ko‘ngli sovigandi. Panteley Prokofyevich Grigoriyni askarlik xizmatiga jo‘natgandan keyin Natalyani bir necha bor o‘z uyiga chaqirgan edi. Chol uni uyiga ko‘chirib olib kelish va Grigoriy bilan ikkisini yarashtirib qo‘yishga jazm qildi.

O‘sha kundan boshlab Natalya Melexovlarnikida qolib ketdi. Darya g‘ashi kelganligini sira sezdirmasdi; Petro unga o‘z akasidek mehribon edi, Daryaning ora-sira xo‘mrayib qarashlari Natalyani xijil qilsa-da, lekin Dunyashkaning apoq-chapoqligi hamda chol-u kampirning ota-onalarcha muhabbati uning ko‘nglidagi g‘ashlikni yuvib ketardi.

Natalya qaynotasinikiga kelgan kunning ertasigayoq, Panteley Prokofyevich Dunyashkaga aytib turib, Grigoriyga xat yozdirdi:

*«Qadrdon o'g'limiz Grigoriy Panteleyevich! Assalomu alaykum! Senga ko'pdan ko'p salom yuboramiz. Volidayi mehriboning Vasilisa Ilinichna bilan ikkimiz hamisha duodamiz. Akang Petro Panteleyevich bilan xotini Darya Matveyevnadan senga salom, ular senga sog'-salomatlik hamda xotirjamlik tilaydilar; so'ngra singling Yevdokiyadan va hamma uy ichidagilardan ham ko'pdan ko'p salom. Beshinchi fevralda jo'natgan xatingni oldik va nihoyatda xursand bo'ldik.*

*Xatingda otim qoqinadi debsan, cho'chqa charvisini surkayver, so'ngra, agarda, yer toyg'oq bo'lmasa ketingi oyoqlarini taqalatma. Xotining Natalya Mironovna biznikiga kelib qolgan, o'zi sog'-salomat, tuppa-tuzuk yuribdi.*

*Onang senga olcha qoqi, bir juft jun paypoq hamda sur moy va har xil sovg'alar yubordi. Hammamiz sog'-salomatmiz, lekin ma'luming bo'lsinkim, Daryaning bolasi qazo qildi. Qaysi kuni Petro bilan bostirma tomini tuzatdik, akang, otga yaxshi qarasin, ehtiyot qilsin deydi. Sigirlarimiz tug'di, qari biya qorin solib qoldi, yelini ham to'lishgan, qornida bolasi qimirlagani ko'rinib turadi. Stanitsadagi yilqilardan «Donets» degan bir ayg'irdan qochgan edi; ro'zaning beshinchi haftasida qulunlasa kerak deb o'ylaymiz. Bizlar sening xizmatingdan hamda boshliqlarning sendan xursand ekanidan quvonamiz. Sen vazifangni yaxshilab ado etgin, podshoh uchun qilgan xizmating zoye ketmaydi. Natalya endi biznikida turadigan bo'ldi, sen shu xususida bir o'ylab ko'r. Tag'in bir chatoq ish bo'ldi: maslenitsada uch qo'yni bo'ri bo'g'ib ketdi. Xayr, sog'-salomat bo'l, xudo o'z panohida asrasin. Xotiningni unutma, senga aytadigan so'zim shu. O'zi nihoyatda xushfe'l xotin hamda sening nikohingda. Judayam qaysarlik qilaverma, otaning gapiga kirish kerak.*

*Sening dadang, starshiy uryadnik*
*Panteley Melexov».*

Grigoriyning polki Avstriya bilan Rossiya chegarasidan to'rt chaqirim berida Radzivillovo degan joyda turardi. Grigoriy ahyon-

ahyonda uyiga bitta xat yozib qo'yardi. Natalya ko'chib keldi degan xabarga sovuqqina javob qaytardi va xatida unga salom deb qo'yishlarini aytdi. Grigoriyning xatlari dudmol va mujmal bo'lardi. Panteley Prokofyevich uning xatlarini Dunyashkaga yoki Petroga qayta-qayta o'qitib ko'rar, nima demoqchi bo'lganini anglash uchun bosh qotirardi. Chol pasxadan oldin Grigoriyga xat yuborib, askarlik xizmatdan qaytgach, xotining bilan turasanmi yoki boyagiday Aksinya bilan yuraverasanmi deb, masalani ko'ndalang qo'ydi.

Grigoriy hadeganda javob qaytara qolmadi. Troitsadan keyin undan qisqacha bir maktub keldi. Dunyashka so'z oxirlarini yamlab tez-tez o'qiy boshladi. Panteley Prokofyevich son-sanoqsiz salomlarga, savollarga e'tibor bermas, xatning mazmunini zo'r-bazo'r ilib olardi. Xatning oxirida Grigoriy Natalya masalasi ustida to'xtalgan edi:

«*Siz mendan, Natalya bilan turasanmi, yo'qmi shuni yozib yubor debsiz, lekin sizga aytsam, dadajon, kesilgan barmoqni qaytadan ulab bo'lmaydi. Endilikda men Natalyani nima deb yupata olaman, dada, bolam borligini o'zingiz bilasiz-ku! Bu to'g'rida hech va'da qilolmayman va bu xususda gapirishning hojati ham yo'q. U kuni chegarada kontrabanda mol bilan bir odam qo'lga tushdi, o'z ko'zimiz bilan ko'rdik, o'sha odam: yaqinda avstriyaliklar bilan urush bo'ladi deydi, ularning poshshosi chegaraga kelib, qayerdan urush boshlashni va qaysi yerlarni bosib olishni ko'rib chiqqan emish. Urush bo'lib qolsa, balki men tirik qolmasman, lekin oldindan bir gap aytish qiyin*».

* * *

Natalya qaynatasinikida turar, erim qaytib keladi deb umid qilar va shu bilan ko'nglini ko'tarib, o'zini ovutib yurardi. O'zi Grigoriyga xat yozmasa ham, Melexovlar oilasida Grigoriyning xatini Natalya singari sarg'ayib kutgan odam yo'q edi.

Qishloqda hayot avvalgisidek, bir maromda borar: xizmat muddatini tamomlagan kazaklar qaytib kelishar, odamlar kundalik ish bilan ovora bo'lib vaqtning qanday o'tganini sezishmas, yakshanba kunlari esa har oila to'p-to'p bo'lib cherkovga yo'l olardi; kazaklar mundirlarini, yangi chalvarlarini kiyib olishardi; gul solib tikil-

gan burma yengli koftalari tor kelib qolgan xotin-xalaj rang-barang shildirama yubkalarining uzun etagini sudratib, ko'cha changini supurib borishardi.

To'rtburchak maydon shotilari laylak qilib qo'yilgan aravalarga liq to'la, otlar kishnar, xaloyiq u yoqdan-bu yoqqa yurib turardi; o't o'chirish asboblari turgan bostirmaning oldida dehqonlar uzun taxta so'ri ustiga sabzavot terib savdo qilishar, ularning orqasida gala-gala bolalar to'planishib, aravadan chiqarilgan tuyalarni tomosha qilishar, tuyalar ham bo'yinlarini cho'zib bozorni, qizil gardishli furajka kiyib yurgan erkaklarni, rang-barang ro'mol o'ragan xotin-xalajni tomosha qilayotganday bo'lardi. To'xtovsiz chig'iriq aylantirgan tuyalar og'iz ko'pirtirib shuvoq o't kavshab, hordiq chiqarishar, yashil ko'zlarini yummay mudrashardi.

Oqshomlari do'pir-do'pir etgan tovushlarga ko'chalar to'lar, sayilgoh joylarda ashulalar yangrar, garmonlar chalinar, raqs boshlanardi. Vaqt yarim kechadan o'tgandagina iliq tunning bag'rida chekka-chekkadan so'nggi qo'shiq sadolari eshitilardi.

Natalya sayilgohga bormay, Dunyashkaning sodda hikoyalariga zavq bilan quloq solib o'tirardi. Hademay, Dunyashka ham qaddi-qomati kelishgan qiz bo'lib, ko'zga ko'rinib qoldi. Chillaki olma singari erta yetildi. Qiz bolalik davri orqada qoldi, bo'y yetgan katta qizlar o'sha yili uni o'zlariga ulfat qilib olishdi. Dunyashka otasiga tortgan past bo'yli, qorachadan kelgan edi.

Dunyashka o'n beshga to'ldi, lekin xipcha, beso'naqay gavdasi hali to'lishmagan, bir qarasang, u bolalardek sodda va ojiz, bir qarasang bo'yi yetib qolgandek ko'rinardi: koftasi ostidan mushtday-mushtday ko'kraklari turtib chiqib turar, yelkalari borgan sari to'lishardi, ko'kimtir qiyiq ko'zlarining qorachig'i uyalinqiraganday kulimsirardi. Sayilgohdan qaytgach, u o'z sirlarini yolg'iz Natalyaga so'zlab berar edi.

– Natashka, jonim, senga bir narsa aytmoqchiman...

– Qani ayt.

– Kecha Mishka Koshevoy bilan tong otargacha do'kon yonidagi yog'och ustida o'tirdik.

– Nega qizarib ketding?

– Hech-da!

– Oynaga qara – yuzing lovullashyapti.

– Qo‘ysang-chi, odamni buncha uyaltirasan...

– Gapiraver, uyaltirmayman.

Dunyashka qoracha qo‘llari bilan o‘tday lovullagan betlarini ishqalar, chakkalarini ushlab, o‘zidan o‘zi kulardi:

– «Sen, – deydi, – xuddi lolaga o‘xshaysan...» – deydi.

Natalya unga dalda berib:

– Xo‘sh, undan keyin-chi? – derdi, u birovning quvonganini ko‘rib suyunar, o‘zining poymol bo‘lgan baxtini unutardi.

– Men unga: «Yolg‘onni qo‘ysang-chi, Mishka!» – desam, «rost» deb qasam ichadi. – Dunyashka qah-qah urib kular, uning qo‘ng‘iroqday jaranglagan ovoziga uy ichi to‘lardi. U boshini chayqar, mayda o‘rilgan qora sochlari orqasida ilonday jilpanglardi.

– Yana nimalar dedi?

– Esdalik uchun dastro‘molingni menga ber, – deydi.

– Berdingmi?

– Yo‘q, bermayman dedim. – Oyimtillangdan borib so‘ra, dedim. – U axir Yerofeyevning kelini bilan haligidaqa... eri askarlikda, o‘zi yuradigan xotin.

– Sen Mishkani o‘zingga yaqin yo‘latma.

– Haliyam yo‘latayotganim yo‘q. – Dunyashka kulgisini arang bosib gap boshladi: – Uchta qiz sayilgohdan uyga qaytib kelayotsak, Mixey bobo mast-alast, ketimizdan yetib oldi. «Meni o‘pinglar, jajji qizlar, ikki tiyindan beraman», – deb valdiradi. Bizga yopishmoqchi bo‘lganda, Nyurka chiviq bilan peshonasiga solib qoldi. Zo‘rg‘a qochib qutuldik.

Yoz bo‘yi qurg‘oqchilik bo‘ldi. Qishloqning ro‘parasida Don juda sayozlanib qoldi, ilgari suv quturib oqqan joylarda kechuv yerlar hosil bo‘ldi, ho‘kizlar orqalarini ho‘l qilmay, bemalol narigi qirg‘oqqa o‘taverishardi. Kechalari tog‘dan issiq chiqib, qishloqni dim qilib yuborar, shamol qovjiragan o‘tlarning o‘tkir hidi bilan havoni to‘ldirardi. Partov yerlardagi qurigan burganzorlarga o‘t tushib ketar, tevarak-atrof ko‘zga chalinmas pardaga burkanganday bo‘lardi. Kechalari Don ustini qora bulut qurshab momaqal-

diroq qasira-qusurga olar, lekin qaqrab yotgan issiq yerga yomg'ir yog'masdi, osmonga qing'ir-qiyshiq ko'm-ko'k iz solib, behudaga chaqmoq chaqardi, xolos.

Kechalari cherkov jomxonasi ustida boyqush sayrardi. Qishloq vahimali, g'alati ovozlarga to'lar, boyqush jomxonadan uchib bu-zoqlar toptab payhon qilgan qabristonga qo'nar va o't bosib ketgan qo'ng'ir qabrlar ustida nola qilardi.

– Bu yaxshilikka emas, – derdi qariyalar, qabriston tomonda sayragan boyqushning ovozini eshitishib.

– Urush bo'lmasaydi.

– Turkiya bilan urush boshlanmasdan avval ham xuddi shu xilda sayragan edi.

– Yoki, tag'in vabo tarqarmikan?

– Ishqilib, yaxshilikka emas: cherkovdan to'g'ri o'liklar yoniga uchib o'tdi.

– Yo balogardon, hazrati Mikola...

Qo'li cho'ltoq Alekseyning ukasi Martin Shumilin bu badbaxt parrandani ikki kecha tong otguncha qabristonda poylab chiqdi, biroq u ko'zga ko'rinmasdi. Sirli boyqush butga borib qo'nar va mudroq bosgan qishloqqa vahima solardi. Martin behayo so'zlar bilan so'kinar, suzib o'tayotgan qora bulutga qaratib o'q uzib uyiga qaytardi. Martin qabristonning yonginasida istiqomat qilardi. Uning qo'rqoq va dardmand xotini bo'lib, quyon singari yil sayin tug'ardi.

– Ahmoq, qip-qizil ahmoqsan! – deb kutib olardi erini u. – U senga nima qildi, zolim! Xudoning g'azabi kelmaydimi, axir? Oy kunim yaqinlashib, o'zim arang yuribman, kasringga tug'olmay qolsam nima bo'ladi, jin urgur!

– Bas qil! Tug'ishga tug'asan! Indamasa – rosa vaysaysan-a! U badbaxt tinchlik bermasa, nima qilay, axir? Bu kasofat biron ofat boshlab keladi. Xudo ko'rsatmasin, urush bo'lsa – meni oladi-keta-di, manavi tug'ib tashlagan bir gala jujuqlaringga nima bo'ladi? – Martin qo'lini bigiz qilib burchak tomonni ko'rsatardi. Burchakda sichqonday chiyillashgan, xurrak otib uxlagan bolalar po'stak ustida cho'zilishib yotardilar.

Panteley Melexov maydonda qariyalar bilan suhbatlashar, ularga gap uqtirar edi:

– Bizning Grigoriy o‘z xatida, Avstriya poshshosi chegaraga kelibdi, tamomiy askarni bir joyga to‘plash, Moskva bilan Peterburgga yurish boshlash to‘g‘risida buyruq beribdi, deb yozadi.

Qariyalar o‘tgan urushlarni esga olishar, o‘z mulohazalari bilan o‘rtoqlashar edilar.

– Urush bo‘lmaydi, bu yilgi hosildan qiyos qilaver.

– Hosilni bunga daxli yo‘q.

– Talabalar g‘avg‘o chiqarayotgan bo‘lsa kerak.

– Nimaligini biz hammadan keyin eshitamiz.

– Yapon urushida ham shunaqa bo‘lgan-ku.

– O‘g‘lingga ot olib berdingmi?

– Halitdan nima qilaman oshiqib...

– Hammasi bekorchi gap!

– Kim bilan urush bo‘larmish?

– Turklar bilan, dengiz talashib. Dengiz o‘lgurni sira bo‘lib olisholmaydi.

– Shu ham qiyin gap ekanmi? Bizlar pichanzorni ulush-ulush qilib taqsimlaganday bo‘lib olishaversin-da!

Suhbatning keti hazil-mutoyibaga aylanib ketar, qariyalar tarqalishardi.

Sal o‘tsa o‘ti quvrab ketadigan dasht pichanini o‘rib olish payti kelgan, bundan tashqari, Donning narigi yog‘idagi o‘tlar dasht pichani singari bo‘liq va xushbo‘y bo‘lmasa ham, gulini to‘ka boshlagan, odamlar tashvishga tushib qolgan edi. Yer bir xil bo‘lsa ham giyohlar har turli sharbatlarni so‘rib, biri-biriga o‘xshamay o‘sadi; do‘ng orqasidagi dashtning qora tuproq yeri zarang: bir uyur yilqi o‘tsa – tuyoq izi ko‘rinmaydi; qaqir yerda barq urib xushbo‘y o‘t o‘sadi, otning qorniga chiqadi, lekin Don bo‘yida va Donning narigi betidagi zaxkash, yumshoq tuproqda o‘sgan o‘tlar bemaza va bebaraka bo‘ladi, ba’zi yili uni mol ham yemay qo‘yadi.

Qishloq ahli chalg‘ilarni charxlash, panshaxalarni soplash bilan ovora, xotinlar o‘roqchilarga atab kvas pishirishga kirishgan edi, shu orada butun qishloqni alg‘ov-dalg‘ov qilgan bir hodisa ro‘y berdi: stanitsa pristavi bilan tergovchi hamda tishlari qorayib ketgan va shu damgacha hech kim ko‘rmagan, g‘alati forma kiygan ozg‘in bir ofitser kirib kelishdi; ular qishloq atamanini chaqirtirishdi, so‘ngra

birmuncha xolis odamlarni ergashtirib, to‘g‘ri g‘ilay Lukeshkanikiga jo‘nashdi.

Tergovchi jez tamg‘ali yozlik furajkasini qo‘liga olgan edi. Ular ko‘chaning chap tomonidan chetan devorlar yoni bilan borishardi, yo‘lda ola-chalpak soya titrab turar, tergovchi chang bosgan botinkasi bilan uni bosa-bosa, xo‘roz singari yugurib oldinga o‘tib olgan atamandan gap so‘rardi:

– Kelgindi Shtokman uyidami?

– Ha, taqsir.

– Nima ish bilan shug‘ullanadi?

– Hammaga ma’lum, hunarmand odam... randa qo‘lidan tushmaydi.

– Hech narsa payqamadingmi?

– Yo‘q.

Pristav yurib ketaturib qoshlari orasiga chiqqan husnbuzarni barmoqlari bilan sitib chiqarar; movut mundirda terga botib pishillardi. Tishlari qoraygan ofitser hadeb cho‘p bilan tishini kovlar, salqib qizarib ketgan ostki qovoqlarini bujmaytirardi.

Tergovchi olg‘a yugurib o‘tgan atamanni qo‘li bilan to‘xtatib yana so‘radi:

– Oldiga odamlar kirib turadimi?

– Kirib turishadi. Ba’zan qarta o‘ynashadi.

– Kimlar?

– Ko‘pi tegirmonda ishlaydigan ishchilar.

– Aniqroq ayt, kimlar?

– Mashinist, tarozibon, valsovkachi Davidka, bizning kazaklardan ba’zi birovlar tez-tez kirib turadi.

Tergovchi keyinda qolgan ofitserni kutib to‘xtadi, burun qansharidagi terni furajkasi bilan surtdi. Ofitserning tugmasini o‘ynab turib, unga bir nima dedi-da, barmog‘i bilan imlab atamanni chaqirdi. Ataman nafasini chiqarmay oyoq uchida darhol yetib bordi. Uning bir-biri bilan chirmashib ketgan bo‘yin tomirlari shishib, qaltirab turardi.

– Ikkita odam bilan kirib hammasini qamoqqa ol. To‘g‘ri mahkamaga olib kel, biz hozir boramiz. Tushundingmi?

Ataman gavdasini tiklab qotib qoldi, mundirining qotirma yoqasi ko'k lenta singari yo'g'on tomirining tagidan bo'g'ib olgan edi. Ataman g'iq etdi-yu, orqasiga burilib jo'nadi.

Shtokman yoqasi ochiq ich ko'ylakda eshikka orqasini o'girib, dast arra bilan faneradan gul kesib o'tirgan edi.

– O'rningizdan turing. Siz qamoqqa olindingiz.

– O'zi nima gap?

– Ikki xonani egallaganmisiz?

– Ha.

– Uyingizni tintamiz, – dedi ofitser. – Ostona tagiga to'shalgan gilamchaga uning shpori ilinib qoldi, u stol oldiga bordi-da, ko'zini qisib turib birinchi duch kelgan kitobni oldi.

– Mana bu sandiqning kalitini bering.

– Nima gap o'zi, janobi ofitser?

– Ikkimiz keyinchalik gaplashaveramiz. Shohid, qani boshla!

Ikkinchi xonadan Shtokmanning xotini eshikni qiya ochib qarab turardi. Oldin tergovchi, ketidan mirzaboshi o'sha xonaga kirishdi.

Ofitser sariq muqovalik kitobning chetidan ushlab:

– Bu nima? – deb astagina so'radi.

– Kitob. – Shtokman kiftini qisib qo'ydi.

– Askiyabozlikni boshqa joyda qilasan. Mening savollarimga boshqacharoq javob berishingni so'rayman.

Shtokman pechga suyanib, o'zini istehzoli kulgidan arang to'xtatib turardi. Pristav boshini o'girib ofitserga qaradi, so'ngra Shtokmanga tikildi.

– Shu kitobni o'qiyapsizmi?

– Kitobga ishqibozman, – deb sovuqqina javob berdi Shtokman va kichkina taroq bilan soqolini teng yarmidan ikkiga bo'lib taradi.

– Hah-ha.

Ofitser kitobni varaqlab-varaqlab, stol ustiga tashladi; ikkinchi kitobni naridan beri ko'rib chiqdi; uni ham bir chetga qo'yib, uchinchisining nomini o'qib ko'rdi-da, Shtokmanga burilib qaradi.

– Shunaqa kitoblaringni tag'in qayerga yashirgansan?

– Bori shu, xolos.

– Yolg'on! – deb cho'rt kesdi ofitser kitob bilan o'xtalib.

– Talab etaman!..

– Tinting!

Pristav bir qo'li bilan qilichini ushlab sandiq yoniga bordi; sandiqdagi kiyim-kechaklarni bir cho'tir kazak titmoqda edi, bo'layotgan hodisalardan uning qo'rqib ketganligi aftidan bilinib turardi.

Shtokman ko'zlarini qisib ofitserning qanshariga tikilib turib:

– Talab etaman, nazokatli muomalada bo'ling, – deb gapini tamomladi.

– Ovozingizni o'chiring, azizim.

Shtokman xotini bilan ijaraga o'tirgan uyda titilmagan biron joy qolmadi. Ustaxonada ham tintuv o'tkazildi. G'ayrati qistagan pristav hatto devorlarni ham barmog'i bilan dukullatib ko'rdi. Shtokmanni mahkamaga olib ketdilar. U shohid kazakning oldiga tushib eskirgan kurtkasining peshiga qo'lini suqib olib, ko'chaning o'rtasidan borardi; ikkinchi qo'lini, xuddi panjasiga yopishgan loyni tushirmoqchi bo'lganday, silkitardi; qolganlar chetan devor bo'ylab, tanga-tanga oftob tushgan yo'ldan borar edilar. Tergovchi boyagiday ajriq bosgan yo'l ustidagi oftob tangalarini botinkasi bilan toptar, faqat bu safar furajkasi qo'lida emasdi – uni, oqarib ketgan qulog'igacha bostirib kiyib olgan edi.

Shtokmanni hammadan keyin so'roq qilishdi. So'roqdan o'tganlar, qorovul nazorati ostida dahlizda tiqilishib o'tirishardi; bular – qora moyga bulg'angan, qo'llarini yuvib ulgurmagan Ivan Alekseyevich, tirjayib turgan Davidka, yelkasiga pidjak tashlagan Valet va Mixail Koshevoy edi.

Tergovchi pushtirang papkani titkilarkan, stolning nariyog'ida turgan Shtokmanga savol berdi:

– Tegirmondagi xunrezlik to'g'risida sizga savol berganimda, nima uchun RSDRP a'zosi ekanligingizni yashirdingiz?

Shtokman tergovchining boshidan yuqori bir nuqtaga qarab indamay turaverdi.

Tergovchi uning indamaganidan tutaqishib:

– Bu aniqlandi. Siz o'z qilmishingizga yarasha jazolanasiz, – dedi.

– So'roq boshlashingizni iltimos qilaman, – dedi Shtokman zerikkan kishiday, so'ngra bo'sh turgan taburetkaga ko'z qirini tashlab o'tirishga ijozat so'radi.

Tergovchi indamadi; qog'ozlarni shitirlatib titarkan bemalol o'tirayotgan Shtokmanga yer tagidan qarab qo'ydi.

– Bu yerga qachon kelgansiz?

– Bultur.

– O'z tashkilotingizning topshirig'i bilanmi?

– Hech qanday topshiriqsiz.

– O'z partiyangizda qaysi vaqtdan beri a'zosiz?

– Nima gap o'zi?

– Men, – tergovchi «men» so'zini chertib gapirdi, – qachondan beri RSDRP a'zosi ekanligingizni so'rayapman.

– Men o'ylaymanki...

– Nimani o'ylaganingizni mutlaqo bilgim kelmaydi. Savolga javob bering. Tongandan naf yo'q. Qaytaga zarari bo'ladi.

Tergovchi qog'ozlar orasidan bittasini ajratdi-da, uni stol ustiga qo'yib, bosh barmog'i bilan bosib turdi. – Mana, Rostovdan kelgan spravka, sizning shu partiyada a'zo ekanligingizni tasdiqlovchi dalil.

Shtokman bir parcha oppoq qog'ozga ko'z tashlab, bir lahza tikilib qoldi, so'ngra qat'iy javob berdi:

– Bir ming to'qqiz yuz yettinchi yildan beri.

– Xo'p. Sizni bu yerga o'z partiyangiz yuborganiga inkor bo'lmoqchimisiz?

– Ha.

– Unday bo'lsa, bu yerga nimaga keldingiz?

– Bu yerda slesarlar kerak ekan.

– Boshqa yoqqa bormay shu rayonni tanlab olganingizning sababi nima?

– Sababini hali aytdim-ku.

– Shu yerga kelgandan beri o'z tashkilotingiz bilan aloqada bo'ldingizmi?

– Yo'q.

– Sizning bu yerga kelganingizni ular bilishadimi?

– Ehtimol.

Tergovchi labini cho'chchaytirib, sadaf sopli pakki bilan qalamini taroshlar, Shtokmanga qaramasdi.

– Birontasi bilan xat yozishib turasizmi?

– Yo'q.

– Tintuv vaqtida topilgan mana bu xat-chi?

– Bu bir o‘rtoqdan kelgan xat, hech qanday inqilobiy tashkilotga uning aloqasi yo‘q.

– Rostovdan biron dasturilamal olganmisiz?

– Yo‘q.

– Tegirmondagi ishchilar siznikiga nima maqsadda to‘planishardi?

Shtokman, savolning bema’niligidan taajjublanganday, kiftlarini qisib qo‘ydi.

– Qish kechalari o‘zlari anchayin yig‘ilishardi... Shunchaki vaqt o‘tsin uchun. Qarta o‘ynashardi...

– Qonun man etgan kitoblarni o‘qishardi, – deb luqma soldi tergovchi.

– Yo‘q. Ular hammasi chalasavod...

– Biroq tegirmon mashinisti va boshqalar buni inkor etishgani yo‘q.

– Bu yolg‘on gap.

– Qarab tursam, sizda oddiy tushuncha ham yo‘qqa o‘xshaydi dedi... – tergovchi. Shtokman kulimsiradi, tergovchi gapning uchini yo‘qotib qo‘ydi va g‘azablanganligini sezdirmay: – Qisqasi sog‘lom fikrga ega emassiz! – deb davom etdi. – Tonganingiz bilan baribir o‘zingizga jabr qilasiz. Partiyangiz sizni bu yerga kazaklar orasida buzg‘unchilik ishlari yurgizish, ularni hukumatdan yuz o‘girtirish maqsadida yuborganligi oynadek ravshan. Tushuna olmay qoldim: bekinmachoq o‘ynashning nima hojati bor? Baribir, buning bilan jinoyatingiz yengillashmaydi.

– Bu gaplar hammasi sizning gumoningiz. Chekishga ruxsat etsangiz! Rahmat. Hammasi ham asossiz, quruq gumon.

– Menga qarang, mana bu kitobchani siz, uyingizga kelgan ishchilarga o‘qib berganmisiz? – Tergovchi kichikroq bir kitob ustiga kaftini qo‘ydi. Oq muqovasining ustida: «Plexanov» degan yozuv ravshan ko‘rinib turardi.

– Biz she’r o‘qir edik, – Shtokman halqador suyak mundshtugini barmoqlari bilan mahkam qisib, qattiq papiros tortdi.

Ertasi kuni ertalab, osmonni bulut qoplab, havo aynigan paytda qo‘sh ot qo‘shilgan pochta arava qishloqdan jo‘nadi. Yog‘ bosgan kalta paltosining yoqasiga soqolini burkab olgan Shtokman arava-

ning ketida o‘tirardi. Uning ikki yonida qilich taqingan navbatchilar qo‘riqlab borishardi. Ularning biri cho‘tir va jingalak soch edi, u g‘adir-budur, iflos barmoqlari bilan Shtokmanning tirsagidan mahkam qisib olgan, malla kiprikli ko‘zlarini unga tikib, chap qo‘li bilan siri ko‘chgan qilich qinini ushlab borardi.

Arava tasira-tusur ko‘cha changitib ketayotgan edi, Panteley Melexovning qo‘rasi orqasida, ro‘moliga burkanib olgan jikkak bir ayol g‘aram chetaniga suyanib, shu aravani kutardi.

Arava uning oldidan o‘tib ketdi, ayol, qo‘llarini ko‘ksiga bosganicha orqasidan yugurdi.

– Osya!.. Osip Davidich! Voy, nima qilaman?

Shtokman qo‘l silkitib xayrlashmoqchi edi, biroq cho‘tir navbatchi irg‘ib turdi-yu, uning qo‘lini iflos panjasi bilan ombirday qisib oldi, xirillab baqirdi:

– Qimirlama! Chopib tashlayman!..

U podshoga qarshi chiqqan odamni umrida birinchi ko‘rishi edi.

## II

Mankovo – Kalitvenskaya qishlog‘idan to Radzivillovogacha cho‘zilgan yo‘l ko‘kish tuman ichida qayerdadir, orqada qolib ketgan edi. Grigoriy yo‘lda ko‘rgan narsalarni eslamoqchi bo‘lar, biroq aniq bir manzarani ko‘z oldiga keltirolmas edi, qizg‘ish rangga bo‘yalgan stansiya imoratlari, omonat taxta pol tagida taraqa-turuq qilayotgan g‘ildiraklar, ot go‘ngi hamda pichan hidi, parovoz ostidan cho‘zilib chiqaveradigan poyonsiz temir izlar, o‘xtin-o‘xtin vagon eshigidan kirib keladigan tutun, yo Voronej vokzalida, yo Kiyevda ro‘para kelgan mo‘ylovdor jandarmaning basharasi...

Poyezddan askar tushirilgan yarim stansiyada ofitserlar hamda soqollari qirilgan, kulrang fufayka (tugmali va paxtali kalta to‘n) kiygan allaqanday odamlar gala-gala bo‘lib yurishar, tushunib bo‘lmaydigan yot tilda so‘zlashardilar.

Vagonlarga taxta qo‘yib eran-qaran otlarni yerga tushirishdi. Eshelon komandirining muovini otlarni egarlatdi, uch yuzdan ortiq kazakni veterinariya punktiga boshlab bordi. Otlarni ko‘rikdan o‘tkazishga ancha vaqt ketdi. Kazaklarni yuzta-yuztadan qilib ajratishdi. Vaxmistr va uryadniklar yugur-yugurga tushib qolishdi.

Birinchi sotnyaga och-to'riq otlar, ikkinchisiga – bo'z va jiyron otlar, uchinchisiga – qora to'riqlar ajratildi; Grigoriy to'rtinchi sotnyaga tushdi, bunda jiyron va anchayin to'riq otlar terilgan edi; beshinchi sotnyaga – saman, oltinchisiga – qora otlar... Vaxmistrlar kazaklarni vzvodlarga ajratib, qo'rg'oncha va qishloqchalarga joylashgan qismlarga boshlab ketdilar.

Muddatidan ortiq xizmat qilganligini ko'rsatuvchi belgi taqqan, ko'zi chaqchaygan, barvasta vaxmistr Kargin Grigoriyning yonidan o'tib borayotib:

– Qaysi stanitsadansan? – deb so'rab qoldi.

– Vyoshenskayadan.

– Chinoqlardanmisan?[12]

Grigoriy boshqa stanitsalik kazaklarning qiqirlab kulishganini eshitdi, lekin bu haqoratni indamay yutib yubordi.

Yo'l toshko'chaga olib chiqdi. Umrida birinchi marta tosh ko'chani ko'rgan Don otlari quloqlarini chimirib, xuddi muzlagan daryoga tushayotganday, pishqira-pishqira, zo'rg'a qadam qo'yishar edi; hadisini olgandan keyin, yeyilmagan yangi taqalarini taraqlatib, bemalol yurib ketishdi. Tevarak-atrofni xazon urgan siyrak o'rmonchalar bosib ketgan: bu yot yer polyaklar o'lkasi edi. Kun iliq, dim, oftob ham Don oftobiga o'xshamas, pardaday to'sib olgan qalin bulutlar ortida daydib yurardi.

Radzivillovo qo'rg'oni yarim stansiyadan to'rt chaqirim narida edi. Eshelon komandiri o'z ordinari bilan ot soldirib kelib, kazaklarni yarim yo'lda qoldirib ketdi. Qo'rg'onga yarim soat deganda yetib borildi.

Mityakinskaya stanitsalik bir yigitcha ship-shiydam bo'lib qolgan bog'ni ko'rsatib vaxmistrdan so'radi:

– Bu qanaqa qishloq?

– Qishloq? Qishloq degan gapni yodingdan chiqarib tashla, kallavaram! Bu yer senga Don viloyati emas.

– Anavi nima, tog'ajon?

– Nega men senga tog'a bo'lay? Sendaqa jiyanni qara-yu! Birodari aziz, bu knyaginya Urusovaning mulklari bo'ladi. Bizning to'rtinchi sotnya kazaklari shu yerga joylashgan.

---

[12] Har bir stanitsaning laqabi bor edi, masalan, vyoshenskayaliklarni — ko'ppak deb chaqirishardi (Muallif izohi)

Grigoriy, yuragi siqilganligidan otining bo'ynini silar, oyoqlarini uzangiga tirar, beo'xshov solingan ikki qavatli uyni tomosha qilar, taxtadan ishlangan qo'rg'on devorlariga qarar, qo'radagi g'alati imoratlardan ko'z uzmas edi. Kazaklar bog' yoni bilan ketishdi, bu yerdagi ship-shiydam daraxtlar ham xuddi olisda qolgan Don daraxtlari singari shamol bilan bir tilda hasratlashardi.

Nihoyatda yoqimsiz va jonga tegadigan hayot boshlanadi. Ishsiz qolib o'rganmagan yosh kazaklar dastlabki kunlari juda zerikishar va bo'sh soatlarda o'zaro suhbat bilan ko'ngil ochishardi. Tomiga cherepitsa yopilgan yonboshdagi keng-keng hujralarda yuz nafar kazak joylashgan edi. Ular derazalar tagiga qo'yilgan taxta so'rilarda yotishardi. Derazaning ko'ziga yopishtirilgan qog'oz joyidan ko'chib, kechasi bilan yiroqda chalinayotgan podachi nayining ovoziga o'xshab vizillab chiqardi, Grigoriy uning shitirlashiga, xilma-xil xurrak ovozlariga quloq solar ekan, ko'nglini g'am bosar, dirillagan ingichka ovoz yuragini ombur bilan tishlayotganday bo'lardi; shunday paytlarda Grigoriyning o'rnidan tura solib otxonaga borgisi va To'riqni egarlab uyiga yetguncha sovunday ko'pirtirib choptirgisi kelardi.

Otlarni qashlash, tagini tozalash uchun har kuni soat beshda uyg'otishar edilar. Otlar oxurga solingan sulini yeb bo'lguncha, yarim soatlik qisqa vaqt ichida kazaklar bir-ikki og'iz gaplashib olardilar:

– Hosiyati yo'q joy ekan!

– Bu yerda turishga toqatim qolmadi.

– Vaxmistrni qara, bunaqangi zolimni hech ko'rmovdim. Otning tuyog'ini yuvasan deydi-ya!

– Hozir uydagilar yog'li yupqa pishirishayotgandir...

– Shu topda bir qiz bo'lsa-yu, orqasini silab o'tirsang...

– Men bugun g'alati tush ko'ribman, og'aynilar, dadam bilan dashtda pichan o'rayotganmishmiz, hamma yoqni tumonat odam bosib ketganmish, – derdi bo'ta ko'zlarini alanglatib yuvoshgina Proxor Zikov degan yigit. – Har o'roq solganda bir quchoq pichan uyulib qoladi... Biram suyunamanki, yuragim chiqib ketay deydi!..

– Xotining «Bechora Mikolushkam qayerda ekan?» deb o'ylayotgan chiqar.

– O‘ylab bo‘pti! Xotini tushmagur qaynotasi bilan bekinmachoq o‘ynayotgandir.

– Og‘zingga qarab gapir...

– Xotin zoti borki, eri ketgandan keyin boshqa bilan yurmasa turolmaydi.

– Buning nimasiga xafa bo‘lasiz? Xotin degan narsa sog‘in sigir, soqqan bilan sob bo‘lmaydi, bizga ham qoladi.

Yuz kazak ichida eng sho‘xi, eng og‘zi buzuq, behayosi, bezbet Yegorka Jarkov gapga suqilar, ko‘zlarini qisib, xunuk iljayar va derdi:

– Masala ravshan: dadang kelinini tinch qo‘ya qolmas. G‘arko‘z odam. Bir payt shunday voqea bo‘lgan edi... – U ko‘zlarini o‘ynatib, tinglovchilarga qarab-qarab qo‘yardi. – O‘shanga o‘xshash qaynotalardan bittasi o‘z kelinining payiga tushib, qo‘yarda-qo‘ymas ekan-u, biroq, eri xalaqit berar ekan. Bilasizmi, chol nima nayrang ishlatibdi? Kechasi qo‘raga chiqib, molxonaning darvozasini ochib qo‘yibdi, hamma mol hovliga chiqib ketibdi: «Hoy, qoraboskur, molxonaning eshigini yaxshi bekitsang o‘larmiding? Uni qara, hamma mol chiqib ketibdi-ku, tur, borib qamab kel!» deb baqiribdi chol o‘g‘liga. O‘g‘li mol qamagani ketsa, darrov kelinining qo‘yniga kirmoqqa qasd qilgan ekan, lekin o‘g‘li erinib, xotiniga: «Sen borib, qamab kela qol», deb shivirlabdi. Xotini chiqib ketibdi. O‘g‘il quloq solib yotsa, otasi pech ustidan asta tushibdi-da, emaklab karavot tomonga kelaveripti. O‘zi ham chakana bola emas ekan, tokchadan jo‘vani olipti-yu pisib yotaveripti. Ota emaklay-emaklay, karavotga yetib kelib tarmashibdi, o‘g‘li jo‘va bilan otasining yarg‘oq boshiga chuno-o-o-nam solibdiki! «Xo‘sh-e, harom o‘lgur! Doim kelib, choyshabni chaynagani chaynagan!..» – debdi. Kechasi buzoqni uyga kirgizib qo‘yar ekan, buzoq bo‘lsa, kiyim-kechakni yamlab ketarkan. O‘g‘il, go‘yo, hech narsadan bexabar, buzoqni urgan kishi bo‘lib tek yotaveribdi... Chol emaklaganicha zo‘rg‘a pech ustiga chiqib yotibdi, shishgan joyini ushlab-ushlab qo‘yibdi, boshi g‘oz tuxumiday g‘urra bo‘lib qolibdi. Yotib-yotib: «Ivan, ho Ivan?» deb chaqiribdi. – «Nima deysiz, dadajon?» – «Sen hali kimni urding?!» – «Buzoqni». Chol yig‘lamsirab: «Ablah, axir, mol deganni

shunchalik qattiq urasanmi? Bu ahvolda sen odam bo‘lmaysan, molsiz o‘tib ketasan», debdi.

– Yolg‘onni ham qiyib yuborasan-a!

– Sen cho‘tir, zanjirbop ko‘ppak bo‘libsan.

– Bu nima g‘alva? Tarqal! – deb baqirdi ustlariga kelib qolgan vaxmistr. Kazaklar kula-kula, qochirim qilishib otlari yoniga ketishdi.

Choydan keyin saf mashg‘ulotiga chiqishardi. Uyda yegan-ichganlarini uryadniklar burunlaridan chiqarishardi.

– Qorningni tortib tur, hoy cho‘chqa!

– Ravneniye na-pra-vo, shaa-gom...

– Vzvod, stoy!

– Arsh!

– Hoy, chap tomondagi yigit, bu nima turish, onangni?..

Janob ofitserlar keng qo‘rada kazaklarning u yoqdan bu yoqqa yugurishini tomosha qilib bir chekkada turishar, papiros chekishar, ba’zan uryadniklarning buyrug‘iga aralashib qo‘yishardi.

Och-ko‘k shinel va chiroyli mundir kiygan, kelishgan olifta ofitserlarni ko‘rib, Grigoriy, ular bilan o‘zi orasida yer bilan osmoncha farq borligini sezdi: ularning hayoti kazaklarnikidan butunlay boshqacha, batartib va sarishta, ularda bit-mit degan narsa yo‘q, vaxmistrlar tumshug‘imga solib qoladi deb qo‘rqmaydilar.

Qo‘rg‘onga kelganlaridan uch kun o‘tgach, ro‘y bergan bir hodisa Grigoriyga va boshqa hamma kazak yigitlarga yomon ta’sir qildi. Ot bilan saf tortish tartibini o‘rganishayotganda, tushida hamisha sog‘ingan qishlog‘ini ko‘radigan, mo‘ltaygan bo‘tako‘z Proxor Zikovning asov oti vaxmistrning otini tepib oldi, lekin qattiq shikast yetkazmadi, – chap oyog‘ining son terisi sal qirilgan edi, xolos. Vaxmistr qulochkashlab qamchi bilan Proxorning yuziga solib qoldi.

– Ko‘zing qayoqda?.. Nega anqayasan? – deb baqirdi u. – Sen itvachchani men hali!.. Seni hali uch kecha-kunduz qimirlatmay qorovul turg‘izarman...

Vzvod ofitseriga qandaydir buyruq berayotgan yuzboshi, voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rib tursa ham, teskari qarab qilichining dastasini o‘ynab, zerikkan odamday esnab turaverdi. Proxor shishgan

betidagi momataloq qamchi izini shinelining yengi bilan surtdi, lablari qaltirab ketdi.

Grigoriy otini safga to‘g‘rilayotib, ofitserlar tomonga qaradi, lekin ular hech narsadan xabari yo‘q odamday bemalol gaplashishardi. Oradan besh kun o‘tgach, Grigoriy ot sug‘orayotib quduqqa chelakni tushirib yubordi; vaxmistr kalxatday uchib kelib, chang solmoqchi bo‘ldi.

Grigoriy quduqda jimirlagan suvga tikilib:

– Qo‘l tekizma!.. – dedi bo‘g‘iq ovoz bilan.

– Nima deding? Tush, ablah, olib chiq! Tumshug‘ingni qop-qora qon qilaman!..

– Olib chiqaman, lekin sen menga tega ko‘rma! – dedi boshini ko‘tarmasdan, dona-dona qilib Grigoriy.

Agar quduq oldida kazaklar bo‘lganda, ishning pachavasi chiqardi: vaxmistr Grigoriyni urishi turgan gap edi, baxtiga ot yetaklaganlar hammasi panjara yonida turar, bularning gapini eshitmasdi. Vaxmistr Grigoriyning ustiga bostirib kelar ekan, ular tomonga qarab-qarab qo‘yar, g‘azabini bosolmay, vahshiyona ko‘zlarini olakula qilib, xirillar edi:

– Sen o‘zing kimsan? O‘z boshlig‘ingga buncha bidi-bidi qilasan?

– Sen, Semyon Yegorov, unchalik hovliqma!

– Do‘q qilmoqchimisan?.. Sendaqa zo‘rni zax xonaga tiqib qo‘yarman!..

– Hoy, menga qara, – Grigoriy boshini quduqdan ko‘tardi, – menga qo‘l tegizadigan bo‘lsang, baribir, tirik qo‘ymayman! Tushundingmi?

Vaxmistr hang-mang bo‘lib, karrakdek og‘zini ochib, hadeb esnar, lekin nima javob qaytarishni bilmasdi. Jazo berish payti o‘tgan edi. Grigoriyning dokadek bo‘zarib ketgan rangi shu topda undan yaxshilik chiqmasligini ko‘rsatib turardi, shuning uchun vaxmistr esankirab qoldi, yog‘och oxurga suv keladigan tarnov yonidagi loyga tiyg‘onib, quduq oldidan ketdi. Nariroqqa borgandan keyin ketiga burildi-da, mushtini cho‘kich singari salanglatib:

– Yuzboshiga aytaman! Ustingdan yuzboshiga raport beraman! – deb do‘q qildi.

Lekin negadir yuzboshiga hech nima demadi, biroq ikki haftagacha Grigoriyni rosa qiynoqqa soldi; arzimagan narsani bahona qilib tirg'ilar, navbatdan tashqarl qorovul turg'izar, lekin unga betma-bet bo'lishdan o'zini olib qochardi.

Kundalik tartibning bir xilligidan, xunobgarchilikdan yuraklar qon bo'lardi. Qosh qorayguncha, kechqurungi truba chalinguncha kazaklar piyoda va otliq mashg'ulot o'tkazib toza charchashar, otlarni oxurga bog'lab taglarini tozalashar, qashlashar va xashaklatishar, so'ngra bema'ni iboralarni hijjalab, yod olishardi, soat o'n bo'lganda yo'qlama, qorovul ajratish tamom bo'lgandan keyingina ibodat uchun saf turishardi. So'ngra vaxmistr qo'rg'oshin soqqaga o'xshagan ko'zlarini chaqchaytirib, safni qarab chiqar va xirillagan ovozi bilan «Ey bor xudoyo» duosini boshlardi.

Ertalabdan turib kechagi maynabozchilik yana boshlanar, kunlar har xil-u, lekin egizak singari bir-biriga o'xshar, kechani bugundan, bugunni ertadan ajratib bo'lmasdi.

Butun boshli qo'rg'onda boshqaruvchining keksa xotinidan tashqari yana bittagina ayol bor edi, xolos; boshqaruvchining uy xizmatkori bo'lgan bu yoshgina polyak qizi – yoqimtoy Franyaga ofitserlardan tortib yuz yigitning barisi shaydo edi. U dam o'tmay uydan chiqar va yugurib-yugurib, qoshi yo'q keksa oshpaz yoniga, oshxonaga borib-kelib turardi.

Vzvod-vzvod bo'lib yurishni mashq qilayotgan kazaklar bir-biriga ko'z qisar, o'q tortar, uning ketidan tikilib, shitirlagan ko'k yubkasini tomosha qilib qolaverishardi. Kazaklarning hamda ofitserlarning doim tikilib qarashlarini, shahvoniy nazar tashlashini sezgan Franya taltayib ketib, jo'rttaga bellarini qimirlatib yurar, uydan oshxonaga, oshxonadan uyga borib kelaverar, har qaysi vzvodga navbati bilan bir kulib qo'yar, janobi ofitserlarga esa o'zgacha noztamanno bilan iltifot ko'rsatardi. Uning iltifotiga sazovor bo'lmoqni hamma orzu qilib ko'p urinardi-yu, biroq mish-mish gaplarga qaraganda, yolg'iz bir odam: jingalak sochi paxmoq bo'lib ketgan yuzboshigina bunga muvaffaq bo'lgan.

Bahor oldida mana shunday bir hodisa ro'y berdi. O'sha kuni Grigoriy otxonada navbatchilik qilmoqda edi. U hadeb ofitserlar oti turgan burchak tomonga yugurar va baytal talashib tepinishayotgan

otlarni tinchitish bilan ovora edi. Tushki ovqat mahali, Grigoriy endigina yasovulning oq tuyoqli otini qamchilab tinchitdi-da, o‘z To‘rig‘ining oxuriga qaradi. Arg‘umoq shitirlatib pichan chaynar, qizg‘ish ko‘zlarini alanglatib egasiga qarar, qilichbozlik mashqi mahalida lat yegan keyingi oyog‘ini qisardi. Grigoriy uning no‘xtasini to‘g‘rilar ekan, otxonaning qorong‘i burchagidan tapir-tupur ovoz va kimningdir bo‘g‘ilib qichqirganini eshitdi. U bir oz hayron bo‘lib, oxurlar yoni bilan o‘sha tomonga yurdi. Otxona yo‘lagi zimziyo qorong‘i edi. Birdaniga eshik ochildi-da, allakim:

– Tezroq bo‘linglar, hoy yigitlar! – deb qattiq shivirladi.

Grigoriy yurishini tezlatdi.

– Kim u?

Eshikdan paypaslab kirib kelayotgan uryadnik Popov unga turtinib ketdi.

– Grigoriymisan? – deb shivirladi u, Grigoriyning kiftlaridan ushlab.

– Shoshma! Bu yerda nima bo‘lyapti o‘zi?

Uryadnik o‘g‘ri kishidek piqirlab kulish qildi-da, Grigoriyning yengidan ushladi.

– Bu yerda... Shoshma, qayoqqa borasan?

Grigoriy qo‘lini tortib oldi-da, eshikni lang ochib yubordi. Hovlida odam bolasi ko‘rinmasdi, dumi kesilgan bir chipor tovuq, ertaga oshpaz uni so‘yib boshqaruvchi pan janoblariga sho‘rva qilib berishidan bexabar, pinagini buzmay yurar, aylanib kelib go‘ng titar va qayerga tuxum qo‘ysam ekan degandek qaqillar edi.

Birdaniga tushgan yorug‘likdan Grigoriyning ko‘zlari qamashib, birpasgacha hech narsani ajratolmay qoldi, Grigoriy ko‘zlarini kafti bilan to‘sdi va otxonaning qorong‘i burchagi tomonda g‘ovur-g‘uvur kuchayganini eshitib shartta burildi. Devorni ushlay-ushlay, o‘sha tomonga yurdi; eshik ro‘parasidagi devor va oxurlarda tanga-tanga oftob shu’lasi o‘ynardi. Grigoriy ko‘zlarini qamashtirgan shu’laga tikka boqa olmay zo‘rg‘a qadam qo‘yardi. Shu asnoda Jarkov degan masxaraboz yigit uning oldidan chiqdi. U tushib ketayotgan chalvarini tugmalab, boshini chayqatib kelmoqda edi.

– Bu yerda nima qilib yuribsan? Nima qilyapsizlar?

– Tezroq bor! – deb shivirladi Jarkov, sasigan og‘zini Grigoriyning yuziga yaqinlashtirib. – U yerda... u yerda g‘alati ish bo‘lyapti!.. Yigitlar Franyani sudrab olib kirishgan... Burchakka joy qilishgan... – Jarkov hoholab kuldi, lekin Grigoriy uni itarib yubordi, Jarkov orqasi bilan devorning qirrasiga borib urildi-da, nafasi ichiga tushib ketdi. Grigoriy ovoz kelgan tomonga yugurdi, uning katta-katta ochilgan ko‘zlariga vahima cho‘kkan edi. Ot yopiqlari turadigan burchak odamga to‘lgan – butun birinchi vzvod kazaklari shu yerda edi. Grigoriy indamay, kazaklarni itarib-itarib tashladi-da, olg‘a o‘tib oldi. Yerda, qorong‘i burchakda Franya oppoq oyoqlarini sharmandalarcha kerib, qimir etmay yotardi, boshiga ot yopiq tashlangan, yirtilgan yubkasi ko‘kragidan yuqoriroq ko‘tarib qo‘yilgan edi. Kazaklardan biri sheriklariga qaramay qiyshayib kuldi-da, navbatdagi odamga joy bo‘shatib, devor yoniga o‘tdi. Grigoriy shartta orqasiga burilib eshik tomonga chopdi.

– Vaaaxmistr!..

Eshik oldida unga yetib olishdi, orqaga sudrab yiqitishdi, og‘zini kaftlari bilan mahkam bosishdi. Grigoriy bittasining ko‘ylagini yoqasidan etagigacha yirtib yubordi, ikkinchisining qorniga tepdi, biroq uni yiqitib Franya singari boshini yopiq bilan burkashdi, qo‘llarini bog‘lashdi va ovozimizdan tanib qolmasin deb, indamay, bo‘sh oxurga eltib tashlashdi. Sassiq jun yopiq hididan Grigoriyning nafasi qaytar, baqirmoqchi bo‘lar, g‘ovni tepar edi. Yotgan joyidan burchakda bo‘layotgan shivir-shivirni, kazaklarning birin-ketin kirib chiqayotganini, eshikning g‘ijirlaganini eshitardi. Yigirma daqiqalardan keyin uning qo‘llarini yechishdi. Eshikning bu tomonida vaxmistr hamda boshqa vzvodlik ikki kazak turardi.

Vaxmistr hadeb ko‘zlarini pirpiratar, tik qaray olmasdi.

– Tag‘in, ovoza qilib yurma! – dedi u.

– Tuya ko‘rdingmi – yo‘q, bo‘lmasa... quloqlaring kesiladi, – deb kuldi o‘zga vzvodlik Dubok degan kazak.

Ikki odam tugunchakka o‘xshagan bir narsani yerdan ko‘tarib oldi, bu – Franya edi (yubkasi ostidan uning oyoqlari shalvirab osilib turardi). Uni oxur ustiga olib chiqishdi va omonatgina taxta bilan to‘sib qo‘yilgan devor tuynugidan tushirib yuborishdi. Devorning orqasi bog‘ edi. Har bir oxurning tepasida is bosgan kichkina

tuynukcha bo‘lardi. Devor orqasidagi boqqa borib tushgan Franyaning nima qilishini ko‘rmoqchi bo‘lgan kazaklar g‘ovlar ustiga yopirilishib chiqishdi; ba’zilari shosha-pisha otxonadan jo‘nab qolishdi. Grigoriy ham qiziqib, uni ko‘rgisi keldi. Shipdagi to‘sinni ushlab bo‘ynini cho‘zdi, oyog‘ini o‘rnashtirib olgach, engashib pastga qaradi. Franya chalqanchasiga tushib yotar, oyoqlarini qaychi singari ochib yopar va devor tagidagi eriy boshlagan qorni changallar edi. Grigoriy uning yuzini ko‘rolmas, lekin tuynuklar yonida biqinishib mo‘ralashayotgan kazaklarning pishillaganini, xushbo‘y mayin pichanning shitirlaganini eshitardi.

Franya anchagacha cho‘zilib yotdi, nihoyat, qo‘llari va tizzalarini yerga tirab, boshini ko‘tardi. Uning qaltiragan qo‘llari bukilib ketar edi. Grigoriy buni aniq ko‘rib turardi... Franya gandiraklay-gandiraklay bir amallab oyoqqa turdi; sochlari to‘zgan, tanib bo‘lmas darajaga yetgan Franya tuynuklarga qarab uzoq tikilib qoldi. Nihoyat, u bir qo‘li bilan daraxt shoxlarini ushlab, ikkinchi qo‘lini devorga tirab, zo‘rg‘a qadam tashlab keta boshladi.

Grigoriy oxurdan irg‘ib tushib kafti bilan tomog‘ini ishqalay boshladi: uning nafasi bo‘g‘ilib qolgan edi.

Kimligi esida yo‘q, eshik oldida turganlardan biri unga pishiqtirdi:

– Birovga aytsang – azbaroyi xudo, o‘ldiramiz! Tushundingmi?

Vzvod ofitseri mashg‘ulot vaqtida Grigoriyning shinel tugmasi uzilganligini ko‘rib:

– Seni kim do‘pposladi? Bu nimasi? – deb so‘rab qoldi.

Grigoriy tugmaning to‘garak izini ko‘rdi; o‘tgan voqea esiga tushib ko‘ngli buzildi va shu uzoq davr ichida birinchi marta xo‘rligi kelib, o‘zini zo‘rg‘a bosib oldi.

## III

Dasht – jazirama oftob haroratida o‘rtanmoqda. Pishib yetilgan va hali o‘roq tushmagan oltinday bug‘doyzorlar sarg‘ish chang ichida yallig‘lanayotgandek ko‘rinadi, o‘roq mashinalarga qo‘l tegsa kuyadi.

Bosh ko‘tarib osmonga qarab bo‘lmaydi. Sarg‘ish to‘zon pardasi qoplagan ko‘kning qaynoq nafasi kelib turadi. Bug‘doyzorning etagida qashqa beda sap-sariq bo‘lib gulga kirgan.

Butun qishloq dashtga ko'chib chiqqan, g'alla o'rishga tushishgan. Odamlar chang yutib, jaziramada otlarni ayamay o'roq mashina haydashadi, issiqdan nafaslari bo'g'ilib xirillashadi. Ahyon-ahyonda Don tomondan turgan shamol chang-to'zonni osmonga ko'taradi; quyosh esa olov pardasi bilan hamma yoqni o'rab olgan.

O'roq mashinada ishlayotgan Petro ertalabdan beri ikki chelaklik ko'zadagi suvning yarmini ichib qo'ydi. U hadeb iliq bemaza suvni simirar, lekin oradan bir lahza o'tmay, yana tomog'i qaqrar, ko'ylag-u paytavalarigacha ivib, yuzidan ter quyar, quloqlari to'xtovsiz shang'illab bezor qilar, gapiray desa – tili kalimaga kelmasdi. Darya yuzini ro'molga burkab, ko'ylagining yoqasini ochib, o'rilgan g'allani to'plar, ikki ko'ksi orasidagi chuqurchani dona-dona ter bosgan edi. O'roq mashinaga qo'shilgan otlarni Natalya haydardi. Uning ikki beti lavlagiday qizarib ketgan, ko'zlari yoshlanar edi. Panteley Prokofyevich, shalabbo bo'lib qator oralarini yig'ib borardi. Ivib ketgan ko'ylagi badanini achitardi. Cholning ko'ksiga tushib turgan soqoli xuddi erigan qora saqichga o'xshar edi.

Ro'paradan arava haydab kelayotgan Xristonya:

– Sovundek ko'pirib ketibsan, Prokofich! – deb baqirdi.

– Ha, ivib ketdim! – Prokofyevich qo'l siltadi-yu, ter bosgan qornini ko'ylak etagi bilan artib dikonlagancha yurib ketdi.

– Petro, – deb baqirdi Darya – uh, bo'ldi qil!

– Shoshma, bir aylanaylik.

– Bir oz salqin tushsin. Men hozir ishni yig'ishtiraman!

Natalya otlarni to'xtatdi, go'yo o'roq mashinani ot emas, o'zi tortganday halloslardi. Darya kavush g'ajigan qop-qora oyoqlarini avaylab bosib, ekinzor ichidan asta-sekin ular tomon kelardi.

– Petyushka, axir yaqin joyda hovuz bor-ku!

– Yaqinmish-a, uch chaqirim kelar!

– Cho'milib kelar edik.

– Hovuzga yetguncha... – deb xo'rsindi Natalya.

– Piyoda yuradigan ahmoq bormi? Otlarni chiqaramiz-da, minib haydaymiz!

Petro o'rilgan g'allani to'playotgan otasi tomonga hadiksirab qaradi-da:

– Otlarni chiqaringlar! – deb qo'l siltadi...

Darya shatak qayishlarni yechdi-da, bir sakrashda biyaga minib oldi. Natalya qovjiragan lablarini qiyshaytirib iljaydi, otni o'roq mashina yoniga yetaklab keldi: u mashina o'tirg'ichiga oyoq qo'yib minmoqchi edi.

– Oyog'ingni ber! – Petro joniga oro kirib uni otga mindirib qo'ydi.

Jo'nab ketishdi. Ro'moli bo'yniga tushgan, boldiri ochilib qolgan Darya otni ilgariroq qamchilagan edi. Ot ustida u chavandoz kazaklar singari o'tirib olgan edi, ketidan kelayotgan Petro qochiriq qilib:

– Hoy, ehtiyot bo'l, chaqa qilib qo'ymagin, tag'in! – deb baqirdi.

– Balo ham urmaydi! – dedi Darya pisand qilmasdan.

Katta yo'lni kesib o'tganlaridan so'ng, Petro chap tomonga qaradi. Olisdagi qishloq tomondan zig'irdan xol paydo bo'lib, katta bo'z tuproq yo'l bo'ylab uchib kelaverdi.

– Allakim ot choptirib kelyapti, – dedi ko'zini qisib qaragan Petro.

– Rosa haydayapti! Changitishini qara! – deb taajjublandi Natalya.

– Nima gap bo'ldi ekan? Darya! – deb chaqirdi oldinda yelib ketayotgan xotinini Petro. – Shoshma, anavi otliqni ko'raylik.

Zig'irday narsa tepaning orqasida ko'rinmay qoldi, keyin kattakon chumoliday bo'lib ko'zga chalindi.

Chang orasidan otliq odamning qorasi aniq ko'rinardi. Besh daqiqalardan keyin yanada aniqroq ko'zga chalindi. Petro ishga kiyadigan poxol shlapasining chetiga kirlangan kaftini qo'yib olisga tikilardi.

– Bu chopishda otni rasvo qiladi, qattiq haydayapti.

Petro qo'lini shlapasidan oldi, yuzida sarosimalik alomati paydo bo'lib, ikki qoshi chimirilib qoldi.

Otliqni endi bemalol ko'rish mumkin edi. U chap qo'li bilan furajkasini ehtiyot qilib, otini uchirar, o'ng qo'lida esa chang bosgan qizil bayroqcha hilpillardi.

U og'zini karrakdek ochib:

– Shum xabar! – deb jar soldi-da, yo'l bo'shatib bergan Petroning oldidan shu qadar yaqin o'tib ketdiki, qaynoq havodan o'pkasi to'lib nafas olgan otining bo'g'ilib xirillagani aniq eshitildi.

Chang ustida qolgan tuyoq iziga sarg‘ish ko‘pik tomgan edi. Petro otliqning orqasidan qarab qoldi. Chopaverib charchagan otning og‘ir-og‘ir hansirashi qulog‘idan ketmas, burilib qaraganida kumushday tovlanib ko‘ringan, terga botgan sag‘risi ko‘z o‘ngida turar edi.

Tog‘day baxtsizlik boshga tushishini hali u qadar tushunib yetmagan Petro, goh changda jimirlashayotgan ko‘pikka, goh qishloqqa dovur cho‘zilgan baland-past dashtga baqrayib qolgan edi.

Urilgan oltin bug‘doyzorni payxonlab qishloq sari ot qo‘ygan kazaklar ko‘zga chalinardi. Uzoqdan zo‘rg‘a ko‘ringan tepagacha dashtni chang-to‘zon ko‘targan otliqlar bosib ketgan; bular katta yo‘lga chiqib olgach, to‘dalanishib chopishardi, chang-to‘zon buluti yo‘l ustini qoplagan edi. Harbiy xizmat ro‘yxatida bo‘lgan kazaklar daladagi ishlarini yig‘ishtirishar, otlarini o‘roq mashinadan chiqazishar va minib olib, qishloq sari chopishardi. Xristonya o‘zining gvardiyachi otini aravadan chiqarganini va ot ustida uzun-uzun oyoqlarini buklab, unga tikila-tikila jo‘nab qolganini Petro ko‘rib qoldi.

– Nima gap o‘zi? – Natalya qinidan chiqayozgan ko‘zlarini Petroga tikib qarab qoldi. Petro miltiq ro‘parasida qotib qolgan quyon singari mo‘ltirab turgan Natalyani ko‘rib bir seskanib tushdi.

U otini aravalar oldiga choptirib keldi; yerga sakrab tushdi, ish qizig‘ida yechib tashlagan chalvarini topib kiydi va otasiga qo‘l siltadi-da, lovullab yonayotgan dasht ustida rang-barang xol singari qimirlashgan otliqlar orasida, chang buluti ichida g‘oyib bo‘lib ketdi.

## IV

Maydon olomonga liq to‘lgan. Saf-saf otlar, kazaklarning aslahalari, xilma-xil nomerlik pogonlar... Oddiy kazaklardan bo‘ylari bir qarich baland bo‘lgan ko‘k furajkali atamanlar mayda parrandalar orasida adashib qolgan nasldor g‘ozlar singari boshlarini ko‘tarib yuradilar.

Qovoqxona berk. Harbiy pristavning qovog‘i soliq, ta’bi xira. Ko‘cha-ko‘yda, chetan devorlar oldida yasangan-tusangan xotinlar. Hammaning og‘zida bitta so‘z. «Mobilizatsiya». Birov mast, birov tutaqishgan. Odamlarning bezovtaligi otlarga ham o‘tgan, ular tepinishar, chinqirib kishnashar edilar. Maydon ustini chang buluti

qoplab olgan, hamma yoqni bo'shagan aroq shishalari, arzon baho konfet qog'ozlari bosib ketgan.

Petro egarlangan arg'umog'ini yetaklab kelardi. Qorachadan kelgan barvasta kazak atamani devor yonida beso'naqay keng chalvarini bog'lar va oppoq tishlarini ko'rsatib ishshayardi, uning yonida pakanagina bir ayol – yo xotini, yo o'ynashi bo'lsa kerak – bedanaday shaqillar:

– Shu mochag'ar bilan yuradigan bo'lsang, dodingni beraman! – deb pisanda qilardi.

Xotin mast, xurpaygan sochlariga pista po'choqlari yopishgan, guldor durrachasining uchi yechilib ketgan edi. Kazak atamani tizzalarini bukib, kamarini bog'ladi, iljayib kuldi; burma chalvari ostidan bir yashar buzoq bemalol o'tib keta olardi.

– Ko'p qaqillayverma, Mashka!

– Huv ko'ppak! G'arko'z, xotinboz!

– Xotinboz bo'lsam nima qipti?

– Ko'zlaringda sharm-hayo yo'q!

Ularning yonida mallasoqol vaxmistr to'pchi-kazak bilan bahslashmoqda:

– Hech nima bo'lmaydi! Bir sutka turamiz-u, uy-uyga tarqalamiz.

– Mabodo, urush bo'lsa-chi?

– Qo'ysang-chi, do'stim! Dunyoda bizga bas keladigan davlat qayoqda deysan?

Yoni-beridagilar orasidan poyma-poy gaplar eshitiladi; yoshi xiylaga borgan chiroyli kazak qizishib gapiradi:

– Ular bilan ishimiz yo'q. O'zlik-o'zi urishaversin, hali biz dondunlarimizni yng'ishtirib bo'lganimizcha yo'q!

– Bu – baloyi ofat! Buni qara, dunyoning odamini to'plab o'tirishibdi, hozir vaqt g'animat; bir kun ishlagan – yil o'n ikki oy rohatini ko'radi.

– G'aramlarni mol payhonlab ketadigan bo'ldi.

– Biznikilar arpa o'rog'iga tushishgan edi.

– Avstriya poshshosini o'ldirishibdi-da, a?

– Valiahdini.

– Sen qaysi polkdansan?

– Hoy hamqishloq, boyib ketdingmi deyman!

– Bahay, Steshka, qaysi shamol uchirdi?

– Ataman, har ehtimolga qarshi odamlarni to‘pladik, deydi.

– Ishqilib, kazaklar bo‘sh kelmaydi!

– Yana biron yil sabr qilishganda-ku, uchinchi navbatdan o‘tib olardim.

– Bobo, sen nimaga kelding? Haliyam xizmatdan qutulganing yo‘qmi?

– Yoshlar qirilaversa, chollarga ham navbat keladi.

– Aroqxonani berkitib qo‘yishdi-ya!

– Voy lapashang! Marfutkanikiga kirgin – bochkalab topiladi.

Komissiya ko‘rik boshladi. Qop-qora qonga bo‘yalgan mast kazakni uch kazak mahkamaga sudrab keltirdi. Mast kazak o‘zini orqaga tashlab egnidagi ko‘ylagini yirtar, qiyiq ko‘zlarini olaytirib bo‘kirardi:

– Men bunaqa mujiklarni qonga bulayman! Don kazagini bilib qo‘y!

Odamlar o‘zini chetga olib unga achinar, gapini ma’qullab kular edilar.

– Bo‘sh kelma, shovvoz!

– Uni nega do‘pposlashibdi?

– Allaqanday bir mujikni urgan ekan.

– Mujikni ursa savob bo‘ladi.

– Ularning adabini beramiz hali.

– Men, og‘ayni, ming to‘qqiz yuz beshinchi yildagi qo‘zg‘olonni tinchitishda qatnashganman. Ana, tomosha!

– Urush boshlansa, yana bizlarni qo‘zg‘olon bostirishga jo‘natishadi.

– Yetar! Endi o‘zi xohlab boradiganlarni yollab olishsin. Politsiyasini yuborsin, bizlar uchun bu ish uyat.

Moxov do‘konining peshtaxtasi oldida itar-itar, sur-sur, to‘polon. Shirakayf Ivan Tomilin xo‘jayinlarga tiqilinch qilardi. Sergey Platonovich qo‘llarini kerib unga nasihat qilar; uning sherigi Yemelyan Konstantinovich Satsa bo‘lsa, eshikka tomon tislanar va:

– Bu qanaqa cho‘chqa o‘zi... Chinini aytsam, o‘zboshimchalikdan boshqa narsa emas! Bola, chop, atamanni chaqirib kel!.. – der edi.

Tomilin terlagan kaftlarini chalvariga surtar, xo'mraygan Sergey Platonovichning ustiga ko'krak kerib bostirib kelardi:

– Vekselga qo'l qo'ydirishga-ku ustasan, nega endi qo'rqib qaltiraysan, ablah? Shoshma! Shu topda og'iz-burningni qop-qora qon qilsam, qo'lingdan hech nima kelmaydi! Kazaklik huquqlarimizni talon-toroj qildilaring-a! Ha, itvachcha! Ablah!

Qishloq atamani atrofni o'rab olgan kazaklarga sarig' moyday yoqadigan gap gapirar edi:

– Urushmi? Yo'q, urush bo'lmaydi. Harbiy pristav janobi hazratlari, bu o'zi bamisoli namoyishday bir gap, dedilar. Xotirjam yuraveringlar!

– Xayriyat-ey! Uyga qaytgan zahotiyoq dalaga chiqaman.

– Hamma ish qolib ketdi, axir!

– Boshliqlar o'zi hech nimani o'ylaydimi, yo'qmi? Yuz botmondan ortiq don-dun ekkanman...

– Timoshka! Biznikilarga aytib qo'y, ertaga qaytib kelisharmish, degin!

– Anavilar afisha o'qishyaptimi deyman? Yuringlar o'sha yerga!

Maydonda allamahalgacha g'ovur-g'uvur tinmadi.

To'rt kundan keyin qizil vagon tirkagan poyezdlar polk-polk kazaklarni to'p-zambaraklari bilan ortib, Rusiya – Avstriya chegarasiga jo'nagan edi.

Urush...

G'ov bilan to'silgan kataklar ichidagi oxurlar yonida otlarning pishqirgani eshitilar, burqsigan go'ng hidi kelardi. Vagonlarda yana o'sha gap davom etar, ashula sadolari yangrar edi.

*Tebrandi, to'lqinlandi,*
*Pravoslav tinch Don;*
*Bo'ysunib, labbay dedi,*
*Podsho chaqirgan zamon.*

Stansiyalar – kazakcha chalvarlarning hoshiyasiga taajjublanib tomosha qilayotgan odamlar, yuzlaridagi qora moy dog'larini artishga qo'li tegmagan ishchilarga to'lgan.

Urush...

Og'iz ko'pirtirib chuvullashgan gazetalar...

Eshelonlar stansiyalardan o‘tayotgan mahalda, ayollar dastro‘mollarini silkitib, kazaklar bilan xayrlashar, kulib boqishar, ularga har xil shirinlik va papiros tashlashardi. Voronej yaqinidagi bir stansiyada shirakayf temiryo‘lchi bir chol, Petro Melexov bilan yana o‘ttiz kazak joylashgan vagonga mo‘ralab qaradi: chol ingichka burnini chimirib:

– Ketyapsizmi? – deb so‘radi. Kazaklardan bittasi:

– Sen ham biz bilan yura qol, bobo, – deb javob qildi.

– Hey, bolam-a... g‘o‘r ekansan! – Chol o‘pkalaganday ancha vaqtgacha boshini chayqab turdi.

## V

Iyun oyining oxirgi kunlarida polk manyovrga chiqdi. Diviziya shtabining buyrug‘iga muvofiq polk Rovno shahrigacha saf tortib bordi. Ikkita piyoda askar diviziyasi hamda suvoriylar qismi shahar atroflariga, to‘rtinchi sotnya Vladislavka degan qishloqqa joylashgan edi.

Oradan ikki haftacha vaqt o‘tgach, uzoq manyovrlar davomida rosa charchagan to‘rtinchi sotnyadagi kazaklar Zaboron degan joyda o‘rnashganlarida, polk shtabidan yuzboshi Polkovnikov ot choptirib kelib qoldi. Grigoriy o‘z vzvodidagi kazaklar bilan chodirda yotgan edi. Yuzboshining torgina ko‘chaning qoq o‘rtasidan ko‘pirib ketgan ot ustida o‘tganini ko‘rib qoldi.

Hovlidagi kazaklar tipirchilab qolishdi.

– Yana qo‘zg‘alamiz, shekilli-a? – dedi Proxor Zikov tusmollab, so‘ngra qulog‘ini dikkaytirib tinglay boshladi.

Yirtilgan chalvarini yamayotgan vzvod uryadnigi qo‘lidagi ignani furajkasining astariga qadab:

– Rost, qo‘zg‘aladiganga o‘xshaymiz, – dedi.

– Dam olganiyam qo‘yishmaydi bu ablahlar.

– Vaxmistr hali brigada komandiri keladi degan edi.

«Ta-ta-ta-tri-tri-ta-ti-ta!..» – Trubkachi trevoga chaldi. Kazaklar irg‘ib o‘rinlaridan turishdi.

– Tamaki xaltam qaysi go‘rda qoldi? – deb tipirchilardi Proxor.

– E-gar-laaa!

– Xaltangni yer yutsin-ey! – deb baqirdi Grigoriy chopib ketayotib.

Vaxmistr yugurganicha hovliga kirdi, bir qo'li bilan qilichini avaylab ushlab otxona tomon ketdi. Otlar ustavda belgilangan muhlat ichida egarlanib taxt qilindi. Chodir qoziqlarini sug'urayotgan Grigoriyning qulog'iga uryadnik shivirladi:

– Urush boshlanibdi, uka!

– Bekor aytibsan!

– Xudo haqqi, rost, vaxmistr o'zi aytdi.

Chodirlar yig'ildi. Ko'chada kazaklar saf torta boshladi.

Asov ot mingan yuzboshi saf oldida aylanib yurardi.

– Vzvod-vzvod bo'lib saf tort! – Havoda uning ovozi yangradi.

Ot tuyoqlari tapir-tupur ovoz chiqardi. Kazaklar qishloqdan katta yo'lga chiqdi. Kusten qishlog'idan stansiya tomon birinchi va beshinchi sotnya kazaklari ham ot qo'yib kelmoqda edi.

Bir kundan keyin butun polk chegaradan o'ttiz besh chaqirim beriroqdagi Verba stansiyasida poyezddan tushdi. Stansiya atrofini o'ragan qayinzor orqasida tong yorishar, ajoyib kun bo'lishidan darak berardi. Temiryo'llardan guldirab parovozlar o'tib turardi. Shabnam tushgan izlar lak surilganday yiltirardi. Otlar pishqirishib taxta zinalar orqali vagonlardan tushardi. Vodokachkaning orqasidan bir-birini chaqirishgan ovozlar, komanda bergan yo'g'on tovushlar eshitilardi.

To'rtinchi yuz kazaklari temir yo'lning nariyog'iga otlarini yetaklashib o'tmoqda edi. Kumushrang tong qorong'isida g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlar eshitilardi. Odamlarning aft-basharasi ko'karib ketganga o'xshar, otlar havoga singib ketgandek g'ira-shira ko'rinar edi.

– Nechinchi sotnya?

– O'zing kimsan, adashib qoldingmi?

– Og'zingga qarab gapir, ablah! Ofitserga qanday muomala qilishni bilmaysanmi?

– Kechiring, janobi oliy!.. Tanimabman.

– Yo'lingdan qolma!

– Buncha angrayasan, hoy? Parovoz kelyapti, qimirlasang-chi.

– Vaxmistr, uchinchi vzvoding qayerda?

– Sotnya, ildamroq!

Kolonna orasida birov eshitilar-eshitilmas piching qiladi:

– Ildamroq emish-a, voy xonasallot! Ikki kechadan beri mijja qoqqanimiz yo‘q, tag‘in ildamroq deydi-ya!

– Syomka, bir tortib beray, kechadan beri chekkanim yo‘q.

– Ayg‘iringni tortsang-chi...

– Suvliq bog‘ini chaynab uzibdi, bu harom o‘lgur.

– Menikining oldingi oyog‘idagi taqasi tushib qopti.

Chetga burilib o‘tayotgan bir to‘p kazaklar to‘rtinchi sotnyaning yo‘lini to‘sib qo‘ydi.

Qalam bilan chizilgan suratga o‘xshash otliqlarning qorasi zangori osmon yorug‘ida aniq ko‘rinib turardi. Ular to‘rttadan saf bo‘lishgan. Kungaboqarning yalang‘och poyasiga o‘xshash nayzalar havoda chayqalib borardi. Ahyon-ahyonda uzangilarning jaranglagani, egarlarning g‘archillagani eshitilardi.

– Hoy, birodarlar, qayoqqa ketyapsiz?

– Xolamiznikiga, beshik to‘yiga.

– Ho-ho-ho-ho!

– Jim! Ovozlaringni o‘chir!

Quyma egar qoshini tutamlab olgan Proxor Zikov Grigoriyning yuziga tikilib astagina so‘radi:

– Sen qo‘rqayotganing yo‘qmi, Melexov?

– Nimasidan qo‘rqadi?

– Ehtimol, shu bugunoq jangga kirsak...

– Mayliga.

– Ammo men qo‘rqyapman, – deb gapning ochig‘ini aytdi Proxor va shabnamda ivigan qayish jilovni qaltiroq barmoqlari bilan o‘ynadi. – Tun bo‘yi vagonda uxlay olmadim. Ko‘zimga sira uyqu kelmasa bo‘ladimi...

To‘rtinchi sotnyaning bosh tomoni qimirladi va joyidan siljidi, uning ketidan uchinchi vzvod qo‘zg‘aldi; otlar bir maromda qadam tashlab yurib ketdi, uzangi bog‘iga qadab qo‘yilgan nayzalar yalpisiga tebranib havoda suzib ketdi.

Grigoriy jilovni qo‘yib yuborgan, mudrab borardi. Nazarida uni egar ustida chayqab ketayotgan ot emas, balki o‘zi bir maromda

qadam tashlab ketayotganday, qora tuproq yo'llardan allaqayoqlarga borayotganday edi, yurgan sari bahri ochilib, yengil tortardi.

Qulog'i tagida Proxor allanima deb ming'illab gapirar, uning tovushi, egarning g'irchillashi, taqalarning taraqlashiga qo'shilib ketar, lekin xayol surib mudrashiga xalaqit bermasdi.

Dala yo'lidan borishardi. Ajoyib jimjitlikning allalovchi ohangi quloqlarda jaranglagandek tuyulardi. Yo'l bo'yidagi pishib yetilgan, shabnam tushgan sulilardan bug' ko'tarilardi. Otlar kazaklar qo'lidan jilovini yulqib, boshoqli sulilarga bo'yin cho'zishardi. Grigoriyning uyqusizlikdan salqigan qovoqlari osti yilt-yilt qilib turardi; Grigoriy boshini ko'tarar va to'xtamay shaloq arava singari bir me'yorda ming'illayotgan Proxorning ovozini eshitardi, xolos.

Yiroqdagi sulizorning narigi yog'idan qo'qqisdan gumburlab chiqqan dahshatli sado uni uyg'otib yubordi.

– Otishyapti! – Proxorning baqirib yuborishiga sal qoldi.

Uning bo'ta ko'zlarini vahm bosgan edi. Grigoriy boshini ko'tardi; oldindagi vzvod uryadnigining ko'k shineli ot sag'risi bilan bir maromda tebranib borar, yonbosh tomonda hali o'rilmagan parcha-parcha ekinzorlar jimirlashar, simyog'och bo'yi baravar joyda pirillab turib qolgan to'rg'aylar ko'rinardi. Kazaklar jonlandi, gumburlagan to'p ovozlari hammaga elektr tokiday ta'sir etdi. To'p ovozidan g'ayrati qo'zigan yasovul Polkovnikov otlarni yeldirib ketdi. Qishloq yo'llari chorrahasida egasiz qolgan oshpazxona oldida qochoqlar tushgan aravalar ko'rindi. Yasangan dragunlar eskadroni kazaklar yonidan ot qo'yib o'tib ketdi. Nasldor saman ot mingan mallasoqol rotmistr (chor armiyasida kavaletiya ofitseri) mensimaganday qilib kazaklarga nazar tashladi-da, otini choptirganicha ketdi. Soylikdagi botqoqlikda gaubitsa to'pi tiqilib qolgan edi. Choparlar otlarni qamchilashar, atrofida to'pchilar ivirsib yurishardi. Novcha bo'yli, cho'tir to'pchi oshxona yoqdan bir quchoq taxta ko'tarib kelmoqda edi, buni u, taxta devordan sug'urib olganga o'xshardi.

To'rtinchi sotnya piyoda askarlar polkiga yetib oldi. Shinellarini yechib, bo'yinlariga solib olgan askarlar shitob bilan yo'l bosishardi, ishqalab yaltiratgan koteloklarida quyosh eks etar, nayza tig'larida yiltirab o'ynardi. Eng keyinda kelayotgan rotaning o'lguday sho'x, pakanagina yefreytori Grigoriyga loy otdi.

– Ushlab ol, avstriyaliklarga otarsan!

– Jinnilik qilma, onasi baytal! – Grigoriy uchib kelayotgan loyni qamchi bilan urib, ikki bo‘lak qildi.

– Kazakvachchalar, bizdan ularga salom aytib qo‘ying!

– O‘zingiz ko‘rishganda aytarsiz.

Oldinda ketayotgan kolonnadagilar behayo bir qo‘shiqni boshladilar; quyrug‘i katta, xotinchalish bir askar kolonnaning yonida etigining kalta qo‘njini shapatilab, keti bilan yurib borardi. Ofitserlar miyiqlarida kulib qo‘yishardi. Xavf-xatarning olis emasligi ularni askarlarga yaqin va muloyim bo‘lishga majbur etardi.

Oshpazxonadan to Gorovishuk qishlog‘iga qadar piyoda qismlar, aravalar, to‘plar, lazaretlar chumoliday tizilib borishardi. Jang payti yaqinlashgani sezilar, o‘limning nafasi kelib turardi.

Berestechko qishlog‘ining oldida polk komandiri Kaledin to‘rtinchi sotnyaga yetib oldi. Uning yonida qo‘shin starshinasi ham bor edi. Grigoriy polkovnikning kelishgan qomatini tomosha qilar ekan, starshinaning unga hovliqib aytgan gaplari qulog‘iga chalinib qoldi:

– Uch chaqirimlik xaritada bu qishloq ko‘rsatilmagan, Vasiliy Maksimovich. Biron kasofatga uchrashimiz mumkin.

Polkovnikning nima javob berganini Grigoriy eshita olmadi. Ularning ketidan ad’yutant ot choptirib kelib qoldi. Uning oti chap oyog‘ini ayab bosardi. Grigoriy bir qarashdayoq oti aslzod ekanini payqadi.

Uzoqda, yassi tepalik ostida bir qishloq choldevorlari ko‘rindi. Polk goh yo‘rtib, goh yeldirib kelayotganidan otlar xiyla terlagan edi. Grigoriy o‘z to‘rig‘ining terda qoraygan bo‘ynini silab ko‘rar, atrofga qarardi. Qishloqning orqa tomonida, uchlari ko‘m-ko‘k osmonga nayzaday qadalgan yashil o‘rmon daraxtlari ko‘rinardi. O‘rmonning narigi yog‘ida to‘plar gumburlardi; hozir bu ovoz otliqlarning qulog‘ini bitirar, otlar hurkar, quloqlarini chimirardi; orasira baravariga otilgan miltiq sadosi qasirlab eshitilardi. Portlagan to‘p o‘qlarining tutuni uzoq joylargacha cho‘zilib borar, so‘ngra tarqalardi. Miltiq ovozi goh susayib, goh kuchayib o‘rmonning o‘ng tomonidan eshitila boshladi.

Har bir o‘q tovushi Grigoriyning qulog‘ini bigizday teshar, asabini qo‘zg‘atardi. Proxor Zikov egarda bir dam tinch o‘tirolmas, og‘zi gapdan to‘xtamasdi.

– Grigoriy, otishyapti, xuddi bolalarning tartaragiga o‘xshaydi. To‘g‘rimi?

– Tilingni tiy, mijg‘ov.

To‘rtinchi sotnya qishloqqa yetdi. Hovlilar askarga to‘lgan; uy ichlari ivirsigan, besaranjom: egalari yo‘l taraddudida. Katta-yu kichik – hammaning vahimaga tushgani, esankirab qolgani yuzidan ko‘rinib turardi. Grigoriy bir hovlining yonidan o‘tib ketayotib, bostirma ostida gulxan qalab o‘tirgan askarlarni ko‘rdi, egasi bechora – qartaygan, novchagina belorus, qo‘qqisdan boshiga tushgan musibatdan bukchayib qolgan, parvoyi falak, shu yerda ivirsib yuradi. Uning uy ichidagilari qizil jildlik yostiqlarni, qaqir-ququrlarini aravaga ortayotganini, chol esa, hech kimga kerak bo‘lmagan, balki yerto‘lada o‘n yil bekor yotgan, siniq to‘g‘inni ko‘tarib kelayotganini Grigoriy tomosha qilib turdi.

Grigoriy xotinlarning befahmligiga hayron qoldi: ular gultuvak, ikona singari qaqir-ququrni aravaga ortishar, biroq eng zarur va qimmatbaho buyumlarni uyda qoldirishardi. Allakimning parqu to‘shagi yorilib ketib, patlari oppoq qor singari ko‘chada to‘zib yurardi. Hamma yoqdan jizg‘in isi, dimiqqan yerto‘lalarning sasigan hidi kelardi. Qishloqdan chiqaverishda ularning ro‘parasidan bir yahudiy chopib kelaverdi. Yahudiy xuddi qilich bilan tilib qo‘ygandek kichkina og‘zini ochib baqirardi:

– Janobiy kozak! Janobiy kozak! Voy, xudoyim-eeey!

Pakanagina kallaxum kazak otini yeldirib borar, qamchilar, uning dodiga quloq solmas edi.

– To‘xta! – deb buyurdi kazakka ikkinchi sotnya yasovuli.

Kazak egar qoshiga engashib, tor ko‘chaga kirib ketdi.

– To‘xta! Muttaham! Qaysi polkdansan?

Kazak xumday boshini ot bo‘yniga engashtirib oldi. Poygadagiday, otini choptirib baland devor tagiga yetdi, bedovini gijinglatib devor ustidan sakratib, nariyoqqa o‘tib ketdi.

– Bu yerda to‘qqizinchi polk to‘xtagan, janobi oliy. Xuddi o‘sha polkning kazagi bu, – deb raport berdi vaxmistr yasovulga.

– Sadqayisar. – Yasovul aftini bujmaytirib, uzangisiga tarmashgan yahudiydan: – Nimangni oldi? – deb so‘radi.

– Janobiy ofitser... Soatimni ołdi, janobiy ofitser! – Yahudiy yaqin kelgan ofitserlarga chiroyli yuzini burib tikilar, ko‘zlari mo‘ltmo‘lt qilib turardi.

Yasovul oyog‘ini qimirlatib, uzangini uning qo‘lidan chiqardida, jo‘nab qoldi, nariroq borib:

– Nemislar kelsa, baribir, tunab oladi, – dedi miyig‘ida kulib.

Yahudiy nima qilishini bilmay ko‘chaning qoq o‘rtasida qaqqayganicha qolaverdi. Uning betlari pir-pir uchar edi.

– Yo‘lni bo‘shat, janobi juhud! – deb do‘q aralash baqirdi yuzboshi va qamchisi bilan o‘xtaldi. To‘rtinchi sotnya otlarining tuyoqlarini shiqirlatib, egarlarni g‘archillatib, yahudiy yonidan o‘tib ketaverdilar. Kazaklar gap tashlashar, uni masxara qilib iljayishardi.

– Bizning bolalar o‘g‘irlamasa, tinch uxlay olmaydi.

– Bizning kazaklar, ko‘ziga ko‘ringan narsani tashlab ketmaydi.

– Buyumini ayagan kishi yashirib qo‘ysin.

– Haligi yigit ham juda olg‘ir...

– Devordan irg‘ib o‘tishini qara, xuddi tozi itga o‘xshaydi-ya!

Vaxmistr Kargin bir oz keyinroq qoldi, safdagi kazaklarning kulgi sadolari ostida yahudiyga nayza o‘xtalib:

– Qani, chop, yo‘qsa sanchib olaman!.. – dedi. Yahudiy, o‘takasi yorilib, qochib qoldi. Vaxmistr ketidan quvib borib, qamchi bilan tushirdi. Grigoriy yahudiyning qoqilib ketganini, so‘ngra ikki kafti bilan yuzini to‘sib vaxmistrga burilib qaraganini ko‘rdi. Ingichka barmoqlari orasidan tirqirab qon oqardi.

– Nega urasiz? Aybim nima? – deb yig‘lamsirab gapirdi u.

Vaxmistr jo‘nab ketayotib, jez tugmaga o‘xshash yumaloq ko‘zlarini chaqchaytirib:

– Minba’d oyoqyalang yurma, ahmoq! – deb javob qildi.

Qishloqdan nariroqda, qiyoq o‘t bilan sarg‘ish nilufar o‘sib yotgan jarlikka sapyorlar kenggina ko‘prik solib bo‘layozgan edilar. Ko‘prik oldida dirillab avtomobil turardi. Yonida shofyori tipirchilardi, mashina ichida cho‘qqisoqol, betlari salqigan, xo‘ppasemiz mo‘ysafid general yastanib o‘tirardi. Uning qarshisida 12-polk komandiri polkovnik Kaledin bilan sapyorlar batalyonining komandiri

qo'llarini chakkalariga qo'yib qotib qolishgan edi. General harbiy sumkasining qayishini mijig'lar va sapyorlar ofitserlariga baqirib zahrini sochardi:

– Sizga kecha bitkazish kerak deb buyruq berilgan. Gapirmang! Binokorlik materiallari xususida avvalroq o'ylashingiz lozim edi. Gapirmang! – deb dag'dag'a qilardi general. Ofitser churq etmay, titragan lablarini mahkam yumib tursa hamki, hadeb: – Gapirmang, – derdi. – Mana endi narigi tomonga qanday o'taman?.. Men sizdan so'rayapman, kapitan, xo'sh, endi qaaan-day o'taman?

Uning chap yonida o'tirgan yoshgina, qoramo'ylov general kulimsirab gugurt chaqdi va tamaki tutatdi.

Sapyorlar kapitani ikki bukilib, ko'prik tomondagi allanimani ko'rsatdi. To'rtinchi sotnya mashina yonidan o'tdi, ko'prik oldiga yetgach, to'g'ri jarga ot soldi. Qop-qora balchiq otlarning tizzasidan yuqori chiqqan edi, ustlaridagi ko'prikdan kazaklarning boshiga oppoq qarag'ay payraxalar yog'ilardi.

Ayni tush mahalida chegaradan o'tildi. Otlar qulab yotgan yo'l-yo'l chegara g'ovlarining ustidan irg'ib o'tishardi. O'ng tomonda to'p ovozlari gumburlar edi. Yiroqdan allaqanday bir fermaning cherepitsa bilan yopilgan tomi qizarib ko'rinardi. Oftob tik tushib turar, achchiq chang-to'zon buluti yog'ilar edi. Polk komandiri ehtiyot uchun oldinga dozor yuborishga buyruq berdi. To'rtinchi sotnyadan uchinchi vzvod o'z vzvod ofitseri – yuzboshi Semyonov boshchiligida dozorga jo'nadi. Yuztadan bo'lib kelayotgan polk chang buluti ichida, xiyla ortda qoldi. Yigirmadan ortiq kazakdan iborat otryad fermaning yonidan o'tib qatqaloq yo'ldan ot soldirib ketdi.

Uch chaqirimcha yo'l bosilgandan keyin yuzboshi to'xtadi va xaritaga qarab, turgan joyini aniqlashga kirishdi. Kazaklar tamaki chekib olish uchun to'plandilar. Grigoriy ayilni bo'shatmoqchi bo'lib endigina otdan tushay deganida, vaxmistr unga o'qrayib qaradi.

– Dabdalangni chiqaraman!.. Otga min!

Yuzboshi papirosini tutatib, g'ilofidan olgan durbinini anchagacha artib turdi. Uning ko'z o'ngida jazirama issiqda qizigan yalanglik cho'zilib yotardi. O'ng tomonda saf-saf o'rmon daraxtlari ko'rinar, o'qday adil yo'l shu o'rmon ichiga kirib ketgan edi.

Bir yarim chaqirim nariroqda mo‘jazgina qishloqcha, uning yonida ilon izi bo‘lib oqqan soyining o‘pirilib tushgan jarlari, shishaday tiniq va salqin suv ko‘rinardi. Yuzboshi ancha vaqtgacha durbindan qarab egasiz qolgan qishloqning huvullagan ko‘chalarini birma-bir ko‘zdan kechirdi, lekin hamma yoq qabriston singari jimjit, tirik jon ko‘rinmasdi. Ko‘m-ko‘k poyandozga o‘xshab oqqan suv imlab chaqirayotganday bo‘lardi.

– Korolevka shu bo‘lsa kerak-a? – Yuzboshi ko‘zi bilan ishora qilib, ro‘paradagi qishloqchani ko‘rsatdi.

Vaxmistr indamay yuzboshining oldiga keldi. Uning aft-basharasi: «O‘zingiz bilasiz. Biz kichkina odammiz» deyotganday bo‘lardi.

Yuzboshi durbinni g‘ilofiga soldi va tish og‘rig‘i qo‘ziganday aftini bujmaytirib, lanjlik bilan:

– O‘sha yoqqa boraylik, – dedi.

– Birdaniga dushmanga to‘qnash kelib qolmasmikanmiz, janobi oliy?

– Ehtiyotini qilamiz-da. Qani, jo‘nadik.

Proxor Zikov Grigoriyga yaqinroq kelib oldi. Otlari yonma-yon qadam tashlab borardi. Kimsasiz jim-jit ko‘chaga hadiksirab kirib borishdi. Har bir derazadan ajal poylab turganga o‘xshar, lang ochiq qolgan ombor eshiklarini ko‘rganda yolg‘iz qolgandagidek, kishini vahima bosar, a’zoyi badani dir-dir titray boshlardi. Devor va zovurlarga kishi beixtiyor qarayverardi. Kazaklar, xuddi qahraton qish kechasi uylar yonida paydo bo‘lgan bo‘rilar singari qishloqda izg‘ishar, biroq ko‘chalar bo‘m-bo‘sh edi. Kishining yuragini siquvchi jimjitlik hukm surardi. Derazasi ochiq qolgan bir uydan, xuddi o‘q otgandek, bir devor soati zang ura boshladi. Grigoriy oldida ketayotgan yuzboshining cho‘chib tushganini, qo‘li qaltirab to‘pponcha g‘ilofiga yopishganini ko‘rib qoldi.

Qishloqda hech zog‘ yo‘q edi. Kazaklar soydan o‘ta boshladi; suv otlarning qornidan kelardi, lekin ular o‘zlari yulqinib suvga tushishar va egalarining chuh-chuhlab, jilov siltaganlariga qaramay, yo‘l-yo‘lakay suv ichishardi. Grigoriy loyqalangan suvdan ko‘zini ololmas edi; suv yaqin-u, unga qo‘l yetmas, jozibasi zo‘r edi. Iloji bo‘lsa-ku, u egardan sakrab tushardi-yu, yechinmasdanoq, shu jildi-

ragan oqim qo‘yniga kirib, orqalaridan va ter quygan ko‘kraklaridan sovuq o‘tguncha, a’zoyi badanini qaltiroq bosguncha yotaverardi.

Qishloq orqasidagi tepalikdan shahar manzarasi ochildi: chorburchak kvartallar, g‘ishtin imoratlar, ko‘m-ko‘k bog‘lar, cherkov mezanalari ko‘zga tashlanardi. Yuzboshi do‘ng sirtiga chiqib, durbinni ko‘ziga tutdi.

– Huv ana ular! – dedi chap qo‘lining barmoqlarini qimirlatib.

Oldin vaxmistr, uning ketidan kazaklar oftobda qaqrab yotgan do‘ng ustiga chiqib, shahar tomonga tikila boshladilar. Bu yerdan kichkina bo‘lib ko‘ringan shahar ko‘chalarida odamlarning u yoqdan bu yoqqa yugurishgani, aravalarning tiqilishgani, otliqlarning chopishgani ko‘rinardi. Grigoriy ko‘zlarini qisib, kaft ostidan qarab tomosha qilardi; hattoki u dushman mundirlarining kulrang tusda ekanini ham aniq ko‘rar edi. Shahar chetidan yangi qazilgan okoplar ko‘rinar, atrofida chumoliday odam qaynardi.

– Voybo‘y... – deb cho‘zdi Proxor hayrat ichida. Boshqalarni ham vahima bosgan, churq etmay turar edilar. Grigoriy, borgan sari tez-tez urayotgan yuragining gursullashiga quloq solardi (ko‘ksining chap tomonida kichkintoy, lekin og‘ir bir narsa turgan joyida chopayotganga o‘xshardi). Shunda Grigoriy, bu yot kishilarni ko‘rganda sezgan tuyg‘usi manyovr paytlarida yolg‘ondakam dushmanni uchratgan paytdagi hislardan boshqacharoq ekanini payqadi.

Yuzboshi daftarchasiga allanimalarni qalam bilan yozib qo‘ydi. Vaxmistr kazaklarni tepadan quvib tushirdi, yuzboshining yoniga qaytdi. Yuzboshi Grigoriyni barmog‘i bilan imlab chaqirdi:

– Melexov!

– Men.

Grigoriy uvushib qolgan oyoqlarini qattiq bosib tepa ustiga chiqdi. Yuzboshi unga to‘rt buklangan qog‘oz berdi.

– Sening oting boshqalarnikidan ildam. O‘qdek uchib borib polk komandiriga topshirasan.

Grigoriy qog‘ozni ko‘krak cho‘ntagiga joyladi-da, tepadan tushdi va furajka tasmasini tomog‘i ostiga tushirib ot yoniga keldi.

Grigoriy to otiga minib bo‘lguncha yuzboshi uni kuzatib turdi, so‘ngra qo‘l soatiga qarab qo‘ydi.

Grigoriy ma'lumot olib kelganda, polk Korolyovka qishlog'i tomon siljiy boshlagan edi.

Polkovnik Kaledin o'z ad'yutantiga buyruq berdi, u ko'cha changitib, birinchi sotnya tomon ot soldirib ketdi.

To'rtinchi sotnya Korolyovka bo'yidan yurib, qishloqdan chiqdi-da, tezlik bilan xuddi mashq paytidagiday yoyilib ketdi. Yuzboshi Semyonov tepalikdan ot qo'yib, uchinchi vzvod kazaklari qoshiga yetib keldi.

Kazaklar taqa shaklida saf tortmoqda edilar. Otlar boshlarini chayqashar, so'liqlarni chaynashar edi: ularni so'na talardi. Qishloqning eng chetki qo'ralari yonidan o'tib ketayotgan birinchi sotnya otlarining tapir-tupuri qoq tush paytidagi sukunat ichida eshitilardi.

Yasovul Polkovnikov arg'umog'ini o'ynoqlatib saf oldiga chiqdi; jilovni mahkam tortib qo'lini qilich bog'idan o'tkazib oldi. Grigoriy nafas olmay komandani kutardi. Chap qanotdagi birinchi sotnya kazaklari yoyilib, tapira-tupur, hujumga hozirlanar edi.

Yasovul qilichini qinidan sug'urdi, ko'kishtob po'lat yalt etib ketdi.

– So-o-ot-nyaaaaa! – Qilichi oldin o'ng, keyin so'l tomonga egilib, dikkaygan ot quloqlari ustida bir lahza to'xtadi-da, olg'a tashlandi. Grigoriy bu so'zsiz komandani «Chap va o'ng tomonga yoyilib, keyin olg'a tomon ot qo'y» – deb tushundi. Yasovul: – Nayzalarni jangga tayyorla, qilichlarni yalang'ochla, hujum sari marsh-marsh! – deb komanda berdi-da, jilovini qo'yib yubordi.

Bir necha yuz tuyoqlarning zarbidan yer gursullab ketdi. Grigoriy nayzasini o'nglab bo'lar-bo'lmas (u birinchi qatorda edi), ostidagi arg'umoq yoppasiga qo'zg'algan otlarning olatasiridan hurkib bir yulqindi-da, surib ketdi. Yasovul Polkovnikov oldinda, bo'z dalalar bag'rida o'qdek uchib borardi, qora tuproq shudgorlar ro'paradan chopib kelayotganga o'xshardi. Birinchi sotnya kazaklari hay-haylab suron ko'tardilar, to'rtinchi sotnya ustida ham hayqiriq ovozi yangradi. Otlar to'rt oyog'ini bir yerga to'plab olg'a sapchir va har safar bir sarjin masofani orqada qoldirib ketardi. Grigoriy quloqni teshib yuborguday sizg'irgan shamol orasidan uzoqdagi o'q tovushlarini ilg'adi. Balandlab uchib o'tgan birinchi o'q vizillab ko'm-ko'k osmon shishasini olmos bilan chizganday bo'ldi. Grigoriy joni

og‘riganiga qaramay, qizib ketgan nayza dastani mahkam tutamlab biqiniga bosar, kafti terlab shilimshiq bo‘lib ketgan edi. Vizillab uchib o‘tayotgan o‘qlar, uni terlab-pishib ketgan ot bo‘yniga bosh egishga majbur qilar, burniga achchiq ter hidi kelib urilardi. Grigoriy xuddi terlagan durbin oynasidan qaraganday bo‘ldi: qorayib ko‘ringan qator-qator okoplar, shahar tomonga qochayotgan g‘alati odamlar birma-bir ko‘ziga chalindi. Pulemyotlar kazaklar boshiga to‘xtovsiz o‘q yog‘dirar, vizillab kelgan o‘qlar yelpig‘ich shaklida sochilib, otlarning oldiga, tuyog‘i ostiga kelib tushar va tuproqning titig‘ini chiqarib chang ko‘tarar edi.

Boya hujum boshlanguncha, Grigoriyning ko‘ksida dukurlab urib turgan yuragi hozir butunlay toshga aylangan, u endi hech narsani eshitmas, qulog‘ining shang‘illashi bilan chap oyoq panjalarining og‘rishidan boshqa hech narsani sezmasdi.

Qo‘rqqanidan fikr kalavasi chigallashib ketgan edi.

Boshlab xorunjiy Lyaxovskiy otdan quladi. Proxorning oti unga qoqilib ketdi.

Grigoriy yalt etib qaradi: Proxorning oti, yerda cho‘zilib yotgan xorunjining ustidan sakrab o‘tayotib, jag‘larini bir qarishtirdi-yu, yiqilib, bo‘yni ostida qoldi. Proxor egardan uchib ketdi. Grigoriy Proxorning jag‘i qarishgan otining qator-qator tishlarini, pushtirang milklarini, chalpak bo‘lib yotgan va ketma-ket kelayotgan kazaklarning oti tagida qolgan Proxorni ne vaqtgacha esidan chiqara olmadi; bu manzara uning miyasida, xuddi shishani tilgan olmos iziday iz qoldirgan edi. Grigoriy yerga qapishib qolgan Proxorning dodlaganini eshitmadi, lekin og‘zi qiyshayib, bo‘tako‘zlari qinidan chiqib ketganidan, uning ovozi boricha bo‘kirganini angladi. Kazaklar ham, otlar ham ketma-ket qular edi. Grigoriy shamoldan yoshlangan ko‘zlarini yirib-yirtib olg‘a tikilar: okoplarini tashlab, galagala bo‘lib qochayotgan avstriyaliklarni ko‘rardi.

Qishloqdan saf-saf bo‘lib quyunday ot qo‘yib chiqqan sotnya bo‘lina-bo‘lina, sochilib ketdi. Oldindagi bir to‘p kazak okoplar ustiga yetib olgan (Grigoriy ham shular ichida edi), qolganlari qaysi go‘rdayam qolib ketgandi.

Novcha, mallaqosh, kepkasini bostirib kiygan avstriyalik bir tizzasini yerga qo‘yib Grigoriyga o‘q uzdi. Qo‘rg‘oshin yolqini

## VI

Tatarsk qishlog‘idan hamda tevarak-atrof qishloqlardan chiqqan ikkinchi navbatdagi kazaklar ertasiga Yeya qishlog‘iga kelib qo‘ndilar. Qishloqning quyi tomonidagi kazaklar yuqorining odamlariga aralashmasdi. Shuning uchun Petro Melexov, Anikushka, Xristonya, Stepan Astaxov, Ivan Tomilin va boshqalar bir uyga tushdilar. Uy egasi – Turkiya urushining qatnashchisi, qarib-chirigan novcha bir chol – kazaklarni gapga soldi. Kazaklar oshxona va mehmonxonaga sholcha to‘shab, yotib olishgan edi; uyqu oldidan yoppasiga tamaki cheka boshladilar.

– Xo‘sh, shunday qilib, urushga ketyapmiz denglar!

– Urushga ketyapmiz, bobo.

– Bu galgi urush Turkiya urushiga o‘xshamasmikin deyman-a? Endigi yarog‘-aslaha butkul boshqacha.

– Farqi yo‘q. Baribir! Turkiya urushida ham xalq qirilgan, bunisida ham qiriladi, – deb to‘ng‘illadi Tomilin; uning kimga achchiq qilayotgani ma’lum emasdi.

– Ey, bolasi tushmagur, gapga tushunmay chuldiraysan, xolos. Bu urush boshqacharoq bo‘ladi.

Xristonya esnadi-da, tamaki cho‘g‘ini tirnog‘i bilan o‘chirayotib istar-istamas:

– Shundoq, – deb cholning gapini tasdiqladi.

– Urushib ham ko‘rarmiz, – deb esnadi Petro Melexov; u og‘zini cho‘qintirdi-yu, shinelini yopinib, oyog‘ini cho‘zdi.

– Sizlardan bir iltimosim bor, bolalarim. Cholning gaplarini yerda qoldirmang.

Petro shinelining etagini qayirib quloq sola boshladi.

– Shu gap har vaqt qulog‘ingizda bo‘lsin: tirik qolayin, qirg‘inbarot jangdan butun chiqayin desang, odamgarchilikni qo‘ldan berma, to‘g‘ri yo‘ldan ozma.

– Qanaqa yo‘l? – deb so‘radi eng chetda yotgan Astaxov. Stepan cholning gapiga ishonqiramaganday kulimsirardi. Urush xabarini eshitgandan beri u kulimsiraydigan bo‘lib qolgan edi. Urush uni o‘z og‘ushiga tortar, ko‘pchilikning tashvishi, o‘zgalarning iztirobi dardiga malham bo‘lganday edi.

– Urushda birovning narsasiga qo‘l tegizma – bir. Xotin zotiga ko‘z olaytira ko‘rma – ikki, bundan tashqari ba’zi duolarni ham bilish lozim.

Kazaklar bir ag‘anab olib gapga tushib ketishdi.

– Urushda o‘z buyumingni oldirmasang ham katta gap, birovnikini boshga uradimi?

– Xotinlarga ko‘z olaytirsa nima qiladi? Zo‘ravonlik qilish mumkin emas, albatta, bunisini men ham tushunaman, lekin shirin gap bilan yo‘lga solinsa-chi?

– Chidab bo‘ladimi, axir?

– Rost, shu yog‘i ham bor!

– Xo‘sh, duosi qaysi ekan?

Bobo ko‘zlarini ola-kula qilib, hammaga javob qaytardi:

– Xotin kishiga qo‘l tegizish joiz emas. Mumkin emas – vassalom! Chiday olmasang – boshing‘ ketadi yoki yarador bo‘lasan, keyin attang deysan-u, nafi yo‘q. Endi duoni aytib beraman. Men Turkiya urushida boshidan oxirigacha bo‘ldim, ajal yoqamga yopishib ko‘rdi, lekin mana shu duo sharofatidan tirik qoldim.

Chol mehmonxonaga chiqdi, burchakdagi ikonalar tagidan bir varaq quvragan, yotaverib sarg‘ayib ketgan qog‘ozni olib keldi.

– Mana. Turinglar, ko‘chirib olinglar. Erta sahar xo‘roz qichqirmay jo‘narsiz hali?

Bobo shildiroq qog‘ozni stol ustiga qo‘yib, kafti bilan tekisladida, o‘zini chetga oldi. Eng avval Anikushka o‘rnidan turdi. Uning tap-taqir xotinchalish basharasida deraza yorig‘idan kirgan shamoldan lipillab turgan chiroqning ko‘lankasi o‘ynardi. Yolg‘iz Stepandan boshqa hamma kazak o‘tirib olib, duoni ko‘chirdi. Hammadan oldin ko‘chirib bo‘lgan Anikushka, daftardan yirtib olingan bir varaq qog‘ozni taxlab, bo‘ynidagi krestning ustrog‘iga, tumor bog‘iga tugib qo‘ydi. Stepan bosh chayqab uni masxara qilardi:

– Bitlarning duosini oladigan bo‘lding. Tumorbog‘da bit turmasdi, endi ularga qog‘oz hujra yasab berding. O‘lma, shovvoz!

Bobo uni jerkib tashladi:

– Sen-chi, yaxshi yigit, ixlos qilmasang qilma, lekin tek o‘tir! Odamlarning yo‘lini to‘sma, dinni masxara qilma. Uyat bo‘ladi, gunohga botasan!

Stepan indamay kulimsirab qo‘ydi: oraga tushgan o‘ng‘aysiz ahvolga xotima berish uchun Anikushka:

– Bobo, bu duoda shamshir, o‘q-yoy to‘g‘risida ham yozilgan. Bu nimaga kerak? – deb so‘radi.

– Hujum paytida o‘qiladigan duo bizning zamonamizda bitilgan emas. Rahmatli bobomga bobolari berib ketgan ekan. U yog‘ini surishtirsang, bu duo bobokalonimizdanam ilgari bitilgan bo‘lishi mumkin. Qadimgilar urushga shamshir, o‘q-yoy ko‘tarib chiqisharkan.

Kimga qaysi duo yoqqan bo‘lsa o‘shani ko‘chirib yozar edi.

## MILTIQ O‘QIDAN SAQLANMOQ DUOSI

**Xudoyo, dargohingda qabul etgaysan. Tog‘da ot kallasidek oppoq tosh yotadi. Ul toshga suv kor qilmaydi. Men bandangni ham, o‘rtoqlarimni ham, otimni ham toshday mustahkam etgil, tig‘-u o‘qlar aslo kor qilmasin. Menga otilgan o‘qlar sandondan sapchigan bolg‘aday qaytib ketaversin, tig‘iparron menga yetolmay tegirmon tosh singari gir aylanaversin. Oftobu mahtob nurlar makoni, men bandangni ham shu nurdan benasib qilma. Tog‘lar ortida bir qasr bor, qulflangan; men kalitini dengizga tashlay, sehrgar-u jodugarlarga ko‘rinmaydigan oppoq Altorning tagiga joyla. Okean suvi oqmagandek, sarg‘ish qumi bitmagandek, men bandangga hech baloni ravo ko‘rma. Ruhi muqaddas va hazrati Iso hurmati uchun, omin.**

## JANG DUOSI

**Daryoyi sho‘r – dengiz bor, ul dengizda Altor otliq oq tosh, Altortoshning ustida o‘ttiz to‘qqiz bo‘g‘inli tosh bor. Xudoyo, man bandangga va mening o‘rtoqlarimga mag‘rib bilan mashriq, yer bilan osmon baravar toshdin sovut kiygizgaysan, o‘tkir qilich-u xanjarlardan, po‘lat nayza-yu shamshirdan, tig‘iparronlardan, pichoqdan, oyboltadan va zambarak o‘qlaridan asragaysan; qo‘rg‘oshin pitralaridan va mergan miltig‘idan saqlagaysan; burgut pati, g‘oz-u turna pati, qarg‘a-yu moshak pati qadalgan tamomiy tig‘lardin saqlagaysan; turklar bilan qrimliklar**

**va avstriyaliklar bilan jang qilganda o‘zing madad bergaysan; g‘animlar zulmidan asragaysan. Yo avliyo-yu anbiyolar, men bandayi xudoni o‘z panohingizga olg‘aysiz. Omin.**

## HUJUM VAQTIDA O‘QILADIGAN DUO

**Ey pok-u muqaddas Bibi Maryam, parvardigorimiz hazrat Iso. Xudoyo, jangga otlangan men bandangni va mening qavatimda bo‘lgan o‘rtoqlarimni o‘z qudrating-la bulutlar orasiga, muqaddas toshqo‘rg‘on ichiga pinhon etgaysan. Solunli Dmitriy hazrat, siz ham men bandayi xudoga va to‘rt tomonimdagi o‘rtoqlarimga o‘zingiz qalqon bo‘lg‘aysiz: makkor dushman bizga o‘qini uzmasin, oybolta, gurzi solmasin, qilich bilan chopmasin, pichoq bilan tilmasin, cho‘qmor bilan urmasin; na yoshi-yu qarisi, na oqi-yu qorasi, na dog‘uli dahrisi, na jodugar parisi bizga zahmat bermagay. Men kabi yetimcha va osiy bandaga tamomiy sir-u asror endi ayon bo‘ldi. Sho‘r daryoda, dengizda, Buyan otliq orolda temir ustun bor ekan. Ul ustunning ustida temir hassa ushlagan temir pahlavon turarkan: temirdan, po‘latdan, qalaydan, qo‘rg‘oshindan har xil tig‘ yasarkan. «Temir, temir, men bandayi xudodan, otimdan va o‘rtoqlarimdan qoch, sen borib, o‘z ona zoting yerga kirgin. Nayza dastalari – o‘rmonga qaytsin, qush patlari – parrandalarga, yelim baliqqa yopishsin». Men bandayi xudoni qilich zarbidan, miltiq, zambarak o‘qidan, nayzadan, pichoqdan oltin qalqon himoya qilsin. Tanam sovutdan ham mustahkam bo‘lsin. Omin.**

Kazaklar ko‘chirilgan duolarini ich ko‘ylaklari ostiga yashirib yo‘lga tushdilar. Ular bu duolarni krest bog‘lariga, onalari bergan tumor bandlariga, tug‘ilgan joylarining tabarruk tuprog‘i solingan lattalarga tugib olgan edilar, biroq ajal duo taqqanlarni ham ayamadi.

Galitsiya hamda Sharqiy Prussiya dalalarida, Karpat va Ruminiyada urush olovi alangalangan, kazak otlarining tuyoq izlari tushgan yerlarning barisida kazaklarning jasadlari qolib ketdi.

## VII

Odatda Don okrugining yuqori tomonidagi Yelanskaya, Vyoshenskaya, Migulinskaya va Kazanskaya stanitsalaridagi kazaklarni 11–12-armiya kazak polklariga hamda leyb-gvardiya Ataman polkiga olar edilar.

1914-yilda esa, haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilgan vyoshenskayalik kazaklarning bir qismini negadir, Ust-Medveditskaya okrugi kazaklaridan tashkil topgan Yermak Timofeyevich nomidagi Z-Don kazak polkiga qo'shib yuborgan edilar. Boshqalar qatorida Mitka Korshunov ham shu 3-polkka tushib qoldi.

3-kavaleriya diviziyasining ba'zi qismlari bilan birga bu polk ham Vilno shahrida turar edi. Iyun oyida kazaklar shahardan yaylovga chiqdilar.

Kun issiq, havo bulut edi. Bulutlar to'da-to'da bo'lib izg'ishar, quyoshning yuzini to'sar edi. Polk saf tortib yo'lga chiqqan. Orkestr yangraydi. Yozlik furajka va yengil kitel kiygan ofitserlar bir to'p bo'lib olishgan. Boshlari ustida ko'm-ko'k papiros tutuni suzib yuradi.

Yo'lning ikki tomonida erkaklar hamda yasangan-tusangan xotinlar pichan o'rmoqda, kaftlari ostidan kazaklar kolonnasiga tikilib qaraydilar.

Otlar terlay boshladi. Chov oralarini sarg'ish ko'pik bosgan, lekin sharq-janubdan esgan garmsel terni quritolmas, dimiqqan havoni battar og'irlashtirar edi.

Yo'lning yarmiga borilganda, allaqanday bir qishloqchaning yonida, beshinchi sotnyaga qulun ergashdi. Qishloqning bir chekkasidagi ko'chadan chopib chiqqan qulun zichlashib ketayotgan otlarni ko'rib kishnab yubordi-da, yo'lni kesib o'tdi. Mayin tuk bosgan dumi bir yoqqa qiyshaygan, uning shiringina o'tkir tuyoqchalari ostidan ko'tarilgan chang toptalgan maysalar ustiga qo'nardi. Qulun oldingi vzvod yoniga chopib keldi, tushmug'ini cho'zib, vaxmistr mingan otning chovini iskadi. Ot cho'changlab tushdi-yu, biroq ayadi shekilli, toychani tepmadi.

– Chu-ey, esi past! – deb vaxmistr qamchi o'xtaldi. Uylarida doim ko'rib yurgan manzarani eslariga tushirgan jajji qulunning qilig'ini ko'rib, kazaklar kulib yubordilar. Shu orada kutilmagan

hodisa ro‘y berdi: qulun haddidan oshib, vzvod qatorlari orasiga suqilib kirdi, saf tortib kelayotgan vzvodning tartibi buzilib, orasi ochilib qoldi. Kazaklarning chu-chulaganidan otlar sarosimalikka tushib depsina boshladilar. Yilqilar orasida qisilib qolgan qulun esa gijinglanar, yaqinidagi otni tishlamoqchi bo‘lar edi.

Yuzboshi qamchisini ko‘tarib, ot qo‘yib keldi.

– Nima gap o‘zi?

Noshud qulun kirib qolgan joydagi otlar o‘zini yonga tashlar, pishqirishardi, kazaklar kulishar, uni qamchilashardi; vzvodning safi buzilib, shov-shuv ko‘tarilgan edi; orqadagilar sur-sur qilib itarishar, orqaroqda yo‘l yoqalab chopib kelayotgan vzvod ofitserining fig‘oni chiqar edi.

Yuzboshi g‘uj bo‘lib qolgan kazaklar orasiga ot solib kirib:

– Nima bo‘ldi, axir? – deb o‘shqirdi.

– Manavi qulun...

– Oramizga kirib qoldi...

– Haydasak ham ketmaydi bu shayton!..

– Qamchi bilan tushir! Nimasini ayaysan?

Kazaklar o‘sal bo‘lib kulimsirashar, qizishgan otlarning jilovlarini tortishardi.

– Vaxmistr! Janobi yuzboshi, bu nima maynavozlik? Darhol vzvodingizni tartibga soling, bir kamimiz shu edi!..

Yuzboshi ot choptirib yo‘l yoqasiga chiqdi. Uning oti qoqilib ketdi, yo‘l chekkasidagi zovurga keyingi oyoqlari tushib qoldi. Yuzboshi shporlari bilan otini niqtab, zovurning narigi betiga, sho‘ra bilan sarg‘ish zag‘zag‘o‘t bosib ketgan do‘ng ustiga chiqib oldi. Bir to‘da ofitser olisroqda to‘xtadi: Qo‘shin starshinasi boshini orqaga tashlab suvdondan suv simirar, sernaqsh egar qoshini bir qo‘li bilan silar edi.

Vaxmistr so‘ka-so‘ka qulunni vzvod orasidan quvib chiqardi. Vzvod yana jipslanib oldi. Yuz ellik juft ko‘z, uzangida tik turib olgan vaxmistrning qulun quvishini tomosha qilardi. Qulun esa, goh shaltoq yopishib qotib ketgan iflos yoni bilan vaxmistrning uch vershoklik otiga suykanib turib qolar, goh shataloq otib, dumini xoda qilib qochardi. Vaxmistr payt poylab uning orqasiga urmoqchi bo‘lsa ham, qamchisi faqat dumi ustiga kelib tushardi. Qamchi

tekkan zahoti dumi pastga tushar, lekin sal o'tmay yana dikkayib, shamolda hilpirardi.

Butun sotnya maza qilib kulardi. Ofitserlar jilmayishardi. Hatto, doim qovog'i soliq yasovulning yuzi ham tirjayib, qiyshayib ketdi.

Mitka Korshunov, Veshenskaya stanitsasiga qarashli Kargin qishlog'idan chiqqan Mixail Ivankov hamda ust-xoperlik Kozma Kryuchkov bilan birga oldingi vzvodning uchinchi qatorida borardi. Yuzi kepchikday, chorpaxildan kelgan Ivankov churq etmas, lekin «Tuya» laqabli, cho'tir bashara, bukchaygan kazak Kryuchkov Mitkaning jig'iga tegardi. Kryuchkov «eskilardan» ya'ni, haqiqiy harbiy xizmatning oxirgi yilini o'tayotgan kazak edi; polkdagi yozilmagan qonunga muvofiq, boshqa «eskilar» qatori bu ham, «yangilarni» yugurtirishga, mashq qildirishga, arzimagan narsa uchun qayish bilan savashga haqli edi. Shunday tartib bor edi: aybdor 1913-yili chaqirilgan kazaklardan bo'lsa – o'n uch darra, 1914-yilgi bo'lsa, – o'n to'rt darra urilardi. Vaxmistrlar, hamda ofitserlar bu qoidani quvvatlashar va bu narsa kattalarning amalinigina emas, yoshini ham hurmat qilish lozim degan tushuncha tug'diradi, deb o'ylashardi.

Yaqinda yefreytorlik nishoniga erishgan Kryuchkov egar ustida bukchayib, qanoti singan qush singari kiftlarini qisib o'tirardi. U ko'zini qisib, kulrang bulut parchalariga boqar, shu sotnyaning komandiri yasovul Popovga taqlid qilib Mitkaga savol berdi:

– E... menga eyt-chi, Korshunov, bezneng kemendirimezneng ati nema?

Itoatsizligi va o'jarligi tufayli bir necha marta darra yegan Mitka yuziga jiddiy tus berdi:

– Oti – Yasovul Popov, janobi keksa kazak!

– Nema?

– Yasovul Popov, janobi keksa kazak!

– Men une suroyatkenim yo'q. Sen menga kezekler qo'ygen leqebini etib ber!

Ivankov «ehtiyot bo'l» deganday Mitkaga ko'z qisib, lablarini cho'chchaytirib kulib qo'ydi. Mitka orqasiga burilib qarab, otliq kelayotgan yasovul Popovni ko'rib qoldi.

– Xo'sh gepir!

– Otlari yasovul Popov, janobi keksa kazak.

– O‘n to‘rt darra: Gepir, heyvon!

– Bilmayman, janobi keksa kazak.

Kryuchkov o‘z ovozi bilan:

– Yaylovga yetgandan keyin dabdalangni chiqaraman! Yaxshilikcha savolga javob ber! – dedi.

– Bilmayman.

– Odamlar unga nima laqab qo‘yganini bilmaysanmi, ablah?

Mitka orqa tomonda yasovul otining o‘g‘rincha qadam tashlashini eshitar, g‘iring deya olmasdi.

– Xo‘sh? – Kryuchkovning jahli chiqib qosh-qovog‘i chimirilib ketdi.

Orqa qatordagilar piqirlab kulib yubordilar. Kulgining sababini anglamagan Kryuchkov, o‘zidan bad olib tutaqishib ketdi:

– Korshunov, bilib qo‘y! Yaylovga yetganimizdan keyin ellik darra urgizaman!

Mitka kiftlarini qisib qo‘ydi-da, nihoyat, aytishga majbur bo‘ldi.

– Qora tulki!

– Ha, mana shuni so‘rayotuvdim.

– Kryuyu-uch-kov! – deb chaqirib qoldi birov orqadan.

Janobi keksa kazak cho‘chib ketib, tarashaday qotib qoldi.

– Sen bu yerda shunaqa lo‘ttibozlik qilyapsanmi, ebleh? – deb Yasovul Popov otini niqtab, Kryuchkovning yoniga bordi. – Yosh kezekka shuneqe te’lim beryapsenmi-a?

Kryuchkov bit ko‘zlarini hadeb pirpiratardi. Betlari sholg‘omday qizarib ketgan edi. Orqadagi kazaklar qiqirlab kulishardi.

– Men o‘tken yili senge nime degen edim? Kimneng tumshug‘ige urib, manavi tirnog‘emne sindirgen edim? – Yasovul jimjilog‘ining uzun va o‘tkir tirnog‘ini Kryuchkovning burniga taqadi-da, mo‘ylovlarini likillatdi. – Minbe’d men buni eshitmeyin! Tushundingme, biroderi eziz?

– Tushundim, janobi oliylari, tushundim! Yasovul shoshmasdan chetga chiqdi, kazaklarga yo‘l berib otini to‘xtatib turdi. To‘rtinchi va beshinchi sotnya kazaklari otlarini yo‘rttirib ketishdi.

– Setnya, yo‘rttirib xeyde!..

Kryuchkov nayza qayishini tuzatarkan, orqada qolgan yasovul tomonga burilib qaradi, nayzasini o'nglayotib boshini telbanamo chayqadi.

– Mana, tulkiligi shu-da! Qayoqdan paydo bo'ldi? Kulaverib terlab ketgan Ivankov gapirib berdi:

– U boyadan beri ketimizdan kelayotuvdi. Hammasini bemalol eshitgan. Gap kim ustida ketayotganini darrov payqagan-da.

– Menga ko'z qisib qo'ymaysanmi, ahmoq!

– Menga zaril keptimi?

– Shundaymi hali? Yalang'ochlab o'n to'rt darra urilsin!

Kazaklar shu atrofdagi zamindorlarning qo'rg'onlariga joylashdi. Kunduzlari zamindorlarning yo'ng'ichqasi va pichanini o'rishar, kechalari bo'lsa o'zlari uchun ajratilgan bedapoyalarda otlarini tushovlab boqishar, gulxan yorug'ida qarta o'ynashar, cho'pchak aytishar, jinnilik qilishardi.

Oltinchi sotnya Shneyder degan katta bir polyak zamindorning yerlarida ishlar edi. Ofitserlar yonboshdagi uyda turishar, qarta o'ynashar, ichkilik ichishar, gumashtaning qiziga aylanishardi. Kazaklar esa qo'rg'ondan uch chaqirim nariroqqa joylashgan edi. Har kun ertalab ular oldiga pan gumashta poyga arava minib kelardi. Xo'ppa semiz muhtaram pan uvishgan oyoqlarini ishqalab aravadan tushardi, so'ngra soyaboni amirkon charmli oq furajkasini likillatib, «kozaklarni» tabriklardi. Oq ko'ylak kiygan kazaklar:

– Qani, qavatimizga kirib pichan o'rish, pan! – der edilar.

– Yog'laring picha erisin!

– Chalg'ini ol, yo'qsa falaj bo'lib qolasan!.. – deb piching qilar edilar kazaklar.

Pan sovuqqonlik bilan iljayar, hoshiyador ro'molchasi bilan qizargan taqir boshini artar, so'ngra vaxmistrni yoniga olib o'riladigan yerlarni ko'rsatish uchun ketardi.

Tush paytida ovqat kelardi. Kazaklar yuvinib, tamaddi qilish uchun to'planishardi.

Taom ustida churq etgan ovoz eshitilmasdi, ammo ovqatdan keyingi yarim soatlik dam olish mahalida gap qizirdi.

– Bu yerning pichani bir pulga qimmat. Bizning qir pichaniga to'g'ri kelmaydi.

– Shirali o‘t yo‘q.

– Bizning Donda shu topda pichan o‘rib bo‘lishgandir.

– Yaqinda biz ham qutulamiz. Kecha oy yangi bo‘ldi, yog‘ingarchilik boshlanadi.

– O‘lguday ziqna polyak ekan. Mehnatimiz uchun kishi boshiga loaqal yarim butilkadan bersa ekan.

– Berib bo‘pti! Bir butilka uchun imonini sotar...

– Qiziq-a, birodarlar: odam qanchalik boyisa, shunchalik ziqna bo‘ladi, nega unday ekan?

– Buni podshodan so‘ra...

– Zamindorning qizini kim ko‘rgan?

– Nima edi?

– Biqqa go‘sht ekan!

– Bo‘rdoqi degin?

– Ha-ha...

– Qani endi chalpakka o‘rab tushirsang...

– Shu qizga podsho avlodidan bittasi sovchi yuboribdi deyishadi, rostmikin?

– Shunday narsani fuqaroga berisharmidi?

– Aytganday, u kuni men g‘alati gap eshitdim: bizlarni hazrat oliylari ko‘rikdan o‘tkazarmishlar.

– Mushukning qiladigan ishi bo‘lmasa...

– Hoy, qattiq ketma, Taras!

– Bir chektirsang-chi!

– Birovnikiga tikilganing-tikilgan, xumpar, qo‘ling uzun, cherkov yonida tilanchilik qilsang eplaysan.

– Buni qarang, og‘aynilar, Fedotka chapillatib chekadi-yu, tutuni o‘lgur sira chiqmaydi.

– Yolg‘iz kuli qopti, xolos.

– Hoy, birodar, ko‘zingni yiribroq qaragin, papirosingning bir o‘choq cho‘g‘i bor.

Kazaklar bag‘rini yerga berib, tamaki chekishardi. Orqalari oftobda kuyib qizarib ketgan edi. Chetroqda beshtacha keksa kazak yoshlardan birini o‘rtaga olib gapga solardi.

– Qaysi stanitsadansan?

– Yelanskayadan.

– Takalardan ekansan-da?

– Ha, shunday.

– Sizlar tuzni qanday tashiysizlar?

Nariroqda yopqich ustida yotgan Kozma Kryuchkov, zerikkanidan nima qilishini bilmay, siyrak mo'ylovini zo'r berib barmog'iga o'rardi.

– Otga ortib tashiymiz.

– Yana-chi?

– Ho'kiz qo'shib.

– Xo'sh, Qrimdan ustiga toron ortib kelinadigan maxluqni nima deydilar? Haligi, orqasida o'rkachi bor, yantoq yeydigan ho'kiz-chi, oti nima?

– Tuya.

– Ha-ha-ha-ooo-o!

Kryuchkov hafsalasi kelmay o'rnidan turadi va kekirdagi turtib chiqqan, sarg'ayib ketgan bo'ynini cho'zib, tuya singari qadam tashlar ekan, kamarini yechadi:

– Yot!

Ajoyib iyun kunlari, dalada kazaklar gulxan atrofida qo'shiq aytishadi:

*Qora to'riq tulpor mingan bir kazak*
*Yot ellarda tentiraydi bedarak,*
*O'z yurtini tashlab chiqqandir kazak...*

Tenor ovoz kumushday jaranglab nido qiladi, baslarning mungli sadosi nola etadi:

*O'z uyiga endi qaytmas umrbod.*

Tenor borgan sari ko'tarilib avjiga chiqadi:

*Yosh xotini erta-yu kech kutadi,*
*Keladi deb yo'liga ko'z tikadi.*
*Shimol yoqda, olislarda eri bor,*
*Shul kazakning kelishidan umidvor.*

Bir talay ovoz birga qo'shilib ketadi. Shuning uchun qo'shiqqa jon kirib, hammaga o'tkir bo'zaday kayf qiladi.

*Tog'lar ortida izg'iydi bo'ron,*
*Yozi bebaraka, qishi qahraton:*
*Qarag'ayzor va archazor ichida*
*Qor tagida qoldi quruq ustuxon.*

Bu qo'shiq kazaklar hayotidan olingan oddiy bir voqeani hikoya qiladi. Ingichka ovozli yakkaxon kazak iliq aprel kunlari havoda muallaq turib sayrayotgan to'rg'ay singari, nola qiladi:

*Jon berarkan kazak yalindi:*
*«Qabrimni balandroq ko'taring», dedi.*

Bas ovozlar unga qo'shilib fig'on etadi:

*«Mozorim rang-barang gullarga to'lsin,*
*Boshimda do'lana soyabon bo'lsin».*

Ikkinchi gulxan yonida odam kam, ashula ham boshqacharoq:

*Sho'x dengizdan, Azovdan*
*Kema kelar Don tomon.*
*O'z uyiga qaytmoqda,*
*Safar ketgan ataman.*

Sal nariroqda, uchinchi gulxan yonida, sotnyaning eng safsataboz kazagi tutundan yo'tala-yo'tala gapga to'n kiygizib ertak aytadi. Hammaning qulog'i unda, faqat ahyon-ahyonda, hikoya qahramoni moskallar yoki dev, jinlarga firib berib eng mushkul ahvoldan eson-omon qutulib chiqqan paytlardagina, suyunchidan etik qo'njiga urib qo'ygan birorta kazakning kafti gulxan shu'lasida yalt etib ketadi, tutundan bo'g'ilgan bir ovoz yo'tala-yo'tala zavq bilan:

– Obbo falokat-ey, xo'p qoyil qilibdi-da! – deb qo'yadi.

Hikoyachi bulbuligo'yo singari yana gapga tushib ketadi...

...Polk yaylovga chiqqandan so'ng, oradan bir hafta o'tgach, yasovul Popov taqachi bilan vaxmistrni yoniga chaqirib oldi.

– Otler qeley? – deb so'radi vaxmistrdan.

– Chakki emas, janobi oliy, binoyiday. Sag'risiga tuxum qo'ysa turadi. Hammasi semirib qoldi.

Yasovul tim qora mo'ylovini burab dikkaytiradi (shuning uchun ham unga Qora tulki laqabi berilgan edi).

– Polk kemendiriden buyruq bor, – dedi, – o‘zenge va suvliqlerge seyqal berilsin. Hezret oliyleri polkne ko‘rikden o‘tkezer ekenler. Temomiy nerse yarqireb tursin: eger-u jebduq, temomiy enjom. Kezeklerni ko‘rgen odem qoel qoledigen bo‘lsin. Xo‘sh, uke, qechon bejeriledi?

Vaxmistr taqachiga, taqachi vaxmistrga qaradi. Ikkisi yasovulga qaradilar.

Vaxmistr ehtirom bilan:

– Yakshanbagacha tayyor bo‘p qolarmiz, janobi oliy, – dedi-da, tamaki tutunidan sarg‘ayib ketgan mo‘ylovini silab qo‘ydi.

– Gepim qulog‘ingda bo‘lsin! – deb tanbeh berdi yasovul.

Shu gapdan keyin vaxmistr bilan taqachi ketishdi.

O‘sha kundan e’tiboran podshoh ko‘rigiga tayyorgarchilik ko‘rila bashlandi. Karginlik taqachining o‘g‘li Mixail Ivankov usta taqachi edi, – uzangi va suvliqlarga sayqal berishda qarashib turdi, qolgan kazaklar zo‘r berib ot qashlashar, yuganlarini tozalashar, ot abzalning jez to‘qalarini g‘isht bilan ishqalashardi.

Bir haftadan keyin butun polk yangi tangaday yarqiragan edi. Hamma narsa: otlarning tuyog‘idan tortib to kazaklarning betigacha yiltirardi. Shanba kuni polk komandiri polkovnik Grekov polkni ko‘zdan kechirib chiqdi-da, tayyorgarchilik puxta, kazaklar mardonavor qiyofada bo‘lganlari uchun janobi ofitserlarga hamda kazaklarga tashakkur bildirdi.

Iyun kunlari uzun kalava ip singari chuvalashib o‘taverdi. Yemxashak ko‘p, otlar semirib ketdi, yolg‘iz, kazaklar tinchiy olmas, o‘ylayverib gapning tagiga yeta olmasdi, hamma hayron: podshoh ko‘rigi degan narsadan hech darak yo‘q... Bir hafta oldi-qochdi gaplar, yugur-yugur, hozirgarlik bilan o‘tdi-ketdi. Tomdan tushgan tarashaday, to‘satdan: «Vilnoga jo‘nalsin», degan buyruq keldi.

Kechqurun Vilnoga yetib bordilar. Yana, kazaklar o‘z qaqirququrini skladga topshirsin, har ehtimolga qarshi, safarga tayyor bo‘lishsin, degan ikkinchi buyruq keldi.

Kazaklar xunob bo‘lib:

– Janobi oliy, buning sababi nima? – deb vzvod ofitserlariga savol berishar, haqiqiy ahvolni bilmoqchi bo‘lar edilar.

Ofitserlar yelkalarini qisishardi. Ularning o‘zlari ham bundan bexabar edilar.

– Bilmayman.

– Podshoh huzurida manyovr bo‘ladimi?

– Hozirchalik ma’lum emas.

Ofitserlarning javoblaridan kazaklarning ko‘ngli to‘lmas edi. O‘n to‘qqizinchi iyul kuni kechga tomon, polk komandirining yugurdagi otxonada navbatchilik qilgan oshnasi – oltinchi sotnya kazagi Mrixinning qulog‘iga.

– Urush boshlandi, amaki! – dedi.

– Bekor aytibsan!

– Xudo ursin rost. Damingni chiqarma!

Ertasi ertalab polk divizion tartibda saf tortdi. Kazarma derazalarining chang bosgan xira oynasi miltirar edi. Butun polk ot ustida komandirni kutardi.

Oltinchi sotnya oldida – aslzod ot mingan, oq qo‘lqop kiygan yasovul Popov, chap qo‘li bilan tizginni mahkam tortib turadi. Arg‘umoq boshini burib, bo‘ynini gajak qilib, o‘mroviga tumshug‘ini ishqalardi.

Kazarma imoratining burchagidan polkovnik chiqib keldi, otini safga ko‘ndalang qilib to‘xtatdi. Ad’yutant oliftachasiga jimjilog‘ini bukib cho‘ntagidan dastro‘mol oldi, biroq burnini qoqishga ulgura olmadi. Polkovnik sukunatni buzib:

– Kazaklar!.. – dedi-yu, hammani o‘z og‘ziga qaratib qo‘ydi.

«Ana, xolos», – deb o‘ylar edi toqati toq bo‘lgan kazaklar. Mitka Korshunov tipirchilagan otini jahl aralash poshnasi bilan niqtab qo‘ydi. Uning yonida egar ustida ixcham o‘tirgan Ivankov beo‘xshov og‘zini ochib, qoraygan egri-bugri tishlarini ko‘rsatib anqayganicha quloq solardi. Uning orqasida bukchaygan Kryuchkov, yana nariroqda – qulog‘ini ot singari dikkaytirib olgan Lapin, uning ketidan Shchegolkovning ustara bilan qirilgan, burushiq kekirdagi ko‘rinardi.

– ...Germaniya bizga urush e’lon qildi.

Tekis turgan qatorlar, xuddi pishib yetilgan arpazor orasidan shamol o‘tganday, birdaniga shitirlab ketdi. Qo‘qqisdan quloqni te-

shib yuborguday qilib bir ot kishnadi. Chaqchaygan ko'zlar, karrakdek ochilib qolgan og'izlar birinchi sotnya turgan tomonga burildi: kishnagan tovush chap qanotdan kelgan edi.

Polkovnik uzoq gapirdi. Har bir so'zni o'ylab, joy-joyiga qo'yib ishlatar, kazaklar ko'nglida milliy iftixor tuyg'usini uyg'otmoqchi bo'lardi, biroq minglarcha kazaklar ko'ziga shu topda, o'lja olingan dushman bayroqlarining oyoqlari ostiga egilib tushishi emas, o'z uyi, o'lan to'shagi, oilasi: xotini, bolasi, sevganlari, o'riqsiz qolgan ekinzor, yetim qolgan qishloq, stanitsalar ko'rinardi, nazarida hammasi faryod ko'tarib chuvullaganday bo'lardi...

«Ikki kundan keyin eshelonga chiqiladi». – Kazaklar miyasida faqat shu gap qolgan edi.

Bir gala ofitser xotinlari nariroqda ro'molcha tutib yig'lashar, to'da-to'da kazaklar kazarma hovlisiga ot choptirib kirishardi. Yuzboshi Xaprov oppoqqina homilador polyak xotinini arang suyab olib ketdi.

Polk qo'shiq aytib vokzal tomon jo'nadi. Ovozlar baland kelib orkestrni bosib ketdi, orkestr xijolat tortganday jimib qoldi. Ofitserlarning xotinlari izvoshga tushib olishgan, trotuar rang-barang kiyingan olomonga liq to'lgan edi, tuyoqlar ko'cha changini to'zitib borardi; yakkaxon ashulachi, ko'k pogon taqilgan chap kiftini o'ynata-o'ynata, o'zi va o'zgalarning toleyini masxara qilganday, uyat so'z aralashgan behayo qo'shiqni boshladi.

*...Devitsa krasnaya shuku ya poymala...*

Kazaklar ham ashuladagi so'zlarni jo'rttaga bir-biriga ulab, yangitdan taqalangan tuyoqlarning taqira-tuquriga jo'r bo'lib, to vokzalga, qizil vagonlarga yetguncha qo'shiq aytib borishdi.

*Shuku ya, shuku ya, shuku ya poymala,*
*Devitsa krasnaya, uxu ya varila.*
*Uxu ya, uxu ya, uxu ya varila...*

Kulaverib qizarib ketgan, xijolat tortgan polk ad'yutanti yakkaxon tomonga orqa tomondan ot qo'yib kelardi. Yakkaxon esa ot jilovini silkitar, yo'lkalarda turib kazaklarni kuzatib qolayotgan to'p-to'p xotinlarga uyalmay qoshini qoqar, ko'z qisardi, lekin mis-

day qizargan yonoqlaridan qoramtir maysa mo'ylov ustiga achchiq shuvoq sirkasiday ter tomchilardi.

*Devitsa krasnaya, svaxu ya kormila.*
*Svaxu ya, svaxu ya, svaxu ya kormila.*

Izda turgan parovoz ularni ogohlantirganday olamga jar solib qichqirar edi.

* * *

Eshelonlar... Eshelonlar... Eshelonlar... Eshelonlarning sonsanog'i yo'q!

Halovatini yo'qotgan Rossiya ko'k shinelli aziz farzandlarini mamlakat tomiri – temiryo'llar orqali g'arbiy chegaraga jo'natmoqda edi.

## VIII

Torjok degan joyda polk sotnyalarga bo'lindi. Oltinchi sotnya diviziya shtabining buyrug'iga muvofiq, uchinchi armiya piyoda askarlar korpus ixtiyoriga yuborilgan edi. U saf tortib Pelikaliye degan joyga yetib keldi, atrofga soqchilar qo'yildi.

Chegara o'sha vaqtgacha bizning chegarachi qismlarimiz tomonidan qo'riqlanardi. Piyoda askarlar hamda artilleriya chegara tomon siljimoqda edi. Yigirma to'rtinchi iyul kuni kechqurun Pelikaliyega 108-Glebov polkining batalyoni hamda to'plari kelib tushdi. Shu yaqin oradagi Aleksandrovskiy fermasida vzvod uryadnigi boshliq to'qqiz kazakdan iborat post joylashgan edi.

Yigirma yettinchi iyulga o'tar kechasi yasovul Popov vaxmistr bilan Stepan Astaxovni chaqirtirdi.

Astaxov uning oldidan juda kech chiqdi. Mitka Korshunov endigina otini sug'orib qaytgan edi.

– Astaxovmisan? – deb so'radi u.

– Men. Kryuchkov bilan yigitlar qani?

– Kulbada.

Astaxov, barvastadan kelgan, yo'g'on, qoramag'iz kazak chiroq shu'lasidan ko'zini qisib, chaylaga kirib keldi. Stol ustidagi qora chiroq yonida Shchegolkov uzilgan ayilni juvoldiz bilan tikmoqda.

Kryuchkov qo'lini orqasiga qilib pech yonida turar va Ivankovga ko'z qisib, karavotda yotgan uy egasini – gupchakday shishib ketgan polyakni ko'rsatardi. Bular hozirgina kulgidan to'xtagan, Ivankovning ikki beti qizarib, lipillab turardi.

– Yigitlar, ertaga tong otar-otmas soqchilikka boramiz.

– Qayerga? – deb so'radi Shchegolkov, u anqayganidan, juvoldizga o'tkazilmagan tasmani tushirib yubordi.

– Lyubov degan joyga.

Eshikdan kirib kelgan Mitka Korshunov ostona yoniga chelakni qo'yayotib so'radi:

– Kimlar boradi?

– Men bilan Shchegolkov, Kryuchkov, Rvachev, Popov va Ivankov.

– Men-chi, Pavlich?

– Sen qolasan, Mitriy.

– Ha, mayli borsalaring boraveringlar!

Kryuchkov pech yonidan nariroqqa borib suyak-suyaklarigacha qisirlatib kerishdi-da, uy egasidan:

– O'sha Lyubov degan joy bu yerdan necha chaqirim keladi? – deb so'radi.

– To'rt mil.

– Yaqin ekan, – dedi Astaxov, so'ngra kursiga o'tirib etigini yechdi, – Paytavani qayerda quritsam ekan?

Tong mahali yo'lga chiqdilar. Qishloqdan chiqaverishda oyoqyalang bir qiz quduqdan suv olmoqda edi. Kryuchkov otini to'xtatdi.

– Suvingdan ber, oyimqiz, bir to'yib ichay!

Qiz bo'z yubkasining etagini bir qo'li bilan avaylab ushladi-da, qizg'ish oyoqlari bilan ko'lob suvni sachratib uning oldiga keldi; uzun kipriklari ostida kulib turgan quralay ko'zlarini tikib chelakni uzatdi. Kryuchkov suv shimirar, chelakning og'irligidan qo'li qaltirardi; chalvarining qizil hoshiyasiga chak-chak suv tomchilar, sachrab yerga tushardi.

– Xudoyo baxtli bo'l, oyimqiz!

– Senga ham xudo yor bo'lsin.

Qiz chelakni qaytib oldi, keta turib orqasiga burilib qaradi-da, jilmaydi.

– Nega kulasan? Yur, birga ola ketay! – Kryuchkov qo‘zg‘alib, egardan joy bo‘shatganday bo‘ldi.

– Bo‘ldi qil! – deb baqirdi olisdan Astaxov. Rvachev istehzo bilan Kryuchkovga xo‘mrayib qo‘ydi:

– Buncha tikilasan?

– Oyoqlari qip-qizil ekan, xuddi qo‘g‘irchoqnikiga o‘xshaydi, – deb kuldi Kryuchkov. Hammalari baravariga orqalariga qayrilib qaradilar.

Qiz qip-qizil tirsillagan boldirlarini kerib, taranglashgan yubkasi ostidan bilinib turgan ikki pallaga ajralgan orqasini o‘girib, quduqqa engashdi.

– Shunaqasiga uylansang... – deb xo‘rsindi Popov.

– Qamchi bilan sop qolaymi? – dedi Astaxov.

– Qamchisi nimasi...

– Ayg‘irliging qo‘zidimi?

– Axta qilish qiyin emas!

Kazaklar kula-kula, otlarini yeldirib ketdilar. Nariroqdagi tepa ustidan, yon bag‘ir bilan soy orasiga joylashgan Lyubov qishlog‘i ko‘rinardi. Tepaning narigi yog‘idan quyosh ko‘tarila boshlagan edi. Yo‘ldan chetroqdagi simyog‘och chinnisiga to‘rg‘ay qo‘nmoqchi bo‘lib, pirillab turardi.

Yaqindagina harbiy ta’lim komandasini tamomlab kelgan Astaxov soqchilarga boshliq qilib tayinlangan edi. Turar joy uchun qishloqning chekkasidagi, chegaraga qaragan qo‘ralardan birini tanladi. Uy egasi – oyog‘i qiyshiq, soqoli qirilgan, kigiz qalpoq kiygan bir polyak kazaklarni bostirma tomonga boshlab olib borib ot bog‘laydigan joyni ko‘rsatdi. To‘sib qo‘yilgan siyrak bordon oralaridan bostirma orqasidagi bir parcha ko‘m-ko‘k bedazor ko‘rinardi. Do‘nglik o‘rmongacha cho‘zilib ketgan, nariyog‘i o‘rtasidan yo‘l tushgan bug‘doyzor, undan ham narida yana ko‘m-ko‘k bedapoya ko‘zga chalinardi. Bostirma orqasidagi ariq bo‘yida kazaklar navbatma-navbat durbin bilan soqchilik qilardilar. Qolganlari salqin bostirmada dam olishardi. Bu yerdan mog‘orlagan don hidi, somon changi, sichqon tezagi va zaxlab ketgan tuproqning isi kelardi.

Ivankov plug turgan qorong'i burchakka joylashib oldi-da, kechga qadar uxladi. Kunbotar mahalida uni uyg'otishdi. Kryuchkov uning bo'yin terisini chimchilab cho'zib:

– Tekin ovqatni yeb toza semirding, tog'oralab yegan tomog'ingni hazm qilgin-da! Tur, ishyoqmas, borib, nemislarni poyla! – dedi.

– Jinnilik qilma, Kozma!

– Tur deyman!

– Bo'ldi endi! Jinnilik qilma deyman... hozir turaman.

Ivankov o'rnidan turdi: uning qovog'i shishib, yuz-ko'zlari qizarib ketgan edi. Ikki kifti o'rtasiga mustahkam o'rnashgan kalta bo'yinli xumkallasini o'ng-so'lga burib, burnini torta-torta (zax yerda shamollab qolgan edi), o'qdonni beliga bog'ladi-da, miltig'ini sudrab eshikka chiqdi. Shchegolkovning o'rniga borib turdi, durbinni ko'ziga qo'yib g'arbi-shimolga, o'rmon tomonga uzoq tikilib qoldi.

U yoqda, shamolda chayqalayotgan kumushsimon bug'doyzor yiltirar, botib borayotgan oftob shu'lasida o'rmon yashil tusda tovlanar edi. Qishloqning narigi yog'idagi soyda (olisdan bu soy kamalakka o'xshar edi) chug'urlashib cho'milayotgan bolalar ko'rinardi. Allaqanday bir xotinning erkakcha tovush bilan «Stasyu! Staaasyu! Bu yoqqa kel!» deb chaqirgani eshitilardi. Shchegolkov tamaki o'radi-da, ketayotib:

– Oftob rosa qizarib botdi. Shamol turadi, – dedi.

– Shamol turadi, – deb uning gapini ma'qulladi Ivankov.

Kechasi otlarning egari olib qo'yilar edi. Qishloqda chiroqlar o'char, tovush chiqarilmas edi. Ertasi kuni ertalab Kryuchkov Ivankovni bostirmadan chaqirib chiqdi.

– Yur, qishloqqa boramiz.

– Nima qilamiz?

– Biron narsa topib tamaddi qilamiz, ichamiz.

– Bekorga ovora bo'lamiz, – dedi Ivankov ishonqiramay.

– Men aytgandan keyin xo'p deyaver. Uy egasidan surishtirib ko'rdim. Huv anavi choldevorni ko'rdingmi, anavi cherepitsa tomlik uy-chi? – Kryuchkov qop-qora tirnog'i o'sgan barmog'i bilan ko'rsatdi. – O'sha yerda mayxonada pivo bor emish, boramizmi?

Ikkisi jo'nab qolishdi. Lekin bostirma eshigidan mo'ralagan Astaxov ularni chaqirdi:

– Qayoqqa ketyapsiz?

Astaxovdan ko‘ra martabasi kattaroq bo‘lgan Kryuchkov qo‘l siltab:

– Darrov kelamiz, – dedi.

– Qaytinglar, yigitlar.

– Akillayverma!

Ikki chakkasidan soch qo‘ygan, shilpiq yahudiy chol kazaklarni ta’zim bilan kutib oldi

– Pivo bormi?

– Tamom bo‘ldi, janobi kozak.

– Pulini beramiz, qo‘rqma.

– Yo bibi Maryam, pivo bo‘lsa men sizdan... Voh, janobi kozak, rostgo‘y yahudiyga ishoning, pivo yo‘q!

– Yolg‘on aytyapsan, juhud!

– Yo‘g‘-e, pan kozak! Tamom bo‘ldi dedim, axir...

– Menga qara, hoy?.. – Kryuchkov achchig‘lanib uning gapini bo‘ldi-da, chalvarining kissasidan to‘zgan hamyonini chiqardi. – Yaxshilikcha bergin, bo‘lmasa xafa qilaman!

Yahudiy jimjilog‘i bilan tangani kaftiga qisib oldi-da, shilpiq qovog‘ini osiltirib dahlizga kirib ketdi.

Sal o‘tmay chetlariga arpa turpi yopishgan bir butilka aroq olib chiqdi.

– Tag‘in, yo‘q deysan... Seni qara-ya, amaki!

– Men pivo yo‘q devdim.

– Tamaddisiga biron narsa ber, axir.

Kryuchkov butilkaning tagiga bir urib probkasini chiqardi, qadahning zihigacha to‘ldirib aroqni quydi.

Ikkisi shirakayf bo‘lib ko‘chaga chiqdi. Kryuchkov yurgan yo‘lida o‘yin tushar va balo-qazoday tikilgan siniq ko‘zli qop-qora derazalarga musht o‘xtalardi.

Astaxov bostirmada esnab o‘tirar edi. Devor orqasidan otlarning kursillatib pichan chaynagani eshitilardi.

Kechqurun Popov ma’lumot topshirgani jo‘nadi. Kunni bekorchilik bilan o‘tkazishdi.

Oqshom. Tun. Qishloqning qoq tepasida sarg‘ish oy.

Uy orqasidagi bog‘da, ahyon-ahyonda pishgan olmaning tap etib yerga tushgani eshitiladi. Yarim kechaga yaqin Ivankov qishloq ko‘chasida ot do‘pirini eshitdi. Zovurdan chiqib qaradi, biroq oyni bulut to‘sgani uchun qorong‘ida hech narsani ajratib bo‘lmasdi.

Ivankov bostirmaga kiraverishda uxlab yotgan Kryuchkovni turtdi.

– Kozma, otliqlar kelyapti! Tur!

– Qayoqdan?

– Qishloqdan.

Tashqariga chiqishdi. Ko‘chada ellik sarjin nariroqda kelayotgan otliqlarning dupur-dupuri eshitilardi.

– Boqqa kiramiz. U yerdan aniqroq eshitiladi.

Lip etib uy yonidan o‘tishdi-yu, boqqa tushishdi. Chetan devor ostiga biqinishdi. G‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovoz, uzangilarning jangir-junguri, egarlarning g‘irchillashi eshitilar, borgan sari yaqinlashardi. Otliqlarning g‘ira-shira qorasi ko‘rina boshladi.

To‘rttadan bo‘lib saf tortgan otliqlar kelar edi.

– Kim bu?

– Senga kim kerak? – degan ingichka ovoz chiqdi oldingi saf-dan.

– Kimsan? Gapir, otaman! – Kryuchkov miltiq zatvorini sharaqlatdi.

– Drrr, – deb bittasi otini to‘xtatdi-da, chetan devor oldiga keldi, – postda turibsizmi?

– Ha.

– Qaysi polkdan?

– Uchinchi kazaklar polkidan.

– Kim bilan gaplashyapsan, Trishin? – deb so‘radi qorong‘ilik ichidan bir ovoz.

Haligi odam javob berdi:

– Bu yerda kazaklar posti bor ekan, janobi oliy.

Chetan devor yoniga yana bittasi keldi.

– Salom, kazaklar!

– Salom, – dedi biroz turib Ivankov.

– Bu yerga qachon keldingiz?

– Kechadan beri shu yerdamiz.

Keyin kelgan otliq gugurt chaqib, papiros tutatganda, Kryuchkov uning formasidan chegarachi qismlar ofitseri ekanini payqadi.

– Bizning polkimiz chegaradan olindi, – dedi papirosini chekib haligi ofitser. – Hushyor bo'ling, ro'parada turibsiz. Ertagayoq dushman shu tomonga siljisa, ajab emas.

– Sizlarga yo'l bo'lsin, janobi oliy? – deb so'radi Kryuchkov, barmog'ini tepkidan olmay.

– Biz ikki chaqirim nariroqdagi o'z eskadronimizga borib qo'shilishimiz kerak. Qani, chu denglar, yigitlar! Yaxshi qoling, kazaklar!

– Yaxshi boringlar!

Shamol oy yuzini qoplagan bulut pardasini ochib yubordi, butun qishloq, bog'dagi daraxtlar, bostirmaning cho'qqaygan tomi, tepalikka chiqa boshlagan haligi otryad ustiga murdarang sarg'ish nur yog'ildi.

Ertalab yuzboshiga ma'lumot bergani Rvachev jo'nadi. Astaxov uy egasi bilan gaplashib, picha pul to'lash sharti bilan otlarga beda o'rib olishga uni rozi qildi. Kechalari ham otlar egarlog'liq turardi. Kazaklar dushman bilan betma-bet qolganlarini anglagach, yuraklari po'killay boshladi. Ilgari ular oldilarida chegara soqchilari borligini bilishar va shu sababdan o'zlarini yolg'iz sezishmas, xavfsiramasdilar; chegara bo'sh qoldi degan xabarni eshitganlaridan keyin vahima kuchayib ketdi.

Xo'jayinning bedapoyasi bostirmaga yaqin joyda edi. Astaxov beda o'rishga Ivankov bilan Shchegolkovni tayinladi. Xo'jayin serbar oq kigiz qalpoqni kiyib, ularni o'z bedapoyasiga boshlab bordi, Shchegolkov o'rishga tushdi. Ivankov ho'l bedani to'p-to'p qilib bog'lay boshladi. Xuddi shu vaqtda chegaraga olib boradigan yo'lni durbinda kuzatib turgan Astaxov, g'arbi-janub tomondan dala bo'ylab chopib kelayotgan bir bolani ko'rib qoldi. Bola xuddi to'llamagan qo'ng'ir quyon singari, tepalikdan o'qday uchib kelar, olisdan uzun yengini silkitar va allanima deb baqirardi. U xalloslab yetib keldi-yu, ko'zini ola-kula qilib, entika-entika, zo'rg'a gapirdi:

– Kozak, kozak, german kelyapti! German keldi! Huv anyog'da!

Bola xartumga o‘xshagan uzun yengini cho‘zib ko‘rsatdi. Astaxov durbin oynasida zich bo‘lib kelayotgan bir gala otliqning qorasini ko‘rdi. U ko‘zini durbindan olmay:

– Kryuchkov! – deb chaqirdi.

Kryuchkov taka-puka bo‘lib bostirmaning qiyshiq eshigidan chopib chiqdi.

– Yugur, yigitlarni chaqir! Nemislar! Nemis razvedkasi!

U Kryuchkovning tapir-tupur chopib ketayotganini eshitar, sarg‘aygan o‘tloq orqasidagi bir gala otliqni endi durbinda bemalol ko‘rardi.

Hattoki u nemislarning otlari jiyron, mundirlari tim ko‘k ekanligini ham ajrata oldi. Ular yigirmadan ortiq edi. G‘uj bo‘lib olib tartibsiz holda kelar edilar. Poyloqchilar dushmanni g‘arbi-shimol tomondan kutar, biroq bular g‘arbi-janubdan kelardi. Ular yo‘lni kesib o‘tdi-da, qiyalab Lyubov joylashgan soyliqning ustidagi tepaga chiqishdi.

Qovjiragan lablari orasidan tilining uchini chiqarib olgan Ivankov pishillab, kuchana-kuchana, bir quchoq yo‘ng‘ichqani chilvirga bog‘lar edi. Oyog‘i maymoq uy egasi trubkasini so‘rib, uning yonida qaqqayib turardi. U qo‘llarini kamariga qilib, qoshini chimirib, Shchegolkovdan ko‘zini uzmas edi.

– Shuyam chalg‘i bo‘ptimi? – deb so‘kinardi o‘yinchoqday kichkina chalg‘i bilan beda o‘rayotgan Shchegolkov achchiqlanib, – O‘zing shu bilan o‘rasanmi?

– Ha, – deb g‘udranib javob berdi polyak mundshtugini so‘rib turib, so‘ngra bitta barmog‘ini kamaridan chiqardi.

– Sening bu chalg‘ing hech narsaga yaramaydigan bo‘libdi.

– Uhu-m, – deb tasdiqladi polyak.

Ivankov «piq» etib kuldi. U yana bir nima demoqchi edi, biroq shudgorda chopib kelayotgan Kryuchkovni ko‘rdi. Kryuchkov bir qo‘li bilan qilichini ko‘tarinqirab, serkesak shudgorda qoqilib-suqilib yugurib kelar edi.

– Ishni yig‘ishtiringlar!

– O‘zi tinchlikmi? – deb so‘radi Shchegolkov chalg‘ini yerga sanchib.

– Nemislar!

Ivankov furajkasini tushirib yubordi. Xo'jayin, xuddi tepasida o'q vizillayotganday, yer bag'irlab engashib uyga qarab chopdi.

Kazaklar bostirmaga yetib olib shosha-pisha otlanib bo'lgan edilarki, Pelikaliye tomondan qishloqqa kelayotgan bir rota rus soldatlariga ko'zlari tushdi. Kazaklar ot qo'yib ularning oldiga bordilar. Astaxov, qishloqning sirtida nemis razvedkasi yurganini va hozir tepa ustida ketayotganini rota komandiriga ma'lum qildi. Kapitan oppoq chang bosgan etigining tumshug'iga tikilib qarab qoldi.

– Nechta ekan? – deb so'radi u.

– Yigirmatadan ortiq.

– Siz oldidan to'sib chiqing, biz bu yoqdan o'qqa tutamiz. – U rotaga burilib, saf tortishga komanda berdi va jadallik bilan askarlarni boshlab ketdi.

Kazaklar tepalikka chiqqan mahalda nemislar ulardan o'zib ketgan va otlarini yeldirib Pelikaliyega boradigan yo'lni kesib o'tgan edilar. Dumi kalta saman ot mingan, oldinda ketayotgan nemis ofitseri aniq-taniq ko'rinardi.

Astaxov komanda berdi:

– Ot solinglar! Biz ularni quvlab ikkinchi postga haydab yuboramiz.

Qishloqda kazaklarga qo'shilgan chegarachi otliq askar ajralib qoldi.

– Bu nimasi, birodar? Pisib qolmoqchimisan? – deb so'radi ketiga burilib Astaxov.

Chegarachi qo'l siltadi-da, qishloq sari sekin-asta ketaverdi. Kazaklar qushday uchib borishardi. Nemis dragunlarining ko'k formasi borgan sari aniqroq ko'rinar, endi durbinga ham hojat qolmagan edi. Ular qishloqdan uch chaqirim nariroqdagi fermaga joylashgan ikkinchi post tomon ot yeldirib borishar va kazaklarga qarab-qarab qo'yishardi. Nemislar bilan kazaklar orasidagi masofa borgan sari qisqarardi.

– O'qqa tutamiz! – dedi Astaxov egardan sakrab tushib.

Jilovni qo'lga o'rab olgan kazaklar turgan joylaridan baravariga o'q uzishdi. Ivankovning oti oldingi oyoqlarini ko'tarib egasini dumalatib yubordi. Ivankov yiqilar ekan, nemislardan bittasining otdan qulaganini ko'rib qoldi: oldin nemis sekin-asta bir tomonga qiy-

shaydi, so‘ngra birdaniga qo‘llarini kerib ag‘darilib tushdi. Nemislar to‘xtamadi, loaqal, karabinlarini ham g‘ilofidan chiqarmasdan, tumtaraqay bo‘lib qochishdi, tarqalib ketishdi. Shamol nayzalariga bog‘langan bayroqchalarni hilpiratar edi. Boshlab Astaxov o‘zini egar ustiga oldi. Kazaklar qamchiga zo‘r berdilar. Nemis razvedkachilari shartta chapga burildi, kazaklar qulagan nemisdan qirq sarjin chamasi naridan ot soldirib o‘tdilar. U yog‘i past-baland tepaliklar, unchalik chuqur bo‘lmagan jarlar, o‘pirilib tushgan joylar edi. Nemislar jarning narigi betiga o‘tgan zahoti kazaklar darhol otdan tushib, oboyma (otish qurollarining o‘q joylanadigan ramkasi)dagi besh o‘qni baravariga bo‘shatdilar. Ikkinchi postning ro‘parasida yana bitta nemisni ag‘darishdi.

– Quladi! – deb baqirdi Kryuchkov oyog‘ini uzangiga qo‘yayotib.

– Fermadagilar ham hozir chiqishadi!.. Ikkinchi postimiz shu yerda... – deb g‘ulduradi Astaxov, tamaki tutunidan sarg‘ayib ketgan barmoqlari bilan magazin korobkasiga ikkinchi oboyma o‘qni joylar ekan.

Nemislar otlarini bir maromda choptirib ketdilar. Ferma yonidan o‘tib borayotib, unga qarab-qarab qo‘yar edilar. Lekin kimsasiz qo‘ra imoratlarning cherepitsali tomlari ustiga oftob o‘z nurini to‘kmoqda edi. Astaxov ot ustida turib o‘q uzdi. Sal keyinroqda qolgan nemis boshini bir siltadi-yu, otini haydab qoldi.

Ikkinchi postdagi kazaklar fermadan yarim chaqirim nariroqda telegraf simlarining kesilganligini bilgach, shu kecha bu yerdan ketib qolishgan edi, lekin bu narsa endi ma’lum bo‘ldi.

– Birinchi post tomonga quvlaymiz! – deb baqirdi Astaxov orqasidagi kazaklarga qarab.

Ivankov, Astaxovning burni po‘st tashlab, bir qavat yupqa terisi osilib tushganini endigina payqadi.

– Hayronman, bular nega o‘zlarini mudofaa qilmaydi? – deb so‘radi xunob bo‘lib Ivankov, yelkasidagi miltiqni o‘nglab qo‘yib.

– Shoshma hali... – deb po‘ng‘illadi Shchegolkov, manqa otday pishillab.

Nemislar orqalariga qaramay birinchi duch kelgan soyliqqa tushdilar. Soyning narigi tomonida qoraygan shudgor, berigi yog‘ida dikkaygan burgan o‘t va butalar ko‘rinardi. Astaxov otini to‘xtatdi,

furajkasini surib qo‘yib, qo‘lining orqa tomoni bilan marjondek ter bosgan peshonasini artdi. Sheriklariga ko‘z yugurtirib chiqdi-da, og‘zini to‘ldirib tufladi:

– Ivankov, – dedi u, – soyliqqa tushib qara-chi, ular qayoqda?

Yuzlari bo‘riqib ketgan, orqalari terlab jiqqa ho‘l bo‘lgan Ivankov qaqragan lablarini entikib yaladi-da, jo‘nadi.

– Tamaki xumor qildi, – deb shivirladi Kryuchkov qamchisi bilan otning so‘nasini qo‘riyotib.

Ivankov uzangida tikka turib olib, sekin-asta borar, soyliqqa ko‘z tashlar edi. Oldin u chayqalib borayotgan nayza uchlarini, so‘ngra to‘satdan otlarini burib soyliqdan tikkasiga hujumga o‘tgan nemislarni ko‘rdi. Suratdagi singari qilich ko‘targan ofitser eng oldida ot qo‘yib kelardi. Ivankov otining boshini burarkan, ofitserning xo‘mraygan mo‘ysiz basharasini, egar ustidagi ixcham qomatini aniq ko‘rib qoldi. Nemis otlarining do‘pir-do‘piri ko‘ksiga yoqqan do‘ldek tuyulardi. Orqalari muzlab ketayotganini sezgan Ivankovni ajal vahmi bosdi. U otini shartta burdi-yu, damini chiqarmay iziga qaytdi.

Astaxov tamaki xaltasini tugib olishga ham ulgurmadi, cho‘ntagiga solaman deb yerga tushirib yubordi.

Ivankovning ketidan quvib kelayotgan nemislarni hammadan burun ko‘rgan Kryuchkov ular ustiga ot soldi. O‘ng qanotdagi nemislar Ivankovning yo‘lini to‘sib o‘qday uchib kelar, yetib olishlariga sal qolgan edi. Ivankov bo‘lsa otini qamchilar, orqasiga qayrilib qarab-qarab qo‘yardi. Uning rangi quv o‘chib ketgan, betlari qalt-qalt titrar, ko‘zlari qinidan chiqishiga sal qolgan edi. Astaxov egar qoshiga engashib olganicha, lochinday uchib oldinda borardi, Kryuchkov bilan Shchegolkovning ketidan quyunday chang-to‘zon ko‘tarilgan edi.

«Ana yetdi! Mana yetdi!» – degan fikr Ivankovning miyasidan ketmas, o‘zini mudofaa qilishni o‘ylamasdi; barvasta, yo‘g‘on gavdasi g‘ujanak bo‘lib, boshi otning yoliga tegib qolgan edi.

Novcha, malla bir nemis unga yetib olib orqasiga nayza sanchdi. Tig‘ kamarini teshib o‘tib, sirg‘anib ketdi-da, badaniga to‘rt enlik kirdi.

– Birodarlar, qaytinglar!.. – deb baqirdi esankiragan Ivankov, qilichini qinidan sug‘urib. Biqinini mo‘ljallagan ikkinchi nayzani qilich bilan qaytardi, so‘ngra chap yog‘idan ot solib kelgan nemisni chopdi. Uni o‘rab oldilar. Bir nemisning bo‘ydor oti ko‘ksi bilan kelib, uning otiga turtindi va uni yiqitib yuborayozdi. Shu asnoda, ko‘zlari tingan Ivankov yovning dahshatli basharasini yaqindan ko‘rib qoldi.

Dastlab Astaxov yetib keldi. Nemislar uni chetga surib chiqarishdi. U qilichi bilan hamla qilar, egarda gir aylanar, og‘zi ochilib, rangi murdaday oqargan edi. Qilich uchi tegib ketgan Ivankov bo‘ynidan yarador bo‘ldi. Ikkisining chap yog‘ida bir dragun paydo bo‘ldi, o‘tkir qilich havoda yiltiradi. Ivankov qilichini qalqon qilib to‘sdi; ikki po‘lat tig‘ bir-biriga urilib, sharaqlab ketdi. Uning pogon qayishi orasiga orqa tomondan nayza uchi kirib qolgan edi, zo‘r berib uni yelkasidan tortib tushirmoqchi bo‘lishardi. Bo‘ynini baland ko‘targan otning boshi orqasidan keksaroq, sepkildor nemisning terlagan, bo‘riqqan afti ko‘rinardi. Nemisning jag‘lari qaltirar, bilar-bilmas qilich solib Ivankovning ko‘ksiga tegizishga urinar edi. Qilichi yetmaganidan keyin uni tashladi-da, egarda osig‘liq turgan sariq g‘ilofli karabinga tarmashdi; nemis pirpiragan, taka-puka targ‘il ko‘zlarini Ivankovdan sira uzmas edi. U karabinini g‘ilofidan chiqargunicha yo‘q edi, Kryuchkov otning ustidan oshirib unga nayza sanchdi, nemis ko‘k mundirining yoqasini yirtib, chalqanchasiga qular ekan:

– Mayn gott! – deb faryod qildi.

Kryuchkovni bir chetda sakkiz dragun qurshab oldi. Uni tiriklayin tutmoqchi bo‘lishardi, lekin u otini o‘ynoqlatib, egar ustida o‘ng-u so‘liga qilich solib o‘zini qo‘riqladi. Biroq qo‘lidan qilichi tushib ketdi. U yaqinidagi bir nemisning nayzasini tortib oldi-da, mashq qilayotganday o‘ynata boshladi.

Nemislar tisarilib, qilich bilan hamla qilishga kirishdilar. Bir bo‘ltak shudgor yonida ur-yiqit avjiga chiqqan, odamlar bir-birlarining ustiga ot qo‘yishar, shamolda chayqalgan to‘lqin kabi nari borib, beri kelishardi. O‘lim vahmiga tushgan kazaklar va nemislar vahshiylarcha olishar, bir-birining yelkasiga, qo‘liga, otiga,

yarog'iga, duch kelgan joyiga solishardi... Otlar jon halpida qutu-rishib irg'ishar va bir-birlariga turtinishar edi. Ivankov es-hushini to'plab, balo-qazoday yopishgan yuzi cho'ziq, malla nemisni bir necha bor chopib tashlashga harakat qildi-yu, biroq qilich kaskaning po'lat hoshiyasiga tegib, sirpanib ketaverdi.

A'zoyi badanidan tirqirab qon oqqan Astaxov, qurshovni yorib chiqdi. Nemis ofitseri uning ketidan quvdi. Astaxov miltig'ini yelka-sidan shartta oldi-da, uni yaqindan otib o'ldirdi. Jangdagi vaziyatni tubdan o'zgarishiga shu narsa sabab bo'ldi. Pala-partish qilichboz-liklar natijasida yaralangan, qonga belangan nemislar ofitserlaridan ajraganlaridan keyin tumtaraqay qochdilar. Ularni hech kim quvla-madi. Loaqal, ketlaridan o'q ham otmadilar. Kazaklar to'g'ri Pelika-liye qishlog'iga, o'z sotnyalari oldiga jo'nadilar, nemislar egardan qulagan yarador sherigini otga o'ngarib chegara tomon qochdilar.

Yarim chaqirim chamasi yo'l yurgach, Ivankov gandiraklab:

– Sob bo'ldim... Hozir yiqilaman! – deb otini to'xtatdi, lekin Astaxov jilovidan siltadi.

– Yurasan!

Kryuchkov yuzidagi qonni ishqalar, ko'ksini timirskilab ko'-rardi. Ust ko'ylagini qon dog'lari bosgan edi.

Ikkinchi post turgan ferma yoniga yetganda ikkiga bo'linishdi.

Astaxov uy orqasidagi chakalakzor ichida nilday ko'm-ko'k tov-langan ko'lni ko'rsatib:

– O'ngga yuraylik, – dedi.

– Yo'q, chapga! – deb turib oldi Kryuchkov. Shunday qilib, ikkiga ajralishdi. Astaxov bilan Ivankov qishloqqa keyinroq yetib keldilar. Qishloqqa kiraverishda o'z sotnyalaridagi kazaklar ularni kutib turgan edi.

Ivankov jilovni qo'yib yubordi-da, otdan tushdi va gandiraklab borib yiqildi. Tarashaday qotib qolgan qo'lidagi qilichini kazaklar zo'rg'a tortib oldilar.

Oradan bir soat o'tgach, sotnyadagi kazaklarning deyarli ham-masi german ofitseri o'ldirilgan joyga jo'nadi. Kazaklar uning etigini, kiyim va yarog'ini yechib olishdi, yosh ketgan ofitserning sarg'aygan, tumtaygan yuzini tomosha qilishdi. Ust-xoperlik Tarasov

epchillik qilib, o‘likning qo‘lidagi kumush qopqoqli soatini yechib oldi va o‘sha zahotiyoq vzvod uryadnigiga pulladi. Hamyonidan biroz pul, xat, konvertga solingan bir tola novvotrang kokil bilan mag‘rurona kulib turgan qizning rasmi topildi.

## IX

Shu voqeaga qahramonlik tusini berdilar. Yuzboshining arzandasi – Kryuchkov uning tavsiyasi bilan Georgiy ordeni oldi. Sheriklari quruqdan quruq qolaverdilar. Kryuchkovni diviziya shtabiga jo‘natishdi, to urush tamom bo‘lguncha u o‘sha yoqda sang‘ib yuraverdi. Petrograddan va Moskvadan nufuzli xonimlar hamda mo‘tabar ofitserlar qahramonni ko‘rgani kelavergani uchun unga yana uchta krest berilgan edi. Xonimlarning eslari ketib Don kazagiga xilma-xil shirinlik, qimmatbaho papiros tutishardi: oldin u hammasini boloxonador qilib so‘kar edi, biroq keyinchalik, ofitserlarcha pogon taqqan shtab laganbardorlarining ta’siri ostida o‘z mavqeyidan foydalanish yo‘liga o‘tdi; u endi o‘sha qilgan «qahramonligi» to‘g‘risida rosa olib qochar, jo‘rttaga vahimaliroq qilib gapirar, uyalmay-netmay, yo‘q narsalarni to‘qiyverardi; xonimlar uning gaplaridan zavqlanishar va bu o‘g‘ribashara cho‘tir qahramon – kazakning aftiga tikila-tikila sira to‘ymasdilar. Hammaning joni kirib, vaqti chog‘ bo‘lar edi.

Bir kuni shtab qarorgohiga podshoh keldi; unga ham Kryuchkovni olib borib ko‘rsatdilar. Mallabashara xomush imperator bamisoli ot ko‘rayotganday, Kryuchkovni boshdan oyoq ko‘zdan kechirib chiqdi; burishgan solqi qovoqlarini lip-lip uchirib, uning yelkasiga qoqib qo‘ydi.

– Azamat kazak! – dedi va o‘sha zahoti mulozimlarga burildi: – Menga selter suvi keltiringlar!

Kryuchkovning hurpaygan sochli boshi gazeta va jurnal sahifalaridan tushmay qoldi. Kryuchkovning rasmi solingan papiroslar ham chiqqan edi. Nijegorod savdogarlari unga oltin qilich taqdim etdilar.

Astaxov o‘ldirgan nemis ofitserining mundirini katta faner taxtaga kerib qoqib qo‘ydilar, general fon Rennenkampf har doim

Ivankovni va shu taxtani ushlagan ad'yutantini mashinaga solardida, oldingi pozitsiyaga jo'nayotgan askarlar oldiga borardi va saf oldida askarlarni ruhlantirish uchun siyqa gaplarni qo'shib nutq so'zlardi.

Lekin aslini surishtirilsa, qahramonlikdan nishon ham yo'q edi: qonxo'rlikka o'rganmagan odamlar ajal dashtida bir-birlari bilan to'qnashar, es-hushlarini yo'qotib, turtina-surtina, bir-birlarining duch kelgan joyiga solishar, otlarini ham, o'zlarini ham mayib qilishar, nihoyat, paq etgan o'q ovozi chiqib, bittasi o'lgandan keyin tiraqaylab qochishar, hammalarining ruhi tushib ketardi.

Shuni qahramonlik deb atardilar.

## X

Front hali bo'yi bir necha chaqirim keladigan ilon izi okoplar shakliga kirmagan edi. Chegarada otliq askarlar tez-tez to'qinishar, janglar bo'lib turardi. Urush e'lon qilingan dastlabki kunlarda Germaniya qo'mondonligi kuchli otliq razvedkasini hamma yoqqa yuborib turardi; ular postlarimizning ko'zini chalg'itib, ustalik bilan orqaga o'tib olib, qismlarimizni bezovta qilishar va qayerda qancha askar joylashganini bilmoqchi bo'lishardi. General Kaledin qo'mondonligidagi 12-otliq diviziya Brusilovning 8-armiyasi oldida borardi. Sal chaproqda 11-otliq diviziya Avstriya chegarasidan o'tgan edi. Bu diviziyaning qismlari Leshnyuv va Brodi shaharlarini jang bilan ishg'ol qilgandan keyin olg'a siljiy olmay to'xtab qoldi, chunki avstriyaliklarga juda ko'p madad kuchlari yetib keldi, bundan tashqari Vengriya kavaleriyasi bizning otliq qismlarimizni tinchitmas, qo'qqisdan hamla qilib, Brodi tomonga tislanishga majbur etardi.

Grigoriy Melexov Leshnyuv yaqinidagi jangdan beri ichini it tirnayotganday azob chekar, ko'ngli g'ash edi. U oriqlab, rang-ro'yi ketib qoldi, safarga chiqqanida yoki dam olayotgan mahalida panjara yonida o'zi chopib tashlagan avstriyalik ko'z o'ngidan ketmas, tushida ham, mudroq bosganda ham ko'rinardi. O'sha kungi birinchi jang har kecha tushiga kirardi, bu narsa unga shu qadar og'ir ta'sir etgan ediki, hatto uyqusida ham o'ng qo'li yana nayza dasta-

sini changallaganday, dir-dir qaltiray boshlaganini sezar; cho‘chib uyg‘onib ketar va o‘ziga kelar-kelmas, yumuq ko‘zlarini ishqalab uyqusini qochirardi.

Pishib turgan g‘allalar ot tuyoqlari ostida payxon bo‘lgan, dala-yu dashtlarni taqa izi bosib ketgan, go‘yo butun Galitsiyani do‘l urib ketganga o‘xshar edi. Askarlarning og‘ir etigi yo‘llarni shibbalar, tosh ko‘chalarning changini o‘ynatar, avgust balchig‘ini pishitardi.

Urush bo‘layotgan joylarda to‘p o‘qlari yer betini chechak toshganday cho‘tir qilib yuborgan, odam qoniga tashna bo‘lgan cho‘yan va po‘lat parchalari hamma yoqni bosib ketgan edi. Kechalari ufqda qip-qizil alangalar ko‘tarilib, yallig‘i osmonga cho‘zilar, qishloqlar, shaharlar kuyib kuli ko‘kka sovurilar edi. Avgust oyida mevalar pishib, don-dun yetilgan mahalda osmon qovog‘ini solib, bo‘z chodirini to‘sib oldi, lekin onda-sonda bir ochilgan kunning issig‘iga, havoning dimligiga chidab bo‘lmasdi.

Avgustning so‘nggi haftasi edi. Bog‘larda daraxt barglari za’faron bo‘lgan, barglarning bandi qizarib quriy boshlagan, olisdan qaralsa, daraxtlarni yarayu chaqa bosib ketgan, qonga belanganga o‘xshardi.

Grigoriy o‘z o‘rtoqlariga razm solib, ularda ro‘y bergan o‘zgarishlarni diqqat bilan kuzatib yurardi. Yaqindagina gospitaldan chiqqan, quyma taqa izi tushib beti tirtiq bo‘lib qolgan Proxor Zikov doim labini qimtib, azob ichida ekanligini, miyasi qotganini yashirishga urinar, bo‘tako‘zlarini pirpiratib turaverardi; Yegorka Jarkov arzimagan narsaga adabsizlarcha so‘kinaverar, ilgarigidan ham battar sharmandavozlik qilar va hamma narsaga til tegizaverar edi: Grigoriyning hamqishlog‘i bo‘lgan, o‘z ishiga puxta, vazmin kazak Yemelyan Groshev bo‘lsa, ko‘mirdek qorayib ketgan, o‘zidan o‘zi behudaga hoholab kular, lekin qovog‘i soliq edi. Har bir chehrada o‘zgacha o‘zgarish ro‘y bergan, urush sochgan urug‘larni har kim o‘z qalbida o‘zicha undirib o‘stirmoqda edi.

Jang maydonidan olib chiqilgan polk uch kundan buyon dam olmoqda. Dondan kelgan madad kuchlari qo‘shilib, ularning safini to‘ldirmoqda edi. Kazaklar zamindorning hovuziga cho‘milgani bormoqchi bo‘lib, endigina hozirlanib turishgan paytda qo‘rg‘ondan

uch chaqirim naridagi stansiyadan katta bir otliqlar otryadi yo'lga chiqdi.

To'rtinchi sotnya kazaklari to'g'onga yetguncha stansiyadan chiqqan otryad ham tepalikdan oshib tushaverdi, bu otliqlar kazaklar ekani ma'lum bo'lib qoldi. To'g'on ustida engashib yechinayotgan Proxor Zikov, ko'ylak yoqasidan boshini chiqarib tikildi.

– Biznikilar, donliklar.

Grigoriy ko'zini qisib, qo'rg'onga yaqinlashib kelgan otryadga qaradi.

– Zapaslar ham yo'lga chiqibdi.

– Balki madadga kelishgandir.

– Ikkinchi navbatdagilarni ham ola boshlaganga o'xshaydilar.

– Iye, anavini qaranglar, bolalar! Stepan Astaxov-ku! Huv, ana, uchinchi qatorda! – deb hovliqib qoldi Groshev xirillab kulib.

– Katta yoshdagilarga ham gal kelibdi.

– Hov anavi – Anikushka!

– Grishka! Melexov! Akang, hu ana. Tanidingmi?

– Ha, tanidim.

– Suyunchi berasan, tentak, dastlab men ko'rdim. Grigoriy yuzlarini tirishtirib astoydil tikilar, Petroning ostidagi otni ko'rmoqchi bo'lardi. «Yangisini sotib olishibdi», deb o'yladi u ko'zini otdan olib, akasining yuziga qarab: so'nggi ko'rishganlaridan beri ancha vaqt o'tgani uchunmi, uning o'zgarib g'alati bo'lib qolganini ko'rdi; afti qoraygan, sarimag'iz mo'ylovi kalta qilib qaychilangan, qoshlari oftobda kuyib, sarg'ayib ketgan edi. Grigoriy furajkasini qo'lga olib, havoda aylantirib, akasining oldiga bordi. Ust kiyimlarini yechgan kazaklar sassiqalaf, otquloqlarni payhonlab, duv etib, uning ketidan ergashdilar.

Zapasdagi sotnya bog'ni chetlab o'tib, polk joylashgan qo'rg'on tomonga qarab yurdi. Yoshi qaytgan, to'ladan kelgan, soch-soqoli taqir qirilgan, mo'ylovsiz lablarini qimtib olgan yasovul bularni boshlab borardi.

Grigoriy akasiga qarab iljayar ekan, yasovulning kelishgan qaddi-qomatiga, ostidagi qalmoqi otga ko'z qiri bilan nazar solar va: «O'lguday baqiroq, serjahl odam bo'lsa kerak», – deb o'ylar edi.

Yasovulning ovozi jaranglab eshitildi:

– Sotnya! Vzvod-vzvod bo‘lib, o‘ng tomonga marsh! Grigoriy suyunchini ichiga sig‘dirolmasdan iljayib:

– Salomat bormisan, akajon! – deb baqirib yubordi.

– Xudoga shukur! Mana, biz ham keldik. Ahvol qalay?

– Tuzuk.

– Tirikmisan?

– Hozircha tirik.

– Uydagilardan salom.

– Ahvollari qalay?

– Sog‘-salomat.

Petro semiz saman otning sag‘risiga qo‘lini tirab, butun gavdasi bilan orqasiga qayrilib, kulib turgan ko‘zlari bilan Grigoriyga tikilar edi. Uzoqlashgandan keyin tanish va notanish kishilarning chang bosgan yelkalari uni to‘sib qo‘ydi.

– Yaxshimisan, Melexov! Qishloqdagilar salom aytishdi.

Grigoriy Mishka Koshevoyni hurpaygan oltinrang sochidan tanidi.

– Iye, sen ham keldingmi? – deb tishining oqini ko‘rsatdi u.

– Ha-ya! Tariqqa yopirilgan tovuqday, kelaverdik.

– Cho‘qitib bo‘pti! Qaytaga o‘zingni cho‘qib qo‘yishadi.

– Qo‘y-e!

To‘g‘on tomonidan ko‘ylakchan Yegorka Jarkov bir oyog‘ida hakkalab kelardi. U chalvarini to‘g‘rilab kiya olmay, bir yog‘iga oqsar, likanglab turgan pochasiga oyog‘ini suqolmasdi.

– Yaxshimisizlar, hamqishloqlar?

– Iye! Anavi – Yegorka Jarkov-ku!

– Hoy, Bedov, seni tushovlab qo‘yishganmi?

– Onam qalay?

– Tirik, yuribdi.

– Salom aytdi, sovg‘asini olib kelolmadim, yukim og‘ir edi.

Yegorka uning javobini diqqat bilan eshitdi-da, so‘ngra yalang‘och holicha ko‘kat ustiga o‘tirdi; xo‘rligi kelganini bildirmaslik uchun yuzini teskari o‘girdi, qaltirab turgan oyog‘i chalvar pochasini topolmas edi.

Havorang bo‘yoq bilan sirlangan panjara orqasida yarim beligacha yalang‘och bo‘lib olgan kazaklar turardilar; Dondan madadga kelgan kazaklar esa, ikki chetiga kashtan daraxtlari ekilgan yo‘ldan yurib qo‘raga kira boshladilar.

– Omonmisan, hamqishloq?

– Qudavachchamisan? Hoy, sen Aleksandrmisan?

– Xuddi o‘zi.

– Andreyan! Andreyan! Hoy, shalpangquloq, tanimayapsanmi?

– Xotiningdan salom, hoy, askar yigit!

– Xudo o‘zi panohida asrasin.

– Shu yerda Boris Belov bormi?

– Qaysi sotnyadan ekan?

– To‘rtinchidan bo‘lsa kerak.

– O‘zi qayerlik?

– Vyoshenskayadan, daryo bo‘yidan.

– Nima qilasan uni? – deb gapga aralashdi uchinchi kishi.

– Zarilligi uchun so‘rayapman-da. Unga xat bor.

– Ey, birodar, tunov kuni u Maybroda yonida halok bo‘ldi.

– Yo‘g‘-ey?..

– Xudo ursin! O‘zim tepasida edim. Chap ko‘kragining ostidan o‘q yeb o‘ldi.

– Oralaringda qoradaryolik bormi?

– Yo‘q, o‘taver.

Kolonna ichkari kirgandan keyin qo‘ra o‘rtasida saf tortdi. To‘g‘on boshi cho‘milgani kelgan kazaklar bilan yana gavjum bo‘ldi.

Birozdan so‘ng hozirgina kelib tushgan kazaklar ham ularga qo‘shildilar. Grigoriy akasining yoniga o‘tirdi. To‘g‘ondan qo‘lansa balchiq hidi kelardi. Hovuz chetlarini qalin o‘t bosib, suvi sarg‘ayib ketgan edi. Grigoriy ko‘ylagining choklari orasidan bit topib o‘ldirarkan, akasiga hasrat qilardi:

– Jonimdan to‘ydim, Petro. Xuddi o‘lasi qilib kaltaklangan odamga o‘xshayman... Nazarimda tegirmonga tushib chiqqandayman, majag‘-majag‘ bo‘p ketganga o‘xshayman. – Uning qaltiragan ovozida nola ohangi eshitilar, peshonasida qiyasiga tushgan chiziq

qorayib ko‘rinardi. Petroning bunga endi ko‘zi tushgan edi, ukasida ilgari bo‘lmagan bu vahimali o‘zgarishni ko‘rib yuragi orqasiga tortib ketdi.

– Xo‘sh, nima gap? – deb so‘radi Petro ko‘ylagini yechayotib; uning badani oppoq, lekin yoqasidan yuqorisi qorayib ketgan edi.

– Nimaligini hali ko‘rarsan, – deb shartta javob qildi Grigoriy; jahli chiqqanidan burro gapira boshladi, – odamlarni it-mushuk qilib qo‘yishdi, ishqilib ro‘para bo‘la ko‘rma! Hammasi alamzada. Bo‘ridan battar. Nazarimda agar men hozir biron kishini tishlab olsam, qutursa kerak deb o‘ylayman.

– Odam o‘ldirdingmi hech?

– O‘ldirdim!.. – deb jekirdi Grigoriy, so‘ngra ko‘ylagini g‘ijimlab, oyoq ostiga tashladi. Xuddi tomog‘iga tiqilib qolgan so‘zni siqib chiqarmoqchi bo‘layotganday, anchagacha bo‘ynini uqaladi, yuzini teskari qilib oldi.

– Gapir, – deb buyurdi Petro, lekin ukasiga tik qarashdan qo‘rqib ko‘zini olib qochdi.

– Men vijdon azobidan o‘lib bo‘ldim. Leshnyuv yonida bittasini nayza bilan sanchib o‘ldirdim. Qizishib ketgan edim... Boshqa ilojim yo‘q edi... Men uni nega o‘ldirdim, axir?

– Xo‘sh?

– Mana oqibat, xuni nohaq bir odamni o‘ldirib azobini tortyapman. Kechalari o‘sha dardisar tushimga kiradi. Yoki mendami ayb?

– Sening hali qitiq pating o‘lmagan. Boshing omon bo‘lsa, ko‘raverasan hali.

– Sizlarning sotnyangiz zapasdagi qismlardanmi?

– Nega? Yo‘q, biz yigirma yettinchi polkdanmiz.

– Men, bizga madadga kelgansiz, – deb o‘ylovdim.

– Bizning qismni allaqaysi bir piyoda diviziyaga tirkashmoqchi, biz shunga yetib olish harakatidamiz, aytganday, biz bilan birga zapasdagi madadchi qism ham kelayotgan edi, hammasi yosh, sizga shularni yuborishibdi.

– Xo‘p. Qani, yur, cho‘milaylik.

Grigoriy shosha-pisha chalvarini yechdi-da, to‘g‘onning ustiga chiqib ketdi; Petro uning sal bukchaygan qomatiga qarab qoldi,

nazarida, qorachadan kelgan ukasi, ilgarigiga qaraganda xiyla qariganday bo'lib ko'rindi. Grigoriy qo'lini cho'zib turib, boshi bilan suvga sho'ng'idi; ko'm-ko'k suv ko'pirib, uni ko'mib yubordi, so'ngra, halqa-halqa bo'lib tarqaldi. Grigoriy sekin-asta kiftini qimirlatib, kafti bilan suvni shapillatib, hovuz o'rtasida hoholashib kulayotgan kazaklar tomon suzib ketdi.

Petro shoshmasdan, krestini va onasi bergan tumorchani bo'ynidan chiqarib oldi. Tumorbandni ko'ylagining tagiga qo'ydi, seskana-seskana, zo'rg'a suvga tushdi, ko'ksini, yelkalarini ho'lladida, «u-uv» deb bir sho'ng'ib oldi-yu, so'ngra Grigoriyning ketidan ergashdi; ikkisi odamlardan ajralib, chakalak bo'lib yotgan narigi qumloq sohilga suzib ketishdi.

Grigoriyning hovurini suv qaytardi, suzgan sari ko'ngli ham joyiga tushdi; u endi dadil-dadil quloch otardi, so'zlari vazmin, boyagiday tutaqib gapirmas edi.

– O'lguday bitlab ketganman. Hammasi xafachilikdan. Uyni shunchalik sog'inibmanki, qanotim bo'lsa uchib ketardim. Bir ko'rsam xumorim bosilarmidi... Xo'sh uyda nima gap?

– Natalya uyimizda.

– A?

– Biznikida turib qoldi.

– Ota-ona bardammi?

– Tuzuk. Natalya seni kutyapti, qaytib keladi, yana birga bo'lamiz deb xayol qilsa kerak.

Grigoriy pishqirib, og'ziga kirgan suvni purkab tashlar edi. Petro boshini burib ukasining ko'ziga qaramoqchi bo'lardi.

– Uyga xat yozganingda hech bo'lmasa, unga ham bir og'iz salom deb qo'ygin. Axir, o'sha bechora seni deb yuribdi.

– Endi nima qilmoqchi... Uzilgan ipni ulamoqchimi?

– Nima desam ekan?.. Odamzod umid bilan tirik. Har holda yaxshi ayol. O'ziga mustahkam. Obro' saqlashni biladi. Sho'xlik yoki bir xil xotinlarga o'xshab bachkanalik qilganini sira ko'rganimiz yo'q.

– Erga tegib ketaversa bo'lardi.

– G'alati gap qilasan-a!

– Hech g‘alati emas. Shunday bo‘lishi kerak.

– Ixtiyor o‘zlaringda. Bu ishga aralashmaganim bo‘lsin.

– Dunyashka qalay?

– Bo‘yi yetib qoldi, uka! Shu yil ichida biram yetilib qoldiki, ko‘rsang taniy olmaysan.

– Yo‘g‘-e! – deb taajjublandi Grigoriy suyunib ketib.

– Xudo haqi! Erga berib yuborishsa to‘yini ham ko‘rmaymiz, arog‘idan ham quruq qolamiz. Ishqilib, ablahlar yostig‘imizni quritishmasaydi!

– O‘lish – qiyin gap emas.

Ikkisi qumloqqa chiqib, yonma-yon yotdi, tirsaklariga tayanib, orqalarini kunga berib isita boshladi. Mishka Koshevoy bel bo‘yi suv ustida suzib ularning ro‘parasidan o‘tdi.

– Grishka, suvga tush!

– Shoshma, birpas cho‘zilib olay.

Grigoriy kichkina qo‘ng‘izni qumga ko‘mayotib:

– Aksinyadan hech xabar bormi? – deb so‘radi.

– Urush e’lon qilinishidan oldinroq qishloqda ko‘zim tushgan edi.

– Qishloqda unga pishirib qo‘ygan ekanmi?

– Mayda-chuydasini olgani erinikiga kelgan chiqar.

Grigoriy yo‘taldi va kafti bilan qumni sidirib, qo‘ng‘izni birato‘la ko‘mib tashladi.

– O‘zi bilan gaplashganing yo‘qmi?

– Salomlashdim, xolos. Tirsillab ketgan, vaqti chog‘. Pannikidagi tekin ovqat yoqibdi, shekilli.

– Stepan nima debdi?

– Nima derdi? Narsalarini berib yubordi. Indamabdi ham. Lekin undan hazir bo‘l! G‘aflatda qolma. Men kazaklardan bir gap eshitdim, Stepan mastligida: birinchi jangdayoq o‘q bilan joylayman-qo‘yaman degan emish.

– Hah-ha!

– U gunohingni sira kechirmaydi.

– Bilaman.

– O‘zimga ot oldim, – dedi Petro gapni boshqa tomonga burib.

– Ho‘kizlarni sotdinglarmi?

– Qarilarini sotdik. Bir yuz sakson so‘mga. Otni yuz ellikka oldim. Ajabtovur chiqdi. Sutskan bozoridan oldik.

– G‘alla tuzukmi?

– Yaxshi. Lekin o‘rib olgunimizcha yo‘q edi, hammani bu yoqqa haydashdi.

Suhbat uy-ro‘zg‘or ustiga ko‘chgandan keyin boyagi keskinligini yo‘qotdi, Grigoriy uydagi hamma yangiliklarni bilgisi kelib, astoydil quloq solardi. U hozir avvalgi serg‘ayrat va sodda Grigoriyga o‘xshar, shu topda ko‘ziga uy-ro‘zg‘ordan boshqa hech narsa ko‘rinmas edi.

Petro junjikib, qorniga yopishgan ho‘l qumni sidirib tushirar ekan:

– Qani tur, tag‘in birpas cho‘milamiz-da, bas qilamiz, chiqib kiyinamiz, – deb taklif etdi. Uning orqasi va qo‘llarining terisi g‘udda-g‘udda bo‘lib, bir nima toshganga o‘xshab qolgan edi.

Aka-uka bir to‘da kazaklarga qo‘shilib to‘g‘ondan qaytishdi. Bog‘ bilan qo‘rg‘on orasiga tushgan devor yonida Stepan Astaxov ularga yetib oldi. Bir yoqqa osilib tushgan o‘siq sochini yo‘l-yo‘lakay shapkasi ostiga qistira olmay, hadeb mugiz taroq bilan tarardi.

– Horma, oshna! – dedi u Grigoriyga yetib olgach.

– Salom! – Grigoriy xijolat tortib aybdor kishidek unga qarab qo‘ydi-da, orqaroqda qoldi.

– Meni unutganing yo‘qmi?

– Unutib yuborishimga sal qoluvdi.

– Ammo men seni unutganim yo‘q, – deb istehzo bilan kuldi Stepan. Shuni deb to‘xtamay o‘tib ketdi-da, oldidagi uryadnik pogoni taqqan kazakning yelkasidan quchoqladi.

Qosh qorayganda diviziya shtabidan telefonogramma olindi: pozitsiyaga borib joylashilsin degan buyruq kelgan edi. Chorak soat o‘tar-o‘tmas polk safarga tayyor bo‘ldi; yangi kelganlar bilan safini to‘ldirib olgan polk qo‘shiq aytib, madyarlar kavaleriyasi yorib o‘tgan joyni to‘smoq uchun yo‘lga chiqdi.

Petro xayrlashayotib to‘rt buklangan bir qog‘ozni ukasining qo‘liga tutqizdi.

– Bu nima? – deb so‘radi Grigoriy.

– Duo. Senga atab ko‘chirib oluvdim. Ol.

– Nafi bormi?

– Kulma, Grigoriy!

– Kulayotganim yo‘q.

– Xayr endi, uka. Sog‘-salomat bo‘l. Odamlardan oldin yugurib o‘zingni o‘tga urma, bilasanmi, ajal hovliqmalarning payida yuradi. O‘zingga ehtiyot bo‘l! – deb baqirdi Petro.

– Duo asramasmikan?

Petro qo‘l siltab qo‘ydi.

Soat o‘n birgacha hech narsadan xavotirlanmay beparvo ketaverdilar. Undan keyin vaxmistrlar mumkin qadar jim yurish, papiros chekishni to‘xtatish to‘g‘risida komandir buyrug‘ini eshittirib, hamma sotnyalarni ogohlantirib chiqdi.

Yiroqdagi o‘rmon ustida binafsharang tutun orasidan chiqqan mushaklar osmonga ko‘tarilardi.

## XI

Sahtiyon muqovali kichkinagina xotira daftari. Chetlari sinib, yeyilib ketgan: egasining cho‘ntagida uzoq yurgan bo‘lsa kerak. Varaqlari qiyshiq harfli yozuvlar bilan to‘lgan.

* * *

«...Anchadan beri men qog‘oz va qalam bilan dilkashlik qilishga xumor edim. Men institutdagi singari kundalik daftar tutmoqchiman. Avvalo qiz to‘g‘risida gap boshlay: fevral oyida, qaysi kuni, ekani esimda yo‘q, uning hamqishlog‘i – student Boyarishkin qizni men bilan tanishtirib qo‘ydi. Men ularga sinematograf eshigi oldida to‘qnash kelib qoluvdim. Boyarishkin ikkimizni tanishtirar ekan: «Bu stanitsadan kelgan qiz, vyoshenskayalik. Sen, Timofey, uni izzat qil. Liza – topilmaydigan qiz» degan edi. O‘shanda, qizga allanima deb mujmal gap qotganim va terlagan yumshoq qo‘lini birpas ushlab turganim esimda bor. Mening Yelizaveta Moxova bilan bo‘lgan oshnaligim shunday boshlangan edi. Bu qizning o‘zgarganligini men birinchi ko‘rishdayoq payqadim: odatda bu

xil xotinlarning ko'zlari «mana men» deb turadi. Rostini aytsam, menga unchalik yoqinqiramadi: hammasidan ham kaftining terlashini aytmaysanmi? Odamzodning qo'li bunchalik terlashini sira ko'rgan emasman; ko'zlari ham yoqmadi: quralay, chiroyli bo'lsa ham, shu bilan birga jozibasiz, xunuk.

Do'stim Vasya, jumla tuzilishlariga alohida e'tibor berishimning, hattoki, shirali qilib yozishga uringanimning sababi bor: vaqti kelib ushbu «kundalik daftar» Semipalatinskda sening qo'lingga tushib qolsa, voqeadan batafsil xabardor bo'larsan deb umid qilaman. (Chinini aytsam, Yelizaveta Moxova bilan oshiqma'shuqligimiz tamom bo'lgandan keyin, buni senga yuborish niyatidaman. Bu kundalikni o'qisang, ancha huzur qilasan). Xronologik tartibda birma-bir yozib yuraman. Shunday qilib, men u qiz bilan tanishganimdan so'ngra uchalamiz kinoga kirib, allaqanday bir bachkana narsani tomosha qildik. Boyarishkin indamay o'tiraverdi («Oziq tishim zirqirayapti», dedi), gap-gapga sira qovushmadi. Surishtirib qarasam, ikkimiz bir yerdan, ya'ni yonmayon ikki qo'shni stanitsadan ekanmiz; gapimiz dasht manzarasining go'zalligi va shu singari umumiy xotiralardan nariga o'tmadi, men jimib qoldim. Agar shunday ta'bir joiz bo'lsa, men bamaylixotir jim o'tirardim, to'rt og'iz so'z bilan gapimiz tamom bo'lib, damimiz ichimizga tushib ketganiga qiz parvo qilmas edi. Uning tibbiyot bilim yurtining ikkinchi kursida o'qiyotgani, savdogar oilasidan ekanini, quyuq choyni va asmol tamakisini nihoyatda yaxshi ko'rishini o'z og'zidan eshitdim. Mana, do'stim, mening bilganlarim shugina xolos va bu ma'lumotlar quralay ko'zli qizni batafsil tanib olish uchun kifoya qilmaydi. Qiz xayrlashayotib (uni tramvaygacha kuzatib ko'ydik), biznikiga kelib turing, deb iltimos qildi. Men manzilini yozib oldim. 28-aprelda kirib chiqmoqchiman.

*29-aprel.*

Bugun unikiga bordim, meni choy, holva bilan siyladi. Chinini aytsam – alomat qiz. Tili biyron, es-hushi evida, biroq undan arsibashevchilikning[13] hidi keladi, olisdan ham bilinib turibdi. Uniki-

[13] *Arsibashevchilik* — sharm-hayosizlik

dan kech qaytdim. Papiros o‘rar ekan, men unga aloqasi bo‘lmagan ba’zi bir narsalar, chunonchi, pul masalasi ustida bosh qotirdim. Kostumimning sharti ketib parti qolgan, «mullajiring» yo‘q, Umuman ishlar rasvo.

*1-may.*

Shu kuni g‘alati bir voqea ro‘y berdi. Bizlar hech kimga xalaqit bermasdan, Sokolnikida beozor aylanib yurgan vaqtimizda, ittifoqo bir to‘da politsiya bilan yigirma chog‘lik kazak ishchilar mayovkasini tarqatayotgani ustidan chiqib qoldik. Bir mast odam tayoq bilan kazakning otini solib qoldi, kazak uni qamchilab ketdi. Men darhol borib oraga tushdim, olijanoblik hissi meni tek turgani qo‘ymadi – gapning ochig‘i shu. Bordim-u, kazakning betiga: sen laylaksan, falon-u pismadonsan deb shartta aytdim. Kazak qamchi o‘xtalgan edi, biroq men dadil turib, o‘zimning kamenskayalik kazaklardan ekanimni, ursam so‘log‘ini o‘ynatib yuborishimni bildirib qo‘ydim. Hartugur, xushfe’l, yoshgina kazak ekan; askariy xizmat hali uni buzmagan ekan, u ham ust-xoperlik ekanini, mushtbozlikda yakka-yu yagonaligini aytdi. Ikkimiz yaxshilikcha ajrashdik. Bordi-yu, menga qo‘l ko‘tarsa bormi, mushtlashib qolishimiz va menga shikast yetishi turgan gap edi. Aralashganimning sababi shuki, oramizda Yelizaveta bor edi; u bor joyda doim bolaligim tutib, «botirligimni» ko‘rsatib qo‘ygim kelaveradi. Nazarimda, xuddi dakan xo‘rozga o‘xshab ketaman, hattoki shapkam tagidan qizil toj o‘sib chiqayotganday... Mana shu ahvolga tushib qoldim!

*3-may.*

Ichkilik xumor qilib zo‘rg‘a yuribman. O‘lganning ustiga ko‘mgan deganday, aksiga pul ham yo‘q. Shimimning og‘i so‘tilib, qoq o‘rtasidan qovunday tars yorilib ketgan. Tikay desam choki tutib qolishiga ko‘zim yetmaydi. Uni tikish qovunning yorig‘ini yamagan bilan baravar. Volodka Strejnev kelib ketdi. Ertaga leksiyaga boraman.

*7-may.*

Otamdan pul keldi. Xatida meni rosa so'kibdi, menga chivin chaqqanday ham ta'sir etmadi. Dadam sho'rlik bechora o'g'lining axloq negizlari chiriganligini bilsa edi... Kostum sotib oldim. Galstugimga, hatto izvoshchilar ham tikilib qarashadi. Tverskaya ko'chasidagi sartaroshxonaga kirib, soqol oldirdim. U yerdan attorning gumashtasidek top-toza bo'lib chiqdim. Sadovo-Triumfalnaya ko'chasining muyulishida gorodovoy menga iljayib qaradi. Uchiga chiqqan dog'uli ekan! Shu turishimga qaralsa, ikkimizning oramizda allaqanday o'xshashlik bor! Uch oy muqaddam-chi? O'tgan ishga salavot, tarixning yirtiq varaqlarini titkilashning foydasi yo'q. Tasodifan, yelizavetani ko'rib qoldim, tramvayda ketayotgan ekan. Oynadan menga kulib qaradi, qo'lqopini silkitib qo'ydi... Ko'ziga qalay ko'rindim ekan?

*8-may.*

«Yosh ham, qari ham ishq-muhabbatga itoatda». Tatyana erining katta ochilgan og'zi ko'z oldimdan sira ketmaydi. Teatr galereyasidan turib, og'ziga tupurgim kelar edi. Shu jumla esimga tushsa, xususan oxiridagi «I-too-a-at-daaa...» so'zi yodimga kelsa, jag'larim qarishib esnagim kelaverardi, asabiylikdan bo'lsa kerak.

Lekin gap mening o'z mavridida oshiqi beqaror bo'lganimda emas. Shu satrlarni yozayotibman-u, tepa sochim tikka bo'lib ketyapti... Yelizavetanikida bo'ldim. Dabdabali qilib olisdan gap boshladim. Yelizaveta tushunmaslikka olib, gapni boshqa tomonga burishga harakat qildi. Tag'in, shoshayotgan bo'lmay? Hamma balo mana shu dardisar kostumda!.. O'zimni oynaga solib ko'rdim, bekam-ko'stman, shartta arz-hol qilaveraman degan fikrga keldim. Umuman, menda bir fazilat bor: hamma mulohazalardan ko'ra o'z manfaatimni ko'zlash xislati menda ustunroq turadi. Agar hozir gapirmasam, ikki oydan keyin vaqt o'tgan bo'ladi: shimim eskirib, haligi joydan yana so'tilsa, bu to'g'rida og'iz ochishga hech qanday imkoniyat qolmaydi. Yozib o'tirib o'zim hayron bo'laman: davrimizdagi eng yaxshi kishilarning eng yaxshi fazilat va hislari menda bo'lganligiga o'zim ham qoyil qolaman. Eng nozik va jo'shqin muhabbat ham mendan topiladi, «aql-u idrok» ham. Qisqasi eng yaxshi xislatlar to'planib moshkichiriga aylangan.

Xullas, muhabbat izhor qilish uchun zamin hozirlay olmadim. Kvartira egasi – kampir kelib gapning beliga tepdi: Yelizavetani chaqirib oldi, so'ngra, yo'lakda undan qarzga pul so'raganini eshitdim. Qiz yonida puli bo'la turib bermadi. Puli borligini men aniq bilardim, lekin samimiy ovoz bilan «yo'q» deganini eshitib, darhol uning yuzini, samimiylik bilan javdirab turgan quralay ko'zlarini tasavvur etdim. Muhabbat to'g'risida gap ochishga tobim qolmadi.

*13-may.*

Men oshiqi shaydo bo'lib qoldim. Bunga hech qanday shak-shubha yo'q. Ertaga izhor qilaman. Lekin o'z rolimni hozircha aniqlab olganim yo'q,

*14-may.*

Hech kutilmaganda ish o'ngidan keldi. Odamga yoqadigan iliqqina yomg'ir yog'ib turardi. Biz Moxovaya ko'chasidan borayotibmiz, shamol qiyalab kelib trotuarga o'zini uradi. Men gapiraman, u bo'lsa boshini quyi solib xuddi xayolga cho'mgan odam singari, indamay qadam tashlaydi. Yomg'ir suvi shlapasidan betiga oqib tushadi, husniga husn qo'shadi. Oramizda shunday gaplar bo'ldi:

– Yelizaveta Sergeyevna, men o'z hislarimni sizga izhor qildim. Gap sizda qoldi.

– Hislaringiz chin ekanligiga gumonim bor. Men ahmoqona tarzda kiftlarimni qisib qasam ichishga tayyorlgimni va shu singari bema'ni gaplarni aytib chuldiradim.

– Menga qarang, – dedi u, – siz Turgenev qahramonlarining tili bilan so'zlayotibsiz. Oddiyroq qilib gapirsangiz bo'lmaydimi?

– Eng oddiysini aytsam: sizga oshiqman.

– Xo'sh, undan keyin?

– Gap sizda qoldi.

– Men ham sevaman deb aytgin demoqchimisiz?

– Men javobini istayman.

– Bilasizmi, Timofey Ivanovich... Sizga nima desam ekan? Siz menga sal-pal yoqasiz... Bo'yingiz balandgina.

– Yana o'saman hali, – dedim men.

– Tanishganimizga hech vaqt bo‘lgani yo‘q, sinashta...

– Nasib bo‘lsa, non-u tuz bo‘lib, bir-birimizni sinab olamiz.

Liza ho‘l bo‘lgan betlarini qip-qizil kafti bilan surtdi-da:

– Xo‘p, mayli, bitimga keldik. Birga bo‘lsak u yog‘ini ko‘raveramiz. Faqat ilgarigi mehribonim bilan aloqani tugatish uchun menga biroz muhlat berishingiz kerak, – dedi.

– Kim u? – bilgim kelib so‘radim men.

– Siz uni tanimaysiz. Bitta doktor, venerolog.

– Qachon qutulasiz?

– Jumagacha qutularman degan umid bor.

– Ikkimiz birgalikda turamizmi? Ya’ni bir xonada yashaymizmi demoqchiman?

– Ha, shunday bo‘lgani soz. Siz menikiga ko‘chib o‘tasiz.

– Nechuk?

– Mening kvartiram juda qulay. Ozoda joy, uy egasi ham istarasi issiqqina bir ayol.

Men e’tiroz bildirmadim. Tverskaya ko‘chasining muyulishida xayrlashdik. Allaqanday bir xonimning taajjublanganiga parvo qilmay, ikkimiz o‘pishib ham oldik.

– Qani, ertaga taqdir nimalar ko‘rsatar ekan?

*22-may.*

Asalday totli kunlarning kayfini suryapman. Ammo bugun Liza: ko‘ylak-ishtoningni o‘zgartirib ol, deb kayfimni buzdi. Darhaqiqat, ko‘ylak-ishtonimning dabdalasi chiqibdi. Lekin pul masalasi chatoq, pul... xarajat mendan bo‘lyapti, koshki dastmoyaning mazasi bo‘lsa. Biron ish qidirishga to‘g‘ri keladi.

*24-may.*

Bugun ko‘ylak-ishton sotib olmoqchi edim, biroq Liza kutilmaganda chiqimdor qilib qo‘ydi. Yaxshi restoranda ovqatlangisi va ipak paypoq olgisi kelib o‘lib turgan ekan. Ovqatni ham yedik, paypoq ham xarid qildik, biroq men boshimni changallaganimcha qoldim: ko‘ylak-ishtondan mahrum bo‘ldim!

*27-may.*

U darmonimni quritmoqda. Kuch-quvvatim ketib, so‘rraygan makkapoyaga o‘xshab qoldim. Bu xotin emas, tutun orasidan chiqqan olov.

*2-iyun.*

Bugun biz soat to‘qqizda uyg‘ondik. Oyoq panjalarimni qimirlatadigan yaramas bir odatimning kasofatiga qoldim: Liza ko‘rpani ochib tovonlarimni rosa tekshirib ko‘rdi. So‘ngra o‘z mushohadasini shunday yakunladi:

– Bu oyoq emas, otning tuyog‘i. Tuyoqdan ham battar! Panjalaringni jun bosib ketganiga qara, fu! – dedi-da, jirkanganidan seskanib tushdi, so‘ngra ko‘rpaga burkanib, teskari o‘girilib oldi.

Men qattiq xijolat bo‘ldim. Oyoqlarimni yig‘ib oldim-da, yelkasiga turtdim.

– Liza!

– Qo‘ying meni o‘z holimga!

– Liza, bu nihoyatda kelishmagan bir gap. Oyog‘imning siyog‘i shunaqa bo‘lsa – men qanday qilay, axir, lekin jun masalasiga kelganda, junning esi bormi, duch kelgan joyga chiqaveradi. O‘zing tibbiyotdan ta’lim olyapsan, tabiiy taraqqiyot qonunlarini bilmog‘ing kerak.

U menga yuzini o‘girdi. Quralay ko‘zlari qahvarang tusga kirib o‘qraydi.

– Shu bugundan qoldirmay, terlashni yo‘qotadigan dori sotib oling, oyoqlaringizdan murda hidi keladi.

Men joyi kelgani uchun, o‘zining kaftlari ham terlashini eslatib o‘tdim. U churq etmadi, lekin ko‘nglim chiroq yoqsa yorishmas, adabiyroq qilib aytganda – zimistonga aylangan edi. Gap na junda, na oyoqda, illat boshqa yoqda...

*4-iyun.*

Bugun biz Moskva daryosida qayiqda sayr qildik. Don daryosini esladik. Yelizavetaga bir balo bo‘ldi; sha’nimga doim tosh otadi, ba’zan achitib-achitib gapiradi. Men ham unga shu tarzda javob qaytaradigan bo‘lsam, oramiz buzilishi muqarrar, lekin men buni istamayman. Ahvolini ko‘ra-bila turib, borgan sari men unga

ko‘ngil qo‘yyapman. U juda erka o‘sgan. Uning fe’l-atvorini tubdan o‘zgartirish uchun mening harakat qilishim kifoya etmas deb qo‘rqaman. Hovliqma va yoqimtoy bir qiz. Lekin qiz deyman-u, o‘nta xotinni yo‘lda qoldiradigan qiz, men bunaqasini umrimda ko‘rgan emasman. Qaytishda u meni aptekaga sudrab opkirdi va kula-kula, ter upa hamda yana bir allanima baloni sotib oldi.

– Mana buni terlagan oyog‘ingga sepasan.

Men odob bilan ta’zim qildim va tashakkur bildirdim.

Kulgili narsa, biroq gapning ochig‘i shu.

*7-iyun.*

Tariqcha ham aqli yo‘q ekan. Qolgan hamma sohada ustoziga dars bera oladi.

Har kuni yotishdan oldin oyog‘imni issiq suv bilan yuvaman, atir surtaman va allaqanday bir upani sepaman.

*16-iyun.*

Kundan kunga toqatimni toq qilyapti. Kecha uning tutqanog‘i tutib qoldi. Bunday xotin bilan yashamoq juda og‘ir gap.

*18-iyun.*

Yulduzimiz bir-biriga teskari, gapimiz gapimizga to‘g‘ri kelmaydi. Ikkimizni bog‘lab turgan narsa karavot. Mazmuni puch hayot!

Bugun ertalab, u novvoyxonaga bormoqchi bo‘lib, cho‘ntagimdan pul olayotganda ushbu kundalik daftarni ko‘rib qoldi. Cho‘ntagimdan oldi.

– Bu nima?

Isitmam chiqib ketdi. Bir-ikki varag‘ini ochib qarasa bormi? Men darhol:

– Arifmetika sanoqlari yoziladigan daftarcha, – deb javob berdim va ovozimning tabiiyligiga o‘zim hayron qoldim.

U daftarni beparvolik bilan cho‘ntagimga soldi-da, chiqib ketdi. Minba’d hushyor bo‘lish kerak. Yozganlaringni birov o‘qiydigan bo‘lsa ish pachava, betma-bet gaplashgan yaxshi.

Do‘stim Vasya o‘qib maza qiladigan bo‘ldi.

*21-iyun.*

Men Yelizavetaga hayronman. Yoshi 21 da. Bu qadar aynigan-ligining sababi nimada ekan? Oilasi qanday, qay xilda tarbiya-langan, kimlar uni o'stirgan? Mana shu savollar meni nihoyatda qiziqtiradi. O'zi g'alati bir jonon. Qaddi-qomati kelishgan, shu-nisiga kerilaveradi. O'ziga juda bino qo'ygan, hech kimni mensi-maydi. Men bir necha marta u bilan jiddiy gaplashmoqchi bo'lib ko'rdim...

Birga turmoqning iloji ham qolmadi, ma'nisi ham yo'qola boshladi. Ammo men aloqa uzish paytini keyinga siltayapman. Rostini aytsam, shunga qaramay, u menga juda yoqadi. Suyak-suyaklarimga singib ketgan.

*24-iyun.*

G'isht qolipdan osongina ko'chdi. Bugun ikkimiz ko'ngil yorib ochiq gaplashdik, uni qanoatlantira olmasligimni betimga aytdi. Hozircha aloqa uzilgancha yo'q, lekin erta yo indindan nariga o'tmasa kerak.

*26-iyun.*

Unga stanitsa otxonasidagi ayg'ir bas kela oladi. Ayg'ir!

*28-iyun.*

Undan ayrilish men uchun juda og'ir. U meni o'z girdobiga tortib ketgan. Bugun Vorobyov tepaligiga bordik. U nomerning de-razasi oldida o'tirardi, o'ymakor chaspak orasidan quyosh shu'lasi kokillariga tushib turardi. Sochlari tilladek tovlanardi. Mana, senga bir chimdim she'riyat!

*4-iyul.*

Men ishimni tashlab qo'ydim. Yelizaveta meni tashlab ketdi. Bugun Strejnyov bilan birga pivo ichdik. Kecha aroq ichuvdik. Yeli-zaveta bilan men madaniy kishilar singari, muloyimgina ajralishdik. Hech qanday achchiq yoki chuchuk gaplar bo'lmadi. Bugun men Lizani Dmitrovka ko'chasida ko'rdim, chavandozcha etik kiygan bir yigit bilan ketayotgan ekan. Bosh qimirlatib bergan salomimga

iltifotsizgina javob qildi. Shu bilan tugatsam ham bo‘ladi, chunki ilhom bulog‘i quridi.

*30-iyul.*

Kutilmaganda qo‘limga qalam olishga to‘g‘ri keldi. Urush. Hammada hayvoniy ishtiyoq qo‘zg‘algan. Har bir kalladan, qurtlagan itnikidan battar qo‘lansa patriotizm hidi keladi. Sheriklarimning fig‘oni chiqadi, lekin men suyunaman. Men «jannat rohatlarini» sog‘inib... o‘lib bo‘ldim. Kecha tushimda Yelizavetani ko‘ribman. Ko‘nglimga g‘am-g‘ussa solib ketdi. G‘amlarimni tarqatsam edi!

*1-avgust.*

Shov-shuvlar jonimga tegdi. Eski dardlar yana qo‘zg‘aldi. Bola emizigini so‘rganday, men ham dard-g‘am zaqqumini so‘raman.

*3-avgust.*

Iloji topildi! Men urushga boraman! Tentaklikmi? Juda-juda. Uyat emasmi? Mayli.

Borarga joy, o‘tirarga o‘rin topmasam nima qilay? Ko‘ngil qittay ovungisi, boshqa taassurotlarga berilgisi keladi. Ikki yil avval menda dunyodan to‘yish degan gap sira yo‘q edi. Qariy boshladimmi deyman?

*7-avgust.*

Vagon ichida o‘tirib yozyapman. Hozirgina Voronejdan jo‘nadik. Ertaga Kamenskayada poyezddan tushaman. «Din, podshoh hamda vatan uchun» otlanishga qat’iy bel bog‘ladim.

*12-avgust.*

Xayrlashish marosimi tantanali o‘tdi. Ataman shirakayf bo‘lib olib, alangali nutq so‘zlashga tushib ketdi. Keyin men uning qulog‘iga: «Rosa ahmoq ekansiz, Andrey Karpovich!» – deb shivirladim. U hayron qoldi, gapimdan qattiq ranjidi, hattoki, rangi o‘zgarib, betlari ko‘karib ketdi: «O‘qigan odamdan keladigani shuda. Darvoqe siz, ming to‘qqiz yuz beshinchi yilda biz qamchi bilan savalagan anavindaqalardan emasmisiz?» Men unga, taassufki,

«anavindaqalardan» emasman, deb aytdim. Otam yig'ladi, meni o'pa boshladi, burnidan mishig'i oqib turardi. Bechora mehribon ota! U ham mening ahvolimga tushsaydi. Men unga hazillashib, birga frontga jo'nashni taklif etdim, uning kayfi uchib ketdi: «Seniki qiziq-a, ro'zg'orga kim qaraydi?» – deb hayqirdi. Ertaga stansiyaga jo'nayman.

*13-avgust.*

Onda-sonda o'rilmay qolgan bug'doyzorlar. Tepachalar ustida semirgan yumronqoziqlar... Bular litografda bosilgan arzonbaho suratdagi nemislarga judayam o'xshaydi. Bunday suratlarni Kozma Prutkov masxara qilib toza boplagan edi. Buni qarangki, dunyoga kelib, matematika va boshqa aniq fanlarni o'qib o'rganib yuraveribman-u, lekin bunchalik «shovinist» bo'lishimni xayolimga sira keltirmapman. Polkka yetib olay: kazaklar bilan bir gurunglashamiz.

*22-avgust.*

Allaqaysi bir stansiyada asirlarning birinchi gruppasini ko'rdim. Soqchilar qaddi-qomati kelishgan, sportchi qiyofasidagi avstriyalik bir ofitserni vokzalga haydab keldilar. Perronda sang'ib yurgan ikki qiz ofitserga kulib boqdi. U yurib ketayotgan joyida epchillik bilan ularga ta'zim qildi va uchirma o'pish yubordi.

Asir tushib ham soqol olishni tark etmabdi, qaytarma qo'njli sariq ko'n etigi yiltiraydi, savlati joyida. Men ketidan qarab qoldim: chehrasi yoqimtoygina, kelishgan, chiroyli yigit. Jangda shunaqasiga ro'para kelsang, qilich ko'tarishga qo'ling bormas.

*24-avgust.*

Qochoqlar, qochoqlar, sonsiz qochoqlar... Hamma yo'llar qochoqlar va askarlar tushgan poyezdlar bilan band.

Birinchi sanitar poyezdi o'tdi. To'xtagan mahalda vagondan yoshgina askar sakrab tushdi. Betlari bog'langan. Gaplashdim. To'p o'qining parchasi tegib yaralangan ekan. Yana askar bo'lib xizmat qilishi dargumon: ko'zi shikast yebdi. Shu ahvolda kuladi tag'in.

*27-avgust.*

Men o‘z polkimdaman. Polk komandiri istarasi issiqqina bir chol. Donning pastki yog‘idan ekan. Bu yerda qon hidi bemalol bilinib turibdi. Mish-mishlarga qaraganda, indinga pozitsiya (urush harakatlari rayoni)ga jo‘nasak kerak. Uchinchi sotnyaga qarashli mening 3-vzvodimda Konstantinovskaya stanitsalik kazaklar terilgan. Hammasi go‘l. Bittagina askiyaboz va ashulachi yigit bor, xolos.

*28-avgust.*

Pozitsiyaga ketayotibmiz. Bugun o‘sha tomondan gumbur-gumbur ovoz kelyapti. Go‘yoki, olisda momaqaldiroq boshlangandek. Men hatto, yomg‘ir hidi kelmayaptimi deb iskab ham ko‘rdim. Osmon tip-tiniq, oynaday musaffo.

Kecha otim oqsab qoldi: yonimizdan o‘tib borayotgan ko‘chma oshxona g‘ildiragiga oyog‘ini urib oldi. Hamma narsa boshqacha, yangi, nimadan boshlashni, nimani yozishni bilmay qoldim.

*30-avgust.*

Kecha yozishga vaqt bo‘lmadi. Hozir egar ustida yozyapman. Ot qimirlab chayqatavergani uchun qalamim toyib, harflar judayam beso‘naqay, vahimali bo‘lib chiqyapti. Uch kishi arqon-u chilvir olib, yo‘ng‘ichqa keltirgani boryapmiz.

Shu topda sheriklarim yo‘ng‘ichqa bog‘lashyapti. Men esa bag‘rimni yerga berib, kechagi voqealarni, kechikib bo‘lsa ham, «qayd» etyapman. Kecha vaxmistr Tolokonnikov olti kishini rekognossirovka (razvedka qilish)ga yuborgan edi. (U meni mensimay jo‘rttaga «student» deb chaqiradi! «Hoy, student, otingning taqasi ko‘chibdi, shuni ham ko‘rmaysanmi?»). Allaqanday chala kuygan bir qishloqchadan o‘tdik. Kun issiq. Otlar ham terga pishgan. Kazaklarga yozda ham movut chalvar kiydirganlari yaxshi emas-da. Qishloqdan chiqaverishdagi zovur bo‘yida birinchi o‘likni ko‘rdim. Nemis ekan. Oyog‘i tizzagacha ariqda, o‘zi chalqanchasiga tushib yotibdi. Bir qo‘li qayrilib tagida qolibdi, ikkinchi qo‘li bilan bir oboyma o‘qni changallab olibdi. Yonida miltiq yo‘q. Ko‘rinishi judayam vahimali. Hozir o‘shani ko‘z oldimga keltirsam, a’zoyi badanim jimirlashadi... Uni ko‘rgan kishi: zovurga oyog‘ini solib,

biroz dam olmoqchi bo‘lib o‘tirgan ekan, keyin yotib olibdi, deb gumon qiladi. Egnida kulrang mundir, yonida kaska. Kaskaning charm astari xuddi papiros qog‘ozining tamakini to‘sib turadigan joyiga o‘xshash jimjimador. Umrimda birinchi marta bunday manzaraga ro‘para bo‘lganligim uchun shu qadar esankirab qolibmanki, hatto aftini ham eslay olmayman. Faqat sariq peshonasida va shishadek qotib qolgan qisiq ko‘zlari ustida o‘rmalashib yurgan kattakon sariq chumolilarni ko‘rdim, xolos. Kazaklar cho‘qina-cho‘qina, murda yonidan o‘tdilar. Men mundirining o‘ng tomonidagi qon dog‘iga qaradim. O‘q o‘ng biqiniga tegib teshib o‘tibdi. O‘q o‘pirib chiqqan chap yog‘iga o‘tganimda qon oqaverib, allamuncha yer ko‘lob bo‘lganini, mundirining titig‘i chiqib ketganini ko‘rdim.

Seskanib yonidan uzoqlashdim. Mana, urush nimaligini endi bildim...

Trundaley laqabli starshiy uryadnik, ta’bimiz xira bo‘lganini payqab, ruhimizni ko‘tarmoq uchun bemaza anekdot ayta boshladi, lekin uning ham lablari qaltirardi...

Qishloqdan yarim chaqirim nariroqda allaqanday bir kuygan zavodni ko‘rdik, ustlari qoraygan g‘isht devorlari qolibdi, xolos. Biz tikkasiga ketaverishga qo‘rqdik, chunki yo‘l shu xarobazor kultepa yonidan o‘tardi, shuning uchun aylanib o‘tishga qaror qildik. Otlarni chetga burdik, birdaniga o‘sha tomondan bizni o‘qqa tuta boshladilar. Tars etgan birinchi o‘q ovozi sal bo‘lmasa meni egardan uchirib yuboray dedi (uyat-e!). Egar qoshini mahkam ushlab, beixtiyor engashib oldim-da, jilovni siltadim. Biz haligi nemis o‘ligi yotgan zovur yoni bilan kelgan tomonimizga qarab qochdik, shoshganimizdan qishlog‘imizdan ham o‘tib ketibmiz. So‘ngra qaytdik. Otdan tushdik. Otlarni ikki kishiga qoldirib, to‘rttamiz haligi zovur tomon ketdik. Hammamiz engashib olib, zovur ichi bilan yuraverdik. Olisdanoq o‘lgan nemisning kalta qo‘njli sarg‘ish etik kiygan oyoqlariga, bukilgan tizzalariga ko‘zim tushdi. Men, go‘yo, uxlab yotgan odam uyg‘onib qolmasin deganday, nafasimni chiqarmay, qo‘rqa-qo‘rqa yonidan zo‘rg‘a o‘tdim. Ostidagi ko‘m-ko‘k nam o‘t toptalib qolibdi...

Biz zovurga joylashib oldik; bir necha daqiqadan keyin kuygan zavodning xarobalari orqasidan to‘qqizta nemis otliq askari tizilishib chiqdi...

Men ularni kiyimidan bildim. Ofitseri olg‘a o‘tib ovozi boricha bir nima deb baqirdi, otryad biz tomonga ot qo‘ydi. Sheriklarim meni, yo‘ng‘ichqa bog‘lashga kelib qarashgin, deb chaqirishyapti. Borish kerak.

*31-avgust.*

Men qanday qilib, umrimda birinchi marta odamga qarata o‘q uzganimni yozib tugatmoqchiman. Nemis otliqlari bizning ustimizga ot qo‘ygan edilar (hozir ham ularning ko‘kimtir mundirlari, g‘adir-budur, yaltiroq mis tugmalari, voronka shaklidagi yaltiroq bosh kiyimlari, bayroqcha taqilgan, lopillagan nayzalari ko‘z o‘ngimdan ketmaydi).

Ulanlar hammasi qora to‘riq ot mingan. Men, negadir, zovur bo‘yidagi do‘nglikka qaragan edim, kichkina tillaqo‘ng‘izga ko‘zim tushdi. Qo‘ng‘iz, nazarimda o‘sib bora-bora bahaybat maxluqqa aylandi. Baloyi azimday o‘rmalab, cho‘p-chorlarni ag‘dar-to‘ntar qilib, kesakka tiralgan tirsagim yoniga keldi, yengimga tarmashdi, birpasda miltiq ustiga o‘rmalab chiqdi va undan qayish tasmaga o‘tib oldi. Men undan ko‘zimni ololmay, anqayib qolgan ekanman, Trundaleyning: «Otmaysizmi, bu nimasi?» degan ovozidan cho‘chib tushdim.

Men tirsagimni yerga mustahkam tirab oldim, chap ko‘zimni qisdim, lekin yuragim haligi tillaqo‘ng‘izga o‘xshab, borgan sari shishib ketayotganini seza boshladim. Mo‘ljal ramasidagi kemtikdan ko‘kimtir kulrang tusli mundirning qorasi ko‘rinar, miltiq uchidagi mushka dir-dir titrardi. Trundaley yonimdan turib o‘q uzdi. Men tepkini bosdim va otgan o‘qimning vizillaganini eshitdim. Aftidan, mo‘ljalni pastroq olibman shekilli, o‘q sakrab-sakrab kesaklarning changini o‘ynatib yubordi. Insonga qarata otgan birinchi o‘qim shu edi. Men mo‘ljalga olmasdan, oldimda nima borligini ko‘rmasdan, oboymani batamom bo‘shatdim. So‘nggi marta zatvorni (otish qurolining qulfovchi mexanizmi) sharaqlatib ko‘rdim,

o‘qi tamom bo‘lgani xayolimda ham yo‘q, ana shundan keyingina, nemislarga qaradim. Ular boyagi tartibni buzmay, ketlariga qaytgan edilar. Eng keyinda ofitser borardi. To‘qqiz kishi hammasi but, qora to‘riq ofitser otining sag‘rinisi hamda bosh kiyimining jezdan qilingan yaltiroq uchlarini olisdan ko‘rdim.

*2-sentabr.*

«Urush va tinchlik» romanida shunday bir joy bor: Tolstoy biri-biriga yov bo‘lgan ikki armiya orasidagi chegara to‘g‘risida, ya’ni, tiriklar bilan o‘liklar orasini ajratib turgan majhuliyat chizig‘i to‘g‘risida gapiradi. Nikolay Rostov xizmat etgan eskadron hujumga o‘tib ot qo‘yadi, ana o‘shanda Rostov shu chiziqni fikran chamalab ko‘radi. Romanning shu joyi bugun menga ravshan bo‘lib, qayta-qayta esimga kelaverdi, chunki bugun tong mahalida biz nemis gusarlariga hujum qilgan edik... Ularning artilleriya bilan yaxshi ta’minlangan qismlari ertalabdan beri bizning piyoda askarlarimizni orqaga surib kelmoqda edi. Men askarlarimizning qoch-qochga tushganlarini ko‘rdim, bular 241- va 273-piyoda askar polklari bo‘lsa kerak. Yetarli darajada oldindan artilleriya tayyorgarligini ko‘rmay turib, ikki polkni noo‘rin hujumga solinganligi natijasida, askarlar dushmanning kuchli o‘q bo‘roniga dosh berolmay, dovdirab qolgan-u, qariyb uchdan bir qismidan ayrilib qochgan. Bizning piyoda askarlarimizni nemis gusarlari quvib kelardi. Ana shu mahalda o‘rmonda, tor yo‘l bo‘ylab joylashgan bizning zaxira polkimiz ishga solindi. Tafsiloti xuddi shu bugungidek esimda. Biz saharda, soat ikkidan oshganda Tishvichi qishlog‘idan chiqdik. Tong qorong‘isi. Hamma yoqdan qarag‘ay daraxtlari va suli ekinlarining o‘tkir hidi anqirdi. Polk sotnyalarga bo‘linib borardi. Yo‘ldan chap tomonga burilib ekinzor orasidan ketdik. Otlarimiz pishqirib qadam tashlashar, suliga tushgan shudringni tuyoqlari bilan sachratishardi.

Ustimizda shinel bo‘lsa ham badanimiz uvushardi. Polk dalada uzoq sandiraqlab yurdi, oradan bir soat o‘tgandan keyin bir ofitser ot choptirib keldi-da, komandirga shtab buyrug‘ini topshirdi. Keksa komandirimiz norozi ohangda komanda berdi, polk burilib, to‘ppa-to‘g‘ri o‘rmonga kirdi. Vzvod kolonnalari tor yo‘lga sig‘ishmay

tiqilib qolgan edi. Bizdan chaproqda, qayerdadir jang bo‘layotgani aniq eshitilardi. Gumburlashiga qaraganda, nemislar bir talay to‘pni ishga solganga o‘xshardi. To‘p ovozlari dam-badam o‘zgarib turardi; nazarimizda xuddi shu tepamizdagi xushbo‘y qarag‘ayning barglari yonayotganga o‘xshardi. Kun chiqquncha quloqlarimiz dikkaygan edi. So‘ngra, «ura» degan bo‘shang, ayanchli bir ovoz ko‘tarildi-yu, darrov jimib qoldi, tarillatib ketma-ket o‘q chiqargan pulemyotlar sukunat bag‘rini teshib o‘tdi. O‘sha daqiqada miyam g‘ovlab, nimani o‘ylashni bilmay qolgan edim; o‘sha onda ko‘zimga halqa-halqa saf tortib hujumga kirgan sonsiz-sanoqsiz piyoda askralarimiz ravshan ko‘rindi.

Chalpaknusxa ko‘kimtir furajka kiygan, bukchaygan kulrang gavdalar, oyoqlaridagi qo‘nji kalta askarcha qo‘pol etik bilan kuzakda yer shibbalagan bechoralar ko‘z oldimdan o‘tar va bu ter bosgan tirik odamlarni qirib tutdek to‘kayotgan nemis pulemyotlarining xirillagan qahqasini eshitardim. Ikki polk miltig‘ini tashlab duv etib qochgan edi. Bir polk nemis gusarlari ularni izma-iz quvib kelardi. Biz nemislarning yonbosh tomonida, 300 sarjin keladigan joyda edik. Komanda berildi. Ko‘z ochib-yumguncha safdar-saf bo‘ldik. Insonni jilovlab oluvchi «marsh-marsh!» so‘zi quloqqa kirdi-yu, o‘qdek uchib ketdik. Otimning qulog‘i chakkasiga shu qadar qapishib ketganki, nazarimda qo‘l bilan ajratib bo‘lmasdi. Qayrilib qaradim – orqada polk komandiri bilan ikki ofitser kelyapti. Ana, tirik bilan o‘lik orasidagi chiziq shu ekan-da. Eng uchiga chiqqan telbalik mana shu ekan!

Nemis gusarlarining safi buzildi, ular orqaga qaytdilar. Yuzboshi Cherensov mening ko‘z oldimda nemis gusarini qilich bilan chopib tashladi. Oltinchi sotnyadan bir kazak nemisni quvlaganini, jazavasi tutib uning otiga ustma-ust qilich solganini ko‘rdim. Har qilich solganda otning sag‘risidan bir parcha terisi ko‘chib tushardi... Yo‘q, chidab bo‘lmaydi! Bunga nima desa bo‘ladi! Qaytib kelganimizdan keyin, men Cherensovni ko‘rdim: hozir u ot ustida emas, odam o‘ldirib kelib, mana endi bemalol preferans[14] o‘ynamoqda. Aft-angori joyida, xayoli qartada, dimog‘i chog‘. Yuzboshi Cherensovdan hali ko‘p ish chiqadi. Iste’dodli odam!

*4-sentabr.*

---

[14] *Preferans* – qarta o‘yini. (Tarj.)

Biz dam olyapmiz. 2-korpusning 4-diviziyasi front tomon siljimoqda. Kobilino degan joyda turibmiz. Bugun ertalab 11-kavaleriya diviziyasining qismlari hamda ural kazaklari biz turgan joydan o'tib ketdilar. G'arb tomonda jang ketyapti. Uzluksiz gumbur-gumbur. Tushlik ovqatdan keyin gospital yoniga bordim. Men borgan zamon aravalarda yaradorlarni keltirishdi. Sanitarlar to'rt g'ildirakli bir aravadan yaradorlarni olayotib, bemalol kulishyapti. Yaqinlariga bordim. Novcha, cho'tir askar sanitar yordami bilan aravadan tusharkan goh dodlaydi, goh iljayadi. «Mana, ko'rdingmi, kazak bola, – dedi menga u, – orqamning dabdalasini chiqarishdi. Bir emas, to'rtta pitra tegdi-ya». Sanitar undan «To'p o'qi orqa tomoningizda portladimi?» deb so'radi. «Orqa tomonda emas, o'zim orqamni qilib hujumga kirgan edim». Uychadan tibbiy hamshira chiqdi. Men unga qaradim-u, a'zoyi badanim qaltirab aravaga suyanib qoldim. Yelizavetaning xuddi o'zginasi-ya. Ko'z-u qosh, yuz-u burun, sochlar – hammasi o'shanikiday. Hattoki, ovozi ham o'xshaydi. Yoki menga shunday tuyuldimikin? Endi duch kelgan xotinni Lizaga o'xshataversam ajab emas.

*5-sentabr.*

Kun-u tun otlarni arqonlab boqib chiqdik, hozir men yana ot boqishga boraman. Shalog'im chiqib, adoyi tamom bo'ldim. Karnaychi ot egarlashga surnay chalyapti. Shu topda karnaychini jon deb otib tashlardim-da!..»

* * *

Sotnya komandiri polk bilan aloqa bog'lash uchun Grigoriy Melexovni shtabga yubordi. Yaqindagina jang bo'lgan joydan o'tib borayotgan Grigoriy katta yo'l bo'yida yotgan bir kazakning o'ligini ko'rdi. O'lik mallasoch boshini ot tuyoqlari ostida o'yilib ketgan tosh yo'l ustiga qo'yib yotar edi. Grigoriy otdan tushdi, burnini chirt yumib (murdadan dimog'ni yoradigan darajada qo'lansa hid kelardi), yonlarini kavladi. Chalvarining cho'ntagidan mana shu daftarcha, safsar qalam qoldig'i va hamyoni chiqdi. O'qdonini belidan yechib oldi, ko'z qiri bilan oqargan yuziga qarab qo'ydi;

betlari ilviragan, iriy boshlagan edi. Ikki chakkasi hamda qanshar atrofi ho'l, duxoba singari qorayib ketgan, peshonasidagi jonsiz va o'ychan ajinlar qop-qora changga to'lgan edi.

Grigoriy o'likning cho'ntagidan chiqqan batist dastro'mol bilan yuzini yopdi va orqasiga qarab-qarab shtabga jo'nadi. Daftarchani shtabdagi mirzalarga topshirdi, mirzalar yig'ilishib uni qayta-qayta o'qidilar, birovning kalta umri va dunyoviy zavqlarini mayna qilib toza kuldilar.

## XII

11-otliq diviziya Leshnyuvni ishg'ol etgandan keyin Stanislavchik, Radzivillov, Brodi shaharlaridan jang bilan o'tdi va 15-avgustda Kamenka-Strumilovo shahari yonida yasov tortdi. Uning orqasidan armiya kelmoqda, eng muhim strategik uchastkalarga piyoda askarlar to'planmoqda, chorraha joylarga shtablar o'rnashmoqda va aravalar tizilishmoqda edi. Front boltiq dengizidan tortib, xuddi sirtmoq singari cho'zilgan edi. Shtablarda keng miqyosda hujum boshlash plani ishlanmoqda, generallar kartadan bosh ko'tarmas, ordinarets (komandir topshiriqlarini bajaruvchi, aloqachi askar)lar jang to'g'risidagi buyruqlarni tashib, otdan tushmasdilar, yuz minglab askar o'z ajalini qidirib yo'lga chiqqan edi...

Dushman otliq askarlaridan iborat yirik bir qism shahar tomon siljiy boshladi, degan xabarni razvedkachilar keltirib turardi. Yo'l yoqasidagi daraxtzorlarda otishmalar bo'lar, posbonlikda yurgan kazaklar dushman razvedkalari bilan to'qnashib jang qilishardi.

Grigoriy Melexov akasi bilan xayrlashgandan beri xayolparastlik kasalidan qutulish va avvalgi dimog'i chog' holatiga qaytish uchun shunchalik harakat qilsa ham ilojini topolmadi. Zapasdan kelgan so'nggi sotnyani polkka qo'shdilar: bular hammasi uchinchi navbatdagi kazaklar edi. Shulardan biri – Kazanskaya stanitsalik Aleksey Uryupin degan kazak Grigoriyning vzvodiga qo'shildi. Uryupin gavdasi sal bukchaygan, ostki jag'i katta, qalmoqchasiga mo'ylov qo'ygan novcha odam edi; uning chaqnagan, dadil ko'zlari doim kulib turar, qarimay turib, tepa sochi to'kilib, boshi yiltirab qolgan,

tap-taqir dukki boshining ikki chakkasida siyrakkina malla sochlari hurpayib turardi, xolos. Kazaklar dastlabki kundanoq unga Kokildor degan laqab qo'yib olishdi.

Brodi yonida bo'lgan jangdan keyin polkka bir sutka dam berildi. Grigoriy Kokildor bilan bir uyga tushgan edi. Ikkisi gaplashib qoldilar.

– Sen, Melexov, qandaydir, ivigan lattaga o'xshaysan.

– Lattaga? – deb qovog'ini soldi Grigoriy.

– Kasalmand odamga o'xshab karaxt bo'lib yurasan, – deb tushuntirdi Kokildor.

Ikkisi otlariga yem yedirayotib, oxur yonida gurunglashar, ko'hna devorga suyanib tamaki chekishardi. Ko'chada to'rtta-to'rttadan bo'lib o'tayotgan gusarlar ko'rinar, hali tashib olinmagan o'liklar devor taglarida yotardi (avstriyaliklarni surib chiqilayotganda shu chet yoqa ko'chalarda jang bo'lgan edi), o't ketgan sinagoganing[15] xarobalari ostidan qo'lansa tutun burqsab chiqardi. Rangbarang tusga kirib tovlangan kunbotar paytida shahar xarobalari xunuk manzara tashkil qilgan edi.

Grigoriy Kokildorga qaramasdan:

– Men kasal emasman, – dedi-da, tupurinib oldi.

– Bekor aytibsan! Ko'rib turibman-u!

– Nimani?

– Seni vahima bosyapti, mishiqi? O'limdan qo'rqyapsanmi?

– Senda es yo'q, – dedi Grigoriy kinoyaomuz, so'ngra ko'zlarini qisib tirnoqlariga qarab qoldi.

Kokildor o'smoqchilab Grigoriyning yuziga qattiq tikildi-da, dona-dona qilib:

– Ayt-chi: sen odam o'ldirdingmi? – deb so'radi.

– O'ldirdim. Xo'sh?

– Ko'ngling behuzurmi?

– Behuzur? – deb miyig'ida kuldi Grigoriy. Kokildor qilichini qinidan sug'urib oldi.

– Boshingni shartta uzib olaymi?

– Innaykeyin-chi?

---

[15] *Sinagoga* – yahudiylar ibodatxonasi. (Tarj.)

– O‘ldiraman tashlayman, pinagimni ham buzmayman, menda rahmdillik yo‘q! – Kokildorning ko‘zlari kulib turardi, biroq, Grigoriy uning ovozidan, burun kataklarining yirtqich hayvonlarniki-day titrab turishidan jiddiy gapirayotganini tushundi.

Grigoriy Kokildorning basharasiga qattiq tikilib:

– Sen vahshiy, tentak odamsan, – deb qo‘ydi.

– Senda yurak degan narsa yo‘q ekan. Baklanovchasiga qilich solishni bilasanmi? Qarab tur!

Kokildor bog‘chada o‘sgan qayin daraxtlardan keksasini topdida, ko‘zi bilan mo‘ljalga olib tikka boraverdi. Har kafti kurakday keladigan serpay va uzun qo‘llari qimir etmay osilib qolgan edi.

– Qara!

U qilichni sekin ko‘tarib, cho‘nqayib olib, xirsday kuch bilan qiyasiga shartta qilich soldi, yerdan ikki gaz balandroq joyidan cho‘rt kesilib tushgan daraxt qular ekan, shoxlari bilan oynasiz deraza romlariga ilina-ilina, devorni tirnab, nihoyat, yerga yiqildi.

– Ko‘rdingmi? O‘rganib ol! Baklanov degan ataman o‘tgan, eshitganmisan? Qilichining ariqchasiga simob quydirgan, uncha-muncha odam ko‘tarib bo‘pti, ammo bir hamla bilan otni ikki nimta qilib tashlayvergan. Ana!

Grigoriy qilich urishning murakkab usulini anchagacha o‘rgana olmadi.

– O‘zing baquvvatsan-u, qilich solishga sira shuding yo‘q. Mana bunday qilish kerak, – deb o‘rgatardi Kokildor. U nimani mo‘ljallasa, qilichi qiyalab borib cho‘rt kesib tashlardi.

– Odamni tap tortmay chopaver. Eti yumshoq bo‘ladi, xamirday, – deb o‘rgatardi Kokildor ko‘zlari bilan kulib. – Sen, nega, nechuk degan gaplarni xayolingga ham keltirma. Sen – kazaksan, sening vazifang surishtirmay chopib o‘ldiraverish. Jangda dushmanni o‘ldirsang g‘ozi bo‘lasan. Har bir o‘ldirgan odaming uchun xudo bitta gunohingdan o‘tadi, ilon o‘ldirish ham savob. Hayvonot jinsini aytaylik, buzoqni yoki boshqa jonivorni bekordan bekorga o‘ldirib bo‘lmaydi, lekin odamni qiraver. Eng harom narsa – odam... Falokatning naq o‘zi, yer yuzini iflos qiladi, xolos, shumg‘iyadan battar.

Grigoriy e'tiroz bildirmay qovog'ini chimirib, churq etmay turaverdi.

Grigoriy otlarning, Kokildordan hurkishini sezib hayron bo'la boshladi. Agar u oxur yoniga kelsa, otlar quloqlarini chimirib, go'yoki odam emas, biron hayvon kelayotganday, bir yerga to'planib olishardi. Stanislavchikning yonidagi o'rmonzor va botqoqlik joylardan hujumga o'tishda kazaklar otdan tushishga majbur bo'ldilar. Ot yetaklovchilar otlarni jilovidan ushlab, panaroq joyga o'tdilar. O'shanda Kokildorga ham ot yetaklash navbati kelgan edi, biroq u bu ishdan bosh tortdi.

– Uryupin, bu nimasi, itvachcha, nega qiyshanglaysan? Nega otlarni olmaysan? – deb o'dag'ayladi unga vzvod uryadnigi.

– Mendan ot hurkadi. Xudo ursin! – dedi u kulang'ich ko'zlarini opqochib.

U biron marta ot yetaklovchi bo'lgan emasdi. Lekin o'z otiga yaxshi qarar, hamisha silab-siypab turardi, shunga qaramay, har safar u otining oldiga borganda, hatto, u ikki qo'lini ikki yoniga qilib qimirlatmasa ham oti tipirchilay boshlar, sag'risi-yu orqalarini titroq bosib ketardi, bunga Grigoriy doim razm solib yurardi.

– Hoy, taviya, nega sendan otlar bezillaydi? – deb so'radi bir kuni Grigoriy.

– Kim bilsin; – Kokildor kiftini qisdi. – Otga juda rahmdilman.

– Mast odamning og'zidan hidi kelib turadi, shuning uchun ot qo'rqadi, sen soppa-sog'san.

– Men toshyurakman, otlar buni sezadi.

– Sen berahm odamsan, bir hisobda, senda yurak nima qilsin, uning o'rnida tosh bo'lsa, ajab emas.

– Balki shundaydir, – deb darhol ko'na qoldi Kokildor.

Kamenka-Strumilovo shahri yonida uchinchi vzvodning barcha kazaklari vzvod ofitseri bilan razvedkaga chiqdilar: bir kun oldin dushman tarafidan qochib o'tgan chex, avstriya qismlari qayerda joylashganini hamda Goroshi-Stavinskiy liniyasi bo'ylab qarshi hujum boshlashga mo'ljallanganini qo'mondonlikka xabar qildi; shuning uchun dushman qismlari keladigan yo'lni kecha-yu kunduz qattiq

nazorat ostiga olish talab etilardi: vzvod ofitseri shu maqsadda vzvod uryadnigi bilan to‘rt kazakni o‘rmon chetiga qo‘ydi-da, o‘zi qolgan odamlar bilan tepa orqasidan ko‘ringan cherepitsa tomlik allaqanday yakka imorat tomon jo‘nadi.

O‘rmon yoqasidagi mezanasi nayzali kichkina ibodatxona yonida Grigoriy Melexov, uryadnik, yosh kazaklardan – Silantyev, Kokildor va Mishka Koshevoylar qoldi.

– Yigitlar, otdan tushinglar, – deb buyurdi uryadnik. – Koshevoy, sen otlarni huv anavi qarag‘aylar orqasiga olib o‘t, ha-ha, o‘sha qalin qarag‘ayzorga.

Qurib singan qarag‘ay tagida kazaklar yonboshlashib tamaki chakishar, uryadnik durbinni ko‘zidan olmasdi. Ulardan ikki yuz qadam chamasi nariroqda o‘riqsiz qolib doni to‘kilib ketgan bug‘doyzor to‘lqinlanardi. Donini shamol uchirib ketgan puch boshoqlar bukchayib, hasratlashayotganday shitirlashardi. Kazaklar, gurunglashib yarim soatcha yotdilar. To‘xtovsiz otilayotgan to‘p ovozlari shaharning o‘ng tomonidan gumburlab eshitilardi. Grigoriy o‘rmalab ekinzorga kirdi, doni to‘liq boshoqlardan terib oldi-da, uvaladi va pishib, toshday qotib ketgan donlarni chaynay boshladi.

– Avstriyaliklar! – dedi shivirlab uryadnik.

– Qani? – deb so‘radi Silantyev entikib.

– Ana, o‘rmondan chiqishyapti. O‘ng tomonga qara!

Bir to‘p otliq bir chekkadagi o‘rmonchadan chiqib kelaverdi. Ular to‘xtashib, chakalakzor orasidagi keng dalani ko‘zdan kechirib, so‘ngra, kazaklar tomon kelaverdilar.

– Melexov! – deb chaqirdi uryadnik. Grigoriy qarag‘ay tagigacha emaklab bordi.

– Yaqinroq keltirib turib baravariga o‘q uzamiz. Yigitlar, miltiqlaringni shaylab tur! – deb shivirladi hovliqqan uryadnik.

Otliqlar o‘ngroqdan ot solib sekin-asta kelishardi. To‘rt kazak qarag‘ay tagida nafas chiqarmay tek yotardi.

– ...auxt, kapral! – degan qo‘ng‘iroqday tovushni shamol uchirib keldi.

Grigoriy boshini sal-pal ko‘tarib qaradi: ko‘ksiga shnur bog‘ich tikilgan, chiroyli kurtka kiygan oltita vengr gusari zich bo‘lib kel-

moqda edi. Katta qora ot mingan, karabin ushlagan eng oldindagi gusar pastak ovoz bilan do'rillab kulardi.

– Bos! – dedi uryadnik.

Paq-paq-paq! – o'qlar baravariga otildi. Taq-tuq-taq! – degan aks sado orqa tomondan keldi.

– Nima gap? – Cho'chib qichqirib yubordi qarag'ayzor orqasidagi Koshevoy va otlarga o'shqirdi. – Trrr, badbaxt! Quturdingmi? Tak-e, haromi! – Uning ovozi dadil, qattiq eshitilardi.

Gusarlar to'zishib, ekinzor ichi bilan qochishga tushdilar. Haligi semiz qora ot minib kelayotgan gusar osmonga o'q uzardi. Eng keyinda qolgan bittasi otning bo'yniga engashib, hadeb orqasiga qarar, chap qo'li bilan shapkasini ushlab chopardi.

Eng avval Kokildor irg'ib turdi, miltiqni o'rta belidan ushlab bug'doy poyalari orasida turtina-turtina olg'a yugurdi. Yuz sarjin chamasi narida yiqilgan ot, oyoqlarini tipirlatib, tepinib yotardi, uning oldida boshyalang vengr gusari lat yegan tizzasini uqalab turar edi. Kazaklar tepasiga kelib yetmayoq, olisdan bir nima deb baqirdi-da, qo'llarini ko'tarib turaverdi, u uzoqda ketayotgan o'rtoqlariga qarab-qarab qo'yardi.

Bu hodisa shu qadar tez ro'y berdiki, Kokildor asirni qarag'ay tagiga haydab kelgandagina Grigoriy es-hushini to'plab oldi.

Kokildor qo'pollik bilan asirining qilichini yulqib:

– Qani, yech buni? – dedi.

Asir shoshib qolganidan nima qilishini bilmay iljayardi. U jon deb kamarini yecha boshladi, biroq qo'llari qaltirab kamarbandini bo'shatishga kelmay qoldi. Grigoriy avaylab uning kamarini yechib berdi, o'shanda bo'ydor, lo'ppi yuz, mo'ysiz labining burchida zig'irday so'gali bo'lgan yoshgina gusar unga minnatdorlik izhor qilganday bosh qimirlatib iljaydi. U o'z yarog'idan qutulgani uchun suyunganday bo'ldi, kazaklardan ko'zini olmay, cho'ntagini kavlab charmdan qilingan tamaki xaltasini oldi, bir nimalar deb chuldirab, imo-ishora bilan chekishga taklif etdi.

– Siylayapti, – deb kuldi uryadnik, qog'oz axtarib cho'ntagiga qo'l suqar ekan.

– Tekin tamakini chekib qol! – deb hoholadi Silantyev.

Kazaklar tamaki o‘rab chekdilar. Trubkada chekiladigan o‘tkir tamakining qora tutuni darhol miyaga urdi.

– Miltig‘ing qayerda qoldi? – deb so‘radi yutoqib tamaki tortayotgan uryadnik.

– Mana, miltig‘i, – dedi Kokildor yelkasiga osib olgan miltiqning sariq qayishini ko‘rsatib.

– Buni shtabga olib borish lozim. Shtabdagilar uchun «tilchi» juda zaril bo‘lsa kerak. Kim haydab boradi, yigitlar? – deb so‘radi yo‘tali tutgan uryadnik, baqraygan ko‘zlari bilan kazaklarga bir-bir qarab.

– Men olib boraman, – dedi Kokildor talabgor bo‘lib.

– Hayda bo‘lmasa.

Avzoyiga qaraganda asir tushundi shekilli, lablarini qiyshaytirib ayanchli tarzda iljaydi; o‘zini bosib oldi, shoshib-pishib cho‘ntagini ag‘darib, ezilgan ho‘l shokoladni kazaklar qo‘liga tutqiza boshladi.

– Rusin ix... rusin... nixt avstrits! – deb chuldirardi. So‘zlarni buzib-buzib talaffuz etar, kulgili imo-ishoralar qilar, hamon kazaklarga ezilgan xushbo‘y shokoladni uzatib turardi.

– Boshqa yarog‘ing bormi? – deb so‘radi uryadnik. – Sen bekorga chuldirayverma, baribir gapingga tushunmaymiz. Livorvert bor? Paq-paq bor? – Uryadnik barmog‘i bilan tepki bosish harakatini qilib ko‘rsatdi.

Asir jon-jahdi bilan bosh chayqadi.

– Yo‘q! yo‘q!

U hamma yog‘imni tintiy beringlar deganday ishora qildi. Uning lo‘ppi betlari titrardi. Shimining tizzasidagi yirtiqdan qon oqar, qizg‘ish badanining shilingan joyi ko‘rinib turardi. U hadeb dastro‘molini jarohatiga bosar, yuzini burishtirar, labini chapillatib tinmay gapirardi. Shapkasi o‘lgan otining yonida qolgan edi, o‘sha yerga borib ko‘rpacha, shapka hamda xotira daftarini olib kelishga ruxsat so‘rardi, daftarchada qarindosh-urug‘larining surati bor, axir! Uryadnik uning nima deyayotganini tushunishga harchand urinsa ham tushunolmadi, keyin umidini uzib qo‘l siltadi-da:

– Hayda! – dedi.

Kokildor Koshevoydan o‘z otini olib mindi va miltiq qayishini tuzatayotib qo‘l bilan imo qildi:

– Qani yur, askar bola, seniyam urishadi deb yuborishgan-da, voy onayizor-ey!

Uning kulganiga erib asir ham iljaydi, hatto ot yonida ketayotib, Kokildorni mensimaganday, boldiriga xushomadgo‘ylik bilan qoqib qo‘ydi. Lekin u jahl bilan qo‘lini siltab tashladi, ot jilovini tortdi-da, uni oldiga solib oldi.

– Yur, dog‘uli! Hali men bilan o‘ynashmoqchimisan?

Asir o‘z aybini sezganday shoshqaloqlab qoldi, hazilni yig‘ishtirib, orqada qolgan kazaklarga dam-badam qarab, yo‘lga tushdi. Uning oq malla jingalak sochlari dikkayib turar edi. Qiyofasi – yelkaga tashlagan gusarcha guldor kurtkasi, hurpayib turgan oq malla sochlari, dadil va shaxdam qadam tashlashlari – Grigoriyning miyasiga mahkam o‘rnashib qoldi.

– Melexov, otning egar-jabdug‘ini opkel, – deb buyurdi uryadnik va barmoqlarini kuydira boshlagan papiros sob bo‘lgani uchun achina-achina, tuflab o‘chirdi.

Grigoriy o‘lgan otning egarini oldi, o‘sha yerda yotgan shapkani negadir qo‘lga olib qaradi. Astarini hidlab ko‘rdi, arzonbaho sovun va ter hidi dimog‘iga urildi. Egarni qo‘ltiqlab, gusarcha shapkani avaylab ushlab qaytdi. Kazaklar qarag‘ay tagida cho‘nqayib olib sumkalarini titkilashar, umrlarida ko‘rmagan g‘alati egarni tomosha qilishardi.

– Tamakisi yaxshi ekan, yana bir chekim so‘rab olsak bo‘lar edi, attang, – deb achinardi Silantyev.

– Rost aytasan, yaxshi ekan.

– Biram shirinki, tomoqni qirmay yog‘day o‘tib ketaveradi... – Uryadnik xo‘rsinib, tupugini yutdi. Oradan bir necha minut o‘tgach, qarag‘ay orqasidan ot tumshug‘i ko‘rindi. Kokildor qaytib keldi...

– Xo‘sh? – uryadnik hadiksirab irg‘ib o‘rnidan turdi. – Qochirdingmi?

Kokildor qamchisini likillatib yaqinroq keldi-da, otdan tushdi, kerishib oldi.

– Avstriyalikni nima qilding? – deb so‘radi uryadnik uning ustiga bostirib kelib.

– Buncha o‘dag‘aylaysan? – deb baland keldi Kokildor. – Qochdi... qochib qutulmoqchi bo‘ldi...

– Qochirib yubordingmi?

– Yo‘lga chiqdik, birdaniga u juftagini to‘g‘rilab... Chopib tashladim.

– Yolg‘on! Yolg‘on! – deb baqirdi Grigoriy. – Bekordan bekorga o‘ldirgansan!

– Nega shovqin ko‘tarasan? Nima ishing bor? – Kokildor qonga to‘lgan ko‘zlarini Grigoriyga tikdi.

– Ni-ma-a-a? – Grigoriy sekin o‘rnidan turdi va qaltiroq qo‘llari bilan yoni-berini timirskilay boshladi.

– Dahling bo‘lmagan ishga aralashma! Tushundingmi, a? Aralashma! – dedi uzil-kesil qilib Kokildor.

Grigoriy miltiq qayishiga chang solib, uni kiftiga olib o‘xtaldi.

Uning barmog‘i qaltirab tepkini topa olmas, rangi quv o‘chgan, yuzlari tirtishib ketgan edi.

Uryadnik hay-haylaganicha Grigoriy tomon yugurdi:

– Haddingdan oshma-a!

O‘q uzilmasdan burun uryadnik uni turtib yubordi. O‘q qarag‘ay shoxlarini shitirlatib, «shuv» etib ketdi.

– Bu nimasi, axir! – deb baqirdi Koshevoy.

Og‘zi ochilib qolgan Silantyev, angrayganicha o‘tirardi.

Uryadnik Grigoriyning ko‘kragidan itarib, qo‘lidan miltig‘ini tortib oldi, yolg‘iz Kokildor pinagini buzmay, oyoqlarini kerib, chap qo‘lini kamariga qilib, boyagisicha jim turardi.

– Tag‘in ot.

– O‘ldiraman!.. – deb yulqindi Grigoriy.

– Sizlarga nima bo‘ldi?.. Bu nimasi? Sudga tushmoqchimisiz, otilgingiz keldimi? Yarog‘ni olib qo‘y!.. – deb baqirdi uryadnik. U Grigoriyni itarib tashlab, qo‘llarini kerib ikkovining orasiga kirdi.

– Yolg‘on, o‘ldirolmaysan! – deb miyig‘ida kuldi Kokildor kerilgan oyog‘ini likillatib.

Qosh qorayib, orqaga qaytib kelayotganlarida Grigoriy o‘rmon ichida yo‘l ustida yotgan o‘likni ko‘rdi. Boshqalardan oldinroq ot choptirib bordi, pishqirgan otining jilovidan tortib murdaga tikildi: u barra ko‘kat ustida, qo‘llarini kerib, yuzini ko‘kat ustiga qo‘yib, mukka tushib yotardi. Kuzgi yaproq kabi sarg‘ayib ketgan kafti o‘t ustida yiltillab ko‘rinardi. Dahshatli zarb – aftidan, orqa yog‘idan

solingan qilich zarbi asirni kiftidan to beliga dovur qiyasiga ikki nimta qilib tashlagan edi.

Uryadnik o‘lik yonidan o‘tarkan, uning qiyshayib qolgan boshiga, hurpaygan oq mallasochlariga qo‘rqa-pisa ko‘z qirini tashlab:

– Nobud qilibdi-da, – deb qo‘ydi.

Kazaklar o‘z qismlari turgan joyga yetguncha churq etmadilar. Qorong‘i tusha boshlagan, shamol g‘arb tomondan qora-quroq bulutlarni haydab kelardi. Botqoqlikning allaqaysi yog‘idan achigan qora balchiq isi, chirigan narsalarning, zahob tuproqning qo‘lansa hidi kelardi; olisda suv buqasi bo‘kirar edi. Jabduqlarning shiqirlashi, qilichning uzangiga tegib bexosdan taraqlashi yoki ot tuyoqlari ostidagi qarag‘ay shoxlarning qisirlagani sukunatni buzib turardi. Botgan quyoshning yo‘l ustidagi qarag‘ay tanalariga tushgan shu’lasi so‘nib bormoqda edi. Kokildor ustma-ust tamaki chekardi. Miltillagan cho‘g‘ shu’lasi sigarani mahkam qisgan qop-qora qubba tirnoqli yo‘g‘on barmoqlarini g‘ira-shira yoritardi.

Bulut o‘rmon ustini qoplab kelar, oqshom paytining ta’riflab bo‘lmaydigan xazin va g‘amgin manzarasini yanada ma’yus tusga kirgizib ko‘rsatardi.

## XIII

Shaharni ishg‘ol etish operatsiyasi erta sahardan boshlandi. Ikki qanoti va orqa tomonida otliq askarlar turgan piyoda qismlar, tongotar mahalida o‘rmon tomondan hujum boshlashlari kerak edi. Allaqayerda ishkal chiqib, ikki polk piyoda askar o‘z vaqtida yetib kelolmadi; 211-o‘qchi polk chap qanotga o‘tish to‘g‘risida buyruq oldi; ikkinchi bir polk aylanib o‘tayotganda o‘z artilleriyasi bilmasdan uni to‘pga tutdi; misli ko‘rilmagan tartibsizlik ro‘y berib, boshboshga qovushmay, planlar barbod bo‘ldi, hujumchilar batamom qirilmaganda ham, hujum muvaffaqiyatsiz tugash xavfi ostida qoldi. Piyoda askarlar saflarini boshqatdan tuzatib olguncha, kimningdir buyrug‘i bilan kechasi botqoq yo‘ldan yurgan to‘p va to‘pxonalarni artilleriyachilar loydan chiqarib olguncha, 11-diviziya hujumni boshlab yubordi. Butun tevarak-atrof o‘rmonzor va botqoqlikdan iborat bo‘lgani uchun dushmanga keng miqyosda hujum qilishning

iloji topilmadi, hatto ba'zi uchastkalarda bizning otliq askarlarimiz vzvod-vzvodga bo'linib hujum qilishga majbur bo'ldilar. 12-polkning to'rtinchi va beshinchi sotnyalari rezervda qoldirilgan, qolganlari hujumga kirgan edilar. Oradan chorak soat o'tgach, vahimali gumburlashlar boshlandi, olamga larza soluvchi hayqiriq sadosi orqada qolganlarning qulog'iga yetib keldi.

«– Rrraaaa-raaa-rrraaa!..»

– Biznikilar qo'zg'aldi!

– Yugurishdi.

– Pulemyotning tarillashiga quloq sol!

– Biznikilarni qirayotgan bo'lsa kerak...

– Jim bo'lib qolishdimi, a?

– Aftidan, yaqinlab qolishdi.

– Biz ham nasibadan quruq qolmasmiz, – deb qo'yishardi orasira kazaklar.

Kazak sotnyalari o'rmon ichidagi sayxon joyda kutib turishardi. Tikka o'sgan qarag'aylarning balandligidan ko'z tinib ketardi. Kazaklarning yonlaridan bir rota askar shipillab o'ta boshladi. Ixcham kiyingan oliftanamo feldfebel orqaroqda qolib, eng so'nggi qatorlarni yonidan o'tkazar ekan:

– Orani buzma! – deb baqirib qo'ydi.

Rota suvdonlarini taraqlatib, chakalakzor ichiga kirib ketdi.

Juda olisda, chuqurlikdagi daraxtzorning orqa tomonidan kelgan suron sadosi tobora uzoqlashib, sekinroq eshitilardi: «Rraaaaa-urrr-rrraaa!.. A-ha-haa!..» Hayqiriq birdaniga to'xtab qoldi. Yurakni g'ash qiladigan dahshatli sukunat cho'kdi.

– Ana, endi borib yetishdi!

– Ag'dar-to'ntar, sanch-sanch boshlandi.

Kazaklar butun diqqatini to'plab quloq solishar, biroq churq etgan ovoz kelmasdi. Ung qanotdagi hujumchilarni avstriyaliklar artilleriyasi to'pga tutayotgani eshitilar, pulemyotlarning jag'i tinmas, quloqni teshguday bo'lib tarillardi.

Grigoriy Melexov vzvodidagi sheriklariga razm solib qaradi. Kazaklar asabiylashar, otlar xuddi so'na talaganday bezanglashardi. Kokildor furajkasini egar qoshiga ilib qo'yib ko'kargan yarg'oq

boshini artardi, Grigoriyning yonida turgan Mishka Koshevoy entikib-entikib, maxorka tutunini ichiga yutardi. Tevarak-atrofdagi hamma narsa aslidagidan kattaroqqa o'xshab, ko'zga ravshan ko'rinardi; ko'pincha tuni bilan uxlamay chiqilganda shu ahvol ro'y beradi.

Kazak sotnyalari uch soat chamasi rezervda turib qoldi. Otishma goh pasayar, goh yana avjiga chiqardi. Allaqanday bir aeroplan tarillab uchib keldi-da, ularning tepasida bir necha marta davra qildi. O'q yetmas balandlikda aylana-aylana, tobora yuqorilashib sharq tomonga uchib ketdi; undan pastroqda, ko'm-ko'k osmon bag'rida yorilgan shrapnellarning oqish tutini birdaniga yorishib ketardi: zenit to'plar aeroplanni o'qqa tutgan edilar.

Tushga yaqin rezervni ishga solishdi. Gusar ordinarets ot choptirib kelganda maxorkalar tamom bo'lgan, kazaklar kutaverib rosa xunob bo'lgan edilar. O'sha zahotiyoq to'rtinchi sotnya komandiri kazaklarni yo'lga olib chiqdi-da, allaqaysi go'rga boshlab ketdi (Grigoriyning nazarida orqa tomonga qaytganday bo'lishdi). Yigirma minut chamasi chakalakzor ichidan yurib borishdi: saflari buzilgan edi, jang suroni, otishmalar borgan sari aniqroq eshitilardi; shu yaqin oradagi allaqanday bir batareya orqa tomondan ustma-ust o'q uzardi, to'p o'qlari qaldirab, havoni yorib kazaklar tepasidan guvullab uchib o'tardi. O'rmonda adashib bo'linib ketgan kazaklar, nihoyat, tartibsiz holda ochiq joyga chiqib oldilar. Ulardan yarim chaqirim nariroq joydagi rus to'pchilarini venger gusarlari qilich bilan qirmoqda edi.

– Safga tiziling!

Kazaklar safga tizilib ulgurmasdanoq:

– Qilichni sug'ur, hujumga marsh! – komandasi berildi.

Ko'kish rangdagi qilichlar yalt-yult qilib ketdi. Kazaklar qamchi bosib, otlarini qushdek uchirib boradi.

Eng chetdagi to'pning otlari yonida oltitacha venger gusari o'ralashardi. Ularning biri hurkkan asov otlarni jilovidan tortib sudrar, ikkinchisi qilich bilan urib haydar, qolganlari otdan tushib, to'pni joyidan qo'zg'atmoqchi bo'lib g'ildirak kegaylariga yopishgan edilar. Dumi cho'ltoq jiyron biya mingan ofitser chetroqda ot

o‘ynatib buyruq berib turar edi. Vengerlar kazaklarni ko‘rdi deguncha, to‘pni tashlab qochishdi.

Otning cho‘zilib tashlagan har qadamini Grigoriy: «Shunday, shunday, shunday!» deb xayolan sanab borardi. Birdaniga u oyog‘i uzangidan chiqib ketganini, egarda omonat o‘tirganini payqadi, yuragini vahima bosib oyog‘i bilan uzangini qidira boshladi; engashib turib uzangini topdi-da, oyoq uchiga ilib oldi, boshini ko‘tarib to‘pga qo‘shig‘liq turgan olti otni ko‘rdi; haydovchisi chopib tashlangan, oldingi otning bo‘ynini quchoqlaganicha qolgan, ko‘ylagi qonga bo‘yalgan, miyasining qatig‘i chiqib ketgan edi. Ot jonsiz tanani g‘irchillatib bosib o‘tdi. To‘nkarilib tushgan o‘q yashigining yonida yana ikki to‘pchi yotardi, uchinchisi chalqanchasiga to‘p shotisi ustiga qulagan edi. Silantyev Grigoriydan o‘zib ketdi. Dumi cho‘ltoq biya mingan venger ofitseri uni tikka otib tashladi. Silantyev bir sapchib turdi-da, ko‘m-ko‘k osmonni ushlab qolmoqchi bo‘layotganday, qo‘llarini o‘ynatib ag‘darildi... Grigoriy qilich solishga qulayroq tomondan yetib borishini ko‘zlab, ot jilovini siltadi, lekin ofitser uning niyatini fahmlab o‘q uzdi. U to‘pponchasidagi o‘qni batamom Grigoriyga otib tugatdi-da, qilichini sug‘urdi. Ofitser qilichbozlikda ustaligidan, Grigoriyning zarbini uch karra osongina daf qildi. Grigoriy lablarini qiyshaytirib, uzangiga oyoqlarini tirab g‘oz turgan holda, to‘rtinchi marta hamla qildi (ikkisi yonma-yon uchib borishardi, ofitserning soqoli olingan, qoni qochgan tarang betlariga va mundir yoqasiga tikilgan nomeriga Grigoriyning ko‘zi tushdi), yolg‘ondakasiga tepadan qilich solmoqchi bo‘lib vengerni g‘aflatda qoldirdi-da, shartta qilich uchini tiqib oldi, ikkinchi zarba gardaniga – umurtqa suyagi tutashgan joyga kelib tushdi. Venger ofitserining qilich ushlagan qo‘li bo‘shashib jilovni qo‘yib yubordi, ilon chaqqanday buralib ko‘ksini kerib qaddini rostladi, sulayib egar qoshiga yiqildi. Grigoriy o‘z ustidan tog‘ tushib ketganday yengillashib, boshiga yana qilich soldi. Qilichi qulog‘ining ustrog‘idan tushib, yarim beligacha suyakka botganini ko‘rdi.

Grigoriyning boshiga orqa yoqdan kelib tushgan qaqshatqich zarb uni hushidan ketkazdi. U og‘ziga issiq sho‘rtang qon quyilganini, yiqila boshlaganini sezdi, yonbosh tomondagi ekinzor yerlar gir-gir aylanib, ustiga bostirib kelayotganga o‘xshardi.

Grigoriy yerga gursullab tushishi bilan bir nafas hushiga keldi. Ko'zini ochdi, lekin qon ko'zlarini qoplab olgan edi. Qulog'i tagida tapir-tupur tovushlar va otning hârsillab og'ir-og'ir nafas olgani eshitilardi. Grigoriy oxirgi marta ko'zini ochdi, allaqanday otning yallig'langan burun katagini, allakimning uzangidagi etigini ko'rdi. «Sob bo'ldim» degan fikr miyasiga kelib, yengil tortganday bo'ldi. Quloqlari shang'illadi, olamni qorong'ilik bosdi.

## XIV

Avgust oyining dastlabki kunlarida yuzboshi Yevgeney Listnitskiy leyb-gvardiyachi Ataman polkidan biror kazak armiya polkiga o'tib olishga jazm qildi. Bu to'g'rida u raport berib, yelib-yugurib, uch haftadan keyin harakatdagi armiya polklaridan biriga tayinlandi. Hujjatlari rasmiylashtirilgandan keyin, Petrograddan jo'nash oldidan otasiga ikki enlik xat yozib, buning sababini tushuntirdi.

«Dada, men Ataman polkidan frontdagi armiya safiga ko'chirilishimni so'rab ariza bergan edim. Bugun rasmiy qog'ozlarimni oldim, endi 2-korpus komandirining ixtiyoriga ketyapman. Mening bu qarorim sizni, har holda taajjubda qoldirishi mumkin, biroq quyidagi sabablar meni bunga majbur etdi: men o'zim yashagan muhitdan bezor edim. Paradlar, peshvoz chiqishlar, posbon bo'lib turish va shu singari saroy xizmati jonimga tegdi. Hammasi ko'nglimga urdi, jonli ish bilan shug'ullangim va... rostini aytsam – botirlik ko'rsatib nom chiqargim keladi. Har holda mening tomirimda shonli Listnitskiylar avlodining halol qoni jo'sh ursa kerak, deb o'ylayman. Men frontga jo'nayotirman. Sizdan fotiha so'rayman. O'tgan hafta imperatorni Stavkaga[16] jo'nashlaridan oldin ko'rdim. Men bu zotni jonimdan ortiq ko'raman. Men saroy ichkarisida posbonlikda turgan edim. U Rodzyanko bilan to'g'ri kelaverdi, yonimdan o'tarkan, menga ko'zlari bilan ishora qilib kulimsiradi va ingliz tilida: «Mana mening shonli gvardiyam. Vaqti-soatini topib shularni ishga solaman, Vilgelmning planlarini barbod etaman», dedi. Men institut qizlariga o'xshab uni sidqidildan yaxshi ko'raman. Yoshim

[16] Oliy bosh qo'mondon qarorgohi, shtabi. (Tarj.)

28 dan oshgan bo‘lsa ham, sizga buni uyalmay yozganim uchun taajjublanmang. Podshohning muborak ismini o‘rgimchak iniday o‘rab olgan saroydagi g‘iybat gaplar meni qattiq g‘azablantiradi. Men bu gaplarga inonmayman, inonishim ham mumkin emas. Tunov kuni men yasovul Gromovni sal bo‘lsa otib tashlagan edim, chunki hurmatsizlik qilib mening huzurimda imperator hazrat oliylarining sha’niga tegadigan gap gapirdi. Bu razolatdan boshqa narsa emas, men uning yuziga: «Tagi past kishilargina shu xil iflos gaplarni og‘ziga olishi mumkin», dedim. Janjalimizning tepasida bir necha ofitser bor edi. Fig‘onim chiqib, to‘pponchamni chiqardimda, ko‘rnamakka bir o‘q ketsa-ketar deb shartta otmoqchi edim, biroq o‘rtoqlarim oraga tushib meni qurolsizlantirdilar. Bunday axlatxonada yashash mening uchun kundan kunga og‘ir. Gvardiya polklarida, ayniqsa ofitserlar orasida haqiqiy vatanparvarlikdan asar qolmagan, hammasidan ham yomoni shuki, podshoh xonadoniga muhabbat yo‘q. Bular dvoryan emas, qandaydir qalang‘i-qasang‘ilar. O‘z polkimni tashlab ketishga meni majbur etgan sabablar shulardan iborat. Men o‘zim hurmat etmagan kishilar orasida yura olmayman. Gap shu bilan tamom. Ba’zi bir qovushmagan joylari bo‘lsa kechirgaysiz, chunki shoshib yozdim. Chamadonlarimni bog‘lab, komendantga ham boradiganman hali. Sog‘-salomat bo‘ling, dada. Armiyaga borgach, mufassalroq xat yozaman.

*O‘g‘lingiz Yevgeniy».*

Poyezd Varshavaga kechqurun soat sakkizda jo‘nar edi. Listnitskiy izvoshda vokzalga keldi. Petrograd orqada, havorang, ko‘kish tusda yiltiragan chiroqlar og‘ushida qolgan edi. Vokzal tiqilinch, g‘ovur-g‘uvur. Ko‘pchilik – harbiylar. Hammol Listnitskiyning chamadonini joylab berdi va choychaqa olgandan keyin ofitser janoblariga oq yo‘l tiladi. Listnitskiy shop-shaloplarini, shinelini yechdi, tugunini ochdi, kavkazcha guldor shoyi ko‘rpasini olib skameyka ustiga to‘shadi. Pastki qavatda, tarki dunyo qilgan kishiga o‘xshash ozg‘in bir pop, uyidan ola chiqqan taomlarini deraza yonidan stolchaga yoyib tamaddi qilmoqda. U soqoliga yopishgan

non ushoqlarini qoqar, ro'parasida o'tirgan gimnaziya formasidagi qoramag'iz ozg'in qizga manzirat qilardi.

– Totib ko'rsinlar. A?

– Tashakkur.

– Tortinchoqlik qilmang-da, axir, siz o'z jussangizga yarasha ko'p ovqat yemog'ingiz lozim.

– Rahmat.

– Qani, manavi balishdan tanovul qilsinlar. Janobi ofitser, balki, siz marhamat etarsiz?

Listnitskiy boshini osiltirib so'radi:

– Menga aytyapsizmi?

– Ha, ha. – Pop ma'yus ko'zlarini unga tikar va sertola, salqi mo'ylovi ostidagi yupqa lablari bilangina kulimsirardi.

– Rahmat. Ko'nglim tilamaydi.

– Chakki qilasiz. Tanovul etsangiz yaxshi bo'lardi. Armiyaga ketyaptilarmi?

– Ha.

– Xudo yor bo'lsin.

Listnitskiy mudroq ichida popning ovozini eshitar, uning tovushi qulog'iga go'yo olisdan kelayotganday bo'lib tuyulardi, nazarida, bu ovozi yo'g'on, ming'irlab gapiruvchi kishi pop emas, yasovul Gromov edi.

– ...Oila tashvishi, qavm oz, daromad yo'q. Shu sababdan polkda ruhoniy bo'lib xizmat etishga ketayotirman. Rus xalqi dinsiz turolmaydi. Yildan yilga din mustahkamlanmoqda. Albatta, dindan qaytuvchilar ham yo'q emas, ammo bunday odamlar intelligensiya orasida uchraydi, mujik esa xudodan qaytmaydi, e'tiqodi baland. Ha... shundoq... – deb xo'rsindi u, keyin yana g'o'ng'illay boshladi, biroq uning gaplari quloqqa kirmas edi.

Listnitskiyni uyqu eltgan edi. So'nggi marta sezgan narsasi ensiz taxtadan qilingan, yangi bo'yalgan vagon shipining hidi-yu, tashqarida allakimning:

– Bagajga qabul qilgan, mening ishim yo'q! – deb baqirgan tovushi bo'ldi.

«Bagajga nimani qabul qilgan ekan?» – degan xayol miyasidan lip etib o‘tib, sekin-asta g‘oyib bo‘ldi. Uyqusiz o‘tgan ikki kechaning xumoriga maza qilib uxladi. Poyezd Petrograddan chiqib qirq chaqirimcha yo‘l bosgandan keyingina Listnitskiy uyg‘ondi. G‘ildiraklar bir maqomda taraqlar, parovoz yulqinganda vagon larzaga kelib chayqalar, yonboshdagi kupedan allakimlarning xirgoyi ashulasi eshitilar, fonusdan pastga binafsharang shu’la tushardi.

Listnitskiy tayinlangan polk so‘nggi janglarda qattiq talafot ko‘rgani uchun jang maydonidan olib chiqilgan, ot-ulovlarini yangilab odam bilan to‘latilmoqda edi.

Polkning shtabi katta bozor bo‘ladigan bir qishloqda edi. Allaqanday nomsiz yarim stansiyada Listnitskiy vagondan chiqdi. Ko‘chma lazaret ham shu yerga tushdi. Listnitskiy doktordan surishtirib bu lazaretning G‘arbi-Janubiy frontdan shu yoqqa yuborilganini va shu topdayoq, Bereznyagi – Ivanovka-Krishovinskoye stansiyalari orqali jo‘nashini bildi. Jussasi katta, yuzlari qizarib bo‘rtgan doktor soqolini tutamlab, oltin pensne ostidan o‘qrayib turgan ko‘zlarini ola-kula qilib, o‘z boshlig‘ini orqasidan qoralab gapirar, shtab hamda diviziyada o‘tirganlarni ayamay so‘kar, tasodifan yo‘liqqan bir kishiga hasrat qilardi.

Listnitskiy uning gapini bo‘lib:

– Meni Bereznyagigacha ola ketmaysizmi? – deb so‘rab qoldi.

– Mayli, ikki g‘ildirakli aravaga o‘tiring, yuzboshi, – deb rozi bo‘ldi doktor va qadimgi oshnasiday uning shineli tugmasini o‘ynab, dardiga davo izlagandek, yana g‘uldurab noliy boshladi: – O‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring, yuzboshi, ikki yuz chaqirim joydan mol qamaydigan vagonlarda ne-ne azoblar bilan yetib kelganimiz shu yerda bekorga laqillab yurish uchun ekan-da, o‘sha uchastkada ikki kungacha og‘ir, qonli janglar bo‘lgan edi, son-sanoqsiz yaradorlar qolib ketdi, shularga shoshilinch yordam ko‘rsatmog‘imiz kerak edi. – Doktor zahrini kimga sochishini bilmay: «Eng og‘ir, qonli janglar» deb takrorlaganda «r» harfi dirillab eshitildi.

Yuzboshi odob saqlab, qiziqsinib:

– Bunday bema’ni buyruqning berilishiga sabab nima ekan? – deb so‘radi.

– Sababimi? – Doktor istehzoli qilib, pensne ustidan qoshlarini chimirdi. – Sababi kallavaramlik, boshboshdoqlik, boshliqlarning ahmoqligi, mana sababi! U yerda o‘tirgan ablahlar hamma ishni chalkashtiryapti. Ishning ko‘zini bilishmaydi, aql-idroklari yo‘q. Veresayevning: «Vrachning xatlari» degan kitobi esingizda bormi? Xuddi o‘sha! O‘sha ahvol besh battar takrorlanmoqda.

Listnitskiy chest berdi-da, arava tomonga ketdi; doktor jahlidan tushmay orqasidan javrar edi:

– Urushni boy beramiz, yuzboshi! Yaponlarga boy berib aqlimiz kirgani yo‘q. Bir hamlada abjag‘ini chiqaramiz, bizga bas kelarmidi, degan edik... – Shu vaysaganicha boshini sarak-sarak qilib, rang-barang neft dog‘lari aralashgan ko‘lobchalardan sakrab, temiryo‘l izidan yurib ketdi.

Lazaret Bereznyagiga yetganda qosh qoraygan edi. Sarg‘aygan boshoqlarni shamol o‘ynatardi. Kun botish tomonida qalin bulutlar qalashib turardi. Bulutlarning ustki yog‘i to‘q binafsharangga bo‘yalgan, sal pastrog‘i siyraklashib vahimali tusini yo‘qotgan, osmon bag‘riga och pistoqirang shu’lalar tushib turardi; o‘rta yerdagi bulutlar, xuddi daryoda muz ko‘chgan paytda uyulib qolgan yaxlarga o‘xshab asta-sekin tarqalayotgani sezilar, ora-sira ochiq joylardan botayotgan quyoshning oltin tig‘lari ko‘rinar edi. Quyosh tig‘lari yelpig‘ich singari har yoqqa taralib ketgan, ba’zisi aks etib bulutga sanchilib qolganga o‘xshardi, bulutsiz ochiq joyning pastrog‘i, ta’rifga sig‘maydigan rango-rang tuslarga kirib tovlanardi.

Yo‘l yoqasidagi zovur yonida o‘q yeb o‘lgan bir ot yotardi. Keyingi oyoqlari tarvaqaylab havoga ko‘tarilgan, yeyilib ketgan taqasi yiltirar edi. Aravada irg‘ib-irg‘ib betinch kelayotgan Listnitskiy o‘lgan otga qaradi, u bilan birga kelayotgan sanitar kajavaday shishib ketgan ot qorniga tupurdi va yuzboshiga burilib qaradi-da:

– Ochko‘zlik qilib, yemni ko‘p yeb qo‘yibdi... – dedi, yana bir marta tupurmoqchi bo‘ldi-yu, biroq beadablik bo‘lmasin deb, tupugini yutib yengi bilan labini artib qo‘ya qoldi. – Harom o‘libdi, hech kim tegmaydi... Nemislarda bunaqa rasm yo‘q.

– Sen buni qaydan bilasan? – deb so‘radi bevaj g‘azablangan Listnitskiy; shu daqiqada u o‘zini katta olib bilarmonlik qilgan, ijirg‘anib turgan sanitarning beparvo basharasidan jirkanardi.

Bo‘zraygan bu ruhsiz bashara kuzakda egasiz qolgan dalani eslatardi; boshqa minglarcha mujik askarlarning basharasidan uning hech qanday tafovuti yo‘q, yuzboshi Petrograddan chiqqandan beri yo‘llarda bundaylarning son mingtasini uchratgan edi. Hammasining rangi so‘lg‘in; sarg‘ish, ko‘k, yashil va boshqa tusdagi ko‘zlari nursiz, baqraygancha qotib qolgan, siyqasi chiqqan eski mis chaqani eslatardi.

Sanitar shoshmasdan:

– Men urushdan oldin Germaniyada uch yil turganman, – deb javob berdi. Yuzboshi uning tovushida, hali yuzida ko‘rilgan jirkanish ohangi borligini sezdi. – Men Kyonigsbergda tamaki fabrikasida ishlaganman, – sanitar, zerikkan kishiday erinibgina so‘zlar, tizgin qayishning tugilgan uchi bilan pakanagina otni urardi.

– Ovozingni o‘chirsang-chi! – deb jerkib berdi Listnitskiy burilib, so‘ngra o‘lgan otning boshini ko‘ziga tushib yotgan kokilini, tirjayib qolgan tishlarini tomosha qildi.

Otning yuqoriga ko‘tarilib qolgan oyog‘i tizzasining qoq ko‘zidan bukilgan, tuyog‘i taqa mixdan sal-pal chetnagan, lekin tuyoqlarining ichi ko‘m-ko‘k yiltirab turardi, yuzboshi uning oyog‘i va ingichka quyma tuyog‘iga qarab, otning yosh hamda nasldor ekanini payqadi.

Ikki g‘ildirakli arava qatqaloq yo‘l ustida irg‘ib-irg‘ib tobora uzoqlashardi. Kunbotar yoqda osmonning rango-rang tusi so‘na boshladi, shamol bulutlarni to‘zitib yubordi. O‘lgan otning qaqqaygan oyog‘i olisdan usti yo‘q mezana singari qorayib ko‘rinardi. Listnitskiy undan ko‘zini olmasdi: yilt etib ot ustiga bir parcha shu’la tushdi-da, tap-taqir saman jun o‘sgan oyoq, go‘yoki ajoyib bargsiz novda singari yashnadi, apelsin po‘stiday tovlanib ketdi.

Bereznyagiga kiraverishda lazaret yaradorlar tushgan aravalarga duch keldi.

Birinchi aravaning egasi – soqoli qirilgan belorus chol, arqondan qilingan tizginni qo‘liga o‘rab ot yonida piyoda borardi. Arava ustida boshi bog‘langan furajkasiz kazak yonboshlab yotardi. U xorg‘in ko‘zlarini yumib olgan, nonni chaynab-chaynab, suvini so‘rib, turpini tuflab tashlardi. Uning yonida bir askar bag‘rini

yerga berib yotardi. Uning dabdala bo‘lib ketgan shimi qonga belanib qotib qolgan edi. Jangchi boshini ko‘tarmay behayo so‘zlar bilan so‘kinardi. Listnitskiy uning tovushiga, so‘kinish ohangiga quloq solarkan, kapalagi uchib ketdi: u jon-jahdi bilan duo o‘qiyotgan eng dindor kishilar singari ming‘irlab so‘kinardi. Ikkinchi aravada oltitacha askar tiqilishib yotardi. Sho‘xrog‘i yallig‘lanib turgan ko‘zlarini qisib hikoya qilardi:

– ...ularning imperatoridan elchi keptimish, sulhga kelsak degan taklif qiliptimish. Men buni juda tayinli odamdan eshitdim; u sira yolg‘on aytmaydi, bunga ko‘nglim to‘q.

Ikkinchi bir askar eski yara-chaqa izlari qolgan xumkalla boshini chayqab, shubhalanib:

– Dargumon, – deb qo‘ydi.

– Shoshmasang-chi, Filipp, ehtimol, kelgani rostdir, – dedi orqasini o‘girib o‘tirgan uchinchi askar; u mayingina Volga lahjasida gapirardi.

Beshinchi aravada qizil gardishli kazakcha furajka kiygan yaradorlar kelardi. Uch kazak katta bir aravaga bemalol joylashib olib indamay Listnitskiyga tikilishardi, ularning chang bosgan, qovog‘i soliq basharalarida hurmat va izzat degan narsadan asar yo‘q edi.

– Salom, stanitsaliklar! – deb so‘rashdi yuzboshi.

– Salomat bo‘lsinlar, – deb noxush javob berdi aravakashning yonida o‘tirgan kumushday oppoq mo‘ylovli, qalin qoshli, chiroyli kazak.

Listnitskiy uning ko‘k pogoniga tikilib, nomerini bilib olmoqchi bo‘lib:

– Qaysi polkdan? – deb so‘radi.

– Yigirmanchi.

– Polkingiz hozir qayerda?

– Bilmadik.

– Xo‘sh, qayerda yarador bo‘ldingiz?

– Anov qishloq yonida... orasi uzoq emas.

Kazaklar bir-birlari bilan shivirlasha boshladi, bittasi, bo‘z latta bog‘lagan yarador qo‘lini sog‘ qo‘li bilan ushlab, aravadan irg‘ib tushdi.

– Janobi oliy, birpas to‘xtang. – U o‘q tegib, gazak olgan qo‘lini avaylab ushlaganicha, yalangoyoqlarini alpon-talpon tashlab Listnitskiyga iljayib kelaverdi.

– Siz Vyoshenskaya stanitsasidan emasmisiz? Listnitskiy emasmisiz?

– Ha.

– Taniganimizni qarang. Janobi oliy, tamakingiz yo‘qmi? Iso haqi, bir chektiring, xumori tutib o‘lib bo‘ldik!

Kazak aravaning bo‘yalgan yonboshini ushlab, uning yonida borardi; Listnitskiy portsigarini cho‘ntagidan oldi.

– Mumkin bo‘lsa, o‘ntachasini in’om qilsangiz... Biz uch kishimiz, – deb yalinib iljayardi kazak. Listnitskiy uning katta, jigarrang hovuchiga bisotidagi papirosining hammasini to‘kdi-da:

– Polkda yaralanganlar ko‘pmi? – deb so‘radi.

– Yigirma chog‘liq bor.

– Talafot kattami?

– Qirilgan ko‘p. Tutatib olay, janobi oliy: Salomat bo‘ling. – Kazak papirosini tutatish bilan ovora bo‘lib, orqaroqda qoldi va ketidan qichqirib:

– Sizning qo‘rg‘oningiz yonidagi Tatarsk qishlog‘idan kelganlardan uchtasi bugun qazo qildi. Kazaklarning barakasi uchyapti, – dedi.

Kazak qo‘l siltadi-da, aravasiga yetib olmoq uchun yugurdi. Shamol uning kamarsiz ko‘ylagini hilpillatar edi.

Listnitskiy tayinlangan polkning komandiri Bereznyagida popning uyida turardi. Yuzboshi maydonga yetgandan so‘ng, odamgarchilik qilib aravadan joy bergan vrach bilan xayrlashdi-da, mundirining changlarini qoqa-qoqa, duch kelganlardan polk shtabi qayerdaligini so‘roqlab boraverdi. Qorovullikka askarni boshlab kelayotgan qo‘ng‘ir soqol feld-febel ro‘paradan chiqdi. U yurishini buzmay Listnitskiyga chest berdi-da, savoliga javob qilib, bir uyni ko‘rsatdi. Shtab binosi, oldingi pozitsiyadan uzoqda joylashgan har bir shtabdagiday, jimjit edi. Mirzalar katta bir stol ustiga engashib olishgan, dala telefoni trubkasini ushlagan, yoshi qaytgan yasovul noma’lum kishi bilan kulib suhbatlashardi. Kenggina uyning deraza-

larida pashshalar g‘o‘ng‘illashar, olisdagi telefon qo‘ng‘iroqlari chigirtkaday chirillashardi. Mulozim yuzboshini polk komandirining kvartirasiga boshlab bordi. Novcha-bo‘yli polkovnik Listnitskiyni dahlizda ro‘yxush bermay kutib oldi; uning iyagida uchburchak tirtig‘i bo‘lib, hozir allanimadan ta’bi xira bo‘lgan edi.

– Polk komandiri men bo‘laman, – dedi u savolga javoban. Yuzboshining, men ixtiyoringizga keldim, degan gapini tinglab, indamay, uni qo‘l ishorasi bilan ichkariga taklif etdi. Eshikni ichkaridan berkitayotib, nihoyatda charchagan kayfiyatda sochlarini tuzatdi-da, ming‘irlab:

– Kecha men brigada shtabida bu gapni eshitgan edim. Qani, o‘tiring, – dedi.

U Listnitskiyning ilgari qayerda xizmat qilganini surishtirib, poytaxt yangiliklari, yo‘l taassurotlari haqida savol berdi, lekin shu qisqacha suhbat davomida qattiq charchagan horg‘in ko‘zlarini biron marta ko‘tarib unga qaramadi ham.

Listnitskiy polkovnikning keng manglayiga tikilib turib unga rahmi kelib ketdi: «Frontda rosa adabini yegan bo‘lsa kerak. O‘lguday charchabdi», – deb o‘yladi. Biroq polkovnik, yanglishasiz deganday qilib, qilich dastasi bilan qansharini qashladi-da:

– Boring, yuzboshi, ofitserlar bilan tanishib chiqing, – dedi. – Bilasizmi, men uch kecha bo‘ldi, ko‘z yumganim yo‘q. Bu pastqam joyda biz uchun qarta o‘ynashdan, aroqxo‘rlik qilishdan boshqa ish yo‘q, – dedi.

Listnitskiy chest berayotib, jilmayish bilan o‘z nafratini sezdirmadi. Polkovnik o‘zini qanday kutib olganini eslab g‘ijindi, iyagidagi tirtig‘i va horg‘in qiyofasi uchun beixtiyor uni hurmat etganiga ichidan kulib uydan chiqdi.

## XV

Diviziya Stir daryosidan o‘tish va Lovishchi yonida dushmanning orqa tomonidan chiqish to‘g‘risida topshiriq oldi.

Listnitskiy bir necha kun ichida polkdagi ofitserlar bilan og‘ayni bo‘lib qoldi; huzur-halovat va tinchlikning gashtiga o‘rgangan ko‘ngli sal oradayoq jang sharoitiga ko‘nikib ketdi.

Daryodan kechib o‘tish vazifasi nihoyatda ustalik bilan bajarilgan edi. Diviziya katta bir guruh dushman qo‘shinining chap qanotini yemirib, uning orqa tomoniga o‘tib oldi. Lovishchining yonida dushman madyar suvorilarining yordami bilan qarshi hujumga o‘tishga urinib ko‘rdi, biroq kazaklar artilleriyasi ularni to‘pga tutib rasvosini chiqardi, madyar eskadronlari tartibsiz holda chekindi, ikki yonboshidan yog‘ilgan pulemyot o‘tidan qirildi, kazaklar ularning orqasidan quvib ketdi.

Listnitskiy polk bilan birlikda qarshi hujumga kirdi, chekinayotgan dushman ustiga ularning divizioni ot qo‘ydi. Listnitskiy komandirlik qilgan uchinchi vzvodda bir kishi o‘ldi, to‘rt kishi yarador bo‘ldi. U yiqilgan Loshchenovning yonidan parvoyi falak o‘tib ketaverdi, uning xirillagan bo‘shtob ovozini eshitgisi ham kelmadi. Loshchenov, Krasnokutskaya stanitsasidan kelgan yoshgina, qirra burun kazak bo‘lib, o‘lgan otning tagida qolgan edi. Bilagidan o‘q yeb jimgina ingrab yotar va yonidan o‘tgan kazaklarga:

– Jon birodarlar, tashlab ketmanglar! Turg‘izib qo‘ying, birodarlar! – deb yalinardi.

U jon azobida darmoni qurib zo‘rg‘a ovoz chiqarardi, biroq yonidan o‘tgan kazaklarning yuragi toshga aylangan, rahmi kelganlar bo‘lsa ham, ularning irodalari hislarini bosib ketgan edi. Chopaverib halloslab qolgan otlariga dam bergani besh daqiqacha sekinroq yurishdi. Ulardan yarim chaqirim narida to‘zib ketgan madyar eskadronlari qochib bormoqda. Chetlariga qunduz solib tikilgan chiroyli kurtkali suvorilar orasida och ko‘k mundir kiygan piyoda askarlar ham ko‘zga chalinardi. Do‘ngdan tushayotgan dushman aravalari tepasida yorilgan to‘p o‘qlarining oppoq tutuni ko‘rinardi. Chap tomondan allaqaysi bir batareya ularning aravalarini to‘pga tutmoqda edi. To‘plar ovozidan dala-yu dasht larzaga kelar va bu gumburlashlarning aks sadosi shu yaqindagi o‘rmonda takrorlanardi.

Divizionni boshlab ketayotgan lashkar starshinasi Safronov otlarni yeldirishiga ko‘rsatma berdi, uch yuz otliq yoyilib, to‘g‘riga qarab yo‘rttirib ketdi. Kazaklarning ostlaridagi otlar lo‘killab chayqalar, sarg‘ish ter ko‘piklari yerga tomchilardi.

O‘sha kechasi kichkina bir qishloqda tunadilar. Polkdagi o‘n ikki ofitser torgina bir uyga tiqildi. Charchab-horib, och-nahor uxlagani yotdilar. Yarim kechaga yaqin ko‘chma oshxona yetib keldi. Xorunjiy Chubov kichkina qozonchada karam sho‘rva keltirdi, yog‘li ovqatning hididan ofitserlar uyg‘onib ketdi; oradan chorak soat o‘tar-o‘tmas, qovog‘i shishgan ofitserlar ikki kundan beri jangda och yurganlarining hissasini chiqarib, ovqatdan bosh ko‘tarmay, rosa tushirdilar. Ovqat bevaqt yeyilgani uchun uyqulari ham o‘chib ketdi. Qorinlari to‘yib lohas tortgan ofitserlar chakmon ustiga, poxolga cho‘zilishib papiros chekishardi.

Dum-dumaloq va pak-pakana podesaul Kalmikovning yolg‘iz familiyasi emas, balki afti-basharasi ham mo‘g‘ul jinsidan ekanini ko‘rsatib turardi; hozir u qo‘llarini tez-tez qimirlatib gap sotardi.

– Bu urush menga to‘g‘ri kelmaydi. Men to‘rt asr keyinroq tug‘ilib qolganman. Bilasanmi, Petr, – derdi u yuzboshi Tersinsevga murojaat qilib, jo‘rttaga «Pyotr» so‘zidagi «yo» o‘rniga «ye» harfi ishlatib, – bu urushning oxirigacha tirik qolmayman.

– Folbinlikni yig‘ishtirib qo‘y, – dedi Pyotr chakmon ostidan po‘ng‘illab.

– Folbinlik emas. Bu – o‘zimga ayon. Mening ortig‘im bor, o‘lay agar, men bu yerda ortiqchaman. Boya o‘q bo‘roni ichida ketayotgan paytda g‘azabimdan qaltirab ketdim. Dushmanki ko‘zimga ko‘rinmadimi – bo‘ldi, o‘zimni qayerga qo‘yishimni bilmay qolaman, yuragim orqamga tortib ketadi. Dushman seni bir necha chaqirim naridan turib otib qulataversa, sen otda ketaversang, xuddi dashtdagi tuvaloqqa o‘xshab merganning mo‘ljalga olganini ko‘rmasang, shu ham urushmi...

– Men Kupalkada avstriyaliklarning gaubitsa to‘pini ko‘rdim. Qaysi biringiz ko‘rgansiz, janoblar? – deb so‘radi yasovul Atamanchukov; u ingliznusxa qirqilgan mallarang mo‘yloviga yopishgan konserva go‘shtni yalab oldi.

– Ajoyib to‘p ekan! Mo‘ljal oladigan kamerasi, hamma mexanizmlari mukammal, – deb gapirdi xorunjiy Chubov zavqi kelib; u ikki kotelok karam sho‘rvani allaqachon paqqos tushirgan edi.

– Men ham ko‘rdim, lekin o‘z taassurotimni gapirmaganim tuzuk. Chunki artilleriya sohasida hech narsa bilmayman. Menimcha anchayin bir to‘p, faqat og‘zi kattaroq.

– Ibtidoiy qurol-yarog‘ bilan urush qilgan qadimgi odamlarga havasim keladi, – deb gapida davom etdi Kalmikov; endi u Listnitskiyga burilib gapirardi. – Halol jangda yov bilan olishib qilich bilan ikki nimta qilib tashlasang – mana buni jang desa bo‘ladi! Endigi janglar qurib ketsin!

– Kelgusi urushlarda otliq askarlarning hech ahamiyati qolmaydi.

– To‘g‘risini aytganda, otliq askar degan narsaning o‘zi bo‘lmaydi.

– Yo‘q, bekorchi xayol bu!

– Shubhasiz shunday bo‘ladi.

– Menga qara, Tersinsev, mashina odamning o‘rnini bosa oladimi? Bo‘lmag‘ur gap.

– Men odamni gapirayotganim yo‘q, gap ot ustida ketyapti. Ot o‘rnini mototsikl yoki avtomobil egallaydi.

– Avtomobil eskadroni – bir kami shu edi.

– Bo‘lmag‘ur gap! – deb qizishdi Kalmikov. – Armiyada hali ot ko‘p ish ko‘rsatadi. Ahmoqona xom xayollar! Ikki yuz, uch yuz yildan keyin nima bo‘lishini bilmaymiz, lekin hali-hozir otliq askar...

– Menga qara, hoy Dmitriy Donskoy, frontni boshdan oyoq xandaqlar o‘rab olgandan keyin qo‘lingdan nima keladi? A? Qani, gapir?

– Xandaqlar yorib o‘tiladi, bosqin qilinadi, dushmanning eng orqa tomoniga o‘tib olinadi – mana, kavaleriyaning vazifasi.

– Behuda gap.

– Mayli, u yog‘ini keyin ko‘rarmiz, janoblar.

– Qani, uxlaylik.

– Bo‘ldi-da endi, hadeb tortishaverasizmi, sizlarda insof bormi o‘zi? Axir, hammaning uyqusi kelgan.

Qizigan bahs soviy boshladi. Chakmon yopinib olgan bir ofitser xurrak aralash hushtak chalar edi. Suhbatga aralashmagan Listnitskiy chalqanchasiga tushib, ostiga to‘shalgan poxolning o‘tkir hidini hidlab yotardi. Kalmikov cho‘qindi-da, uning yoniga kelib cho‘zildi.

– Siz, Bunchuk degan ko‘ngilli askar bilan bir gaplashib ko‘ring-a, yuzboshi. U sizning vzvodingizda. Ajoyib yigit!

– Nimasi ajoyib? – deb so‘radi Listnitskiy Kalmikovga orqasini o‘girib yotib olib.

– O‘zi kazak, ruslashib ketgan. Moskvada turgan. Oddiy bir ishchi-yu, lekin haligidaqa masalalarda bilmagan narsasi yo‘q. O‘lguday sho‘x yigit, mohir pulemyotchi.

– Qani, uxlaylik, – deb taklif etdi Listnitskiy.

– Rost aytasiz, – deb ko‘na qoldi Kalmikov, lekin uning xayoli nima bilandir band edi, oyoq panjalarini qimirlatib qo‘ydi, o‘ng‘aysizlanib aftini bujmaytirdi. – Meni kechirasiz, yuzboshi, oyog‘im yomon sasigan... Bilsangiz, uch haftadan beri etigimni yechganim yo‘q, paypog‘im terdan bijib ketibdi... Jirkanadi kishi... Kazaklardan paytava topib olmasam, ish chatoq.

– Bemalol, – dedi uyqu aralash Listnitskiy.

Kalmikov aytgan gap Listnitskiyning esidan chiqib ketgan edi, biroq ertasi kuni tasodifan ko‘ngilli askar Bunchuk bilan hamroh bo‘lib qoldi. Tongotar mahalda sotnya komandiri uni rekognossirovkaga chiqishni va agar iloji bo‘lsa, chap qanotda hujumni davom ettirayotgan piyoda askarlar polki bilan aloqa bog‘lashni buyurdi. Listnitskiy tong qorong‘isida qidira-qidira, hovlida g‘ujg‘uj uxlab yotgan kazaklar orasidan vzvod uryadnigini topdi.

– Dozorga chiqish uchun menga beshta kazak ajratib berasan. Aytgin, otimni egarlab qo‘yishsin. Tez bo‘l!

Oradan besh daqiqa o‘tgach, ostona yonida o‘rta bo‘yli bir kazak paydo bo‘ldi.

– Janobi oliylari, – deb murojaat qildi haligi kazak portsigariga papiros solayotgan Listnitskiyga, – uryadnik meni yubormayapti, sening navbating emas deydi. Men ham boray, ruxsat etasizmi?

– Nima jinoyat qiluvding? O‘zingni oqlab olmoqchimisan? – deb so‘radi Listnitskiy g‘ira-shira yorug‘da zo‘rg‘a ko‘ringan kazakning yuziga tikilib.

– Hech qanaqa jinoyatim yo‘q.

– Mayli, bora qol... – deb javob berdi Listnitskiy o‘rnidan turib.

– Hoy, menga qara, – deb chaqirdi jo‘nab qolgan kazakning ketidan. – Qayt!

Kazak qaytib keldi.

– Uryadnikka aytgin...

– Mening familiyam Bunchuk, – deb luqma soldi kazak.

– Ko'ngillimisan?

– Ha.

– Uryadnikka aytingki, – Listnitskiy xijolat bo'lganday bir lahza jim bo'lib qoldi-da, darhol o'ziga keldi, – u... Ha, qo'ya qoling, o'zim aytarman.

Tevarak-atrof yorishdi. Dozor qishloqchadan chiqdi, postlar va qorovulxonalar yonidan o'tib, xaritada belgilangan qishloq tomon jo'nadi.

Yarim chaqirim chamasi yo'l bosilgandan keyin yuzboshi otning yurishini sekinlashtirdi.

– Ko'ngilli askar Bunchuk!

– Men.

– Marhamat qilib beriroq keling.

Bunchuk ko'rimsiz otini niqtab, yuzboshining aslzod arg'umog'i yoniga keldi.

– Siz qaysi stanitsadansiz? – deb so'radi Listnitskiy Bunchukning yuziga yon tomondan tikilib.

– Novocherkasskayadan.

– Ko'ngilli bo'lib xizmat qilishga sizni nima majbur etdi, bilsak bo'ladimi?

– Marhamat, – dedi cho'zib Bunchuk kinoyaomuz va ko'kish ko'zlarini yuzboshiga tikib qaradi. Uning ko'zlari odamga tikandek qadalar edi. – Men harbiy ishga ishqibozman. Yaxshilab o'rganib olmoqchiman.

– Buning uchun harbiy maktablar bor.

– Ha, bor.

– Xo'sh, nega o'shanga kira qolmadingiz?

– Oldin tajribada sinab ko'rmoqchiman. Nazariy bilimlarni keyin orttirsa ham bo'laveradi.

– Urushdan oldingi kasbingiz?

– Ishchi.

– Qayerda ishlardingiz?

– Peterburgda, Rostovda, Tuladagi miltiq zavodida... Pulemyotchilar komandasiga o‘tkazing deb so‘ramoqchiman.

– Pulemyotni bilasizmi?

– Bilaman, Shosh, Berte, Madsen, Maksim, Gochkis, Bergman, Vikkers, Lyuis, Shvarsloze sistemadagi pulemyotlarni bilaman.

– O‘h-o‘! Men polk komandiri bilan gaplashib ko‘raman.

– Baraka toping.

Yuzboshi o‘rta bo‘yli Bunchukning yo‘g‘on gavdasini yana bir karra ko‘zdan kechirdi. U xuddi, Don bo‘yidagi qayrag‘och daraxtiga o‘xshardi: uning ko‘zga tashlanadigan ortiqcha bir xususiyati yo‘q, lekin qayrilib kelgan jag‘ suyaklari va ko‘z urishtirganda har qanday kishini yengadigan o‘tkir ko‘zlari boshqa odamlardan uni ajratib turardi.

U kamdan-kam kular, lablarining cheti bilangina iljayib qo‘yardi, lekin o‘shanda ham ko‘zlari muloyimlashmas, yiltirab turaverardi. U o‘zini ko‘z-ko‘z qilishni bilmas, xuddi Don bo‘yidagi qaqir tuproqda o‘sgan qayrag‘och singari chayir, temirday miqti va vazmin edi.

Ular ancha vaqtgacha indamay borishdi. Bunchuk hapqat qo‘llarini siri ko‘chgan yashil egarning qoshiga qo‘yib olgan edi. Listnitskiy yonidan papiros oldi. Bunchuk chaqqan gugurtdan papirosini tutatayotib, uning qo‘lidan saqich isiga o‘xshash terlagan ot hidi kelganini sezdi. Kaftining orqa tomonini, xuddi ot juniday qalin, malla tuk bosgan edi. Listnitskiy beixtiyor uni silagisi keldi. U achchiq tutunni yutayotib:

– Siz bir kazak bilan mana shu o‘rmon bo‘ylab anavi yo‘l bilan borib chapga burilasiz. Ko‘rdingizmi? – dedi.

– Ha.

– Agar yarim chaqirimcha yurganingizdan keyin ham bizning piyoda askarlar ko‘rinmasa, qaytib kelasiz.

– Xo‘p.

Otlarni yo‘rttirib ketdilar. O‘rmonning chekkasida bir tekis o‘sgan niholcha qayinlar g‘uj bo‘lib turishardi. Ulardan narida sarg‘aygan qarag‘ayzor ko‘zga tashlanar, avstriyaliklar aravasi toptab, yanchib ketgan butalar yer bag‘irlab yotardi. O‘ng tomonda,

olisda gumburlagan zambaraklar yerni larzaga solar, biroq bu yerdagi qayinzor sukunat ichida edi. Yer yuzi shabnamga to'ygan, ko'katlar qizg'ish tusga kirgan, hammasi erta kuzning rang-barang tusdagi to'niga o'ralib olgan, ajali yaqinlashganini sezib fig'on qilayotganday bo'lardi. Listnitskiy qayinzor tagida to'xtab, o'rmon orqasidan do'ppayib ko'ringan tepani durbin bilan ko'zdan kechira boshladi. Qilichining mis qoplagan dastasiga qanotlarini yoyib, bir asalari qo'ndi.

– Esi yo'q, – deb qo'ydi Bunchuk sekingina arining adashib qo'nganiga achinib.

– Nima? – deb ko'zini durbindan oldi Listnitskiy.

Bunchuk ko'zi bilan imlab arini ko'rsatdi, Listnitskiy kuldi:

– Asali zaharga aylansa kerak, nima dedingiz?

Bunchuk og'zini ochganicha yo'q edi, olisdagi qarag'aylar orqasidan pulemyot o't ochdi. Uning tarillagan ovozi sukunatni buzdi, chiyillagan o'qlar qayinlarni ilma-teshik qilib yubordi, o'q kesib ketgan shox lopillab, yuzboshi mingan otning yoli ustiga kelib tushdi.

Ular otni qamchilab, chuh-chuhlab qishloq sari qochdilar. Avstriyaliklar pulemyoti ularning ketidan sidirg'asiga o'q uzib lentasini tamomladi.

Bundan keyin ham Listnitskiy ko'ngilli askar Bunchuk bilan bir necha marta hamroh bo'lib ko'rdi, lekin har uchrashganida, uning o'tkir ko'zlarida aks etgan zo'r irodani ko'rib zavqlanar, sirtdan sodda ko'ringan bu odamning ichida nima dardi borligini, nega qovog'i soliq, nega kishiga ko'ngil yorib gapirmasligini bilolmay boshi qotardi. Bunchuk gapni tagdor qilib labining bir chetini qiyshaytirib kulib gapirar, yolg'iz o'ziga ayon bo'lgan bir haqiqatni yashirmoqchi bo'lganday, darhol gapni boshqa yoqqa burib yuborar edi. Uni pulemyot komandasiga o'tkazdilar. Bir yarim haftadan keyin Listnitskiy sotnya komandiri oldiga borayotib (polkka bir kunlik dam berilgan edi), yo'lda ketayotgan Bunchukka yetib oldi. U chap qo'lini o'ynatib, o't tushgan omborxona yonidan ketayotgan edi.

– Ha-a, ko'ngilli askar!

Bunchuk burilib qaradi va chest berib yo'l bo'shatdi.

– Yo‘l bo‘lsin? – deb so‘radi Listnitskiy.

– Komanda boshlig‘i yoniga.

– Yo‘limiz bir ekanmi, deyman?

– Shunday, shekilli.

Ular bir necha vaqtgacha vayron bo‘lgan qishloq ko‘chasidan indamay ketaverdilar. Onda-sonda sog‘ qolgan bostirmalar yonida odamlar ivirsib yurar, otliqlar o‘tib turar, ko‘chaning qoq o‘rtasida to‘xtagan dala oshxonasidan tutun burqsirdi; kazaklar ovqat olish uchun turnaqator tizilishgan edi; havodan mayda bir narsa yog‘ardi.

Listnitskiy orqaroqda kelayotgan Bunchukka ko‘z qirini tashlab:

– Qalay, jang rusumini o‘rganyapsizmi? – deb so‘radi.

– Ha... o‘rganyapman.

Listnitskiy uning sertuk qo‘liga tikilib, negadir:

– Urushdan keyin nima qilmoqchisiz? – deb so‘rab qoldi.

– Ekin ekkanlar hosilini yig‘ishtirib olsin, men... qarab turaychi, bir gap bo‘lar. – Bunchuk ko‘z qisib qo‘ydi.

– Gapingizga tushunolmadim-ku?

– Yuzboshi, – dedi Bunchuk ko‘zlarini yana qisib. – «Shamol bilan o‘ynashgan bo‘ronda halok bo‘ladi», degan gapni eshitganmisiz? Shuni bilib qo‘ying.

– Siz qochirim qilmay, ochiqroq gapiring.

– Gapning ochig‘i shu. Xayr, yuzboshi, men chapga ketaman.

Bunchuk sertuk barmoqlarini kazakcha furajkasining chetiga qo‘yib chest berdi-da, chapga burildi.

Yuzboshi kiftlarini qisib, uning ketidan anchagacha tikilib qoldi.

«Nima, o‘zini qiziq qilib ko‘rsatmoqchimi yoki bir qaynog‘i ichidami?» deb o‘yladi jahli chiqqan Listnitskiy komandirning shinamgina yerto‘lasiga qarab ketar ekan.

## XVI

Ikkinchi navbatdagi kazaklar ketidan uchinchi navbatdagilar ham urushga jo‘nadi. Donning hamma stanitsa va qishloqlari huvullab qoldi, go‘yo o‘roq mahali qistalang kelib, butun viloyat aholisi dalaga ketganga o‘xshardi.

O‘sha yili chegarada ajalning bozori rosa qizigan, ro‘zg‘orni tebratib turgan ne-ne kishilarga qiron kelgan edi.

«Voo-oy, qadrdonimeeey!.. Meni kimlarga tashlab ketdingeeey?» deb faryod ko‘targan, aza tutgan boshyalang kazak xotinlarning son-sanog‘i yo‘q edi.

Qadrdonlarning aziz boshlari esa qora qonga belanib har tomonda dumalab yotar, ko‘zlari yumilgan, abadiy uyquga ketgan, ular zambaraklarning janoza sadolari ostida Avstriya, Polsha, Prussiya tuproqlarida chirib yotardi... Sharqdan esgan shamol onalarning, xotinlarning faryodini bularning quloqlariga yetkaza olarmidi!..

Kazaklarning sarasi, manman degan yigitlari uyini tashlab chiqqan, yot ellarda bitlab-qurtlab it azobida qirilmoqda edi.

Havo ochiq, sentabr kunlari Tatarsk qishlog‘ining ustida ingichka-ingichka, momiq singari oppoq, yiltiroq mezon iplari uchib yurardi. Rangi o‘chgan, qoni qochgan quyosh beva qolgan xotinday jilmayar, ko‘m-ko‘k musaffo osmon esa nozlanib o‘zini ko‘z-ko‘z qilayotganday edi. Donning narigi betidagi o‘rmon malla to‘nga o‘ralib iztirob chekar, teraklarning rangi za’faron, eman daraxtining jimjimador barglari to‘kila boshlagan, yolg‘iz zirk daraxtlarigina o‘z yashilligini pesh qilar, shallaqi hakkalarni suyuntirardi.

Shu kuni Panteley Prokofyevich Melexov harakatdagi armiyadan xat oldi. Bu xatni pochtadan Dunyashka olib keldi. Pochta boshlig‘i xatni unga berar ekan, yarg‘oq boshini qimirlatib ta’zim qildi, xokisorlik bilan qo‘llarini kerib qo‘ydi:

– Xudo haqi, meni kechirasiz, xatingizni ochib qo‘yibman. Dadangizga aytib tushuntirasiz: Firs Sidorovich xatni, haligiday, ochib o‘qibdi deng. Urushda nima gaplar borligini judayam bilgusi kelib ketibdi deng... Meni kechirasiz dadangiz Panteley Prokofyevichga shunday deb aytib qo‘ying.

U har vaqtdagidan ko‘ra parishon edi, hatto Dunyashkani kuzatib eshikka chiqqanda burniga siyoh tegib ketganligini ham sezmagandi.

– Mendan tag‘in xafa bo‘lib o‘tirmang, xudo haqi, men... tanishligim uchun, haddim siqqanidan... – deb poyma-poy chuldirar, Dunyashkaning ketidan qayta-qayta ta’zim qilardi; Dunyashka uning bu qilig‘idan sergaklanib yuragi orqasiga tortib ketdi.

Qiz uyga hovliqib kirdi va anchagacha qo‘ynidagi xatni ololmay tipirlab qoldi.

– Tezroq olsang-chi!.. – deb baqirdi Panteley Prokofyevich, qaltiragan soqolini silab.

Dunyashka konvertni qo‘ynidan olayotib, shosha-pisha gapirardi:

– Pochtachi qiziqib xatni ochib o‘qibdi, dadangiz xafa bo‘lmasinlar dedi.

– O‘qisa mayli! Grishkadanmi? – deb so‘radi chol, pishillab Dunyashkaning yuziga tikilib. – Grigoriydan kelgandir? Yo Petrodanmikin?

– Yo‘q, dadajon... Birov yozganga o‘xshaydi.

– O‘qisang-chi, qiynamay, axir! – deb qichqirdi, stol yoniga sudralib kelgan Ilinichna (uning oyoqlari gupchakdek shishib ketgan, zo‘rg‘a sudrab bosardi).

Natalya halloslaganicha hovlidan kirib keldi, qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib, tirtiq bo‘ynini qiyshaytirib, pech yonida turib qoldi. Tangaday oftob shu’lasiga o‘xshash bilinar-bilinmas tabassum Natalyaning lablari ustida titrab turar, u Grishadan salom kutar, eriga it kabi vafodorligi evaziga, loaqal o‘zi haqida, bir og‘iz so‘z eshitishni istar edi.

– Darya qayoqda yuribdi? – deb shivirladi kampir.

– Jim! – deb g‘ajindi Panteley Prokofyevich (achchig‘idan uning ko‘zlari qinidan chiqib ketayozdi), Dunyashkaga: – O‘qi! – deb buyurdi.

– «Sizga ma’lum qilamanki...» – deb o‘qidi-yu, Dunyashka kursidan yerga sirg‘ilib tusha boshladi-da, xunuk ovoz bilan baqirib yubordi: – Dada! Dadajon!.. Voy, voye-yee-ye! Grishani!.. Voy! Grishani ...o‘ldirishibdi!

Deraza yonidagi so‘lg‘in chinnigul barglari orasida adashib qolgan qovog‘ari g‘o‘ng‘illardi. Hovlida ivirsib yurgan tovuqning qaqillagani eshitilar, ochiq qolgan eshikdan qo‘ng‘iroqday kulishgan bolalarning ovozi kelardi.

Natalyaning yuzi tirtishib ketdi, lablari iljayganicha qotib qoldi.

Panteley Prokofyevich shol bo'lgan odam singari zo'rg'a o'rnidan turdi; uning boshi qaltirar, g'ujg'unak bo'lib qolgan Dunyashkaga anqayib tikilib qolgan edi.

**«Sizga ma'lum qilamanki, o'g'lingiz, 12-Don kazaklar polkining kazagi – Grigoriy Panteleyevich Melexov, ushbu yil 16-sentabrga o'tar kechasi Kamenka-Strumilovo shahri yonidagi jangda vafot etdi. O'g'lingiz qahramonlarcha halok bo'ldi. Bu narsa boshingizga tushgan shu og'ir musibatli kunlarda sizga tasalli bergay. Uning buyumlari tug'ishgan akasi Petro Melexovga topshiriladi. Oti polkda qoldi.**

**To'rtinchi sotnya komandiri podesaul** *«Polkovnikov, Harakatdagi armiya, 18-sentabr, 1914-yil».*

Grigoriyning vafot etganligi to'g'risida xabar olgandan keyin, ko'p o'tmay, Panteley Prokofyevich birdan munkayib qoldi. Kundan kunga uni qarilik yengayotgani yaqinlariga aniq ko'rinib turardi. Og'ir musibatdan chol xok-turob bo'lish darajasiga yetgan, miyasi aynigan, esi kirdi-chiqdi bo'lib qolgan edi. U qorayib ketgach, bukchaygan holda uy ichida u yoqdan bu yoqqa yurar, isitmadan qizargan ko'zlari ruhan iztirob chekayotganini bildirar edi.

Sotnya komandiridan kelgan xatni chol o'z qo'li bilan ikona tagiga qo'ygan edi, kuniga to'rt-besh marta dahlizga chiqib, Dunyashkani imlab chaqirardi:

– Bu yoqqa kel, – derdi. Qiz uning oldiga chiqardi.

– Grigoriy to'g'risidagi haligi xatni olib kel. O'qi! – deb buyurar, mehmonxona eshigiga hadiksirab qarab-qarab qo'yardi; dardiga malham topmagan Ilinichnaning tinimsiz nolasi shu eshikdan eshitilib turardi. – Sekinroq o'qi, ovozingni chiqarmasdan o'qi, – deb chol ayyorona ko'z qisar va ikki bukchayib eshik tomonni imlab ko'rsatardi, – sekinroq o'qi, onang eshitib qolsa... xudo ko'rsatmasin...

Dunyashka ko'z yoshlarini yutib, birinchi jumlani o'qir edi, lekin cho'nqayib o'tirgan Panteley Prokofyevich, tuya tovoniday kattakon, qop-qora kaftini ochib ko'tarar:

– To‘xta! Bo‘ldi, u yog‘ini bilaman... – derdi. – Xatni joyiga eltib qo‘y... Sekinroq qo‘ygin, onang sho‘rlik tag‘in... – U yana haligi ko‘z qisishini qilar va o‘tda yonayotgan daraxt po‘stlog‘iday buralib, ikki bukilib ketardi.

Cholning sochlari har yer-har yerdan oqara boshladi, tez orada boshi oppoq qorday yaltirab qoldi, soqoliga oq oraladi. Chol badnafs bo‘lib qoldi, ovqatni ko‘p yer, to‘kib-sochib yer edi.

Ta’ziyaning to‘qqizinchi kuni halok bo‘lgan askar Grigoriyning ma’rakasiga pop Vissarionni chaqirib keldilar.

Panteley Prokofyevich yutoqqan odamday, ovqatni chaynamasdan ustma-ust yutardi, soqoliga ugra yopishganiga ham parvo qilmasdi. So‘nggi kunlarda cholidan xavotirlanib, unga razm solib yurgan Ilinichna yig‘lab yubordi:

– Dadasi! Senga nima balo bo‘ldi?..

– Nima-a? – deb shoshqaloqlab qoldi chol, sirlangan tovoqdan zo‘rg‘a boshini ko‘tarib.

Ilinichna qo‘l siltab, guldor dastro‘molini mijig‘lab ko‘zlarini artdi-da, yuzini teskari o‘girib oldi.

– O‘zingiz ham, dada, xuddi uch kundan beri ovqat yemaganday entikasiz-ki! – dedi zarda bilan Darya ko‘zlarini olaytirib.

– Men-a? Ha, xo‘p... xo‘p... xo‘p... bas qildim... – dedi Panteley Prokofyevich xijolat tortib. U stol atrofida o‘tirganlarga alanglab qaradi va lablarini chapillatdi-da, sukutga ketdi; u endi qovog‘ini solib olgan, savollarga javob ham bermas edi.

Ma’raka oshidan keyin pop Vissarion:

– O‘zingni bardam tut, Prokofich, – deb unga tasalli bermoqchi bo‘ldi. – Nega bunchalik qayg‘urasan, axir? O‘g‘ling shahid ketdi, chol, xudoning qahrini keltirma. O‘g‘ling podshoh uchun, vatan uchun jonini fido qildi, sen bo‘lsang... Gunoh bo‘ladi, Panteley Prokofich, gunohkor bo‘lasan... Xudo kechirmaydi!

– Bundan ortiq nima qilay, hazrat... O‘zimni bardam tutyapman. «Qahramonlarcha halok bo‘ldi», deb yozibdi komandir.

Chol popning qo‘lini o‘pgandan keyin, eshik kesakisiga suyanib qoldi va o‘g‘li o‘lganligi to‘g‘risida xabar kelgan kundan beri endi ho‘ngrab yig‘ladi.

Shu kundan e'tiboran u o'zini tutib oldi, ruhan sog'aydi.

Oilada har kim o'z dardiga o'zi bilganicha malham qo'yardi.

Dunyashkaning og'zidan «Grigoriy o'libdi» degan so'zni eshitgan hamon Natalya hovliga yugurib chiqdi. «O'zimni o'ldiraman! Yorug' dunyo menga qorong'i bo'ldi! Tezroq!» – degan xayol uni talvasaga solgan edi. Natalya Daryaning qo'lidan chiqolmay talpinardi, hushidan ketgan mahallari joni orom olar, lekin yana o'ziga kelishiga, ro'y bergan hodisaning yana esiga tushishiga sira yuragi yo'q edi. Bir haftagacha es-hushini yo'qotib yurdi, so'ngra o'ziga keldi; u endi madori qurib shaloyim bo'lib qolgan, g'am-g'ussa uni adoyi tamom qilgan edi. Melexovlar qo'rasida ko'zga ko'rinmas bir sharpa aylanib yurar, tirik qolganlar dimog'idan bo'ta-ko'z isiga o'xshash murda hidi kecha-yu kunduz ketmasdi.

## XVII

Grigoriy o'ldi, degan xabar kelgandan keyin o'n ikki kun o'tgach, Melexovlar oilasi Petrodan bir yo'la ikkita xat oldi. Dunyashka pochtaxonadayoq xatlarni o'qib chiqdi va quyun uchirgan xasday, goh gandiraklab, goh chetan devorlarga suyanib, uyiga tomon chopdi. Qishloqni rosa besaranjom qilib, uy ichini mislsiz hayajonga soldi.

– Tirik ekan! Grisha tirik!.. Akajonginam tirik ekan!.. – deb ho'ngrab kelardi Dunyashka olisdan. – Petrodan xat!.. Grisha yarador bo'pti, o'lmagan ekan!.. Tirik, tirik ekan!..

– Qimmatli otamiz, mehribon onamizga salom, – deb boshlanardi Petroning 20-sentabrda yozgan xati. – Sizlarga ma'lum bo'lg'aykim, bizning Grishkamiz oz bo'lmasa, jon taslim qilgan edi, lekin xudoga shukurkim, tirik qoldi va hozir sog'-salomatdir, sizlarga ham xudovand karimdan sog'-salomatlik hamda xotirjamlik tilaymiz. Kamenka-Strumilovo shahri yonida uning polki jangda bo'lgan ekan, hujumga kirgan mahalda venger gusari unga qilich solganini va Grigoriyning otdan qulaganini hamvzvod sheriklari ko'ribdi, lekin u yog'i nima bo'lgani ma'lum emasdi, men ulardan ko'p surishtirib ko'rdim, biroq ular boshqa hech gap ayta olmadilar. Keyinchalik Mishka Koshevoydan nima bo'lganini eshitdim, Mishka

aloqa bog‘lash uchun bizning polkka kelib qoldi. Grigoriy yarim kechagacha behush yotibdi, kechasi o‘ziga kelib, emaklab yura boshlabdi. Yulduzga qarab yo‘l topib, emaklab boraveribdi, birdaniga yarador ofitserimizga duch kelibdi. Bu ofitser dragun polkining polkovnigi ekan, to‘p o‘qi portlaganda, oyog‘idan hamda qornidan yarador bo‘lgan ekan. Grigoriy uni olti chaqirim joygacha orqalab olib boribdi. Shu ishi uchun unga Georgiy kresti berilibdi hamda Grishkani mladshiy uryadnik qilib ko‘tarishibdi. Masala shunday! Grishkaning jarohati hech xavotirli emas, dushman qilichi boshiga sal-pal tegib ketibdi, bir oz terisi shilinibdi, xolos; faqat otdan yiqilayotganda esi og‘ib qolibdi. Endi safga qaytib keldi, deydi Mishka. Pala-partish yozilgani uchun meni kechirasizlar. Egar ustida o‘tirib yozdim, chayqalib ketyapman.

Ikkinchi xatida Petro «Qadrdon Dondagi o‘z bo-g‘imizning olcha qoqisidan yuboringlar» deb so‘ragan hamda tez-tez xat yozib turishni unutmang, deb iltimos qilgan edi; shu xatida u Grigoriyni so‘kib yozgandi. Ko‘rgan-bilgan kazaklarning gapiga qaraganda, ukasi otga yaxshi qaramas ekan, shunisi unga, ya’ni Petroga alam qilibdi, chunki, to‘riq uniki, ya’ni Petroning o‘z puliga kelgan ot; shu to‘g‘rida u Grigoriyga xat yozishni otasidan iltimos qilgan edi.

«Men kazaklar orqali qattiq tayinladim: agar otga o‘zinikiday qilib yaxshi qaramaydigan bo‘lsa, ro‘para kelganimda og‘zi-burnini qop-qora qon qilaman, krest oldim deb taltaymay qo‘ya qolsin, dedim», – deb yozgan va xatining oxirida beadad salomlar yuborgan edi. G‘ijimlangan, yomg‘irda ivigan xatdan alamzadalik, xafaqonlik hidi kelardi. Aftidan, Petroning ham ahvoli og‘irligi, xizmatda emas, kulfatda ekani bilinib turardi.

Suyunchidan o‘zini yo‘qotib qo‘ygan Panteley Prokofyevichning avzoyi ayanchli edi. U ikkala xatni ham changallab olib qishloq ko‘chasida tentirab yurar, savodlilarning yo‘lini to‘sib xatni o‘qitardi, o‘qitib eshitish uchun emas, yo‘q, u kechikib kelgan shodiyona xabarni butun qishloqda e’lon qilib maqtanmoqchi bo‘lardi.

– Ha-ha! Ko‘rdingmi mening Grishkamni? A? – O‘qiyotgan odam tutila-tutila, Petro o‘z ukasi Grigoriyning botirligini ta’riflab:

«Olti chaqirim yergacha yarador podpolkovnikni orqalab boribdi» deb yozgan joyiga yetganda, chol darhol tuyatovon kaftini tikka ko'tarardi.

– Qishlog'imizda eng birinchi krestni Grisha olibdi, – deb maqtanardi chol va xatni qizg'anib, darrov qaytib olar, uni mijig'langan furajkasining astari orasiga tiqardi-da, boshqa savodxon kishini qidirishga tushardi.

Sergey Platonovich do'kon derazasidan uni ko'rib qoldi-da, darhol shapkasini olib, peshvoz chiqdi.

– Bir kirib o't-chi, Prokofyevich.

U oppoq va go'shtdor qo'llari bilan cholning qo'lini qisib ko'rishdi.

– Xo'sh, muborak bo'lsin, muborak... Shunday o'g'lim bor deb maqtansa bo'ladi, siz esa, ma'raka qilib yuribsiz. Uning qahramonligini gazetalardan o'qib bildim.

– Gazetada ham yozishibdimi? – dedi tomog'i qurib tupugini yutolmay qolgan Panteley Prokofyevich.

– Shunday xabar bor, o'qidim, o'qidim.

Sergey Platonovich sechorak eng yaxshi tamakini taxta ustidan o'z qo'li bilan oldi-da, o'lchamayoq, qimmatbaho konfetlardan o'rab berdi, hammasini Panteley Prokofyevichga topshirar ekan:

– Grigoriy Panteleyevichga posilka yuborganda mendan salom ayt, shu narsalarni qo'shib yubor, – dedi.

– Yo xudo-yim-me-ey! Grishkaning izzatini qaranglar-a!.. Butun qishloqning og'zida Grishka... Shunday kunlarga ham yetar ekanman, – deb shivirlardi chol, Moxov do'konining zinasidan tushib kelayotib. U burnini qoqib, yuzini qichitgan yoshni chakmon yengi bilan artdi-da, o'ylanib qoldi: «Qaridim shekilli. Sal narsaga ko'zimdan yosh keladi... Eh, Panteley, Panteley, kuch-quvvatlaring qaylarda qoldi-a? Ilgarilari metinday eding, sakkiz pudlik qoplarni kemadan dast ko'tarib tushiraverarding, endi-chi? Grishka adoyi tamom qildi meni...»

Chol qog'ozga o'ralgan konfetlarni bag'riga bosib, ko'chada oqsab borardi, lekin butun fikri, botqoqzor ustida parvona bo'lib uchib yurgan kurkuldak singari Grigoriy atrofida gir aylanar, Petro-

ning xatidagi so‘zlar esiga tushar edi. Shu asnoda qudasi Korshunov uning oldidan chiqib qoldi.

– Hoy, quda, birpas to‘xtagin! – deb Korshunov uni chaqirdi.

Urush boshlangandan beri ikkisi ko‘rishmagan edi. Grigoriy uydan ketgan kundan boshlab ikkisining orasiga, dushmanlik oraladi deb bo‘lmasa ham, sovuqchilik tushib qolgan edi. Natalya o‘zini Grigoriy oldida yerga urib, unga yalinganligi uchun Miron Grigoryevich qizidan qattiq xafa edi. Miron Grigoryevichday kishining el ko‘zida sharmisor bo‘lishiga qizi sabab bo‘lgan edi.

– Qiz emas, adashgan qanjiq, – deb so‘kardi Natalyani uy-ichidagilar orasida, – otasining uyida turavermaydimi, qaynatasinikiga ketib qoldi-ya, ularning noni shirinroq ko‘rindi. Bu tentakning dastidan sharmisor bo‘ldim, ko‘chada bosh ko‘tarib yurolmay qoldim.

Miron Grigoryevich qudasining yoniga yaqin borib, sepkil toshgan qo‘lini uzatdi.

– Salomatmisan, qudajon!

– Xudoga shukur, quda.

– Xarid qilib qaytdingmi deyman?

Panteley Prokofyevich bo‘sh turgan o‘ng qo‘lini kerib, bosh chayqadi.

– Yo‘q, bizning qahramonga sovg‘a olib ketyapman. Saxovatli Sergey Platonovich uning botirligini gazetalardan o‘qib bilibdi, manavi konfet bilan quling o‘rgilsin tamakini siylov qildi. – «Shularni qahramon o‘g‘lingga yuborgin hamda mendan salom aytib qo‘ygin, bundan keyin ham shunday mardona ish ko‘rsatsin», – deydi. Ko‘zidan tirqirab yosh oqib ketdi-ya, buni qarang, quda! – deb zo‘r berib maqtanardi Panteley Prokofyevich va gapi qanday ta’sir etganini bilmoqchi bo‘lib, qudasining yuziga qattiq tikilardi.

Qudasi yerga qarab turganidan qovog‘i ostiga kipriklarining soyasi tushar, shuning uchun u xuddi birovni masxara qilib kulayotganga o‘xshardi.

– Shunda-ay degin, – Korshunov tomog‘ini qirib qo‘yib, ko‘chaning narigi betidagi chetan devor tagiga o‘tdi.

Panteley Prokofyevichning jahli chiqdi, qaltiroq barmoqlari bilan konfet o‘ralgan qog‘ozning og‘zini ochib, ketidan ergashdi.

– Manavi konfetdan yegin, asal solgan ekan!.. – deb istehzo bilan manzirat qildi chol. – Marhamat, quda, ol, kuyov sovg‘asidan sen ham yeb ko‘r... Turmushing zaharga aylangan, tortinmay olaver, hali bunaqa sovg‘a o‘g‘lingga nasib bo‘ladimi, yo‘qmi, kim bilsin.

– Mening turmushim bilan ishing bo‘lmasin. Turmushim o‘zimga ma’lum.

– Totib ko‘r, axir, qo‘lim qaytmasin! – haddan ziyoda takalluf bilan Panteley Prokofyevich qudasining yo‘lini to‘sib, oldida parvona bo‘lardi. Bujmaygan barmoqlari ila yupqa zar qog‘ozga o‘ralgan konfetni ochib uzatardi.

– Biz shirinlikka o‘rgangan emasmiz, – derdi Miron Grigoryevich qudasining qo‘lini itarib tashlab. – Shirinlikka o‘rgangan emasmiz, birovlarning shirinligini yesak, tishimiz to‘kiladi. Senga-chi, quda, o‘g‘ling uchun sadaqa yig‘ib yurishlik juda uyat. Qiynalgan bo‘lsang, mening oldimga borgin edi. Kuyovim uchun men hech narsamni ayamasdim... Natashka sizning noningizni yeb yotibdi-ku. Kambag‘allashgan bo‘lsang, men qarashvorardim.

– Yetti pushtimizdan tortib, bizning avlodda hech kim tilanchilik qilgan emas, quda, tilim bor deb bekorga aljirayverma! Judayam kekkayib ketibsan, quda!.. Maqtanish ham evi bilan-da!.. Boyliging oshib-toshib ketganligi uchun qizing biznikiga kelib qolgan ekanda?

– Shoshma! – dedi qat’iy qilib Miron Grigoryevich. – Aytishib o‘tirishning foydasi yo‘q. Men sen bilan so‘kishmoqchi emasman, quda, o‘zingni bosib ol. Qani yur, senda ishim bor, gaplashamiz.

– Oramizda gaplashiladigan gap qolmagan.

– Unday dema, hali gap ko‘p. Qani yur.

Miron Grigoryevich qudasining chakmoni yengidan ushlab, tor ko‘chaga sudradi. Ular qo‘ralar yonidan o‘tib dashtga chiqishdi.

Panteley Prokofyevich jahlidan tushib, o‘ziga keldi:

– Qanaqa ish ekan? – deb so‘radi u. Korshunovning sepkil toshgan mallarang yuziga chol ko‘z qirini tashladi. U esa syurtugining uzun etagini qayirib, zovur chetidagi do‘ngga o‘tirdi, chetiga popuk taqqan eski tamaki xaltasini yonidan chiqardi.

– Ko‘rdingmi, Prokofich, hech narsadan hech narsa yo‘q, sen urishqoq xo‘roz singari chovut solmoqchi bo‘lasan, bunaqa qiliq

quda-andachilikka sira yarashmaydi. Har holda durust emas, a? Men bilmoqchiman, – dedi qat'iy qilib. U boshqacharoq, dag'alroq ovozda gapira boshladi. – O'g'ling·Natalyani qachongacha sarson qilmoqchi? Menga shuni ayt-chi!

– Buni o'zidan so'ra!

– Undan so'rab o'tirishimga hojat yo'q, qo'ra boshlig'i sensan, men sen bilan gaplashaman.

Panteley Prokofyevich ochilgan konfetni mijig'ladi. Barmoqlari orasidan erigan shokolad shirasi oqib ketdi. Zovur chetidagi serkesak tuproqqa kaftini artdi, indamay, tamaki chekish taraddudiga tushdi. Qog'oz buklab, choraktalik pachkadan bir chekim tamakini soldi va pachkani qudasiga uzatdi. Miron Grigoryevich qo'lini qaytarmadi, Moxovning sovg'asini baham ko'rib, u ham tamaki o'rashga tutindi. Papiroslarini tutatib oldilar. Oppoq ko'pik singari ko'ksini kergan bir parcha bulut ikki cholning qoq tepasida muallaq turar, ingichka va juda nozik mezon ipi shamolda lipillab, yerdan osmonga ko'tarilar, ko'z ilg'amas balandlikdagi o'sha bulut qoshiga uchib borardi.

Kun qaytgan payt. Kuzning tasvirga sig'maydigan ajoyib va orombaxsh sukunati cho'kkan. Osmon yoz mahalidagi musaffoligini, moviyligini yo'qotgan, bo'zarib qolgan. Zovur ustini allaqaysi go'rdan kelgan qizg'ish olma barglari bosib ketgan. To'lqin singari baland-past tog' sirtlari orqasidagi yo'l har tomonga taralib, odamni o'z qoshiga chaqirayotganga, zumradday tovlangan, tushdagiday noaniq ko'ringan ufq tomonga imlab chorlayotganga o'xshaydi, lekin odamlar uy-joyini, ro'zg'orini tashlab ketolmaydi, tirikchilik oyog'ini kishanlab qo'ygan, hali u ish, hali bu ish, o'rish-yanchish bilan ovora, shu ahvolda horib-tolib umrlari o'tadi, shu sababdan yo'lda qimirlagan jon ko'rinmaydi, yo'l esa, intizor bo'lib termiladi va ufq chizig'ini kesib ko'z ilg'amas tomonlarda g'oyib bo'ladi, shamol uning changini o'ynatadi.

– Tamakisi bo'sh ekan, poxolga o'xshaydi, – dedi Miron Grigoryevich, og'zidan tutun burqsitib.

– Bo'shroq ekan, lekin... tami tuzuk, – deb uning gapini ma'qulladi Panteley Prokofyevich.

– Menga javob qil, quda, – dedi Korshunov asta papirosini o‘chirib.

– Bu to‘g‘rida Grigoriy hech nima yozgani yo‘q. Hozir o‘zi yarador.

– Eshitganman...

– U yog‘i nima bo‘lishini bilmayman. Tirik qoladi deb ham bo‘lmaydi. Kim bilsin?

– Bu nima degan gap, quda? – Miron Grigoryevich sarosimalikka tushib, ko‘zlarini pirpiratib qo‘ydi. – Qiz desang – qizga o‘xshamasa, xotin desang – xotinga, na erining tayini bo‘lsa, bu nima degan sharmandagarchilik, a? Bunday bo‘lishini bilganimda sizdaqa sovchilarni eshigimga ham yo‘latmasdim, bu nima ko‘rgilik axir!.. Hey, quda, quda. Har kim o‘z farzandiga achinar ekan!.. Pusht kamaringdan bo‘lgandan keyin qiyin-da...

Panteley Prokofyevichning zardasi qaynasa-da, o‘zini tutib:

– Endi nima qil deysan? – deb hujumga o‘tdi. – Qani o‘zing ayt-chi! O‘g‘limning uydan ketib qolgani menga alam qilmaydimi? Uni ketkizib shoxim chiqdi-mi? Odamlar judayam g‘alati-ya, tavba!

– Sen unga xat yozgin, – dedi shartta Miron Grigoryevich; uning kaftlari ostidagi qizg‘ish tuproq gapiga jo‘r bo‘lganday shitirlab mayda-mayda iz solib zovurga quyulardi. – Bo‘lar-bo‘lmasini uzil-kesil aytsin.

– Anavidan bola ko‘rgan, axir.

– Bunisidan ham bola ko‘radi! – dedi baqirib qizarib ketgan Korshunov. – Tirik jonga tokaygacha azob beradi? A?.. Bir karra o‘zini o‘ldirishga qasd qilib-ku majruh bo‘lib qoldi... Endi shu bechorani go‘rga tiqmoqchimi? A? Yoki... – Miron Grigoryevich bo‘g‘iq ovoz bilan shivirlab gapirar, bir qo‘li bilan o‘z ko‘ksini tirnar, ikkinchi qo‘li bilan qudasining etagidan tortardi, – yoki o‘g‘lingning yuragi toshga aylanib ketganmi?

Panteley Prokofyevich pishillar, yuzini teskari o‘girardi.

– ...uning dardida sho‘rlik quruq cho‘p bo‘p qoldi, usiz dunyo ko‘ziga qorong‘i, yashay olmaydi. O‘ziyam, senikida cho‘ridan besh battar bo‘lib yuribdi.

– Ovozingni o‘chir! Natalya o‘z bolamizdan afzal! – deb qichqirdi Panteley Prokofyevich o‘rnidan turib.

Ikki chol xayrlashmasdan ikki yoqqa ketdilar.

## XVIII

Hayot izidan chiqqandan keyin buloq singari bir necha tarmoqqa bo‘linib ketadi. Lekin bu munofiq va makkor oqimning qaysi tarmoqqa burilishini aniq bilib olish nihoyatda qiyin. Agar, bugun hayot jilg‘aga o‘xshab sayozlana boshlasa, shu darajaga yetadiki, hatto tagidagi iflos balchiqlari ham ko‘rinib qoladi, ertasi esa suvi ko‘payib daryoday to‘lib-toshib oqaveradi.

Kunlardan bir kun Natalya o‘zidan o‘zi: Yagodnoyega, Aksinya qoshiga borsam, yalinib-yolvorib Grigoriyni qaytarib olsam, degan qarorga keldi. U negadir hamma gap Aksinyada deb gumon qilar, shuning uchun uni ko‘ndirsam, Grigoriy ham, qadimgi baxtli kunlarim ham qaytib keladi deb ishonar edi. Lekin bu mumkin bo‘ladimi, yo‘qmi, bunday g‘alati iltimosga Aksinya nima deydi, bu to‘g‘rida Natalya sira o‘ylamasdi. To‘satdan ko‘ngliga kelgan va o‘ziga ma’qul tushgan bu qarorni u tezdan amalga oshirishga shoshilardi. Oy oxirida Melexovlar Grigoriydan xat olishdi. Ota-onasiga duo-yu salomlar aytib bo‘lgandan keyin, Natalyaga ham benihoya salom yuborgan edi. Grigoriy bu gal nega uni tilga olganligini Natalya bilmasa ham, lekin shu xat unga dalda bo‘ldi: yakshanba kuni Yagodnoyega borishga otlandi.

– Qayoqqa ketyapsan? – deb so‘radi Dunyashka, Natalyaning bir parcha siniq oynaga o‘zini solib, qattiq tikilib qolganini ko‘rib.

– Uydagilarning holidan xabar olib kelay, – dedi Natalya yolg‘ondan, lekin o‘zi qip-qizarib ketdi. Natalya yuzini shuvut qilib, jonini azobga solish uchun ketayotganini endigina payqagan edi.

– Umringda biron marta men bilan sayilgohga borsang nima qiladi, axir? – deb so‘radi bezanayotgan Darya. – Kechqurun borasanmi, Natalya?

– Bilmadim, borolmasman.

– Voy, avliyo-ye! Faqat biz ekan-da, erimiz yo‘g‘ida o‘ynaydigan, – deb ko‘z qisib, qichiq qildi Darya. U egnidagi och havorang

yubkasining guldor etagini oynaga solib qarar, novdaday buralib, egilardi.

Petro jo'nagandan beri Darya tamoman boshqacha bo'lib qoldi: erining yo'qligi unga yomon ta'sir qilgan edi. Uning yurish-turishi, harakatlari va ayniqsa ko'zlari bejo bo'lib qoldi. U har yakshanba yasanib-tusanib olar, sayilgohdan juda kech qaytar va jig'ibiyroni chiqib Natalyaga hasrat qilardi:

– Sho'rimiz qursin!.. Ko'zga ilinadigan hamma kazak urushda, qishloqda bolalar bilan chollar qolibdi, xolos.

– Buncha kuymasang?

– Nega kuymayin? – deb taajjublanardi Darya.

– Sayilgohda ko'ngil yozay desang, bironta odam topilmaydi. Loaqal tegirmonga ham yolg'iz yuborishmaydi, darrov qaynatam o'lgur qo'shiladi, yonidan bir qarich siljib ko'r-chi...

Darya sharm-hayoni bir chekkaga yig'ishtirib, Natalyadan ro'y-rost so'rayverardi:

– Aylanay ovsin, ersiz qanday chiday olasan-a?

– Qo'y-e, sharmanda! – derdi Natalya loladay qizarib.

– Nafsing tilamaydimi?

– Seniki juda tilab qolganga o'xshaydi-a?

– Tilaydi, ovsinjon! – deb hoholardi Darya; uning yuzlari qizarib ketar, qayrilma qoshlari uchardi.

– Nimasini yashiraman, sog'indim... Axir, o'zing bundoq o'ylab ko'rgin, Petroning ketganiga ikki oy bo'ldi-ya!

– Sen bir baloga yo'liqasan, Darya...

– Voy, so'fi oyim-ey! Sizdaqa pismiqlarni juda yaxshi bilamiz. Ichingda o'lib turibsan-ku, iqror bo'lging kelmaydi-ya.

– Hech narsadan hech narsa yo'q, nimaga iqror bo'laman?

Darya iljayib unga qiyo boqar, o'tkir mayda tishlari bilan lablarini tishlab, hikoya qilardi:

– Anavi kun sayilgohda atamanning o'g'li Timoshka Manitskov yonimga kelib o'tirib oldi. Terlab-pishib ketibdi. Qarasam, bir nima demoqchi-yu, og'zini ochishga qo'rqadi... Keyin asta-sekin qo'lini

qo‘ltig‘imdan o‘tkazdi, qo‘li qalt-qalt qiladi. Men o‘zimni bosib, damimni chiqarmay jim turaverdim, zardam qaynab tursa ham chidadim, koshki yigit siyog‘i bo‘lsa, mishiqi bola!.. O‘n oltiga kirgan bo‘lsa kirgandir undan ortiq emas, ko‘rdingmi, yoshiga qaramaydi... Miq etmay o‘tiraverdim, u yog‘imni ushladi, bu yog‘imni ushladi, keyin: «Yur, bizning g‘aramga boramiz!» desa bo‘ladimi? Men o‘ziniyam rosa bopladim!..

Darya xursand bo‘lib, qotib-qotib kular, qoshlari uchar, ko‘zlaridan o‘t chaqnar edi.

– Shunday adabini berdimki! Irg‘ib turdim-u: «Voy, tiling kesilgur-e! Og‘zingdan emizik tushmay turib-a! Bu nima deganing menga, mishiqi? Yaqindagina o‘rningga siyib chiqarding, endi odam bo‘lib qoldingmi?» – deb rosa koyidim.

Natalya bilan ikkisining orasidan qil o‘tmasdi.

Darya kichik ovsinga nisbatan bo‘lgan ilgarigi gina-kuduratlarini ko‘nglidan chiqarib tashlagan, fe’li bir-biriga o‘xshamagan bu ikkala ayol inoq bo‘lib olgan edilar.

Natalya kiyinib bo‘lib mehmonxonadan chiqib ketdi.

Dahlizda Darya unga yetib oldi.

– Kechasi eshikni ochib berasanmi?

– Men dadamnikida yotib qolsam kerak.

Darya taroq bilan ikki qosh orasini qashlab o‘ylanib turdi-da, boshini silkib qo‘ydi.

– Ha mayli, boraver. Dunyashkaga yalinmay qo‘ya qolay devdim, iloj yo‘q, yalinarkanman.

Natalya Ilinichnadan, otamnikiga boraman, deb javob oldida, ko‘chaga chiqdi. Maydon tomonda bozordan qaytgan aravalar, cherkovdan chiqqan odamlar ko‘rinardi. Natalya ikki ko‘chani kesib o‘tdi-da, shartta chapga burildi. Shoshmasdan tepalikka chiqa boshladi. Dovonga yetganda ketiga burilib qaradi: pastda quyosh nuriga cho‘mgan qishloq, oqartirilgan oppoq uylar ko‘rinardi, tegirmonning nishob tomida oftob shu’lasi o‘ynar, tunukasi qip-qizil cho‘g‘day lovullar edi.

## XIX

Urush Yagodnoyedagi odamlarni ham terib-terib olgan edi. Veniamin bilan Tixon ketdi, ular jo'nagandan keyin bu yer avvalgisidan ham ko'ngilsiz, diqqinafas bo'lib qoldi. Veniaminning o'rnida hozir generalning xizmatini Aksinya qilib turardi; o'choq boshidagi og'ir yumushlar xo'ppa semiz Lukeryaga qolgan, parrandalarga qarash ham o'shanga yuklangan edi. Sashka bobo otboqarlik hamda boqqa qorovullik qilardi, faqat kucher yangi – yoshi qaytgan Nikitich degan savlatli kazak edi.

Bu yil pan ekin maydonini kamaytirdi, yigirmaga yaqin yilqini boquvga qo'ydi; faqat poygachi otlar bilan xo'jalikda ishlab turgan uchta nasldor Don oti qolgan edi. Pan ko'p vaqtini ovda o'tkazar, Nikitich bilan tuvaloq otgani chiqardi, ahyon-ahyonda tozi solib tevarak-atrofdagilarni bezovta qilardi.

Aksinyaga har zamonda bitta qisqacha xat kelar, Grigoriy hozircha eson-omon ekanini, xizmatini bajo keltirayotganini yozar edi. U tishini tishiga qo'yib chidaganidanmi yoki sir boy bergisi kelmaganidanmi, haytovur, xatida biron marta ahvoli og'irligi, zerikayotgani haqida og'iz ochmasdi. Xatlari sovuq, xuddi majbur bo'lganidan yozayotganday tuyulardi. So'nggi xatida: «...doim safda yurasan kishi, urush jonga tegib ketdi, tun-u kun ajalni opichlab yurish oson emas ekan», degan bir jumlani qistirib ketgan edi. Har safar xatida qizini so'rar, qizi to'g'risida yozib yuborishni iltimos qilardi: «...qalay mening Tanyusham, katta bo'ldimi? Yaqinda uni tushimda ko'rdim, kattakon qiz bo'lib, qizil ko'ylak kiyib olgan emish».

Sirtdan qaraganda, Aksinya judolikka bardosh berganday edi. Uning Grishkaga bo'lgan borliq muhabbati qiziga o'tgan edi, ayniqsa bola Grishkaniki ekaniga qanoat hosil qilgandan keyin mehri yanada ortdi. Hayot buni rad qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbot etardi: qizning dastlabki qora-qo'ng'ir sochlari to'kilib, tim qora jingalak soch chiqdi; ko'zlarining rangi o'zgarib, qop-qora shahlo ko'z bo'la boshladi. Kundan kunga qiz aynan dadasining tusiga kirib borar, hatto kulishlari ham Melexovlarnikiga o'xshab ketar, Grishka singari tirjayib kulardi. Endi Aksinya bolaning otasi kimligini aniq bilar, shuning uchun butun fikri-zikri bolada bo'lib qolgan edi; il-

gari u belanchak yoniga borsa, uxlab yotgan qizaloqning yuzida manfur Stepanning aftiga o'xshab ketgan bilinar-bilinmas alomatlar borligini sezib, seskanib tushardi, hozir esa u shunday shubhalardan tamoman qutulgan edi.

Tong otar, kun botar, kundan kunga Aksinyaning yurak-bag'ri qon bo'lardi. Sevgan odamining hayoti uchun xavotirlanib, vahimali xayollar miyasini chulg'ab olar, kecha-kunduz uni tinch qo'ymas edi. Ana shunday kezlarda, to shu damgacha o'zini bosib kela olgan Aksinya, ortiq chiday olmasdi: tuni bilan, unsiz faryod qilib, ko'z yoshlariga g'arq bo'lib oppoq tong ottirar, bolani uyg'otib yubormaslik uchun tovush chiqarmas, yuragini timdalagan azoblarni unutish uchun qo'llarini tishlab zor-zor yig'lardi. Bolaligi tutib ko'z yoshlarini qizining yo'rgak lattasiga surtar: «Modomiki, qiz Grishkaniki ekan, shunday qilsam, qanchalik sog'inganim unga darhol ayon bo'ladi», – deb o'ylardi.

Shu zayilda tong ottirib, kaltaklangandan battar shaloyim bo'lib o'rnidan turar: a'zoyi badani zirqirar, ikki chakkasi qattiq qisib lo'qillab og'rirdi, ilgarigi lo'ppiligini yo'qotgan, so'lg'in lablarining burchaklarida qayg'u-hasrat izlari – ajinlar paydo bo'lardi. Bu tunlar Aksinyani o'rtar, yosh umrini hazon qilardi.

Bir yakshanba kuni Aksinya panga nonushta kirgizib berdi-da, zinapoyaga chiqdi. Shu payt darvoza yoniga bir xotin kelib to'xtadi. Oppoq ro'mol ostida yonib turgan bir juft ko'z unga judayam tanish ko'rindi... Xotin darvoza turmini bosdi-da, hovliga kirdi. Aksinya Natalyani tanib rangi o'chib ketdi, sekin-asta unga tomon boraverdi. Ikkisi hovlining o'rtasida yuzma-yuz bo'lishdi. Natalyaning kavushlarini bir enlik chang qoplagan edi. U to'xtadi, ishda chiniqqan kattakon qo'llari jonsizday osilib qoldi; u pishillab nafas olar, nogiron bo'ynini o'nglamoqchi bo'lar, lekin uddalay olmasdi; shuning uchun chetga qarayotganga o'xshab ko'rinardi.

– Sening oldingga keldim, Aksinya, – dedi qaqragan lablarini yalab.

Aksinya uy derazalariga yalt etib bir qaradi-da, indamay, xizmatkorlar qo'rasidagi o'z hujrasi tomon yurdi. Natalya uning ketidan ergashdi. Aksinyaning ko'ylagi shitirlagani – uning qulog'ini tirnayotganday bo'lardi.

«Quloqlarim issiqdan zo‘riqib og‘riyotgan bo‘lsa kerak», – degan qarorga keldi turli-tuman xayollarga cho‘mgan Natalya.

Aksinya Natalyani uyga kirgizdi-da, eshikni yopib oldi. So‘ngra qo‘llarini oppoq fartugi ostiga suqib uy o‘rtasiga kelib to‘xtadi.

– Nega kelding? – sekin so‘radi Aksinya o‘smoqchilab.

– Bir qultum suv ichsam... – dedi Natalya va o‘tkir ko‘zlarini tikib, uyni boshdan oyoq qarab chiqdi.

Aksinya jim turaverdi. Natalya zo‘rg‘a ovoz chiqarib gapira ketdi:

– Sen meni erimdan ayirding... Grigoriyni qaytib ber!.. Sen... umrimni xazon qilding... Ahvolimga bir qaragin...

– Erimni qaytib ber? Ho! – Aksinya tishlarini tishlariga mahkam bosib olgan, g‘ijinib gapirardi. – Ersirab qoldingmi? Ho! Kimdan so‘rayotganingni o‘zing bilasanmi? Nega kelding? So‘raydigan paytni o‘tkazib yubording!.. Kech qolding!..

Aksinya butun vujudi bilan tebranib ketdi-da, zaharxanda qilib, Natalyaning ustiga bostirib keldi.

U endi o‘z dushmanining yuziga tikilib, boshiga it kunini sola boshladi. Mana kundoshi – Grigoriyning qonuniy, tashlandiq xotini hozir ro‘parasida qayg‘uga botib, xok-turob bo‘lib shumshayib turibdi; uni Grigoriydan judo qilgan, qon qaqshatib yig‘latgan, yuragini tilimlagan shu emasmidi? Sog‘inib somon bo‘lgan, o‘lar holatga yetgan chog‘larda Grigoriyning og‘ushida rohatlangan xotin shu. Balki o‘shanda Aksinyaning toleyi pastligidan kulgan, «tashlandiq o‘ynash» deb rosa masxara qilgan bo‘lsa ham ajab emas.

– Mendan sen hali Grishani so‘ragani kelding-mi? – derdi entika-entika Aksinya. – Hah ilonning yog‘ini yalagan makkor!.. Dastlab sen mening Grishkamni tortib olding! Sen, men emas.. Men bilan yurishini bilmasmiding – bilarding, nega unga tegding? Xo‘sh? Men o‘z Grishkamni qaytarib oldim; u meniki, undan bola ko‘rdim, sen-chi?..

Aksinya nafrat va adovat bilan Natalyaning ko‘ziga tikilar, qo‘llarini paxsa qilib eng behayo so‘zlarni ayamay uning ustiga yog‘dirardi:

– Mening Grishkam, hech kimga bermayman!.. Meniki! O‘zimniki! Eshitdingmi, hoy? O‘zimniki!.. Tuyog‘ingni shaqillat,

sen uning xotini emassan! Hali sen bolani yetim qo‘ymoqchimisan? Ho! Nega ilgariroq kelmading? Xo‘sh, nega, a?

Natalya yoni bilan borib kursiga o‘tirib qoldi, boshi shilq etib qo‘llari ustiga tushdi, yuzini kaftlari bilan berkitdi.

– Sen o‘z eringni tashlab ketgansan... Shallaqilik qilma!..

– Mening erim – Grishka. Dunyoda boshqa hech kimim yo‘q!..

Aksinya yuragi o‘rtanib alami ichiga sig‘may borayotganini sezdi, Natalyaning ro‘moli ostidan osilib, qo‘llari ustiga tushgan bir tutam qora sochiga tikilib qoldi.

– Senga ko‘zi uchib turibdimikin? O‘zingga bir qaragin, bo‘yning qiyshayib qolibdi! Nimangga xushtor bo‘ladi? Sog‘ingda-ku, tashlab ketdi, endi nogiron bo‘lganingda boshiga uradimi? Grishkadan umidingni uzaver! Gap tamom, vassalom! Boraver!

Aksinya o‘z uyasini himoya qilgan qush singari chirillar, kechirgan kulfatlarining alamini olardi. Natalyaning bo‘yni biroz qiyshayganligiga qaramay, hali ham avvalgiday chiroyli ekanini, yonoqlari va dudoqlari gulday chaqnab turganini ko‘rib xunob bo‘lardi, o‘zining ko‘zlari ostiga bevaqt ajin tushganiga shu kundosh sabab bo‘lgan emasmidi?

Natalya g‘am cho‘kkan ko‘zlarini ko‘tarib:

– Sendan yaxshilik chiqmasligini oldindan bilardim, – dedi.

– Bilsang nega kelding? – deb o‘shqirdi Aksinya.

– Hasrat sudradi meni.

Vag‘ir-vug‘ur shovqindan karavotda yotgan qizcha uyg‘ondi va boshini ko‘tarib yig‘lay boshladi. Aksinya bolani ko‘tarib oldida, derazaga o‘girilib o‘tirdi. Natalya titrab-qaqshab bolaga tikilib qoldi. Tomog‘iga bir narsa tiqilganday bo‘ldi. Bola qiziqsinganday ma’nodor ko‘zlarini unga tikdi, Natalyaning nazarida Grigoriy qarab turganday bo‘lardi.

Natalya yig‘lay-yig‘lay, gandiraklab zinapoyaga chiqdi. Aksinya uni kuzatmadi ham.

Birozdan keyin Sashka bobo kirdi, masalani fahmladi shekilli:

– Bu qanaqa xotin? – deb so‘radi.

– Qishloqdan kelgan bir ayol-da.

Natalya qo‘rg‘ondan uch chaqirimcha uzoqlashgandan keyin yovvoyi tog‘olcha tagida yonboshladi. U endi hech narsani

o‘ylamas, haddan tashqari og‘ir g‘am ichida qolgan edi. Bolaning kichkinagina yuzida javdiragan, Grigoriynikiga o‘xshagan qop-qora g‘amgin ko‘zlari uning ko‘z o‘ngidan sira ketmasdi.

## XX

O‘sha tunning xotirasi umrbod esdan chiqmaydigan bo‘lib Grigoriyning miyasiga o‘rnashgan edi. U tongotar mahalida hushiga kelib, u yoq-bu yog‘ini paypaslab ko‘rdi, qo‘liga don qiltanoqlari tikanday botdi, boshi achishib og‘riganidan ingrab yubordi. Bir amallab qo‘lini zo‘r-bazo‘r ko‘tarib peshonasini ushlab, laxta-laxta qon aralash qotib qolgan bir tutam sochini siladi. Yaralangan joyga barmog‘ini tegizib ko‘rganda, jarohati cho‘g‘ bosganday jazillab ketdi. Tishlarini g‘ijirlatib chalqanchasiga yotib oldi. Ertalabki sovuq urgan daraxt barglari uning tepasida shitirlab nola qilishardi. Qoraygan novdalar orasidan ko‘m-ko‘k osmon va yiltiragan yulduzlar ko‘rinardi. Grigoriy ko‘zlarini yummay katta ochib yotar, nazarida, bular – yulduz emas, balki yaproqlarning bandlarida osilib turgan qandaydir ko‘kimtir-sarg‘ish mevalarga o‘xshardi.

Qanday hodisa yuz berganini va uning oqibati nima bo‘lishini anglagan Grigoriy vahm ichida tishini tishiga qo‘yib emaklay boshladi. Og‘riqqa chiday olmay goho mukka tushib yotib olardi... Nazarida, anchadan beri emaklayverib xiyla joyga yetganday bo‘ldi; zo‘r-bazo‘r orqasiga burilib qaradi, ellik qadam yerda qoraygan daraxt ko‘rindi, boyagina shu daraxt tagida muzlab hushsiz yotgan edi-ku...

Bir marta o‘likka duch keldi, ichiga kirib tarashadek qotgan qorniga tirsagini tirab ustidan oshib o‘tdi. Qoni ko‘p ketgani uchun ko‘ngli lohaslanib, o‘zini tutolmay boladay yig‘lab yubordi, esi og‘ishidan qo‘rqib shabnam tushgan nordon ko‘katni shimiy boshladi. To‘nkarilib yotgan o‘q-dori yashigi oldiga yetgach, o‘rnidan turdi va anchagacha gandiraklab joyidan qo‘zg‘alolmay tik turib qoldi, so‘ngra yurib ketdi. Unga darmon kirib qattiq-qattiq qadam tashlay boshladi. Yetti qaroqchi yulduzga qarab sharq tomon qayoqdaligini payqab oldi.

O‘rmon yoqasida allakimning xirillagan ovozini eshitib to‘xtadi:

– Yaqin kelma, otaman!

To‘pponcha barabani shiqirladi. Grigoriy tovush kelgan tomonga tikilib qaradi: qarag‘ay tagida allakim boshini ko‘tarib yotardi.

– Kimsan o‘zing? – deb so‘radi Grigoriy. O‘z ovozi unga birovning tovushiga o‘xshab eshitildi.

– Rusmisan? Xudoyim-ey!.. Kelaver! – dedi qarag‘ay ostidagi odam yer bag‘irlab yotib olib.

Grigoriy uning oldiga bordi.

– Engash, – dedi u.

– Engasholmayman, – dedi Grigoriy.

– Nega?

– Boshim yarador, yiqilsam, qaytib turolmayman, boshimga qilich tekkan...

– Qaysi qismdansan?

– O‘n ikkinchi Don polkidan.

– Menga yordam qil, kazak.

– O‘zim zo‘rg‘a turibman, yiqilib tushaman, janobi oliy. (Grigoriy yaradorning shinelidagi ofitsercha pogonini ko‘rib qoldi).

– Yo‘qsa, qo‘lingni ber.

Grigoriy ofitserga yordamlashib o‘rnidan turg‘izdi. Ikkisi yo‘lga tushdi. Lekin yurgan sayin yarador ofitser butun og‘irligini Grigoriyga tashlab, uning qo‘liga qattiq osilib oldi. Jarlikdan tepaga ko‘tarilishayotganda, u, Grigoriyning yengidan mahkam ushladi-da, tishlarini g‘ijirlatib:

– Meni tashlab ket, kazak... – dedi. – Jarohatim og‘ir... qornimdan o‘q tegib... bu yoqdan teshib chiqqan.

Pensne ostidan ko‘zlari xira nur sochar, og‘zi kappa-kappa ochilar, xirillab zo‘rg‘a nafas olardi. Ofitser hushidan ketdi. Grigoriy uni orqalab oldi, goh yiqilar, goh o‘rnidan turar edi. Ikki marta bu yaradorni tashlab ham ko‘rdi, lekin yana qaytib kelib ko‘tarib oldi, goh hud, goh behud gandiraklab yuraverdi.

Ertalab soat o‘n birda aloqa komandasi bularni ko‘rib qolib, davolash punktiga eltib topshirdi.

Bir kundan keyin Grigoriy davolash punktidan qochdi. Yo'lda boshidagi lattani yechib oldi va parcha-parcha qizil dog' bosgan bintni qo'lida o'ynatib bemalol ketaverdi.

Sotnya komandiri uni ko'rib hayron qoldi:

– Ie, osmondan tushdingmi?

– Safga qaytib keldim, janobi oliy. – Yuzboshiga uchrashib chiqqach, Grigoriy vzvod uryadnigini ko'rdi.

– Otim qani?.. To'riq otim...

– To'rig'ingga hech balo bo'lgani yo'q, birodar. Avstriyaliklarni tumtaraqay qilgandan keyin biz uni o'sha yerdan tutib oldik. O'zing qalay? Bizlar arvohingga fotiha o'qib qo'ygan edik.

– Sal shoshibsizlar, – deb kuldi Grigoriy.

**Buyruqdan ko'chirma**

**«9-dragun polkining podpolkovnigi Gustav Grozbergning hayotini saqlab qolgani uchun 12-Don kazaklar polkining kazagi Grigoriy Melexovni uryadnik muovini darajasiga ko'tarilsin hamda 4-daraja Georgiy kresti bilan mukofotlashga taqdim etilsin».**

Sotnyadagi kazaklar Kamenka-Strumilovo shahrida ikki sutka turgandan keyin, kechasi yo'l taraddudiga tushdilar. Grigoriy o'z vzvodidagi kazaklar turgan uyni qidirib topdi-da, keyin otini ko'rgani chiqib ketdi. Hurjundan bir juft ichki kiyimi bilan sochig'i yo'qolib qolibdi.

– Ko'z oldimda o'g'irlab qo'yishdi, Grigoriy, – deb uzr so'radi Mitka Koshevoy; ot shuning qo'lida edi. – Yer-u ko'kni piyoda askar bosib ketdi, shulardan bittasi o'g'irlagan-da.

– Bosh-ko'zimdan sadaqa, mayli, kiyaverishsin. Ammo boshimni bog'lab olmasam bo'lmaydi, binti ivib ketdi.

– Mening sochig'imni olaqol.

Ikkisi gaplashib turgan bostirmaga Kokildor kirib keldi. Orada hech gap o'tmaganday, Grigoriyga qo'l berib ko'rishdi.

– Ha, Melexov! Tirikmisan, jirttaki?

– Baharnav.

– Peshonang qon, artib olsang-chi.

– Artarman, shoshma.

– Qani bir ko‘ray, qayeringni pachag‘labdi. Kokildor Grigoriyni o‘z holiga qo‘ymay, boshini egib qaradi-da, burnini bir tortib qo‘ydi.

– Oladigan bo‘lsa, boshni olmaydimi, soch olib nima qilarkin? Buni qara, rasvosini chiqarishibdi!.. Doktorlar boqadigan bo‘lsa, hali-beri odam bo‘lmaysan, kel, o‘zim tuzata qolay.

Grigoriyning roziligini so‘ramayoq, o‘qdonidan bir dona patron oldi, qo‘rg‘oshinini sug‘urib tashladi-da, ichidagi miltiq dorini qop-qora kaftiga soldi.

– Mixaylo, picha is topib kel.

Koshevoy qilich uchi bilan to‘sinlar orasidagi bir parcha isni ilib olib, unga uzatdi. Shu qilichning uchi bilan Kokildor bir chimdim tuproqni o‘yib oldi, so‘ngra haligi is bilan dorini tuproqqa aralashtirib anchagacha chaynadi. Saqichday malham bilan Grigoriyning boshidagi jarohatni shuvab tashladi-da, kulib qo‘ydi:

– Uch kundan keyin otday bo‘lib ketasan. Ko‘rdingmi, yarangga o‘zim qarayapman, sen tentak... sal bo‘lmasa meni otib qo‘yuvding.

– Qaraganing uchun rahmat, lekin o‘ldirganimda-ku, savobga qolardim-a.

– Judayam soddasan, yigit!

– Bo‘lganim shu. Boshimga nima qipti?

– Chorak enlik botgan ekan. Senga esdalik bo‘ladi.

– Unutmayman.

– Ming ovora bo‘lsang ham buni unutolmaysan; avstriyaliklar qilichini charxlamaydi, o‘tmas qilich bilan chopibdi, o‘rni hech ketmaydigan tirtiq bo‘lib qoladi endi.

– Omadingni qaraki, Grigoriy, qilich toyib ketibdi, yo‘qsa, o‘liging yot ellarda qolib ketardi, – deb kuldi Koshevoy.

– Furajkamni nima qilaman endi? – Grigoriy hang-mang bo‘lib usti yirtiq, qonga bo‘yalgan furajkasini qo‘lida aylantirardi.

– Itga tashla, balki yer.

– Yigitlar, ovqat keldi, olib qol! – deb qichqirdi birov eshikdan.

Kazaklar bostirmadan chiqdilar. Grigoriyning ketidan To‘riq ot ko‘zlarini chaqnatib kishnadi.

– Seni juda sog‘inib qopti, Grigoriy! – Koshevoy otni imlab ko‘rsatdi. – Men hayron qoldim, hech nima yemaydi, o‘zidan o‘zi asta-sekin kishnaydi.

– Men hushimga kelgandan keyin, uni ko‘p chaqirdim. – Grigoriy yuzini teskari o‘girib ming‘irlab gapirardi, – meni tashlab hech yoqqa ketmas, deb o‘ylagan edim, uni tutish qiyin, begonaga tutqizmaydi.

– Rost aytasan, biz ham zo‘rg‘a tutdik. Sirtmoq tashlab ushlab oldik.

– Bahosi yo‘q ot, akamniki, Petroniki. – Grigoriy yana yuzini o‘girib, namlangan ko‘zlarini yashirdi-Kazaklar uyga kirishdi. Dahlizda yerga olib qo‘yilgan prujinali to‘shak ustida Yegor Jarkov xurrak otib yotar edi. Uy ichining bu qadar tartibsiz holda bo‘lishi, egasi uyini shoshilinchda tashlab ketganidan dalolat berardi. Chilparchin bo‘lgan idishlar, yirtilgan qog‘ozlar, kitoblar, ustiga asal to‘kilgan laxtak movutlar, bolalar o‘yinchoqlari, eski-tuski poyabzal, har yoqda sochilib yotgan un – hamma narsa ostin-ustun, urush dastidan dodga kelganday edi.

Yemelyan Groshev bilan Proxor Zikov o‘zlari o‘tirgan joyni yig‘ishtirib ovqatlanmoqda edilar. Grigoriyni ko‘rgan hamon Zikovning bo‘ta ko‘zlari qinidan chiqib ketayozdi.

– Gri-ishka! Qayoqlardan kelding?

– Narigi dunyodan.

– Hoy, darrov Grishaga sho‘rva olib kel. Buncha ko‘zingni chaqchaytirasan? – deb qichqirdi Kokildor.

– Hozir. Kuxnya yaqin, tor ko‘chada turibdi. Proxor og‘zidagi luqmani chaynaganicha hovliga chiqib ketdi. Charchab-horigan Grigoriy, uning o‘rniga o‘tirdi.

– Ovqatning hidini ham unutib yuboribman, – dedi u xijolat tortganday kulib.

3-korpus qismlari shahar ichidan o‘tmoqda. Tor-tor ko‘chalar piyoda askarlarga to‘lgan, son-sanoqsiz aravalar, suvorilar tirband

bo‘lib qolgan, muyulish joylar tiqilinch, g‘ovur-g‘uvuri yopiq eshiklardan o‘tib, uy ichida ham eshitilardi. Ko‘p o‘tmay, Proxor bir kotelok sho‘rva, bir xalta qora bug‘doy yormasidan qilingan shavlani ko‘tarib keldi.

– Shavlani nimaga bo‘shatay?

– Manavi dastali idishga bo‘shata qol, – Groshyev, nimaligining farqiga bormasdan, derazada turgan tunlik tuvakni ko‘rsatdi.

– Sassiq-ku, – deb burnini jiyirdi Proxor.

– Mayli. Xaltasi bilan qo‘ya tur, keyin bir gap bo‘lar.

Proxor xaltaning og‘zini ochdi: quyuq shavladan qaynoq bug‘ ko‘tarilar, sap-sariq yog‘i chetida gir aylana suzib yurardi. Hammaning og‘zi ovqatdan, tili gapdan bo‘shamasdi. Proxor rangi o‘nggan chalvaridagi yog‘ dog‘ini tupugi bilan surtib, gapga tushdi:

– Biz turgan mana shu hovlining yonginasiga suvori-tog‘ divizioni to‘plari bilan kelib tushdi, hozir otlarini boqishyapti. Divizion unter-ofitseri gazetada o‘qibdi: nemislarning ittifoqdoshlari endi o‘ng‘almaydigan holga kelgan emish.

– Aytganday, hali xabaring yo‘q, Melexov bugun ertalab bizga tashakkur bildirishdi, – deb g‘o‘ng‘illadi Kokildor og‘zi to‘la shavlani kavshayotib.

– Kim?

– Diviziya komandiri general-leytenant fon Divid bizni ko‘rikdan o‘tkazdi, vengr gusarlarini tumtaraqay qilganimiz, o‘z to‘plarimizni xalos etganimiz uchun tashakkur bildirdi. Sal kech qolsak, to‘plarni olib ketishar ekan. «Barakalla, kazaklar, podsho hamda vatan sizlarni hech unutmaydi», dedi.

– Shunaqa degin!

Ko‘cha tomondan «paq» etgan o‘q ovozi keldi, ketidan yana o‘q chiqdi, pulemyotning tarillagan tovushi eshitildi.

– Chiqing-la-ar! – deb qichqirdi darvoza yonida birov.

Kazaklar qoshiqlarini tashlab, hovliga chopib chiqdilar. Aeroplan gir aylanib, tepalarida pastlab uchardi. Gulduragan bahaybat ovozi hamma yoqqa vahima solardi.

– Chetan devorlar tagiga biqin! Hozir bomba yog‘diradi, to‘pxona yonginamizda-ya! – deya chinqirdi Kokildor.

– Yegorni uyg‘otinglar! Yumshoq to‘shak ustida ko‘z ochmay ketavermasin!

– Miltiqlaringni ol!

Kokildor zinapoya ustida turib aeroplanni mo‘ljalga olar, o‘q uzardi.

Ko‘chada askarlar, negadir, engashib olib yugurishardi. Qo‘shni qo‘rada otlarning kishnagani, allakimning chinqirib komanda bergani eshitilardi. Grigoriy oboymadagi o‘qni otib tamomladi-da, devordan mo‘raladi: to‘pchilar itar-itar qilishib to‘pni bostirma tagiga sudrab borardilar. Grigoriy ko‘m-ko‘k osmonga tik qarolmay ko‘zlarini qisar, vag‘illab, pastlab kelayotgan vahimali kalxatga razm solardi; shu asnoda aeroplandan bir nima shartta uzildi-da, oftob shu’lasida yalt etib ketdi. Gumburlagan dahshatli ovoz zarbidan uy hamda zinapoyada biqingan kazaklar larzaga keldi; qo‘shni hovlida jon halpida ot kishnab yubordi. Devorning narigi yog‘idan kelgan achchiq oltingugurt isidan hamma yoq sasib ketdi.

– Pana bo‘l! – deb baqirdi zinapoyadan tushib qochgan Kokildor.

Grigoriy uning ketidan sakrab tushib, o‘zini devor tagiga tashladi. Aeroplan qanotining alumindan qilingan qandaydir bir qismi yalt etib ketdi; endi dumini sekin-asta ko‘tarib burilmoqda edi. Ko‘chadagilar to‘p-to‘p bo‘lib aeroplanni o‘qqa tutishar, baravariga o‘q uzishar, betartib otilgan qasira-qusur o‘q tovushlari eshitilardi. Grigoriy endigina bir oboyma o‘qni miltiqqa joylab bo‘lgan ediki, boyagidan ham zo‘r portlash to‘lqini uni dekordan bir sarjin nariga uloqtirib tashladi. Katta bir kesak boshiga kelib urildi, ustini tuproq bosib ko‘z o‘ngi qorong‘ilashib ketdi.

Kokildor uni o‘rnidan turg‘izib qo‘ydi. Chap ko‘zining achishib og‘riganidan Grigoriy hech narsani ko‘rmasdi; nihoyat, o‘ng ko‘zini ochib atrofiga qaradi: uyning yarmi yemirilib tushgan, g‘ishtlari chilparchin bo‘lib, uyulib qolgan, qizg‘ish chang-to‘zon vayrona ustini qoplagan edi. Abjag‘i chiqqan zinapoya tagidan Yegor Jarkov

zo‘rg‘a emaklab kelardi. Butun aft-basharasi dabdala, faryod qilar, oqib tushgan ko‘zlaridan qon-u yosh aralashib betlariga quyulardi. U bo‘ynini qisib olib, murdanikiday qorayib ketgan lablarini ochib baqirardi:

– A-iiii! A-iiii! A-iiii!..

Sonidan singan va terisiga ilinib qolgan oyog‘i kuygan shimining pochasi ustida ko‘ndalangiga sudralib kelardi, ikkinchi oyog‘i butunlay yo‘q edi. U qo‘llarini zo‘rg‘a-zo‘rg‘a qimirlatib emaklar, boladay chinqirar edi. Birdaniga uning dami ichiga tushib ketdi, ot go‘ngi va g‘isht parchalari bosib ketgan bag‘ri qattiq zax yerga betini tirab yonboshlab qoldi. Hech kim uning oldiga kelmadi.

– Uni olsalaring-chi! – deb baqirdi Grigoriy qo‘lini chap ko‘ziga bosgan holicha.

Piyoda askarlar hovliga chopib kirdilar, darvoza oldida telefonistlar aravasi to‘xtadi.

– Hayda, nega to‘xtadinglar! – deb baqirdi ot choptirib ketayotgan ofitser. – Ha hayvonlar, isqirtlar!

Allaqayoqdan uzun qora kamzul kiygan bir chol bilan ikki xotin kelib qoldi. Olomon Jarkovni o‘rab oldi. Grigoriy odamlar orasini yorib o‘tib, Jarkovning hali ham tirik ekanini, o‘qtin-o‘qtin xiqillab nafas olayotganini, jon talvasasida ekanini ko‘rdi. Uning murdaday sarg‘ayib ketgan peshonasida qatra-qatra ter paydo bo‘ldi.

– Ko‘tarib olsalaring-chi! Bu nima bezrayish... Odammisizlar yoki hayvonmisizlar?

– Buncha akillaysan? – deb po‘ng‘illadi novcha bir askar. – Olinglar, olinglar deysan, qayerga oborib bo‘ladi uni? Qaragin, hozir joni uziladi.

– Ikkala oyog‘ini cho‘rt uzib tashlabdi.

– Rosa qon ketyapti!..

– Sanitarlar qayoqda?

– Sanitar bu yerda nima qiladi?

– Haliyam esi o‘zida.

Kokildor Grigoriyning yelkasiga turtdi; u orqasiga burilib qaradi.

– Qimirlatma uni, – deb shivirladi Kokildor, – naryog'iga o'tib qaragin.

Grigoriyning yengidan ushlab, odamlarni u yoq-bu yoqqa itarib, tashlab narigi tomonga o'tdi, Grigoriy bir qaradi-yu, bo'ynini egib darvoza tomon ketaverdi. Jarkovning ostida ichak-chovoqlari chuvalib yotar, ko'kimtir-pushti rang tusga kirib yiltirar edi. O'ralib qolgan ichaklarining bir uchi qum bilan tezak orasida ilon singari cho'zilib borardi. Sho'rlik jon berish oldida qo'lini yoniga uzatar, go'yo ichaklarini yig'ishtirib olmoqchi bo'lardi.

– Yuzini yopib qo'yinglar, – dedi allakim. Jarkov birdaniga qo'llarini yerga tirab, boshini chalqanchasiga ko'tardi, gardani shilq etib ikki kuragi orasiga tushib ketdi, jon halpida u xirildoq ovoz bilan chinqirdi:

– Birodarlar, otib tashlang! Meni otib tashlang!.. Birodarlar! Birodarlar!.. Nimaga qarab turibsiz? Aha-haaaa!.. Birodarlar, otib tashlang!..

## XXI

Vagon bir me'yorda sekin tebranadi, gildiraklarning allalovchi dukur-dukuri kishini mudratadi, fonusdan so'ri taxtaning yarmisigacha sarg'ish nur tushib turadi. Ikki haftadan beri oyoqdan tushmagan etikni yechish, bijib ketgan oyoqlarga dam berib bemalol cho'zilib yotishdan yaxshi narsa yo'q; zimmangda hech qanday mas'uliyat borligini his etmasang, hayoting xavf-xatardan omon bo'lib, ajal olisda qolganini bilib tursang – bundan ortiq rohat bormi? Ayniqsa, o'zaro gurunglashayotgan g'ildiraklarning poyma-poy ovozi juda ham yoqadi: chunki g'ildirak har aylanganda, parovoz har yulqinganda frontdan tobora uzoqlashasan. Grigoriy jimgina quloq solib yotar, oyoq panjalarini qimirlatib ko'rardi, haligina almashtirilgan toza ich kiyimdan a'zoyi badani rohatlanardi. U iflos po'stini tashlab, dog'-dug'lardan pok bo'lib, boshqacha bir hayot sari qadam qo'yganday his etardi o'zini.

Biroq chap ko‘zining achishib og‘rigani uni shirin xayollardan chalg‘itar, suyungani tatimasdi. Goho og‘rig‘i bosilar, goho to‘satdan yana boshlanib ko‘zi o‘tday o‘rtanar va bint ostidan beixtiyor duv-duv yosh oqardi. Kamenka-Strumilovodagi yoshgina yahudiy doktor yigit Grigoriyning ko‘zini qarab, bir parcha qog‘ozga allanimalarni yozib:

– Sizni bu yerdan jo‘natishga to‘g‘ri keladi. Ko‘zingizni qaratmasangiz chatoq bo‘ladi, – degan edi.

– G‘ilay bo‘lmaymanmi?

– Yo‘g‘-e, vahima qilmang, – deb muloyimgina kuldi doktor, chunki Grigoriyning qo‘rqqanligi bilinib turardi. – Ko‘zingizni davolash kerak, balki operatsiya qilish lozim bo‘lar. Shuning uchun sizni frontdan uzoqroqda bo‘lgan Petrogradga yoki, masalan, Moskvaga jo‘natamiz.

– Qulluq.

– Sira qo‘rqmang, ko‘zingiz ilgarigiday bo‘lib ketadi. – Doktor uning kiftiga qoqdi va qo‘liga bir parcha qog‘ozni tutqazib, sekinasta turtib koridorga chiqardi. U yenglarini shimarib, operatsiyaga tayyorlanmoqda edi.

Grigoriy ko‘p ovoragarchilikdan keyin sanitar poyezdga ilindi. Bir sutka qimir etmay dam olib, rohatlanib yotdi. Shalog‘i chiqqan kichkinagina parovoz ko‘p vagon tirkalgan sostavni kuchanib, zo‘rg‘atdan tortardi. Moskvaga yaqin qolgan edi.

Poyezd kechasi yetib keldi. Og‘ir yaralanganlarni zambilga solib, vagondan olib tushdilar; o‘zi yura oladiganlar ro‘yxatdan o‘tgach, perronga chiqdilar. Yaradorlar bilan birga shu poyezdda kelgan doktor ro‘yxatga qarab Grigoriyni chaqirdi, uni tibbiy hamshiraga ko‘rsatib:

– Doktor Snegiryovning ko‘z shifoxonasiga topshirasiz! Kolpachniy ko‘chasida, – deb tayinladi.

– Buyumlaringiz yoningizdami? – deb so‘radi hamshira.

– Kazakda buyum nima qiladi? Sumkam bilan shinelim bor, xolos.

– Yuring bo‘lmasa.

Hamshira sochlarini tuzatib, etaklarini shitirlatib yo'lga tushdi. Grigoriy dadil yurolmas, sekin-sekin qadam tashlab unga ergashib borardi; ular izvoshga minib jo'nadilar. Azim shaharning tungi g'ovur-g'uvuri, tramvaylarning jingillashi, rang-barang elektr chiroqlarining ko'z qamashtiradigan yorug'i Grigoriyni gangitib qo'ydi. Vaqt yarim kechaligiga qaramay odam ko'p, izvoshga yaslanib o'tirib olgan Grigoriy ko'chalarga tikilib to'ymas, yonida o'tirgan hamshiraning issiq badani badaniga tegib bezovtalanardi. Moskvada kuzning hidi kelar: bulvarlardagi daraxt barglari fonar yorug'ida och sariq tusga kirib tovlanar, nam tortgan trotuarlar yiltirar, tunning sovuq nafasi kelar, hatto bulutsiz osmon qo'ynida charaqlagan yulduzlar ham sovuq nur sochar edi. Shaharning o'rtasidan o'tib huvullagan tor ko'chaga kirdilar. Ot tuyoqlari toshga tegib taqillar, poplarnikiga o'xshash ko'k chakmon kiyib olgan izvoshchi, baland o'rindiq ustida tebranib borar, tizgin uchini qimirlatib, shalpangquloq otini haydar edi. Shahar chekkalaridan parovozlarning o'kirgani eshitilardi. «Shularning birontasi Donga jo'nab ketayotgan bo'lsa ajab emas», deb o'yladi Grigoriy yuragi ezilib.

– Mudroq bosdimi? – deb so'radi hamshira.

– Yo'q.

– Hozir yetamiz.

– Nima dedilar? – Izvoshchi burilib qaradi.

– Haydayver!

Temir panjara orqasidagi hovuzning suvi yog'day yiltirab ko'rindi, panjarali ko'prikchaga bog'lab qo'yilgan qayiq ko'zga chalindi. Rutubat hidi dimoqqa kelib urildi.

«Suvni ham qamab, temir panjara bilan o'rab olishipti-ya, Don esa..:» – Grigoriy xayol surib ketdi. Izvoshning rezinkali g'ildiraklari barglarni shitirlatib bosardi.

Ular uch qavatli imorat qarshisida to'xtadilar. Grigoriy shinelini tuzatib izvoshdan sakrab tushdi.

– Qo'lingizni bering, – deb hamshira engashdi. Grigoriy uning yumshoqqina, nozik qo'lidan ushlab yerga tushirib qo'ydi.

– Sizdan askar hidi, ter isi keladi, – deb kuldi olifta hamshira, so‘ngra eshik oldiga borib qo‘ng‘iroqni bosdi.

– Siz ham o‘sha yerda bo‘lsangiz, undan ham yomon bir is kelgan bo‘lur edi, hamshira, – deb sekingina uzib oldi Grigoriy.

Shveytsar eshikni ochdi. Sernaqsh zarrin panjarali zinadan ko‘tarilib ikkinchi qavatga chiqdilar; hamshira yana qo‘ng‘iroq bosdi; oq xalatli ayol ularni ichkariga kirgizdi. Grigoriy to‘garak stol yoniga borib o‘tirdi, hamshira oq xalatli ayolga allanimalar deb gapirdi, u yozib oldi.

Torgina uzun koridorning ikki tarafidagi eshiklardan rango-rang ko‘zoynak taqqan boshlar mo‘ralashib qarardi.

– Shinelingizni yeching, – dedi oq xalatli ayol. Oq xalatli xizmatchi Grigoriyning qo‘lidan shinelini olib vannaga boshlab kirdi.

– Hamma ust-boshlaringizni yeching, – dedi u.

– Nega?

– Yuvinish kerak.

Grigoriy yechinib, uy ichini, derazalarning sutrang oynasini tomosha qilar ekan, xizmatchi vannani suvga to‘lg‘azdi, suvning haroratini o‘lchab ko‘rdi-da, vannaga tushishni taklif etdi.

Grigoriy istihola qilib qop-qora serjun oyoqlarini suvga solar ekan:

– Jomashovingga sig‘masman... – dedi.

Xizmatchi uni yaxshilab yuvintirdi, choyshab, ichki kiyim, shippak, belbog‘lik ko‘k xalat berdi.

– O‘zimning kiyimim qani? – deb taajjublandi Grigoriy.

– Shu kiyimda yurasiz. O‘z liboslaringizni kasalxonadan chiqqaningizda qaytib berishadi.

Dahlizdagi katta toshoyna yonidan o‘tayotib, Grigoriy o‘zini tanimadi: yuzlari qorayib, ikki beti issiqdan buriqib ketgan, ko‘zini bog‘lab olgan, latta ostida qora sochlari hurpayib turgan xalatli bu novcha yigit qadimgi Grigoriyga sal-pal o‘xshardi. Mo‘ylovlari, jingalak soqoli o‘sib ketgan edi.

«Ancha yosharibsan, birodar», – Grigoriy lablarini qiyshaytirib istehzo bilan kuldi.

– Oltinchi palata, o‘ng qo‘ldagi uchinchi eshik, – deb tayinladi xizmatchi.

Grigoriy kattagina oppoq palataga kirishi bilan, oq xalatli, ko‘k ko‘zoynakli pop o‘rnidan turdi.

– Yangi keldingizmi? Juda soz, endi zerikmaymiz. Men Zaraysk-dan bo‘laman. – Pop manzirat qilib Grigoriyga stul ko‘rsatdi.

Birozdan so‘ng yuzlari tovoqday bedavo semiz bir feldsher ayol kirib keldi.

– Melexov, yuring, ko‘zingizni ko‘ramiz, – dedi u do‘rillab; Grigoriyga yo‘l berib o‘zini chetga oldi.

## XXII

Armiya qo‘mondonligi g‘arbi-janubiy frontning Shevel rayoni-da misli ko‘rilmagan zo‘r kavaleriya hujumini boshlashga, dush-man saflarini yorib, uning orqa tomoniga ulkan kavaleriya otryadi-ni tashlashga qaror qilgan edi; bu otryadga front bo‘ylab harakat qilish, kommunikatsiya yo‘llarini buzish, to‘satdan bosqin qilib du-shman qismlarini to‘zitib yuborish vazifalari yuklangandi. Bu plan-ning muvaffaqiyatli bajarilishiga qo‘mondonlik zo‘r umid bog‘lar edi; mazkur rayonga nihoyatda ko‘p otliq askar keltirildi, boshqa kavaleriya polklari qatorida yuzboshi Listnitskiy xizmat etayotgan kazaklar polki ham shu yerga yuborildi. 28-avgustda hujum bosh-lash kerak edi, biroq yomg‘ir yog‘ib 29-ga qoldirildi.

Hujumga tayyorlangan diviziya keng maydon sahnida ertalab-dan boshlab saf tortgan edi.

Dushman to‘plarini alaxsitish maqsadida piyoda qismlar o‘ng qanotdan sakkiz chaqirim nariroqda yolg‘ondakam hujum boshladi; ko‘z chalg‘itish uchun yana bir boshqa kavaleriya diviziyasining qismlari boshqa tomondan harakat qildi.

Oldinda, ko‘z ilg‘amas maydonda dushmanning qorasi ko‘rin-masdi. Listnitskiy sotnyasidan bir chaqirim nariroqda dushman tashlab ketgan qop-qora okoplar ko‘rinib turardi, undan naridagi do‘nglikda ekinzor yerlar, shamol to‘zitgan ertalabki ko‘kimtir tu-man ko‘zga chalinardi.

Tayyorlanayotgan bu hujum to‘g‘risida dushman qo‘mondonligiga xabar yetdimi yoki o‘zicha buni sezib qoldimi – 29-avgustga o‘tar kechasi dushman askarlari okoplarini tashlagan va pistirmaga pulemyotlar qo‘yib, olti chaqirim chamasi orqaga chekingan edi, pistirmadagi bu pulemyotlar bizning piyodalarimizni ko‘z ochirgani qo‘ymasdi.

Ufqdan ko‘tarilgan quyosh parcha bulutlar orqasidan nur sochar, lekin vodiyni qoplagan sarg‘ish tuman hali ham tarqamagan edi. Hujum komandasi berildi, polklar qo‘zg‘aldilar. Minglab ot tuyoqlarining gumburlashi yer ostidan eshitilgan ovozga o‘xshardi. Listnitskiy aslzod otini chopgani qo‘ymay jilovidan mahkam tortib borardi. Bir yarim chaqirim yo‘l bosildi. Saf tortib borayotgan hujumchilar borgan sari ekinzorga yaqinlashmoqda edilar. Belga uradigan o‘siq bug‘doy poyalarni chirmovuq o‘rab o‘t bosib ketgani uchun otlar chopishga juda qiynalardi. Oldinda chayqalib turgan mallarang boshoqlar ot tuyoqlari ostida payxon bo‘lib yotib qolardi. To‘rt chaqirimcha yo‘l bosgandan keyin otlar qoqila boshladi, terga tushdi, hamon dushman ko‘rinmas edi. Listnitskiy komandirning yuziga tikildi: yasovulning fig‘oni oshgan edi.

Otlar yo‘rtib, olti chaqirimlik mislsiz og‘ir yo‘lni bosib o‘tguncha holdan toydi, ba’zilari yiqila boshladi; eng chayirlari ham gandiraklar, so‘nggi kuchini to‘plab olg‘a intilardi. Xuddi shu paytda avstriyaliklarning pulemyotlari o‘t ochdi, miltiqlardan baravariga o‘q uzildi... Beomon ajal oldingi safdagilarni tutday to‘kdi. Hammadan oldin ulanlar[17] vahimaga tushib, orqaga burilib qochdilar va kazaklar polkini to‘zitib yubordilar; tumtaraqay bo‘lib qochgan odamlar ustiga pulemyotlar do‘l yog‘dirar, to‘plar o‘qqa tutardi. Misli ko‘rilmagan katta hujum qo‘mondonlikning beparvoligi tufayli tor-mor bo‘ldi. Ba’zi polklarda odamlar hamda otlarning teng yarmi qirildi; Listnitskiyning polki to‘rt yuzga yaqin kazak va o‘n oltita ofitseridan ajradi.

Listnitskiyning oti o‘ldi, o‘zi ikki joydan o‘q yedi: biri boshiga, ikkinchisi oyog‘iga tekkan edi. Vaxmistr Chebotaryev otdan sakrab

---

[17] *Ulanlar* — yengil kavaleriya qismlari.

tushdi-da, Listnitskiyni ko'tarib egarga o'ngardi-yu, olib qochdi.

Diviziya shtabining boshlig'i, bosh shtabdan kelgan polkovnik Golovachev, bu hujumning bir necha manzarasini suratga olgan edi, keyinchalik shu rasmlarni ofitserlarga ko'rsatdi. Yarador bo'lgan yuzboshi Chervyakov uning yuziga musht bilan soldi, alamiga chidolmay yig'lab yubordi. Kazaklar yopirilishib kelib Golovachevning dabdalasini chiqardilar va o'ligini itdek sudrab yo'l yoqasidagi zovurga, axlatxonaga tashladilar. Badnom bo'lib shuhrat qozongan bu hujum shu zayilda tamom bo'ldi.

Varshavadagi gospitalda yotgan Listnitskiy otasiga xat yozib, sog'aygandan so'ng uning oldiga borish, ta'tilini Yagodnoyeda o'tkazish niyatida ekanini bildirdi. Chol xatni olgandan keyin o'z kabinetini berkitib olib, hech kimga qorasini ko'rsatmadi; ertasi kuni qovog'idan qor yog'ib, hovliga chiqdi. Nikitichga yo'rg'a otni qo'shtirdi va nonushta qilib, Vyoshenskayaga jo'nadi. Telegraf orqali o'g'liga to'rt yuz so'm pul va qisqacha xat yubordi:

«Senday aziz bolamning, jang maydonida o'q yeb yaralanganingni eshitdim, buning uchun suyunishdan boshqa hech narsani o'zimga ravo ko'rmadim. Oliy niyat yo'lida yurgan kishining joyi saroy emas, o'sha yoqda. Nihoyat darajada halol, aqling ham butun bo'lgani uchun sen bir xil odamlarga o'xshab laganbardorlik qila olmaysan, vijdoning ham bunga yo'l qo'ymaydi. Bizning avlodimizda hech bir kimsa laganbardorlikni o'ziga ep ko'rgan emas. Bir zamonlar bobongning saroydan chetlanishiga va Yagodnoyeda qolib ketishiga sabab bo'lgan narsa ham ana shu xislat edi, lekin u, tojdordan muruvvat, shafqat kutmadi, undan umidvor ham bo'lmadi. Omon bo'l, Jenya, tezroq tuzalib ket. Dunyoda sendan boshqa hech kimim yo'q, shuni unutma. Ammang salom aytdi, sog'-salomat yuribdi, o'z to'g'rimda yozadigan hech gap yo'q, turmushim qanaqaligi o'zingga ma'lum. Frontda nimalar bo'lyapti o'zi? Nahotki, bironta es-hushi butun odam topilmasa? Men gazeta xabarlariga ishonmayman, boshdan oyoq hammasi yolg'on, men buni tajribada ko'p uchratganman. Yevgeniy, rostini ayt: nahotki biz urushni boy beramiz-a?

Sening uyga kelishingni sabrsizlik bilan kutaman».

Haqiqatan ham qarigan Listnitskiyning turmushida yozishga arziydigan hech qanday o'zgarish ro'y bergan emasdi, turmushi eskicha o'tar, faqat ishchi kuchining narxi oshgan hamda ichkilik taqchil bo'lib qolgan edi. Pan ko'p ichadigan, jizzaki va injiq bo'lib qoldi. Bir kuni kechasi bemahalda u Aksinyani chaqirtirdi.

– Sen xizmatimni bajo keltirmayapsan, ishga bo'yning yor bermay qopti, – dedi. – Kecha nega sovigan nonushta keltirding? Qahva stakani nega tozalab yuvilmagan? Agar shu narsa yana takrorlansa, men seni, eshityapsanmi? Seni ishdan bo'shataman. Isqirtlikka mening tobim yo'q! – Pan qo'lini qattiq siltadi. – Eshitdingmi? Tobim yo'q.

Lablarini qimtib turgan Aksinya bexosdan yig'lab yubordi:

– Nikolay Alekseyevich, qizcham kasal yotibdi. Hozirchalik meni yumushdan ozod etsangiz... Yonidan bir qarich siljiy olmay qoldim.

– Nima qipti?

– Xirillab nafas ololmaydi.

– Bo'g'ma bo'lgandir? Nega aytmading, ahmoq? Voy, arvoh urgur, ovsar-ey! Yugur, Nikitichga ayt, aravani qo'shsin, stansiyaga borib feldsher opkelsin. Tez!

Aksinya yugurganicha chiqib ketdi; chol shang'illab ketidan uni koyirdi:

– Voy esi past xotin-e! Voy tentakcha! Ahmoq!

Ertalab Nikitich feldsherni boshlab keldi.

Feldsher issig'i baland, behush yotgan qizchani ko'rib, Aksinyaning savollariga javob bermay, to'g'ri pan oldiga ketdi. Chol uni dahlizda tik turgan holda kutib oldi, lekin qo'l berib ko'rishmadi.

– Kasali nima ekan?

– Bo'g'ma, janobiy oliylari.

– Sog'ayadimi? Umid bormi?

– Yo'q... O'ladi... Yoshi ham o'zingizga ma'lum...

– Ahmoq! – Pan bo'riqib ketdi. – Seni nimaga o'qitishgan? Davola!

Dovdirab qolgan feldsherning yuziga eshikni taq etib yopdi-da, zalga kirib ketdi.

Eshikni taqillatib, Aksinya kirib keldi.

– Feldsher arava so‘rayapti, stanitsaga chiqarib qo‘yishsin, deydi.

Chol poshnasida burildi.

– Borib ayt, ahmoq odam ekan! Borib ayt, qizni tuzatmaguncha bu yerdan bir qadam siljimasin! Yonboshdagi hujralardan bittasini unga bo‘shatib ber, qornini to‘yg‘iz! – deb baqirdi chol mushtini do‘laytirib.Yegiz, ichkiz, og‘zidanam tiq, burnidanam, lekin ketib... bo‘o‘o‘p-ti-ye! – Dami ichiga tushib, deraza oldiga keldi, uni chertib turib, keyin o‘g‘lining kattakon fotorasmi yoniga bordi; chol ikki qadam orqaga tisarilib oldi-da, enaganing qo‘lida turib suratga tushgan o‘z bolasini tanimayotganday, anchagacha tikilib qoldi.

Qizcha kasal bo‘lib yotib qolgan kuni dastlab Aksinyaning esiga tushgan narsa Natalyaning: «Ko‘z yoshlarimning uvoli tutsin»... – degan qarg‘ishi edi, shuning uchun Aksinya: «Xudo o‘sha kuni Natalyani qon-qaqshatganimning jazosini beryapti», deb inongan edi.

Bolasidan xavotirlanaverib Aksinyaning dili vayron, es-hushidan ayrilgan, o‘zini qayga qo‘yishini, nima qilishini bilmay, qo‘li ishga bormay qolgandi.

«Shuniyam ko‘p ko‘rdimikin?» degan fikr yuragini o‘rtar, inonmasa ham, inongisi kelmasa ham, jon-jahdi bilan cho‘qinar, xudoga yolvorib sig‘inar, yolg‘iz bolaning umrini tilardi.

«Xudoyo kechirgin!.. Bolamni o‘z panohingda asra! O‘zing rahm qil, ey parvardigor, gunohimdan o‘t!» Kichkintoy go‘dakni dard xippa bo‘g‘ib olgan edi. Bola yerparchin bo‘lib yotar, shishgan tomog‘idan nafasi xirillab zo‘rg‘a chiqardi. Stanitsalik feldsher hujrada joylashib olib, kuniga to‘rt marta kelib qarar, kechqurunlari xizmatkorlar turadigan uyning zinapoyasida papiros tutatib, osmondagi yulduzlarga tikilib, anchagacha turib qolardi. Aksinya karavot yonida qaqqayganicha oppoq tong ottirib chiqardi. Xirildoq ovoz yurak-bag‘rini tilka-pora qilardi.

– Ay-ya-a, – der edi qovjiragan kichkina lablar.

– Jigar poram, mushtiparim! – deb ingrardi ona. – Guli bahorim, ketma, jonim Tanyushka! Suxsurim, ko'zingni och, bir qara, bo'tam! Munchoqday qora ko'zlaringdan onang aylansin... Bu nima ko'rgilik, xudo?..

Sho'rlik bola ahyon-ahyonda qon talashgan qovoqlarini zo'rg'a ko'tarar, nursiz ko'zlarini ochar, lekin ko'zlari suzilib orqasiga tortib ketardi. Aksinya uning shu qarashiga intizor, jonini berishga tayyor edi. Qizchaning so'lg'in ko'zlari g'amgin yumilar va taqdirga tan berib vidolashayotganday bo'lardi.

Qiz onaning qo'lida jon berdi. G'arg'ara kelib, ko'kargan og'izchasini so'nggi marta ochib esnadi, tomiri tortishib, badani cho'zilib ketdi; terlagan boshi Aksinyaning qo'liga shilq etib tushdi. Melexovlarnikiga o'xshash chala yumuq ko'zlarining jonsiz qorachig'i taajjublanganday ma'yus qotib qoldi.

Hovuz yonidagi katta baqaterakning ostidan Sashka bobo kichkina go'r qazidi, tobutchani qo'ltiqlab olib o'sha yerga eltdi va umrida shoshish nimaligini bilmagan bu odam, naridan beri tuproq tortdi, so'ngra Aksinyaning go'r ustidan turishini poylab ancha vaqtgacha indamay kutdi. Nihoyat, sabri chidamay, burnini qattiq qoqdida, otxona tomon ketdi... Somonxonaga qo'ygan atirini, salkam bir shisha denaturat spirtni oldi, ikkisini qo'shib rosa aralashtirdi va yoruqqa tutib rangini tomosha qildi.

– Arvoh xotirasi uchun ichamiz. Joyi jannatda bo'lsin. Joni maloikalar huzuriga yetdi, – dedi-da, ko'tarib ichib yubordi, tamaddisiga ezilgan pomidorni chaynadi, so'ngra shishaga g'amgin nazar tashlab boshini telbalarcha chayqatdi.

– Meni unutma, azizam, seni men aslo unutmayman! – dedi-da, yig'lab yubordi.

Uch haftadan keyin Yevgeniy Listnitskiydan, ta'til oldim, yo'lga chiqdim, degan mazmunda telegramma keldi. Uni olib kelish uchun stansiyaga uch ot qo'shilgan izvosh yuborildi, butun uy ichi oyoqqa turg'izildi: kurka, g'ozlar so'yildi; Sashka bobo bir qo'yni bo'g'izlab saranjomladi, go'yo bir talay mehmon chaqiriladiganday hozirlik ko'rildi.

Bir kun oldin Kamenka bekatiga ulov yuborilgan edi. Yevgeniy kechasi kirib keldi. Maydalab muzday yomg‘ir quyar, ko‘lob suvlar ustiga fonuslarning xira shu’lasi tushardi. Zinapoya oldida qo‘ng‘iroq taqqan otlar kelib to‘xtadi. Hayajonlangan, xursand bo‘lgan Yevgeniy soyabonli izvoshdan tushdi. Plashini Sashka boboga berdi-da, biroz oqsoqlanib zinadan chiqdi. Keksa pan shoshganidan kursilarni ag‘darib, zaldan yugurganicha chiqib keldi.

Aksinya yemakxonaga taomlarni keltirib qo‘ydi-da, xo‘jayinlarni taklif etgani bordi, oldin qulf teshigidan mo‘ralab qaradi: chol o‘g‘lini bag‘riga bosib, kiftidan o‘par, burushiq bosib ketgan bo‘yni bilinar-bilinmas qaltirardi. Aksinya biroz to‘xtab turib tag‘in mo‘raladi: oldi ochiq ko‘kish mundir kiygan Yevgeniy tiz cho‘kib, yerga yoyilgan katta xarita ustiga engashib olgan edi.

Pan trubkasidan halqa-halqa tutun chiqarib tirnog‘i bilan kursini chertar va g‘azablanib gapirardi:

– Alekseyev dedingmi? Mumkin emas! Men bunga inonmayman.

Yevgeniy ohista gapirar, nimanidir isbot etmoqchi bo‘lar, barmog‘i bilan xaritani chizib ko‘rsatardi, chol esa sipolik bilan do‘rillab gapirardi:

– Oliy qo‘mondon bu jihatdan haqli emas. Kaltafahmlikning o‘zginasi bu! Kechirasan, Yevgeniy, mana senga rus-yapon urushidan xuddi shunga o‘xshash bir misol. Sabr qil!.. Shoshma, shoshma!

Aksinya eshikni taqillatdi.

– Iye, ovqat suzildimi? Hozir.

Chol quvonib, kulib zaldan chiqdi, yosharib ketganday uning ko‘zlari chaqnar edi. O‘g‘li bilan ikkisi yerga ko‘milgan vinodan bir shishasini ichib olishdi. Shishaga yelimlab yopishtirilgan qog‘ozni mog‘or bosib ko‘karib ketgan, ustidagi «1879-yil» degan yozuv hali ham o‘chmagan edi.

Dasturxon tepasida xizmat qilib turgan Aksinya shu quvnoq ota-bolaning yuzlariga tikilgan sari o‘zining yolg‘izligini kuchliroq sezardi. Ilgari kelmagan ko‘z yoshlari endi tomog‘iga tiqilar edi. Qizchasi o‘lgandan keyin yig‘lagisi kelsa ham, ko‘zidan yosh chiqmagan edi. O‘pkasi to‘lib, faryodi bo‘g‘ziga tiqilib qolar, lekin

ko‘zida nam ko‘rinmasdi, shu sababdan g‘am-g‘ussa yuragini battar o‘rtardi. U, uyqudan xalovat toparmikanman deb ko‘p uxlar edi, biroq tushida ham bolaning ovozi qulog‘idan nari ketmasdi. Goho, nazarida, qizi yonida uxlab yotganday tuyulardi-da, darhol chetga surilar, to‘shakni timirskilab ko‘rardi, ba’zan qizining: «Oyi, suv», deb shivirlaganini eshitganday bo‘lardi.

– Jigargo‘sham... – deb shivirlardi Aksinyaning muzday lablari.

Hatto o‘ngida ham ba’zan qizi tizzasiga surkanib erkalanganday bo‘lar, Aksinya uning jingalak sochlaridan silamoqchi bo‘lib qo‘lini cho‘zib, birdan o‘ziga kelardi.

Kelganiga uch kun bo‘lgandan keyin, Yevgeniy otxonaga borib, ilgarigi odamlarning Dondagi erkin turmushi va qadimgi zamonlar to‘g‘risida Sashka boboning sodda hikoyalarini kechga dovur eshitdi, soat sakkizdan oshganda otxonadan chiqdi; hovlida shamol izg‘ir, hamma yoq bilchillab ketgan, loy oyoqqa chippa yopishardi. Yangi oy, mo‘ylovini shopday qilib, bulutlar orasidan mo‘ralardi. Yevgeniy oy nurida soatiga qaradi, xizmatkorlar turadigan uy tomon yurdi. Zinapoyaga yetgach, papiros tutatdi, birpas o‘ylanib turib qoldi, so‘ngra yelkasini silkitib, zinaga dadil qadam qo‘ydi. Sekingina eshik lo‘kidonini bosdi, eshik g‘ich etib ochildi. U Aksinyaning hujrasiga kirib gugurt chaqdi.

– Kim bu? – deb so‘radi Aksinya, ko‘rpani ustiga tortib.

– Men.

– Hozir, kiyinib olay.

– Zarari yo‘q. Bir lahza o‘tirib ketaman.

Yevgeniy shinelini yechdi, karavot chetiga kelib o‘tirdi.

– Qizchang qazo qilibdi...

– Qazo qildi, – deb takrorladi uning so‘zini Aksinya.

– Rang-ro‘ying bir holatda. Tag‘inam senga balli, farzand dog‘i nimaligini men yaxshi tushunaman. Lekin o‘zingni bekorga koyitasan, ming kuyganingda ham qizing tirilmaydi, bola bo‘lsa – ko‘rarsan, hali yoshsan. Qo‘y, o‘zingni qo‘lga ol, taqdirga tan ber... Bolam o‘ldi deb hamma narsadan kechvoradimi kishi? Hali o‘n gulingdan bir guling ochilgani yo‘q.

Yevgeniy Aksinyaning qo'lini qisar, silab-siypar, yoqimli past ovoz bilan nasihat qilgan bo'lardi. U shivirlab gapirishga o'tdi, endi Aksinyaning sekin-asta titrab-qaqshab, bo'g'iq ovoz bilan yig'laganini, bora-bora yig'isi zo'rayib ho'ngrab yuborganini ko'rib, uning yuz-u ko'zlaridan o'pa boshladi...

Xotin kishi – shirin gapning, navozishning qurboni. Kulfatdan boshi chiqmagan Aksinya o'zini yo'qotib qo'ydi, xayolidan ko'tarilgan qadimgi ehtiroslari yangitdan xuruj qilib, Yevgeniyga taslim bo'ldi. Sharmanda ko'ngil joyiga tushib, hovuri bosilgandan keyin ko'zlari ochildi, o'ziga kelib birdaniga chinqirib yubordi va ko'ylakchan, nim yalang'och holda yugurganicha zinapoyaga chiqdi. Uning ketidan Yevgeniy ham eshikni lang ochiq qo'yib, shosha-pisha jo'nab qoldi. Keta turib shinelini kiydi va tez-tez yurib peshayvonga chiqdi-da, murodi hosil bo'lganidan suyunib tirjayib qo'ydi. Uning dimog'i chog', shodligi ichiga sig'mas edi. Ko'rpa orasiga kirgandan keyin, yumshoqqina ko'kragini silab turib, o'yga ketdi: «Insofli kishining ko'zi bilan qaralsa – nihoyatda razil, uyat ish bo'ldi. Grigoriy... O'zimizga yaqin bir odamning haqiga xiyonat qildim, biroq men frontdan, ajal og'zidan chiqib kelganman. O'q salgina o'ng tomonga burilib ketsa, boshimning titig'ini o'ynatib yuborardi. Yotardim shu topda chirib, o'ligimni qurt-qumursqa talab... Endi dam g'animat, davr surib qolish kerak. Men ko'nglimga kelganini qilsam bo'ladi!» Bu xil mulohazalardan o'zi uyalib ketdi, biroq hujum mahaldagi mudhish manzara ko'z oldiga keldi, qulagan ot tagidan omon chiqqani, o'q yeb yana yiqilgani esiga tushdi: «Ertaga bir gap bo'lar, hozir eng zarili uyqu, hammasi uyqudan o'taversin»... deb o'zini tinchitib, uyquga ketdi.

Ertasi kuni u yemakxonada Aksinya bilan tanho qolgan paytda, aybdordek kulimsirab uning yoniga bordi, lekin Aksinya devorga qapishib olib, qo'llarini cho'zib, uni yaqiniga yo'latmadi, qahrizahrini sochib, shivirladi:

– Yaqin kelma, badbaxt!..

Biroq inson hayot qonunlariga bo'yintoblik qila olmaydi. Oradan uch kun o'tkazib kechasi Yevgeniy Aksinyaning hujrasiga yana kelgan edi, Aksinya qarshilik ko'rsatmadi.

## XXIII

Doktor Snegiryovning ko‘z shifoxonasi kichkina bir chorboqqa tutashgan edi.

Moskvaning chekka ko‘chalarida bu xil befayz, daraxtlari kallaklab tashlangan chorbog‘lar ko‘p, lekin u yerda kishining ko‘zi orom ololmaydi, qaytaga, bahaybat g‘ishtin imoratlar orasida qolib ketgan bu bog‘chalarni ko‘rgan sari, erkin o‘sgan yovvoyi o‘rmonlar esga tushib, yurak ezilib ketadi. Kasalxona yonidagi chorbog‘da kuz hukmron edi: yo‘lkalarni za’faron barglar ko‘mib ketgan, ertalabki ayoz gullarni so‘ldirgan, shabnam gulzordagi ko‘katlarni jiqqa ho‘l qilgan edi. Havo ochiq paytlarda kasallar bog‘chaga chiqib yo‘lkalarda sayr etishar, xudojo‘y Moskva cherkovlarining zang sadolarini tinglashardi. Ammo havo aynigan kunlari (o‘sha yili havo aynimagan kun yo‘q hisobda edi), palatama-palata sang‘ishib yurishar, karavotda cho‘zilib vaqt o‘tkazishar, diqqinafaslikdan gaplashgilari ham kelmasdi, xullas, hammasi zerikkan, bir-birlarining joniga tekkan edi.

Bu yerdagi kasallarning ko‘pchiligi harbiylardan emasdi, urushda yarador bo‘lganlar bitta palataga qo‘yilgan edi; bular besh kishi: novchadan kelgan, mallasoch, kaltasoqol, ko‘kko‘z latish – Yan Vareykis, Vladimir gubernasida tug‘ilgan yigirma sakkiz yashar ko‘rkam dragun – Ivan Vrublevskiy, sibiriyalik mergan – Kosix, doim besaranjom, basharasi sap-sariq askar – Burdin va Grigoriy Melexov birga turishardi. Sentabrning oxirlarida yana bitta yarador qo‘shildi. Kechki choy mahalida eshik qo‘ng‘irog‘ini birov uzoq jingillatdi. Grigoriy boshini chiqarib koridorga qaradi. Dahlizga uch kishi kirdi: tibbiy hamshira bilan cherkescha chakmon kiygan odam bir yaradorni qo‘ltig‘idan suyab kiraverdilar. Yaradorning hozirgina poyezddan tushgani bilinib turardi, ko‘kragini qon dog‘lari bosgan harbiycha gimanstorkasi bunga dalil edi. O‘sha kuni kechqurun uni operatsiya qilishadigan bo‘ldi. Qisqacha tayyorgarlikdan keyin (asboblarni qaynatilayotgani palatada bemalol eshitilardi), yangi kelgan yaradorni operatsiya xonasiga olib kirdilar. Oradan salgina

vaqt o‘tar-o‘tmay, o‘sha yoqdan sekin ashula ovozi eshitildi: xloroform iskab uxlagan yarador, to‘p o‘qining parchasi tegib, oqib tushgan ko‘zini olib bo‘lgunlaricha, ashula aytishdan, allanimalar deb so‘kinishdan tinmadi. Operatsiya tamom bo‘lgach, uni yaradorlar palatasiga yotqizdilar. Bir sutkadan keyin xloroformdan aynigan miyasi joyiga kelgach, u german frontida, Verberg yonida yarador bo‘lganini, asli Chernigov gubernasidan bo‘lib, familiyasi Garanja, o‘zi pulemyotchi ekanini so‘zlab berdi. Bir necha kun ichida, ayniqsa Grigoriy bilan apoq-chapoq bo‘lib oldi; ikkisining karavoti yonma-yon turardi, kechqurun vrachlar kasallarni birma-bir ko‘rib chiqqanlaridan keyin, ikkisi shivirlashib gapga tushib ketishardi.

– Xo‘sh, kazak, ishlar qalay?

– Rasvo.

– Ko‘zingga nima qildi?

– Ukol qilishyapti.

– Necha marta ukol qilishdi?

– O‘n sakkiz marta.

– Sanchkanda achishadimi?

– Yo‘q, xush yoqadi.

– Doxtirga yalinib ko‘r: obtashay qolsin.

– Ko‘rlar ichida sog‘lar ham yursin.

– Bu gaping jo‘yali.

Grigoriyning bu pichingchi, tili zahar qo‘shnisi hamma narsadan norozi edi: hukumatni, urushni, o‘z peshonasini, kasalxona ovqatini, oshpazni, doktorlarni so‘kkani so‘kkan, u til tegizmagan bironta narsa qolmagan edi.

– Xo‘sh, sen bilan men kim uchun qon to‘kdik, birodar?

– Boshqalar kim uchun to‘kayotgan bo‘lsa – biz ham o‘shalar uchun.

– Yo‘q, birodar, dumi xurjunda gaplar ketmaydi, sen menga po‘stkallasini ayt.

– Bor-e, tinch qo‘ysang-chi!

– He-ey! Senda kalla yo‘q. Bu hazilakam masalamas, rosa mag‘zini chaqish kerak. Burjuylar uchun qon to‘kdik, bildingmi? Burjuy nima, bilasanmi o‘zing? Zig‘irpoyada yuradigan voyvayak...

Grigoriyga noma'lum so'zlarning ma'nosini aytib berardi, ikki gapning orasida boloxonador qilib so'kishini qo'ymas edi.

– Bidillayvermasang-chi! Koshki men xoxolcha tilingga tushunsam, – deb uning gapini bo'lardi Grigoriy.

– Ana, xolos! Hoy, moskalvachcha, nega tushunmaysan?

– Shoshmasdan bitta-bitta gapir.

– He, birodari aziz, haliyam shoshmasdan gapiryapman. Sen – poshsho uchun, deysan. Poshshong o'zi kim? Poshshong aroqxo'r, poshsho oyim – baloxo'r, urush bo'lsa, panlarning hamyoni qappayib qoladi, sen bilan mening bo'ynimizga sirtmoq soladi. Bildingmi? Ha-a! Fabrikachi aroq otadi, askar bitlab yotadi, ikkisiga ham qiyin... Fabrikachi foyda qiladi, ishchi yalang'och qoladi, mana shu zayilda boraveradi... Xizmat qil, kazak, xizmat qil! Yana bitta g'alati krest olasan, eman yog'ochdan qilingan krest[18] olasan endi... – Garanja ukraincha gapirar, lekin ahyon-ahyonda, hayajonga kelgan mahallarda ruschaga o'tar, ora-chora so'kinib qo'yar, sof rus tilida so'zlashardi.

U to shu damgacha Grigoriy uchun notanish bo'lgan haqiqatlarni uning miyasiga kunba-kun quyib, urushning tub sabablarini ochib berar, samoderjaviye hukumatini boplab masxara qilardi. Grigoriy e'tiroz bildirmoqchi bo'lsa, Garanja darhol unga eng oddiy misollarni, mot qiluvchi savollarni ro'kach qilib damini ichiga tushirib yuborardi, Grigoriy uning gapiga ko'nishga majbur bo'lardi.

Eng qiyini shu ediki, Grigoriy Garanjaning har bir gapi haq ekanini sezar va uning fikriga qarshi bironta dalil keltira olmas edi, hech qanday dalil topilmas va topilishi ham mumkin emasdi, Grigoriy bora-bora podsho hamda vatan to'g'risidagi o'z fikrlarini, kazaklarning harbiy burchi to'g'risidagi ilgarigi tushunchalarini mana shu alamzada va oqil ukrain tag-tomiri bilan yakson qilayotganini sezdi-da, vahimaga tushdi.

Garanja kelgandan beri, shu bir oylik davr ichida, Grigoriyning ongi-shuuri suyangan tog'i qulab tushdi. Uning poydevori bema'ni urush tufayli chirib qolgan, qiltillab zo'rg'a turar va sal tegilsa yak-

---

[18] Go'r ustiga qo'yiladigan krest. (Tarj).

son bo‘lishi aniq edi. Bir turtki bilan Grigoriyning karaxt bo‘lib yotgan fikrlari uyg‘ondi, uning mug‘ambirlik nimaligini bilmagan sodda aqlini ishga soldi, miyasini kavlay boshladi. Grigoriy halovatini yo‘qotib, o‘zini har yoqqa urar, aqli ojizlik qilgan bu mushkul masalaning, bu og‘ir savolning javobini izlar va javobini Garanjaning suhbatidan topib qanoatlanardi.

Bir kuni yarim kechada Grigoriy o‘rnidan turib Garanjani uyg‘otdi. Karavotining bir chetiga o‘tirdi. Mezon oyining ko‘kimtir shu’lasi deraza pardasidan o‘tib uy ichiga tushib turardi. Uyqusi o‘chgan Garanjaning betlari qorong‘ida g‘adir-budur bo‘lib ko‘rinar, yiltiragan namli ko‘zlari lo‘q tushib ketganga o‘xshardi. U esnar, oyoqlarini ko‘rpaga o‘rardi.

– Nega uxlamaysan?

– Uyqum qochdi. Uyqusizlik balosiga giriftor bo‘ldim. Sen menga shuni tushuntirib ber-chi: urushdan birov foyda ko‘radi, ko‘pchilik xonavayron...

– Xo‘sh? Ahhaaaa... – deb esnadi Garanja.

– Shoshmagin, axir! – deb shivirladi zardasi qaynagan Grigoriy. – «Boylarning foydasi uchun bizlarni ajalga ro‘para qilishyapti» deysan, xo‘sh, xalq indamay ketaveradimi? Yoki tushunmasmikan? Nahotki, tushuntiradigan odamlar qurib ketgan bo‘lsa? Birontasi chiqib: «Birodarlar, mana kimlar uchun qon to‘kib qirilyapsiz?» deb ayta qolsa bo‘ladi-ku.

– Aytib bo‘pti! Nima deyapsan o‘zing? Qani, sen chiqib gapirib ko‘r-chi, men bir tomosha qilay. Ikkimiz xuddi qamishzordagi g‘ozlar singari shivir-shivir qilib o‘tiribmiz, qani, ovozingni chiqar-chi, shartta otib tashlashadi. Xalq g‘aflatda yotibdi. Urush uni uyg‘otadi. Bulut ichidan chaqmoq chaqnab jala quyib beradi hali...

– Nima qilish kerak? Gapir, ablah! Yuragimga o‘t solding-ku.

– Yurak senga nima amr qilyapti?

– Nimaligini tushunolmay qoldim, – deb iqror bo‘ldi Grigoriy.

– Kim meni jarga itarmoqchi bo‘lsa, men o‘zini itaraman. Gap sotib o‘tirmasdan, miltiqning uchini orqaga burish kerak. Kim odamlarni qirg‘inga yuborayotgan bo‘lsa, o‘qni o‘shanga qarab otish

kerak. Bilasanmi sen, – Garanja o‘rnidan turib, tishlarini g‘ijirlatdi, qo‘llarini cho‘zdi, – qudratli bo‘ron ko‘tariladi va hammasini supurib tashlaydi.

– Gapingga qaraganda, endi... hamma narsani ostin-ustun qilish kerak ekan-da?

– He! Hukumat degan narsani kir paytavaday uloqtirib tashlash kerak. Panlarning terisini shilish kerak, burunlaridan buloqi o‘tkazish kerak, nega desang ular xalqni qon qaqshatishdi.

– Yangi hukumat bo‘lgandan keyin urushni nima qilasan, xo‘sh? Baribir shu qirq-pichoq davom etadi, biz bo‘lmasak bolalarimiz qirilishadi. Urushni tiya oladigan narsa bormi? Urush azaldan bor, axir, buni qanday yo‘q qilish mumkin?

– Rost aytasan, urush azaldan bor, agar dunyoda shu qonxo‘rlar hukumati tugamasa, urush balosidan baribir qutulmaysan. Bildingmi? Har bir hukumat tepasida ishchilar turganda sirayam urush bo‘lmasdi. Ana shunga erishmoq kerak. Bunga, albatta, erishiladi, innaykeyin ko‘radi ko‘rgiligini bu onasi baytallar!.. Albatta! Girmonlardayam, paranglardayam – hamma yurtda ishchi-dehqon hukumati bo‘ladi. O‘shanda biz nimani talashib urushamiz? Chegara degan narsa bo‘lmaydi, adovat bo‘lmaydi. Butun dunyoda bitta hukumat, quling o‘rgilsin turmush bo‘ladi. Eh! – Garanja chuqur nafas oldi, mo‘ylov uchlarini tishlab, sog‘ ko‘zini chaqnatib, xayol ichida kulimsiradi. – Ey, Gritsko, o‘sha kunlarni bir ko‘rsam, o‘lsam armonim yo‘q edi... Shu orzu alangasi tun-u kun yurak-bag‘rimni yalaydi...

Ikkovlon gaplashib o‘tirib tong ottirdilar. Osmon g‘ira-shira yorishgan mahalda Grigoriy arang uyquga ketdi.

Ertalab u g‘ovur-g‘uvur va yig‘i ovozidan uyg‘ondi. Ivan Vrublevskiy mukka tushib yotgan joyida hiqillab yig‘lar, burnini tortardi; uni feldsher xotin, Yan Vareykis hamda Kosix o‘rab olishgan edi.

Burdin ko‘rpadan boshini chiqarib:

– U nega g‘inshiyapti? – deb so‘radi.

– Ko‘zini sindiribdi. Stakandan olayotib yerga tushirivoribdi, – achinish o‘rniga suyunib javob qildi Kosix.

O‘zi ruslashib ketgan, shisha ko‘z sotadigan savdogar nemis vatanparvarlik hissiyotiga berilib askarlarga o‘z molini tekin ulashardi. Bir kun oldin Vrublevskiyga nihoyatda nozik qilib ishlangan, xuddi o‘z ko‘ziga mos, chiroyli, havorang shisha ko‘z topib bergan edi. Bu ko‘z shu qadar mohirona ishlangan ediki, hatto, tikilib qaraganda ham o‘ziniki bilan sun’iy ko‘zni bir-biridan farq qilib bo‘lmasdi. Vrublevskiy shunga boladay suyunib, og‘zi qulog‘iga yetgan edi.

– Uyga qaytgandan keyin, – derdi u Vladimir uyezd shevasida, – xohlaganim qizni aldab uylanib olaman, ana innaykeyin bir ko‘zim shisha ekanini aytaman.

– Bu dog‘uliga aldash hech gapmas! – deb kuldi Burdin; bu askar doim: «Dunya bilan suvarak, suvarak yeb qo‘ygan ko‘ylak», deb ashula aytgani-aytgan edi.

Tasodifiy baxtsizlik kasridan shunday xushsurat yigit endi o‘z qishlog‘iga bir ko‘zi yo‘q badnom bo‘lib qaytadi!

– Boshqa ko‘z berishadi, bo‘kiraverma, – deb yupatmoqchi bo‘lardi uni Grigoriy.

Vrublevskiy boshini ko‘tardi: yig‘layverib qovog‘i shishgan, ko‘z o‘rni qip-qizil jarohat bo‘lib qolgan edi.

– Bermaydi. Bitta ko‘z uch yuz so‘m turadi. Bermaydi.

– Zab ko‘z edi-da! Har bir tomiri ustalik bilan chizilgan edi, – deb maqtardi Kosix.

Ertalabki choydan keyin Vrublevskiy feldsher ayol bilan do‘konga bordi, nemis unga boshqa ko‘z topib berdi.

– Biznikilardan ko‘ra nemislar yaxshi! – Vrublevskiy terisiga sig‘may ketgan edi. – Rus savdogari tekinga berib bo‘pti, anavi bir og‘iz indamadi ham.

Sentabr ham o‘tib ketdi. Kunlar sudralib, vaqt imillab o‘tadi. Kunlar shu qadar uzunki, odamning ichi pishib o‘lib bo‘ladi. Ertalab soat to‘qqizda choy ichiladi. Tushlikka har bir bemor uchun ikki burda yupqa kesilgan bo‘lka non bilan ozgina sariyog‘ beriladi, kasallar hech narsa ko‘rmaganday, och-nahor tarqalishadi. Kechqurun choy ichishadi, ustidan sovuq suv ko‘tarishadi. Bemorlar tez-tez kelib-ketib

turadi. «Harbiy palatadan» (yarador askarlar yotgan palataga kasallar shunday nom qo'ygan edilar) dastlab sibirlik askar Kosixga javob berildi, uning ketidan latish Vareykis jo'nadi. Oktabr oyining so'nggi kunlarida Grigoriyni ham kasalxonadan chiqarishdi.

Kasalxonaning xo'jayini – ko'rkam, soqoli dukatlangan doktor Snegiryov, Grigoriyning ko'zini sinchiklab ko'rdi. Qorong'i uyda yoruqqa tutilgan katta harf va raqamlarni Grigoriyga uzoqroqdan ko'rsatdi va ko'zini qanoatlanarli deb topdi. Uni Tverskaya ko'chasidagi gospitalga jo'natdilar, chunki boshidagi bitib ketgan yarasi to'satdan ochilib, biroz yiring boylagan edi. Grigoriy Garanja bilan xayrlashayotib:

– Yana ko'risharmikinmiz? – deb so'radi.

– Tog'-tog' bilan uchrashmaydi, odam...

– Xayr, xoxol, ko'zimni ochding, buning uchun rahmat. Endi oq bilan qorani ajrata olaman, yuragim to'la g'azab!..

– Polkingga borgandan keyin kazaklar bilan shu xususda gaplashib ko'rgin.

– Xo'p bo'ladi.

– Mabodo yo'ling tushib, Chernigovshchinadagi Goroxovki qishlog'idan o'tadigan bo'lsang, Andrey Garanja taqachiniki qaysi deb so'ragin, xursand bo'lib kutib olaman seni. Xayr endi, yigit!

Ikkisi quchoqlashib vidolashdi. Bir ko'zli jasur ukrainning qiyofasi, og'iz burchaklaridagi, shirmoy yuzlaridagi yoqimli ajinlari Grigoriyning xotirida umrbod qoldi.

Grigoriy gospitalda bir yarim haftacha yotdi. Uning qalbida hali ma'lum bir shaklga kirmagan fikrlar qaynab-toshar, Garanja aytgan gaplar yuragini o'rtardi. Palatadagi qo'shnilari bilan kam gaplashar, uning butun harakatlaridan tashvishga tushgani, sarosimalikda qolgani sezilib turardi. Gospital mudiri Grigoriyni qabul qilayotgan vaqtda uning ruslarnikiga o'xshamagan aftiga bir qaragandayoq, «Besaranjom» deb nom bergan edi.

Dastlabki kunlari Grigoriy isitmaning haroratidan quloqlarining tinmay shang'illashini tinglab karavotda qo'zg'almay yotardi.

Ana shu vaqtda quyidagi hodisa yuz berdi:

Voronejdan poyezdda qaytib kelayotgan imperator xonadonidan bir zot gospitalga tashrif etmoqchi bo‘ldi. Bu to‘g‘rida xabardor qilingan gospital vrachlari ertalabdan beri oyog‘i kuygan tovuq-day yugurishardi. Yaradorlarni yasantirishdi; ularni bezovta qilib to‘shak, choyshablarini navbatdan ilgari yangiladilar, hatto kichik vrach ul zotga qay xilda javob berish va uning huzurida o‘zini qan-day tutish kerakligini o‘rgatmoqchi ham bo‘ldi. Yaradorlar ham esankirab qoldilar: ba’zilari eldan burun shivirlab gapira boshladi. Qoq tush paytida zinapoya tomondan avtomobilning dudugi eshitildi, so‘ngra, bir gala mulozimlarni ergashtirib zoti oliy lang ochiq eshik-dan kirib keldi. (Yaradorlar orasida eng sho‘x va askiyachi bir yigit keyinchalik o‘rtoqlariga: «Nomdor mehmonlar kelgan mahalda gos-pitalning qizil krest suratli bayrog‘i, shamol bo‘lmasa ham o‘zidan o‘zi hilpillab ketdi, hatto ko‘chaning narigi betidagi sartaroshxona peshtoqidan qarab turgan jingalaksoch, olifta erkakning rasmi ta’zim qildi» deb rosa kuldirdi). «Zoti oliy» palatalarni birma-bir ko‘rib chiqa boshladi. U o‘z sha’n-shavkatiga hamda ayni sharoitga yarasha bachkana savollar berardi; yaradorlar esa mladshiy vrach-ning maslahatiga muvofiq, safda o‘rgatilganidan ham kattaroq qilib ko‘zlarini yirib: «Xuddi shunday, janobi imperator hazrat oliylari» yoki «Aslo yo‘q, janobi imperator janob oliylari», deb javob qili-shardi. Gospital mudiri har qaysi javobga izoh berib borar, ammo lekin har gapida panshahaga sanchilgan ilonday buralib-eshilib turardi, hatto olisdan qaralganda ham, avzoyiga kishining rahmi kelardi. Shohona zot karavotdan karavotga o‘tib ikonalar ulashib yurardi. Bir gala yarqillagan mundirlar va qimmatbaho atirlarning gupillagan hidi Grigoriyning ustiga bosib kelaverdi. Soqoli olin-magan, ozib ketgan, ko‘zlari qizargan Grigoriy o‘z karavoti yonida turardi, lip-lip uchib turgan sarimag‘iz yuzi, g‘azablanganini bil-dirardi.

«Mana shularning xursandchiligi uchun bizlarni kindigimiz qoni to‘kilgan uy-joyimizdan judo qilib ajal og‘ziga tashladilar. Xah, ajdaholar! Ablahlar! Yalmog‘izlar! Yelkalarimizni talab yotgan bitlar – mana shular!.. Hali biz, mana shu iflos uchun birovlar-

ning ekinzorini otga toptatib, birovlarni nohaq o'ldirib yuribmizmi? Bug'doyzor ichida emaklab baqirganlarim-chi? Ajal vahimalari-chi? Oilamizdan judo qildilar, kazarmalarga qamab sarg'aytirdilar...» – degan xayol Grigoriyning miyasini o'yar edi. G'azabidan og'zi ko'pirib, lablari qiyshaygan edi. «Hammasi to'q, tirsillagan, yilt-yilt qiladi. Ming la'nat sizlarga! O'sha yoqqa sizni yuborish keraq! Otga mindirib, miltiq tutqizib, bitlarga yem qilish kerak sizlarni, achigan non, qurtlagan go'sht yedirish kerak!..»

Grigoriy serpardoz, olifta ofitserlarni ko'zi bilan yeb qo'yguday bo'lar, xiralashgan ko'zlarini shohona zotning lattaday shalvillagan betlariga tikardi.

Mudir ikki bukilib «zot»ga Grigoriyni ko'rsatdi-da:

– Donlik kazak, Georgiy krestining kavaleri, – deb taqdim etdi, lekin ovozi shu qadar jaranglab ketdiki, ordenni go'yo o'zi olgan deb gumon qilish mumkin edi.

– Qaysi stanitsadan? – deb so'radi zot, qo'lidagi ikonani bermoqchi bo'lib.

– Vyoshenskayadan, imperator hazrat oliylari.

– Krestni qaysi xizmating uchun olgansan? – Zotning yiltiragan ma'nosiz ko'zlarida zerikishlik, to'yganlik alomatlari ko'rinar edi. U sarg'ish chap qoshini hadeb ko'taraverishga o'rganib qolgan va bu odat zotning aftini ma'nodor qilib ko'rsatardi. Grigoriy ko'kragini muzdek ter bosganini, sanchiq turganini sezdi; bunday hodisa hujumning dastlabki daqiqalarida ro'y berardi. Uning lablari borgan sari qiyshayib, pirpirab ucha boshladi.

– Men... Mumkin bo'lsa... yozilib olsam, janob imperator... juda qistab qoldi... – Grigoriy beli singan odamday bukchayib, karavot ostini qo'li bilan ko'rsatar edi.

Zotning chap qoshi dikkayib, ikona uzatgan qo'li yarim yo'lda qoldi. U hayron bo'ldi, do'rdoq lablarini osiltirdi va yonidagi oq sochli generalga burilib ingliz tilida bir nima dedi, mulozimlarning o'ng'aysizlanib qolganliklari bilinib turardi: ko'kragiga zarbof bog'ich taqqan novcha ofitser oq qo'lqop kiygan qo'li bilan ko'zini ishqalaganday bo'ldi, ikkinchisi boshini quyi soldi, uchinchisi savol

nazari bilan to'rtinchisining basharasiga qaradi... Keksa general ingliz tilida hazrat oliylariga allanimalar dedi, shundan so'ng «zot» marhamat etib, Grigoriyning qo'liga ikonani tutqizdi, hattoki iltifot ko'rsatib uning kiftiga qo'lini qo'ydi.

Oliy maqom mehmonlar jo'nab ketgandan keyin Grigoriy o'zini karavotga tashladi. Boshini yostiqqa qo'yib, kiftlari pir-pir uchib, bir necha vaqtgacha yotdi; na yig'layotganini va na kulayotganini bilib bo'lmasdi, biroq boshini ko'targanda ko'zlari quruq, chehrasi ochiq edi. O'sha zahotiyoq gospital mudiri uni kabinetga chaqirtirdi.

– Sen, ablah ekansan!.. – deb boshladi mudir, tullagan quyon juniga o'xshash soqolini tutamlab.

– Men sen aytgan ablah odamlardan emasman, iflos! – dedi Grigoriy va osti jag'ini osiltirib doktor ustiga bostirib bordi. – Frontda qorangizni ko'rsatmaysiz! – So'ngra o'zini bosib oldi-da: – Meni uyga jo'nating! – dedi.

Doktor tislana-tislana yozuv stolining narigi tomoniga o'tib oldi va muloyimroq qilib:

– Jo'natamiz. Qorang o'chsin! – dedi.

Kulgisi qistagan Grigoriy ko'zlarini ola-kula qilib kabinetdan chiqdi.

Zoti oliy huzurida qilgan xunuk qilig'i, kechirilmaydigan adabsizligi uchun gospital ma'muriyati Grigoriyni uch sutka ovqatdan mahrum qildi. Uni palatadagi o'rtoqlari bilan churrasi tushgan rahmdil oshpaz boqib turishdi.

## XXIV

4-noyabrga o'tar kechasi Grigoriy Melexov stansiyaga eng yaqin bo'lgan Nijne-Yablonovskiy qishlog'iga kirib bordi. Bu qishloq Vyoshenskaya stanitsasiga qarashli edi. Yagodnoye qo'rg'oniga dovur o'nlab chaqirim yo'l yurish kerak edi. Grigoriy onda-sonda bir uchraydigan qo'ralar yonidan o'tib kelar, itlar hurar edi; daryoning narigi betidagi tolzor orasida ashula aytayotgan yoshlarning ovozi eshitilardi:

*O'rmonzorning ortida nayza yalt-yult qiladi:*
*Mo'ylov qo'ygan yuz kazak ot choptirib keladi;*
*Eng oldinda navqiron, dovyurakli ofitser*
*Yuz kazakka hayqirib: «Birodarlar, olg'a!» der.*

Ovozi o'tkir yakkaxon tenor ashulachi avjiga chiqadi:

*Hoy, azamat yigitlar, o'qday uchib boringlar!*

Bir-biriga mos tushgan hamovoz yigitlar baravar ko'tarishadi:

*Shu ko'ringan qal'ani qamal qilib olinglar!*
*Kimki oldin ot solib, yetib borsa marraga,*
*Oltin krest oladi, bosh bo'ladi hammaga.*

Qadimdan qolgan bu kazaklar qo'shig'i Grigoriyning qulog'iga issiq kirdi, bu qo'shiqni bir vaqtlar ko'p aytgan, so'zlari ham unga juda tanish edi. Muzday tomchilar ko'zlarini achitar, o'pkasi to'lib, entikardi. Uy mo'rilaridan buruqsib chiqqan achchiq tezak tutunlarini Grigoriy ishtiyoq bilan hidlab, qishloq ichidan o'tib borardi, – ashula sadosi hamon qulog'iga kelib turardi:

*Qal'alarni biz qurshab, qamal qilib olgan on*
*Tepamizdan o'q yog'ib arilardek chaqadi.*
*Don kazagi ajalni pisand qilmas hech qachon,*
*Nayza bilan sanchadi, qilich bilan chopadi.*

«O'spirinlik vaqtimda men ham ashulani yaxshi aytar edim, endi ovozim buzildi, ashulam tamom bo'ldi. Mana, borarga joyim, turarga uyim yo'q, och qolgan bo'ri singari daydib yuribman, birovning xotini yoniga panoh izlab boryapman...» – degan xayollar ichida Grigoriy bir maromda horg'in qadam tashlar, umri bunchalik bema'ni o'tganiga alam qilib, achchiq kulardi. Qishloqdan o'tib tepalikning yon bag'riga chiqdi, so'ngra ketiga burilib qaradi: eng chekkadagi uyning derazasidan shipga osig'liq lampaning sarg'ish yorug'i tushib turar, deraza yonida bir kampir urchuq yigirib o'tirardi.

Grigoriy yo'ldan chetga chiqib, sovuqda muzlab qolgan o'tlar ustidan yurib ketdi. Ertasiga tong yorishganda Yagodnoyega yetib olish maqsadida, Chir bo'yidagi birinchi qishloqda tunashga qaror qildi. Yarim kechadan oqqanda Grachev qishlog'iga kirib keldi va eng chekkadagi qo'rada tunadi; kun yorishgan mahalda yo'lga chiqdi.

Kechasi Yagodnoyega yetib keldi. Kishi bilmas, sekin-asta devordan oshib tushdi-da, otxona yonidan o'tdi, ichkarida Sashka boboning o'ho'lab yo'talgani eshitilardi. Grigoriy to'xtadi-da:

– Sashka bobo, uyg'oqmisiz? – deb chaqirdi.

– To'xta-chi, kimsan o'zing? Ovozi tanish... Kim bo'ldi ekan?

Sashka bobo chakmonini yopinib tashqariga chiqdi.

– Xudoyo tavba! Grishka! Qaysi shamol uchirdi seni-a? Ana, xolos!

Ikkisi quchoqlashib ko'rishdi. Sashka bobo Grigoriyning ko'ziga yer ostidan qarab:

– Ichkari kir, chekishamiz, – dedi.

– Yo'q, ertaga kirarman. Boray.

– Kir deyapman senga.

Grigoriy istar-istamas bo'ysundi. U taxta karavotning bir chetiga o'tirdi, Sashka bobo yo'talib bo'lguncha qarab turdi.

– Xo'sh, bobo, tirikmisiz? Qimirlab yuribsizmi?

– Qimirlab turibman. Men – miltiqdayman, hali-beri to'zmayman.

– Aksinya-chi?

– Aksinya baloday... Aksinya yuribdi, xudoga shukur.

Bobo zo'rma-zo'raki yo'taldi. Grigoriy uning jo'rttaga yo'talganini, o'z xijolatini yashirmoqchi bo'layotganini payqadi.

– Tanyushkani qayerga ko'mdinglar?

– Bog'dagi terak tagiga.

– Xo'sh, gapiring.

– Yo'tal meni juda abgor qildi, Grisha.

– Be!

– Hamma sog'-salomat. Pan ichkilikka berilib ketdi... Ichadi xolos, esi yo'q-da, ichkilikdan boshini ko'tarmaydi.

– Aksinya qalay?

– Aksinyami? Hozir uy xizmatchisi bo‘lib yuribdi.

– Eshitganman.

– Tamaki o‘rab cheksang-chi! A? Chekib ko‘r, o‘ziyam tamakimisan-tamaki-da!

– Istamayman. Gapirasizmi yoki turib ketaymi? Sezib turibman, – Grigoriy qimirlab unga tomon o‘girildi, ostidagi taxta karavot qisirlab ketdi, – sezib turibman, allaqanday bir gapni mendan yashiryapsiz, qo‘yniga tosh solib olgan odamday. Uradigan bo‘lsangiz, uring.

– Uraman!

– Uring.

– Uraman. Aytsam tilim kuyadi, Grisha, aytmasam dilim.

– Bemalol aytavering, – deb yolvordi Grigoriy va toshday og‘irlashgan qo‘lini boboning kiftiga muloyimgina qo‘ydi. U bukchayib cholning gapirishini kutar edi.

Sashka bobo birdaniga chiyillab:

– Qo‘yningda ilon asrab yurgan ekansan! – dedi. Uning qo‘llari beso‘naqay kerilib ketdi. – Ilon boqib yurganingni bilmabsan, bola! Aksinya Yevgeniy bilan o‘ynash tutindi! Mana ahvol!

Cholning labidagi qip-qizil tirtig‘idan iyagi ustiga yelimday tupuk oqib tushdi. Bobo uni serpib tashladi-da, kaftini bo‘z ishtoniga artdi.

– Rostmi?

– O‘zim ko‘rdim. Har kecha Yevgeniy o‘shaning yonida. Borib qara, hozir ham o‘sha yerda bo‘lsa, ajab emas.

– Hah-ha, shunaqa deng... – Grigoriy panjalarini qisirlatdi va lip-lip uchib turgan betlarini silab, ancha vaqtgacha bukchayib o‘tirdi. Quloqlari qattiq shing‘illar edi.

– Xotin zoti mushukday narsa: kim silab-siypasa, o‘shaning quli. Sen unga inonma, zinhor inona ko‘rma! – dedi Sashka bobo.

Chol tamaki o‘rab tutatdi-da, uni Grigoriyning qo‘liga tutqizdi.

– Chekib ol.

Grigoriy ikki marta tortib papirosni barmog‘i bilan ezib o‘chirdi. Indamay tashqariga chiqdi. Qarollar turadigan uyning derazasi oldida to‘xtadi; tez-tez va chuqur nafas olardi, derazani taqillatmoqchi

bo‘lib bir necha marta qo‘lini ko‘tardi, biroq qo‘li singanday, shilq etib tushib ketardi. Nihoyat, barmog‘ini bukib oldin sekinroq taqillatdi, so‘ngra o‘zini tutolmay, ko‘kragini devorga tirab jon-jahdi bilan romni mushtlay boshladi. Deraza chaspaklari qimirlar, oynalari dirillar, unda g‘ira-shira tunning ko‘kish nuri aks etardi.

Ichkarida Aksinyaning vahima bosgan yuzi lip etib ko‘rinib ketdi. U eshikni ochdi-da, chinqirib yubordi. Grigoriy uni shu dahlizdayoq bag‘riga bosdi, ko‘zlariga tikilib qaradi.

– Taqillatganingni bilmabman, qattiq uxlagan ekanman... Hech kutmagan edim... Jonginam!

– Juda sovqotdim.

Aksinya, Grigoriyning barvasta gavdasi dag‘-dag‘ titrab turganini sezdi, qo‘llari olovdek edi. Aksinya haddan ziyoda shoshib qolgan edi, darhol lampani yoqdi, oppoq momiqday yelkasiga tivit ro‘molini tashlab olib uyni gir aylanar, pechga o‘t qalardi.

– Kutmovdim-a... Ko‘pdan beri xat yozmaysan... Hali-beri kelmassan deb o‘ylovdim... So‘nggi xatimni oldingmi? Senga sovg‘a yubormoqchi edim, lekin biroz sabr qilay-chi, oldin xati kelsin, keyin yuborarman deb o‘ylanib qoldim...

Aksinya ahyon-ahyonda Grigoriyga bir qarab qo‘yar, qip-qizil lablarida tabassum qotib qolgan edi.

Grigoriy shinelini yechmasdan kursida o‘tirardi. Soqol bosgan betlari o‘tday yonar, yerga qaragan ko‘zlari ustiga boshlig‘ining soyasi tushib turardi. Oldin boshlig‘ini ochmoqchi bo‘lib bir urindi-yu, lekin to‘satdan bezovtalanib tamaki xaltasini oldi, cho‘ntagini kavlab qog‘oz axtara boshladi. Aksinyaning yuziga bir qaradi-yu, yuragiga o‘t ketdi.

Grigoriy ketgandan beri u nihoyatda yetilib, husniga-husn qo‘shilgan edi.

Boshini tutishida allaqanday yangi va amirona holat paydo bo‘lgan, faqat halqa-halqa jingalak sochlari va ko‘zlari ilgarigiday edi... Biroq bu shahlo ko‘zli, jonso‘z go‘zal endi Grigoriyniki emasda... Bo‘lmasa-chi, panning o‘g‘li turganda uni boshiga uradimi?.. Hozir u Yevgeniyning ma’shuqasi.

– Sen... oqsochga sira o‘xshamaysan, uy bekasining xuddi o‘zginasi bo‘psan.

Aksinya qo‘rqa-pisa bir boqdi-yu, zo‘rma-zo‘raki kuldi.

Grigoriy, sumkasini sudrab eshik tomon yurdi.

– Qayoqqa?

– Tashqari chiqib tamaki chekaman.

– Ketmay tur, quymoq pishdi.

– Hozir kelaman.

Grigoriy zinapoyaga chiqqach, soldatcha sumkasining tagidan toza ko‘ylagiga yaxshilab o‘rab qo‘yilgan guldor ro‘molni oldi. Buni u Jitomirda bir yahudiy savdogardan ikki so‘mga sotib olgan va ko‘z qorachig‘iday asrab kelgan edi, poxod mahallarida uni olib ko‘rar va kamalakday rang-barang gullarini zavqlanib tomosha qilar, uyga qaytganida bu jimjimador ro‘molini Aksinya oldiga yozib qo‘yishini, o‘shanda Aksinyaning suyunib, boshi osmonga yetishini ko‘z oldiga keltirardi. Shuyam sovg‘ami? Yuqori Dondagi eng boy zamindor o‘g‘lining sovg‘alari oldida Grigoriy keltirgan matoning nima qiymati bor? Grigoriyning xo‘rligi kelib yig‘lab yuborishiga sal qoldi; ro‘molni burda-burda qilib yirtdi-da, zinapoya ostiga tiqdi. Sumkasini o‘rindiq ustiga uloqtirib uyga kirdi.

– O‘tir, Grisha, etigingni tortib qo‘yay. Aksinya, ishlashni unutgan oppoq qo‘llari bilan Grigoriyning harbiycha qo‘pol etigini tortdi, so‘ngra, uning tizzasiga yuzini qo‘yib anchagacha yum-yum yig‘ladi. U yig‘lab ichini bo‘shatguncha Grigoriy indamadi, nihoyat:

– Nega yig‘laysan? Yoki kelganimga xursand emasmisan? – deb so‘radi.

Grigoriy boshini qo‘yar-qo‘ymas uyquga ketdi. Aksinya ko‘ylakchan, boshyalang holda zinapoyaga chiqdi va nam tortgan ustunni quchoqlaganicha, izg‘irinda, uli tortgan shamolning yig‘i-sig‘isi ostida qimir etmay oppoq tong ottirdi.

Ertalab Grigoriy shinelini kiydi-da, panning uyiga qarab ketdi. Egniga nimcha po‘stin, boshiga sarg‘ayib ketgan qorako‘l papax kiygan keksa pan zinapoyada turar edi.

– Ana, Georgiy krestining kavaleri. Eh-he, rosa yetilibsan, uka!

Grigoriyga chest berib, qo'lini uzatdi.

– Hali-beri ketmassan?

– Ikki hafta turaman, janobi oliy.

– Qizingni ham ko'mdik... esiz, esiz...

Grigoriy churq etmadi. Yevgeniy yo'l-yo'lakay qo'liga qo'lqop kiyib, zinapoyaga chiqdi.

– Grigoriy? Qayoqlardan so'ray?

Grigoriyning ko'z oldi qorong'ilashib ketdi, lekin kulimsirab:

– Moskvadan, ta'tilga keldim... – dedi.

– Shunday degin. Ko'zingdan yarador bo'ldingmi?

– Ha.

– Eshitdim. Rosa azamat yigit bo'ptimi, dada? – Yuzboshi bosh irg'ab Grigoriyni imlab ko'rsatdi, so'ngra otxona tomon burilib qaradi. – Nikitich, otlarni keltir!

Nikitich eran-qaran izvoshni qo'shib bo'ldi-da, Grigoriyni yeb qo'yguday xo'mrayib, qarigan ko'k yo'rg'ani zinapoya oldiga yetaklab keldi. Yengil izvoshning g'ildiraklari beti muzlab qolgan loyni ezib, qasira-qusur sindirardi.

Grigoriy xushomadgo'ylik bilan iljayib, yuzboshiga murojaat qildi:

– Janobi oliy, ruxsat eting, sizni qadimgiday bir aylantirib kelsam!

«Hech narsadan xabari yo'q, bechora», – deb o'yladi Yevgeniy kulimsirab; pensne ostida uning ko'zlari chaqnab ketdi.

– Ha, mayli, aylanib kelsak-kelaylik.

– Bu nimasi, kelmay turib xotiningni tashlab ketmoqchimisan? Sog'inmadingmi, axir? – Keksa pan lutfan iljayib qo'ydi.

Grigoriy kuldi.

– Xotinni jin urmaydi, men kelguncha qochib ketmas.

U, izvosh oldiga chiqib oldi; qamchini o'tirg'ich ostiga tiqib qo'ydi-da, tizginlarni to'g'riladi.

– Eh, Yevgeniy Nikolayevich, sizni bir sayr qildirib kelay!

– Sayr qildirib kel, choychaqa olasan.

– Sizdan nihoyatda minnatdormiz. Shunchaligigayam rahmat, Aksinyamni... boqyapsiz... yediryapsiz... ichiryapsiz... shuyam katta gap.

Grigoriy tutilib-tutilib gapirganidan yuzboshining ko'nglida shubha uyg'ondi: «Nahotki payqagan bo'lsa? Yo'q, bo'lmagan gap! Qayoqdan biladi? Hech mumkin emas». U izvoshga yaslanib o'tirib oldi-da, papiros tutatdi.

Keksa pan ularning orqasidan:

– Tezroq qaytinglar! – deb baqirib qoldi.

G'ildiraklar ostidan qor-u muz parchalari sachrab ketdi.

Grigoriy tizginni qattiq tortib, yo'rg'a otning jag'larini yirib, o'qday uchirib ketdi. Chorak soat ichida ular do'ngdan oshib o'tib ketdilar. Soylikka yetgandan keyin Grigoriy izvoshdan sakrab tushdi-da, o'tirg'ich ostidan qamchini sug'urib oldi.

– Nima qilmoqchisan?.. – Yuzboshi xo'mraydi.

– Mana, nima qilmoqchiman!

Grigoriy qamchini bir siltadi-yu, bor kuchi bilan yuzboshining basharasiga solib qoldi. Qamchinni buklab olib, dastasi bilan yuziga, qo'llariga tushiraverdi, yuzboshini ko'z ochgani qo'ymadi. Pensne sinib ketib, bir parchasi qoshining ustrog'iga kirib ketgan, ko'zlariga tirqirab qon oqar edi. Oldin yuzboshi qo'llari bilan yuzini to'sib ko'rdi, biroq kaltak ustma-ust kelib tushaverdi. Yuzlari dabdala bo'lgan Yevgeniy irg'ib turdi-da, jon-jahdi bilan o'zini himoya qila boshladi, biroq Grigoriy tislanib turib, bilagiga qarab urdi va o'ng qo'lini ishdan chiqardi.

– Aksinya uchun! O'zim uchun! Aksinya uchun! Bunisiyam Aksinya uchun! Mana, bunisi men uchun!

Qamchi vizillar, har urganda chippa-chippa yopishar edi. So'ngra, musht solib qatqaloq yo'l ustiga yiqitdi va yerga bulg'alab rosa savaladi, poshnasiga nag'al qoqilgan harbiycha etigi bilan o'lasi qilib tepkiladi. Darmoni qurigandan keyin, izvoshga o'tirib otni haydadi, o'lganiga qaramay, otlarni rosa choptirdi. Izvoshni

darvoza oldida qoldirdi-da, tugmalanmagan shinelining barlariga o‘ralishib, qamchini mahkam changallab qarollar turadigan uyga chopib kirdi.

Eshik taraqlab ochilib ketganini eshitgan Aksinya burilib qaradi.

– Mochag‘ar!.. Qanjiq!..

Qamchi vizillab Aksinyaning yuziga chirmashdi.

Grigoriy halloslaganicha hovliga chopib chiqdi: Sashka boboning savollariga javob bermay, qo‘radan chiqib jo‘nadi. Bir yarim chaqirim yo‘l bosgandan keyin Aksinya uning ketidan yetib bordi.

Aksinya entikib, harsillab nafas olar, Grigoriyning yonida borar va o‘qtin-o‘qtin uni qo‘lidan tortardi.

Chorrahadagi kichkinagina, qorayib ketgan cherkovcha yonida u begona ovoz bilan:

– Grisha, kechirgin! – deb yalindi.

Grigoriy tishini g‘ijirlatib, bo‘ynini qisib, shinel yoqasini ko‘tarib oldi.

Aksinya cherkovchaning narigi yog‘ida qolib ketdi. Grigoriy biron marta burilib qaramadi, Aksinyaning cho‘zgan qo‘llarini ko‘rmadi.

Tog‘dan oshib Tatarsk qishlog‘iga tushayotganida qo‘lidagi qamchini ko‘rib taajjublandi, uni uloqtirib tashladi-da, qadamini katta-katta qo‘yib, tor ko‘chaga kirib ketdi.

Odamlar derazadan qarashar, uni ko‘rib hayron bo‘lishar, ko‘chada uchragan ayollar salom qilishardi.

O‘z qo‘rasining darvozasi yonida xipchadan kelgan, qora ko‘z suluv qiz chinqirganicha chopib kelib, uning bo‘yniga osilvoldi. Grigoriy ikki qo‘li bilan uning yuzini qisib, boshini ko‘tardi-yu, Dunyashkani tanidi.

Zinapoya tomondan Panteley Prokofyevich oqsoqlanib kelar, ichkarida ona ho‘ngrab yig‘lardi. Grigoriy so‘l qo‘li bilan dadasini quchoqladi, uning o‘ng qo‘lini Dunyasha o‘par edi.

Zina bosqichlari qadimgiday g‘ichirlab ketdi, bu tanish ovozdan Grigoriyning yuragi orziqib ketdi. Keksaygan ona sho‘rlik qiz bo-

laday chopib kelib o‘g‘lini mahkam quchoqlab oldi, shinel yoqasini ko‘z yoshi bilan ho‘lladi; u o‘zicha allanimalarni deb chuldirar, nima deganini so‘z bilan ifodalab bo‘lmasdi; dahlizda bo‘lsa yiqilib ketmaslik uchun eshikka mahkam yopishib olgan, rangi o‘chgan, g‘alati qilib kulimsiragan Natalya turar edi. U ko‘zlari javdiragan Grigoriyning bir qarashiga bardosh berolmay, oyoqlari qaltirab yiqilib keta yozdi.

* * *

Kechasi Panteley Prokoyevich Ilinichnaning biqiniga turtib shivirlardi:

– Sekin borib qaragin-chi, billa yotishibdimi, yo‘qmi?

– Men ikkisiga karavotga joy solib bergan edim.

– Turib qarasang-chi, axir, bir qara! Ilinichna mehmonxona eshigining tirqishidan mo‘ralab qaradi-da, qaytib keldi.

– Billa yotishibdi.

– Uh, hayriyat! Xudoga shukur! – Chol tirsagiga suyanib turib, ustma-ust cho‘qinar, o‘pkasi to‘lib hiqqillardi.

# MUNDARIJA

*BIRINCHI QISM*.....3
*IKKINCHI QISM*.....118
*UCHINCHI QISM*.....251

*Adabiy-badiiy nashr*

***Mixail Aleksandrovich SHOLOXOV***

# TINCH DON

To'rt kitobli roman

*Birinchi kitob*

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*

Nashrga tayyorlovchi *A. Boboniyozov*

Tarjimon O. Sharapov

Muharrir *Sh. Beknazarova*
Rassom *B. Zufarov*
Badiiy muharrir *B. Zufarov*
Texnik muharrir *L. Xijova*
Kichik muharrir *M. Salimova*
Musahhih *G. Pattohova*
Kompyuterda tayyorlovchi *K. Xamidullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 17-fevralda ruxsat etildi.
Bichimi 60×90 1/16. Ofset qog'ozi. «New Roman» garniturasida
ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 27,5.
Nashr tabog'i 25,74. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 20-488.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.
www.iptd-uzbekistan.uz

**Sholoxov M.A.**

Sh 76 Tinch don [Matn] : roman, 1-kitob. / M.A.Sholoxov. – «O'zbekiston» NMIU, 2021. 440 b.

ISBN 978-9943-6583-3-2

**UO'K 821.161.1-31**
**KBK 84(2Ros-Rus)**

28 145, 10

# M.A. SHOLOXOV

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-6583-3-2
9 789943 658332